

O'ZBEKISTONNING ENG YANGI TARIXI



D A R S L I K

94(575.1)
Y-33

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR
VAZIRLIGI

O‘ZBEKISTONNING ENG YANGI TARIXI

(OLIIY O‘QUV YURTLARI NOMUTAXASSIS
FAKULTETLARI UCHUN)

DARSLIK



Toshkent
«Mehr-nuri nashriyoti»
2024

UO‘K 94(575.1)(075.8)

KBK 63.3(50‘)ya73

O*-33

O‘zbekistonning eng yangi tarixi [Matn]: darslik /
R.H. Murtazayeva, K.D. Saipova, A.A. Odilov,
A.A. Ermetov. – Toshkent: «Mehr-nuri nashriyoti», 2024.
– 408 b.

Mazkur o‘quv adabiyoti O‘zbekistonning mustaqillik davrida sodir bo‘lgan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va ma‘naviy-ma‘rifiy jarayonlar hamda o‘zgarishlarni, ushbu davrda ro‘y bergan tarixiy voqeliklarni bevosita qamrab olgan. Ushbu darslik respublikada yuqorida nomi qayd etilgan fan bo‘yicha ilk bora tayyorlanib o‘quvchi e‘tiboriga havola qilinmoqda. Unda fan yuzasidan amalga oshirilgan innovatsiyalar, ilmiy tadqiqot xulosalari bevosita o‘rin olgan.

Muharrirlar: t.f.d., prof. R.H.Murtazayeva,
t.f.d., prof. A.A.Ermetov,
t.f.d., prof. v.b. K.D. Saipova,
t.f.n. dots. A.A.Odilov.

Taqrizchilar: t.f.d., prof. D.B.Bobojonova,
t.f.d., prof. X.E.Yunusova.

**Tuzuvchi
mualliflar:** t.f.d., prof. R.H.Murtazayeva,
t.f.d., prof. v.b. K.D.Saipova,
t.f.d., prof. A.A.Ermetov,
t.f.d., prof. D.H. Inoyatova
t.f.n. dots. A.A.Odilov,
t.f.f.d. dots. v.b.R.Xomitov,
t.f.f.d. dots. O.Alimardonov,
t.f.f.d. dots. A.Insopov,
t.f.n. dots. S.N.Atadjanova,
t.f.n. dots. T.I.Doroshenko,
t.f.f.d. H.Olimjonov,
o‘q. J.Karimjonov.

ISBN 978-9910-8801-4-8

© «Mehr-nuri nashriyoti», 2024.

© R.H. Murtazayeva va boshq.

MUNDARIJA

Kirish.....	4
1-mavzu. “O‘zbekistonning eng yangi tarixi” o‘quv fanining predmeti, maqsadi va vazifalari, nazariy-metodologik tamoyillari	7
2-mavzu. O‘zbekistonda mustaqillik g‘oyalarining tarixiy asoslari	29
3-mavzu. Mustaqillikka erishish arafasida O‘zbekistondagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar.....	79
4-mavzu. Mustaqil O‘zbekiston Respublikasining tashkil topishi va uning tarixiy ahamiyati. O‘zbekistonning o‘ziga xos istiqlol va taraqqiyot yo‘li	111
5-mavzu. O‘zbekistonda demokratik, fuqarolik jamiyati asoslarining shakllanishi, amalga oshirilgan siyosiy islohotlar	141
6-mavzu. Iqtisodiy islohotlar, xususiy mulkchilikning shakllanishi. O‘zbekistonda bozor munosabatlarining rivojlanishi.....	187
7-mavzu. O‘zbekiston Respublikasidagi ijtimoiy o‘zgarishlar.....	217
8-mavzu. Mustaqillik yillarida O‘zbekistondagi ma’naviy va madaniy taraqqiyot	235
9-mavzu. O‘zbekiston Respublikasida ta’lim sohasida amalga oshirilgan islohotlar	259
10-mavzu. O‘zbekiston va jahon hamjamiyati	293
11-mavzu. Yangi O‘zbekiston ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotida ro‘y berayotgan o‘zgarishlarning xalqaro reyting va indekslarda aks etishi.....	356
12-mavzu. Yangi O‘zbekistonda Prezident Sh.M.Mirziyoyev rahbarligi va tashabbusi ostida amalga oshirilayotgan islohotlar	372
13-mavzu. Yangi O‘zbekistonda xalqchil va insonparvar davlat qurishning ijtimoiy-siyosiy ahamiyati.....	391

KIRISH

“Milliy tarixni milliy ruh bilan yaratish kerak. Aks holda uning tarbiyaviy ta'siri bo'lmaydi. Biz yoshlarimizni tarixdan saboq olish, xulosa chiqarishga o'rgatishimiz, ularni tarix ilmi, tarixiy tafakkur bilan qurollantirishimiz zarur”.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev

Ko'p ming yillik davlatchilik tarixi, boy madaniyat va ma'naviyatiga ega, jahon sivilizatsiyasi taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shgan o'zbek xalqi hayotida mustaqillik davri tom ma'noda ma'naviy yangilanish jabhasini boshlab berdi. O'zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy hayotining barcha sohalarida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar, ma'naviy yangilanishlar bois mamlakatimiz XXI asrda milliy tiklanishdan milliy yuksalish tomon yo'l oldi.

Globallashuv asri bo'lmish XXI asr, bir tomondan, umuminsoniy qadriyatlarni oldingi o'ringa chiqishi, intellektual salohiyat ijtimoiy hayot mezonini belgilovchi darajaga aylanishi, informatsion texnologiyalar taraqqiy etishi bilan izohlansa, ikkinchi tomondan, umumjahon miqyosidagi ma'naviy tahdidlar, “ommaviy madaniyat”ni keng xalq ommasi, ayniqsa, yoshlar ongiga singdirish, ta'lim-tarbiya sohasida salbiy illatlarning ildiz otishiga sabab bo'layotgan asr hisoblanadi. Shu bois ham Prezident Sh.M.Mirziyoyev bu masalaga global tarzda yondashib, o'zining BMT Bosh Assambleyasining 2017-yil sentabrda bo'lib o'tgan 72-sessiyasidagi nutqida alohida to'xtalib, o'sib kelayotgan avlodni, avvalo, ma'rifiy savodxonlik ruhida tarbiyalash masalasiga alohida urg'u berdi.

Shuning uchun ham hozirgi kunda o'sib kelayotgan avlodning ongi va tafakkurini salbiy illatlardan himoya qilish ma'nosida ularda ma'naviy immunitetni hosil qilish, yoshlarning ongiga ajdodlarimizdan meros bo'lib qolgan azaliy qadriyatlar – ezgulik, odamiylik, bag'rikenglik, mehr-muhabbat, vatanparvarlik, yurtga sadoqat ruhini singdirishda tarix fanining o'rni beqiyosdir. Aynan Vatan tarixini anglash orqali o'sib kelayotgan avlod nafaqat shonli o'tmish tarixini, balki istiqloqlarning tom mazmunini, uning

mamlakatimiz istiqboliga qaratilgan siyosati mohiyatini yanada teran tushunib yetadilar.

Mustaqillikning o'tgan yillarida respublika tarixchi olimlari tomonidan katta ahamiyatga molik, dolzarb mavzularga bag'ishlangan ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirildi, qator o'quv adabiyotlari, darslik, qo'llanma, monografiyalar chop etildi. Ta'kidlash joizki, hozirgi kunda ham xalqimiz tarixini xolis va ilmiy asosda o'rganish jarayoni davom etmoqda. Xususan, mustaqillikning o'tgan o'ttiz yillik davri tarixining turli qirralari ko'plab olimlar, izlanuvchilar uchun tadqiqot obyekti bo'lib xizmat qilmoqda. O'zbekiston o'z rivojlanishining yangi, zamonaviy jabhasida Harakatlar strategiyasida – Taraqqiyot strategiyasida belgilangan vazifalarni amaliy hayotga tatbiq etishni maqsad qilib olgan holda yosh avlodni tarixiy o'tmishga ulkan muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalash masalasini ustuvor vazifa sifatida belgilab oldi.

Shubhasiz, yangi avlod adabiyotlari ham yuqorida ta'kidlangan mulohazalarga hamohang ravishda zamonaviy talablarga javob berishi, ta'lim tizimining sifat jihatidan takomillashuvi uchun unga, avvalo, ilm-fan yangiliklari, innovatsiyalarni jo etish lozim.

Oliy o'quv yurtlari bakalavriat bosqichida ta'lim olayotgan talabalar uchun havola etilayotgan mazkur darslik yuqorida qayd etilgan fikr-mulohazalarni o'zida jam etgan. Darslikni tayyorlash jarayonida qator materiallar, xususan, tarixiy adabiyotlar va arxiv hujjatlari, mustaqillik davriga oid amalga oshirilgan tadqiqot natijalari: dissertatsiyalar, monografiyalar, risolalar, darsliklar, o'quv qo'llanmalari, hujjat va materiallardan keng foydalanilgan.

2020–2021-o'quv yilidan boshlab respublika Oliy o'quv yurtlarining barcha ta'lim yo'nalishlarida “O'zbekistonning eng yangi tarixi” fani asosiy fanlardan biri sifatida o'quv rejaiga kiritildi. Shu munosabat bilan bu fanni o'qitish yuzasidan o'quv dasturlari ishlab chiqilib, yangi avlod o'quv adabiyotlari nashr etila boshladi. Ushbu darslikda “O'zbekistonning eng yangi tarixi” o'quv fanining predmeti, maqsad va vazifalari, mustaqillikka erishish arafasida O'zbekistondagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar, mustaqil O'zbekiston Respublikasining tashkil topishi va uning tarixiy ahamiyati, O'zbekistonning o'ziga xos istiqlool va taraqqiyot yo'li, respublikada

demokratik, fuqarolik jamiyati asoslarining shakllanishi, amalga oshirilgan siyosiy islohotlar, ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar, bozor munosabatlarining rivojlanishi, ma'naviy va madaniy hamda ta'lim sohasida amalga oshirilgan islohotlar, mustaqillik yillarida Qoraqalpog'iston Respublikasidagi o'zgarishlar, O'zbekistonning jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuvi hamda xalqaro reyting va indekslardagi o'rni va nufuzining ortib borishi kabi masalalar yoritib berilgan.

Darslik O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining "Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimi uchun o'quv adabiyotlarining yangi avlodini yaratish konsepsiyasi"da ilgari surilgan talablarga mos ravishda tayyorlangan. Mavzular Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan nomutaxassis fakultetlar bakalavriat bosqichi talabalari uchun mo'ljallangan hamda shu yo'nalishda tasdiqlangan "O'zbekistonning eng yangi tarixi" namunaviy dasturi asosida yoritilgan.

Har bir mavzu so'nggida foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati, tayanch tushunchalar, savol va topshiriqlar berilgan. Darslik yuzasidan bildirilgan fikr-mulohazalar O'zbekiston Milliy universiteti tarix fakultetining "O'zbekistonning eng yangi tarixi" kafedrasi mualliflari jamoasi tomonidan mamnuniyat bilan qabul qilinadi.

1-MAVZU. "O'ZBEKISTONNING ENG YANGI TARIXI" O'QUV FANINING PREDMETI, MAQSADI VA VAZIFALARI, NAZARIY-METODOLOGIK TAMOYILLARI

Reja:

1. O'zbekistonning eng yangi tarixi fanining fan sifatida tutgan o'rni. Uning o'rganish obyekti va predmeti.
2. O'zbekistonning eng yangi tarixi fanining metodologik, ilmiy-nazariy asoslari, usullari va tamoyillari.
3. O'zbekistonning eng yangi tarixini davrlashtirish.
4. O'zbekistonning eng yangi tarixini o'rganishning ahamiyati.

1. O'zbekistonning eng yangi tarixi fanining fan sifatida tutgan o'rni. Uning o'rganish obyekti va predmeti

Tarix fani ijtimoiy taraqqiyot va o'tmishga oid turli xil voqelik hamda hodisalarning izchil rivojlanishi, ularning qachon, qayerda, qanday holatda yuz bergani, insoniyatning paydo bo'lishi va uning tadrijiy-evolutsion rivojlanishi, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy jarayonlar hamda madaniy-ma'naviy hayot jabhasi va boshqalarni o'rganadi. Shuningdek, O'zbekiston tarixi umumjahon-insoniyat tarixining ajralmas qismi hisoblanib, o'z navbatida, ahamiyatga molik voqeliklarga juda boydir. O'zbekiston tarixi fani mana shu voqeliklarni boshidan kechirgan qadim va yaqin ajdodlarimizning hayoti qanday bo'lganini, jahon tarixi taraqqiyotiga qo'shgan ulkan hissalarini xolisona va haqqoniy tarzda o'rganadi.

Ta'kidlash lozimki, tarixiy, milliy-madaniy, axloqiy va diniy qadriyatlarni o'rganish, tiklash va yangi asoslarda rivojlantirish – yoshlar, ta'lim va tarbiya tizimidagi talabalarning dunyoqarashida milliy g'urur hamda o'zlikni anglash, ular ongi-shuurida vatanparvarlik, insonparvarlik g'oyalarini yanada mustahkamlash bugungi davrning muhim talabi bo'lib hisoblanadi. Aynan shuning uchun ham oliy ta'lim tizimida "O'zbekistonning eng yangi tarixi" fanini har tomonlama chuqur o'qitish maqsadida yangi avlod o'quv dasturlari, o'quv qo'llanmalar va darsliklar yaratilib, bu boradagi ilmiy tadqiqotlar natijalari o'quv jarayoniga joriy etilmoqda. 1991-yildan O'zbekiston tarixida boshlangan yangi mustaqillik davrini

o'rganish, shu davrda ro'y bergan ijtimoiy-siyosiy jarayonlar, iqtisodiy hayot, madaniy-ma'rifiy yangilanishlar masalasini o'rganish – o'sib kelayotgan avlod, yuksak ma'naviyatli shaxsni tarbiyalashda, shubhasiz, katta ahamiyat kasb etadi.

Masala mohiyatining dolzarbligini hisobga olib, 2020–2021 o'quv yilidan boshlab respublika Oliy o'quv yurtlarida O'zbekistonning eng yangi tarixi fanini o'qitish jarayoni boshlandi. Shubhasiz yaqin o'tmish tarixini xolisona va ilmiy jihatdan o'rganish tarixchilar oldida turgan muhim vazifalardan biridir. Tarixiy haqiqatning to'la ro'yobga chiqishi, haqqoniy tarix yozilishida tarix fanining predmeti va obyektining to'g'ri belgilanishi muhim ahamiyatga egadir. Chunki O'zbekistonning eng yangi tarixi fani uchun ham boshqa barcha fanlar qatori predmet va obyekt masalasi asosiy masala bo'lib hisoblanadi. Zero, fanning o'rganish predmeti va obyektini aniq bo'lmasa, uning oldidagi vazifa noaniq bo'lib, maqsadga erishish mushkul bo'ladi. Bunday holat o'quv jarayoni samaradorligiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi.

O'zbekistonning eng yangi tarixi fani boshqa ijtimoiy va tabiat fanlaridan farqli o'laroq mustaqil fan hisoblanadi. Shuningdek, u barcha fanlar orasida alohida o'z o'rni va mavqeyiga ega. U barcha fanlar tarixini ham o'z ichiga olgan holda ularning rivojiga katta ta'sir etadi. Bu uning o'rganish predmeti va obyektini hamda vazifasida to'la namoyon bo'lmog'i kerak. Tarix fani o'z xususiyatiga ko'ra, birinchidan, o'zining butun diqqat-e'tiborini faqat yaqin o'tmishga qaratadi, undan saboq beradi, xulosa chiqaradi, o'tgan davrning hayot tarzi, ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'rifiy, iqtisodiy jarayonlarini o'rganadi.

Ikkinchidan, O'zbekistonning eng yangi tarixi fani boshqa ijtimoiy fanlarga nisbatan ancha aniq fandir. U matematika usulidan ham keng foydalanadi. Tarixiy voqea va hodisalar qat'iy aniqlikda, davriy ketma-ketlik – xronologik asosda o'rganiladi. Shuningdek, tarixiy voqea va hodisalar, hujjat va dalillarning haqiqiy va haqiqiy emasligi, ular qachon, qayerda, qanday tarixiy muhit va sharoitlarda tarixan voqe bo'lgani aniqlanadi. Va nihoyat, bo'lib o'tgan voqeliklarning aniq sabab va oqibatlari, shu bilan birga, ularning aniq shakl-shamoyillari va holati aniqlanadi.

Uchinchidan, O'zbekistonning eng yangi tarixi fani mamlakatimiz yaqin o'tmishidagi siyosiy-ijtimoiy, iqtisodiy hayotining ahvoli, holatini o'rganadi, ulardan kelajak uchun saboq va xulosa chiqaradi. Mustaqillikka erishishdagi murakkab siyosiy ahvol tahlil etilgan holda istiqlolning qanchalik ulug' ne'mat ekanligi ko'rsatib beriladi. Bu esa kelajak avlod uchun dasturilamal sifatida xizmat qiladi.

To'rtinchidan, O'zbekistonning eng yangi tarixi fani ko'p qirralik va xilma-xillik xususiyatiga ega. U jamiyat taraqqiyotining va inqirozlarining faqat bir tomoninigina emas, balki jamiyatning hamma tomonlarini uzviy, o'zaro bog'liqlikda, bir butunlikda o'rganadi. O'zbekistonning eng yangi tarixi fani mamlakatning yaqin o'tmishdagi voqeliklari, insoniyat hayoti, jamiyat taraqqiyotini tahlil qiladi. Uning o'rganish predmetiga esa mana shu makondagi jamiki voqelik va jarayonlar, ulardagi umumiy aloqadorlik va yaxlit birlik hamda qonuniyatlar hodisasi va jarayonlar, umuman, xalq va insonning yaratuvchanlik faoliyati kiradi.

Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, butun bir xalqlar, elatlar, millatlar va davlatlarga taalluqli bo'lgan murakkab ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy jarayonlar tarixda o'z aksini topadi. Tadqiqotchilarning e'tirof etishlaricha, inson har qanday tarixning predmeti hisoblanadi. Har bir voqea, hodisa inson (yoki uning bir guruhi – xalq) hatti-harakati, uning ko'zlagan ma'lum maqsadga intilishi jarayonida sodir bo'ladi. O'zbekistonning eng yangi tarixi fanining o'rganish makoni – obykti mamlakatning eng yangi tarixi davri hisoblanadi. Mazkur davr respublika mustaqillikka erishganidan to shu bugungi kunga qadar bo'lgan hayot tarzini qamrab oladi. Tarixiy obyekt (makon)ga nisbatan O'zbekistonning eng yangi tarixi fanining maqsadi, vazifasi, yo'nalishi va harakat (faoliyat) doirasi yoki chegarasi belgilanadi. Ma'lum bir ma'noda obyekt bilan predmet bir-biriga juda yaqin tushuncha bo'lsa-da, ular tarix fanida tutgan o'rni va vazifasi bilan farqlanadi.

Obyekt aniq tarixiy davr, makon, zamon va geografik mintaqaviy chegaralar, ma'lum bir xalq, millat, mamlakat tarixi bilan bog'liq bo'lib, ma'lum hudud doirasidagi voqea va hodisalarning bir butun va yaxlitlikni o'z ichiga oladi. Predmet esa

mana shu bir butun obyekt ichidagi aniq siyosiy, tarixiy-madaniy, ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlardan iborat bo'ladi.

O'zbekistonning eng yangi tarixi fani fan sifatida ijtimoiy-siyosiy, umuminsoniy xarakterdagi fan bo'lib, inson va millat o'z o'tmishini bilishi, o'zligini anglashi hamda kelajagini belgilashida asosiy dasturilamal hisoblanadi. Shu bilan birga, u ijtimoiy-siyosiy hayot sohasidagi yagona fan ham emas. Jamiyat, umuman, insoniyat o'tmishini o'rganuvchi boshqa soha fanlari ham bor. Masalan, arxeologiya, etnologiya, geologiya, antropologiya, demografiya, madaniyat, iqtisodiyot va boshqa fanlar shular jumlasidandir. Ammo boshqa fanlarning hammasi tabiat, jamiyat ham, avvalo, katta tarixda aks etadi. Soha tarixi fanlari ham tarix fanining o'rganish obyekti va predmeti hisoblanadi.

Tarix fani boshqa, ayniqsa, ijtimoiy-gumanitar fanlar bilan mustahkam va uzviy aloqa birligida rivojlanadi. Shuning uchun ham tarixchilar falsafa, adabiyot, tilshunoslik, dinshunoslik va boshqa fanlarni bilmay turib, haqqoniy tarixni to'la yoritib berolmaydilar.

Shuni ham ta'kidlash lozimki, tarix bilan boshqa ijtimoiy-gumanitar fanlarning o'rganish obyekti bitta, ya'ni jamiyat hisoblanadi. Predmeti esa inson va tabiatdir. Shuning uchun ham boshqa fanlar tarix fani taraqqiyotiga, tarixiy haqiqatlarning ro'yobga chiqishiga bevosita yordam beradi. Shuningdek, tarix fani ham boshqa soha fanlari rivojiga katta ta'sir etadi. Bundan tashqari tarix boshqa fanlarni, shuningdek, ijtimoiy-gumanitar fanlarning ham tarixidir. Chunki, boshqa fanlarning hammasi ham tarix mahsulidir.

Muxtasar qilib aytganda, tarix fani, ya'ni Vatan tarixi – millat va Vatan kelajagining ravnaq topishida muhim ahamiyatga ega. Masalaning mohiyati shundaki, birinchidan, ijtimoiy-gumanitar fanlarning rivojlanishi har jihatdan tarix fanining naqadar haqqoniy bo'lishiga bog'liqdir. Chunki, ular tarix bilan bevosita bog'liq. Ikkinchidan, tarix falsafasi qanchalik to'la va ravon tarzda yuzaga chiqsa, boshqa ijtimoiy-gumanitar fanlarning mazmun va mohiyati hamda ta'sirchanligi ham shuncha yuksak darajada bo'ladi.

Tarix falsafasi deganda, tarix, ya'ni o'tmish tajribasi va sabog'idan to'g'ri xulosa chiqara olish tushuniladi. Boshqacha qilib

aytganda, o'tmish-tarixga qarab, kelajakni his etish, ko'ra bilish va to'g'ri belgilay olish ham tarix falsafasini anglashni bildiradi.

Tadqiqotchilarning e'tirof etishlaricha, insonning shaxsiy manfaat va ehtiyojlari, qolaversa, uning qobiliyati, iste'dodi, voqelikni teran idrok etishi tarix falsafasini anglab yetishda muhim ahamiyat kasb etadi. Aynan shu nuqtayi nazardan olib qaraganda, inson aql-idroki, uning tafakkur darajasi, hayotiy falsafasi, jamiyat taraqqiyoti yo'lidagi barcha sa'y-harakatlari hamda intilishlari ma'lum millat va jamiyat mentalitetini belgilab beradi. Mana shu mentalitet millat yoki xalqning umummadaniy-ma'naviy darajasi, aql-idroki va tafakkur maydonining salohiyatiga qarab o'ziga xos mazmun-mohiyat kasb etadi. Tarix esa ana shu murakkab, ziddiyatli, shu bilan birga, qudratli ruhiyat va faoliyat orqali xotiraga aylanadi. Bu holat tarix falsafasini o'zida ifoda etadi.

2. O'zbekistonning eng yangi tarixi fanining metodologik, ilmiy-nazariy asoslari, usullari va tamoyillari

Ta'kidlash lozimki, har qanday fan kabi O'zbekistonning eng yangi tarixi fani ham o'zining metodologik, ilmiy-nazariy asoslari va tamoyillariga ega fan hisoblanadi. Bular O'zbekistonning eng yangi tarixi fanining asosini tashkil etib, uning rivojlanishi, jamiyat va millat manfaati yo'lidagi nufuzining ortib borishi uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Muhimi, ilmiy-nazariy tamoyillar eng yangi tarixning haqqoniy yozilishi, tarixiy haqiqatning yuzaga chiqishiga xizmat qiladi.

Agar tarix insoniyat yashab rivojlanishi uchun ijtimoiy zaruriyat va ma'naviy-ma'rifiy ehtiyoj bo'lsa, tarix fani esa bu ehtiyojlarning ro'yobga chiqishi uchun mas'ul bo'lgan yuksak intellektual ilmiy-amaliy faoliyatdir. Buning samarali bo'lishi, ya'ni tarix fani rivojlanishida metodologik ilmiy g'oya va nazariyalar, usul va uslubiyl tamoyillarning ahamiyati benihoya kattadir. Chunki, bular tarixning mazmun va mohiyati hamda falsafasini chuqurroq ochib berishga, shuningdek, tarix fanining maqsad va vazifasi to'laroq ro'yobga chiqishiga bevosita yordam beradi. Shuning uchun ham O'zbekistonning eng yangi tarixi fanining metodologik ilmiy-nazariy asoslari, g'oya va ta'limotlari nimalardan iborat bo'lishi muhim masala sanaladi.

Mutaxassislarning fikrlaricha, tarix moziyni o'rganish haqidagi fan bo'lib, ilmiy atama sifatida ikki o'zaro aloqadorlikdagi tushunchani ifodalaydi. Birinchidan, tarix jamiyat taraqqiyoti to'g'risidagi fan bo'lib, uning mavzusi kishilik jamiyati o'tmishining, uning turli-tuman sohalaridagi taraqqiyoti va o'zgarib borish jarayonini o'rganadigan fandir. Ikkinchidan, tarix bu insoniyat to'g'risidagi fan bo'lib, jamiyatning o'tmishini tadqiqot yo'li bilan aniqlab, o'tmishda inson tomonidan yaratilgan, inson zakovatining natijalari bo'lgan jarayonni tadqiq etish va bizgacha bo'lgan davrni o'rganib, kelajak avlodga yetkazadigan fandir.

Tarixshunoslikdan ma'lumki, tarixiy jarayonlar undagi qonuniyatlar bilan asoslanadi. Tarix fanining asosiy tayanch tushunchasini tarixiy asos va tarixiy manba, tarixiy makon va tarixiy zamon tashkil etadi. Soha mutaxassislarning e'tirof etishlaricha, tarix fanini o'rganishdagi eng dolzarb muammo – bu tarixiy voqelik va tarixiy manbalar bo'lib, mana shu ikki muammoga tom ma'noda ilmiy yondashish tarix fanining nazariyasi va metodologiyasini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Chunonchi, har bir fanda bo'lganidek, tarix, jumladan, O'zbekistonning eng yangi tarixi fanining ham o'zining nazariyasi va metodologiyasi mavjud. Nazariya – bu ilmiy bilimlar yig'indisi va boshqa fanlar bilan mavjud bo'lgan aloqadorlikni bilish jarayonidir.

Tarixchilar, sohada izlanishlar olib borayotgan tadqiqotchilar butun insoniyat, millat, xalq va o'rganish obyekti evolutsiyasi, uning mazmun-mohiyatini to'g'ri anglash, tahlil qila olishi lozim. Agar tarix falsafasi tarixiy voqealıklar tahlilidan kelib chiqadigan haqiqat (xulosa)larning so'zdagi aniq ifodasi bo'lsa, tarix fani metodologiyasi mana shu tarixiy haqiqatlarning ro'yobga chiqishi – tarix haqqoniy tarzda yozilishi uchun birdan bir to'g'ri yo'l ko'rsatuvchi dasturdir. Yuqoridagi mulohazalarni muxtasar qilib aytganda, metodologiya fanlar ichidagi fan hisoblanadi.

Avvalo, metodologiya haqida to'xtalsak, metodologiyaning lug'aviy ma'nosi grekcha "Metodos" va "Logos" degan ikki so'z birikmasidan iborat bo'lib, metod, ya'ni usul – tadqiqot olib borish usuli (yo'li), nazariya, ta'limot, logiya esa fan deganidir. Demakki, metodologiya, ya'ni uslubiy ilmiy tadqiqot ishini olib borish yoki

biror-bir masalani ilmiy o'rganishning eng qulay usullari, eng to'g'ri va mukammal g'oyasi, nazariyasi va ta'limotlari majmuyidan iborat bir butun fandir. Boshqa ma'noda esa metodologiya ilmiy bilish yoki ma'lum bir ilmiy faoliyatni tashkil etish va amalga oshirishda qo'llaniladigan usullar haqidagi fandir. Demak, tarix fani metodologiyasi tarixni o'rganuvchi va o'qituvchilarni aniq maqsad sari to'g'ri yetaklaydi, ya'ni tarix haqqoniy yozilishi va o'rganilishiga yo'l-yo'riq ko'rsatadi.

Har qanday fanning metodologiyasi deganda metod (usul)lar majmuyi tushuniladi. O'zbekistonning eng yangi tarixi fanini o'qitish metodologiyasi deganda bu yo'nalishdagi ilmiy bilimlarning tuzilishi va rivojlanishi, ularning natijalarini asoslash yo'llarini amaliyotga tatbiq etilishi, mazkur fanga xos bo'lgan ilmiy bilimlar mexanizmining samarali usullari tushuniladi. Tarix fani metodologiyasi deb tarix fanlari doirasidagi ilmiy bilimlarning tuzilish tamoyillariga, shakli va ilmiy jihatdan O'zbekistonning eng yangi tarixi fani doirasida qo'llaniladigan ta'limotga aytiladi. O'zbekistonning eng yangi tarixi fanining fan sifatidagi nazariy-metodologik asoslari o'zida mazkur fanning qonuniyatlari va tamoyillarini, faqatgina shu fanga xos bo'lgan qat'iy tushunchalar majmuyi va bilish metodlarini o'z ichiga oladi.

Tarix fanining rivoji, uning metodologiyasi rivojiga bog'liq bo'lganidek, tarix fani metodologiyasi yuksak darajada takomil topishi tarix fani qay darajada ekanligiga ham bog'liq. Bu holdagi uzviy va ikki tomonlama bog'liqlik har ikkala yo'nalishning umumiy qonuniyatidir. Mana shu o'zaro aloqadorlik qonuniyatini, mumtoz tarixshunoslik va hozirgi zamon sivilizatsion yondashuvlarga asoslangan holda O'zbekistonning eng yangi tarixi fani metodologiyasini quyidagi ikki qismga bo'lish tavsiya etiladi:

• O'zbekistonning eng yangi tarixi fanining metodologik ilmiy-nazariy, g'oyaviy va falsafiy asoslari. Bunga quyidagilar kiradi:

• Din bilan dunyoviylik o'rtasidagi mo'tadil munosabat;

• Tarixning milliy, umuminsoniy, qaytarilmas hodisa hamda qadriyat ekanligi;

• Tarixga hozirgi zamon sivilizatsiyasi nuqtayi nazaridan turib, ilmiy va xolisona asnoda yondashish;

• Tarixiy taraqqiyot asosini evolutsion - tadrijiy yo'l va islohotchilik tashkil etadi deb bilish;

• Tarixga milliy mentalitet nuqtayi nazaridan, o'zgarlar tarixiga hurmat ruhida murojaat etish;

• Tarix, jamiyat va tabiat hamda insoniyat (barcha tarixiy voqelik va jarayonlar) dialektika hamda sinergetika qonuniyatlari asoslarida rivojlanishini anglash;

• Tarix milliy va umuminsoniy xotira, millat va xalqlarning ma'naviy o'zagi, tani hamda g'oyaviy-mafkuraviy muhofaza quroli ekanligini tushunish.

O'zbekistonning eng yangi tarixi fanining ilmiy usul va tamoyillari quyidagilardan iborat:

- ilmiy xolislik (obyektivlik);
- tarixiy - tahliliylik;
- mantiqiy - uzviylik;
- vorislik va xronologik izchillik;
- g'oyaviylik va vatanparvarlik;
- qiyoslash, kuzatish va umumlashtirish;
- bahslashish, munozara yuritish va asoslab berish;
- matematik hisoblash;
- shakllantirish va modellashtirish;
- ayrimlikdan umumiylikka (induksiya) va umumiylikdan ayrim (juz'iy)likka (deduksiya).

Ma'lumki, sovet davridagi tarix fani o'tmishni soxtalashtirdi, din ilmga zid, tarixiy taraqqiyotga to'sqinlik qiladi degan dahriylikka amal qilindi. Sovet davlatida hukmron bo'lgan kommunistik mafkura tarixiy o'tmishga nisbatan bir tomonlama, sinfiy, partiyaviy yondashuvni rasmiy darajaga olib chiqqan edi. Tarixni xolisona o'rganish zamonaviy dunyoda ustuvor darajada bo'lmog'i lozim. Shuning uchun ham u din bilan mo'tadil, mutanosiblik asosida o'rganilmog'i hozirgi davrda asosiy ma'naviy mezonlardan biri bo'lib turibdi. Bu esa yoshlarni turli xil din niqobi aslida dinga aloqasi bo'lmagan turli noqonuniy guruhlarga adashib kirib qolishlarining oldini oladi, shuningdek, tariximizni xolisona haqqoniy yoritilishiga imkon beradi. Tarixiy o'tmishni ilmiy va xolisona o'rganish zamonaviy dunyoning asosiy mezoniga aylanmoqda.

Shu o'rinda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan va jahon hamjamiyatining yuksak e'tirofiga sazovor bo'lgan ijtimoiy hayot bobida "Ma'rifat va diniy bag'rikenglik" tamoyilini targ'ib etish ulkan ahamiyat kasb etadi.

Qayd etish lozimki, tarixiy-tahliliylik tamoyili tariximizda qadimdan muarrixlar tomonidan qo'llanib kelingan qulay usul hisoblanadi. Bu usul tarixiy voqea va hodisalarning nechog'liq to'g'ri hamda noto'g'riligini aniqlashga, tarixni haqqoniy va to'g'ri yozilishiga yaqindan yordam beradi.

Har qanday fan kabi O'zbekistonning eng yangi tarixi fani ham o'zining metodologik ilmiy-nazariy asoslari va tamoyillariga ega. Bular O'zbekistonning eng yangi tarixi fanining asosini tashkil etib, uning rivojlanishi, jamiyat va millat manfaati yo'lidagi nufuzining ortib borishi uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Eng muhimi, ilmiy-nazariy tamoyillar Vatan tarixining haqqoniy yozilishi, tarixiy haqiqatning yuzaga chiqishiga xizmat qiladilar.

O'zbekistonning eng yangi tarixi mazmun-mohiyatiga ko'ra, ilmiy va amaliy ahamiyatga egadir. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1996-yil 13-dekabrda Farmoniga ko'ra - O'zbekistonning yangi tarixini tayyorlash va nashr qilish haqida qaror qabul qilindi. Shu asosda mustaqillik davri aks etgan qator adabiyotlar yuzaga keldi. 1998-yilda chop etilgan "Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q" risolasida tarix fanining qator dolzarb masalalariga e'tibor qaratildi.

Masala mohiyatini dolzarblik jihatidan kelib chiqqan holda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil yanvarida qabul qilgan qaroriga asosan Oliy va O'rta maxsus ta'lim vazirligi huzurida O'zbekistonning eng yangi tarixi jamoatchilik kengashi tashkil etildi. Mazkur jarayonni yanada takomillashtirish maqsadida 2017-yil 30-iyunda Prezident Sh.M.Mirziyoyev imzosi ostida O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzurida O'zbekistonning eng yangi tarixi bo'yicha jamoatchilik kengashini tuzish to'g'risida"gi qaror qabul qilindi.

Keyingi yillarda mamlakat tarixini ilmiy manbalar, arxiv hujjatlari, tarixiy adabiyotlar asnosida ilmiy va xolisona tarzda o'rganish, tadqiq etish, yoshlarni tarixiy bilim bilan qurollantirish,

ularda yuksak axloqiy, ma'naviy fazilatlarni yuksaltirish borasida qator samarali ishlar amalga oshirilmoqda. Zero, Respublika Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning qator chiqish va nutqlarida ta'lim va tarbiya masalasi bevosita o'rin egallamoqda. Xususan, 2021-yil 19-yanvardagi ma'naviy-ma'rifiy masalalarga bag'ishlangan yig'ilishda, respublikamiz mustaqilligining qutlug' 30 yillik tantana tadbirlari, 1-oktabr O'qituvchi va murabbiylar kuniga bag'ishlangan tadbirda tarix ilmini chuqur va asosli o'rganish masalasiga alohida urg'u berildi. Mustaqillik davrida o'tgan kunlarni alohida o'rganish, tadqiq etish, ilmiy-nazariy xulosalar chiqarishni taqozo etadi. Bu, birinchidan, istiqlol yillarida O'zbekiston dunyo hamjamiyatida o'ziga xos nufuzga ega bo'ldi. Moddiy resurslari, ishlab chiqarish imkoniyatlari, aqliy va jismoniy salohiyatlariga ko'ra, rivojlangan mamlakatlar bilan tengma-teng turib, hamkorlik qilish imkoniyatlariga ega bo'ldi; ikkinchidan, mamlakatimiz uchun og'ir, mas'uliyatli paytda respublikamizda ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy barqarorlik ta'minlandi. Respublika hukumati mana shunday ziddiyatli holatda vaziyatni tezda anglab yetdi va to'g'ri siyosat yuritdi. O'zbekistonning eng yangi tarixini o'rganishda 90-yillarga oid arxiv hujjatlari, kinofoto va ovozli hujjatlar, tegishli adabiyotlar katta ahamiyat kasb etdi.

Istiqlol tufayli o'z tariximizni o'zimiz yozish va tarix fani metodologiyasini ishlab chiqish imkoniyatiga ega bo'ldik. O'tgan davr ichida O'zbekistonning yangi tarixi yozildi va tarix fani jadal rivojlanmoqda. Butunlay yangicha ruh va mazmundagi ilmiy qarash (konsepsiya)lar paydo bo'ldi, zamonaviy nazariy-konseptual qarashlarni o'zida aks ettirgan o'quv qo'llanma va darsliklar, tarixiy asarlar chop etildi. Bu o'rinda yuqorida ta'kidlangan metodologik yondashuv ilmiy-nazariy asosga ega bo'lib, uning ahamiyati yuqori darajada bo'ldi.

3. O'zbekistonning eng yangi tarixini davrlashtirish

Markaziy Osiyo mintaqasi jahon sivilizatsiyasining ajralmas qismi bo'lib, insoniyat qadimgi tarixi va madaniyati o'choqlaridan biri bo'lib hisoblanadi. Uzoq yillar mobaynida olib borilgan tadqiqotlar natijasida mintaqaning turli viloyatlarida umumiy, bir-biriga o'xshash, ko'p hollarda bir-birini takrorlaydigan madaniyatga

oid yodgorliklar topib o'rganilgan va ilmiy doiraga tatbiq etilgan. Chunonchi, O'rta Osiyo hududlarida qadimgi davrlarda yuz bergan tarixiy-madaniy, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy jarayonlar bir-biriga yaqin bo'lib, turli migratsion jarayonlarga qaramasdan bu hududda yashagan qadimgi qabilalar hamda elatlarni umumiy va etnik ildizlar birlashtirib turgan. Shuning uchun ham O'rta Osiyo xalqlarining tarixiy taqdiri qadimgi davrlardan boshlab bir-biriga uzviy bog'langan bo'lib, qadimgi davrlar haqida so'zlaganimizda "Markaziy Osiyo tarixi" va "O'zbekiston tarixi" atamalarini yonma-yon ishlatishimizning boisi ham ana shundadir. Ma'lumki, nafaqat O'zbekiston, balki butun insoniyat tarixi uzoq va murakkab jarayon bo'lib, tarixiy-madaniy voqealarga nihoyatda boy hisoblanadi. So'nggi yillarda O'rta Osiyoning turli hududlarida arxeologiya, antropologiya, etnografiya va numizmatikaga oid ko'plab tadqiqotlar olib borildi hamda tariximizni xolisona yoritish uchun xizmat qiladigan muhim ma'lumotlar to'plandi. Ushbu ma'lumotlar va ashyolar o'lka tarixining turli bosqichlaridagi iqtisodiy, madaniy va ijtimoiy-siyosiy jarayonlari haqida yanada to'laroq tasavvurlar hosil qilish imkonini berib, ular eng qadimgi xo'jaliklar va mehnat qurollari, zamonaviy qiyofadagi odamning paydo bo'lishi, xo'jalikning ishlab chiqaruvchi shakllariga o'tilishi, ishlab chiqarishda metallning ishlatila boshlanishi, ayirboshlash va savdo-sotiq, ilk shaharlar va davlatlarning tashkil topishi kabi ko'plab tarixiy-madaniy jarayonlariga bog'liq ravishda bo'ladi. Tarixni davrlashtirishda ushbu jarayonlarga asosiy e'tibor qaratish muhim ahamiyat kasb etadi.

O'rta Osiyo, jumladan, O'zbekiston tarixini zamon talablariga asoslanib davrlashtirish masalasida turlicha nuqtayi nazarlar mavjud. Bu masala yuzasidan, xususan, eng qadimgi davrlardan bugungi kunga qadar bo'lgan tariximizni davrlashtirishda e'tibor berilishi lozim bo'lgan tarixiy-madaniy jarayonlar, masalaga sivilizatsion yondashuv, davrlashtirishning metodologik asoslari kabi masalalarga A.Asqarov, E.Rtveladze, A.Sagdullayev va boshqa olimlar e'tibor qaratganlar. So'nggi yillarda amalga oshirilgan tadqiqotlardan kelib chiqib, O'zbekiston tarixini davrlashtirish masalalariga qisqacha to'xtalib o'tish lozim. Chunki o'rganilayotgan tarixni, avvalo, xronologik izchillikda davrlarga

bo'lib, har bir davrning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olib darslik nuqtayi nazaridan ma'ruzalar belgilash hamda dars soatlarini taqsimlash maqsadga muvofiqdir. Qanchalik sodda ko'rinmasin, bu jihat ham murakkab masala hisoblangan tarixni to'g'ri davrlashtirishni talab etadi. Masalaning eng muhim tomoni esa yoshlarimizga ilmiy asoslangan davrlashtirish yuzasidan tarix fanidan ta'lim berishdir.

Yuqorida ta'kidlanganidek, mustaqillik davriga kelib, haqqoniy tariximizni yaratish borasida olib borilgan tadqiqotlar tufayli sovet davri mafkurasiga asoslangan besh bosqichli formatsion davrlashtirish inkor etildi. Qadimgi tarixni davrlashtirish masalasida tarixiy-madaniy taraqqiyotining ijtimoiy-iqtisodiy omillariga asosiy e'tiborni qaratish g'oyalari paydo bo'ldi. Xususan, A.Sagdullayevning fikricha, Markaziy Osiyo tarixining eng qadimgi davri bir necha yuz ming yillarni o'z ichiga oladi. Yevropa va Osiyo hududlarida tarixiy va madaniy jarayonlar rivojlanishining notekisligi, ayniqsa, turli davrlarda moddiy madaniyatdagi o'zgarishlarning bir-biriga mos kelmasligi tufayli, ayrim hududlarga tegishli tarixiy sana va davrlashtirish bir-biridan farqlanadi. A.Asqarovning fikricha, O'zbekiston tarixi jahon tarixining tarkibiy qismidir. Bu zaminda yuz bergan tarixiy jarayonlarni jahon tarixidan ajratib o'rganish mumkin emas. Ular o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik jamiyat taraqqiyoti qonuniyatlarining mahsulidir. Har bir xalq yer kurrasining qaysi mintaqasida yashamasin, taraqqiyotning barcha bosqichlarini u yoki bu darajada bosib o'tishi shart. Ammo jamiyat rivojlanishi hamma yerda birday kechmagan. Jamiyatning notekis rivojlanish qonuniyati esa qadimgi zamonlarda ko'proq mintaqaning tabiiy-geografik va ekologik imkoniyatlariga bog'liq bo'lgan. Jamiyat hayotida yuz beradigan tub ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar, Markaziy Osiyo tarixining rivojlanish darajasi va ana shu mintaq tarixi taqozo etgan holatdan kelib chiqib, Markaziy Osiyo, xususan, O'zbekiston tarixini davrlashtirish mumkin. Tarixni davrlashtirish masalasi A.Asqarovning "O'zbek xalqining kelib chiqish tarixi" monografiyasida ham keng yoritilgan va unda tarixni davrlashtirishda nimalarga e'tibor berish lozimligi ta'kidlanib, O'zbekiston tarixini 7 ta davrga bo'lib o'rganish maqsadga

muvofigligi ilgari surilgan. Unda jamiyatda yuz bergan tub o'zgarishlar hisobga olingan holda, birinchidan, har bir ulkan tarixiy davrda jamiyatning iqtisodiy asosini harakatlantiruvchi kuchlari kimlar edi? Ikkinchidan, jamiyatda mulkka egalik qilishning xarakteri qanday bo'lgan? Uchinchidan, jamiyat ijtimoiy hayotining ma'naviy asosini qanday mafkura tashkil etgan? – degan savollar qo'yilib, kishilik jamiyati tarixi davrlashtirilishi kerak, degan fikrni ilgari surgan. Shu bilan quyidagi davrlashtirish taklif etilgan:

O'zbekistonda "Ibtidoiy to'da davri". O'zbekistonda "Ibtidoiy urug'chilik jamoasi va mulk egaligining shakllanish davri". Bu davrni uch bosqichga bo'ladi: 1-bosqich – matriarxat urug' jamoasi bosqichi, 2-bosqich – XX asrning ikkinchi yarmi davomida jahon fanida Shimoliy-Sharqiy Afrikaning Olduvay darasida olib borilgan arxeologik va antropologik izlanishlarga ko'ra, odamzodning ilk ajdodlari bundan 2,5–3 million yil avval Afrika qit'asida yashay boshlagan. "Homo sapiyens, sapiyens" (aqlli odam) esa, yer kurrasida mil. avv. II million yildan boshlab yashay boshlagan, degan tasavvur paydo bo'ldi. 3-bosqich urug' jamoalarining harbiy demokratiya bosqichi. O'zbekistonda "Ilk o'rta asrlar davri". "O'rta asrlar davri. Markaziy Osiyo, jumladan, O'zbekiston tarixining beshinchi davrini "Mustamlakachilik" deb atash mumkin. Uning davriy chegarasi – Rossiya imperiyasi bosqinidan to 1917-yil oktabr to'ntarishiga qadar davom etgan davrni o'z ichiga oladi.

O'zbekiston tarixining oltinchi davri "Sovetlar hukmronligi davri" bo'lib, bu davr 1917-yildan 1991-yilgacha davom etgan. O'zbekiston tarixining yettinchi davri eng yangi deb nomlanib, bu davr 1991-yil 31-avgustdan to bugungi kungacha bo'lgan davrlarni qamrab oladi. Yuqorida akademik A.Asqarovning mulohazasi bo'yicha guruhlar ma'lum juz'iy o'zgarishlar asosida qabul qilindi.

Mazkur davrlashtirish uslubida ham O'zbekiston hududining o'ziga xos taraqqiyot yo'li aks etgan. Shuningdek, biz o'rganayotgan davr, ya'ni O'zbekiston tarixining yettinchi davri "O'zbekistonning eng yangi tarixi" deb atalib, ushbu davr ham o'z ichida bir necha bosqichlardan iboratdir. Xususan, mustaqillik davrida mamlakatimiz hayotining barcha sohalarida amalga oshirilgan tub o'zgarishlar, respublika aholisining fidokorona

mehnati tufayli qo'lga kiritilgan katta yutuq va natijalarni, ularning mohiyati va ahamiyatini hisobga olib mustaqil taraqqiyot davrining 3 bosqichga bo'linishini ko'rish mumkin. Birinchi bosqich 1991–2000-yillarni o'z ichiga olib, bu davrda mustaqillikning poydevori bunyod etilib, “O'zbek modeli” asosida ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot sari yo'l tutildi, O'zbekiston jahon hamjamiyati tomonidan tan olindi, milliy istiqloq mafkurasi jamiyat hayotiga keng kirib bordi.

2001–2010-yillarni o'z ichiga olgan ikkinchi bosqich, demokratik o'zgarishlar, iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish, ijtimoiy-siyosiy hayot sohalarini izchil isloh qilishni ta'minlash davri bo'ldi.

Uchinchi bosqich esa 2010-yildan 2017-yilgacha bo'lgan davr hisoblanib, bunda davlat hokimiyati va boshqaruvini demokratlashtirish, fuqarolik institutlarini rivojlantirish, bozor islohotlarini va iqtisodiyotni liberallashtirish – chuqurlashtirish davri bo'lib qoldi. Ushbu davrning boshlanishi mamlakatda fuqarolik jamiyatini shakllantirish va demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish konsepsiyasining ishlab chiqarilishi bilan bog'liqdir.

Shuningdek, O'zbekistonning eng yangi tarixida yuqoridagi bosqichlarga qo'shimcha ravishda 2017-yildan keyingi davrni ham alohida jarayon sifatida qabul qilish lozim. Mazkur davr tarixi 2016-yil dekabr oyida saylangan O'zbekiston Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning strategik taraqqiyotga asoslangan keng ko'lamli jadal islohotlar davri boshlangani bilan izohlash mumkin. Bu davr hozirgi kunda Yangi O'zbekiston taraqqiyot davri deb nomlanmoqda.

Mustaqillikka erishganimizdan keyingi davrda O'zbekistonning eng yangi tarixini yozish soha xodimlari oldidagi dolzarb masalalardan biri bo'lib, bu o'rinda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat va jamiyat qurilishi akademiyasi qoshida “O'zbekistonning yangi tarixi markazini tashkil etish” to'g'risidagi farmoyishiga muvofiq hamda xalqimizning yangi tarixini o'rganish va yozish, mamlakatimiz hayotida sodir bo'layotgan katta o'zgarishlar va uning jahonshumul tarixiy ahamiyatini ko'rsatishni amalga oshirish

maqsadida Vazirlar Mahkamasining 1996-yil 16-dekabrda
“O‘zbekistonning yangi tarixi”ni tayyorlash va nashr etish
to‘g‘risidagi qarorining o‘rni ahamiyatli hisoblanadi. Ushbu qarorga
ko‘ra, O‘zbekistonning yangi tarixi”ni yozishda quyidagi asosiy
yo‘nalishlar e‘tiborga olinishi belgilab berildi:

- xalqimiz o‘tmishidagi millat taqdiri bilan bog‘liq bo‘lgan
tarixiy jarayonlarni chuqur ilmiy tadqiq etish va xolisona yoritish;

- “O‘zbekistonning yangi tarixi”ni yozishda tarix bosqichlari
va ijtimoiy-siyosiy taraqqiyot uzluksiz jarayon ekanligini nazarda
tutish, tarixiylik va vorisiylik tamoyillariga amal qilish;

- O‘zbekiston xalqining buyuk tarixiy merosga ega ekanligi va
umumbashariyat qadriyatlariga munosib hissa qo‘shganligini e‘tirof
etgan holda o‘ziga xos davlat qurilishi an‘analari va ularga nisbatan
fikrlar, qarashlar xilma-xilligi mavjudligini hisobga olish;

- “O‘zbekistonning yangi tarixi”ning har bir qism va
bo‘limlarini yozishda biryozlama, subyektiv yondashuvlarga yo‘l
qo‘ymasdan yagona tadqiqot uslubiga amal qilish;

- O‘zbekiston tarixiga oid voqea-hodisalarni yoritishda uning
ko‘hna Turonzamin, Movarounnahr, Turkiston tarixining tarkibiy
qismi bo‘lganligini yodda tutish;

- O‘zbekiston tarixi dunyoning turli mintaqalarida sodir
bo‘lgan ijtimoiy-tarixiy voqea-hodisalar hamda jahon taraqqiyoti
jarayonlari bilan uzviy bog‘liq ekanligini va ularning bir-biriga
o‘zaro ta‘sirini hisobga olish;

- tadqiqot yaratishda eski kommunistik-bolshevistik mafkura
aqidalariga va o‘tmishni soxtalashtirishga yo‘l qo‘ymaslik, tarixiy
jarayonlarni xolisona baholash;

- yoshlarni milliy istiqlol g‘oyalari, vatanparvarlik va
umuminsoniylik ruhida tarbiyalashda tarixiy voqea-hodisalarning
ahamiyatini e‘tiborga olish.

“O‘zbekiston milliy davlatchiligining vujudga kelishi va
taraqqiy topishining eng yangi tarixini tadqiq etish va o‘qitish,
ilmiy, ilmiy-ommabop, o‘quv-metodik, ma‘rifiy adabiyotlarni
tayyorlash va chop etish, ilm-fanning ta‘lim hamda boshqa ijtimoiy
sohalar bilan integratsiyasi mexanizmlarini mustahkamlash va
rivojlantirish borasida ilmiy, madaniy, ta‘lim, jamoat muassasalari
va tashkilotlari faoliyatini muvofiqlashtirish ishlarining

samaradorligini oshirish, yoshlarda, avvalambor, umumta'lim maktablari, kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar o'quvchilarida, oliy o'quv muassasalari talabalarida mamlakat tarixi haqidagi chuqur bilimlarni shakllantirish maqsadida" O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 30-iyun kuni "O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzurida O'zbekistonning eng yangi tarixi bo'yicha Jamoatchilik kengashi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi qarori ham O'zbekistonning eng yangi tarixini yaratishda muhim burilish bo'lib xizmat qildi. Mazkur qaror bilan O'zbekistonning eng yangi tarixi bo'yicha Jamoatchilik kengashining quyidagi asosiy vazifalari belgilandi:

- demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini shakllantirishning "O'zbek modeli" mohiyati va mazmunini, jamiyatda barqarorlikni, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni saqlash bo'yicha keng ko'lamli ishlar olib borish, hozirgi dunyoda O'zbekistonning roli va o'rnini chuqur o'rganish hamda yaqqol ochib berish;

- O'zbekistonning eng yangi tarixini zamonaviy nazariy-metodologik, fanlararo yondashuvlarga, tarixiylik va xolislik tamoyillariga asoslangan holda tizimli o'rganishni tashkil etish, O'zbekistonning eng yangi tarixi bo'yicha dolzarb muammolarni ishlab chiqish, shuningdek, buyuk tarixiy-madaniy merosga ega bo'lgan va jahon sivilizatsiyasining rivojiga ulkan hissa qo'shgan O'zbek xalqining tarixiy o'tmishi va bugungi kuniga baho berishda bir yoqlama yondashuvlarga, aqidaparastlikka yo'l qo'ymaslik ishlarini amalga oshirish;

- ilmiy, o'quv, o'quv-metodik adabiyotlarning yangi avlodini tayyorlash va chop etish ishlarini muvofiqlashtirish, ularda O'zbekistonning eng yangi tarixini umumjahon va mintaqaviy jarayonlar bilan, shuningdek, hozirgi O'zbekiston hududida shakllangan xalqlar va davlatlar sivilizatsiyasining tarixiy-madaniy merosi bilan uzviy bog'liq holda ko'rib chiqishni ta'minlash;

- O'zbekistonning eng yangi tarixi bo'yicha ilmiy, o'quv va o'quv-metodik adabiyotlar, o'quv dasturlari monitoringini shakllantirish;

- sohada ilmiy-tadqiqot, o'quv-metodik ishlarning sifatini yaxshilash bo'yicha takliflarni ishlab chiqish va joriy etish;

– fuqarolarda tarixiy xotira, milliy oʻzlikni anglash, yuksak maʼnaviyat, xalqning tarixiy anʼanalari, madaniy merosiga hurmat, Oʻzbekiston mustaqillikka erishganligining buyuk tarixiy ahamiyatini anglash kabi fazilatlarni shakllantirishga yoʻnaltirilgan maʼnaviy-maʼrifiy ishlar samaradorligini, shu jumladan, ommaviy axborot vositalari orqali oshirib borishga koʻmaklashish;

– Oʻzbekiston tarixi boʻyicha zamonaviy chet el ilmiy va oʻquv adabiyotlarini oʻrganishga yoʻnaltirilgan tizimli chora-tadbirlarni amalga oshirish, hozirgi Oʻzbekistonning tarixiy oʻtmishi, sotsial-iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy rivojlanishi, mamlakatda olib borilayotgan demokratik islohotlar toʻgʻrisidagi xolis axborotni keng xalqaro jamoatchilikka ilmiy asosda yetkazish.

Qarorda, shuningdek, ijtimoiy-gumanitar fanlarni taʼlim bilan integratsiyalashuvini mustahkamlash va rivojlantirishga alohida eʼtibor qaratilgan.

Jamoatchilik kengashining ishchi organi sifatida Oʻzbekistonning eng yangi tarixi masalalari boʻyicha Muvofiqlashtiruvchi metodik markaz belgilangan boʻlib, uning asosiy vazifalari sifatida Jamoatchilik kengashi faoliyatini ilmiy-metodik taʼminlash, Oʻzbekistonning eng yangi tarixini oʻrganish boʻyicha dolzarb masalalarni ishlab chiqish, Oʻzbekiston Xalq taʼlimi vazirligi, Oliy va oʻrta maxsus taʼlim vazirligi bilan birgalikda Oʻzbekistonning eng yangi tarixi boʻyicha oʻquv, oʻquv-metodik adabiyotlar yaratish yuzasidan tanlovlar oʻtkazishda ishtirok etish, davlat ilmiy-texnika dasturlari doirasida Oʻzbekistonning eng yangi tarixi tadqiqotlari boʻyicha ilmiy-texnika loyihalari tanlovlarini vazifalari roʻyxatiga kiritish uchun takliflar ishlab chiqish, Oʻzbekistonning eng yangi tarixini oʻrganishning nazariy-metodologik asoslarini takomillashtirish yuzasidan tadqiqotlar olib borish, har yili Oʻzbekiston eng yangi tarixining dolzarb masalalari boʻyicha oʻtkaziladigan xalqaro va respublika konferensiya hamda seminarlari roʻyxatini amaldagi tartibda ishlab chiqish belgilangan.

Dunyoda, xususan, Oʻzbekistonda yuz berayotgan keng koʻlamli oʻzgarishlar davrida tarix fani ham bir qator masalalarni qayta koʻrib chiqish va chuqur oʻrganish muammosiga duch kelmoqda. Bu haqda Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti

Sh.M.Mirziyoyevning 2018-yil 18-dekabrdagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida "...milliy o'zligimizni anglash, Vatanimizning qadimiy va boy tarixini o'rganish, bu borada ilmiy tadqiqot ishlarini kuchaytirish, gumanitar soha olimlari faoliyatini har tomonlama qo'llab-quvvatlash lozim", degan fikrlari bayon qilingan va yuqorida ta'kidlangan masalalar sohaning oldiga ko'plab ilmiy masalalarni ko'ndalang qo'yadi.

4. O'zbekistonning eng yangi tarixini o'rganishning ahamiyati

Ma'lumki, dunyoda mavjud 3,5 mingdan ziyod xalqlarning faqat 200 tadan ziyodi o'z davlatchiligiga ega. Xalqlarning o'z mustaqil davlatchiligiga ega bo'lishi, shubhasiz, shu hududda yashovchi barcha aholi uchun keng rivojlanish imkoniyatlarini ochib beradi. Mazkur imkoniyatlar O'zbek xalqi davlatchiligiga bevosita taalluqlidir.

Taraqqiy etgan millatlarning o'z tarixini yaxshi bilishi, tarixiy yodgorlik va obidalarini e'zozlashi, ularni ko'z qorachig'idek asrashining ko'pgina sabablari bor. Bu, eng avvalo, tarix insoniyat paydo bo'lganidan to hozirgacha davom etib kelayotgan ijtimoiy jarayon oynasi ekanligi bilan bog'liqdir. Ikkinchidan esa, butun insoniyat shu tarixga qarab, o'z o'tmishi va borligini anglaydi, kelajak rejalarini belgilaydi. Boshqacha bir ma'noda tarix buyuk faylasuf va donishmanddir. Uning mana shu dono falsafasini to'g'ri anglagandagina, xalqlar o'z kelajagi uchun mustahkam poydevor yaratadi.

Xristianlik falsafasi asoschisi A.Avgustian (354–430-yy.) hozirgi eramiz boshidayoq, ya'ni bundan bir ming olti yuz yil oldin tarixning xalq va millatning taqdirida tutajak o'rnini ko'rsatib, shunday degan edi: "G'aflatda yotgan xalqni uyg'otish uchun, avvalo, uning tarixini uyg'ot". Qadimgi Rimda esa "Tarix – hayotning muallimidir" degan yozuv shior sifatida shahardagi peshtoqlardan biriga yozib qo'yilgan edi. XIII asr Sharq tarixchisi Shahobiddin Muhammad an-Nasaviy ham bu fikrni o'zining quyidagi to'rtligida yanada teran ma'noda mana bunday bayon etadi:

Kimki tutmas qalbida tarixini,
U inson ham emas, olim ham emas.
Biroq kimki uqsa o'tmishini,
Ko'p boyitar o'z turmushini.

XXI asrga rivojlanishning zamonaviy taraqqiyot yo'li bilan kirib kelgan, boy madaniyati va bebaho ma'naviyatiga ega bo'lgan o'zbek xalqi o'zining ming yilliklar qa'riga kirib borgan tarixiy o'tmishi bilan alohida o'rin egallaydi. Hozirgi O'zbekiston Respublikasi hududlarida bo'lib o'tgan tarixiy-madaniy jarayonlar, ijtimoiy-iqtisodiy yuksalishlar, turli davrlarda xalq farovonligi va taraqqiyotini ko'zlab o'tkazilgan ko'plab islohotlar, shuningdek, yuksalish va inqiroz holatlari, chet el bosqinchilariga qarshi ozodlik kurashlari yurtimizning serqirra va rang-barang tarixidan dalolat beradi. Shu bois ham bu tarix eng qadimgi davrdan boshlab ko'p ming yillar davomida ajdodlarimiz va xalqimiz tarixi sifatida nafaqat o'zbekistonlik, balki xorij olimlari tomonidan ham tan olinib o'rganildi, tadqiq etildi va ayni paytda ham shu yo'nalishdagi ilmiy tadqiqotlar izchillik bilan davom etmoqda.

O'zbekiston davlat mustaqilligini qo'lga kiritgach, sovet davridagi tarixga munosabatdan farqli o'laroq o'tmish tarixiga munosabat tubdan o'zgardi. Haqqoniy tarixni tadqiq etish boshlanib, avvalo, tarixni davrlashtirishdagi besh formatsiyali noilmiy "izm"lardan voz kechildi. Zero, tarix ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyalar almashinuvi bo'lmasdan, balki bir-birini almashtirib va to'ldirib turuvchi, ma'lum xalqlar va elatlar, etnik guruhlar tomonidan yaratilgan sivilizatsiyalar hosilasi hamda zanjiri ekanligi respublika olimlari tomonidan yakkilik bilan e'tirof etildi.

Tarixning yaratuvchisi va ijodkori xalqdir. Bo'lib o'tgan tarixiy-madaniy jarayonlar, voqea va hodisalar, islohotlarni xalqsiz va tarixiy shaxslarsiz tasavvur etish aslo mumkin emas. Tarix – xalqning fikr hamda tafakkurining hosilasidir. Aynan shuning uchun ham tarix – ibrat maktabi bo'lib, o'tmishda yo'l qo'yilgan nuqsonlarni anglash va ulardan tegishli saboq chiqarish, hushyorlik va ogohlikka, buzg'unchi g'oyalarga qarshi turishga undovchi, milliy birlik, hamkorlik va bag'rikenglikka chaqiruvchi beqiyos ahamiyatli maktabdir. Shundan kelib chiqib ta'kidlash lozimki,

qadim o'tmish bilan bugungi kunning, o'tmish ajdodlarimiz bilan bugungi avlodlarimiz o'rtasidagi bog'liqlikni unutmasdan yanada mustahkamlash milliy taraqqiyotning asosiy kafolati hisoblanadi. Bunday bog'lanishda esa tarix asosiy ko'priq vazifasini bajaradi.

Haqqoniy yozilgan Vatan tarixini o'rganish va o'qitish u soxta tarixiy tushuncha va tarixiy xotirasizlikka barham beradi, milliy g'oya va mafkuraning takomillashuvini tezlashtiradi. Xalqimiz undan ruhiy quvvat olib, dushmanga bosh egmaslik, mustamlaka ilkiga tushmaslik, boshqalarga bo'ysunmaslik, begona g'oya va mafkura hamda zug'umlar ta'siriga berilmaslik ma'naviyatiga ega bo'ladi. Shuning uchun ham tarixni o'rganish va o'qitish zarur. Tarixni mukammal bilish, uning mazmun va mohiyati, falsafasini teran anglash millat uchun yuksak fazilat hisoblanadi.

O'zbekistonning eng yangi tarixi fani oldida turgan asosiy vazifa quyidagilardan iboratdir: birinchidan, yoshlarga va bo'lajak mutaxassis kadrlarga chuqur milliy va umuminsoniy tarixiy, g'oyaviy-siyosiy, ilmiy-nazariy dunyoqarashni singdirish; ikkinchidan, yoshlarda milliy tafakkur, g'urur va o'zlikni, milliy vijdon va umuminsoniy barkamollikni tarbiyalash; uchinchidan, yoshlarda otashin vatanparvarlik va milliy jasoratni, millat va Vatanga sadoqatni rivojlantirish; to'rtinchidan, yoshlarga milliy va tarixiy qadriyatlarni e'zozlash, asrab-avaylash ruhini singdirish, ularda yuksak axloqiy fazilatlar (halollik, poklik, odillik, rostgo'ylik, mehnatsevarlik, kamtarinlik, imon va e'tiqodlik)ni tarbiyalash; beshinchidan, yoshlarni Vatan va xalq, millat, ota-ona, farzand, tabiat va jamiyat oldidagi muqaddas burchlarini chuqur his etish va ularga sadoqatlik ruhida kamol toptirish.

2017-yildan boshlab O'zbekiston milliy tiklanishdan – milliy yuksalish tomon yo'l oldi. Bunda Respublikamiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan, mamlakatni zamonaviy asnoda rivojlantirishga qaratilgan Harakatlar strategiyasida belgilangan ustuvor vazifalar katta ahamiyat kasb etmoqda. 2021-yil oxirlaridan bu strategiya – Taraqqiyot strategiyasi nomini oldi.

O'zbekistonning keying rivojlanish davri «O'zbekiston - 2030» rivojlanish konsepsiyasida to'liq o'z aksini topgan.

O'zbekistonning eng yangi tarixi fani uzviy ravishda yuqoridagilar va bulardan boshqa o'zining xilma-xil

imkoniyatlaridan kelib chiqib, komil insonni tarbiyalashga katta hissa qo'shadi. Vatan tarixining davlat boshqaruvi va qurilishida, jamiyat va insoniyat taraqqiyotida, millat va xalq hayotida tutgan o'rni hamda ahamiyati benihoya katta ekanligi qadim-qadimdan e'tirof etib kelinmoqda. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, tarixning bu ajoyib xislati va tarbiyaviy ahamiyati, kuch-qudratini barchamiz teran his etishimiz va anglab yetmog'imiz lozimdir.

Tayanch so'zlar

Fanning predmeti va obyekti, o'quv jarayoni, O'zbekiston, tarix, eng yangi tarix, mustaqillik, ijtimoiy fanlar, inson omili, millat o'tmishi, tarixiy makon, voqea-hodisalar, inson va tabiat, tarix falsafasi, mentalitet, metodologiya, ilmiy-nazariy asoslar, usullar, tamoyillar, ijtimoiy zaruriyat, nazariya, sivilizatsion yondashuv, metodologiya tamoyillari, davrlashtirish, yordamchi fanlar, madaniy meros, fanning ahamiyati va vazifalari.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar

1. O'zbekistonning eng yangi tarixi fanining fan sifatida tutgan o'rniga baho bering.
2. O'zbekistonning eng yangi tarixi fanining predmeti va obyekti haqida nimalarni bilasiz?
3. O'zbekistonning eng yangi tarixi fanining usullari va tamoyillari haqida nimalar deya olasiz?
4. O'zbekistonning eng yangi tarixini davrlashtirishda nimalarga asosiy e'tibor berish lozim?
5. Metodologiya nima? Tarix falsafasining mohiyati nimada?
6. O'zbekistonning eng yangi tarixini o'rganishdagi manbalar haqida ma'lumot bering.
7. O'zbekistonning eng yangi tarixini o'rganishda yordamchi fanlar haqida qanday fikr bildirasiz?
8. O'zbekistonning eng yangi tarixini o'rganishning ahamiyati nimada?

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Sh.M. Mirziyoyev. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. To'ldirilgan ikkinchi nashri. – Toshkent: O'zbekiston, 2022.

2. Sh.M. Mirziyoyev. Yangi O'zbekistonda erkin va farovon yashaylik. 5-jild. – Toshkent: O'zbekiston, 2023.

3. Sh.M. Mirziyoyev. Yangi O'zbekistonda taraqqiyot strategiyasi asosida demokratik islohotlar yo'lini qat'iy davom ettiramiz. 6-jild. – Toshkent: O'zbekiston, 2023.

4. Sh.M. Mirziyoyev. Hozirgi zamon va Yangi O'zbekiston. – Toshkent: O'zbekiston, 2024.

5. Asqarov A. O'zbek xalqining kelib chiqish tarixi. – Toshkent: O'zbekiston, 2015.

6. Mustaqil O'zbekiston tarixi. Mas'ul muharrir: A.Sobirov. – Toshkent: Akademiya, 2013.

7. Rasulov A., Isoqboyev A. Tarix fanining ilmiy tadqiqot asoslari va uslubiyoti. – Namangan, 2008.

8. Toshpo'latov T., G'afforov Ya. Tarix o'qitish metodikasi. – Toshkent: Turon-Iqbol, 2010.

9. Eshov B.J., Odilov A.A. O'zbekiston tarixi. Mas'ul muharrir: R.H.Murtazayeva. Darslik. I jild. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2014.

10. Eshov B.J., Odilov A.A. O'zbekiston tarixi. Tarix fakultetlari uchun darslik. II kitob. – Toshkent: Donishmand ziyosi, 2020.

11. O'zbekiston tarixi. Tarix fakultetlari talabalari uchun darslik. I kitob. Mas'ul muharrir: A.S.Sagdullayev. – Toshkent: Fan, 2019.

2-MAVZU. O‘ZBEKISTONDA MUSTAQILLIK G‘OYALARINING TARIXIY ASOSLARI

Reja:

1. O‘zbekiston jahon sivilizatsiyasining ajralmas qismi. Mamlakatimiz hududida ilk davlatlarning paydo bo‘lishi.
2. Vatanimiz ozodligi va mustaqilligi uchun kurashgan buyuk siymolar.
3. Jadid ma’rifatparvarlarining ozodlik va taraqqiyot yo‘lidagi sa’y-harakatlari.

1. O‘zbekiston jahon sivilizatsiyasining ajralmas qismi.

Mamlakatimiz hududida ilk davlatlarning paydo bo‘lishi

O‘zbekiston – insoniyat taraqqiyoti o‘choqlaridan biri, jahon sivilizatsiyasining ajralmas qismi ekanligi olimlar tomonidan e’tirof etilgan. Dastlabki sivilizatsiyalar, ularning paydo bo‘lishi va taraqqiy etishi, sivilizatsiyaning ilmiy-nazariy tahlili, sivilizatsiyalarga tarixiy-falsafiy yondashuv, umuman Sharq va G‘arb sivilizatsiyalarining qiyosiy tahlili tarixshunosligiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, bu yo‘nalishda A.Toynbi, O.Shpengler, K.Yaspers, I.M.Dyakonov, V.Masson, A.Vasilev, M.Barg, M.Albedil, A.Koptev, Yu.Yakoves kabi olimlar tadqiqot ishlari olib borganlar. So‘nggi yillarda A.Asqarov, R.Sulaymonov, E.Rtveladze, A.Sagdullayev, O‘.Mavlonov, T.Shirinov, Sh.Shaydullayev, B.Eshovlarning tarixiy tadqiqotlarida Turon sivilizatsiyasi, O‘rta Osiyo sivilizatsiyasi, O‘zbekiston sivilizatsiyasi kabilar qiyosiy tahlillar asosida e’tirof etilgan.

Dunyo tarixidagi turli hududlarda ijtimoiy-iqtisodiy va tabiiy sharoitlardan kelib chiqib turli davrlarda o‘ziga xos sivilizatsiyalar taraqqiy etganligini kuzatish mumkin. O‘zbekiston hududlarida ham sivilizatsiya jarayonlari o‘ziga xos yo‘nalishda taraqqiy etib borgan bo‘lsa-da, bu yo‘nalishdagi o‘zaro ta’sir inkor etilmaydi. Zero, Yurtboshimiz ta’kidlaganidek, — tariximiz kabi, qadimgi madaniyatning yaratilishida ham ko‘plab etnik guruhlar, el-elatlar o‘z ulushini qo‘shgan. Bu tabiiy hol, chunki, hech qachon, hech qayerda faqat bitta millatga mansub madaniyat bo‘lmaydi. Har qanday sivilizatsiya ko‘pdan ko‘p xalqlar, millatlar, elatlar

faoliyatining va samarali ta'sirining mahsulidir. Sivilizatsiya – lotincha soʻz boʻlib (civilis), aynan tarjimai – grajdanlar, – jamiyatning erkin, ozod aʼzolaridan tashkil topgan tuzum, davlatchilik degan maʼnoni anglatadi. Ijtimoiy fanlarda sivilizatsiya tushunchasi asosan madaniyat va madaniy taraqqiyotining barcha qirralarini ifodalovchi tushuncha sifatidagi mazmun kasb etadi.

Ushbu mazmunni qisqacha taʼriflaydigan boʻlsak, sivilizatsiya tushunchasi – muayyan hududlarda yashaydigan odamlarning turmush tarzi va xoʻjalik yuritish faoliyati, ushbu odamlar hamda hududlar oʻrtasidagi oʻzaro munosabatlar, maʼlum davrlarda yaratilgan maʼnaviy va moddiy madaniyat, jamiyatning taraqqiy etish jarayonida odamlarning ijodiy imkoniyatlari va qobiliyatining samarasini anglatadi. Shu nuqtayi nazardan ham sivilizatsiya insoniyat taraqqiyotining asosiy mezoni sifatida talqin etiladi. Binobarin, Oʻzbekiston hududlarida taraqqiy etgan sivilizatsiya ham jahon sivilizatsiyasining ajralmas qismi hisoblanadi. Dunyoning turli burchaklarida yashaydigan xalqlarning tarixning turli davrlarida ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy jarayonlarda erishgan yutuqlari hamda taraqqiyot bosqichiga koʻtarilishini sivilizatsiya tushunchasi oʻzida aks ettiradi. Bu taraqqiyot bosqichi insoniyatning paydo boʻlishi va rivojlanishi, jamiyatning rivojlanish darajasi, moddiy va maʼnaviy madaniyatning yuksalishi, qabilalar va xalqlar oʻrtasidagi oʻzaro munosabatlar bilan izohlanadi. Soʻnggi yillarda Oʻrta Osiyo va unga qoʻshni hududlarda olib borilgan koʻplab tarixiy-arxeologik tadqiqotlar bu mintaqa qadimgi Sharq sivilizatsiyasining shakllanishi va rivojlanishida oʻziga xos oʻrin tutganligini asoslab beruvchi koʻplab maʼlumotlar – ashyoviy dalillarni yuzaga chiqardi. Ularning natijasi oʻlaroq, yuqorida eslatganimizdek, Oʻrta Osiyo sivilizatsiyasi, Turon sivilizatsiyasi, Oʻzbekiston sivilizatsiyasi kabi atamalar ilmiy tadqiqotlar va nashrlarda keng ishlatila boshlandi.

Hozirgi Oʻzbekiston hududlarining ulkan Yevroosiyo mintaqasi markazida, savdo-madaniy yoʻllar kesishgan chorrahasida joylashganligi tarixan belgilangan boʻlib, bu holat mamlakatimizni kishilik tarixining ilk bosqichlaridayoq Sharq va Gʻarb duyosi oʻzaro muloqotga kirishadigan joy sifatidagi ahamiyatini belgilab berdi. Shuning uchun ham tarix fanining hozirgi taraqqiyot

bosqichida Vatanimiz tarixini jahon sivilizatsiyasining ajralmas muhim tarkibiy qismi sifatida o'rganish talabalar uchun o'ta ahamiyatli hisoblanadi. O'quvchilar shunga alohida e'tibor berishlari lozimki, O'rta Osiyo sivilizatsiyasi turli hududlarda turli davrlarda shakllandi va rivojlandi. Misol uchun, mintaqaning janubiy hududlarida yashagan qadimgi qabilalar mil.avv. VI ming yillikdayoq dehqonchilikka o'tib, unumdor xo'jalikni rivojlantirgan bo'lsalar, bu davrda shimoliy hududlardagi qabilalar asosan ovchilik, baliqchilik va chorvachilikning ilk shakllari bilan shug'ullanganlar. Bu notekislik jarayonini tabiiy geografik sharoitlar va o'zaro aloqalar bilan izohlash mumkin. Bu o'rinda, O'rta Osiyoning cho'l va dasht hududlaridagi hamda daryo vohalari hududlarining rivojlanish darajasidagi madaniy notekislikni qiyosiy taqqoslab ko'rish (Kopetdog', Hisor, Zarafshon tog' oldi hududlari hamda Qizilqum, Qashqadaryo va Zarafshon vohasining dasht hududlari) muhimdir. Undan tashqari, O'rta Osiyoda turli-tuman madaniyat yaratgan qadimgi aholining neolit davridayoq, ya'ni, mil.avv. VI-IV ming yilliklardagi o'zaro 27 munosabatlari va bu aholining Sharqdagi, dastavval Old Osiyodagi boshqa qadimgi sivilizatsiya o'chog'lari bilan uzviy aloqada bo'lishi ham mahalliy sivilizatsiyaning rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatgan.

Shunga ham e'tibor berish lozimki, O'zbekiston sivilizatsiyasining shakllanishi va bosqichma-bosqich rivojlanib borishida mintaqaviy va transmintaqaviy iqtisodiy-madaniy aloqalar tizimi jarayoni asosiy o'rin egallaydi. Chunonchi, mahalliy sivilizatsiyaning shakllanishi va rivojlanishi murakkab tarixiy jarayon bo'lib, u iqtisodiy va ishlab chiqaruvchi xo'jalik turlarining paydo bo'lishi, yoyilishi va evolutsiyasi, ilk boshqaruv shakllarining paydo bo'lishi va taraqqiyoti, qadimgi aholi joylashuvi, migratsiyasi hamda etnogenez jarayonlari, davlatchilik, urbanizatsiya va shahar madaniyati rivoji, o'zaro mahsulot almashuvi, savdo-sotiqning vujudga kelishi va taraqqiy etishi, ilk ulov va transport vositalaridan foydalanishiga o'tilishi kabi ko'plab ijtimoiy siyosiy, harbiy, iqtisodiy hamda madaniy jarayonlar bilan bevosita bog'liq holda kechgan. Yuqorida ta'kidlaganidek, uzoq asrlar davomida xalqaro savdo va aloqa yo'llari chorrahasida joylashgan, hunarmandchilikda, dehqonchilikda va savdo-sotiqda

qadim an'analarga ega bo'lgan O'zbekiston va umuman, O'rta Osiyoda o'tgan asr va asrimiz boshlarida olib borilgan tadqiqotlar mahalliy sivilizatsiyalar taraqqiyoti masalalariga ko'plab aniqliklar kiritish imkonini berdi.

Xususan, tadqiqotlar natijasida topilgan ko'pdan ko'p moddiy madaniyat buyumlari O'rta Osiyo xalqlari ilk yozma manbalar – Ossuriya hujjatlari, Avesto, ahamoniylar podsholarining mixxat yozuvlari, qadimgi Yunon, Rim, Xitoy tarixchi hamda geograflarining asarlarida tilga olinishidan ancha ilgari davrlardayoq rivojlangan madaniyat yaratganliklaridan dalolat beradi. Bu esa zamonaviy talabalar bilishi muhim bo'lgan holatdir. Zamonaviy adabiyotlarda sivilizatsiya taraqqiyoti shartli ravishda ikki davrga bo'linadi. Birinchi davr – bu dastlabki dehqonchilik o'choqlarida yoki ularga yaqin joylarda vujudga kelgan birlamchi sivilizatsiyalar – qadimgi Misr, Mesopotamiya, Hind, Xitoy, Mesoamerika, And sivilizatsiyalaridir. Sivilizatsiyalarning o'zini o'rab turgan olam bilan aloqalari ularning yutuqlarini qo'shni hududlarga tarqatish uchun shart-sharoitlar yaratishi natijasida ikkilamchi sivilizatsiyalar – Suriya, Baktريا, Marg'iyona, Anatoliya, Minoy, Krit-Miken, Yapon va boshqa sivilizatsiyalar paydo bo'lgan. Ularning madaniyati birlamchi sivilizatsiyalar madaniyatiga o'xshash bo'lishi bilan birga qaysidir jihatlari bilan farqlanadi.

Ayrim holatlarda bu jarayon o'zini vujudga keltirgan sivilizatsiyadan ajralib, mustaqil sivilizatsiyaga aylanishga imkoniyat yaratganki, antik davr sivilizatsiyasi bunga misol bo'lishi mumkin. Ikkinchi davr. Ikkilamchi sivilizatsiyalar muttasil kengayishga intilib o'z atrofida juda ko'p aholini, ba'zan bir nechta mahalliy sivilizatsiyalarni birlashtirgan. Natijada jamiyat dinlari shaklidagi mafkura paydo bo'lgan. Shu tariqa sivilizatsiyalarning taraqqiyotida ikkinchi davr boshlanadi. Bu jarayon O'rta Osiyoda mil.avv. VIII–VI asrlar davomida, Hindistonda mil.avv. VI–III asrlarda, Xitoyda mil.avv. III–II asrlarda, Yevropada milodga yaqin davrlarda, Janubiy Amerikada XV asrda pishib yetilgan edi. Xullas, birlamchi yoki ikkilamchi bo'lishidan qat'i nazar, sivilizatsiya – bu dehqonchilik bilan shug'ullanuvchi, shaharlar barpo etuvchi, o'z yozuviga ega va ma'lum qadriyatlar bilan birlashtirilgan ijtimoiy organizmlarning muayyan tarixiy taraqqiyot bosqichidir.

Hozirgi davrda olimlarning katta guruhi odamzotning dastlabki vatani Afrika degan fikrni ilgari sursa, yana bir guruh olimlar Yevropa deyilar. Boshqa bir guruh olimlar esa odam dastavval Osiyoning janubida paydo bo'lgan degan g'oyani ilgari suradilar. Insoniyatning kelib chiqishi va rivojlanishi bir necha asrlar davomida tadqiqotchilar tomonidan o'rganilib turli nazariyalar yuzaga kelgan. Chunki "antropogenez" eng qadimgi davr tarixini o'rganishdagi muhim va dolzarb muammolardan hisoblanadi. Turli mamlakatlarda turli davrlarda yashagan mutafakkirlar insoniyatning paydo bo'lishi haqida ilmiy ta'rifga yaqin fikrlarni bayon etganlar. Xitoy, yunon faylasuflari mil. avv. VI–V asrlardayoq odamning kelib chiqishi tamomila tabiiy hodisa deb ta'riflashga uringanlar. Ko'pchilik tadqiqotchilar insonni mehnat va aqliy jihatdan kamol topishi natijasida hozirgi darajasiga yetib kelgan, degan fikrni ilgari surishlariga qaramay, odamni xudo yaratganligi, yoki boshqa koinotdan kelib yerga tarqalganligi haqidagi nazariyalar ham bor.

Olimlarning ilmiy faraziga ko'ra, biz yashayotgan Ona zamin bundan besh milliard yil ilgari paydo bo'lib, unda dastlab hech qanday hayot bo'lmagan. Ona yer tarixi geologik jihatdan arxey, paleozoy, mezozoy va kaynazoy eralariga bo'linadi. Arxey erasi oxirlarida Yerda juda oddiy mavjudotlar, paleozoyda esa suvda va quruqlikda yashovchi hayvonlar, mezozoyda sudralib yuruvchi jonzorlar, kaynazoyda sut emizuvchi hayvonlar paydo bo'ladi. Kaynazoy erasining to'rtlamchi davri bundan 3–3,5 mln. yil ilgarigi davrni o'z ichiga olib, bu davrda odamzotning dastlabki ajdodlari paydo bo'ladi. Fanda insoniyatning paydo bo'lishi juda murakkab masala bo'lib, bu jarayon asosan arxeologik va antropologik ma'lumotlar bo'yicha o'rganiladi. Ammo, insoniyat paydo bo'lishining afsonalar, rivoyatlar, ilohiyot va koinot bilan bog'liq bo'lgan nazariyalari ham mavjuddir. Misol uchun, yakka xudolikni targ'ib etgan barcha diniy ta'limotlarda insonning paydo bo'lishi yoki yaratilishi ilohiyot bilan bog'lanadi. Xususan, Bibliya ta'limotiga ko'ra, odamzot xudo tomonidan 7 ming yil ilgari "qizil loydan" yaratilgan. Muqaddas Qur'oni Karimda esa odamning loydan yaratilib Allohning irodasi bilan unga jon ato etilgani ta'kidlanadi. Zardushtiylik dinida ham shunga o'xshash rivoyatlar mavjud.

Insoniyatning ilk vakillari sifatida Bibliyada Adam va Eva, Qur’oni Karimda Odam ato va Momo havo, zardushtiylikda esa Iyim nomlari keltiriladi. Undan tashqari Yevropa olimlarining insoniyat qandaydir kichik mavjudotlar (bakteriyalar)dan paydo bo’lganligi yoki koinotdan tushgan odam qiyofasidagi jonotlar haqidagi nazariyalari ham bor. Dunyoviy fanlar, xususan tarix fani yuqoridagi g’oya va nazariyalarni, hatto hozirgi paytdagi gepotezalar – ko’rinmas odam yoki koinotdagi odamlar kabilarni inkor etmagan holda antropogenez jarayonini ilm-fan yutuqlarida erishilgan natijalarning dalillarga asoslanib o’rganadi. Tarix fanida insoniyat tabiatning bir qismi bo’lib, u yerdagi taraqqiyotning ma’lum bosqichida vujudga kelib uzluksiz izlanish va mehnat tufayli takomillashib borganligi haqidagi xulosalar qolgan barcha nazariyalar hamda rivoyatlardan ustunlik qiladi. Fanda odamning paydo bo’lishi va rivojlanish jarayoni antropogenez (yunoncha “antropos” – odam, “genezis” – rivojlanish) deb ataladi. Ilmiy adabiyotlarda antropogenez jarayoni quyidagi to’rtta bosqichga bo’lib o’rganiladi: 1. Odamning ilk ajdodlari. 2. Eng qadimgi odamlar. 3. Qadimgi odamlar. 4. Hozirgi qiyofadagi odamlar. Odamning hayvonot dunyosidagi ajdodlar bilan bog’liqligi haqidagi g’oya ingliz olimi Ch.Darvinga tegishli bo’lib, uning nazariyasi bo’yicha, insonning hayvonot dunyosida ajralib chiqishidagi asosiy omillar – tabiiy saralanish va jinsiy tanlanishdir. Jamiyatshunos olimlar bu jarayonda mehnatning roli yuksak bo’lganligi ham ta’kidlaydilar.

Ingliz olimlari ota-bola Likilar o’tgan asrning 50–60-yillarida Sharqiy Afrikada (Olduvoy darasida) qazishma ishlari olib borib oddiy tosh qurollar va qazilma odam qoldiqlarini topib, ular bundan 3–3,5 mln. yil ilgari mavjud bo’lgan degan g’oyani ilgari surdilar. Fanda eng qadimgi odamlar avstralopitek, zinjanthrop, pitekanthrop va sinantropolar deb ataladi. Olimlar ularni Homo habilis – xomoxabilis – ishbilarmon odamlar turiga kiritgan. Avstralopitek (lotincha australis – janubiy, pitiekos – maymun, janub maymuni)lar bundan 6–5 million yil ilgari shakllanganlar. Tanzaniyaning Zinj qishlog’i yaqinidan topilgan eng qadimgi odamlar zinjanthrop deb nomlagan, ular Avstralopitek bundan 2–1,5 million yil ilgari yashaganlar.

Zinjanthroplardan keyingi davrda yashagan qazilma odamlar qoldiqlari Indoneziyadagi Yava orolidan XIX asrning oxirlarida topilgan bo'lib, fanda ularni Pitekanthrop (maymun - odam) deb atash rasm bo'lgan. Pitekanthroplar bundan taxminan 1 mln. – 700–600 ming yil ilgari (E.Dyubua) yashaganlari aniqlangan. Shuningdek, 1927-yilda Xitoy hududlaridan topilgan (D.Blek) qadimgi odam qoldiqlari (Sinantrop – Sinantrop – Xitoy odami) bundan 600–500 ming yil ilgarigi davrga oidligi aniqlangan. Undan tashqari eng qadimgi qazilma odam qoldiqlari Germaniyaning Geydelberg, Vengriyaning Budapesht shahri yaqinidan ham topilgan.

Olimlar pitekanthrop va sinantroplarni Homo erectus (xomoerectus), ya'ni, tik yuruvchi odam turiga kiritadilar. Tadqiqotchilarning fikrlariga qaraganda, zinjanthrop, pitekanthrop, sinantroplar eng qadimgi odamlar shakllanib rivojlanishining turli tarixiy bosqichlaridir. Bu turdagi qadimgi odamlar gavdalarini tik tutib yurganlar va toshdan turli mehnat qurollari yasab ulardan foydalana bilganlar. Qurol yasay bilishi, o'simlik ildizlari va mevalarni iste'mol qilishda shu qurollardan foydalanishi, shuningdek, ayrim hayvonlarni ovlashi qadimgi odamlarni hayvonot olamidani ajratib turgan. Arxantroplar – eng qadimgi odamsimon maymunlarning odamga aylanishi jarayonidagi oraliq mavjudotlar bo'lib, ularda maymun va odamning belgilari mujassamlashgan. Bu o'rinda shuni ta'kidlash joizki, Arxantroplar (qadimgi odamlar) eng qadimgi odamlardan farqlanib, ular zamonamizdan 100–50 ming yil keyin yashaganlar. Qadimgi odamlarning qazilma qoldiqlari dastavval Germaniyaning Neandertal vodiysidan topilganligi sababli fanda ularni "Neandertal odami" deb nomlash qabul qilingan. Neandertal qiyofadagi odamlarning suyak qoldiqlari bugungi kunga qadar Afrika, O'rta Yer dengizi qirg'oqlari, O'rta Osiyo, Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlari hududlaridan, Qora dengiz bo'ylaridan, Shimoliy Yevropa hamda Osiyo yerlaridan ko'plab topilgan. Bu qiyofadagi odamlar jismoniy jihatdan nisbatan ancha baquvvat bo'lib, 25–26 yil umr ko'rgan. Ular toshdan xilma-xil qurollar yasashni bilganlar. Neandertallarning tashqi qiyofasi, gavda tutish va fikrlashida hayvonotga xos bo'lgan belgilar saqlanib qolgan bo'lib, ularning

bosh miyasi u qadar rivojlanmagan. Lekin zamonaviy qiyofadagi odamga ancha yaqinlashib qolgan edilar.

1968-yilda tadqiqotchilar Fransiyaning Tordoni viloyati, Kromanon g'oridan 5 ta odam dafn etilgan mozorni ochib o'rganadilar. Tadqiqotlardan shu narsa ma'lum bo'ldiki, bu yerda baland bo'yli (180 cm), tashqi ko'rinishi va qiyofasi, miya hamji zamonaviy odamlarga o'xshash odamlar dafn etilgan. Olimlar g'ordan topilgan odamlar qoldiqlarini g'or nomi bilan —kromanon odami, ya'ni Homo sapiens (Xomosapiens – aql-idroki odam) deb atadilar. Zamonaviy odam qoldiqlari bugungi kunda yer yuzining yuzdan ziyod makonlaridan ochib o'rganilgan.

Ta'kidlash lozimki, kromanon odami zamonasiga kelib dastlabki ajdodlarimizning biologik va jismoniy qiyofasi hozirgi zamon odamidan farq qilmaydigan darajada edi. Kromanonlar davri urug'chilik jamoasi davri edi. Jamiyat taraqqiyotining sivilizatsion ko'rinishi. Eng qadimgi odamlar o'zlarining rivojlanish bosqichlarida mehnat qurollarining turlarini ko'paytirib va sifatini yaxshilab borganlar. Inson, oila, xalq Ishlab chiqarishning umumiy-texnologik manbai Ishlab chiqarishning iqtisodiy manbalari Qayta ishlab chiqarish tizimi Xususiy mulk turlari va shakllari Savdo-sotiq va o'zaro almashuv Siyosiy Madaniyat Bilim qobiliyat Bilimlar Mahorat yoki ishbilarmonlik Xohish va istaklar erkinliklar Ishlab chiqarish manbalari Mehnat qurollari Er osti va er usti boyliklari Tabiiy joylashuv va shart-sharoitlar Ishlab chiqarishning tashkil etilishi Ijtimoiy-siyosiy munosabatlari Etnik Davlat boshqaruvi Huquqiy Madaniy munosabatlari Odob va axloq Mafkura va din Ehtiyojlar va talablar Mehnat vositalari Ijtimoiy Fan Natijada ularning turmush tarzida, jismoniy ko'rinishida o'zgarishlar bo'lib borgan. Shuningdek, miya hajmi ham o'zgarib borgan. O'rta tosh asridagi turli sabablarga ko'ra, birinchi navbatda tinimsiz mehnat jarayonida inson tafakkurining rivojlanishi natijasida neandertal qiyofasidagi odamlar hozirgi qiyofali odamlarga aylana bordilar. Ular jismoniy va aqliy jihatdan kamol topib, hozirgi qiyofadagi kishilar vujudga keldi va shu bilan antropogenez jarayoni nihoyasiga yetdi. Odamning paydo bo'lishi yerdagi eng buyuk hodisalardan biri bo'lib, u dastlab toshdan oddiy to'qmoq yasagan bo'lsa, uzluksiz mehnat, tinimsiz intilish natijasida yuksak

madaniyat yaratish darajasiga yetib keldi. Antropogenez jarayonida mehnatning o'zgartiruvchanlik mohiyatini arxeologiyaga oid turli-tuman manbalar tasdiqlaydi. Turli davrlarga oid moddiy madaniyatning almashishi hamda yangi asoslarda rivojlanishi moddiy manbalarning tashqi ko'rinishidan ham aniqlanadi. Ko'p ming yillar davomida rivojlangan tarixiy jarayonlar – odam va jamiyat taraqqiyotida asosiy, bosh mezon mehnat ekanligidan dalolat beradi.

Davlat boshqaruvining paydo bo'lishi insoniyat tarixida muhim muvaffaqiyat va sifatiy yangi bosqich bo'ldi. Dunyo tarixidagi qadimgi davlatlarning paydo bo'lishi va takomillashuvida O'rta Osiyo va unga qo'shni hududlarda yashagan xalqlarning ham hissasi katta bo'ldi. Dunyo tarixida shaharlar, siyosiy birlashmalar, uyushmalar, keyinroq davlatlarning paydo bo'lishi uzoq davom etgan jarayondir. E.V.Rtveladzening fikricha, bu jarayon turli xalqlarda turli yo'llar bilan bo'lib o'tgan. Birinchidan, davlatlar paydo bo'lishining osiyocha ishlab chiqarish usuliga asoslangan «Sharq yo'li» bo'lib, unda iqtisodiyotning asosini sug'orma dehqonchilik tashkil etgan; dehqonchilik jamoasi jamiyatning birlamchi yacheykasi edi; aholining katta qismini safarbar etish zaruriyati prinsipial boshqaruvchilarni taqazo etgan. Ishlab chiqarishning osiyocha usuli mil.avv. IV ming yillikdan milodiy I asrgacha yirik daryolar vodiylarida joylashgan Misr, Bobil, Xitoy, Hindiston, O'rta Osiyo kabi hududlarda yoyilgan. Davlat tuzilmasining ikkinchi, «Yevropacha yo'li» Yevropa hududida mil.avv. V asrdan boshlab milodiy III asrgacha qadimgi yunon polislarida mavjud bo'lgan. Ularda xususiy mulkchilik shakllanishi tufayli kelib chiqqan jamiyatning ijtimoiy mulkiy tabaqalanish jarayoni (tabaqalar shakllanish jarayoni) asosiy omil bo'ldi. Ma'lum bir qabila, elat va xalqqa xos hamda muayyan rivojlanish bosqichlari boshqa xalq va hududlardagi davlatchilik jarayonlariga aslo mos tushmaydi. Shunga qaramay, qadimgi Sharqdagi ilk davlatlarning paydo bo'lishi va rivojlanishi ko'pgina umumiy jihatlarga ega ekanligini ta'kidlash joizdir. Aynan mana shuning uchun ham O'rta Osiyoda ilk davlatlarning paydo bo'lishi qadimgi Sharq davlatchiligi tarixi bilan uzviy bog'liqdir. O'rta Osiyo, umuman O'zbekiston hududlarida dastlabki davlatchilikning paydo

bo'lishi masalalari tadqiqotchilar orasida hamon bahslar sabab bo'lib kelmoqda. Bu o'rinda ushbu jarayonga asosiy turtki bo'lib yanada jadallashtirgan omillarni aniqlash nihoyatda muhimdir. Bronza davridayoq sun'iy sug'orishga asoslangan dehqonchilik O'rta Osiyo xo'jaligining asosini tashkil etgan. Sug'orma dehqonchilikning yuqori unumdor shakllari jamiyatda hal qiluvchi o'zgarishlarga olib keldi. Xususan, dehqonchilik rivoji natijasida qo'shimcha mahsulot va xususiy mulk ko'rinishlari paydo bo'ldi. O'rta Osiyoda ilk davlat uyushmalari sun'iy sug'orish birlamchi qulay bo'lgan Amudaryo (yuqori, o'rta, quyi) oqimlari bo'ylarida, Murg'ob vohasida, Zarafshon va Qashqadaryo vohalarida shakllanib rivojlanadi. Bunday holatni dunyo tarixidagi dastlabki davlatlar – Misr (Nil) va Mesopotamiya (Dojla va Frot) misolida ham kuzatishimiz mumkin. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, dastlabki yirik shahar markazlarining paydo bo'lish muammolari davlatlar paydo bo'lishi masalalari bilan uzviy bog'liq muammo hisoblanadi. Ta'kidlash joizki, bizga qadar etib kelgan yozma manbalar O'rta Osiyo hududlarida ilk davlatlar paydo bo'lishi haqida nisbatan aniq ma'lumotlar bermaydi. Bu o'rinda arxeologik ma'lumotlarning ahamiyati beqiyosdir. Jamiyat hayotida metallning keng yoyilishi – dastlabki shaharlar va davlatchilikning asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Hozirgi kunga kelib O'rta Osiyoning juda ko'plab bronza va ilk temir davri yodgorliklaridan (Anov, Sopolli, Jarqo'ton, Qiziltepa, Ko'zaliqir, Afrosiyob, Daratepa, Chust, Dalvarzin va boshq.) ishlab chiqaruvchi xo'jalik bilan bevosita bog'liq bo'lgan metall qurollar topib o'rganilgan. Mehnat qurollarining metalldan ishlanishi mehnat unumdorligining yanada oshishiga keng imkoniyatlar yaratdi. So'nggi bronza davriga kelib hunarmandchilikning ixtisoslashuvi va alohida xo'jalik tarmog'i sifatida shakllanib rivojlanishi jamiyatdagi iqtisodiy taraqqiyot uchun muhim ahamiyatga ega bo'lib, asosini ilk shaharlar tashkil etgan davlatchilikning paydo bo'lishi uchun muhim bo'lgan qo'shimcha mahsulot ko'payishiga turtki bo'ldi.

Ilk davlatlarning paydo bo'lishida ilk shaharlardagi o'zaro ayirboshlar, savdo-sotiq va madaniy aloqalarning ham ahamiyati nihoyatda katta bo'lgan. So'nggi bronza davriga kelib shimoldagi ko'chmanchi chorvador qabilalar va janubdagi o'troq dehqonchilik

aholisi o'rtasida o'zaro mol ayirboshlash va madaniy aloqalar yanada jadallashadi. Janubiy va shimoliy hududlaridan topilgan topilmalardagi juda ko'pgina o'xshashliklar bu hududlar o'rtasidagi o'zaro iqtisodiy va madaniy aloqalardan, qadimgi yo'llarning taraqqiy etganligidan dalolat beradiki, bu jarayonlar ham dastlabki shaharlar bilan birga ilk davlatchilikning asosiy omillaridan hisoblanadi. Ko'pchilik tadqiqotchilarning fikrlariga qaraganda, O'rta Osiyoda eng qadimgi shakllanish jarayoni dehqon-chorvachilik iqtisodiyoti, ixtisoslashgan hunarmandchilik va shahar markazlarining paydo bo'lishi bilan uzviy bog'liqdir.

Hozirgi kunga qadar olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijalari bu hududlarda ilk temir davridagi ijtimoiy-siyosiy rivojlanishning ayrim muhim masalalarini yangi asosda izohlashga imkoniyat yaratadi. Ammo, shunga qaramasdan bu masala to'liq yechimini topmagan bo'lib, xususan, O'rta Osiyo qadimgi davlatlari tipologiyasi va xronologiyasi, davlatchilik taraqqiyotida ilk shaharlarning ahamiyati muammosi shular jumlasidandir. XIX asrning oxirlaridan boshlab hozirgi kunga qadar olib borilgan "Avesto" ma'lumotlari (viloyatlarning Aryoshayona bo'yicha birlashishi), Gerodot va Gekatey asarlari ("Katta Xorazm"), shuningdek Ktesiyning Qadimgi Baqtriya davlati haqidagi ma'lumotlari va nihoyat, arxeologik tadqiqotlar natijalari O'rta Osiyoda ilk davlat uyushmalarining paydo bo'lishi muammolarini o'rganish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Bunday sharoitda chorvador aholining ma'lum bir qismi xo'jalikning yarim o'troq va chorvachilik shakliga o'tishga majbur bo'ladilar. Shuning uchun ham O'rta Osiyodagi mill.avv. VI-IV asrlarga oid ko'chmanchilar yodgorliklari o'troq aholi hududlari chegaralarida (Orolbo'yi, shimoliy Turkmaniston, Zarafshonning quyi oqimi, Pomir va boshq.) joylashganligi tasodifiy hol emas. A.Sagdullayevning fikricha, Aryoshayona kabi viloyatlar uyushmasi vaqtinchalik va qoloq bo'lib, Qadimgi Baqtriya kabi nisbatan yirik siyosiy uyushmalarining paydo bo'lishiga O'rta Osiyo o'troq va ko'chmanchi aholi o'rtasidagi doimiy siyosiy qarama-qarshiliklar sabab bo'ladi. Aholi aralash joylashuvi hududlarida o'troq viloyatlar siyosiy uyushmalarining shakllanishiga turtki bo'lgan omillardan biri - O'rta Osiyoning janubidagi dasht

hududlarda joylashgan ko'chmanchi qabilalar hujumi xavfli edi. Mil.avv. VII–VI asrlarga kelib bunday hujumlar tez-tez bo'lishi muqarrar edi.

Chunki, O'rta Osiyoning ko'pgina tog' va dasht hududlarida yilqichilik keng tarqalib, ko'chmanchilarning o'zlari esa katta jangovar muvaffaqiyatlarga erishib, jiddiy xavf tug'dira boshlaydilar. Mil.avv.VIII asrning oxiri – VII asrga kelib O'rta Osiyoning janubidagi qishloqlar rivojlanishiga jadallik bilan o'zgarishlar boshlanib, Baqtriya va So'g'diyona hududlarida o'zida shaharsozlik belgilarini (mustahkam devorlar, saroylar, burjlar, xandaqlar, devorlardagi o'q otish yo'laklari va boshq.) aks ettiruvchi makonlar paydo bo'ladi. Ilk temir davriga oid bunday manzilgohlarning soni Baqtriya, Marg'iyona va So'g'diyonada 20 tadan ziyodroq. Asosiy manzilgohlar esa (maydoni 5 ga dan kam) qishloq qo'rg'onlari uchun katta bo'lmagan alohida qal'alar va dehqonchilik qishloqlaridan iborat. Shaharlar turiga kiritish mumkin bo'lgan, kattagina qo'rg'onli mustahkamlangan manzilgohlar ayrim qadimgi dehqonchilik viloyatlarida (Surxon, Qashqadaryo, Zarafshon havzalari va boshq.) bitta yoki ikkitadan ko'p bo'lmagan.

Ilk davlatlarning asosiy belgilari: Ijtimoiy-iqtisodiy belgilar, arxeologik belgilar, aholi sonining oshishi va ijtimoiy tabaqalanishni ko'rsatuvchi belgilar. Turar joy manzilgohlarining oshishi; manzilgohlarning hududiy kengayishi; qabrlar va ularda uchraydigan topilmalarning son va sifat ko'rsatgichlari. Ilk davlat markazi – shaharning mavjudligi. Shaharlarning paydo bo'lishi; shahar atrofida qishloq-manzilgohlarning jamlanish jarayoni. Hunarmandchilikning rivojlanishi. Hunarmandchilik sohalarining markazlashish jarayoni; hunarmandchilik mahsulotlari turlarining oshishi, sifatiy o'zgarishlar. Dehqonchilikning rivojlanishi. Mehnat qurollarning takomillashuvi; sun'iy sug'orish shoxobchalalari va kanallarning paydo bo'lishi; ekin turlari sonining oshishi. Chorvachilikning rivojlanishi. Uy hayvonlari suyaklari sonining oshishi. Harbiy ishlarning takomillashuvi. Harbiy istehkomlar mavjudligi; qurollarning takomillashuvi; mudofa inshootlar, burjlar. Kishilarni ruhiy birlashtiruvchi markazlashgan din Oila altarlarining mavjudligi; monumental ibodatxonalar.

Davlatning asosiy belgilari quyidagilardan iborat: 1. Aholining hududiy asosga ko'ra birlashganligi. 2. Milliy suverenitetga egaligi (ichki va tashqi siyosatni amalga oshirishdagi mustaqillik). 3. Maxsus boshqaruv va majburlov apparatining mavjudligi. 4. Huquq tizimining mavjudligi. 5. Soliq tizimiga egaligi. Davlatlarni tiplarga ajratishda formatsion va sivilizatsion yondashuvlar mavjud. Formatsion yondashuv – davlatlarni ijtimoiy, iqtisodiy darajasini, bazis va ustqurmasi, sinfiy mohiyati, maqsadi, vazifalari hamda funksiyalari mezoniga ko'ra tiplarga ajratishdir. Sivilizatsion yondashuv – davlatning ijtimoiy-iqtisodiy tuzumi va funksiyalari bilan bir qatorda ko'proq ularning tarixiy-madaniy taraqqiyoti, an'anaviy, axloqiy va madaniy rivojlanish darajasiga qarab tiplarga ajratishdir. Ta'kidlash joizki, hozirgi kunda davlatchilik masalalari bilan shug'ullanayotgan tadqiqotchilarning aksariyati sivilizatsion yondoshuvni qo'llab-quvvatlaydilar.

A.S.Sagdullayev qadimgi boshqaruv tizimi quyidagi funksiyalar bilan bog'liq holda amalga oshirganligini ta'kidlaydi: iqtisodiy, ijtimoiy, harbiy-siyosiy va hududiy. Davlatning jamiyat taraqqiyoti va uning siyosiy tizimida tutgan o'rni quyidagicha izohlanadi: 1. Ma'lum hududlardagi davlat o'z hududi doirasida yashovchi tilidan, dinidan, millatidan qa'ti nazar, barcha aholiga hokimiyat ta'siri o'tkazadigan yagona siyosiy tashkilotdir. 2. Davlat o'z ichida va tashqi aloqalarda yo'lga qo'yiladigan munosabatlarda boshqa ijtimoiy-siyosiy tashkilotlardan farq qilgan holda, oliy hokimiyatga, to'la suverenitetga egadir. 3. Davlat jamiyat hayoti taraqqiyotining turli sohalari va yo'nalishlarini muvofiqlashtirib turadi.

2. Vatanimiz ozodligi va mustaqilligi uchun kurashgan buyuk siymolar

Tarixiy manbalarning ma'lumot berishicha, O'rta Osiyo xalqlari hamoniylar bosqiniga qarshi qattiq kurash olib borganlar. Xususan, massaget qabilalari malika To'maris (Tomiris) boshchiligida forslarning turli hiyla-nayranglar ishlatishiga qaramasdan ularning katta qo'shinini tor-mor etadilar. Malika To'maris va massagetlarning harbiy mahorati tufayli bu jangda hamoniylar hukmdori Kir II ham halok bo'ladi. Gerodot xabar

berishicha, "Bu jang varvarlar (massagetlar) ishtirok etgan janglar orasida eng dahshatlisi edi... Kamon o'qlari tugagach, qo'l jangi boshlanib nayza va qilich bilan kurashdilar. Qo'shinlar jangi uzoq vaqt davom etdi. Nihoyat massagetlar g'alaba qozondilar". Kir II qo'shinlarining massagetlar tomonidan tor-mor etilishi mil. avv. 530-yilga to'g'ri keladi. Tarixchi Polien forslarga qarshi kurashgan Shiroq qahramonligi haqidagi afsona to'g'risida xabar beradi. Uning xabariga ko'ra, sak qabilalarining vakili bo'lgan Shiroq ismli cho'pon hiyla yo'li bilan 112 forslarning katta qo'shinlarini suvsiz sahro ichkarisiga adashtirib qo'yadi. Shiroq ham, fors qo'shinlari ham ochlik va tashnalikdan halok bo'ladilar. Mil. avv. 522-yilda ahamoniylar taxtiga Doro I o'tiradi. U taxtga o'tirishi bilanoq Parfiya, Marg'iyona va "saklar o'lkasi"da forslarga qarshi qo'zg'olonlar ko'tariladi. Behistun yozuvlariga qaraganda, 522-yilning oxirida Marg'iyonada ko'tarilgan qo'zg'olonga Frada ismli kishi boshchilik qiladi. Doro I Baqtriya satrapi Dadarshish boshchiligidagi qo'shinlarni qo'zg'olonchilarga qarshi jo'natadi. Qo'zg'olon shavqatsizlarcha bostirilib 55 ming marg'iyonalik halok bo'ladi. Frada ham qo'lga olinib qatl ettiriladi. "Saklar o'lkasi"dagi forslarga qarshi kurashga Skunha boshchilik qiladi. 519–518-yillarda bo'lib o'tgan bu kurashda saklar forslar tomonidan mag'lubiyatga uchraydi. Saklarning ko'pchiligi o'ldirilib, ko'pchiligi asir olinadi. Ularning yo'lboshchisi Skunha asir olinib, o'rniga boshqa yo'lboshchi tayinlanadi. Xullas, forslar O'rta Osiyodagi mahalliy aholining qahramonona qarshiligini qiyinchilik bilan sindirganidan keyingina bu hududlarni batamom o'zlariga bo'ysundirdilar.

Aleksandr dastlab Yaksart bo'yida o'z mavqeini mustahkamlashga qaror qilib, bu yerdagi qo'zg'olonlarni bostirdi. Sug'diyonada mil.avv. 329-yil kuzida Spitaman boshchiligidagi qo'zg'olonni (Maroqandda) bostirish uchun sarkarda Farnux boshchiligidagi qo'shinlarni jo'natdi. O'zi asosiy kuchlar bilan saklar ustiga yurish qildi. Ammo, bu yurish muvaffaqiyatsiz tugadi. Farnux boshchiligidagi Maroqandaga jo'natilgan qo'shinlar Spitaman tomonidan mag'lubiyatga uchradi. Aleksandrning o'zi asosiy kuchlari bilan So'g'diyonaga qaytishga majbur bo'ldi. O'rta Osiyo hududlarida ko'tarilgan qo'zg'olonlar yunon-makedon

zulmidan ozod bo'lishga qaratilgan bo'lib, Aleksandrning «varvar» larni osonlikcha bosib olmoqchi bo'lgan rejalarini puchga chiqardi. So'g'diyonaning tog'li hududlaridagi bosqinchilar qadami yetmagan joylarda qo'zg'olonchilar yashirib olgan edilar. So'g'diyonaning deyarli barcha aholisi Spitaman tomonida bo'lib, uning g'alabalariga katta umid bog'lagan edilar. Aleksandr esa, mil.avv. 329–28-yillar qishlovini Baqtriyada (ba'zi manbalarda Navtakada deyiladi) o'tkazar ekan vaqtni behuda ketkazmadi. U bu yerda Xorazm hukmdori Farasman bilan muzokaralar olib bordi. Natijada Aleksandrning Xorazmga yurish rejasi to'xtatildi (bunga Farasmaning «daryo ortidagi saklar davlati» hujumidan xavfsirashi hamda Aleksandrning yurishlarini to'xtatish harakatlari sabab qilib ko'rsatiladi). Mil.avv. 328-yilning bahoridan yunon-makedonlarga qarshi kurash yana avj oldi. Mahalliy aholi yirik shaharlar, qal'alar, tog'li hududlarda kurashni davom ettirdilar. Ahvol jiddiylashganidan xavotirga tushgan Aleksandr 30 ming qo'shinini 5 guruhga bo'lib, bu guruhlarga ishonchli sarkardalar – Gefestion, Ptolemey Lag, Perdikka, Ken va Artabozlarni boshliq etib tayinladi. Yunon-makedonlarning shafqatsiz urushlari natijasida ko'pgina mahalliy aholi qirilib ketdi. Qolganlari ham tog'li hududlarda kurashni davom ettirdilar. Bu o'rinda Spitamaning jasorati haqida to'xtalish joizdir. U doimo raqiblarining zaif joylarini izlar va ularga aynan o'sha joylardan zarbalar berar edi. Spitaman So'g'diy va baqtriyalik zodagonlar hamda saklar bilan ittifoqlikda dushmanga qarshi kurashishga harakat qildi. Manbalarning ma'lumot berishicha, mil.avv. 328-yilning oxirida Spitaman o'z vatandoshlari xiyonatining qurboni bo'ladi. Spitaman tajrihali davlat arbobi va sarkarda bo'lib, u bosqinchilarni Ona yurtidan haydab chiqarishi uchun imkoniyati bo'lgan barcha tadbirni ko'rdi, choralardan unumli foydalanishga harakat qildi. U mohir sarkarda bo'lib, dushmanning kichik xatosidan ham unumli foydalanar va uning zaif tomonlarini topishga harakat qilardi. Ammo, Aleksandr harbiy kuch-qudrati jihatdan Spitamandan ustun edi. Spitaman halok bo'lganidan so'ng asosan tog' qal'alari qo'zg'olon o'choqlariga aylanadi. Yozma manbalarda eslatilgan «So'g'd qoyasi» (yoki «Arimaz qoyasi»), «Xorien qoyasi» shular jumlasidandir.

Tariximizdagi ulug' zotlardan biri mo'g'ul bosqinchilariga qarshi mardonavor kurashgan, Vatan ozodligi yo'lida jon fido qilgan buyuk sarkarda, mardlik timsoli bo'lmish Jaloliddin Manguberdi hisoblanadi. O'rta asr musulmon mualliflari, jumladan uning vaziri va munshiysi bo'lgan an-Nasaviy uni Mankburni (ya'ni, mank «belgi», «xol» degan, «xoldor burunli» degan ma'noni anglatgan) nomi bilan atashgan. Istiqlol sharofati bilan ozodlik va erk kurashchisi bo'lmish buyuk sarkarda Jaloliddin Manguberdining tarixiy nomi qayta tiklandi. Ular orasida milliy qahramonimiz Jaloliddin Manguberdining betakror nomi yulduzdek charaqlab turadi. Sulton Jaloliddin siymosi nafaqat Xorazm, balki butun O'zbekistonning faxr-u g'ururidir», – degan ta'rifi qo'yilgan mavzu mohiyatini to'liq o'zida mujassam etadi. Jaloliddin og'ir bir paytda, Movarounnahr urush domiga tortilgan, mamlakatning katta qismi mo'g'ullar tomonidan istilo etilgan, xorazmshohlar qo'shini yakson qilingan, amirlarning bir qismi xoinlik, qolgani o'z joni-mulkini asrash yo'lga tushgan, sulton mamlakatni o'z holiga tashlab qo'ygan, o'zaro sarosima va tahlika hukm surgan bir vaqtda tarix sahnasida paydo bo'ldi. Jaloliddin shunday bir og'ir vaziyatda, Vatan va xalq erki uchun kurashib, mo'g'ullarga qarshi 11 yil davomida kurash olib bordi, 14-marotaba mo'g'ullarga qarshi ot surib, uning 13 tasida g'oliblikni qo'lga kiritishga muvaffaq bo'ldi. Mo'g'ullar bosqini arafasida Jaloliddin garchi katta o'g'il bo'lsa-da, buvisi Turkon-xotun tomonidan hokimiyatdan chetlatilgan bo'lib, taxt vorisi etib Turkon-xotun urug'idan bo'lmish boshqa bir shahzoda Qutbiddin O'zloqshoh valiahd deb e'lon qilingan edi. Taomilga ko'ra shahzodalarga hududlar mulk etib bo'lib berilgan edi, jumladan G'azna, Bamiyon, al-G'ur, Bo'st, Takinobod, Zamin-Davora va Hindiston bilan chegaradosh yerlar esa Jaloliddinga mulk etib berilgan edi. Garchi Jaloliddin buvisining izmi bilan markazdan chetlatilgan bo'lsa-da, lekin sulton unga alohida muhabbat bilan qarar, uning jasurligini qadrlar va o'zidan uzoqlashib ketmasligini xohlar edi. Shuning uchun ham unga vazir etib taniqli davlat amaldori Shams-al Mulk Shahobiddin Alp al-Haraviyni, noib (o'rinbosar) etib esa sarkarda Kuzbar Malikni tayinlaydi.

Mo'g'ullar ta'qibidan hayiqib, ma'lum vaqt Xurosonda sargardon bo'lgan Muhammad xorazmshoh plevrit (o'pkaga suv yig'ilish) kasali bilan og'rib, taxminan 1220-yilning oxirlarida (hijriy 617-y.) quvg'inlikda Kaspiy dengizidagi Ashuradi orolida vafot etdi. O'limi oldidan sulton Jaloliddinni «taxt vorisi» deb e'lon qilib, sultonlik ba'zi rutbalarini unga topshirdi. Jaloliddin o'z inilari O'zloqshoh va Oqshohlar bilan otasini dafn etgach, 70 ta kishisi bilan to'g'ri Urganchga (Gurganj) keladi. Tez orada unga Xo'jand hokimi Temur Malik va boshqa erksevar kishilar ham kelib qo'shiladilar.

Xalq Jaloliddin Manguberdini shod-u xurramlik va katta umid bilan kutib oladi. Lekin, inisi O'zloqshoh va uning tarafdorlari unga qarshi fitna tayyorlayotganidan xabar topgach, bu alfozda mo'g'ullarga qarshi kurashib bo'lmashligini tushungan Jaloliddin 300 ta kishisi bilan yashirincha poytaxtni tark etadi. Hozirgi davrdagi yangi tadqiqotlar shuni ko'rsatayaptiki, Jaloliddinning mo'g'ullar bilan ilk to'qnashuvi avval boshida Jand viloyatidagi Irg'iz dashtida bo'lgan. Jaloliddin 16 kun ichida Xorazmdan Xuroson yerlaridagi Niso qo'rg'oni atrofiga yetib keladi. Chingizxon sulton o'g'illarining Xorazmga qaytganliklaridan xabar topgach, agarda ular Xurosonga chekinmoqchi bo'lsalar, ularga qarshi chiqadi degan maqsadda o'z qo'shinidan Xurosonning har yeriga pistirmalar qo'yadi.

Jaloliddin Niso yaqinida o'zining 300 ta askarlari bilan mo'g'ullarning 700 kishilik otryadini zarbaga uchratadi. Mo'g'ullar batamom mag'lub etiladi. Ushbu g'alaba mo'g'ullarning «afsonaviy qudrati» haqidagi mish-mishlarga chek qo'yadi. Jaloliddin obro'si ko'tarilib, xalq ommasida g'alabaga bo'lgan ishonch mustahkamlanadi. Shunday bir vaziyatda Jaloliddinning ukalari O'zloqshoh va Oqshohlar sarosimaga tushib, nima qilishlarini bilmay, Jaloliddin ketidan ular ham Xurosonga ketishadi. Mo'g'ullarning kichik otryadi ustidan g'alaba qozonib, bu g'alabaga juda katta e'tibor berib yuborishadi. Shundan so'ng ayshishratga berilib, Xurosonning Habushan shahri yaqinida mo'g'ullarga qarshi navbatdagi kurashda qo'lga tushib, qatl etiladilar. Mo'g'ullar qatl etilgan shahzodalarning kallalarini namoyishkorona tarzda ma'lum bir vaqt Xurosonda olib yurishadi.

Jaloliddinning yana bir inisi, Iroq yerlarining noibi Rukniddin G'ursanjiy (manbalar unga «aql-zakovat va ko'rkamlikda tengi yo'q» deb ta'rif berishgan) Eronning Ustunavand qal'asida 6 oy mo'g'ullarga qarshi kurash olib borib, mardonavor tarzda halok bo'ladi. Jaloliddinning boshqa bir ukasi, bir vaqtlar Kirmon, Makron va Kesh yerlari noibi G'iyosiddin Pirshoh Eronning Kirmon viloyatida muqim qolib, o'zini «sulton» deb e'lon qiladi. Keyinchalik G'iyosiddin Pirshoh Jaloliddinga Eron yerlaridagi kurashlarida ma'lum yordam beradi. Jaloliddin esa bu vaqtda Nishopurga yetib keladi. Bir oy davomida mo'g'ullarga qarshi kurashish maqsadida barcha amir, sarkardalarga qo'shin yig'ish xususida murojaat qiladi.

Mo'g'ullar uning ushbu faoliyatidan xabardor bo'lganliklarini bilgach, Zavzon (Nishopur va Hirot oralig'ida) tumanidagi al-Qohira qal'asiga kelib o'mashadi. Afsuski, bu vaqtda mahalliy noib, hokimlar uning atrofida jipslasha ololmaydilar. Hali yetarli kuchga ega bo'lmagan Jaloliddin qal'ada uzoq turish xavfli ekanligini tushunib, G'azna tomon yo'l oladi. Chingizxon esa bu vaqtda ulkan qo'shin bilan Xurosonga izma-iz kelayotgan edi. Jaloliddin G'aznaga yetmasdan yaqin orada Hirot hokimi hamda qayinotasi bo'lmish Amin Malik bilan uchrashadi va ular birgalikda Qandahor qal'asini qamal qilayotgan mo'g'ullar ustiga yurish qiladilar. Jaloliddin bu kurashda harbiy ilm tarixida ilk bora "piyoda yoyandozlar"ni mo'g'ullarning otliq askarlariga qarshi qo'yadi. Inglizlar keyinchalik bu harbiy usulga yuqori baho berib, o'zlarining Kress yonidagi mashhur janglarda undan foydalanishadi. Uch kunlik jangdan so'ng mo'g'ullar mag'lub etilib, Jaloliddin g'olib bo'ladi va u G'azna tomon yo'l oladi. U 1221-yilning fevralida G'aznaga kirib keladi. Manbalarda qayd etilishicha, xalq Jaloliddinni juda katta tantana bilan kutib oladi. Shahar xuddi hayit bayramidek shod-u hurramlikka to'ladi. G'aznada Jaloliddin xizmatiga Sayfiddin O'g'roq al-Xalajiy, Balx hokimi A'zam Malik, afg'on qabilalari sardori Muzaffar Malik va qarluqlar rahbari al-Hasan qarluq o'z qo'shinlari bilan qo'shiladilar.

Jami qo'shinining soni tarixchilarning xabariga ko'ra 90–130 ming kishi atrofida bo'lgan. Chingizxon Jaloliddinning kuch-qudrati oshib borayotgani va mo'g'ullar undan Qandahorda zarbaga uchraganligidan g'azablanib, no'yon Shiki Xutuxu boshchiligidagi qo'shinni uning ustiga yuboradi. U 1221-yilning kuzida Jaloliddin yerlariga yaqinlashib keladi. Bu vaqtda mo'g'ullarning Tekechuk va Molgor boshchiligidagi peshqadam guruhi Chorikordan shimolroqdagi Valiyon qo'rg'onini qamal qilishni boshlagan edi. Jaloliddin bir hamladayoq mo'g'ullarni zarbaga uchratishga muvaffaq bo'ladi. Bu jangda mo'g'ullarning 1000 dan oshiq kishisi halok bo'ladi. Ko'plab tarixchilar jumladan, ibn al-Asir, Juvayniy, Rashiddin bu jangga yuqori baho bergan edilar. Jaloliddinning mo'g'ullarga qarshi muhim janglaridan biri 1221-yilning kuzida shimoliy Afg'onistonning Lagar daryosi bo'yidagi Parvon dashti yaqinida bo'lib o'tadi. Birlashgan qo'shinga shaxsan Jaloliddinning o'zi lashkarboshilik qilib, o'ng qanotga Amin Malik, chap qanotga Sayfiddin O'g'roq boshchilik qilishadi. Mo'g'ullar jon-jahdlari bilan kurashga kiradilar. Hatto Shiki Xutuxuning buyrug'i bilan Jaloliddin qo'shiniga xavf tug'dirish maqsadida har bir mo'g'ul askari orqasiga namatdan yasalgan soxta qo'g'irchoq – tulup ham o'tkazib qo'yishadi. Parvon jangi mo'g'ullarning mutlaq mag'lubiyati bilan tugab, Shiki Xutuxu qolgan-qutgan qo'shini bilan Chingizxon huzuriga bazo'r qochishga ulguradi. Parvon yaqinidagi jang Movarounnahr va Xuroson ahli uchun nihoyatda katta ahamiyatga ega bo'ldi.

Shu paytgacha mo'g'ullarning «ilohiy», «yengilmas» kuch-qudratga egaliklari xususidagi gap-so'zlarga, afsonalarga batamom chek qo'yildi. Jaloliddinning g'alabasidan Movarounnahr va Xuroson xalqlarining ruhi ko'tarildi, g'alaba ta'sirida Saraxs, Marv, Hirot va boshqa Xuroson shaharlarida mo'g'ul istilochilariga qarshi xalq isyonlari boshlanib ketdi. Buxoroda bosh ko'targan aholi esa mo'g'ullarni shahardan siqib chiqarishga muvaffaq bo'ldi. Chingizxon Jaloliddinning kuchayib borishi, uning xalq ommasi tomonidan qo'llab-quvvatlanishi mo'g'ullar bosib olgan yerlar uchun qanchalik xavf tug'dirishini yaxshi anglab yetgan edi.

Shu sababdan ham shaxsan o'zi Jaloliddinni qanday qilib bo'lmasin mag'lub etish maqsadida shitob bilan katta qo'shinga

bosh bo'lib, janub tomon yo'l oldi. Jaloliddin qo'shini Parvon jangidan so'ng katta o'ljani qo'lga kiritgan edi. Ushbu o'ljaning taqsimlanishi vaqtida Jaloliddinning ikki sarkardasi Amin Malik va Sayfiddin O'g'roq o'rtasida ixtilof chiqadi. Ixtilof natijasida Sayfiddin O'g'roq va undan keyin boshqalar ham qo'shından ajrab chiqib ketadilar. Jaloliddinning qo'shini nisbatan kamayib, uning o'zi tang bir ahvolda qoladi. Jaloliddinning uni tark etgan sarkardalarga qayta ittifoq tuzish, dushmanga qarshi birgalikda kurash olib borish to'g'risidagi murojaatlari zoye ketdi. Jaloliddin ichak og'rig'i kasaliga duchor bo'lib turgan paytida mo'g'ullarning peshqadam guruhi Gardezga (G'aznadan 50 km. sharqda joylashgan shahar) o'mashganligidan xabardor bo'ladi. Jaloliddin xastaligiga qaramasdan Gardezdagi mo'g'ul askarlariga to'satdan zarba berib, ularni mag'lubiyatga uchratadi.

U Chingizxonga qarshi ozchilik qo'shin bilan kurasha olmasligini anglab, Sind (Hind) daryosi bo'yiga chekinishga qaror qiladi. Jaloliddinni qanday qilib bo'lmasin mag'lub etish va uni qo'lga tushirish ilinjida bo'lgan Chingizxon uni izma-iz ta'qib etib keladi. Jaloliddinni ta'qib etib kelayotgan mo'g'ullarga, ayniqsa, Bamiyon qal'asi qattiq qarshilik ko'rsatdi. Bamiyon qamali vaqtida Chig'atoyning o'g'li, Chingizxonning suyakli nabirasi Mutulk halok bo'ladi. Bundan darg'azab bo'lgan Chingizxon qal'adan bironta o'lja, bironta odamni asirlikka olmay, barcha qal'a ahlini qirib tashlashni buyuradi. Yer bilan yakson qilingan sobiq Bamiyon qal'asi keyinchalik mo'g'ullar tomonidan «Mo'baliq» (ya'ni ahmoqona shahar) nomini oladi. Nihoyat 1221-yilning 25-noyabr, payshanba kuni (hijriy 618-yil shavval oyining sakkizinchi kuni) Sind daryosi bo'yida uch kun davom etgan hal qiluvchi jang boshlandi. Bir qator o'rta asr musulmon tarixchilarining ta'kidlashlaricha, bunday qonli, keskin va dahshatli jang tarixda ro'y bermagan ekan. Jaloliddin va uning qo'shini misli ko'rilmagan darajada jasorat va bahodirlik namunalari ko'rsatdi.

Faqat uchinchi kunga kelib, Chingizxon qo'shini ustunlikka erisha boshladi. Jaloliddinning taxminan 7–8 yoshli o'g'li Chingizxon otryadi qo'lga tushib qolib, o'ldiriladi. Jangda mardonavor kurashgan Amin Malik va boshqa ko'plab sarkarda, navkarlar ham halok bo'ldilar. Chingizxon qanday qilib bo'lmasin

Jaloliddinni tiriklayin qo'lga olishga buyruq berdi. Jaloliddin esa uni qo'lga olishga intilayotgan mo'g'ul qo'shini qurshovini faqat shaxsiy bahodirligi tufayli yorib chiqib, Sind daryosi bo'yiga yetib kelishga muvaffaq bo'ladi. Daryo bo'yida uni onasi Oychechak va haramdagi boshqa ayollar kutib turishar edi. Shundoq ham bu jangdan ruhan va jismonan ezilgan Jaloliddinga ular "... bizni o'ldiring va mash'um asirlikdan qutqaring" deya murojaat qilishadi.

Jaloliddinning barcha haram ayollarini suvga cho'ktirishga ko'rsatma berishdan boshqa iloji qolmaydi. O'zi esa oti bilan suvga sakrab, daryoning narigi qirg'og'i – Hindiston tomonga suzib o'tadi. Jaloliddinning har qanday vaziyatda ham o'zini yo'qotmasligi, uning jasorati va mardligiga, metindek irodasiga Chingizxon ham tan beradi. Tarixchilardan Juvayniy, Rashiddin va boshqalarning yozishlariga qaraganda, Jaloliddinning jasoratiga qoyil qolgan Chingizxon o'z o'g'illariga qarata: "Otaning faqat shunday o'g'li bo'lishi lozim. U olovli jang maydonidan o'zini qutqarib, halokatli girdobdan najot qirg'og'iga chiqdimi, undan hali ulug' ishlar va qiyomatli isyonlar keladi!" – deydi va uning orqasida ta'qib etishni ta'qiqlaydi.

Sind daryosi bo'yidagi jangdan so'ng Chingizxon uch oy davomida Jaloliddin qo'shinidan o'z vaqtida ajrab ketgan sarkardalar qal'alarini qo'lga olib, ularni yo'q qilish bilan band bo'lgan. Rashiddinning yozishicha, Jaloliddin daryodan taxminan 120 ta tirik qolgan kishilari bilan Hindiston qirg'og'ida uchrashadi. Jaloliddin ham tirik qolganlar ham, ma'naviy-ruhiy ham og'ir janglardan jismoniy ezilgan holda murakkab bir ahvolda qolishgan edi. Bu vaqtda Shatra deb atalgan hududdagi mahalliy hind rojalaridan biri 40.000 chog'li otryadi bilan daryoning bu betiga suzib o'tgan xorazmliklarni qirib tashlash uchun yetib keladi. Faqatgina Jaloliddinning tengsiz bahodirligi va qahramonona xatti-harakati tufayli roja o'ldirilib, qo'shin orqaga chekinadi. Bu jangdan xorazmshoh askarlarining ruhi ham ko'tarilib, tez orada Jaloliddin o'z atrofiga 3 ming kishilik askarni yig'ishga muvaffaq bo'ladi. Og'ir vaziyatlarda ham o'zini yo'qotmay, qaddi bukilmagan sarkarda Hindistonga o'tgach, Sind daryosi bo'yidagi yerlarni ishg'ol qila boshlaydi. Tez orada Jaloliddinning hokimiyatini Dehli sultoni Shamsiddin Eltutmish (1211–1236) va

Sind, Uchcha, Mo'ltan, Lohur va Peshovar hokimi bo'lmish Nosiriddin Qubacha (1205–1227) ham tan oladilar.

Hindistonda Jaloliddin 1223-yilning oxirlarigacha bo'lib, xorazmshohlarning azaliy mulki bo'lgan Iroq va Eronni o'z izmiga kiritish, mo'g'ullarga qarshi kurashni davom ettirish maqsadida yo'lga otlanadi. O'z o'rniga noib etib, taniqli sarkarda Jahon polvon O'zbekni qoldirib ketadi. Jahon polvon to 1229-yilgacha Hindiston mulklarini boshqarib, so'ngra Jaloliddin huzuriga Iroqqa qarab ketadi va uning harbiy yurishlarida yelkadosh bo'lib xizmat qiladi. 1224-yilning boshida Jaloliddin Kirmonga kelib, Kirmon sultoni bo'lmish ukasi G'iyosiddin Pirshohdan yordam tariqasida 4.000 kishilik qo'shin oladi. U o'zining asosiy maqsadi mo'g'ul istilochilariga qarshi kurashib, mustaqil davlat yalovini tiklash ekanligini bildiradi. Uning Sheroz va Isfahonga tashrifini xalq katta ommasi katta tantana bilan kutib oladi.

Jaloliddin mo'g'ullarga qarshi birgalikda kurash olib borish maqsadida ukasi G'iyosiddin Pirshoh, Bag'dod xalifalari az-Zohir (1225–1226), so'ngra al-Muntasir (1226–1242), Gurjiston malikasi Rusudana va boshqalarga murojaat qiladi. Lekin mo'g'ullar qasosi, qolaversa Jaloliddinning hokimiyati kuchayib ketishidan cho'chigan ko'pchilik musulmon hokim, hukmdorlari u bilan ittifoq tuzishni hohlamaydilar. Bag'dod xalifaligi, ismoiliylar hokimi Muhammad III (1221–1255)lar esa mo'g'ullar bilan yaqinlashishga, Jaloliddinga qarshi ochiqdan ochiq kurashishga bel bog'laydilar.

Malika Rusudana va uning vaziri Avak bilan o'zaro ittifoq xususidagi takliflari zoye ketgandan so'ng 1226-yilning fevralida sarkarda Gurjistonga yurish qiladi. Gurjiston qattiq jang ila egallanib, bu yerda ko'plab kurashlar bo'lib o'tadi. Bosh ko'targan Gurjiston ikkinchi marotaba 1228-yil egallandi. Bir vaqtning o'zida Jaloliddin Manguberdi Kirmonda unga qarshi bosh ko'targan xiyonatkor Barak Hojibga va ismoiliylarga ham qarshi kurash olib borishga ham to'g'ri keladi. Shuningdek, ahamiyatli hisoblangan Ararat tog'liklari etaklarida joylashgan Xilat qal'asi ham Jaloliddinga uzoq vaqt mobaynida qarshilik ko'rsatadi. 1227-yili oxirlarida mo'g'ullarning Eronga kirib kelishi niyatlari borligini bilgan Jaloliddin ularga qarshi qat'iy jangga kirishga tayyorgarlik ko'radi. Mo'g'ullarning o'sha yili yuborilgan 2000 kishilik

avangardi tor-mor etilib, ulardan 400 tasi Isfahonda namoyishkorona tarzda jazolanadi. 1228-yil 25-avgustida Eronni zabt etish uchun kelgan Taynal no'yon boshchiligidagi mo'g'ul istilochilari bilan Isfahon yaqinida hal qiluvchi jang bo'lib o'tdi. Garchi jang vaqtida ukasi G'iyosiddin Pirshoh xoinlik qilib, o'z qo'shini bilan Luristonga chekingan bo'lsa-da, Jaloliddin qat'iy ravishda, bu holatga e'tibor qilmay, shiddatli kurash olib boradi. Manbalarning so'zlashicha, hatto mo'g'ul no'yonining o'zi "Sen haqiqatdan ham o'z davrining erkak o'g'loni ekansan", – deb uning jasoratiga tan bergan ekan. Jaloliddin bu jangda butkul g'oliblikni qo'lga kiritadi.

U sakkiz kun mobaynida Erondagi mo'g'ullarni izma-iz ta'qib etib, ularni mamlakatdan haydab chiqardi. Jaloliddin erta tongda muzaffar sarkarda sifatida Isfahonga kirib kelgach, xalq uni g'olib sulton sifatida shod-u hurramlik bilan kutib oladi. Jaloliddinning zafarli g'alabasi ovozasini butun islom olamiga keng tarqaldi. O'sha yili hatto mo'g'ullarning buyuk xoni bo'lmish O'gedey Jaloliddinning mo'g'ullar ilkiga tushib qolgan egachisi Xonsulton orqali unga maktub yuborib, u bilan sulh tuzish niyati borligini ham bayon qiladi. Jaloliddin bu diplomatik kelishuvdan voz kechib, xatni javobsiz qoldiradi. 1229-yili jangda xiyonat qilgan ukasi G'iyosiddinni Jaloliddin afv etadi, biroq tez orada yana fitnachilar domiga tushib qolgan G'iyosiddinning o'zi uning qurboniga aylanib, Baraq hojib tomonidan o'ldiriladi. Bundan voqif bo'lgan Jaloliddin fitnachilarni jazolab, Kirmonda osoyishtalik o'rnatdi. Jaloliddin murakkab va ziddiyatli davrda yashadi. Shubhasiz u ham ushbu davrning farzandi edi. U qo'shinlarining ko'plab harbiy yurishlar vaqtida talonchilik, zo'ravonlik qilishlariga gohida ko'z yumdi.

Bu esa Eron, Ozarbayjon, Iroq, Gurjiston ahlida salbiy fikrlarning yuzaga kelishiga, noroziliklarning paydo bo'lishiga ham olib kelgan. Harbiy yurishlar vaqtida ba'zi amaldorlar, xususan vazir al-Jandiyning riyokorligi Jaloliddinning obru-e'tiboriga ancha zahmat yetkazdi. Qaltis va tahlikali vaziyatga qaramay sulton Jaloliddin ichki hayotidagi salbiy holatlarga qarshi kurashishga jazm qildi. O'z riyokorligini va mansabini suiiste'mol qilganligi bilan nom chiqargan, Jaloliddin yo'q davrlarida xazinani talon-toroj

qilgan vazir al-Jandiy jazolanadi. Jaloliddin o'z mansablarini suiste'mol qilgan, bu tufayli xalqqa ko'p jabr-zulm keltirgan boshqa amaldorlar faoliyatini taftish qilib, ularni ham jazoga tortadi. Tabrizga tashrif buyurgan sulton barcha arzchilarning arzidodini tinglab, choralari ko'radi.

Xalq ommasiga xayrixohlik nuqtayi nazaridan Tabrizni uch yil soliqlardan ozod qiladi. Doimiy jang harakatlarida bo'lishiga qaramay Isfahonda otasiga atab madrasa qurishni boshlaydi, ancha vaqt qamal qilingan Xilat qal'asini qayta tiklashga buyruq beradi va hokazo. Bu xususda jumladan tarixchi an-Nasaviy shunday deya yozgan edi: «Jaloliddin davrida bir qancha fitnalar, g'am-qayg'u, mashaqqat-u anduhlarga, vazirlarning tarqalib ketishiga va mehnatkash ommaning atroflarda boshpana izlab yurishlariga barham berildi. Ular birlashtirildi va mustahkamlandi». Lekin nima bo'lganda ham Jaloliddin Manguberdi o'zining asosiy maqsadi mo'g'ul istilochilariga qarshi kurashish ekanligini yodida saqladi. Bu kurashda u yon-atrofdagi musulmon hukmdorlarining qo'llab quvvatlashlariga umid bog'lagan edi. Lekin ko'p holda yuqoridagi ma'lum sabablarga ko'ra ular bilan umumiy til topish imkoni bo'lmadi. O'z vaqtida turk, arab, musulmon hokimlari uning hokimiyati Yaqin Sharqda kuchayib ketishidan xavfsirashar, Jaloliddin bilan ittifoq tuzishni xohlashmas edi. Ularning ba'zilar hatto mo'g'ullar bilan ochiqdan ochiq yaqinlashish tarafdori edilar. Ayniqsa, Xilat qal'asining Jaloliddin tomonidan egallanishi unga da'vogar hokimlarning izzat-nafsini toptagan edi. Jaloliddin unga qarshi ittifoq vujudga kelganidan xabardor bo'lsa-da, har holda hech bo'lmaganda uni ma'lum turkiy hukmdorlar qo'llaydi deb yanglishgan edi. 1230-yil 10-avgustda Ko'niya sultoni, Xims, Halab, Mayafariqin va Baynas hokimlarining birlashgan ittifoqi Jaloliddinni mag'lub etadi. Ismoililar esa butkul xoinlik yo'lini tutib Jaloliddinning mag'lubiyati to'g'risida mo'g'ullarga yashirin noma ham yuboradilar. Jaloliddin mag'lubiyatidan foydalangan mo'g'ullar uning Ozarbayjonning Mug'on, Shirkabutdagi qo'shin yig'ishi mumkin bo'lgan joylariga qo'qqisdan zarba berishadi. 1231-yil bahorida u Ganjaga kelib, barcha gina-kuduratlarini unutib, yana mo'g'ullarga qarshi ittifoq tuzish uchun musulmon hukmdorlariga murojaat etdi. Lekin, uning taklifi javobsiz qolib

ketdi. Shunda Suriyadagi Amida qal'asi hokimi uni o'z oldiga chorlaydi. U Iroqqa borib, mo'g'ul istilochilariga qarshi Vatan ozodligi yo'lida yana qo'shin to'plamoqchi bo'ladi.

Shunda Amida yo'li yaqinida unga to'satdan mo'g'ullar hujum qilib qolishdi (1231-yil avgust boshi). Uni 15 chog'li mo'g'ul navkarlari ta'qib etishadi. Jaloliddin o'z sheriklaridan ajrab, Mayafariqin (hozirgi Turkiyaning Silvan viloyati) yaqinida Ayn-ad-dar qishlog'iga keladi. Ushbu tog'liq qishloqda u kurdlar qo'liga tushadi. O'zini «sulton» deb tanishtirgandan so'ng uni kurdlar o'ldirishga jazm etmaydilar. Uni tegishli joyga yetkazib qo'yish evaziga kurdlarga mukofot va'da qilinadi. Lekin kurdlar rahbari xonadonidan joy olgan horib-tolgan Jaloliddinni boshqa bir kurd kishisi o'lgan inisi xuni evaziga o'ldiradi. Bu voqea taxminan 1231-yilning avgust oyi 17–20-sanalari oralig'ida ro'y beradi. Ertasi kuni sulton buyumlarni sotib yurgan kurd xususida Mayafariqin hukmdori al-Malik al-Muzaffarga xabar berishganda u qishloqqa o'z sarkardasi Shahobiddin G'oziyni yuboradi.

Shahobiddin G'oziy sulton jasadini olib, qishloq erkaklarini barini o'ldiradi va qishloqqa o't qo'yib yuboradi. Muarrix an-Nasaviy buni eshitib shaxsan Mayafariqinga o'zi keladi. Jaloliddinning tog'asi, vazir O'turxon uning jasadini tanib, qattiq iztirobga tushdi. Jaloliddin Manguberding murdasi Mayafariqinga dafn etilib, mo'g'ullar kirib kелgudek bo'lsa, haqoratlanmasin degan maqsadda qabri yer bilan tekislab yuboriladi. Jaloliddinning ashaddiy dushmani Damashq hokimi al-Malik al-Ashrafga sulton halokati xususida xabar yetkazib suyunchi so'raganlarida, u qayg'uga botib: “Sizlar uning o'limi bilan meni qutlamoqchimisizlar? Ammo siz voqeaning achchig'ini tatib ko'rasizlar. Olloh nomi bilan qasam ichamanki, uning halokati islom olamiga mo'g'ullarning bostirib kirishini anglatadi. Endilikda biz bilan Ya'juj va Ma'jujlar o'rtasida devor bo'lib turgan Xorazmshohdek odam yo'qdir”, – deb javob bergan edi. Ibn Vosil esa uni “mo'g'ullar va musulmonlar orasidagi istehkom bo'lgan” deb ta'riflagan edi. Jaloliddinning o'limidan so'ng uning shonli nomi tez orada xalqlar tilida doston bo'lib ketdi. “Jaloliddin tirik”, “Jaloliddin qaytib kelayapti” degan ovozlalar uzoq vaqtgacha mo'g'ullarni tahlikaga solib kelgan. Sulton Jaloliddin nomi bilan

bog'liq har qanday ma'lumot, voqelikni mo'g'ullar sinchkovlik bilan tekshirganlar. O'zini "men Jaloliddinman" deb nomlagan turli shaxslar mo'g'ullarga qarshi ko'p holatda isyon va qo'zg'olonlarga boshchilik qilganlar (masalan, 1236-yili Eronning Ustundorida ko'tarilgan qo'zg'olon, 1255-yili Amudaryo bo'yidagi voqealar va hokazo).

O'rta asr musulmon tarixchilari o'z asarlarida hamisha uni mard va jasur sarkarda sifatida ta'riflashgan edi. Jaloliddin Manguberdini shaxsan bilgan tarixchi an-Nasaviy u to'g'risida shunday ta'rif bergan edi: U turkiy bo'lib, qora mag'iz yuzli, burni oldida qora xoli bor o'rta bo'yi yigit edi. Fors tilida ham bemalol so'zlasha olar edi. U dovyuraklikda tengi yo'q, sherlar ichida arslon, otliqlar ichida eng jasuri edi... Qisqa so'zli, hech qachon so'kinmagan, yomon so'zlarni o'ziga ep ko'rmagan, juda jiddiy, atrofdagilar oldida o'zini sipo tutar, hech qachon kulmas, faqatgina tabassum qilib qo'yar edi xolos. U adolatni sevgan, lekin zamon zayli uni o'zgartirishga majbur qilgan. U o'z fuqarolarini dardini yengillashtirishga harakat qilgan, shuni xohlagan, lekin tanazzul davri bo'lganligi bois ham zo'ravonlikka yo'l bergan. O'zini ulug'lashlarini istamagan. Bachkana ta'riflarni yoqtirmagan, faqat «sulton» deya murojaat qilishlarini so'ragan. Uning farmonlarida yolg'iz so'z: «Yordam yolg'iz Ollohdandir!» degan shior bo'lgan». Xorazmshohlar avlodidan bo'lgan Misr hokimi al-Muzaffar Sayfiddin Kutuz ajdodlarning shonli kurash yo'lini davom ettirib, 1260-yili Yaqin Sharqdagi Ayn Jalut yonida mo'g'ullarga qaqshatqich zarba berib, ularning Suriya va Misrga kirib kelishlariga chek qo'yadi.

Jaloliddinning ozodlik va mustaqillik kurashlari tarixi asrlar davomida sharq xalqlari tillarida doston bo'lib ketdi. Eron, Turkiya, Misr, Pokiston, Suriya, Hindiston, Iroq va boshqa davlatlarida uning jasoratli hayot yo'lini aks ettirgan asarlar nashr etilishi hamda buyuk sarkarda faoliyati xususida Yevropa ham tarixiy adabiyotlar chop etilganligi, 1998-yil Jaloliddin Manguberdining 800 yillik tavallud yoshiga bag'ishlab o'tkazilgan xalqaro ilmiy-amaliy anjumanda ta'kidlanganidek, sarkardaning «insoniyatga ozodlik yo'lida kurashning, yurtni istibdod va zulmdan qutqarishning

yorqin namunasi» sifatida bashariyat tarixida o'chmas iz qoldirganligidan darak beradi.

Jaloliddin Manguberdi (Mankburni) xotirasini abadiylashtirish va tarixiy adolatni qaror toptirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 1998-yil 24-sentabrda 408-sonli maxsus qaror qabul qildi. Ushbu qarorga muvofiq buyuk sarkardaning tavallud to'yi keng miqyosda nishonlanishi qayd qilib o'tildi. Yubiley munosabati bilan Urganchda sarkardaga ulkan memorial yodgorlik o'rnatildi, O'zbekiston Respublikasi FA Tarix va Sharqshunoslik institutlari, Xorazm Ma'mun akademiyasi, bir qator oliy o'quv yurtlari, turli jamg'armalar mutaxassislari tomonidan ko'plab risolalar chop etildi, mohir rassom T.Quryozov tomonidan sarkardaning portreti yaratildi, "Jaloliddin Manguberdi – Vatan, yurt himoyachisi mavzusi"da xalqaro ilmiy anjuman o'tkazildi. 1999-yil noyabrda Jaloliddin Manguberdi tavalludining 800 yilligining keng nishonlanishi, uning vatani Xorazmda unga mahobatli haykal o'rnatilinishi. Vatan deya halok bo'lgan milliy qahramonimizga xalqimizning buyuk ehtiromi, muhabbati, ajdodlar xotirasini muqaddas saqlashi ramzi bo'lib qoldi.

Mustaqillik yillarida tarix fanida yuz bergan muhim ijobiy o'zgarishlardan biri – xalqimizning milliy qahramoni, mustabid sovet hukmronligi davrida nohaq qoralangan Amir Temur pok nomini oqlanishi bo'ldi. Sohibqironning millat va davlat ravnaqidagi buyuk xizmatlari e'tirof etilgan holda uning 660 yilligi 1996-yili xalqaro miqyosda keng nishonlandi. Sohibqiron shaxsiga bo'lgan munosabat davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Mustaqillik yillarida Amir Temur shaxsi, uning davlati, ichki va tashqi siyosat, Temuriylar hukmronligi xususida ko'plab ahamiyatga molik ishlar amalga oshirildi. Xususan, respublikamizda 1996-yil – "Amir Temur yili" deb e'lon qilindi, Amir Temur xalqaro jamg'armasi tashkil etildi, Temuriylar tarixi davlat muzeyi ochildi, Amir Temur ordeni ta'sis etildi, YUNESKO tashabbusi bilan 1996-yil aprelda Parijda xalqaro ilmiy anjuman bo'lib o'tdi, Amir Temur va Temuriylar davriga oid ko'plab tarixiy manbalar tarjima qilindi va hokazo. Shubhasiz, tarixiy haqiqatni qaror toptirish ishiga tarixchi olimlar ham o'z munosib hissalarini qo'shib kelmoqdalar.

Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, 2000-yilga kelib Yevropa xalqlari tillarida Amir Temur va Temuriylar haqida chop etilgan asarlar soni 500 tani tashkil etgan. 2006-yili Amir Temurning xalqaro miqyosda nishonlangan 670 yillik tavallud yoshi arafasida taniqli fransuz olimi L.Keren Parijda fransuz tilida "Samarqandga, Amir Temur davriga sayohat" nomli tadqiqotni amalga oshirdi. Buyuk davlat arbobi va mahoratli sarkarda Amir Temur 1336-yil 9-aprelda (hijriy 736, sha'bon oyining 25-kunida) Keshga qarashli Xo'ja Ilg'or (hozirgi Yakkabog' tumani) qishlog'ida barlos beklaridan biri Amir Tarag'ay ibn Barqal oilasida dunyoga keldi. Temurning onasi Takinaxotun Keshning obro'li bekalaridan biri bo'lgan. Temurning bolaligi va o'spirinlik yillari Keshda o'tdi. Ibn Arabshoh, Ryui Gonzales de Klavixo va boshqa tarixchilar 1360-yilga qadar uning hayotini ayrim ma'lumotlar bilan izohlashgan. XIV asming 50–60-yillariga kelib Chig'atoy ulusi hududlarida o'zaro parokandalik va o'zboshimchalik hukm surar edi. Chig'atoy xoni Temurshoh zo'rg'a ikki yilga yaqin (1358–1359) hukmronlik qildi. Shundan so'ng o'zlarini anchadan beri mustaqil tutayotgan bekliklar rasman shu darajaga da'vogar bo'lib chiqa boshladilar. Keshda Hoji Barlos o'zini mustaqil deb e'lon qilgach, so'ng Xo'jandda Boyazid Jaloyir, Balxda O'ljoy Bug'o suldus, Shibirg'onda Muhammadxo'ja Apverdi nayman, Xuttalon va Arhang saroyda amir Kayxusrav va O'ljoy Apverdi, Totkand va Saripulda Xizr Yasavuriy hamda Qo'histonda amir Sotilmishlar o'zlarini mustaqil deb e'lon qildilar. Ayirmachilik harakati kuchayib, hokimiyat, boylik yo'lida beklar o'zaro kurashlar domiga tortildi. Bu urushlar shundoq ham ahvoli nochor bo'lgan aholi boshiga ko'p kulfatlar soldi.

1360–1361-yillarda Mo'g'uliston hukmdori xoqon To'g'luq Temur Movarounnahrning ichki hayotiga rahna sola boshlaydi. Uning bosqinchilik tadbirlari Movarounnahr hukmdorlariga ma'lum bo'lganidan keyin, ular sarosimaga tushib qolganlar. Shular qatoriga Kesh amiri Hoji Barlosni ham kiritish mumkin. To'g'luq Temur Xo'jandni ishg'ol etish niyatida Sirdaryodan o'tganidan so'ng, Movarounnahr amirlari va Hoji Barlos qo'rquvdan o'z jonlarini xalos etish uchun Amudaryodan o'tib Xurosonga ketib qoldilar. Temur o'z hududini mo'g'ul bosqinchilaridan himoya

qilish maqsadida To'g'luq Temur xizmatiga o'tdi. Temur unga Kesh va uning atrofidagi yerlarni boshqarishni topshirdi.

1360–1370-yillarda Movarounnahr siyosiy hayotida Amir Temur bilan bir qatorda ta'sir o'tkazgan shaxslardan yana biri Amir Qozog'onning nabirasi Amir Husayn edi. Balx va uning atrofidagi er-mulklar uning tasarrufida edi. 1361-yilda Temur Amir Husayn bilan yaqinlashib ikkala hokim birlashgan holda, mo'g'ul xonlariga qarshilik ko'rsatish imkoniga ega bo'ldilar. Vaqti kelib, Movarounnahrni boshqarishni Tug'luq Temur o'z o'g'li Ilyosxo'jaga topshirdi. Mustaqil bo'lishga harakat qilib yurgan Temur yangi hukmdorga itoat etmadi. Buning oqibatida yangi ziddiyat yuzaga chiqdi. Amir Xusayn bilan Amir Temurning bir-birlari bilan yaqinlashgan va yaxshi munosabatda bo'lgan davrlar 1361–1365-yillarni o'z ichiga oladi. Bu davrda Temur ma'lum qiyinchiliklarni ham boshidan kechiradi. Temur hayotida ro'y bergan va bir umrga unga tan jarohatini muhrlagan voqea 1362-yilda Seyistonda bo'lib o'tgan. Amir Temur jang vaqtida o'ng qo'lini tirsagidan va o'ng oyog'idan kamon o'qi tegishidan qattiq jarohatlandi. Buning oqibatida u bir umr oqsoqlanib yuradi. Shu bois undan dahshatga tushgan dushmanlari Amir Temurni hasad bilan —Temurlang deb atashgan.

Tug'luq Temur o'limidan so'ng, 1363-yilda Movarounnahr tuprog'idan haydalgan mo'g'ul xoni Ilyosxo'ja yangidan katta lashkar bilan avvalgi mulklarini egallab olish maqsadida Movarounnahr tomon harakat qila boshlaydi. Mo'g'ul xoni, ayniqsa, o'zining raqiblariga nisbatan qahrli kayfiyatda ekanligi ham ma'lum edi. 1363–1364-yillarda Temur va Husayn mo'g'ullarni uch marotaba mag'lubiyatga uchratdilar. Temur va Amir Husayn bo'lg'usi qaqshatqich to'qnashuvga imkon boricha harbiy kuchlarni yig'dilar. Tarixda Loy jangi nomi bilan kirgan mazkur jang Chinoz bilan Toshkent o'rtasida 1365-yilning 22-may kuni bo'lgan. Temur va Amir Husayn Chirchiq daryosi bo'yidagi bu jangda mag'lubiyatga uchraganlar. Mazkur mag'lubiyat sabablaridan biri Amir Husaynning sust va layoqatsizlik bilan harakat qilishi bo'ldi. Qayta urinish behuda ekanligini anglab yetgan Amir Temur jang maydonini tark etib, qolgan-qutgan askarlari bilan Samarqand tomon qaytib ketgan. Temur so'ngra Kesh tomonga yo'l oldi.

Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, bu paytda Movarounnahrning bosh amiri Husayn edi. Biror qarorga kelish esa uning irodasiga bog'liq bo'lgan. Shu sababli Temur ham uning ko'rsatmasi bilan, ko'p hollarda Husaynning roziligi bilan ish tutishga majbur edi. Samarqand shahri, qolaversa, butun Movarounnahr o'z holiga tashlab qo'yildi. Mo'g'ul xoni changalidan qutulish samarqandliklarning o'ziga bog'liq edi. Bu sharoitda Samarqand mudofaasini sarbadorlar o'z qo'llariga oldilar. Sarbadorlar mo'g'ullar zulmidan ozod bo'lish yo'lida o'zlarini qurbon qilishga tayyor edilar. Sarbadorlar harakati XIV asrning 30-yillarida Eronda ijtimoiy-siyosiy harakat sifatida paydo bo'lib, 50–60-yillarda Movarounnahr ga ham yoyildi. Harakat qatnashchilarining asosiy maqsadi mo'g'ul istilochilari va zulm o'tkazuvchi mahalliy qatlamlarga qarshi kurash edi.

1366-yilning bahorida ular Samarqandga yetib keladilar va sarbadorlar rahbarlarini o'z huzurlariga chorladilar. Uchrashuv Samarqanddagi Konigul degan joyda bo'ldi. Bu yerda sarbadorlarning rahbarlari bilan kelishmovchilik yuz beradi va ular qatl etiladilar. Temurning iltimosi bilan faqat Mavlonozoda omon qoldirilib, Xurosonga jo'natiladi. Sarbadorlar harakati bostirilgandan so'ng, Amir Husayn va Temur o'rtasidagi munosabatlar keskinlashadi. Bunga Amir Husaynning sarbadorlarga nisbatan adolatsizligi ham bir qadar sabab bo'lgan edi. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, Amir Husayn tanlagan yo'l parokandalik va bosh-boshdoqlik sari yetaklar, Temur esa buni yaxshi anglab yetgan edi.

Amir Husaynning ochko'z va makkor siyosati ko'pchilik harbiylar, qabila boshliqlarining noroziligiga sabab bo'ldi. Husayn ko'plab amirlardan katta o'lja, pul talab qila boshladi, siquvlar amalga oshirila boshlandi. Temur o'z safdoshlariga to'lovlarda yordam berdi, ularning qarzlarini to'lashda, tarixchi Sharofiddin Ali Yazdiyning yozishicha, hatto o'z xotinining taqinchoqlarini ham ayamagan. Temurning saxovati va oliyjanoblighi ko'plab amirlarning unga bo'lgan hurmatini oshirdi. Aksincha Amir Husaynning obro'-e'tibori tobora pasaya boshladi. 1366–1370-yillar oralig'ida Amir Temur o'z e'tiborini ichki ishlarga qaratdi.

Amir Husayn turli fitna-fasodlar yo'lga o'tib, Temurga qarshi zimdan kurash boshladi. Amir Husayn va Amir Temur o'rtasidagi

ziddiyatlar 1370-yilda Husaynning o'ldirilishi va Amir Temurning taxtga o'tirishi bilan yakunlandi. Movarounnahrning amaldagi xoni Chingizxon avlodiga mansub bo'lgan Suyurg'otmish (1370–1388) qo'liga o'tdi. Davlat boshqaruv tizimi esa Movarounnahr amiri nomini olgan Amir Temir qo'lida qoldi hamda u Kesh shahridan Samarqandga ko'chib, uni o'z davlatining poytaxtiga aylantirdi. Mazkur davrga kelib Amir Temur dono va irodali hukmdor, uzoqni ko'zlovchi davlat arbobi ekanligi yaqqol namoyon bo'la boshladi. Harbiy bo'linmalar boshliqlari etib amirlardan Joku, Hoji Sayfiddin, Abbos, Iskandar, A'lam Shayx, Alayka qavchin, Ardasher qavchin, Qori inoq va boshqalar tayin etildi. 1370-yilda Shibirg'on hokimi Zinda Chashmdan boshqa barcha amir va qabila boshliqlari Temur hokimiyatini tan olgan edi. Zinda Chashm ayirmachilik yo'lini davom ettirib, Balx va Termez atroflaridagi yerlarni ham talon-toroj qila boshladi. Zinda Chashm sa'y-harakatlariga qarshi Amir Temur Joku barlos boshchiligidagi qo'shinni jo'natdi. Zinda Chashm mahv etilib, Samarqandga jo'natildi.

Amir Temur unga oliyhimmat munosabatda bo'lib, afv etdi. Murakkab va ziddiyatli davrda Amir Temur Movarounnahrda birlashtirish siyosatini boshlagan edi. U Amudaryo va Sirdaryo oralig'ida turgan yerlarni o'ziga bo'ysundirib, itoat ettirdi. Farg'ona, Shosh viloyatlarini o'z tasarrufiga kiritish unga qiyin bo'lmadi. Sirdaryoning quyi oqimidagi Oltin O'rdaga qarashli yerlarni egallashda u bu yerlardagi ichki sulolaviy urushlardan foydalandi. Amir Temur Xorazmni ham qaytadan Movarounnahrda kiritishga intildi. 1372-yilda Husayn So'fi Amir Temurga boj to'lamasdan, buning ustiga Sohibqiron tomonidan yuborilgan elchiga shunday javob berdi: "Men mamlakatni qilich bilan fath etganman, shuning uchun ham uni faqat qilich bilan olish mumkin". O'sha yili Amir Temur Xorazmga qo'shin tortib keladi. Urganchga borish uchun Qiyot shahri orqali o'tish kerak edi, bu shahar biroz qarshilik ko'rsatgandan keyin Temur qo'shini tomonidan ishg'ol qilinadi. Qiyotning qo'ldan ketishi Husayn So'figa kuchli ta'sir ko'rsatdi.

U Amir Temur bilan yarashishga, uning talablarini bajarishga rozi bo'ladi. Lekin, ayrim hokimlar Amir Temurning tezda baland martabaga erishishini ko'rolmay, Husaynni unga qarshi gij-gijlay

boshladilar. Husayn ularning yordamiga ishonib, Amir Temurga qarshi chiqadi, ammo u tomonidan tor-mor etiladi. Shundan so'ng Husayn Urganch qal'asiga berkinadi va tezda vafot etadi. Uning o'rniga akasi Yusuf So'fi (1372) hokimiyatga keladi va Amir Temur bilan yarash shartnomasi tuzadi. Lekin, u yarash shartlarini xiyonatkorona buzib, Amir Temur qaytib ketganidan keyin Qiyot shahrini bosib oladi va unga qarshi ochiqdan ochiq dushmanlik harakatlariga o'tadi. Shundan so'ng Amir Temur Xorazmga ikkinchi marotaba yurish qilishga majbur bo'ladi (1373–1374-yy.). Ammo bu harbiy to'qnashuv gacha bormaydi, chunki Yusuf Amir Temurga tavba qilib yarash shartlarini so'zsiz bajarishga va'da beradi. Bu ikkinchi yurish natijasida Janubiy Xorazm Amir Temur davlati tarkibiga kiradi. 1374-yildan keyin Amir Temur Xorazmga uch marotaba yurish qildi. Buning sababi Oltin O'rda xoni To'xtamishning Xorazmga da'vosi tufayli edi. 1387–1388-yillarda To'xtamish, Amir Temurning Movarounnahrda yo'qligidan foydalanib, Xorazmga hujum qildi. Xorazm hokimi bo'lgan Sulaymon So'fini Amir Temurga qarshi qo'zg'olon ko'tarishga undadi.

Sulaymon So'fi bunga rozi bo'ldi. Bu voqealar Amir Temurni 1388-yili Xorazmga yana yurishga majbur etdi. Temur Urganchni ishg'ol qildi va so'fiylar sulolasini tugatdi. Shu vaqtdan buyon Xorazm Amir Temur davlati tarkibiga, keyin esa Temuriylar davlati tarkibiga kirgan. Shunday qilib, Yettisuvdagi va Sirdaryo etaklaridagi yerlardan tashqari, Turkiston yerlarining hammasi Amir Temur qo'lga o'tdi. Amir Temurning harbiy yurishlari tarixda "uch yillik (1386–1388)", "besh yillik (1392–1396)", "yetti yillik (1399–1405)" urushlar deb nom olgan. Temur 1381-yilda Hirotga yurish qiladi. Bu davrda Hirotni kurdlar sulolasi boshqarar edi. Ularning hukmdori G'iyosiddin Pir Ali Temurga qattiq qarshilik ko'rsatmadi. Lekin, 1383-yilda Hirotda qo'zg'olon ko'tarildi. Qo'zg'olon bostirildi va kurdlar sulolasi qulashi bilan sarbadorlarning so'nggi hokimi bo'lgan Ali Muayyod ixtiyoriy sur'atda o'z yerlari va hokimiyatini Temurga topshirdi. XIV asrning 80-yillari o'rtasiga kelib butun Xuroson Amir Temur ixtiyoriga o'tdi. Uch yillik urush davrida Amir Temur Ozarbayjon, Tabriz, Mozandaron, G'ilonni bo'ysundiradi. Shundan keyin u Kavkazga

yurish boshlab, Tiflis, Arzirum va Van qal'asini egalladi. Amir Temur Jo'chi ulusi tarkibiga bir vaqlar kirgan Oq O'rda va Oltin O'rda hamda Mo'g'uliston hokimlari bilan bir necha yillar davomida kurash olib borishiga to'g'ri keldi. Mazkur kurashdan ko'zlangan asosiy maqsad avvalo, mamlakat shimoliy qismlarini ko'chmanchi to'dalar hujumidan muhofaza etish, Jo'chi ulusi tarkibiga kirgan yerlarni zaiflashtirgan holda o'z saltanati ta'sir doirasiga olish bo'lgan.

Amir Temur Mo'g'ulistonga qarshi kurashi o'n to'qqiz yil (1371–1390) davom etib, bu kurashda u avval Anqo to'ra, so'ngra Qamariddin singari xonlarni mag'lub etdi. Shu tariqa mo'g'ul xonlarning Sirdaryo bo'ylari, Farg'ona vodiysiga solgan xavf-xatarlariga chek qo'yildi. Jo'chi ulusidagi parokandalik davrida Oq O'rda xoni Mang'ishloq hokimi To'yxoja o'g'lonni o'ldirdi. To'yxojaning o'g'li To'xtamish o'z hayoti xavfsizligini o'ylab, Samarqandga, Amir Temur huzuriga qochib keldi. Amir Temur unga muruvvat ko'rsatib, davlat manfaatlarini o'ylagan holda hokimiyatni olish yo'lida yordam berdi. To'xtamish o'z raqiblaridan uch marotaba mag'lubiyatga uchrasa-da, har gal Amir Temur uni oyoqqa turg'izishga yordam berdi. Oq O'rda xoni Urusxon Temurga qarshi jang qilishga botina olmadi. Urusxon vafotidan so'ng Amir Temur To'xtamishga 1376-yili taxtni uzil-kesil egallashiga yordam berdi. Shimolda To'xtamishning taxtga chiqishi Amir Temur saltanati xavf-xatardan saqlanishiga yordam berishi, qolaversa, ishonchli ittifoqchi yuzaga kelishidan sohibqironning o'zi ham shubhasiz, manfaatdor edi. Lekin, To'xtamishxon berilgan yordam, ko'rsatilgan muruvvatni tezda unutdi. Ikkala o'rdani birlashtirib olgach, talonchilik va jabr-zulmni kuchaytirdi. Rim, Volga bo'yi, Shimoliy Kavkaz xalqlari uning zulmidan qattiq aziyat cheka boshladilar. To'xtamishxon 1385-yil Temurga qarashli Ozarbayjonni egallashga harakat qildi. 1388-yil yanvarida Amir Temurning qaytishini kutgan dushman orqaga qayta boshladi. Amir Temur amirlari Husayn, Shayx Ali Bahodir va boshqalarga dushmanni daf qilishni topshirdi. Ular Sirdaryo bo'yidagi Sarisuv degan joyda dushmanni quvib yetib unga katta talafot yetkazdilar. To'xtamish 1388-yil oxirida Amir Temurga qarshi qayta hujum boshladi.

Amir Temur esa urushga tayyorlanish uchun Sagoron (Kattaqo'rg'on)da qarorgohini tikib, qo'shinlarini jangovar holatga keltirdi. Amir Temur dushmanning orqa tarafidan hujum qilish uchun Qo'ng'i o'g'lon, Temur Qutlug' o'g'lon, Shayx Ali Bahodir qo'mondonligidagi qo'shinlarni yuboradi. Hujum muvaffaqiyatli bo'ldi. Dushman tor-mor etilib, To'xtamish zo'rg'a qochib qutuldi. 1393–1394-yili Amir Temur Sheki (Ozarbayjonning shimoliy qismi)da turgan paytda To'xtamish Kavkazorti viloyatlariga hujum qildi. Amir Temur Shekidan chiqib Qura daryosi bo'ylab yurdi. Oltin o'rdaliklar Amir Temur qo'shinlari kelayotganini eshitib, chekinishga majbur bo'ldilar. 1395-yil aprelida Terek daryosi bo'yida Amir Temur va To'xtamish o'rtasida urush harakatlari yana boshlanib ketdi. Jangning asosiy qismi o'ng qanotda bo'ldi. Amir Temur zaxira qo'shin bilan jangga kirdi va dushmanni chekinishga majbur qildi. To'xtamish uchinchi jangdan keyin hokimiyatdan ajraldi. To'xtamish qo'shinining Terek daryosi bo'yida tor-mor etilishi va 1395-yilda Saroy Berkaning xaroba qilinishi Oltin O'rdaga juda kuchli zarba bo'ldi.

Shundan keyin u o'zini o'nglay olmadi. Oltin O'rdaga berilgan qaqshatqich zarba Rusni mo'g'ul bosqinchilaridan ozod bo'lishiga ijobiy ta'sir etdi. Amir Temurning bir mamlakatga qilgan yurishlari uning boshqa mamlakatlarga qilgan yurishlari bilan ketma-ket borganligini urush voqealari ko'rsatib turadi. Amir Temur Ozarbayjonga bir necha marotaba hujum qilib bordi va 1387-yilda uni bo'ysundirishga muyassar bo'ldi. Armaniston va Gruziyani Amir Temur 1392-yilda bo'ysundiradi. Temurning uzoq Hindistonga yurishi 1399-yilda tamomlandi. 1400-yilda Amir Temur qo'shinlari turk sultoni Boyazid Yildirim va Misr sultoni Faraj bilan kurash olib bordilar. 1402-yili 20-iyulda Amir Temur Anqara yonida Boyazid bilan ikkinchi marta to'qnashdi va uni tor-mor etdi. Usmoniylar mag'lubiyati Yevropa xalqlari uchun ijobiy ahamiyatga ega bo'ldi. Turkklar Yevropaga o'z hujumlarini 50 yil orqaga surdilar. Amir Temur o'z qo'shinlari bilan 1404-yilning oxirida Xitoyga qarab yo'lga chiqadi. O'sha yili qish O'rta Osiyo tarixida eng qahraton qishlaridan biri bo'lgan. Sirdaryoning suvi 1 metrga muzlagan, askarlardan ko'pini quloq-burunlari, qo'l-oyoqlarini sovuq olgan edi. Amir Temurning o'zi ham ko'p o'tmay

shamollab qoladi. 1405-yil yanvar oyining o'rtalarida O'trorda to'xtashga qaror qilishadi va bu yerda 18-fevral kuni buyuk jahongir Sohibqiron Amir Temur vafot etdi.

Amir Temur 35 yil davomida harbiy yurishlar qildi. Bu yurishlar natijasida u buyuk saltanat barpo qilishga erishdi. Uning tarkibiga Movarounnahr, Xorazm, Kaspiy atrofidagi viloyatlar, hozirgi Afg'oniston, Eron, Turkiya, Hindiston, Iroq, Janubiy Rossiya, Kavkaz va G'arbiy Osiyoning bir qator mamlakatlari jami 27 ta o'lka kiradi. Amir Temurning muvaffaqiyatiga avvalo uning nodir harbiy iste'dodi sabab bo'ldi. Amir Temur qo'shinida qat'iy tartib va intizom o'rnatilgan edi. Har bir jang rejasini va barcha qismlar uchun yo'l-yo'riqlarni o'zi ishlab chiqardi. Uning harbiy iste'dodi Anqara yaqinida Sulton Boyazidga qarshi jangda ayniqsa yorqin namoyon bo'ldi. Armiyaning yuragi va qo'mondonlik o'zagini barlos urug'i vakillari tashkil etardi.

Shu davr voqealarining shohidi bo'lganlarning guvohlik berishicha barloslar harbiy ishga nihoyatda chidamli, yoydan o'q uzishga juda usta, o'z hukmdorlariga sodiq va sabr-toqatli bo'lganlar. Amir Temur ichki va tashqi savdo taraqqiyotiga katta ahamiyat berdi. Uning sa'y-harakati bois Buyuk ipak yo'li tarmog'i Movarounnahrqa qaytdi, savdo yo'llari xavfsizligiga, Sharq va G'arb savdo munosabatlariga katta e'tibor bilan qaraldi. Sohibqironning Fransiya qiroli Karl VI ga yozgan xatidagi quyidagi mulohazalar e'tiborga sazovordir: "Siz o'z savdogarlaringizni mening saltanatimga yuboring, biz ularni iliq qarshi olib, izzat-ikrom ko'rsatamiz. Biz ham o'z savdogarlarimizni sizning yurtingizga yo'llaymiz. Siz ham ularga hurmat ko'rsating, ularga ortiqcha tazyiqlar qilinishiga yo'l qo'ymang. Sizga bundan bo'lak talabim yo'q. Zero dunyo savdo ahli ila obod bo'lajak".

3. Jadid ma'rifatparvarlarining ozodlik va taraqqiyot yo'lidagi sa'y-harakatlari

Turkistonni Rossiya bosib olgach, XIX asr oxiri – XX asr boshlariga kelib, millat taqdiriga tahdid soluvchi o'ta qaltis va og'ir ichki tarixiy muhit paydo bo'ldi. Bir tomondan, Rossiya mustamlakachiligi siyosiy jihatdan mustahkamlandi. Mustamlaka va zo'ravonlikka mukkasidan ketgan rus bosqinchilari esa, endi o'z

mafkurasini singdirish orqali ma'naviy ustunlikka ham ega bo'lishi uchun mahalliy xalqni ruslashtirish, uning g'ururini sindirish, o'zligini yo'qotishdek, o'ta razil shovinistik siyosatni kuchaytirdilar. Ikkinchi tomondan esa, millat va xalqimiz o'z siyosiy, ma'naviy huquqlari, erki va xohish-irodasini yo'qotdi. Uchinchidan, umuman musulmon mutaassibliigi (konservatizm va bid'at) kuchaydi. Millatning ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy ahvoli hamda ma'naviyati tubanlashdi. Buning ustiga-ustak, din peshvolari orasidagi mutaassiblarda yangilikka, dunyoviy ma'rifat va taraqqiyotga qarshilik ham avj oldi. Bu esa, Islom dini hamda shariatiga mutlaqo zid ravishda avj oldi.

Millat va xalqimiz mana shunday ikki tomonlama o'ta ayanchli va xavfli ijtimoiy-siyosiy muhit hamda vaziyatga duch kelgan bir paytda musulmon ziyolilar din homiylari orasidan yangi bir taraqqiyparvar guruhining harakati paydo bo'ldi. Ular "jadid" degan ulug' nomga muyassar bo'lgan holda, Millat va Vatan, musulmon xalqlari uchun ma'naviy qalqon bo'lib, kurash maydoniga chiqdilar. "Jadid" arabcha so'z bo'lib, "yangi" degan ma'noni anglatadi. Shuning uchun ham yangilik va islohotchilikka intiluvchi, yangilik yaratuvchi faoliyat bilan mashg'ul bo'lgan taraqqiyparvar, ilg'or ruhdagi milliy ziyolilar tarixda "jadid" degan nomga musharraf bo'ldilar. Ularning harakati esa jadidchilik deb nomlandi. Bu harakatning paydo bo'lishi bevosita o'sha davrdagi ichki muhit hamda tashqi xalqaro maydondagi ijtimoiy-siyosiy va demokratik yangilanishlar bilan bog'liq bo'ldi. Jadidlar millatni bo'yin egishi va tanama-taqdir qilish xavfidan qutqarishning birdan bir to'g'ri yo'li avval tarbiya va ma'rifat, so'ng islohot ekanligini juda to'g'ri anglab yetdilar.

Shuning uchun ham jadidlar millat va xalqni diniy-dunyoviy ma'rifat, ilm-fan, madaniyat va yangiliklar bilan qurollantirib tarbiyalash, o'zligini anglatish, ijtimoiy-ma'naviy g'aflat uyqusidan uyg'otib, turmush tarzi, tafakkuri, ma'naviyati, madaniyati, adabiyoti va maorifini o'zgartirishga bel bog'ladilar.

Jadidchilik harakati ba'zi bir tarixga oid adabiyotlarda aytilganidek, "oldin madaniy-ma'rifiy harakat bo'lib, keyin ijtimoiy-siyosiy harakatga o'sib o'tgani" yo'q. U o'z tabiati maqsad va mohiyatiga ko'ra, dastlabki kundanoq, ijtimoiy-siyosiy,

madaniy-ma'rifiy va islohotchilik harakati bo'lgan. Ammo, Vatanni ozod va obod qilish, millat va xalqni hurriyatga olib chiqish, to'q va farovon, madaniyatli qilish uchun jadidlar asosiy e'tiborni dastlab madaniy-ma'rifiy ishlarga qaratdilar.

Jadidchilik madaniy-ma'rifiy, g'oyaviy-mafkuraviy va islohotchilik ko'rinishidagi musulmon mutaassibliigi va Rossiya mustamlakachiligiga qarshi keng jabhadagi jiddiy uyushgan milliy ijtimoiy-siyosiy harakat bo'lib, jadidlarning asosiy maqsadi millatning madaniy saviyasini ko'tarish, tafakkurini yangilash bilan, uning o'z qadr-qimmatini va o'zligini anglatish orqali milliy-ozodlik kurashini kuchaytirish, Vatan va millatni mustaqil qilish bo'lgan.

Jadidchilik harakati tarixiga nazar tashlasak, unda mustaqillikning dunyoga kelishi va uni mustahkamlash uchun asos bo'lgan g'oya va kurash usullarini ko'rish mumkin. Buni to'g'ri anglagan holda O'zbekiston Prezidenti Islom Karimov birgina Abdulla Avloniy misolida: "Men Abdulla Avloniyning "Tarbiya biz uchun yo hayot yo mamot, yo najot yo halokat, yo saodat yo falokat masalasidir" degan fikrini ko'p mushohada qilaman. Buyuk ma'rifatparvarning bu so'zlari asrimiz boshida millatimiz uchun qanchalar muhim va dolzarb bo'lgan bo'lsa, hozirgi kunda biz uchun ham shunchalik, balki undan ham ko'ra muhim va dolzarbdur", – deb jadidchilik harakatiga juda yuksak baho bergan.

Sovetlar hukmronligi davrida Vatan tarixining soxtalashtirilgan davrlari, sohalaridan biri jadidchilik harakati tarixi bo'ldi.

Istiqloldan so'ng jadidchilik harakati va jadidlar haqida ma'lum sohalar bo'yicha ko'pgina tadqiqot ishlari amalga oshirildi, ko'plab maqolalar yozildi, salmoqli monografik asarlar chop etildi. Shuningdek, ko'pgina jadidlarning yozma merosi – tanlangan asarlari birinchi marotaba nashr etildi. Hozir ham jadidchilik harakati tarixi, jadid adabiyoti va san'ati, jadid pedagogikasi, jadid huquqshunosligi, jadid etikasi va estetikasi, jadid jurnalistikasi hamda iqtisodiyoti va geografiyasi kabi sohalarda tadqiqotlar olib borilmoqda.

Agar mana shu jadidshunoslik sohalari bo'yicha yaratilgan asarlarga jiddiy e'tibor berilsa, ularda hozirgacha ham kommunistik mafkura va sovet tarix fanining soxtalashtirish asoratlarini ko'rish mumkin. Masalan, jadidlarni kommunistik sinfiy dushmanlik

nuqtayi nazaridan «milliy burjuaziya», «burjuaziya mafkurachilari», «Sho'roi islomiya» va «Sho'roi ulamo»lar xuddi sovet tarix fanida ko'rsatilganidek, siyosiy partiyalar ma'nosida tahlil qilinishi va boshqalar shular jumlasidandir.

G'aflatda yotgan xalqni uyg'otish uchun uning tarixini uyg'otmoq kerak. Zero: «O'zlikni anglash tarixni bilishdan boshlanadi». O'lkamizdagi dunyo taraqqiyotidan butunlay uzilib qolgan ta'lim-tarbiya tizimidagi turg'unlikka nisbatan jadidlarga xos tanqidiy fikrlar uzoqni ko'ruvchi ziyolilar, mutafakkirlar orasida ancha ilgari – XIX asr boshlarida vujudga kela boshlagan edi.

Xiva xonligi siyosiy hokimiyatini qo'lga kiritgan qo'ng'iroq xonlarining dastlabki hukmdori Eltuzarxondan (1804–1806-yy.) boshlab tarixga, tarixnavislikka katta e'tibor berilgan. XIX asrning birinchi yarmida qo'ng'iroq xonlarining homiyligi natijasida Munis va Ogahiy tomonidan shakllantirilgan tarix va tarjimashunoslik maktabi faoliyati va merosi XIX asrning ikkinchi yarmi XX asr boshlarida Xiva xonligida vujudga kelgan ma'rifatparvarlik yo'nalishi namoyandalarning yetishib chiqishiga turtki bo'lgan bo'lsa, Qo'qon xonligida esa mashhur o'zbek shoirasi, davlat arbobi Nodirabegim hamda ma'rifatli shoh va shoir Umarxon tarbiyasini olgan yetuk tarixchi olim, yozuvchi, ma'rifatparvar Muhammad Hakimxon to'ra Ma'sumxon to'ra o'g'lining “Muntaxab ut-tavorix” (“Saralangan tarixlar”) asari xuddi shunday rol o'ynagan. Hakimxon to'ra Rossiyaning Semipalatinsk (Shamay), Omsk, Orenburg, Astraxan shaharlarida bo'lgach, 1826-yilda Rossiya hududidan chiqib, musulmon davlatlaridan Turkiya, Misr, Eron, Falastinda ham bo'ladi. Misrda Muhammadali podshoh bilan uchrashadi, uning islohotchilik faoliyati bilan yaqindan tanishadi. Muhammadali podshohlikning 40 yigitni 7 yil davomida turli bilimlarni egallash uchun Yevropaga o'qishga yuborishi uni hayratga soladi. Hakimxon to'rada xonliklardagi davlat, ta'lim-tarbiya, o'qitish tizimiga nisbatan munosabati keskin o'zgaradi, o'lkaning taraqqiyotdan naqadar orqada qolib ketganligini o'z mushohadasidan o'tkazadi. Sharq tillari bilan bir qatorda rus tilini ham mukammal o'rgangan mutafakkir Rossiya davlat, ta'lim-tarbiya tizimi bilan yaqindan tanishgan, u yerdagi shaharlarda ota-

onasiz qolgan yetim-yesirlar, tashlandiq, noqonuniy tug'ilgan bolalar uchun maxsus tarbiyaxonalar – pansionlar ochilgani, ular davlat hisobidan o'qitilishi haqida sayohatlari asosida yozib qoldirgan. Hakimxon to'ra Muhammadali podshoh tashkil etgan va dunyoviy ilmlar o'qitiladigan yangi maktablarni chuqur o'rganadi. Maktablarga turli fan sohalari bo'yicha talabalar tanlash, o'qitiladigan ilm-fanlar, ayniqsa, bitiruvchilarni iqtidoriga yarasha ish bilan ta'minlash kabi masalalarni «Muntaxab ut-tavorix» asarida batafsil yoritgan.

Jadidchilik harakatining paydo bo'lib, rivojlanishida qrimlik Ismoilbek Gaspiralinig (1851–1914) hissasi behad katta bo'ldi. U Qrimda XIX asrning 80-yillardayoq, Rossiya bosib olgan musulmon xalqlari orasida birinchi bo'lib jadidchilikka asos soldi. Uning rus va turkiy tillarda chop etilgan “Tarjimon” (1883–1914) gazetasi, “Rossiya musulmonligi” (1881), “Ovropa madaniyatiga bir nazar muvozin” (1885) va boshqa asarlari hamda jadid maktabi uchun yozgan darslik va qo'llanmalar Turkistonga tez kirib keldi. Ismoilbek Gaspirali 1884-yilda “Tarjimon” gazetasi orqali musulmonlarga qarata shunday murojaat qiladi: “Suyukli do'stlarim, bizning uchun eng go'zal ish ilm va maorif ishidir. Eng muqaddas intilish ilmga, maorifga intilishdir. Chunki insonni inson etgan mehnat va bilimdir. Bilim madaniy turmush (sivilizatsiya) ga yetishish vositasidir.”

I. Gaspirali 1884-yilda o'n ikkita bolani yangicha usul – “usuli jadid” – savtiya (tovush) usuli bilan o'qitib, qirq kunda savodini chiqaradi. Ular o'qish va yozishgi mukammal o'zlashtira boshladilar. U 1892-yilda Turkiston general-gubernatori A.B. Vryovskiyga maxsus maktub yo'llab, unda maktablarni isloh qilish, jadid maktablarini tashkil etish madrasalardan birini zamonaviy – dunyoviy oliy o'quv yurtga moslab isloh qilishni taklif etadi. Ammo, bu takliflar amalga oshmaydi. Shundan so'ng Islombek Gaspirali 1893-yilda Toshkentga keladi va ziyoli ulamolar bilan uchrashadi. Samarqandda bo'ladi. U yerdan Buxoroga borib, amir Abdulahadni jadid maktabi ochishga ko'ndiradi va bu maktabga “Muzaffariya” degan nomni beradi. Shuning uchun Turkistonda jadid maktablarining ochilishi va jadidchilik harakatining paydo bo'lish davrini XIX asr 90-yillari

deb yozishadi. Yana ko'pchilik jadidlarni o'ng va so'llarga ajratib baholashga harakat qilishadi. XX asrning "...60–80-yillarida birmuncha siljishdek ko'ringan jadidlarni o'ng va so'llarga ajratib baholash esa, aslida, mohiyat e'tibori bilan jadidchilikning sho'ro tuzumini yoqlash va uni mustahkamlash yo'liga o'tgan vakillarini oqlash tadorigidagi ustomonlikdan boshqa narsa emas edi. Ayniqsa, Xorazm jadidlarini o'ng va so'l oqimlarga bo'lish mumkin emas. Mavjud adabiyot va tadqiqotlarda Xorazm jadidlari o'ng oqimiga vazir Islomxo'ja boshliq savdo-sanoat korxonalari egalari va katta boylar turganligi qayd qilinib, so'l oqim namoyandalariga Boboovun Salimov, Husaynbek Matmurodov, Polvonniyoz Hoji Yusupovlarni kiritadilar. Aksincha Husaynbek Matmurodov, Polvonniyoz Hoji Yusupovlar Islomxo'ja islohotlariga qarshi chiqqanlari sababli 13 oy qamoqda o'tirganlar. Ma'lum ma'noda ularning barchasi ham yangilik, taraqqiyot tarafdorlari edilar. Lekin ular ham amaldor, katta yer egasi, savdogar va zavodchi boylardan edilar. Jo'ra Toshqulov Xorazm jadidlarini shu bilan birga, maqsad va kurash usullariga qarab ham o'ng va so'l oqimga ajratadi. So'l qanot vakillari mavjud siyosiy-huquqiy tartibotlar bilan murosa qilishni istamay, hatto fitna usulidan foydalanishga intilishlari borligini qayd qilib, 1917-yil aprelda chaqirilgan Majlisning tarqatilishi va bir qancha Yosh xivaliklarning qamoqqa olinishi uchun bahona bo'lgan voqeani keltiradilar. Bunda asosiy aybdor sifatida Xusaynbek Matmurodov va yana bir necha Yosh xivaliklar qamalgan edilar. «Xusaynbek boshliq bir necha birodarlarimizni hibbs qildilar», deb yozadi P.H.Yusupov. Demak, yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, nafaqat Xorazm jadidlarini, balki bu harakatning boshqa joylardagi a'zolarini ham o'ng va so'lga ajratish maqsadga muvofiq emas.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, azaldan taraqqiyot, yangilik, islohotlar tarafdori bo'lgan Turkiston xalqlari orasida jadidchilik harakati XIX asr oxiri – XX asrning boshlarida muntazam madaniy-ma'rifiy, ijtimoiy-siyosiy harakat sifatida shakllandi va jadidchilik harakati tarixini asosan ikki davrga: (Birinch davr – XIX asrning oxirlaridan 1917-yil fevralgacha; ikkinchi davr – 1917-yil fevraldan 1937-yilgacha) bo'lib o'rganish, anglash maqsadga muvofiqdir.

Jadidchilik harakatining asoschisi va yirik namoyandalari: Toshkentda Munavvarqori Abdurashidxonov (1878–1931-y), Abdulla Avloniy (1878–1934), Ubaydulla Asadullaxo‘jayev, Toshpo‘latbek Norbo‘tabekov, To‘lagan Xo‘jamyorov-Tavallo (1882–1936), Abdulla Qodiriy (1894–1938); Samarqandda Mahmudxo‘ja Behbudiy (1875–1919), Abduqodir Shokuriy, Saidahmad Siddiqiy-Ajziy (1875–1927); Buxoroda Abdurauf Fitrat (1886–1938), Fayzulla Xo‘jayev (1896–1938), Usmonxo‘ja Po‘latxo‘jayev, Abduvoxid Zurhonov, Sadriddiy Ayniy, Abdulqodir Muhiddiiov; Farg‘ona vodiysida Is‘hoqxon Ibrat (1352–1237), Obidjon Mahmudov (Obidchatoq), Hamza Hakimzoda Niyoziy (1880–1929), Abdulhamid Cho‘lpon (1897–1938), Muhammadsharif So‘fizoda (1869–1937); Xorazmda Polvoznioyoz Xoji Yusupov (1861–1936), Boboixun Salimov (1874–1929) va boshqalar.

XX asr boshlarida Xiva xonligidagi jadidlar harakati yangiliklar tarafdorlari bo‘lgan amaldorlar, mahalliy boylar va savdo ahli, taraqqiyparvar musulmon ruhoniylari, madrasa mudarrisarlari va toliblari, ma‘rifatparvar shoirlar maktab va madrasalarni, hatto islom diniga keyin kirib kelgan bid’atlarni va urf-odatlarining ayrim qismlarini isloh qilish, dunyoviy fanlarni joriy etish, savodxonlik, usullarini osonlashtirish, o‘quvchilarni o‘z ona tilida ko‘proq o‘qitish va «g‘ayri til»ni bilish kabi ma‘rifatparvarlik g‘oyalari bilan chiqqan demokratiya va adolat, istiqlol va taraqqiyot uchun kurashuvchilar harakati hisoblanadi. Ular safida bosh vazir Islomxo‘ja, qozikalon Boboixun Salimov, shoir Avaz O‘tar, devonbegi Xusayn Matmurodov, savdogar Psshonniyoz Hoji Yusupov, sanoatchi boy Nazar Sholikorov, matbaachi - hunarmand Otajon Abdalov, birinchi o‘zbek kino - foto ustasi Xudoybergan Devonov, mirzaboshi Muxammad Rasul Mirzo, xonanda - musiqashunos Matyoqub Pozachi, Otajon Safayev, Bobojon Yoqubov, Hakimboy Jonmuhammedov, Muhammadyor Hoji Abdullayev, Otajon Xo‘janiyozov, Rahmonbergan Yoqubov, Muhiddin Umarov, Mulla Jumaniyoz Sultonmurodov, Jumaniyoz Hoji Boboniyozov, Qurbonboy Jaloyir, Xudoybergan Matniyozov, Davlatnazar Qayroq, Murod Eltuzarov, Mulla Matmurod, Mulla Abdulla Berdimurodov, Avazxo‘ja, Isomiddin eshon, Nizomohun, Sobir Yoqubov, Mulla Bekchon Rahmon o‘g‘li, Muhammad Yusuf

Devonzoda va boshqalar kirgan. Ularning safi 40 nafardan ziyod kishini tashkil etardi. Har payshanba kechasi goh Qalandarxonada, goh Qorako'z masjidida, ko'pincha Husaynbek Matmurod devonbegi o'g'lining uyida yig'ilishlar o'tkazilib, qo'shiqlar aytishgan, she'rxonlik qilishgan, erk, adolat, madaniyat va islohotga doir suhbatlar olib borilgan. Ular jadid adabiyoti va san'atini yaratish bilan cheklanib qolmay, madaniyat va maorif muassasalari tashkil etish, ya'ni yangi usul maktablari, kasalxona, pochta - telegraf ochish, o'quv qo'llanmalari yozish va nashr etish ishlari bilan shug'ullanganlar.

Islomxo'janing taklifi bilan xonlik hududida Kabir Abdurashidov, David Bakirov, Muxtor Bakirov kabi o'qituvchilar, pochta - telegraf va temir ko'priklar quruvchi injenerlar, 1913-yildan A.F. Anisimov rahbarligidagi vrachlar ish olib bordilar. Bu jarayon jadidchilik harakatining keng rivojiga ta'sir qilib, Xo'jayli, Xonqa, Gurlan kabi qal'a (shahar)larda ham yangi usul maktablari ochila boshlandi. Lekin Yosh xivaliklar partiyasi va rahbarlaridan biri Polvonniyoz Hoji Yusupovning yozishicha, Asfandiyorxon ustalik bilan otasi davrida xizmat qilgan, mamlakatda katta ta'sirga ega bo'lgan amaldorlarni Islomxo'jaga qarshi qo'ydi. Natijada Islomxo'jaga qarshi shaxsiy g'arazi bo'lgan, uning olib kelayotgan yangiliklarini ko'rolmayotgan amaldorlar bilan Islomxo'ja o'rtasida kurash boshlanadi. Dastlab Asfandiyorxon Islomxo'jaga qarshi Xusaynbek devonbegi boshliq amaldorlardan ariza yozdirib olib, keyinchalik buni Islomxo'jaga ko'rsatdi. O'z mavqeyidan foydalangan vaziri buzruk Islomxo'ja Xusaynbek Devonbegi, Sohibnazar mehtar, Sheyxnazarboy yasavulboshi, Omongeldi Sardorboy, Otajon maxram, Muxammad Latif Maxsum, Muxammad Pano maxsum, Bobo Devon, Inoyat Devon, Qobul Maxram, Xo'ja Jumaniyoz, Polvonniyoz Hoji Yusupov, Bobojon Yoqubovlarni zindonga tashlab, ularning mol-mulklarni musodara qildiradi. Ular hibsda 13 oy ushlanib turilgan. Shuningdek, dastlab Islomxo'jaga qarshi bormagan Asfandiyorxon uning faoliyatiga zid ishlarni qila boshladi. Ular orasidagi nizo yangi qurilishlarga mablag' yetmay qolganda —Asfandiyorxon Yevropacha uslubda qabulxona qurishni buyurgandan boshlandi. Uning buyrug'ini Islomxo'ja so'zsiz qabul qilib, imoratni Nurillaboyda qisqa vaqtda

qurib bitkazgan. Lekin bu nizo 1913-yilda Islomxo‘janing o‘ldirilishiga olib keldi va islohotlar to‘xtab qoldi. Bu voqealar Xiva jadidlari va endi shakllanayotgan Yosh xivaliklar faoliyatiga katta ta’sir ko‘rsatdi. Endi ular davlat boshqaruvida o‘zgarish qilmay turib, mamlakatda yangiliklar joriy qilib bo‘lmasligini tushunib yetdilar.

Jadidchilik harakatining asosini ma’rifatparvarlik tashkil qilganidek, maorif, maktab tizimi, ma’rifatparvarlik qurolidir. Jadid maktabining Turkistonda paydo bo‘lishida Ismoilbek Gasparali katta o‘rin tutgan. Uning 1892-yilda Turkiston general-gubernatori Vrevskiyga yozgan maktubi va Buxoroga safari jadid makdorligining rivojida muhim rol o‘ynagan. Dastlab jadid maktabi tashkil etganlar: Ismoilbek Gasparali (Boqchasaroy, 1884), Is’hoqxon Ibrat (Namanganning To‘raqo‘rg‘on qishlog‘i, 1886), Raxmonqul qori (Xiva, 1887), Shamsiddin domla (Andijon, 1899), Salohiddin Majidiy (Qo‘qon), Abduqodir Shokuriy (Samarqand), Mahmudxo‘ja Behbudiy (Samarqand), Munavvarqori Abdurashidxonov (Toshkent, 1901) va boshqalar.

Jadidchilik harakati, shu vaqtgacha Islom dunyosida sira ham ko‘rinmagan ilg‘or va tezkor o‘qitish “Savtiya” (tovush) usuliga asoslangan jadid maktablari tashkil topishidan boshlandi. Bu maktablarda bolalar bir yilda savod chiqarib, mukammal o‘qish va yozishni o‘zlashtiradi. Buning uchun esa qadim an’anaviy musulmon maktablarida 5–6 yil o‘qish kerak bo‘lar edi. Aytish mumkinki, “Savtiya” usulidagi jadid maktabi Vatanimiz tarixidagi buyuk kashfiyotlar silsilasini boyitdi.

Jadid maktabida diniy va dunyoviy ta’lim-tarbiya hamda ilm o‘zaro uyg‘unlashtirildi. Bolalar qulay partalarda o‘tirib, xarita va rasmlar yordamida tez savod chiqardi va diniy-dunyoviy ilmlarni o‘rgandi. Jadid maktablarida Qur’oni karim, matematika, geografiya, ona tili, rus, arab tillari, ashula va hatto jismoniy tarbiya o‘qitila boshlandi.

Jadid maktablari to‘rt (boshlang‘ich) va yetti yillik edi. Masalan, Munavvarqori Abdurashidxonovning yetti yillik maktabini bitirgan yoshlar dunyoviy ilmlarni, rus tilini yaxshi o‘zlashtirgan holda jadid maktabida o‘qituvchi, masjidlarda imom bo‘lish, madrasa va hatto, xorijdagi dunyoviy oliy o‘quv yurtlarida

o'qish, savdo va boshqa korxonalarda kotib bo'lib ishlash malakasiga ega bo'lganlar. Bunday yetti yillik maktablar Toshkentdan tashqari, Qo'qon, Samarqand kabi yirik shaharlarda ham ochiladi.

Jadid maktablari pullik edi. Har oyiga ota-onalar baholi qudrat, ellik tiyindan bir yarim so'mgacha pul to'ladi. Bu o'rinda har otona o'zlarining boylik va kambag'allik darajalarini shariat asosida belgilab pul beradilar. 35 foizgacha kambag'al va nochorlarning bolalari tekin o'qitildi. O'ziga to'q oilalar esa o'z xohishi bilan uch so'mdan va undan ham ko'p pul bergan. Bulardan tashqari jadidlarning o'zlari tashkil etgan xayriya jamiyatlari ham jadid maktablarini mablag' bilan ta'minlab turgan.

Jadid maktablarining ochilishiga rus amaldorlari, musulmon mutaassiblari qarshilik qiladilar. Jadidlar katta matonat va fidoyilik bilan eski maktablarga tegmay namuna sifatida jadid maktablarini tashkil etib, omma orasida katta obro' qozondilar. Jadid maktablari qat'iy nizom, dastur va darsliklarga asoslandi. Tarixda birinchi bo'lib, jadidlar o'quvchilarga kundalik, chorak va yillik baholar qo'yishni joriy etdilar. O'quvchilar sinfdan-sinfga o'tish va bitirish uchun jamoatchilik oldida ochiq chorak, yillik va bitiruv imtihonlarini topshirganlar.

Maktab ochgan jadidlar dastur, qo'llanma va darsliklarni ham o'zlari yaratdilar. Ismoilbek Gasparalining «Xo'jai sibyon» («Bolalar muallimi») (1884), Saidrasul Saidazizovning «Ustodi avval» (1901), Munavvarqori Abdurashidxonovning «Adibi avval», «Adibi soniy», «Tajvid» (Qur'onni qiroat bilan o'qish usuliga oid qo'llanma), «Havoyiji diniya» (Shariat qonunlari to'plami), «Yor yuzi», «Usuli hisob», «Tarixi anbiyo», «Tarixi islom», Abdulla Avloniyning «Birinchi muallim» va «Ikkinchi muallim», «Turkiy guliston yoxud axloq», Mahmudxo'ja Behbudiyning «Qisqacha umumiy geografiya», «Bolalar maktubi», «Islomning qisqacha tarixi», «Amaliyoti islom», «Aholi geografiyasiga kirish», «Rossiyaning qisqacha geografiyasi» va boshqalar shular jumlasidandir.

Jadid maktablari ochilishi bilan ba'zi joylarda qadim va maktablari bo'shab qoldilar. Natijada qadim va jadid maktabdorlari

o'rtasida jiddiy qarama-qarshiliklar paydo bo'ldi. Bunga mutaassib qozi mulla va ulamolar ham qo'shildilar.

Toshkent va Buxorodagi xayriya jamiyatlarining homiyligi va jadid ziyolilarining sa'y-harakatlari bilan XX asrning dastlabki o'n yilligidan boshlab, Vatanimizning iqtidorli farzandlari Turkiya, Germaniya, Rossiya, Ozarbayjon, Tatariston hamda boshqa joylarga tashkiliy ravishda o'qishga yuborila boshladilar. Masalan, Turkiyaning Istanbul shahrida 1910-yilda 50 nafar, 1911-yilda 15 nafar, 1912-yilda 30 nafar yoshlar o'qigan ekan.

Jadidchilikning asosiy maqsadlaridan biri mamlakatda zamonaviy (yevropacha) oliy ta'limni yo'lga qo'yish bo'ldi. Universitet tashkil etish g'oyasi Turkistonda ilk bor 1892-yilda Ismoilbek Gaspirali tomonidan olg'a surildi. I. Gaspirali 1906-yilda, yana "Tarjimon" gazetasida to'g'ridan to'g'ri Buxoro amiri va Xiva xoniga murojaat qilib shunday deydi:

"Fuqoroyi islom sizlardan mol istamas, osh istamas. Din-"qur'on"dan, jon-Xudodan. Siz davlatlik xonlardan aholiga ehson etiladigan narsa-nashri maorifga, taraqqiyot va kamolatga omil bo'luvchi oliy darajalik maorif maktablaridir. Ko'hna madrasalari ko'p Buxoroi sharifda va Xivada endi biror dorilfununi islomiya ta'sis etmoq lozim. Bu dorilfununlarga bir daraja ilm olgan talaba qabul qililib, tarix, jo'g'rofiya, kimyo, handasa, ilmi huquq, usuli idorayi davlat, ilmi iqtisod va boshqa lozim fanlar, turkiy, forsiy, rusiy va fransaviy tillar o'rgatilsa... Ushbu dorilfununlarda muallim va mudarrislik qila oladigan ahli kamol bor".

Jadidlar oliy ta'limning asosi – universitet tashkil etish uchun Toshkent shahar Dumasidan ham foydalandilar. Munavvarqori, Fitrat, M. Behbudiy, U. Asadullaxo'jayev va boshqa jadidlar milliy dunyoviy oliy ta'lim g'oyasini o'z asar va maqolalarida keng targ'ibot-tashviqot qiladilar. Oliy ta'limga zamin yaratish uchun, jadid maktablarida dunyoviy ilmlar o'qitildi, xorijga yoshlar o'qishga yuborildi.

Dunyoviy hozirgi zamon oliy o'quv yurti – universitetga asos solishga jadidlar faqat 1918-yilda Musulmon xalq dorulfununini tashkil etish bilan muvaffaq bo'ldilar.

Umuman, jadidlar juda qisqa vaqt ichida butunlay yangi hozirgi zamon xalq maorifi tizimiga asos soldilar.

Jadidchilik harakatining ikkinchi bir muhim faoliyati milliy matbuot va jurnalistikasiga asos solish bo'ldi. Nikolay II inqilobiy-demokratik harakat bosimi ostida 1905-yil 17-oktabrda maxsus manifestga imzo chekib, demokratiya, matbuot va so'z, har xil yig'inlar o'tkazish erkinligini joriy qilishga majbur bo'ldi. Bu farmon Rossiya mustamlakasi bo'lgan Turkistonga ham taalluqli edi. Mana shundan so'ng jadidlar millat himoyasi uchun jangovar qalqon va muazzam minbar bo'lgan gazeta va jurnallarni tashkil etish uchun kurashadilar.

Toshkentda Ismoil Obidiy "Taraqqiy" (1906), Munavvarqori Abdurashidxonov "Xurshid" (1906), Abdulla Avloniy "Shuhrat" (1907), Saidkarim Saidazimboyev "Tujjor" (1907), Ahmadjon Bektemirov "Osiyo" (1908), Ubaydullaxo'ja Asadullaxo'jayev "Sadoi Turkiston" (1914–1915) gazetolari, shuningdek, Abdurahmon Sodiq o'g'li (Sayyoh) "Al-Isloh" (1915) jurnalini nashr etishga muvaffaq bo'ldilar. Samarqandda esa Muhmudxo'ja Behbudiy "Samarqand" ruscha (1913) gazetasi va "Oyna" (1913–1915) jurnalini, Qo'qonda Obidjon Mahmudov "Sadoi Farg'ona" (1914) gazetalarini chiqardi. Bu gazeta va jurnallar doimo maxfiy politsiya "oxranka"ning ayg'oqchilari kuzatuvi, ta'qibi ostida bo'ldilar.

Jadid matbuoti 1917-yil fevralda rus podshosi taxtdan ag'darilgach, yanada rivojlandi. Juda qisqa vaqt oralig'ida fevraldan oktabrgacha Toshkentda Munavvarqori Abdurashidxonov "Najot" (1917-y. mart), A. Battol "Sho'roi islom" (1917-y. may), Abdulla Avloniy "Turon" (1917-y.), Ahmad Zaki Validiy va Munavvarqori Abdurashidxonov "Kengash" (1917-yil iyun), "Ulug' Turkiston" (1917-y.), Qo'qonda Bo'lat Soliyev "El bayrog'i" (1917-y. sentabr) gazetalarini, H.H. Niyoziy "Kengash", Ashurali Zohiriy "Yurt" (1917-yil iyun) jurnallarini, Samarqandda esa Shohmuhammadzoda "Hurriyat" (1917-yil aprel) gazetalarini chop etdilar.

Jadid matbuoti rivojini quyidagicha hududlar bo'yicha o'rganish yanada muhimdir. Jumladan, Toshkentda chop etilgan jadid gazetolari: "Taraqqiy" (1906-y., Ismoil Obidiy), "Xurshid" (1906-y. Munavvarqori Abdurashidxonov); "Tujjor" (1907-y., Saidkarimboy Saidazimboy o'g'li); "Sadoi Turkiston" (1914-y., Ubaydullaxo'ja Asadullaxo'jayev); "Najot" (1917-y.,

Munavvarqori Abdurashidxonov); "Shuroi Islom" (1917-y., Abdula Battol); "Kengash" (1917-y., Ahmad Zaki Validiy, Munavvarqori); "Ulug' Turkiston" (1917-y., Kabir Bakir); "Xalq dorilfununi" (1918-y., Muxtor Bakir) va boshqalar. Toshkentda chop etilgan jurnallar: "Al-isloh" (1915–1918-y., Abdurahmon Ssddix o'g'li – Sayyoh); "Al izoh" (1917–1918-y.); "Chayon" (1917-y.); "Izhorul haq" (1918-y., Mulla Sariddinxo'ja Mufti. Farg'onada chop etilgan gazetalar: "Sadoi Farg'ona" (1914-y., Obidjon Maxmudov); "Farg'ona nidosi" (1917-y.) Buxoroda chop etilgan gazetalar: "Buxoroi Sharif" (1912–1913-y., Mirjalol Yusufzoda); "Turon" (1913-y. G'iyosmaxsum Husayniy), Samarqandda chop etilgan gazetalar va jurnal; "Samarqand" (1913-y., Mahmudxo'ja Behbudiy); "Hurriyat" (1917-y., Mardonqul Shohmuhammadzoda, Akobir Shomansurov, Fitrat); "Oyna" jurnali (1913–1915y., Maxmudxo'ja Behbudiy. Qo'qonda chop etilgan gazeta va jurnallar: "El bayrog'i" (1917-y., Bo'lat Soliyev); "Tirik so'z" (1915-y., Obidjon Mahmudov), "Kengash" jurnali (1917-y., Hamza), "Yurt" jurnali (1917-y., Ashurali Zohidiy). Ko'rinib turibdiki, Xorazm jadidlarida matbuot shakllanmagan yoki hozirgacha o'rganilmagan.

Buyuk millatparvar jadidlar, jadid matbuoti orqali millatni o'z madaniy-iqtisodiy ahvoli, siyosiy qaram va huquqsizligini anglatishga, unda bosqinchilarga qarshi nafrat, milliy istiqloлга ishonch ruhini tarbiyalashga muvaffaq bo'ldilar. Shuning bilan birga ular milliy muxtoriyat va jumhuriyat g'oyasini, millatlararo tenglik va qon-qarindoshlikni targ'ibot qilishni to'g'ri yo'lga qo'yadilar.

Jadid adabiyotida dramaturgiya, ya'ni jadid dramasi eng sermahsul va ommabop janr sifatida alohida ko'zga tashlanadi. Jadid g'oyalarining xalqqa yoyilishi, singishi va amaliy natijalar berishida dramaturgiya va teatr san'atining ta'sir ko'rsatishi kuchli bo'ldi. Shuning uchun ham jadid adiblarining aksariyat yirik nomayandalari o'z ijodiy-amaliy faoliyatini drama yozish va teatr bilan bog'liq holda olib bordilar.

Jadidchilik harakatining iqtisodiy ta'minot manbayini madaniy-ma'rifiy xayriya jamiyatlari, boy-badavlat kishilar tomonidan savob olish va millat nufuzini ko'tarish uchun berilgan

beminnat ehsonlar tashkil etdi. Jadidchilik va jadidlar asosan o'rtahol musulmon ziyolilari hamda dunyo ko'rgan ilg'or ruhdagi savdogarlardan iborat bo'ldi. Toshkentlik Saidkarim Saidazimboy o'g'li, turkistonlik Saidnosir Mirjalilov (taniqli yozuvchi Oybekning qaynotasi), andijonlik Mirkomil Mirmo'minboyev va boshqa boylar jadidchilik harakati rivojlanishiga katta iqtisodiy hissa qo'shdilar.

Jadidlar har xil xayriya jamg'armalarini tashkil etish, boy va badavlat kishilarning ortiqcha mablag'larini millat va Vatan manfaati yo'lida sarflashga ham katta e'tibor berdilar. Toshkentda 1909-yilda "Ko'mak", 1913-yilda "Dorilu ojjizin", Buxoroda 1910-yilda "Tarbiyai atfol" xayriya jamiyatlari tashkil etiladi. Ularning oldiga qo'yilgan asosiy maqsad sarmoya topib, jadid maktablariga yordam berish va iqtidorli yoshlarni Turkiya va boshqa xorijiy mamlakatlarga o'qishga yuborishdan iborat bo'ldi.

Bu siyosiy hokimiyat tashkilotlarining "Najot" (1917-yil mart), "Kengash" (1917-yil iyun), "Sho'roi islom" (1917-yil 16-may, Toshkent) "El bayrog'i" (1917-yil sentabr Qo'qon), "Hurriyat" (1917-yil aprel, Samarqand) kabi gazeta va jurnallari chop etilib, ular muxtoriyat, tenglik, erk va mustaqillik g'oyalarini keng yoyadilar.

Tayanch so'zlar

O'zbekiston, mustaqillik, sivilizatsiya, davlatchilik, jahon, millat, xalq, qahramon, O'rta Osiyo, Movarounnahr, Turkiston, Rossiya imperiyasi, To'maris, Shiroq, Spitamen, Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur, Jadid, jadidchilik, Xorazm jadidchiligi, ma'rifatparvarlik, maktab, yangi usul maktabi, jadid maktabi, rus – tuzem maktabi, gazeta, matbaa, yangi tuzim, ziyoli, domulla, xonning homiyligi, qozikalon xayrixohligi, "Vaqt", "Ittifoq", "Vaxdat", "Tarjimon", o'ng va so'l oqim, g'ayri til, Ismoilbek Gaspirali-Gaspirinskiy, Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Fitrat, Abdulla Avloniy, Abdulla Qodiriy, Ahmad Zaki Validiy, Hamza Hakimzoda, Jadidchilik harakati tarixi, Jadidchilik-milliy-ozodlik harakati, jadidlar Vatan va Millat fidoyilari.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar

1. Sivilizatsiya deganda nimani tushunasiz?
2. O'zbek xalqining kelib chiqishi haqida nimani bilasiz?
3. Davlatchilik nima?
4. Ilk davlatlar to'g'risida qanday ma'lumotga egasiz?
5. O'rta asrlardagi buyuk siymolar haqida nimalarni bilasiz?
6. Amir Temur milliy qahramon deyilganda qanday taassurotga ega bo'lasiz?
7. Temuriylar sulolasi haqida nimalarni bilasiz?
8. Jadidchilik harakatining asosiy maqsadlari nimalardan iborat bo'lgan?
9. Ismoilbek Gaspiralinining jadidchilik harakati paydo bo'lishida tutgan o'rni nimalardan iborat bo'lgan?
10. "Sho'roiy Ismoiliiy" va "Sho'roi ulamo" qachon tashkil topdi?
11. Jadidchilik harakatida dunyoviy oliy ta'lim g'oyasi va uni amalga oshirish qanday kechdi?
12. Jadid siyosiy maxfiy tashkilotlarining soni, shulardan birortasiga to'xtalimg.

Mavzu bo'yicha foydalanilgan adabiyotlar

1. Sh.M. Mirziyoyev. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. To'ldirilgan ikkinchi nashri. – Toshkent: O'zbekiston, 2022.
2. Sh.M. Mirziyoyev. Yangi O'zbekistonda erkin va farovon yashaylik. 5-jild. – Toshkent: O'zbekiston, 2023.
3. Sh.M. Mirziyoyev. Yangi O'zbekistonda taraqqiyot strategiyasi asosida demokratik islohotlar yo'lini qat'iy davom ettiramiz. 6-jild. – Toshkent: O'zbekiston, 2023.
4. Sh.M. Mirziyoyev. Hozirgi zamon va Yangi O'zbekiston. – Toshkent: O'zbekiston, 2024.
5. Abdurashidxonov M. Tanlangan asarlar. –T.: «Ma'naviyat», 2003.
6. Алимова Д.А. Джадидизм в Средней Азии. Пути обновления, реформы, борьба за независимость. – Т.: Узбекистан, 2000.

7. A'zamxo'jayev S. Turkiston muxtoriyati. Milliy – demokratik davlatchilik qurilishi tajribasi. –T.: Ma'naviyat, 2000.
8. A'zamxo'jayev S. Turkiston muxtoriyati. Milliy demokratik davlatchilik qurilishi tajribasi. –T.: «Ma'naviyat», 2000, 37-bet.
9. Behbudiy M. Tanlangan asarlar. Tuzatilgan va to'ldirilgan 2-nashri. – T.: Ma'naviyat. 1999.
10. Gasprinskiy (Gasprali). Hayot va mamot qissasi. Tanlangan asarlar – T.: “Ma'naviyat”, 2006.
11. Dolimov U. Turkistonda jadid maktablari. – T.: “Universitet”, 2006.
12. Do'stqorayev B. O'zbekiston jurnalistikasi tarixi (1-qism. 1870–1917-yil noyabr). Darslik. –T.: G'.G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2009.
13. Qosimov B. Milliy uyg'onish: jasorat, ma'rifat, fidoyilik. – T.: Ma'naviyat, 2002.
14. Qosimov B. Milliy uyg'onish: Jasorat, ma'rifat, fidoyilik. –T.: “Ma'rifat”, 2002, 23-bet.
15. Mingnorov A. Turkistonda 1917–1918-yillardagi milliy siyosiy tashkilotlar (Milliy matbuot materiallari asosida). – T.: “Ma'naviyat”, 2002.
16. Rajabov Q. Fayzulla Xo'jayev. – T.: Abu matbuot-konsaly, 2011.
17. Rajabov Q., Hayitov Sh. Usmon Xo'ja. –T.: Abu matbuot-konsaly, 2011.
18. Toshqulov J.U. “Turkiston federatsiyasi” loyihasida Turkistonning davlat mustaqilligi masalasi // Mustaqil O'zbekiston: falsafa va huquq fanlarining dolzarb muammolari. – T.: “Fan”, 1994.
19. Xolbayev S., Dolimov U., Do'stqorayev B., Rajabov Q., Polvonov N. va b. Turkiston jadidchiligi – Milliy uyg'onish davri tarixi. Namangan, 2012.
20. Ergasheva M. Jadidlarning davlat-huquqiy qarashlari. –T.: «Adolat», 2007, 215-bet.
21. O'zbekistonning yangi tarixi. Birinchi kitob. Turkiston Chor Rossiyasi mustamlakachiligi davrida. –T.: Sharq, 2000.
22. O'zbekistonning yangi tarixi. Ikkinchi kitob. O'zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida. –T.: Sharq, 2000.

3-MAVZU. MUSTAQILLIKKA ERISHISH ARAFASIDA O'ZBEKISTONDAGI IJTIMOY-SIYOSIY JARAYONLAR

Reja:

1. XX asr 80-yillari o'rtalarida respublika ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy hayotidagi inqirozli holat.
2. Markazning O'zbekistonda amalga oshirgan qatag'on siyosati. "Paxta ishi", "O'zbeklar ishi" nomli soxta ishlar.
3. O'zbekistonda ekologik holatning og'irlashishi. Orol fojiasi.
4. Farg'ona voqealari. 1989-yil o'rtalarida respublika ijtimoiy-siyosiy hayotidagi o'zgarishlar.
5. Islom Karimov – O'zbekistonning birinchi Prezidenti. Mustaqillik deklaratsiyasi va uning tarixiy ahamiyati.

1. XX asr 80-yillari o'rtalarida respublika ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy hayotidagi inqirozli holat

70 yildan ziyod davom etgan sovet tuzumi va Kommunistik partiya yakka hukmronligi davrida O'zbekistondagi milliy urf-odatlar va an'analariga qattiq zarba berildi. KPSS mafkuraviy siyosatining SSSR xalqlari ma'naviyatiga jiddiy salbiy ta'siri natijasida jamiyatda madaniy-axloqiy muhit zaiflashdi, ma'naviy qashshoqlik sovet jamiyatini inqirozga yetaklovchi kuchga aylandi. Bu holat oxir-oqibatda milliy tillarning jamiyat hayotidagi mavqeyining pasayishiga, uzoq yillar davomida shakllanib kelgan qadriyatlar, urf-odatlar, an'analarni "o'tmishning zararli sarqiti" sifatida ta'riflashga, ma'naviyatning uzviy qismi bo'lgan dinni "xurofot va bid'at" deb talqin qilinishiga va shu asosda millatlarni qaramlik holatida saqlab turishga asos bo'ldi. Bu yo'l, o'z navbatida, "yagona madaniyat" barpo etishga qaratilgan davlat siyosatining asosiy yo'nalishlaridan edi.

Tabiiyki, SSSRda istiqomat qilgan turli xalq va elatlarning madaniyati shakli jihatidan har xil edi. Shubhasiz, har bir xalqning zabardast madaniyat arboblari – atoqli olimlari, yozuvchilari, rassomlari, bastakorlari kabi o'ziga xos jihatlariga ko'p bo'lgan. Ular, o'z navbatida, jahon fani va madaniyatiga munosib hissa qo'shib kelganlar. Garchi bu yutuqlarning aksariyati sotsialistik ruh berib turuvchi baynalmilal madaniyat bo'lsa-da, uning ko'p jihatlariga yuqori saviyaga mutlaq javob bermas edi.

Ta'kidlash joizki, sovet turmush tarzining ajralmas qismi bo'lgan sovet qonunlari o'z andozasiga mos an'ana va urf-odatlarini faol targ'ib etishi oqibatida umumsovet marosimlari va bayramlari an'ana tusiga aylana boshlagan edi. O'zbekiston aholisining 60 foizdan ko'pi, asosan, qishloq joylarida istiqomat qilganligi bois qishloq aholisi uchun o'ylab topilgan mafkuraviy xarakterga ega bayramlar tashkil etildi. O'zbekiston SSR Oliy Soveti Prezidiumining 1956-yilgi qaroriga binoan paxta terimini boshlashdan avval, ya'ni avgust oyining oxirgi yakshanba kunlari "Qurultoy", "Urug' qadash marosimi", "Yoshlarni paxtakorlar safiga tantanali qabul qilish", "Birinci gul bayrami", "Ilk maosh", "Qizil karvon" ("Birinci oq oltin karvoni"), "Paxta bayrami" ("Hosil bayrami") nishonlandi.

Bir necha ming yillik tarixga ega bo'lgan, uzoq yillar davomida nishonlab kelingan "Navro'z" bayrami ham aynan mana shu yillarda ta'qibga uchradi. Tarixdan ma'lumki, "Navro'z" bayrami dehqonlar uchun yangi mehnat yili boshlanganini bildirar, bu bayram an'anaga muvofiq bahorda kun va tun tenglashganida nishonlanar edi. "Navro'z" bayrami asrlar davomida kishilarda ona yerga, tabiatga muhabbat tuyg'usini uyg'otgan, kishilarni bir-biriga nisbatan mehr-muruvvatli va oqibatli bo'lishiga chorlagan. Biroq XX asr 80-yillarining o'rtalarida "Navro'z" bayramini O'zbekistonda umumxalq bayrami sifatida nishonlash masalasida paydo bo'lgan to'siqlar qattiq tortishuvlarga ham sabab bo'ldi. "Navro'z" bayramiga qarshi harakatlar ham milliy madaniyatlarni qoralash va cheklashga qaratilgan tadbirlarning biri edi. O'zbekiston SSR Kompartiya plenumi (1984)dan so'ng yuzaga kelgan vaziyat I.O'smonxo'jayev va R.Abdullayevaning "mafkuraviy bo'shliqni" yuzaga keltirmaslik borasidagi sa'y-harakatlari natijasida 1986-yilga kelib, "Navro'z" bayrami bekor qilindi. Islom diniga aloqasi bo'lmagan bayramga "diniy" degan tamg'a bosildi.

1985–1986-yillarda respublika ommaviy axborot vositalari ham bu bayramni o'z sahifalarida yoritmadi. Garchi "Navro'z" bayrami sovet hukumati tomonidan e'tiborga loyiq deya hech qachon rag'batlantirilmagan bo'lsa-da, lekin sovet hokimiyatining barcha davrlarida bu bayram xalq orasida yashab, an'anaviy tarzda ham nishonlanib kelingan.

Dastlab bu bayram, aprel oyining o'rtalaridan sun'iy o'ylab topilgan "Navbahor" nomli bayram bilan almashtirildi. Biroq bunday bayramlarning taqiqlab qo'yilishi xalq noroziligiga sabab bo'la boshlagani uchun milliy an'analar, marosimlar va bayramlarni qayta tiklash jiddiy masalaga aylandi. "Navbahor" deb atalgan yangi bayram moddiy zaminga ega bo'lmagani sababli uzoq yashay olmadi.

Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, "Navro'z" bayramini taqiqlash haqida respublikada aniq bir qaror qabul qilinmasa-da, lekin respublika rahbariyati turli yig'inlarda bu bayram va uning "zararli" tomonlari haqida ma'ruza qilib, yangi madaniyatni shakllantirishda asosiy to'siq deb ta'riflab keldilar.

XX asrning 80-yillari O'zbekistonda dinga va diniy qadriyatlarga qarshi yangi harakatlar bo'lgani bilan ham xarakterlanadi. Bu yillarda mamlakatda diniy idoralarni qattiq nazorat ostiga olish, ularning sonini kamaytirish va faoliyatini doimo nazorat ostida olib turish kuchaydi. O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimov dinning ma'naviy, ijtimoiy, tarixiy ildizlari, inson kamolotidagi o'rni va ahamiyati ustida to'xtalib, mustaqil taraqqiyotimizning ilk bosqichlaridayoq quyidagi teran fikrlarni aytgan edi: "Islom inson poklanishi, ruhiy qudrat olishi, qalban uyg'onishi manbayidir. Shu paytgacha bizga din afyundir, deb kelishdi. Dindorlar quvg'in qilindilar. Ota-onasiga janoza o'qiganlar jazoga tortildilar. Xullas, ne hunarlar ko'rsatmasinlar islom yashashdan to'xtamadi. Nega? Chunki u bizning ongimiz, shuurimiz, hayotimiz, borligimizdir. Bugun ana shu din orqali vujudimizga musaffolik, dilimizga inshoolloh poklik kirib kelmoqda. Axloq-odob, ma'rifat yana xonadonlarimiz fayziga, odamlar xislatiga aylanishida islomning o'rni benihoya bo'lmoqda".

O'tmish va ma'naviyatga bo'lgan salbiy munosabat sovet tuzumining dinga bo'lgan munosabatida yaqqol o'z aksini topdi. Bu holni, jumladan, Ikkinchi jahon urushidan keyin O'zbekiston misolida ham ko'rish mumkin. Ikkinchi jahon urushi davrida strategik maqsadlarga ko'ra, dinga vaqtinchalik "yon berish" siyosati, urush tugagandan keyin tez orada kommunistik mafkura asosidagi davlatning u bilan "hamjihat" bo'lishi maqsadga muvofiq emasligi yana bir karra namoyon bo'ldi.

Shu o'rinda qayd etish kerakki, bu davrda ta'lim infratuzilmasining ancha kengayishi mutaxassis kadrlarning tez ko'payishiga yordam berdi. Respublikada mavjud bo'lgan bir necha oliy o'quv yurtlari O'zbekiston SSR xalq xo'jaligi uchun xizmat qiladigan mutaxassislarni ham yetishtirib berdi.

Masalan, 1988-yilda faqat Toshkent shahrining o'zida 19 ta oliy o'quv yurti bo'lib, unda 162,9 ming nafar talaba tahsil oldi. Lekin "kommunizmga intilish"da sinfiylik, partiyaviylik ruhidagi tarbiya maktablarda milliylikni siqib chiqardi. Mavjud oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlarida har yili o'rta hisobda yuz mingdan ortiq mutaxassis tayyorlangan. 1984-yilga kelib, O'zbekistonda 1 million 300 ming nafar oliy va o'rta maxsus ma'lumotli mutaxassislar bo'lgani holda, 5-6 yil o'qib oliy ma'lumot olgan kadrlarning anchagina qismi o'zlari mutaxassis bo'lgan sohalarda ishlamadi. Sirtqi o'quv tizimida chuqur bilimga intilishdan ko'ra diplom olish uchun harakatlar kuchayib ketdi. Masalan, 1982-yil O'zbekiston SSR Xalq Nazorat Qo'mitasi va O'zbekiston SSR Prokuraturasi o'tkazgan tekshiruvlardan ma'lum bo'lishicha, Qashqadaryo viloyatidagi 251 hunar-texnika bilim yurtini bitirib chiqqan 117 mutaxassis viloyatning Chiroqchi tumanidagi Moskva sovxozi va Oxunboboyev nomli kolxozlariga yuborilgan. Lekin ularning atigi 6 nafari o'z sohasi bo'yicha ishlagan, 73 nafari bo'lsa tayinlangan joyiga kelmagan.

Bunday ahvol sanoat shaharlarida ham mavjud bo'lgan. O'zbekiston SSR yengil sanoatining o'zida dastgohlar va mashinalarga xizmat ko'rsatishning tarmoqdagi normalarini o'zlashtirish shaharlardagi yirik kombinatlarnikiga nisbatan ko'p kuch talab qilgani holda, bu sohada ham master yordamchilari, elektriklar, santexniklar yetishmagan. Kommunistik mafkura o'z hukmronligini ta'minlab borishida madaniyat ham, ayniqsa, muhim edi. Hukmron mafkura mahalliy ma'naviy-madaniy merosning tarbiyaviy ahamiyatini e'tiborga olmas edi. Davlat tomonidan qabul qilingan qator qaror va rejalar ham real imkoniyatlarni hisobga olmagan holda qabul qilinganligi uchun O'zbek ma'naviy madaniyatida amalga oshirilgan ishlar ham o'ziga xos yo'nalishdan bordi va madaniyat sohalari siyosiylashgan madaniy yo'lga moslashdi.

Ayni paytda ta'limda, madaniyatda kommunistik g'oyalar ustunlik qilib, umumsovet madaniyatining me'yor va mezonlari keng targ'ib etilgani bilan bu davrda O'zbek madaniyati rivoji faqat tanazzullar va tushkunliklardan iborat bo'ldi deb e'tirof etish ham haqiqatga to'g'ri kelmaydi. Madaniyat va san'at arboblari ijodidagi o'zgarishlar jamiyatda yuz berayotgan o'zgarishlar bilan birgalikda davom etdi. Teatr, rassomchilik, qo'shiqchilik, xususan, milliy qo'shiqchilik, ayniqsa, maqom yo'llarida ijod qilishda ko'plab iste'dodli xonandalar yetishib chiqdi. O'sha yillarda adabiyot maydoniga kirib kelgan iqtidorli ijodkorlar asarlarida nisbatan erkin, yutuq va kamchiliklarni ko'rsatib beruvchi ijodiy fikrlar paydo bo'ldi. Xususan, A.Muxtorning "Ildizlar", P.Qodirovning "Olmos kamar", O'.Umarbekovning "Bo'ribosar", Sh.Xolmirzayevning "Tabassum", "Kimsasiz hovli", M.Muhammad Do'stning "Iste'fo", T.Murodning "Oydinda yurgan odamlar" kabi asarlarida qisman bo'lsa-da, davr mafkurasidan xoli bo'lishga, jamiyatdagi ba'zi kamchiliklarni ochib tashlashga, qadriyatlar qirralarini ko'rsatishga harakat qilindi.

H.G'ulomning "Qoradaryo" romanida XX asr 80-yillarining o'rtalariga kelib jamiyatdagi yuzaga qalqib chiqqan turli salbiy holatlarni Kampirravot darasidagi ulkan suv inshooti qurilishi misolida ko'rsatib berildi. Mazkur asar o'sha yillarda sovet mafkurasida bog'langan, O'zbekiston Kompartiyasining XVI plenumidan so'ng yuzaga kelgan vaziyat bilan bog'liq deb tahlil etilgan bo'lsa-da, lekin kishilar asta-sekin sodir bo'layotgan o'zgarishlar hayotga yangicha qarash, jamiyatda inson omili degan tushunchalar bilan birinchi navbatda turishi lozimligini anglab kelayotganligidan dalolat berar edi.

Tahlil etilayotgan yillarda E.Eshmuhammedov va kinodramaturg O.Agishevning "Dahoning yoshligi" filmi SSSR Davlat mukofotiga sazovor bo'ldi. K.Kamalovning "Achchiq danak" filmi xalqaro kino festivalda sovrin bilan taqdirlandi. D.Sadimovning "Leningradliklar jigabandlarim mening", A.Qobulovning "Bo'ysunmas" R.Botirovning "Leytenant Nekrasovning xatosi", M.Abzalovning "Suyunchi", "Kelinlar qo'zg'oloni", A.Hamroyevning "Vodillik kelin", L.Fayziyevning hind kinochilari bilan hamkorlikda "Ali bobo va qirq qaroqchi" va "Sevgi afsonasi"

kabi filmlari suratga olindi. Biroq oshkoralik yillari (1985) ham madaniyatni rivojlantirishdagi bu erkin harakatlarni yanada kengroq olib borish o'rniga studiyaning rejasini bajarish orqasidan quvish holatlari yuqori edi. Masalan, SSSR Kinematografiya Davlat Komitetining O'rta Osiyo bo'yicha muharriri I.Razdorskiy va A.Medvedevlar o'zbek xalqining boy madaniy turmushini, qolaversa, ichki dunyosini tushunmagan holda markaziy studiyalar qabul qilmagan o'rtamiyona va bo'sh ssenariylarni "O'zbekfilm"ga muntazam jo'natib turdilar. Natijada N.Rojkov, L.Makarov, B.Saakov, L.Galiyev, Ya.Filippov kabi bir qator kinodramaturglarning mahalliy xalq ma'naviyati va qadriyatlariga yot bo'lgan oddiy ssenariylariga keng o'rin berildi.

Garchi "O'zbekfilm" jamoasi hozirgi kunga qadar xalq qalbidan muhim o'rin olib kelayotgan "Alisher Navoiy", "Maftuningman", "Mahallada duv-duv gap", "Nasriddin sarguzashtlari" kabi filmlarni yaratgan bo'lsa-da, biroq bu jamoadagi kadrlar, asosan, markazda ta'lim olib kelganligi sababli, ular orasida o'zbek tilini bilib, tushunadiganlar soni juda ozchilikni tashkil etar edi.

1980-yillarning ikkinchi yarmiga kelib O'zbekistonning mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi tahlikali vaziyatda ziyolilar ham partiya ko'rsatmalariga to'la amal qilmaganlikda ayblana boshlandi. Ulardan sovet turmush tarzini ulug'lovchi asarlar talab etilib, ijodiy uyushmalar faoliyati esa qattiq mafkuraviy nazorat ostiga olindi. Bunday yondashuv O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Qo'mitasining 1986-yil oktabrda bo'lib o'tgan uchinchi plenumida yaqqol namoyon bo'ldi. Unda adabiyot, san'at va tarixni soxtalashtirish, milliy tarix va madaniyatni ilohiylashtirish avj olib ketganligi, tarixiy shaxslarga baho berishda sinfiy yondashuv, ilmiylik, obyektivlik tamoyillariga e'tibor berilmayotganligi keskin tanqid ostiga olindi. Ayniqsa, voqea-hodisalarga baho berishda mafkuraviy manfaatlarning inkor etilayotganligiga urg'u berildi.

1986-yil 10-noyabrda O'zbekiston SSR Fanlar Akademiyasining yig'ilishi bo'lib o'tdi. Yig'ilishda O'zbekiston Kompartiyasi mafkuraviy ishlar bo'yicha kotibi R.H.Abdullayevaning ma'ruzasi tinglandi. R.H.Abdullayeva respublikada yuzaga kelgan salbiy illatlar, jumladan, qo'shib

yo'zish, davlatni aldash, poraxo'rlik, kadrlarni tanlashdagi mahalliychilik va oshna-og'aynigarchilik respublikaning avvalgi rahbariyati tomonidan yo'l qo'yilgan kamchiliklar ekanligini ko'rsatib, bunda mafkuraviy ishlar to'g'ri yo'lga qo'yilmagani, ziyolilarning faoliyati partiya talablari asosida olib borilmaganini alohida ta'kidlab o'tdi.

Yig'ilishda paxta sanoati, qo'riq yerlarni o'zlashtirish, respublikada yuzaga kelgan demografik jarayonlar, milliy munosabatlardagi muammolarni hal etishda, rivojlanishning o'ziga xos bo'lgan yo'nalishlarida O'zbekiston SSR FA olimlarining aniq taklif va mulohazalari yo'qligiga ham urg'u berildi. Shuningdek, O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komiteti kotibi tomonidan yoshlar ta'lim-tarbiyasida mafkuraviy jarayonlarning yetarli emasligi ko'rsatilgani holda, Amir Temur, Bobur Mirzo shaxsiga berilgan ijobiy ta'riflarga o'zgartirishlar kiritilmagani va bu o'tmishni ulug'lash holatlariga olib kelayotgani, respublika olimlari bu holatlarning oldini olish uchun hech qanday choralar ko'rmagani alohida qayd etildi.

Umuman olganda, kishilar ongini shakllantirish, milliy, diniy an'analar va qadriyatlarga munosabat masalasi jamiyat taraqqiyotidagi inson omili rolini belgilab beruvchi asosiy shartlardan biri bo'lib kelganligi uchun sovet davlatining so'nggi o'n yilligida e'tiqodlarga munosabat masalasi juda chuqurlashib ketdi. Aynan mana shu yillardagi chora-tadbirlarni kishilarning ongi va turmush tarzidagi o'tmish "sarqitlariga" qarshi kurashish, "reaksion" deb atalmish urf-odatlar, marosimlarga amal qilishga barham berish, baynalmilal tarbiyani keng ko'lamda amalga oshirish xalqimizning mustahkamlanib kelayotgan milliy ongiga zarba berish uchun harakat sifatida izohlasa bo'ladi. Chunki xalqning ongi, e'tiqodi, turmush tarziga chuqur singib borayotgan diniy meros va qadriyatlarga qarshi kurash ham o'sha yillarda olib borilayotgan mafkuraviy-tarbiyaviy ishlarning asosiy yo'nalishi bo'lib qoldi.

1985-yili boshlangan SSSRdagi "qayta qurish" jarayoni avval boshdanoq siyosiy sohani qamrab oldi. Iqtisodiy islohotlar esa unga bo'ysunuvchan ahamiyat kasb etdi. Oradan ko'p o'tmay, jadallashib borayotgan siyosiy jarayonlar (oshkoralik, demokratiya) bilan sust

rivojlanayotgan iqtisodiyot o'rtasida katta farq ko'zga tashlana boshladi. Bu paytda SSSRning tarkibiy qismi bo'lgan O'zbekiston SSR ham qayta qurish girdobiga tortildi, uning qonuniyatlariga amal qildi.

Qayta qurishning birinchi bosqichi (1985–1986-yillar), asosan, ma'muriy-tashkiliy tadbirlarning an'anaviy usullarda olib borilishi bilan xarakterlanadi. Mazkur bosqichda kun tartibiga qo'yilgan vazifalardan biri ilmiy-texnika taraqqiyoti yutuqlarini ishlab chiqarishga jalb etish asosida jamiyatda tub iqtisodiy islohotlarni jadallashtirish va uning asnosida inson omilini faollashtirishdan iborat bo'ldi.

Shuning uchun ham 1986-yil 1-mart kuni KPSS XXVII syezdining KPSS Markaziy Komitetining siyosiy ma'ruzasi yuzasidan qabul qilingan rezolutsiyasida fan-texnika taraqqiyotini ta'minlash masalasiga katta e'tibor qaratilgan edi.

Xullas, qayta qurishning dastlabki davrlarida asosiy e'tibor mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishga qaratildi. Ammo bunday jarayonni ijtimoiy munosabatlarni takomillashtirmasdan amalga oshirish mumkin emasligi tezda ayon bo'ldi. Shuning uchun 1986-yilda qayta qurish va ijtimoiy munosabatlar masalasiga alohida e'tibor qaratishga majbur bo'lindi. Bunday siyosatning markazida esa jamiyatni demokratlashtirish, ma'muriy-buyruqbozlik va byurokratizmga, qonunsizlikka qarshi kurash turar edi.

Bu davrda butun Sovet Ittifoqida bo'lgani singari O'zbekistonda ham dastlab ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotda ma'lum o'zgarishlar yuz bera boshladi, kishilarning ijtimoiy faolligi oshdi, demokratiya sari ayrim qadamlar tashlandi, milliy o'zlikni anglash jarayoni boshlandi. Ammo tub o'zgarishlar va barcha sohalarida haqiqiy islohotlarni amalga oshirish yo'lidagi urinishlar muvaffaqiyat qozonmadi. Statistik ko'rsatkichlarda qayd etilishicha, 1986-yildan boshlab mamlakatning iqtisodiy ahvoli battar yomonlasha boshladi, 1987-yil yanvardan ishlab chiqarish sur'atlari keskin pasaya bordi, iqtisodiyotda inqirozli holat yuzaga keldi. Qayta qurishning birinchi bosqichi shu tarzda mag'lubiyatga uchradi.

Mamlakatda tub demokratik o'zgarishlarni amalga oshirish, boshlangan islohotlarni oxiriga yetkazishning imkoni bo'lmadi. Bu

quyidagi uch sabab bilan izohlanadi: birinchidan, qayta qurishning aniq, izchil, ilmiy jihatdan puxta ishlab chiqilgan strategiya va taktikasi hamda yagona dasturi yo'q edi. Ikkinchidan, kommunistik partiya rahbarlari (partokratiya) qayta qurish g'alabasidan manfaatdor emas edi. Ular har qanday demokratiya va oshkoralik mavjud tuzumning kushandasi ekanligini yaxshi bilishardi. Uchinchidan, M.S.Gorbachyov g'oyasi asosida qayta qurishni amalga oshirish mumkin emas edi. Sotsializmga xos sinfiy munosabatlar, davlat mulkchiligi, milliy va ijtimoiy sohadagi siyosat yakka partiyaviy rahbarlik, kommunistik mafkura, mustabid boshqaruv usuli hech qachon demokratiya bilan kelisha olmas edi.

Ma'lumki, qayta qurish markazdan boshlandi. Mazkur jarayonning boshlanish paytida jamiyat a'zolari unga juda katta umid bog'ladilar. Ro'y berayotgan o'zgarishlar, ayrim siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy islohotlar kishilarda ertangi kun va porloq kelajakka ishonch ruhini yana uyg'otdi. Dastlabki davrda qayta qurish rahnamolari, ya'ni yuqorining quyi bilan munosabatlarida ma'lum kelishuvchilik, xayrixohlik sezildi.

Lekin keyinchalik vaziyat butkul o'zgardi. 1987-yilga kelib, iqtisodiy inqirozning kuchayishi, ijtimoiy muammolarni hal etishdagi uquvsizlik demokratik jarayonlar va oshkoralikning yarim yo'lda qolib ketishi – bularning barchasi jamiyat a'zolarida qayta qurishga bo'lgan munosabatni o'zgartirdi. Qayta qurishning uchinchi yilida uning to'liq mag'lub bo'lishi aniq ko'zga tashlanib qoldi. Amaliy ishlar, foydali tadbirlar o'rniga siyosiy jabhadagi turli tadbirlar: siyosiy safsatabozlik, quruq va'dalar, so'z bilan ish birligining yo'qligi jamiyatdagi loqaydlik holatini yanada kuchaytirdi. Ijtimoiy faollik o'rni sustkashlik, davlat va firqa siyosatiga ishonmaslik, befarqlik va sovuqqonlik egalladi.

Qayta qurish siyosati ma'lum ma'noda oshkoralik, demokratiya va fikrlar xilma-xilligining kuchayishiga imkon yaratgan bo'lsa-da, lekin bunday jarayonlarni madaniy shaklda, xalqaro andozalar asosida olib borishga yo'l qo'yilmadi. Buning ustiga respublika rahbariyati O'zbekistonda demokratiya va oshkoralikning kuchayishiga turli to'siqlar qo'ydi. Bunga ko'proq kommunistik mafkuraning yakkahokimligi, ma'muriy-buyruqbozlik tizimi asoratlari ta'sir qilar edi. Natijada tom ma'nodagi oshkoralikka

erishib bo'lmadi, demokratiya esa amalda navbatdagi siyosiy o'yinlar ko'rinishini oldi. Fikrlar xilma-xilligining turli ko'rinishlari esa yuqorining siyosiy va g'oyaviy masalalarda hurfikrlilik va demokratiyani ta'qib etishi asnosida yuz berdi.

Ana shunday sharoitda O'zbekistonning o'sha paytdagi siyosiy rahbariyati Markaz oldida o'zining no'noq va noshudligini ko'rsatdi. O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komiteti rahbariyati Markazdan qochish, uni inkor etish siyosati o'rniga ko'proq unga yaqinlashish va mustahkam birlashish yo'lini tanladi.

O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komitetining birinchi kotiblari I.Usmonxo'jayev va R.Nishonovda qat'iy jur'at, Ittifoq doirasida respublikaning tutgan o'rnini ochiq-oydin aytish uchun mardlik va iroda yetishmadi. Aksincha, bu rahbarlar va ularning o'rinbosarlari Markaz vazifalarini tezroq uddalash, respublikaning Ittifoqqa boqimanda ekanligi to'g'risidagi soxta fikrlarni tasdiqlash va takrorlashdan nariga o'tmadilar. Ijtimoiy va ma'naviy sohada milliylikning har bir ko'rinishi internatsionalizm mohiyatiga yot ekanligini isbotlashga harakat qilindi. Bu narsa o'zbek tiliga munosabat, islom dini, milliy urf-odatlar, an'analar va diniy marosimlar, xususan, Navro'z bayramiga munosabatda yaqqol ko'rindi.

Qayta qurishning ikkinchi bosqichi (1987–1990-yillar) jamiyatning barcha jabhalarini kompleks tarzda isloh qilishni kun tartibiga qo'ydi. Bunday vazifa kommunistik mafkura tomonidan 1987-yil yanvarda yanada aniqlashtirildi. 1987-yil 27–28-yanvarda bo'lib o'tgan KPSS MK Plenumida KPSS Markaziy Komitetining Bosh sekretari M.S.Gorbachyov "Qayta qurish va partiyaning kadrlar siyosati to'g'risida" ma'ruza qildi. Unda siyosiy islohotlarning asosiy maqsadi oshkoralik va kadrlar siyosatini to'g'ri yuritish asosida sovet jamiyatini to'liq demokratlashtirishga e'tibor qaratildi. Keyinchalik M.S.Gorbachyov o'zining qayta qurish haqidagi mashhur kitobida bu g'oyalarini davom ettirdi. Biroq siyosiy tuzumni isloh qilish va demokratlashtirish, keng xalq ommasining siyosiy va tarixiy jarayonlarda ishtirok etishi Markaz uchun kutilmagan oqibatlarga olib kelishi natijasida Moskva tomonidan siyosiy va iqtisodiy islohotlar boshi berk ko'chaga kiritib qo'yildi. Oqibatda 1990-yil qayta qurishning ikkinchi bosqichi nafaqat SSSR aholisi, balki butun dunyo umid ko'zi bilan

qarayotgan bu siyosat butunlay mag'lubiyatga uchradi. Bu holat ham SSSR inqirozini tezlashtirdi va uning parchalanishiga olib keldi.

2. Markazning O'zbekistonda amalga oshirgan qatag'on siyosati. "Paxta ishi", "O'zbeklar ishi" nomli soxta ishlar

Ma'muriy-buyruqbozlik hamda kommunistik mafkuraga asoslangan sovet davlati o'z ichki siyosiy mavqeyini mustahkamlash maqsadida ma'lum davrlarda zo'ravonlik siyosatini amalga oshirib turdi. Tazyiq, zo'ravonlik va qatag'onlar boshqa xalqlar ichida milliy ruh va o'zlikni yo'qotishga, loqaydlik kabi kayfiyatlarning yuzaga kelishiga sabab bo'ldi. Sovet davlati tomonidan boshlangan qatag'onlarning oxirgi davri O'zbekistonda XX asrning 80-yillarida "Paxta ishi", keyinroq "O'zbeklar ishi" degan mash'um nom ostida tarixga kirdi. Sovet davlatini qamrab ola boshlagan inqiroziy holatlarni mavjud tuzum negizida emas, balki "yuzaga kelgan salbiy illatlarda" deb bilgan markaz, O'zbekistonni tajriba-sinov maydoni sifatida tanlab oldi.

Mustabid tuzumning mash'um "Paxta ishi" va "O'zbek ishi" deb nomlangan qatag'onlik siyosati 1982-yil noyabrda KPSS MQ Bosh kotibi L.I.Brejnev vafotidan so'ng mazkur lavozimni egallagan Yu.V.Andropov mamlakatda kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo'yish siyosatida ta'qib va tazyiqqa asoslangan qattiqqo'llik yo'lining tarafdori sifatida maydonga chiqdi. Yu.V.Andropov o'zining Davlat xavfsizlik qo'mitasidagi uzoq yillik tajribasidan kelib chiqqan holda mamlakatning tobora og'irlashayotgan iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy hayotiga doir bo'lgan barcha ma'lumotlardan, jumladan, rahbar-kadrlar faoliyatidagi nuqson va kamchiliklardan xabardor edi. Markazdagi siyosiy rahbariyat mamlakatda yuzaga kelgan chuqur inqiroziy holatlarning sabablari hamda yechimini kadrlar siyosatida yo'l qo'yilgan kamchiliklar, tartib-intizomning bo'shashgani, mafkuraviy hushyorlikni yo'qotish bilan izohladi. Hukmron partiyaning 1983-yil iyun plenumida ham aynan partiya ideologik, ommaviy-siyosiy ishining muhim masalalari ko'rib chiqildi va jamiyatdagi poraxo'rlik illatlarining asosiy sabablarini biron-bir xodimning xatolaridan, rivojlanishning aniq muammolaridan va qiyinchiliklaridan qidirish lozimligi ta'kidlandi.

Respublika ijtimoiy hayotida katta "burilish" yasagan O'zbekiston KP MQ 1984-yil XVI plenumi ham markazning respublikadagi "sog'lomlashtirish" borasida ko'rsatayotgan va belgilayotgan tadbirlarini qo'llab-quvvatladi. Bunday tartib respublikaning ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy hayotiga salbiy ta'sir etayotgan bo'lsa-da, kadrlar bilan ishlashni partiyaning asosiy "vazifalaridan" biriga aylantirib olganlarga nisbatan hech qanday chora ko'rilmagan edi. Mazkur plenum markazning "O'zbekistonda turg'unlik davri illatlariga qarshi kurash"ini qo'llab-quvvatlagan holda mahalliy rahbar kadrlarga turli yo'llar bilan tazyiq ko'rsatish va jazolash jarayonlarini boshlab yubordi.

Bunday holatlar O'zbekiston sovet mamlakatidagi "poraxo'rliliklar, qo'shib yozishlar, o'g'rilik kuchayib ketgan yagona hudud", degan tushuncha paydo bo'lishiga olib keldi. O'zbekiston KP MQ XVI plenumi va XXI syezdi qarori bilan O'zbekistonga markazdan kadrlar jo'natila boshlandiki, O'zbekiston Kompartiyasi MQ, O'zbekiston SSR Ministrlar Soveti, O'zbekiston SSR Oliy Soveti, O'zbekiston SSR Prokuraturasi, O'zbekiston SSR Ichki Ishlar Ministrligi kabi muhim boshqaruv bo'g'inlari shunday kadrlar qo'l ostiga tushib qoldi. Ular respublikadagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat yanada keskinlashishining asosiy sababchilariga aylana bordilar. Qisqa muddat ichida O'zbekiston prokuraturasining eng yuqori, eng muhim lavozimlaridan tortib, oblast, rayon prokurorlarigacha markazdan doimiy ishlashga yuborilgan vakillari bilan almashtirilgan. 1984-yilda O'zbekiston SSR Prokurori, uning muovinlaridan uchasi, eng katta boshqarmalarning boshliqlari lavozimlariga markazdan yuborilgan xodimlar qo'yildi. Natijada Buxoro viloyatiga G.N.Matyushov, Samarqand viloyatiga V.I.Eremenko, Xorazm viloyatiga A.D.Titorenko, Navoiy viloyatiga A.P.Suxarev, Surxondaryo viloyatiga V.M.Jeltkov, Qoraqalpog'iston ASSRga V.V.Donsov, Toshkent shahriga G.P.Filippenkovlar prokuror etib tayinlandilar.

Bu hol aslida respublikadagi asosiy mas'uliyatli lavozimlarga markazdan yuborilgan "desantchilarni" joylashtirish siyosati boshlanganidan darak berar edi. Ular ittifoq markazining respublikadagi tayanchi bo'lishi va respublikada sovetcha usuldagi "tartib-intizom"ni yanada mustahkamlashlari lozim edi. Shubhasiz, mahalliy rahbariyat "iltimosiga binoan" yuborilgan kadrlar

noqonuniy tarzda hibsga olinganlarning manfaatlarini himoya qilishi ham qiyin edi. Aksincha, “desantchilar” qatagʻonlik siyosatining davom etishida, respublikada nohaqlik va qonunbuzarlik, mansabni suiisteʼmol qilishning avj olishida, zoʻravonlik va tazyiqning kuchayishida “faol” rol oʻynadilar. Oʻz navbatida, ular markazning respublikadagi tayanchi boʻlib qoldi va respublika huquq-targʻibot organlariga ehtiyojni “desantchilar” orqali toʻldirib borishdi.

Ayni paytda oʻzi egallab turgan lavozimiga noloyiq deb “hisoblangan” kadrlarga nisbatan taʼqib boshlanib, yetilib kelayotgan iqtisodiy inqiroz “gunohkorlar”ni topish, ularga partiyaviy jazo berish bilan, goʻyoki, muammolarning oldini olish boshlandi. 1983-yilda SSSR Bosh Prokurori A.M.Rekunkov topshirigʻiga koʻra, SSSR Prokuraturasining alohida muhim ishlar boʻyicha tergovchisi T.Gdlyan boshchiligidagi mamlakatning turli mintaqalaridan toʻplangan 200 kishidan iborat tergov guruhi tuzilib, Oʻzbekistonga yuborilgan. Bu “paxta ishi”ning amaldagi boshlanishi edi.

“Paxta ishi” uydirmalari boshlangan vaqtda xalq xoʻjaligida “jinoiy ishlarga qoʻl urgan” xodimlar javobgarlikka tortilib, ular xalq xoʻjaligida “qoʻshib yozishlarga” yoʻl qoʻyganlikda ayblandilar. Qoʻshib yozishlarni tekshirishdan boshlangan tergov guruhining faoliyati asta-sekinlik bilan rahbarlik lavozimida ishlayotgan kishilarni ham torta boshladi. “Paxta ishi”, “Oʻzbeklar ishi” nomini olib kelgan qatagʻonga keyinroq milliy tus berilib, toʻliq “Oʻzbeklar ishi”ga aylantirildi. Natijada mahalliy rahbar xodimlar, ziyolilar ham taʼqib ostiga olinib boshladi. Oʻzbekistondagi bu holatlar haqida markaziy matbuot sahifalarida shunchalik koʻp maqolalar chop etildiki, ulardan “xalqimizning tarixi, madaniyati, paxta va paxtakorning mashaqqatli mehnatlaridan bexabar odamlarda goʻyo, oʻzbeklar turli nopok yoʻllar bilan daromad orttirib, yengil-yelpi hayot kechiradi”, degan notoʻgʻri tasavvur tugʻilishiga sabab boʻldi.

Tergov guruhiga kirgan tergovchilarning asosiy qismi katta bilim va tajribaga ega boʻlmagan, noqonuniy holatlardan koʻz yumadigan, topshiriqlarni koʻr-koʻrona tarzda bajaradigan kishilar boʻlgan. Tergov guruhiga katta vakolat va imtiyozlar berilgan. Ular

soxta ayblovlar bilan qonunsizlik yo'liga o'tib, tergov jarayonlarida tuhmat, ig'volar uyushtirish, faktlarni soxtalashtirish, kishilarni soxta ma'lumot berishga majbur etish, o'zlariga yoqmagan kishilardan o'ch olish vositasi sifatida foydalanganlar. T.Gdlyan olib borayotgan jinoyat-tergov ishlarining barchasi ochiqdan ochiq ayblov yo'nalishida bo'lgan. Ko'plab jismoniy va ma'naviy azoblardan so'ng qamoqqa olinganlar o'z ayblarini bo'yinlariga olishga majbur bo'lganlar.

Gunohi hali isbotlanmagan kishilarni qamoqlarda ashaddiy jinoyatchilar bilan birga bir kameralarda ushladilar, ularni shafqatsiz kaltaklab, ruhiy azob berib, qo'rqitib, tergovchilar avvaldan tayyorlab qo'ygan hujjatlarga imzo chekishga majbur etdilar.

Mana shunday qabih yo'llar bilan tergov guruhi guvohlik beruvchilardan o'zlariga kerakli ma'lumotlarni olgan. Noqonuniy qamoqqa olingan kishilar orasida ko'p bolali onalar, homilador ayollar, yosh bolalar ham bo'lgan. Bu ishlardan ko'zlangan maqsad iqtisodiy "jinoyatchilik"ni fosh etish emas, balki mamlakat hayotidagi umumiy salbiy holatlarning aniq bir ko'rinishi bo'lgan qo'shib yozishga qarshi harakatlarni to'xtatish, "temir intizom" bilan milliy kadrlarni jazolab, erkin fikrlaydigan ziyolilarni jilovlash, respublikalarda yuzaga kelayotgan ijtimoiy-siyosiy kuchlarni bo'g'ib tashlash, milliy ong, fuqaroning faolligini ham bir tizginda ushlab turishdan iborat edi.

T.Gdlyan guruhining O'zbekistondagi faoliyati davomida O'zbekiston SSR prokuraturasi va O'zbekiston SSR Ichki ishlar vazirliklarining 20 nafar rahbar xodimi, O'zbekiston Kompartiyasi MQning to'rt nafar kotibi, viloyatlardagi qo'mitalarining sakkiz kotibi, O'zbekiston SSR Ministrlar Soveti raisi, O'zbekiston SSR Oliy Soveti prezidiumi Raisi, O'zbekiston Paxta tozalash sanoati vaziri va boshqa bir qancha mas'ul xodimlar, umuman, 62 nafar mas'ul shaxs pora olishda ayblanib, jinoiy javobgarlikka tortildilar. 1989-yilning may oyiga qadar javobgarlikka tortilgan 35 nafar ayblanuvchining ishi sudga oshirildi. 1984-1989-yillar davomida T.Gdlyan guruhi tomonidan 800 dan ko'proq "jinoiy" ish ko'rilib, jinoiy javobgarlikka tortilganlarning 600 nafari rahbar xodimlar, 10 nafari Sotsialistik Mehnat Qahramonlari bo'lgan. O'zbekiston SSR

Paxta tozalash sanoati vaziri V.Usmonovga esa 1986-yilda o'lim jazosi belgilangan, hukm 1987-yilda amalga oshirilgan.

XX asr 80-yillariga kelib qo'shib yozishlar, poraxo'rlik, mansabni suiiste'mol qilish hollari ittifoqdosh respublikalarning barchasida kuchaygan edi. Shuningdek, bu illatlar faqat mahalliy rahbar kadrlar yo'l qo'ygan xato, kamchiliklarinigina emas, balki mamlakatda o'tgan yillar ichida shakllangan ma'muriy-buyruqbozlik tizimining natijasi edi. "Paxta ishi" uydirmalari bo'lsa, o'zbek xalqini kuchayib kelayotgan iqtisodiy inqirozlardan chalg'itish, bunda biror-bir xalqni "aybdor" qilib ko'rsatish orqali xalq e'tiborini boshqa tomonlarga burib yuborishdan iborat edi. Aslida shunday ham bo'ldi, butun mamlakat bo'ylab O'zbekistondagi "ulkan o'g'riliklar", "poraxo'rliklar" muhokama etildi. Natijada "turli millat xalqlarining buzilmas ittifoqi tashkil topgan" bu ulkan davlatda "do'stlik va qardoshlarcha hamkorlik" bir chetda qolib, butun mamlakatga o'zbek xalqiga nisbatan "boqimanda" degan yorliq yopishtirildi. Butun bir millatni ayblash yo'lga o'tib olgan siyosiy rahbariyat "Paxta ishi"ni "O'zbeklar ishi"ga aylantirib yubordi. O'zbekiston mustaqil ravishda "Paxta ishi"ni tekshirishni boshlaganda ishini mahalliy rahbarlarga berishni istamay, tekshiruv ishlariga to'sqinlik qilishga, haqiqiy aybdorlarni yashirib turishga, barcha ayblovlarni yana o'zbek xalqi yelkasida qoldirishga intildi.

3. O'zbekistonda ekologik holatning og'irlashishi. Orol fojiasi

Sovet davrida O'zbekiston qishloq xo'jaligining ko'pgina tarmoqlari paxta ishlab chiqarish va uni qayta ishlash bilan bevosita bog'liq bo'ldi. Respublikada mamlakat va bir qator xorijiy davlatlardagi paxta yetishtiradigan mintaqalar ehtiyojini qondiradigan darajada qudratli paxtachilik mashinasozligi barpo etildi. O'zbekiston jahondagi eng yirik paxta yetishtiruvchi hududga aylandi. Lekin bularning barchasi butun mamlakat manfaatlari, ittifoqning iqtisodiy va siyosiy qudrati rivoji uchungina edi. Paxta ekin maydonlarining to'xtovsiz kengayib borishi, har qanday yo'l bilan hosildorlikni oshirishga ruju qo'yish, boshqaruvning ma'muriy-buyruqbozlik tarzida ko'r-ko'rona tashkil etilishi hamda iqtisodiyotning ekstensiv tarzdagi inqiroziy holatlarining chuqur

ko'lami respublikaning chekka xomashyo zaxira o'lkasi sifatidagi o'rmini aniq belgilab bergandi.

Ekin ekiladigan yerlar, asosan, bo'z yerlar va oddiy tuproqdan, ba'zi joylarda esa tuz aralashgan yerlardan iborat edi. Shu bois O'zbekistonda yer ko'proq o'g'itlanar edi. Qadimdan mahalliy aholi yerlarni daryolardagi suvlar bilan sug'organida, loyqa suv bilan uning tarkibida o'simliklar uchun foydali turli moddalar ham oqib kelgan. Bular yerning quvvatiga quvvat qo'shgan, tuproq qatlami ham loyqa hisobiga o'sib borgan. Kanallar qurilishi bilan ular orqali sug'orilgan yerlarga suv omborlarida obdon tingan muzdek suvlar kelishi ham yerning tarkibini o'zgartirib yuborgandi.

Vaqt o'tishi bilan maydonlar oriqlab, yerning hosildorligi imkoniyatlari kamayib, yer eroziyasi kuchaydi. Oxir-oqibatda ko'proq mineral o'g'it solinmasa yerdan hosil olish mumkin bo'lmaydigan darajaga kelib, tuproqdagi yo'qolgan moddalarning o'rmini mineral o'g'itlar bilan qoplash zaruriyati kuchaydi. 1984-yilga kelib respublikada 600 ming gektar yer tezda meliorativ ishlar olib borilishini talab qiladigan holatga tushib qoldi. O'zbekistonda har gektar yerga ishlatilayotgan mineral o'g'itlarning miqdori o'rta hisobda 600 kg ni tashkil etdi, bu esa jahonda qabul qilingan normadan 20–30marta yuqori darajada bo'ldi. Holbuki, bu o'g'itlarning deyarli 60 foizi o'zlashtirilmay, tuproq sahnida qolib ketdi va yer tarkibini buzib yubordi.

Asosan, serhosil bo'lgan Farg'ona va Zarafshon vodiylarida sho'r yuvish zarurati kelib chiqdi. Sho'rxok yerlar respublikaning Buxoro, Qashqadaryo, Sirdaryo viloyatlari hamda Qoraqalpog'istonning katta qismini tashkil etdi. 1985-yilga kelib respublikada sho'rlangan yerlar sug'oriladigan maydonlarning jami 25 foizini tashkil etdi. O'sha yilning o'zidagina haddan tashqari sho'rланib ketgani bois besh ming gektardan ko'proq yer qishloq xo'jaligi muomalasidan chiqarib tashlandi.

Mazkur holat o'simliklarning tabiiy yo'l bilan o'zini himoya qilish immunitetini kamaytirib, dalalarda turli hasharotlar ko'payishiga sabab bo'ldi. Shu bilan birgalikda qishloq xo'jaligini, xususan, paxtazorlarni zaharli kimyoviy moddalar bilan dorilashda aviatsiyadan keng foydalanish usulini qo'llash kuchaydi. Birgina 1980-yilning o'zida paxtazorlarni dorilash uchun 6,03 ming tonna

zaharli moddalar ishlatildi. Paxta ekiladigan maydonlar turli kimyoviy moddalar bilan shunchalik zaharlandiki, bu holat, eng avvalo, aholi sog'ligiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Har gektar yerga solinadigan pestitsidlar miqdori ham xavfli darajadan oshib, tuproq tarkibidagi gumus miqdori kamayib ketdi. G'o'zaga ishlov berish uchun solingan bu moddalarning 45–50 foizi foydali ta'sirga ega bo'lgan holda, qolgan 50–55 foizi tuproqdan yuvilib havoga uchib, insonlarga, atrof-muhitga salbiy ta'sir etdi. Xo'jaliklar esa rejalashtirilgan hosilni ham olmadi. Tuproq tarkibi esa zararli tuzlar, ayniqsa, og'ir metall birikmalar – flor, xrom, marganes, kobalt, nikel, mis, rux, kadmiy, simob, qo'rg'oshin, surma va boshqalar bilan ifloslanib ketdi. Tuproqning bu yo'l bilan zaharlanishining manbalari metallurgiya sanoati chiqindilar, ba'zi bir texnogen mahsulotlar, chiqindi gazlar qishloq xo'jaligida ishlatilayotgan pestitsid, gerbetsid va boshqalar bo'ldi.

Yuqoridagi holatlar natijasida hosildorlik kamayib bordi. Masalan, 1980-yilning o'zida paxtaning har bir gektar yeridan olinadigan hosil 1975-yilgi darajaga tushib qoldi, yillik rejaga nisbatan shu yili 350–400 ming tonna kam xomashyo olindi. Agar respublikada har gektar sug'oriladigan yerdan olingan daromad 1980-yilda 1.337 rublni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich, 1982-yilga kelib 1.241 rublga tushib qoldi. Faqat Qashqadaryo viloyatining o'zida 1984-yilda yangi yerlarga 685 million rubl mablag' sarflangan bo'lsa, har bir gektar yerdan 15 sentner hosil olinib, davlat belgilagan paxta tayyorlash rejasi faqat 55 foizga bajarildi. Olingan hosil esa 1980-yildagiga nisbatan 37 ming tonnaga kam bo'ldi.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, paxta yakkahokimligining kuchayishi oziq-ovqat mahsulotlari, yem-xashak yetishtiriladigan yerlarga, chorvachilikka ham ta'sir etdi. 1980–1985-yillarga oid bo'lgan ma'lumotlarda ko'rsatilishicha, shu davr ichida O'zbekistonda 64,3 ming bosh yirik qoramollar (respublikadagi qoramollarning 20 foizi), 872,1 ming bosh qo'y-echki (barcha mayda mollarning 3,7 foizi), 215,1 ming bosh cho'chqa (mavjud cho'chqalarning 11,5 foizi) zaharlanish, kasallanish natijasida nobud bo'lgan. Bulardan kelgan zarar esa besh yil ichida 85,6 million rublni tashkil etdi. Ayni paytda shu yillarda bunday

yo'qotishlarning sababi veterinariya ishlarining yomon yo'lga qo'yilganligi deb ko'rsatildi.

Natijada aholi turmush tarzining pasayib, genofond buzila boshladi, bolalar o'limi va turli kasalliklar tarqalishi avj oldi, ekologik vaziyat og'irlashib (tabiiy jabhalar – suv, havo, tuproqning zaharlanishi), ishsizlik, kambag'allashish va boshqa ijtimoiy salbiy illatlarning yuzaga kelishi aynan bir tomonlama – paxta yakka hokimligiga asoslangan iqtisodiy siyosatning O'zbekistondagi fojiali yakunlari edi.

Respublika agrosanoat kompleksini kengaytirish partiyaning oziq-ovqat dasturi bilan bog'liq holda amalga oshirilsa-da, bunday katta tarmoqni boshqarish va hamma usullarni ishga solish qiyin edi. Ish, asosan, ekstensiv usulda olib borilar, rejani bajarishga intilib, bu kompleks xo'jaliklarda har gektar yerga qilinayotgan xarajatlarni 22 foizga oshirib, 1980–1985-yillar davomida agrosanoat kompleksiga qarashli bo'g'inlarda mehnat unumdorligini 11 foizga, hosildorlikni 6 foizga kamaytirib yuborgandi. Har 100 rubl sarflangan kapital mablag'lardan tushgan mablag' 1980-yilda 75 rubl bo'lgan bo'lsa, 1985-yilga kelib bu ko'rsatkich 54 rublga tushdi. 1980–1985-yillar davomida agrosanoat kompleksiga qarashli 245,9 ming gektar yangi yerlar o'zlashtirilib, bu kompleksga qarashli korxonalarda sabzavot yetishtirish 2,8 foiz, uzum – 2,8 foiz, tuxum – 7 foizni tashkil etdi, ish haqi faqat 1,8 foizga ko'paydi.

Umuman, shu yillarda agrosanoat kompleksiga qarashli korxonalar berilgan rejalarni bajarmaslikdan ko'rgan zararining 624 million rubli Qashqadaryo viloyatiga, 153 million rubli Buxoro viloyatiga, 81 million rubli Jizzax viloyatiga to'g'ri keldi. Bu kompleksda sabzavot, kartoshka, mevalarni tashish va saqlash hamda uni qayta ishlash ham qiyin masalalardan biri bo'lgan. Respublikada sabzavot va mevalar saqlanadigan omborxonalar bilan xo'jaliklarning atigi 50 foizi ta'minlangan edi. Omborlarda sanitariya-gigiyena ishlari orqada qolgan, mevalarni yaxshi saqlashning to'liq imkoni ham yo'q edi. Bunday ahvolda yetishtirilgan mahsulotning sifati buzilib, iste'molchiga tezda yetib borish imkonini bermas edi. Holbuki butun SSSRda O'rta Osiyo va Qozog'iston respublikalari qishloq xo'jalik mahsulotlari yetishtirish

bo'yicha sobiq ittifoqdosh respublikalar orasida eng yuqori o'rinda turardi.

O'zbekiston XX asrning 60-yillaridayoq ittifoqdosh respublikalar orasida mineral o'g'itlar ishlab chiqarish bo'yicha uchinchi o'rinni egallagan, 1980-yillarga kelib mamlakatdagi butun kimyo korxonalarining beshdan bir qismi O'zbekistonda joylashtirildi. Bu korxonalar ham mamlakat ehtiyoji uchun zarur bo'lgan mahsulot ishlab chiqarib, respublika atrof-muhitiga tuzatib bo'lmaz darajada zarar keltirdi. Buning ustiga bunday korxonalar, asosan, aholi zich yashaydigan, namlik juda tez so'rilib ketadigan yerlarda qurildi. Masalan, Qo'qondagi yangi kimyo zavodi ham ana shunday yerda qurilgan bo'lib, bu korxonada texnik tartibga rioya etilmasligi va uskunalarining ahvoli yomonligi oqibatida rejada belgilangandan 3 marta ko'p zaharli moddalar havoga chiqarildi. O'z navbatida, bu zaharlar oziq-ovqat mahsulotlari va ochiq suv havzalari orqali aholi organizmiga o'tib, sog'ligiga salbiy ta'sir qildi. 1985-yilda Qo'qon atrofida tekshirilgan oziq-ovqat mahsulotlarining 3,8 foizida, ichimlik suvining 4,9 foizida, atmosfera havosining 18,8 foizida inson salomatligiga zarar keltiradigan darajada ko'p zaharli kimyoviy moddalar borligi aniqlangan edi.

Qishloq xo'jaligida hosildorlikni oshirish maqsadida kimyoviy moddalardan foydalanish, ayniqsa, 1986-yil KPSS MKning ko'rsatmalari asosida qishloq xo'jaligini kimyolash keng ko'lamda boshlandi. Shu yillar davomida kimyoviy modda yetkazib berish ikki baravar oshdi va pestetsidlar, gerbetsidlar va oltingugurtli dorilarni sarflash sug'oriladigan har gektar yer hisobiga 11,6 kg ga yetdi. Paxta maydonlariga sepilayotgan zaharli kimyoviy moddalar va defoliantlarning miqdori mamlakatdagi o'rtacha miqdordan 10-15 marta ko'p bo'ldi va 80 dan ortiq turi qo'llanildi. Gerbetsid va pestetsidlar bilan zaharlangan dalalarda ishlashga "internatsional burchni bajarish uchun" ayollar ham chiqdilar. Tug'ilgan bolalarning 30-40 foizi har turli kasalliklarga chalindi. Meva va poliz mahsulotlari tarkibidagi pestetsidning eng kichik miqdori ham xavfli o'sma hosil qilishi va asab sistemasini ishdan chiqarishi mumkin edi.

O'zbekistonda ekologik falokatning og'irlashib borishi juda ko'p omillar bilan bog'liq bo'lib, sanoat korxonalarida

ishlatiladigan suvni tejash va undan qayta foydalanish texnologiyasining mutlaqo yo'qligi ham shular jumlasiga kirardi. Mirzacho'l, Qarshi, Surxon-Sherobod dashtlarining qo'riq yerlarida, Markaziy Farg'onada va Amudaryoning quyi oqimida barpo etilgan yangi xo'jaliklarda ham suv va yer osti resurslaridan foydalanishda jiddiy xatolar mavjud edi. Kombinatlardan chiqayotgan, yangi o'zlashtirilayotgan yerlardan chiqqan oqova suvlar qumliklarga oqizilib, yangi ko'llar paydo qilar, eskilari kattalashib, chorva boqiladigan katta maydonlarni bosib ketardi.

Masalan, Zarafshon shahridagi tog'-kon metallurgiya kombinatida ham xuddi shunday ahvol mavjud bo'lib, har kuni suvni tozalamay qumlarga oqizib yuborilgan. Bu yerda masala faqat foydalanilgan suvlarning iflos bo'lishida emas, balki uning oqibatlarida ham edi. Kombinatdan sahroga oqizib yuborilgan iflos suvlar Qizilqumdagi yer osti suvlari tarkibini ham buzib yubordi, ko'p yerlar sho'rlanishi va botqoqqa aylanishiga olib keldi.

1976–1985-yillar davomida respublikada 555,2 ming gektar yer sho'rlashib ketgan. Xorazm viloyatida sho'rланmagan yerlar 1970-yilda 86 foizni tashkil etgan bo'lsa, 1989-yilga kelib bu maydonlar 68 foizga tushib qoldi. Qoraqalpog'istonda esa sho'r bosgan yerlar umumiy ekin maydonlarining 54 foizini tashkil etdi. Vaholanki, bu viloyatlarda har gektar yerni sug'orish uchun sarflangan suv o'rtacha 36.000 kub. metr ga yetib, bu ilmiy asoslangan sug'oruv normativdan 4 marta ko'p edi. Lekin bu suvlar ham qumliklarga oqizildi. Natijada qumliklarga, cho'llarga oqizib yuborilgan suvlardan hosil bo'lgan Arnasoy, Aydarko'l kabi ko'llar Orolga har yili oqib borishi lozim bo'lgan 5–8 kub.km suvni ushlab qoldi. Umuman, Amudaryo atroflarida yerlardan foydalanish, ularni o'zlashtirishdagi tuturuqsizliklar natijasida tang ekologik vaziyat yuzaga kelgandi.

Buning oqibatida daryo atrofida o'sadigan daraxtlar, qushlar va hayvonlarga boshpana bo'lgan katta to'qayzorlar qurib, Amudaryo suvlari, aniq o'zani bo'lmagani sababli Qoraqum kanali orqali qumli sahrolardan o'tib, Kaspiy dengiziga qarab oqdi. Daryoning toza suvlari Kelif-Uzboy botig'ini to'ldirib, sho'r lashish jarayoni tezlashdi. Xorazm va Qoraqalpog'istonga o'tadigan suv bo'lsa yil sayin kamayib ketdi.

Sirdaryo va Amudaryo atroflari Markaziy Osiyo mintaqasidagi asosiy industrial-agrar hududlardan biri hisoblanib, O'zbekiston qishloq xo'jaligi uchun Sirdaryo suvidan 100 foiz, Amudaryo suvidan 80 foiz miqdorda foydalanilar edi. Ayniqsa, Sirdaryo atroflarida turli korxonalar, 47,9 million gektar yer mavjud bo'lib, bu yerlarning 1,5 mln. gektari Namangan, Farg'ona, Andijon, Sirdaryo, Toshkent va Jizzax viloyatlariga to'g'ri kelgan. Bu yerdagi korxonalardan va ekin ekiladigan maydonlardan chiqqan 400 million kub.m. iflos suvlar Sirdaryoga quyilgan. Respublikaning sanoat markazlari Toshkent, Bekobod, Yangiyo'l, Ohangaron, Olmaliq, Chirchiq kabi shaharlarida to'plangan iflos suvlar ham, asosan, shu daryoga quyilgan. Umumiy tarzda Sirdaryo suvlari neft mahsulotlaridan 30–60 marta, fenolam bilan 6 marta, sink bilan 13 marta, simob bilan 1,2 marta ko'p zararlendi.

Buning ustiga 1965–1970-yillarda respublikada sug'oriladigan yerlarning hajmi 7 foizga ko'paygach, faqat Sirdaryo oqimida umumiy sathi 1,6 ming kv.km.ni tashkil etgan suv omborlari qurilgandi. Sirdaryoga suvning ko'p qismi Farg'onadagi eng sersuv bo'lgan So'x daryosidan kelib quyilgan. Tog'lardagi irmoqlardan suv olgan bu daryoning yoz oylarida suvi ko'payib, yerlarni sug'orish uchun imkon bergan. Paxtachilikda hosildorlikni oshirish yo'lida So'x daryosida suv ombori qurish ishlari boshlanib, bunga katta mablag', texnika ham jalb etilgan edi.

Biroq suv ombori qurib bitirilmasidan Rishton shahrining aholi istiqomat qiladigan janubiy tomonlarida yer osti suvlari ko'tarilib, botqoqlashish holatlari yuz berdi.

O'rta Osiyoda yuzaga kelgan ekologik tanglikning eng og'iri Orol dengizining qurib borishi, uning atrofidagi hududlarda og'ir ijtimoiy, iqtisodiy vaziyat yuzaga kelishi edi. Respublikada quruq yerlarni o'zlashtirish va sug'orish, xususan, qishloq xo'jaligining yetakchi tarmog'i bo'lgan paxtachilikni yuksaltirish, hosildorlikni oshirish, birinchi navbatda, irrigatsiya va melioratsiya ishlari bilan ham bog'liq edi. Bunday holat, o'z navbatida, Orol dengizining qurib borishiga ham ta'sir etgan edi. Orol dengizi suvni, asosan, Amudaryo, Sirdaryodan olgan. Orolning suvi pasaymagan vaqtlarda dengiz sathiga har yili 7 milliard tonna shartli yoqilg'i quvvatiga teng quyosh nuri tushgan. Bu esa mamlakatda qazib olinadigan jami

yoqilg'ilar quvvatiga barobar edi. Quyosh nurining taxminan 40 foizini dengiz suvi yutib, katta radiusda qishloq xo'jaligi uchun qulay iliq iqlimni yuzaga keltirar edi.

1960-yillarda Orolning chuqurligi 53 metr bo'lib, uning umumiy maydoni 66,1 ming kv. km ni tashkil etgan. 27 yildan so'ng 1987-yilga kelib, uning akvatoriyasi 20.000 kv. km ga kamayib ketdi. Suvning umumiy hajmi ikki marta, qirg'oq 30 km dan 80 km gacha qisqardi. Shuni alohida ta'kidlash joizki, Orol dengizi yer kurrasining cho'l mintaqasida joylashgan eng yirik, suvi sho'r va oqmaydigan ko'llardan hisoblanib, kattaligi jihatidan dunyoda to'rtinchi, ittifoqda Kaspiy dengizidan keyin ikkinchi o'rinda turgan. Bu dengizning qurib borishi butun jahonni tashvishga solib turgan vaqtda, qurigan Orolning tubida yaxshi ekinzorlar yaratamiz degan g'ayri ilmiy tasavvurlarga berilib, yangi yerlarni o'zlashtirish, irrigatsiya shoxobchalarini qurish masalasi ilgari surildi.

4. Farg'ona voqealari. 1989-yil o'rtalarida respublika ijtimoiy-siyosiy hayotidagi o'zgarishlar

Ma'lumki, XX asrning 80-yillari oxirlariga kelib sovet tuzumi parchalanishi arafasida mamlakatdagi inqirozli vaziyat millatlararo munosabatlarning keskinlashuvida ham o'z aksini topdi. Chunki uzoq yillar davomida ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, madaniy sohalarida to'planib qolgan muammolar millatlararo munosabatlarga ta'sir etmasdan qolmadi. Bunday nizolar O'zbekistonni ham chetlab o'tmadi. 1989-yil may-iyun oylarida Farg'ona viloyatidagi millatlararo mojarolar respublikadagi siyosiy vaziyatning keskin tus olishiga olib keldi. Respublikaning o'sha paytdagi O'zbekiston kompartiyasining birinchi kotibi Rafiq Nishonov boshchiligidagi siyosiy rahbariyat yuzaga kelgan bu murakkab vaziyatni to'g'ri baholay olmagan uchun yoshlarning ommaviy chiqishlari, millatlararo to'qnashuvlar sodir bo'la boshladi.

"Shu narsa ayonki, — deya yozadi Birinchi Prezident Islom Karimov — ...o'shanda barcha voqealarning ildizi — Farg'ona vodiysida yashayotgan aholining og'ir ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli bilan chambarchas bog'liq edi. Yuzaga kelgan qaltis vaziyatni bartaraf etish uchun, eng avvalo, viloyatda, umuman, vodiy

viloyatlarida yangi ish o'rinlarini yaratish, bir so'z bilan aytganda, odamlarga ta'minot va daromad manbaini topib berish zarur edi. 1989-yilning iyul oyiga qadar Farg'ona viloyati aholisining hayot darajasini oshirish, mehnatga yaroqli aholining bandligini ta'minlash bo'yicha maxsus dastur ishlab chiqildi va bosqichma-bosqich amalga oshirildi. 1989-yil 24-mayda Quvasoy shahrida yoshlar o'rtasida bo'lgan bezorilik millatlararo (mahalliy yoshlar bilan mesxeti turklar o'rtasida) to'qnashuvni keltirib chiqardi va bu mojaro Farg'ona vodiysida ommaviy tus oladi. O'sha davrdagi respublikaning rahbariyati yuzaga kelgan bu murakkab vaziyatni to'g'ri baholay olmadi. Natijada oddiy mojaro Farg'ona, Marg'ilon, Toshloq, Qo'qon, Andijon, Namangan, Toshkent viloyatida aholining, ayniqsa, yoshlarning ommaviy chiqishlariga aylanib ketdi va millatlararo to'qnashuvlarda namoyon bo'ldi".

Mamlakatimizga rahbar etib saylangan Islom Karimov hokimiyat tepasiga kelgach, eng avvalo, mamlakatda tartib o'rnatishga kirishdi. O'zbekistonning turli mintaqalaridan chiqqan etnik nizolar va ijtimoiy tanglik o'choqlari shaxsan Islom Karimov ishtirokida bartaraf etildi. Rahbar nafaqat siyosatchi bo'lishi, balki dastlab uning irodali, qo'rqmas shaxs sifatida shakllanganligi ham e'tiborlidir.

1989-yilning 23-iyunida Islom Karimov mamlakat rahbari bo'lib tayinlangan kunining ertasigayoq, ya'ni 24-iyun kuni Ministrlar Sovetida Farg'ona voqealariga bag'ishlangan katta majlis o'tkazadi. Mazkur majlisdagi chiqishida yangi rahbar siyosiy yetakchiga xos barcha fazilatlarini namoyon etadi. Islom Karimov davlat rahbari sifatida masalani keskin qo'yadi: "Biz bundan buyon eskicha yasholmaymiz va bunday yashashga zamonning o'zi yo'l qo'ymaydi" deya ta'kidlaydi.

Ertasigayoq respublika rahbari janjal-to'polonlar ichida qolib ketgan Farg'onaga boradi. Lovillab yonayotgan uylar, tahlika va sarosimaga tushgan shahar va qishloqlar, qahr-g'azabga to'lgan odamlarning ichiga dadil kirib boradi. Ular bilan chin dildan, hech narsani yashirmasdan ochiq gaplashadi. Bu insonlarning shu vaqtga qadar hech kim eshitmagan oh-u nolalarini tinglab, o'zining yurakdan chiqqan samimiy va haqqoniy so'zlari bilan bamisoli ularning qalbidagi yaralariga malham qo'ygandek bo'ladi.

Ammo voqealar qaltis tus olgan kezlarda Farg'ona fojialari haqida respublika matbuotida va boshqa ommaviy axborot vositalarida to'g'ri ma'lumot berilmaganligi, bu mojarolarning kelib chiqishida, asosan, "mahalliy aholi aybdor" deb bir tomonlama va noxolis baholanishi vaziyatni yanada keskinlashtirdi. Ta'kidlash joizki, 1989-yil 11-iyunda Toshkent shahrida ishlayotgan va o'qiyotgan farg'onalik yoshlardan yuzga yaqini ommaviy axborot vositalarining voqealarga munosabati haqida bir qator to'g'ri talablarni qo'yadilar. Bunday ommaviy chiqishlarga, kommunistik mafkura tartibiga qarshi borishlarga "ko'nikmagan" mustabid tuzum siyosiy rahbariyati namoyishchilarga qarshi harbiy qism tashlaydi. 1989-yil 8-iyunda Qo'qonda tinch namoyishchilar ana shu harbiy qism askarlari tomonidan o'qqa tutildi, natijada namoyishda qatnashgan 50 dan ziyod aholi halok bo'ladi (ularning ko'pchiligi yoshlar edi), 200 dan ortig'i esa yarador qilinadi. Umuman 3-12-iyun kunlari Farg'ona viloyatida bo'lgan millatlararo to'qnashuvlar va ularning harbiylar tomonidan o'qqa tutilishi oqibatida 103 kishi halok bo'lgan, 1009 kishi jarohatlangan va 650 xonadonga o't qo'yilib, vayron qilingan.

Voqealarning keng miqyos va fojiali tus olganligi sababli sovet va ma'muriy organlar tomonidan mesxeti turklarini Farg'onadagi harbiy qism poligonidagi lagerga hamda Tojikistonning Leninobod (hozirgi Sug'd viloyati) viloyati Asht tumanidagi Novgarzon posyolkasiga shoshilinch ko'chiriladi. Minglab odamlarni bunday lagerlarda uzoq saqlab bo'lmas edi. Shuning uchun 16.282 kishi Farg'ona viloyatidan Rossiyaning Smolensk, Orlovsk, Kursk, Belgorod va Voronej viloyatlariga ko'chirib olib borib joylashtiriladi. Farg'ona voqealari o'zbek xalqining irodasi bilan sodir bo'lmadi. Bu voqealarga tuturuqsiz va g'arazli maqsadlarni ko'zlab, kim qanday bo'yoq bermasin, tarix, albatta, o'zining adolatli hukmini chiqaradi. Baynalmilalchilik, mehmondo'stlik, yaxshilik, qalb saxovati hamisha o'zbek xalqiga xos fazilat bo'lib keldi.

Respublika rahbarining bunday qat'iyati asossiz ta'na va bo'htonlardan ezilgan, turli tahdidlar oqibatida tahlikaga tushgan xalqning ruhini ko'tardi. Islom Karimov qonli voqealar haqidagi haqqoniy fikrlari bilan xalqimiz sha'niga otilgan malomat toshlari

butunlay bo'hton ekanligini isbotlaydi. Ayni paytda vahshiylik qilgan, odam o'ldirgan, tartibsizliklarni keltirib chiqargan, uylarga o't qo'ygan, transport vositalarni yoqib yuborgan kimsalar o'zbek millatiga mansub emasligini, ularning hammasi ataylab tashkil etilganini markazdagi minbarlardan turib jasurlik bilan aytadi.

Davlat rahbari o'sha davrdayoq Farg'ona voqealarining tub sabablari quyidagi masalalar bilan bog'liqligini asoslab bergan edi va bu sabablar Islom Karimovning asarida ham aniq ifodalangan. Bular quyidagilar:

1. Farg'ona vodiysida yashayotgan aholining og'ir ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli.

2. Odamlarning ta'minoti, daromadi, ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli haddan tashqari pastligi tufayli bunday holat O'zbekistonning boshqa joylarida ham sodir bo'lishi mumkinligi.

3. Ishsizlik, ish o'rinlarining kamligi, ya'ni ortiqcha ishchi kuchining ko'payib borishi.

4. Yoshlar va ularni ishga joylashtirish masalasi jiddiy o'ylab ko'rilmagani kabi sabablar. O'zbekistonning yangi hukumati Markaz bilan bo'ladigan munosabatlarni o'zgartirmay turib, ijobiy siljishlarga erishib bo'lmashligini va buning uchun respublikaning to'liq mustaqilligini ta'minlash zarurligini tushunib yetdi. Islom Karimovning tashabbusi bilan O'zbekiston hukumati tomonidan 1989-yil 15-avgustda "Kolxozchilar, sovxoz ishchilari, fuqarolar, shaxsiy tomorqa xo'jaliklari va individual uy-joy qurilishini yanada rivojlantirish to'g'risida" maxsus qaror qabul qilindi. Garchi bu g'oya ittifoq rahbarlariga yoqmagan bo'lsa ham, Islom Karimov o'z fikridan qaytmay, uni jasorat bilan amalga oshira bordi. Natijada o'sha yilning 4-oyida aholi qo'shimcha 90,7 ming gektar yer oldi.

XX asr 80-yillarining oxirlari – 90-yillarining boshlarida respublikada ma'muriy-buyruqbozlik tizimi o'z umrini o'tab, bozor munosabatlariga o'tish harakatlari endigina ro'y berayotgan bir davrda, O'zbekistondagi og'ir ijtimoiy-iqtisodiy sharoitda jamiyatni demokratlashtirish, O'zbekistonning haqiqiy suverenitetini o'rnatish, mamlakatda yashayotgan ko'p sonli millatlarning totuvligi va tengligini ta'minlashga erishishga kirishildi. 1989-yil 21-iyundan O'z KP MQ birinchi kotibi lavozimiga kirishgan Islom Karimov boshliq siyosiy rahbariyatning asosiy vazifalaridan biri bu – O'zbekiston xalqi bilan respublika rahbariyati o'rtasida yuzaga

kelgan vaziyatni barqarorlashtirish, iqtisodiy va siyosiy mustaqillikni ta'minlashdan iboratligi ma'lum bo'ldi. Chunki O'zbekiston rahbariyati xalqning xohish-irodasini hisobga olib, uning manfaatlarini ko'zlab ish yuritishi lozim edi.

Vujudga kelgan o'ta og'ir sharoit, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy qiyinchiliklarga, turli to'siqlarga qaramasdan, xalqimiz Islom Karimov boshchiligida o'zining asriy orzusi – O'zbekistonning davlat suvereniteti va mustaqilligi sari dadil va qat'iyat bilan harakat qilishda davom etdi. Shu bilan birga boshqa respublikalarda xususiylashtirish to'g'risida gap sotilayotganda, aynan muholiflar tomonidan o'rinsiz tanqid qilinayotgan "konservatorlar respublikasi"da birinchilardan bo'lib xususiy korxonalar paydo bo'ldi. Respublikada do'konlarni va maishiy xizmat ko'rsatish sohasini xususiylashtirish boshlanib, 1990-yilning o'zida 170 ming gektar yer oilalarga meros qoldirish huquqi bilan ijaraga berildi. Bu raqamni yarim million gektargacha yetkazish belgilab olindi. So'nggi paytlargacha yerlarning bor-yo'g'i 4,5 foizida dehqonchilik qilgan shaxsiy xo'jaliklar respublikadagi oziq-ovqat resurslarining 40 foiziga qadar bergani hisobga olinadigan bo'lsa, yerlarning umumiy salmog'ida bunday uchastkalar hajmi ikki barobardan ziyod oshganda oziq-ovqat mahsulotlari hajmi sezilarli darajada oshishi muqarrar.

5. Islom Karimov – O'zbekistonning birinchi Prezidenti.

Mustaqillik deklaratsiyasi va uning tarixiy ahamiyati

XX asrning so'nggi yillariga kelib SSSR tarkibidagi respublikalar suverenitetini va inson huquqlarini poymol qilgan ma'muriy-buyruqbozlik tizimi o'z davrini o'tab bo'lganligi yanada yaqqolroq namoyon bo'la boshladi. Bu hol o'zbek xalqining mustaqillik uchun bo'lgan kurashini tezlashtirib yubordi va bozor iqtisodiyotiga asoslangan fuqarolik demokratik davlat qurish asoslari shakllana boshladi.

1980-yillarning oxirlarida O'zbekistonda tinch hayotni ta'minlagan holda davlatni boshqara oladigan, millat ravnaqi yo'li asoslarini boshlab bera oladigan rahbar respublika uchun zarur edi. 1989-yil 24-iyunda I.A.Karimov O'zbekiston rahbari etib saylandi. U O'zbekiston rahbari etib saylangan kundan boshlab

O'zbekistonda xalqning mustaqillikka erishishidan iborat azaliy orzusini amalga oshirishga qat'iy kirishdi.

Mamlakatda shunday vaziyat vujudga keldiki, bir tomondan, biri-biriga qarama-qarshi bo'lgan turli qarashlar shakllandi. Ikkinchi tomondan, o'sha davrdagi markaziy davlat rahbariyati mamlakat ichkarisidagi vaziyatni to'g'ri baholay olmadi, milliy respublikalarda mustaqillikka erishish tobora kuchayib borayotganining oldini olmay qoldi.

Jumladan, mustaqillikka erishish yo'lida qo'yilgan qadamlardan biri o'zbek tili masalasi bo'lib, 1989-yil oktabrdagi "O'zbekiston SSRning davlat tili to'g'risida"gi Qonunga muvofiq O'zbek tili davlat tili deb e'lon qilindi.

1990-yil boshida O'zbekistonda boshqaruvning Prezidentlik shakli masalasi ko'tarildi. Respublikada boshqaruvning shunday shaklining joriy etilishi, avvalo, siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, millatlararo va boshqa sohalaridagi muammolarni hal qilish jarayonini tezlashtirishga ko'maklashish vositasi edi. Eng muhimi, Prezident muassasasining joriy etilishi respublika uchun suverenitet va davlatchilikda mohiyat jihatidan yangi bosqichga o'tishni bildirar edi.

Shuni ta'kidlash kerakki, o'sha kezlari keng miqyosda tartib va intizomni, eng avvalo, boshqaruvning barcha darajalarida va jabhalarda ijro mexanizmini qayta qurishni tezlashtirish vazifalarini vaqtida hal etish, fuqarolar huquqlarini himoya qiluvchi barcha muassasalarni nazorat qilish masalalari ham katta ahamiyat kasb etmoqda edi.

Shu obyektiv holatni hisobga olib, 1990-yil 24-martda O'zbekiston Oliy Sovetining birinchi sessiyasi O'zbekiston tarixida birinchi marta Prezidentlik lavozimini ta'sis etish to'g'risida qaror qabul qildi. Sessiya yakdillik bilan Islom Abdug'aniyevich Karimovni O'zbekistonning Prezidenti etib saylash to'g'risida qaror qabul qildi. O'zbekistonda Prezident lavozimining ta'sis etilishi respublikaning siyosiy va iqtisodiy mustaqilligi uchun kurash borasida qo'yilgan dadil qadamlaridan ikkinchisi edi.

O'zbekistonning mustaqillikka erishishida qo'yilgan navbatdagi muhim qadam 1990-yil 20-iyunda O'zbekiston Respublikasi Oliy Sovetining ikkinchi sessiyasida qo'yildi. Sessiyada O'zbekistonning "Mustaqillik Deklaratsiya"si qabul qilindi va uning kirish qismida

quyidagicha yozib qo'yildi: "O'zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasi Oliy Kengashi O'zbek xalqining davlat qurilishidagi tarixiy tajribasi va tarkib topgan boy an'analari, har bir millatning taqdirini o'zi belgilash huquqini ta'minlashdan iborat oliy maqsad haqida, O'zbekistonning kelajagi uchun tarixiy mas'uliyatni chuqur his etgan holda xalqaro huquq qoidalariga, umumbashariy qadriyatlarga va demokratiya prinsiplariga asoslanib, O'zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasining davlat mustaqilligini e'lon qiladi". Bu muhim hujjat O'zbekistonning mustaqillikka erishishida qo'yilgan navbatdagi muhim qadamlardan biri edi. Bu umumdavlat ahamiyatiga ega bo'lgan Deklaratsiyani qabul qilishda respublika Oliy Soveti deputatlari faollik ko'rsatdilar. O'zbekistondagi tarixiy shart-sharoit va vaziyatni hisobga olgan 200 dan ortiq deputat XII chaqiriq respublika Oliy Sovetining ikkinchi sessiyasi (1990-yil 18-iyunda) boshlanishidayoq mustaqillik Deklaratsiyasi qabul qilishni kun tartibiga kiritishni va kechiktirmasdan shu sessiyada uni qabul qilishni qat'iy talab etdilar.

O'zbekiston SSR Oliy Soveti Rayosati a'zolari, komissiya raislari va muovinklari "Mustaqillik Deklaratsiyasi" xususida fikrlashib, deputatlar fikrini olish va so'ng uni sessiyaga olib chiqish lozim deb topdilar. 19-iyun kuni 40 dan ortiq deputat, doimiy komissiyalarning raislari, huquqshunoslar tayyorlagan Deklaratsiya matni batafsil ko'rib chiqildi. Natijada bu masala 20-iyun kuni sessiyada kun tartibiga kiritildi.

"Mustaqillik Deklaratsiyasi" deputatlar tomonidan moddama-modda, bandma-band muhokama qilindi, har bir millat o'z taqdirini o'zi belgilashi, Deklaratsiya qoidasi bilan kafolatlanishi qayta-qayta ta'kidlandi. Unda o'zbek xalqining asrlar davomida qo'lga kiritgan davlat qurilishi va madaniy taraqqiyot borasidagi boy tarixiy tajribasi va an'analari hisobga olinishi uqtirildi.

Shu kundan boshlab respublikada O'zbekistonning iqtisodiy va siyosiy hayotiga doir masalalar mustaqil tarzda hal qilina bordi. O'zbekiston rahbariyati va xalqi mustaqillik sari dadil qadam qo'yaverdi.

1991-yil 17-martda umumxalq referendumi o'tkazildi. Referendumda O'zbekiston xalqining mutlaq ko'pchiligi O'zbekistonni mustaqil respublika sifatida ko'rish xohishi borligini namoyon qildi.

O'zbekistonning suvereniteti uchun kurash, avvalo, respublikada qabul qilingan har bir qonunning mazmuni va mohiyati jihatidan sobiq Ittifoq qonunlaridan tubdan farq qilinishida, bundan tashqari, har bir qonun avvalgidek ittifoq qonuniga moslashtirib emas, balki respublika manfaatini ifoda etishi bilan ajralib tura boshladi.

Qayd etish joizki, 1990-yillarning boshlariga kelib sobiq SSSRning ijtimoiy-siyosiy hayotida inqirozli holat tobora kuchaydi. Bu holat, ayniqsa, ko'pchilik respublikalarning ittifoq tarkibidan chiqish, o'z-o'zini belgilash huquqini berish, markazning siyosiy-iqtisodiy, harbiy va tashqi siyosiy sohalaridagi rolini qayta ko'rish kabi talablarning haqli ravishda qo'yilishida aksini topdi. Lekin markaziy rahbariyat xalqlar va ittifoqchi respublikalar siyosiy rahbariyatining chinakam mustaqillikka intilishi bilan hisoblashmadi. Bu munosabatni Markazning Boltiqbo'yi respublikalarning ittifoq tarkibidan chiqib ketishi, O'zbekistonda, keyinchalik esa boshqa respublikalarda ham prezidentlik boshqaruvining joriy etilishi va bu respublikalar tomonidan suverenitet to'g'risidagi Deklaratsiyalarning qabul qilinishiga tish-tirmoq'i bilan qarshilik ko'rsatganligida ham ko'rish mumkin.

Lekin baribir vujudga kelgan inqiroziy holatni to'xtatib bo'lmay edi. Shu sababdan ham davlat yemirilishidan jiddiy xavotirga tushgan sobiq Ittifoq rahbariyati 1990-yilning kuzida markaz va respublikalar o'rtasidagi munosabatlarni yangi holatga o'tkazish maqsadida muzokara jarayonini boshlashga majbur bo'ldi.

Ma'lumki, mustaqillikka erishish ostonasida odamlarning ta'minoti, daromadi, yashashi uchun zarur bo'lgan kundalik mahsulotlarning eng kam miqdori, ortiqcha ishchi kuchining bandligi kabi masalalardagi ahvol og'ir bo'lgan. Buning asosiy sababi – bu yillarda har bir viloyat bo'yicha aniq dasturlar, ichki rezervlar hisobidan ishni to'g'ri tashkil etish, ishlab chiqarish quvvatlarini rekonstruksiya qilish, qancha miqdorda, kimga va qachon qo'shimcha xomashyo ajratish evaziga ahvolni yaxshilash imkoniyatlari to'g'risida amaliy tadbirlar bo'lmagan. Bu davrda yildan yilga tobora keskinlashib kelayotgan asosiy ijtimoiy muammo – bu aholi o'rtasida ishsizlar sonining jadal ravishda o'sib borishi edi.

Ana shunday og'ir, sarosimali tahdid va taxminlar paytida O'zbekiston rahbariyati korxona va xo'jaliklarning rahbarlari, xalq noiblari, barcha sofdil kishilar, xalqni matonat va osoyishtalikka da'vat qildilar. Ayniqsa, Birinchi Prezident Islom Karimovning bo'layotgan voqealarga munosabati barchani qanoatlantirdi, uning xalqqa suyangani, u bilan dardlashgani xalq bilan hukumat o'rtasida sog'lom munosabatning vujudga kelishiga olib keldi.

Ittifoq miqyosida yuzaga kelgan tanglik holati, jamiyatdagi ichki ziddiyat va keskinlik kuchaygan paytda SSSR yuqori rahbarlaridan bir guruhi 1991-yil 19–21-avgust kunlari o'zlarini favqulodda holat Davlat qo'mitasi (GKCHP) deb atab, davlat to'ntarishi qilishga urinib ko'rdi, lekin bu urinish barbod bo'ldi. Bu kommunistlar hokimiyatining davri tugaganligini, u bilan birgalikda esa “qayta qurish” ham barbod bo'lganligini anglatardi.

Favqulodda holat munosabati bilan mamlakatda, shu jumladan, O'zbekistonda ham murakkab vaziyat yuzaga keldi. Hindiston safaridan qaytgan O'zbekiston Birinchi Prezidenti I.Karimov 19-avgust kuni kechqurun Toshkent shahrining faollari bilan bo'lgan uchrashuvda O'zbekiston nuqtayi nazarini ma'lum qildi va Markazdan bildirilgan, qonunga xilof bo'lgan har qanday ko'rsatmalarni respublika rahbariyati tomonidan bajarilishini man etdi. 20-avgustda O'zbekiston SSSR Oliy Kengashi Rayosati va O'zbekiston SSR Prezidenti huzuridagi Vazirlar Mahkamasining respublika rahbarlari ishtirokida qo'shma majlisi bo'ldi. Unda fitna munosabati bilan vujudga kelgan vaziyat muhokama qilinish, O'zbekistonning mustaqillikka erishish yo'li o'zgarmasligi haqida Bayonot qabul qilindi. Unda O'zbekiston Mustaqillik Deklaratsiya qoidalarini amalga oshirish yo'lida boraveradi, deb ko'rsatildi. O'sha kuni O'zbekiston Birinchi Prezidenti I.Karimov respublika aholisiga murojaat bilan chiqib, O'zbekistonning mustaqilligiga erishish yo'li qat'iy ekanligini yana bir bor alohida uqtirdi.

Shunday og'ir sharoitda, tarixiy vaziyatni to'g'ri baholay bilish qobiliyatiga ega bo'lgan O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.Karimov Oliy Kengash sessiyasini chaqirish va unda O'zbekiston Mustaqilligi haqida qonun qabul qilishni talab qildi. Respublika Oliy Kengashi 1991-yil 26-avgust kuni O'zbekiston

davlat mustaqilligi to'g'risida qonun loyihasini tayyorlash hamda 31-avgustda Oliy Kengash sessiyasini chaqirishga qaror qildi.

1991-yilning 31-avgustida O'zbekiston zamonaviy tarixining yangi davri boshlandi. Shu kuni Oliy Kengashning navbatdan tashqari oltinchi sessiyasi "O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligini e'lon qilish to'g'risida" qaror qabul qildi, tegishli bayonot bilan chiqdi va "O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining asoslari to'g'risida"gi Qonunni tasdiqladi. Mamlakat taqdiri hal bo'lgan bu hujjatlarda xalqning asriy orzulari mujassamlandi: u o'z taqdirini o'zi hal qiladigan bo'ldi.

O'z yeridagi barcha tabiiy boyliklarning, ota-bobolari mehnati bilan yaratilgan butun ishlab chiqarish va ilmiy-texnik kuch-qudratning to'la huquqli egasiga aylandi. Buyuk tarixi va madaniyatining munosib vorisi, buyuk ajdodlarning urf-odatlarini va insonparvar an'alarining davomchisi, porloq kelajagining mustaqil ijodkori bo'ldi.

"O'zbekiston Respublikasining Davlat Mustaqilligini e'lon qilish to'g'risida"gi qarorda "1-sentabr O'zbekiston Respublikasining Mustaqillik kuni deb belgilansin va 1991-yildan boshlab bu kun bayram va dam olish kuni deb e'lon qilinsin", – deb qat'iy belgilab qo'yildi.

Tayanch so'zlar

O'zbekiston, SSR, sovet, syezd, kompartiya, qaramlik, qatag'onlik, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, demografik, urbanizatsiya, madaniy hayot, mafkura, "qayta qurish", konsepsiya, ekologik fojia, Farg'ona, Toshkent, Markaz, mustaqillik, deklaratsiya, Prezident, markaziy komitet, sotsialistik, agrar siyosat, sanoat, paxtachilik, xomashyo.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar

1. XX asr ikkinchi yarmidan to mustaqillikkacha bo'lgan davrda O'zbekistondagi madaniy-ma'naviy qaramlik qanday oqibatlarga olib keldi?

2. Respublika iqtisodiy hayotidagi bir tomonlik va uning oqibatlarini tushuntirib bering.

3. O'zbekistonda kechgan demografik jarayonlarning asosiy xususiyatlari nimalarda namoyon bo'ldi?

4. Respublikada ekologik holatning keskinlashishi sabablari nimada edi?

5. 1980-yillardagi “Paxta ishi”, “O‘zbek ishi” kampaniyalari xususida so‘zlab bering.

6. “Qayta qurish” siyosati va uning O‘zbekistondagi salbiy oqibatlari haqida nimalarni bilasiz?

7. XX asr 80-yillar oxirlari – 90-yillar boshida respublikadagi ijtimoiy-siyosiy hayot qay yo‘sinda kechdi?

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Sh.M. Mirziyoyev. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. To‘ldirilgan ikkinchi nashri. – Toshkent: O‘zbekiston, 2022.

2. Sh.M. Mirziyoyev. Yangi O‘zbekistonda erkin va faravon yashaylik. 5-jild. – Toshkent: O‘zbekiston, 2023.

3. Sh.M. Mirziyoyev. Yangi O‘zbekistonda taraqqiyot strategiyasi asosida demokratik islohotlar yo‘lini qat’iy davom ettiramiz. 6-jild. – Toshkent: O‘zbekiston, 2023.

4. Sh.M. Mirziyoyev. Hozirgi zamon va Yangi O‘zbekiston. – Toshkent: O‘zbekiston, 2024.

5. O‘zbekiston Respublikasi: mustaqil davlatning bunyod bo‘lishi. – Toshkent: O‘zbekiston, 1992.

6. Usmonov Q., Abdug‘aniyev A. O‘zbekiston – siyosiy va huquqiy islohotlar sari. – Toshkent: O‘qituvchi, 1996.

7. Usmonov Q., G‘aniyev D. O‘zbekiston mustaqil taraqqiyot yo‘lida. – Toshkent: O‘zbekiston, 1994.

8. Usmonov Q., Sodiqov M., Burxonova S. O‘zbekiston tarixi. Darslik. – Toshkent: Iqtisod-moliya, 2006.

9. Yusupov E. Istiqlol yo‘lida. – Toshkent: Fan, 1996.

10. O‘zbekistonning yangi tarixi. Ikkinchi kitob. – Toshkent: Sharq, 2000.

11. O‘zbekiston tarixi (1917–1991-yillar). Ikkita kitob. Mas’ul muharrirlar R.Abdullayev, M. Raximov, K.Rajabov. – Toshkent: O‘zbekiston, 2019.

12. O‘zbekiston tarixi. Darslik. R.H.Murtazayevaning umumiy tahriri ostida. – Toshkent, 2020.

4-MAVZU. MUSTAQIL O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING TASHKIL TOPISHI VA UNING TARIXIY AHAMIYATI. O‘ZBEKISTONNING O‘ZIGA XOS ISTIQLOL VA TARAQQIYOT YO‘LI

Reja:

1. Mustaqillik arafasida respublikadagi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy ahvol. O‘zlikni anglashga intilishning kuchayishi.
2. Siyosiy tizimdagi o‘zgarishlar. Mustaqillikning e‘lon qilinishi. O‘zbekiston Respublikasining tashkil etilishi.
3. I.Karimovning O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti etib saylanishi.
4. O‘zbekistonning o‘ziga xos taraqqiyot yo‘lini tanlashi. Taraqqiyotning “O‘zbek modeli” va uning o‘ziga xos xususiyatlari.
5. Mustaqil O‘zbekistonning yangi Konstitutsiyasining yaratilishi.
6. Davlat ramzlarining qabul qilinishi.

1. Mustaqillik arafasida respublikadagi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy ahvol. O‘zlikni anglashga intilishning kuchayishi

XX asrning 80-yillari sobiq sovet davlatida ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va ma’naviy jihatdan yaqqol tunazzul holati yuzaga kelib qolgan davr edi. “Qayta qurish” siyosati barbod bo‘lishi, ma’muriy-buyruqbozlikka asoslangan, mulkchilikning turli shakllari raqobat asosida saqlanishni inkor etgan mavhum siyosiy, sinfiy, umumiy manfaatlarni milliy manfaatlardan ustun qo‘ygan, yagona partiya ish hukmronligiga tayangan mustabid tuzum butunlay istiqbolsiz ekanini amalda yana bir bor ko‘rsatgan edi. Bu vaqtda O‘zbekiston iqtisodiy hayoti juda og‘ir ahvolda, xususan, sanoatning bir yoqlama rivojlanib, “paxta” sanoat kompleksiga moslashishi, ekologik ahvolning og‘irlashib, onalar va bolalar o‘limining oshib ketishi, millatlararo munosabatlarda ziddiyatli holatlar yuzaga kelib, milliy mojarolar yanada kuchayib, milliy urf-odatlar, qadriyatlar ta’qib ostida qolishi respublikani tang ahvolga solib qo‘ygan edi.

1989-yil sentabrda KPSS MQning navbatdagi plenumida ham I.A.Karimov respublikadagi ijtimoiy-iqtisodiy ahvol tang vaziyatga tushib qolganligini alohida ta’kidlab o‘tadi. Biroq markaz

respublikalar milliy manfaatlarini o'ylashdan yiroq edi. Respublikada sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar avvallari markazning qanchalik e'tiboridan chetda qolgan bo'lsa endilikda ham uni mamlakatda iqtisodiy inqirozlar kuchayib turgan vaqtda bu hol umuman qiziqitirmas edi. Shuningdek, O'zbekistonda ham ishlab chiqarish asta-sekin so'na bordi. Masalan, 1987-yilda O'zbekistonda milliy daromad kishi boshiga 1985-yildagiga nisbatan 94,5 %ni tashkil qildi. Ijtimoiy mehnat unumdorligi 1986–1990-yillarda biron marta ham 1985-yildagi darajaga yetib bormadi. Bu davrlarda sanoat va qishloq xo'jaligining bir qancha sohaları nafaqat kishi boshiga, balki mutlaq miqdori ham kamayib ketdi. Po'lat, traktor, paxta terish mashinalari, ekskavator, ko'priki kran, qog'oz, paxta tolasi, shohi gazlama, go'sht ishlab chiqarish miqdori ancha kamaydi. Qishloq xo'jaligida ham paxta va sabzavot turlarining hosildorligi pasaydi. Aholiga maishiy xizmat ko'rsatish, o'rtacha ish haqi to'lash va boshqa ijtimoiy ko'rsatkichlar bo'yicha O'zbekiston Rossiyadan deyarli ikki barobar orqada qola boshladi. Buning asosiy sababi – bu yillarda har bir viloyat bo'yicha aniq dasturlar, ichki rezervlar hisobidan ishni to'g'ri tashkil etish, ishlab chiqarish quvvatlarini rekonstruksiya qilish, qancha miqdorda, kimga va qachon qo'shimcha xomashyo ajratish evaziga ahvolni yaxshilash imkoniyatlari to'g'risida amaliy tadbirlar bo'lmagan. Bu davrda yildan yilga tobora keskinlashib kelayotgan asosiy ijtimoiy muammo – bu aholi o'rtasida ishsizlar sonining jadal ravishda o'sib borishi edi. Mamlakatimiz rahbari o'sha davrda vujudga kelgan ahvoldan chiqish yo'li sifatida quyidagilarni belgilab berdi:

a) ishlarning ahvoliga xolis baho berish, respublikadagi vaziyatni sog'lomlashtirishning konkret va aniq-puxta dasturini ishlab chiqish;

b) hayotning barcha sohalarida qat'iy tartib va intizom o'rnatish, rahbar kadrlarni joy-joyiga to'g'ri qo'yish, ularga nisbatan talabchanlikni oshirish.

Demak, yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda harbiy xizmatchilar bilan olib boriladigan ma'naviy-ma'rifiy tayyorgarlik mashg'ulotlarida mustaqillikkacha bo'lgan davr bilan bog'liq bo'lgan tarixiy jarayonlarni falsafiy-mantiqiy tushunish, istiqloq tarixini anglash, tarixiy-siyosiy voqelik va hodisalarga tahliliy

yondashish, ularning bosqichma-bosqich kurashlar evaziga qo'lga kiritilganini idrok etish masalalariga chuqur yondashish zarur edi.

Respublikadagi vaziyatni yaxshi tushungan O'zbekiston rahbari tashabbusi bilan 1989-yil 17-avgustda "Qishloqda yashovchi har bir oilani tomorqa bilan ta'minlash, ularga yakka tartibda uy-joy qurish uchun barcha sharoitlarni yaratib berish haqida" qaror qabul qilindi. Mazkur qaror qabul qilinganidan so'ng o'tgan bir yil mobaynida 60 mingdan ziyod oilaga yer uchastkalari ajratib berildi. Respublikada mavjud bo'lgan tomorqalar butun ekin maydonlarining 5 foizini tashkil etgan, jami 200 ming gektar yerni tashkil etdi. Ayni paytda bu yerlarning har gektaridan ko'plab daromad olindi.

Yer uchastkalari yiriklashtirilgan holda dehqon shaxsiy yordamchi xo'jalikda yetishtirilgan mahsulotning oilasidan ortgan qismini bozorga chiqarish imkoniga ham ega bo'ldi. Natijada mayda tovar ishlab chiqarish yo'lga qo'yila boshladi. Bunday yordamchi xo'jaliklar bozor munosabatlarini rivojlantirish, oziq-ovqat mahsulotlarini yetishtirishga muayyan hissa qo'sha boshladilar.

Bu harakatlar zahirida mustaqil tiklanish, milliy davlatchilikni tuzish uchun harakatlarni sezish mumkin edi. 1989-yilning oxirlariga kelib O'zbek tiliga ham Davlat tili maqomini berish uchun olib borilgan harakatlar milliy davlatchilikni rivojlantirishning bir yo'li edi. O'zbek tiliga davlat tili maqomini berish harakatlari 1988-yildan boshlangan bo'lsa-da, hali-hanuz bir qarorga kelishning imkoni yo'q, matbuotda esa bu haqida turli qarashlar va fikrlar bildirilar, aniq bir natija belgilashning imkoni bo'lmas, markazning ta'siri ham kuchli edi. Respublikada rahbarlikni boshlagan I.A.Karimov alohida komissiya tuzish haqida ko'rsatma beradi. Ushbu komissiya xalq fikrini o'rganib, O'zbek tiliga davlat tili maqomini beruvchi qonun loyihasini tayyorlashi kerak edi. Yangi tuzilgan komissiya tarkibiga norasmiy tashkilotlarning vakillari ham kiritilgan edi. Loyiha muhokama qilinayotgan to'rt oy davomida komissiyaga jami to'rt mingga yaqin maktub kelib tushdi, bu xatlarga jami 150 mingdan ortiq kishi imzo chekkan edi.

Milliy manfaatlardan kelib chiqqan holda bu takliflar o'rganib chiqildi va tezda qonun loyihasining yangi uch varianti yuzaga

keldi. Bular komissiya loyihasi, yozuvchilar uyushmasi tuzgan loyiha, norasmiy tashkilotlar vakillari tuzgan loyihalardan iborat edi. Barcha loyihalar ochiq, xolis muhokama etildi va ularni o'rganish, umumlashtirish asosida yangi loyiha tayyorlanib, u 1989-yil 11-oktabr kuni matbuotda e'lon qilindi. Loyiha umumxalq muhokamasidan so'ng O'zbekiston SSR Oliy Sovetining 1989-yil 21-oktabrda bo'lgan 11-sessiyasida "O'zbekiston SSRning Davlat tili haqida" Qonuni qabul qilindi. Shundan so'ng davlat tilini izchil takomillashtirish maqsadida keng harakatlar boshlandi. Qonunda belgilanganidek, Respublikada qonun loyihasini amalga oshirish bilan bog'liq bo'lgan tadbirlar aniq belgilangan holda faqat rahbar xodimlarga emas, balki turli millat vakillari bilan muntazam aloqada bo'luvchi kishilar, huquqni himoya qiluvchi tashkilotlar, ijtimoiy ta'minot, xalq maorifi, madaniyat va sog'liqni saqlash, savdo, maishiy xizmat ko'rsatish, aloqa, transport, kommunal xo'jalik, ommaviy axborot vositalari xodimlari, o'z vazifalarini bajarishi uchun yetarli darajada davlat tilini bilishlari kerakligi ta'kidlangandi.

Ta'kidlash lozimki, O'zbekiston rahbariyati O'zbek tilini davlat tili darajasiga ko'tarishda respublikada istiqomat qiladigan boshqa xalqlarning milliy manfaatlarini ham hisobga oldi. Davlat tili haqidagi qonunda O'zbek tilining davlat tili sifatida rivojlanishi boshqa milliy tillarning manfaatlariga zid kelmasligi belgilangan edi. Qonunga respublikada yashovchi barcha xalq va millat vakillari teng huquqli ekanini ko'rsatuvchi modda ham kiritildi.

Bunday yondashuv asosida 1995-yil 24-avgustda "O'zbek tilining asosiy imlo qoidalarini tasdiqlash haqida"gi Vazirlar Mahkamasining qarori e'lon qilindi. Bu qaror Davlat tili haqidagi Qonunni to'ldirdi. Shundan so'ng respublikadagi rusiyazon aholining davlat tilini egallashlari uchun yanada ko'proq imkoniyat yaratish, shu munosabat bilan maktablar, maktabgacha ta'lim, maktabdan tashqari muassasalardagi o'zbek ta'limini yanada yaxshilash, takomillashtirish, ular uchun yangi dastur, darslik hamda boshqa o'quv qo'llanmalarini yaratish, davlat tilini jadallashtirib o'rgatishning zarur uslubiyotini tezkorlik bilan ishlab chiqish, bu muhim tadbirda ana shu soha mutaxassislarining keng va faol ishtirokini ta'minlash maqsadida bir qator vazifalar ham

amalgaga oshirildi. Shuningdek, harbiy, diniy va boshqa sohalarda kerakli til belgilanishiga urg'u berildi.

O'zbek tilining ijtimoiy-siyosiy va ilmiy-texnikaviy atamalarini tartibga keltirish va takomillashtirish maqsadida O'zbekiston Ministrlar Soveti huzurida maxsus Atamalar qo'mitasi tashkil etildi. Bu qo'mita oldiga tegishli vazifalar qo'yildi. Qo'mita dastlabki vaqtdan boshlab matbuotda berilgan, radio va teleko'rsatuvlarda qo'llangan atamalarni, 15 ta vazirlik, qo'mita va idoralardan kelgan, shu idoralarga taalluqli atama va nomlanishlarni to'plab, muhokama etdi.

Umuman, 1989-yilda qabul qilingan davlat tili haqidagi qonun ayrim kamchiliklardan xoli bo'lmasa-da, biroq bu qonunning murakkab ijtimoiy-iqtisodiy sharoitda qabul qilinganini hisobga olsak, bunday kamchiliklarning sabablarini tushunib olish qiyin emas edi. Mazkur qonun xalq madaniy merosi, milliy qadriyatlarini o'rganish, tarixiy xotirani tiklash, shu asosda milliy ong, ruhiyat mustahkamligi, ijtimoiy faollik kuchayishiga ham yo'l ochib berdi. Shu ma'noda milliy tillarga davlat maqomi berilishi sotsialistik tuzumga qarshi olib borilayotgan mustaqillik yo'lidagi harakatlarning kuchayishiga ham ijobiy ta'sir etdi. Davlat tili haqidagi qonun milliy o'zlikni anglash, milliy davlatchilikni tiklash yo'lida respublikadagi yana bir tarixiy ahamiyatga ega bo'lgan muhim siyosiy qadam bo'ldi va milliy mustaqillikning ma'naviy poydevoriga asos bo'ldi. O'z-o'zidan, ushbu Qonun O'zbek xalqining mavqeyini tiklashga, uning ijtimoiy hayotning barcha sohalarida to'la amal qilishiga katta imkon yaratdi.

1990-yil 31-oktabrga kelib Oliy Sovetning 12-chaqiriq uchinchi sessiyasida O'zbekiston Birinchi Prezidenti tavsiyasi bilan respublika prokurorining ittifoq prokuroriga qaramligiga barham berish va bu tizimning mustaqilligini mustahkamlash maqsadida O'zbekiston Prokurori Respublika oliy organi tomonidan tayinlandi. Umuman, 1990-yilga kelib sovet davlatining hukmronligi inqirozga uchrayotgan, ittifoqdosh respublikalar o'z milliy mustaqilligi uchun keng harakatlarni olib borayotgan davrlar bo'ldi. O'zbekistonning yangi rahbariyati ham mustabid tuzum uchun butkul yot bo'lgan yangi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy o'zgarishlar bilan maydonga chiqdi. Aynan mana shu davr

respublikaning mustaqillik sari yo‘l olishi bilan ifodalandi. O‘zbekistonning Birinchi rahbari I.A.Karimov boshchiligida boshlangan bu yo‘l tarixiy-ma‘naviy tiklanish, markaz tomonidan olib borilgan qatag‘onlik siyosatiga chek qo‘yish, o‘zbek xalqi sha‘nini himoya qilish, iqtisodiy tanazzul holatini cheklash, ichki bozorni himoyalash, butkul yangi ijtimoiy himoya siyosatini olib borish, markaz ta‘sirini kamaytirish va boshqa keng qamrovli tadbirlardan iborat bo‘ldi.

1990-yil bahorida Islom Karimov “Gorbachyovcha qayta qurish” boshi berk ko‘chaga kirib qolganini anglab yetdi. O‘sha vaqtda SSSR siyosatchilari orasida bunday odamlar kamdan kam edi. Rossiyada va boshqa ittifoqdosh respublikalarda tobora kuchayib borayotgan tartibsizliklar O‘zbekistonda ham yuz bermasligi uchun qat‘iy choralar ko‘rish kerak edi. O‘zbekistonda hokimiyatning ozgina zaiflashuvi ham respublikada millatlararo nizolar yangidan boshlanishiga, ijtimoiy portlashlarga olib kelishi mumkin edi.

Lekin baribir vujudga kelgan inqiroziy holatni to‘xtatib bo‘lmas edi. Shu sababdan ham davlat yemirilishidan jiddiy xavotirga tushgan sobiq ittifoq rahbariyati 1990-yilning kuzida markaz va respublikalar o‘rtasidagi munosabatlarni yangi holatga o‘tkazish maqsadida muzokara jarayonini boshlashga majbur bo‘ldi.

1990-yil oxirlariga kelib Boltiqbo‘yi mamlakatlari mustaqillik to‘g‘risidagi talablarni SSSR Oliy Kengashi majlisi va xalq deputatlari qurultoyiga ko‘ndalang qilib qo‘yganlaridan so‘ng Prezident M.Gorbachyov bir guruhni deputatlar va rahbarlar bilan vaziyatni o‘rganish, aniqrog‘i, tazyiq qilish, ta‘sirini o‘tkazish maqsadida Boltiqbo‘yiga bordi. Guruh tarkibida O‘zbekiston Prezidenti I.Karimov ham bor edi. U yerda I.Karimov haqiqat bilan yuzma-yuz keldi va shunda juda katta qat‘iyat va favqulodda jur‘at bilan munosabatini bildirdi. Komissiya ishini yakunlamasdan oq Gorbachyovni ham, uning manfaatlarini qo‘llab-quvvatlovchi guruhni ham tashlab, tezda orqaga qaytdi. Bu bilan u Boltiqbo‘yi xalqlarining talablari qonuniy ekanligi, mustaqillik SSSR tarkibidan chiqish-tarixiy haqiqat, inson haq-huquqlarining tantanasi ekanligini oshkora namoyon qildi. Haqiqatan ham ittifoq tarkibida turib hech qanday milliy ravnaq, ma‘naviy taraqqiyot to‘g‘risida

gap bo'lishi ham mumkin emas edi. 1991-yil avgust oyiga kelib butun mamlakatda voqealar shu darajada chuvalashib ketdiki, uning yechimini topish o'ta mushkul bo'lib qoldi. Shu vaziyatdan foydalanib 19–21-avgust kunlari Moskvada davlat to'ntarishi qilishga urinib ko'rildi. Favqulodda holat davlat qo'mitasi tuzilib, SSSR Prezidenti M.Gorbachyov zo'rvonlik bilan vazifasidan chetlashtirildi. Shu sababli Gorbachyov va uning atrofidagilar norozi bo'lishiga va qarshilik ko'rsatishiga qaramay, O'zbekiston Respublikasi respublika Prezidentligini joriy etdi.

2. Siyosiy tizimdagi o'zgarishlar. Mustaqillikning e'lon qilinishi.

O'zbekiston Respublikasining tashkil etilishi

XX asr 90-yillariga kelib jahon va sobiq Ittifoqdosh o'zgarishlar hamda yuzaga kelgan vaziyat o'zbek xalqining mustaqillik uchun bo'lgan kurash jarayonini tezlashtirib yubordi.

O'zbekistonning mustaqil davlat deb e'lon qilinishida Respublika Oliy Kengashining XII chaqiriq navbatdan tashqari 1991-yil 31-avgustdagi VI sessiyasi katta tarixiy ahamiyatga ega bo'ldi. Unda "O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi to'g'risida" hamda "O'zbekiston Respublikasining davlat bayrog'i to'g'risida"gi masalalar kun tartibiga qo'yilib, qizg'in muhokama qilindi. Sessiyada O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi to'g'risida Prezident I.A.Karimov ma'ruza qildi. U o'z nutqida Markaziy hukumat olib borayotgan ichki siyosatni tahlil qildi. 19–21-avgust kunlari Moskvadagi Favqulodda holat davlat komiteti (GKCHP) a'zolari faoliyatining xalqlar ozodligi, respublikalar mustaqilligiga qarshi qaratilgani haqida ro'yi-rost fikr bildirildi. Oliy Kengash deputatlari har bir moddaning muhokamasidan so'ng "O'zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi to'g'risida"gi Qonunni qabul qildilar. So'ngra "Respublika Davlat mustaqilligi to'g'risida"gi Bayonot qabul qilindi. O'zbekiston SSRning nomi O'zbekiston Respublikasi deb o'zgartirildi. Mustaqillik belgilangan kun – 1-sentabr 1991-yildan boshlab milliy bayram va dam olish kuni deb e'lon qilindi.

"O'zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi to'g'risida"gi Qonun 17-moddadan iborat bo'lib, mustaqil respublika uchun vaqtincha konstitutsiya rolini o'ynaydigan bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasining davlat Mustaqilligi asoslari to'g'risidagi Qonun g'oyat katta ahamiyatga ega bo'lganligi uchun bu muhim hujjat haqida batafsil to'xtalish lozim. Mazkur Qonun asosida O'zbekistonning huquqiy holati tubdan o'zgardi va unda O'zbekiston Respublikasining asosiy belgilari aniqlab berilgan.

1-modda. O'zbekiston Respublikasi o'z tarkibidagi Qoraqalpog'iston Respublikasi bilan birga mustaqil, demokratik davlat deb e'lon qilinadi.

2-modda. O'zbekiston Respublikasining xalqi suverendir va u respublikada davlat hokimiyatining birdan bir sohibi ekanligi haqida gapiriladi.

3-modda. O'zbekiston Respublikasi to'la davlat hokimiyatiga ega, o'zining milliy-davlat va ma'muriy-hududiy tuzilishini, hokimiyat va boshqaruv idoralari tizimini mustaqil belgilash qonunlashtirildi.

4-modda. O'zbekiston Respublikasining davlat chegarasi va hududi daxlsiz hamda bo'linmas bo'lib, uning xalqi o'z xohish-irodasini erkin bildirmasdan turib o'zgartirilishi mumkin emas.

5-modda. O'zbekiston Respublikasida O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va uning qonunlari ustundir. O'zbekiston Respublikasi davlat idoralarining tizimi hokimiyatni qonun chiqaruvchi, ijroiya va sud hokimiyatiga ajratish tartibi asosida qurilganligi gapirildi.

8-12-14-moddalarda O'zbekiston mustaqilligining iqtisodiy asoslari izohlab berilgan.

13-14-moddalarda O'zbekistonning tashqi siyosiy aloqalaridagi mustaqilligi sharhlandi.

15-moddada O'zbekiston Respublikasi hududida Inson huquqlari umumiy deklaratsiyasiga muvofiq holda O'zbekiston Respublikasi fuqaroligi joriy etilishi O'zbekiston Respublikasining barcha fuqarolari millatidan, elatidan, ijtimoiy kelib chiqishidan, qaysi dinga mansubligidan va e'tiqodidan qat'i nazar, bir xil fuqarolik huquqlariga egadirlar, respublika Konstitutsiyasi hamda uning qonunlari himoyasida bo'lishlari qonunlashtirilgan.

16-moddada davlat ramzlarini: gerbi, bayrog'i, madhiyasi haqida gapirilsa, **17-moddada** esa O'zbekiston Respublikasi o'z tarkibidagi Qoraqalpog'iston Respublikasining hududiy butunligini

va mustaqilligini e'tirof etadi. O'zbekiston Respublikasi bilan Qoraqalpog'iston Respublikasi o'rtasidagi o'zaro munosabatlar teng huquqlilik asosida, ular o'rtasidagi ikki tomonlama shartnomalar va bitimlar vositasida qurilishi e'tirof etilgan.

Bunday qonunning qabul qilinishi mustaqillik davrida qo'lga kiritilgan yutuqlarning natijasi hisoblanadi. Bu esa huquqiy, iqtisodiy hamda ma'naviy-axloqiy munosabatlar natijasi sifatida muhim ahamiyatga ega.

O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi e'lon qilinishi bilan birga Davlat mustaqilligi bilan bog'liq qonunlar tizimini yaratish zarur edi. O'zbekiston erishgan istiqlolni mustahkamlash uchun mamlakatda referendum o'tkazishga qaror qilindi. 1991-yil 18-noyabrda Oliy Kengash VIII sessiyasi O'zbekiston Respublikasi referendumini o'tkazish to'g'risida qaror qabul qildi. Shunga muvofiq, 29-dekabrda "Siz Oliy Kengash tomonidan O'zbekiston Respublikasi mustaqil davlat deb e'lon qilinishini ma'quullaysizmi?" mavzusida referendum o'tkazishga katta tayyorgarlik ko'rildi. Referendum yakuniga ko'ra, unda qatnashgan aholining 98,2 foizi O'zbekiston mustaqillikni yoqlab ovoz berdi. Mustaqil O'zbekiston dunyoga, jahonga yuz tutdi, qariyb yuz yildan ortiq vaqt davomida yopib qo'yilgan chegaralari ochildi. Jahon hamjamiyati O'zbekistonni quchoq ochib qabul qildi. Mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq O'zbekiston Respublikasini suveren davlat sifatida Turkiya, Amerika Qo'shma Shtatlari, Kanada, Yaponiya, Buyuk Britaniya, Saudiya Arabistoni, Eron, Pokiston, Hindiston, Xitoy singari yirik davlatlar tan oldilar.

3. I.Karimovning O'zbekiston Respublikasi Prezidenti etib saylanishi

O'zbekiston mustaqillik tomon yo'l tutar ekan, 1989-yilning yoz oylari va 1990-yil bahorida O'zbekiston hayotida uning rahbarligida burilish davri bo'ldi. Xuddi shu paytlarda o'zbek xalqining taqdirini hal qiladigan taraqqiyot yo'llari ishlab chiqildi. Xususan, O'zbekistonning demokratik yo'lda rivojlanishi bosh strategik maqsad qilib belgilandi. Ana shu yo'lning boshida, 1989-yil iyunidan O'zbekistonning rahbari sifatida Islom Abdug'aniyevich Karimov turdi. 1990-yil 23-martda esa

O'zbekiston Kompartiyasi MKning Plenumi ham respublika siyosiy tizimi to'g'risidagi masalani ko'rib chiqqan va unda O'zbekiston hokimiyatning Prezidentlik boshqaruvi shakliga o'tishi respublika suvereniteti va davlatchiligida mohiyatan yangi bosqich ekanligi ta'kidlangandi. 1990-yil 24-mart kuni O'zbekiston SSR Oliy Sovetining XII chaqiriq 1-sessiyasida SSSR doirasida birinchi bo'lgan siyosiy hujjatni – "O'zbekistonda Prezidentlik boshqaruvini ta'sis etish to'g'risida"gi qarorni qabul qildi va O'zbekiston Kompartiyasi MQ birinchi kotibi Islom Abdug'aniyevich Karimov O'zbekiston SSR Prezidenti etib saylandi. Shu tariqa O'zbekiston – SSSR respublikalari ichida birinchi bo'lib o'zining milliy huquqiy va demokratik davlatiga mustahkam zamin yaratdi. O'zbekiston xalqining manfaatlarini ko'zlab I.A.Karimov tashabbusi bilan amalga oshirilgan dastlabki tadbirlarning o'ziyoq prezidentlik boshqaruvining o'z vaqtida ta'sis etilganidan dalolat berdi.

1991-yil 29-dekabrda o'tkazilgan O'zbekiston Respublikasining referendumida 9 million 898 ming 707 kishi yoki saylov ro'yxatiga kiritilganlarning 94,1 foizi qatnashdi. O'zbekiston Respublikasining mustaqil davlat deb e'lon qilinishini yoqlab 9 million 718 ming 155 kishi yoki referendumda qatnashganlarning 98,2 foizi ovoz berdi. Demak, O'zbekistonning Davlat mustaqilligi umumxalq tomonidan yakdillik bilan ma'qullandi. Xuddi shu yilning 29-dekabrda xalqimiz birinchi marta umumxalq xohish-irodasi bilan mustaqil O'zbekiston Respublikasi Prezidentini sayladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovini o'tkazishga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish O'zbekiston Respublikasi xalq deputatlari saylovini o'tkazuvchi Markaziy saylov komissiyasining zimmasiga yuklandi. Saylovga puxta tayyorgarlik ko'rildi. 13 ta okrug va qariyb 7 mingta uchastka saylov komissiyalari tuzildi. O'zbekiston Prezidenti saylovi respublikada birinchi bor o'tayotganligi inobatga olinib, bu tadbirni uyushqoqlik bilan o'tkazish maqsadida saylov komissiyalari tarkibiga Xalq demokratik partiyasidan, O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasidan, yozuvchilar uyushmasi va boshqa jamoat tashkilotlaridan ko'pgina vakillar kiritildi.

O'zbekiston Prezidenti saylovi O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining VIII sessiyasida qabul qilingan "O'zbekiston

Respublikasi Prezidenti saylovi to'g'risida"gi Qonun asosida o'tkazildi. Bu saylovning muhim tomoni shuki, u birinchi marta muqobillik asosida o'tdi, ya'ni Oliy lavozimga ikki nomzod – O'zbekiston XDP va O'zbekiston kasaba uyushmalari federatsiyasi nomzodi I.A.Karimov va "Erk" Demokratik partiyasi vakili Saloy Madaminov (Muhammad Solih) nomzodi qo'yildi.

Markaziy saylov komissiyasi saylovga doir barcha hujjatlarni, 11 mln. nusxadagi Prezident sayloviga doir byulletenlarni markazlashtirilgan tartibda tayyorladi hamda okrug va uchastka saylov komissiyalari ular bilan o'z vaqtida ta'minlandi. Prezidentlikka nomzodlar uchun saylovoldi kompaniyasida, ularning saylovchilar bilan uchrashuvlarida va o'z dasturlarini ommaviy axborot vositalarida e'lon qilishlariga keng sharoit yaratildi. Saylovchilarning ro'yxatlarini tuzish, binolarni ovoz berish uchun jihozlash ishlari amalga oshirildi. Prezident saylovi jarayonida Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi tashkilotini ta'sis etgan mustaqil mamlakatlardan, Amerika Qo'shma Shtatlari, Turkiya, Malayziya va boshqa davlatlardan, xalqaro tashkilotlardan kelgan kuzatuvchilar qatnashdi. Ular O'zbekiston Prezidenti saylovi puxta tashkil etilganligini tasdiqladilar.

Saylovlar yakuniga ko'ra, 8 million 514 ming 136 kishi yoki ovoz berishda qatnashganlarning (86 %) I.Karimov nomzodini, 1 million 220 ming saylovchi (12,3 %) Saloy Madaminov nomzodini yoqlab ovoz berdi. Markaziy saylov komissiyasi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi to'g'risidagi Qonunning 35-moddasiga asoslanib Islom Abdug'aniyevich Karimovni 1991-yil 29-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga saylangan deb hisoblashga qaror qildi. I.Karimov O'zbekiston Kengashining 1992-yil 4-yanvarda bo'lgan navbatdan tashqari IX sessiyasida qasamyod qildi. 1995-yil 26-martda umumxalq ovozi (referendumi) bilan I.Karimovning Prezidentlik vakolati 1997-yildan 2000-yilgacha uzaytirildi. O'tkazilgan referendum mamlakat hayotida katta siyosiy-ijtimoiy ahamiyat kasb etdi. Prezidentning vakolat muddatini 1997-yildan 2000-yilgacha uzaytirish masalasi bo'yicha umumxalq referendumi bo'lib o'tdi. "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining vakolat muddatini 1997-yildan 2000-yilgacha uzaytirishga siz rozimisiz?"

degan savolga 11 mln. 199 ming 415 kishi yoki ovoz berishda qatnashganlarning 99,6 foizi ijobiy javob berdi. Referendum natijalari Markaziy saylov komissiyasi qarori hamda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining tegishli qarori bilan mustahkamlandi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1999-yil 19–20-avgust kunlari bo'lib o'tgan XI sessiyasi 2000-yil 9-yanvarda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovini o'tkazishga qaror qildi. Markaziy saylov komissiyasi O'zbekiston "Fidokorlar" milliy demokratik partiyasi nomzodi Islom Abdug'aniyevich Karimovni hamda O'zbekiston xalq demokratik partiyasidan ko'rsatilgan Abdulhafiz Jalolovni Prezidentlikka nomzod etib ro'yxatga oldi, yashirin ovoz berish byulleteniga kiritdi.

2000-yil 9-yanvarda muqobillik va demokratik tamoyillar asosida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi bo'lib o'tdi. Saylovda ro'yxatga olingan saylovchilarning 95,10 foizi, 12 mln. 123 ming 199 saylovchi qatnashdi. Saylovda qatnashganlarning 91,90 foizi Islom Karimov uchun, 4,17 foizi A.Jalolov uchun ovoz berdi. 3,93 foiz byulleten haqiqiy emas deb topildi. O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi Islom Abdug'aniyevich Karimovning O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga saylanganligi to'g'risida qaror qabul qildi. 2000-yil 11-yanvarda O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasining navbatdagi majlisi 2000-yil 9-yanvar kuni bo'lib o'tgan O'zbekiston Prezidenti saylovi natijalariga bag'ishlandi.

Majlisda qayd etilganidek, 2000-yil 9-yanvar mustaqil O'zbekistonimiz tarixida asrlar tutashgan paytda sodir bo'lgan, davlatimizning XXI asrdagi hayotiga va taraqqiyotiga jiddiy ta'sir ko'rsatadigan muhim siyosiy voqea sifatida muhrlanib qoladi. O'zbekiston fuqarolarining aksariyati Islom Karimov nomzodi uchun ovoz berdi. Bo'lib o'tgan saylovning ahamiyati uning muqobillik va demokratik tamoyillar asosida o'tganligidadir. Saylovchilarga tanlash imkoniyati berildi va ular xohish-irodasiga binoan, o'zi tanlagan nomzod uchun ovoz berdi. Shak-shubhasiz bu hol jamiyatimizda siyosiy fikrlar xilma-xilligi va qarashlarining turlicha bo'lishi uchun katta turtki berdi, davlatning ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy hayotining yanada erkinlashtirilishiga zamin hozirladi.

2015-yil 29-mart kuni yana bir O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga saylov bo'lib o'tdi. Ushbu saylov jarayonida

saylovchilar ro'yxatiga kiritilgan 20 million 798 ming 52 nafardan 18 mln. 942 ming 349 nafar saylovchi ovoz berishda ishtirok etgani aniqlandi. Bu ro'yxatga kiritilgan saylovchilar umumiy sonining 91,08 foizini tashkil etadi.

Ovoz berishda ishtirok etgan saylovchilarning 17 mln. 122 ming 597 nafari yoki 90,39 foizi Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati – O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasidan ko'rsatilgan nomzod Islom Abdug'aniyevich Karimovni yoqlab ovoz berdi. O'zbekiston "Milliy tiklanish" demokratik partiyasidan ko'rsatilgan nomzod Akmal Xolmatovich Saidovga – 583 ming 309 nafar saylovchi yoki 2,92 foizi, O'zbekiston Xalq demokratik partiyasidan ko'rsatilgan nomzod Hotamjon Abdurahmonovich Ketmonovga 552 ming 309 nafar saylovchi yoki 2,92 foizi, "Adolat" sotsial-demokratik partiyasidan ko'rsatilgan nomzod Narimon Majitovich Umarovga 389 ming 24 nafar saylovchi yoki 2,05 foizi ovoz berdi.

Amerika, Yevropa, Osiyo va Afrikaning 43 ta davlatidan va beshta xalqaro tashkilotdan: Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti Demokratik institutlar va inson huquqlari bo'yicha byurosi, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi, Shanxay hamkorlik tashkiloti, Butunjahon saylov organlari assotsiatsiyasi va Islom hamkorligi tashkilotidan 299 nafar kuzatuvchi ishtirok etgani saylov kompaniyasi demokratik va shaffof o'tganligining yorqin dalilidir. Saylov jarayonini monitoring qilishda siyosiy partiyalardan 35 mingdan ortiq kuzatuvchilar ham ishtirok etdi.

Prezident saylovini mamlakatimizning qariyb 600 ta va 180 dan ziyod xorijiy ommaviy axborot vositalari, shu jumladan, qariyb 180 ta xorijiy va milliy internet nashrlari yoritib bordi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovini yoritish bo'yicha Respublika matbuot markazi va hududiy matbuot markazlari tomonidan mamlakatimiz va chet elning 980 nafardan ortiq jurnalistlari ishtirokida saylov kompaniyasining muhim bosqichlariga bag'ishlangan 70 dan ortiq matbuot anjumanlari, brifinglar va onlayn brifinglar o'tkazildi. Mamlakatimiz va chet el ommaviy axborot vositalarida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti sayloviga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish bilan bog'liq 12750 dan ziyod maqola va axborot materiallari, ko'rsatuv hamda eshittirishlar e'lon

qilindi. O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi to'g'risida"gi Qonunining 35-moddasiga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi Islom Abdug'aniyevich Karimovning O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga saylanganligi to'g'risida qaror qabul qildi.

Umumiy qilib aytganda, Islom Karimov O'zbekiston davlati va davlatchiligini barpo qilish, demokratik fuqarolik jamiyati qurish asoslarini yaratdi, mamlakatimiz taraqqiyotining asosiy yo'nalishini ishlab chiqdi, yurtimizning yorug' istiqboli yo'lida ko'pmillatli xalqimizni birlashtirib, uni ulug' maqsadlar sari boshlab bordi. Mana shunday buyuk ishlarni amalga oshirgan O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Abdug'aniyevich Karimov 2016-yil 2-sentabr kuni 78 yoshida Toshkent shahrida vafot etdi. U 2016-yil 3-sentabr kuni Samarqand shahrida dafn etildi. Dafn marosimida jahonning 17 ta mamlakatidan delegatsiyalar, davlat rahbarlari, ko'plab rasmiy doira vakillari, respublikaning keng jamoatchilik a'zolari ishtirok etdilar.

Shu o'rinda ta'kidlash kerakki, yurtimizda qad ko'targan ko'plab noyob inshootlar, ulkan bunyodkorlik ishlari, ulug' ajdodlarimizning nomi bilan bog'liq bo'lgan me'moriy majmualar Islom Karimov nomi bilan bog'liqdir. O'tish davrining qiyinchiliklari, o'zligini topayotgan davlat mafkurasini yaratish, tinchligini saqlash va millatlararo totuvlikni ta'minlash kabi muhim vazifalar bu insonning yelkasiga yuk bo'lib tushgani, umrining oxiriga qadar bu ishlarni sharaf bilan uddalab o'tganini qayd etishimiz kerak. Shuningdek, u mamlakatimizda mustaqillik yillarida amalga oshirilgan keng ko'lamli islohotlar milliy davlatchilik va suverenitetni mustahkamlash, jamiyatda qonun ustuvorligini, insonlarning huquq va erkinliklarini ta'minlash, xalqimizning munosib hayot kechirishi, fuqarolarimizning bunyodkorlik salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun zarur shart-sharoitlar yaratdi.

2017-yil 27-noyabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tomonidan "O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti, buyuk davlat va siyosat arbobi Islom Abdug'aniyevich Karimov tavalludining 80 yilligini nishonlash to'g'risida"gi qaror qabul qilindi, Toshkent, Samarqand va Qarshi

shaharlarida Islom Karimov haykali o'rnatildi. Samarqand shahridagi Shohizinda me'moriy majmuasida Islom Karimov nomiga atab maqbara bunyod etildi, Toshkent davlat texnika universitetiga Islom Karimov nomi berildi.

4. O'zbekistonning o'ziga xos taraqqiyot yo'lini tanlashi.

Taraqqiyotning "O'zbek modeli" va uning o'ziga xos xususiyatlari

Davlatimiz o'z mustaqilligini qo'lga kiritishi bilan Vatanimiz hayotida tarixiy burilish sodir bo'ldi. Endi O'zbekiston oldida ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy taraqqiyot masalalarini milliy manfaatlarga mos ravishda mustaqil hal qilish, jamiyatni yangilash, demokratik davlat qurish yo'llarini ishlab chiqish kabi dolzarb va mas'uliyatli vazifalar turardi. Mustaqillikning dastlabki kunlaridayoq O'zbekiston qanday taraqqiyot yo'lidan boradi, qanday jamiyat, qanday davlat quradi, uning qiyofasi qanday bo'ladi, degan savollar ko'ndalang turardi.

Barchamizga ma'lumki, 1990-yillarning boshlarida mustaqillikka erishgan ayrim davlatlarda eski tuzumni rad etib, uni buzib, demokratik jamiyat va bozor munosabatlari dasturini e'lon qilib, birdaniga demokratik davlat quramiz, birpasda rivojlangan mamlakatlar darajasiga erishamiz, deb jar solgan edilar. O'sha paytdayoq O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti bunday shov-shuvlarga xomxayol, quruq gap deb baho bergan edi, amalda ham shunday bo'lib chiqdi. Islom Karimov mustaqillikning dastlabki yillaridayoq eski tuzum o'z o'rnini osonlikcha bermasligini, uning zaharli mafkurasi odamlar ongini tez va yengil o'z iskanjasidan chiqarmasligini ta'kidlagan edi. Eng muhimi, yangi ijtimoiy munosabatlarning zarur asosini, zaminini, poydevorini qurib olish uchun ma'lum vaqt, jamiyatni isloh qilish va yangilash jarayonini boshqaradigan va ta'minlaydigan, yangicha fikrlaydigan odamlarni tayyorlash-tarbiyalash kerak edi.

Dunyo mamlakatlari tajribasi shuni ko'rsatadiki, dunyodagi hamma mamlakatlar uchun maqbul bo'lgan bir xil taraqqiyot yo'li, bir xil andoza bo'lishi mumkin emas. Mustaqillikka erishgan har bir mamlakat o'ziga xos taraqqiyot yo'lini izlaydi, yangi jamiyat barpo etishda o'z andozasini ishlab chiqishga intiladi. O'zbekiston oldida

ham nazariy-ilmiy va amaliy jihatdan puxta asoslangan o'ziga xos yo'lni ishlab chiqish zarur masala edi.

Vatan, millat taqdiri hal bo'layotgan mustaqillikning dastlabki murakkab, mas'uliyatli pallasida Birinchi Prezident Islom Karimov o'zining hayotiy tajribasi, har bir voqega ilmiy asosda yondashishi, kelajakni ko'ra bilish qobiliyatiga tayanib O'zbekistonning o'ziga xos taraqqiyot yo'lini ishlab chiqishga rahbarlik qildi. Islom Karimov o'n ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining navbatdan tashqari to'qqizinchi sessiyasida (1992-yil 4-yanvarda) so'zlagan dasturiy nutqida hamda 1992-yil avgust oyida nashr etilgan "O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li" asarida O'zbekistonning taraqqiyot yo'lini har tomonlama puxta asoslab berdi.

O'z yo'limiz qanday shart-sharoit va zaminlarga tayanadi?

O'zbekiston yo'li, birinchidan, bozor iqtisodiyoti asosida taraqqiy topgan davlatlarning tajribasiga tayangan holda ishlab chiqildi. Bu biron-bir taraqqiyot yo'lini ko'r-ko'rona ko'chirib olishni emas, balki boshqa davlatlar taraqqiyoti jarayonida to'plangan va bizning mamlakatimiz sharoitiga tatbiq qilsa bo'ladigan barcha ijobiy va maqbul tajribalardan foydalanish, degan ma'noni bildiradi.

Ikkinchidan, soxta inqilobiy sakrashlarsiz, ijtimoiy larzalarsiz, evolutsion yo'l bilan madaniyatli taraqqiyotga o'tish – tanlab olingan yo'lning asosiy mazmuni va mohiyatidir.

Uchinchidan, O'zbekiston yo'li o'zbek xalqining milliy xususiyatlari, davlatchilik tajribasi, ma'naviy qadriyatlari, Sharq madaniyatiga mansublik, ijtimoiy hamkorlik, vatanparvarlik, millatlararo totuvlik kabi fazilatlarga mos ravishda belgilandi.

To'rtinchidan, o'z yo'limizni belgilashda islom dini, uning jamiyat ma'naviy hayotidagi o'rni, musulmon davlatlar bilan o'zaro aloqalarni kengaytirishdagi ahamiyati hisobga olindi.

Beshinchidan, yangi yo'lni tanlashda O'zbekistonning geostrategik mavqeyi, mustaqillikka erishgan paytdagi iqtisodiy imkoniyatlari, shart-sharoitlari, tabiiy resurslari asos qilib olindi.

Oltinchidan, respublikadagi o'ziga xos demografik vaziyat, aholi va mehnat resurslarining tez o'sib borishi ham inobatga olindi.

Yettinchidan, odamlarning ijtimoiy ongi, dunyoqarashi ham e'tiborga olindi. Negaki, sovetlar zamonida kishilarda shakllangan

yaxshi ishlasa ham, yomon ishlasa ham davlat boqadi, degan boqimandalik, tayyorgarlik, mulkka nisbatan bepisandlik ruhiyatini tezlik bilan o'zgartirib bo'lmaz edi, buni hisobga olish zarur edi, albatta.

Mustaqilligimizning dastlabki kunidanoq chinakam Mustaqil O'zbekistonni barpo etish, har qanday "izm"lardan xoli xalqchil, adolatli jamiyat qurish bosh maqsad qilib qo'yildi. Davlatimiz ichki va tashqi siyosatining asosiy yo'nalishlari ana shu bosh maqsaddan kelib chiqqan holda belgilandi. Jumladan, O'zbekiston Birinchi Prezidenti I.A.Karimov – O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li asarida "O'zbekiston – kelajagi buyuk davlat. Bu – mustaqil, demokratik, huquqiy davlatdir. Bu – insonparvarlik qoidalariga asoslangan, millati, dini, ijtimoiy ahvoli, siyosiy e'tiqodlaridan qat'i nazar fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini ta'minlab boradigan davlatdir. Xalq davlat hokimiyatining manbayidir. Uning xohish-irodasi davlat siyosatini belgilab beradi" degan edi.

Buyuk kelajakka ega O'zbekiston davlatining siyosati inson va jamiyatning erkinligini, fuqarolarning farovon turmushini ta'minlashga qaratilgan. Yurtboshimiz o'zining mazkur asarida jamiyatning siyosiy va davlat tuzilishini insonga siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy turmush tarzini o'zi erkin tanlab olishini kafolatlaydigan darajada isloh etish, tubdan yangilash vazifalarini belgilab berdi.

Siyosiy sohada bu quyidagilarni anglatadi:

- xalq manfaatlariga mos keladigan haqiqiy demokratiya tamoyillarini qaror toptirishni, xalq ham bevosita, ham o'z vakillari orqali davlat hokimiyatini amalga oshirishda to'liq imkoniyatga ega bo'lishini;

- qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati vakolatlarini ajratish asosida milliy davlatchilikni barpo etishni, jamiyatning siyosiy tizimini, davlat idoralarining tuzilmasini tubdan yangilashni, respublika hokimiyati bilan mahalliy hokimiyatning vakolatlarini aniq belgilab qo'yish va adolatli qonunchilikni vujudga keltirishni;

- barcha fuqarolarning qonun oldidagi huquqiy tengligini va qonunning ustuvorligini, jamiyat manfaatlari va aholi xavfsizligini kafolatlaydigan huquqiy davlatni barpo etishni;

– O‘zbekistonda tug‘ilgan, uning zaminida yashayotgan va mehnat qilayotgan har bir kishi, milliy mansubligidan va e’tiqodidan qat’i nazar respublikaning teng huquqli fuqarosi bo‘lishga munosibdir, degan insonparvarlik qoidasini ro‘yobga chiqarishni;

– ozchilikdan iborat millatlarning manfaatlari va huquqlarini himoya qilish, ularning madaniyati, tili, milliy urf-odatlarini va an’analari saqlanishi hamda rivojlanishini kafolatli ta’minlashni;

– bir mafkuraning, bir dunyoqarashning yakka hokimligidan voz kechish, siyosiy tashkilotlar, mafkuralar va fikrlar xilma-xilligini tan olishni;

– chinakam demokratiyaning zarur va qonuniy tarkibi sifatida ko‘ppartiyaviylikni amalda shakllantirishni bildiradi.

Iqtisodiy sohada:

– milliy boylikning ko‘payishini, odamlarning turmush va ish sharoitlarini munosib ta’minlaydigan qudratli, barqaror va jo‘shqin rivojlanib boruvchi iqtisodiyotni barpo etishni;

– ijtimoiy jihatdan yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyotini bosqichma-bosqich shakllantirishni, tashabbuskorlik va ishbilarmonlikni rivojlantirishni;

– mulk egalari huquqlarining davlat yo‘li bilan himoya qilinishini ta’minlash va barcha mulkchilik shakllarining huquqiy tengligini qaror toptirishni;

– iqtisodiyotni o‘ta markazlashtirmaslik hamda yakka hokimlikka barham berish, korxonalar va tashkilotlarning mustaqilligini kengaytirish, davlatning xo‘jalik faoliyatiga bevosita aralashuvidan voz kechishni;

– mehnat qilish, dam olish, ta’tilga chiqish, ishsiz bo‘lib qolgan taqdirda ijtimoiy muhofazaga bo‘lgan Konstitutsiyaviy huquqni ro‘yobga chiqarishni;

– tabiiy resurslardan ayovsiz foydalanishga, atrof-muhitga, ekologik vaziyatga ziyon yetkazishga yo‘l qo‘ymaslikni bildiradi.

Ijtimoiy va ma’naviy sohada:

– umuminsoniy qadriyatlarga, insonparvarlik g‘oyalariga sodiqlikni, inson, uning hayoti va shaxsiy daxlsizligi, erkinligi, qadr-qimmatini, yashash joyini tanlash huquqini, inson huquqlariga doir xalqaro me’yorlarni qaror toptirishni;

– ma’naviyat va axloqiylikni qayta tiklash, fuqarolarning vatanparvarlik his-tuyg’ularini rivojlantirish, tarixiy yodgorliklarni saqlash va ta’minlashni;

– o‘zbek tilini rivojlantirishni, bu tilning davlat maqomini to‘liq ro‘yobga chiqarishni;

– hurfiylikni, vijdon va din erkinligi qoidalarini qaror toptirishni;

– ijtimoiy adolat qoidalarini ro‘yobga chiqarish, aholining eng nochor qatlamlari, ya’ni keksalar, nogironlar, yetimlar, ko‘p bolali oilalar, o‘quvchi-yoshlarning davlat tomonidan iqtisodiy muhofazaga bo‘lgan kafolatli huquqlarini ta’minlashni;

– hamma uchun ma’qul sifatli tibbiy xizmatni ta’minlash, onalik va bolalikni muhofaza qilishni;

– yangi demokratik ta’lim konsepsiyasini ishlab chiqish va amalga oshirish, umumiy ta’lim olish, kasbni va tegishli maxsus tayyorgarlikdan o‘tishni erkin tanlashda barchaga baravar huquq berishni;

– ijodning barcha turlarini rivojlantirish, odamlarning iste’dod va qobiliyatlarini namoyon etish uchun shart-sharoit yaratish, ma’naviy mulkni himoya qilishni bildiradi. Mana shunday siyosiy, davlat va Konstitutsiyaviy tuzumga erishishning kaliti fuqarolarning tinchligi va millatlararo totuvlikni ta’minlash, qonuniylik va huquq-tartibotni qaror toptirishdir.

Islom Karimovning keyingi asarlari ma’ruza va nutqlarida O‘zbekistonning o‘ziga xos taraqqiyot yo‘li yangi ma’no-mazmun bilan to‘ldirilib, aniqlashtirilib borildi. 1993-yilda nashr etilgan “O‘zbekiston – bozor munosabatlariga o‘tishning o‘ziga xos yo‘li” nomli asarida Islom Karimov yangi jamiyat qurishning besh tamoyilini asoslab berdi.

1. Iqtisodiyotni mafkuradan xoli etish, iqtisodning siyosatdan ustunligi, o‘ziga xos ichki qonunlarga muvofiq rivojlanishi.

2. Davlat bosh islohotchi, iqtisodiy o‘zgartirishlarning tashabbuskori.

3. Qonun ustuvorligi, qonun oldida hammaning barobarligi va hammaning qonunga bo‘ysunishi.

4. Bozor iqtisodiyotiga o'tishning barcha bosqichlarida kuchli ijtimoiy siyosat yuritish, aholining muhtoj tabaqalarini ijtimoiy himoyalashning ustuvorligi.

5. Bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich va izchil ravishda o'tish, islohotlarni inqilobiy sakrashlarsiz amalga oshirish.

Demak, shu tarzda O'zbekistonning o'ziga xos taraqqiyot yo'li nazariy va amaliy jihatdan puxta belgilab olindi. Taraqqiyotning "O'zbek modeli" bundan oldin yaratilgan va mavjud bo'lgan modellarning birontasini takrorlamagan holda o'z mohiyati va mazmuni jihatidan butunlay yangi taraqqiyot modelidir. Bu yo'l xalqimiz tomonidan ham, xalqaro maydonda ham taraqqiyotning "O'zbek modeli" deb qabul qilindi.

Faqatgina O'zbekistonga xos taraqqiyot yo'lining nazariy, ilmiy, amaliy jihatdan puxta ishlab chiqilishi bizning eng katta yutug'imizdir. Tanlangan yo'lining to'g'riligini xalqimiz, dunyodagi nufuzli davlat arboblari, siyosatchilar, iqtisodchi olimlar e'tirof etdilar.

5. Mustaqil O'zbekistonning yangi Konstitutsiyasining yaratilishi

Deyarli asrlar mobaynida mustaqillikning ajralmas qismiga aylangan ramzlardan biri – Konstitutsiyadir. Dunyoda suveren deb e'tirof etilgan har bir mamlakat o'zining Konstitutsiyasi, davlat ramzlari – gerbi, bayrog'i, madhiyasiga ega. O'zbekiston Respublikasi mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq o'zining davlat ramzlarini yaratishga alohida e'tibor qaratdi. Oliy Kengash Davlat bayrog'i, Davlat gerbi va Davlat madhiyasi haqida qonun loyihalarini tayyorlash, Oliy Kengash sessiyasi muhokamasiga taqdim etish to'g'risida qaror qabul qildi.

Dastlab, Oliy Kengash Qo'mitalari Konstitutsiya komissiyasi bilan hamkorlikda o'zbek xalqining tarixi, ma'naviy qadriyatleri, mustaqil davlatimiz siyosatining mazmun-mohiyatiga mos davlat ramzlari variantlari tayyorlandi. Jahon tajribasi ko'rsatadiki, mustaqil demokratik, huquqiy davlatning tashkil topishi va rivojlanishining asosiy sharti Konstitutsiyaning mavjudligidir. Mustaqillik qo'lga kiritilgach, bir qator omillar respublika Konstitutsiyasini yaratishni zarur qilib qo'ydi. Mamlakatimizda

milliy huquqiy davlat qurish, demokratik jamiyat barpo etish, bozor munosabatlarini shakllantirish kabi dolzarb vazifalar mustaqil O'zbekiston Konstitutsiyasini ishlab chiqishni taqozo etardi. Vujudga kelayotgan yangi siyosiy partiyalar, jamoat harakatlari, jamoat tashkilotlarining yuridik manfaatlari, jamiyatimizda ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni, milliy totuvlikni ta'minlash masalalari yangi Konstitutsiya qabul qilishga ehtiyoj tug'dirdi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining xalqaro huquq subyektiga aylanishi, mustaqil davlat sifatida jahonga tanilishi ham Konstitutsiya qabul qilinishini talab qilardi. Aslini olganda, "Mustaqillik Deklaratsiyasi" qabul qilingan O'zbekiston Oliy Kengashining 1990-yil 20-iyunda bo'lgan ikkinchi sessiyasidayoq yangi Konstitutsiya ishlab chiqish lozim, degan xulosaga kelingan edi. Sessiya O'zbekiston Prezidenti Islom Karimov boshchiligidagi 64 kishidan iborat Konstitutsiya loyihasini tayyorlash bo'yicha komissiya tuzish to'g'risida qaror qabul qiladi. Komissiya tarkibiga Oliy Kengash deputatlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlar vakillari, davlat, jamoat tashkilotlari va xo'jaliklarning rahbarlari, olimlar, mutaxassislar kiritildi. Konstitutsiyaviy komissiya O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasini ishlab chiqish ustida qariyb 2,5 yil ishladi.

Konstitutsiyaviy komissiyaning 1991-yil 12-aprelda bo'lib o'tgan yig'ilishida komissiya a'zolari hamda yetakchi mutaxassislar va olimlardan iborat 32 kishilik ishchi guruhi tuzildi. Konstitutsiya bo'limlarini tayyorlash bo'yicha 50 kishidan iborat 6 ta kichik guruhlar tuzildi. 1991-yil 31-avgustda O'zbekiston davlat mustaqilligining e'lon qilinishi va "O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi asoslari to'g'risida"gi Qonunning qabul qilinishi, bu qonunga Konstitutsiyaviy maqom berilishi Konstitutsiyaviy komissiyaning mas'uliyatini yanada kuchaytirdi.

Komissiya tomonidan Konstitutsiya loyihasini ishlab chiqishda konstitutsiya rivojlanishining jahon tajribasi o'rganildi, inson huquqlari, demokratiya va qonunchilik sohasida jahonda qo'lga kiritilgan yutuqlar hisobga olindi. Milliy davlatchiligimizning tajribasi, Amir Temur va boshqa allomalarimizning davlatni idora qilish sohasidagi g'oyalari yangi Konstitutsiyaga asos qilib olindi.

1992-yil 26-sentabrda O'zbekiston Respublikasi

Konstitutsiyasining loyihasi umumxalq muhokamasi uchun matbuotda e'lon qilindi. Muhokama 2 oyga yaqin davom etdi. Muhokama jarayonida bildirilgan takliflar asosida tuzatishlar kiritilgan loyiha 1992-yil 26-noyabrda matbuotda ikkinchi marta e'lon qilindi. Umumxalq muhokamasi davrida 6 mingdan ortiq taklif va mulohazalar bildirildi, ular inobatga olindi. Birinchi Prezident I.A.Karimov O'zbekiston Konstitutsiyasini ishlab chiqishga rahbarlik qildi va o'zining katta hissasini qo'shdi. Oliy Kengashning 1992-yil dekabrda bo'lgan XII sessiyasida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini qabul qilish masalasi muhokama qilindi. Konstitutsiya loyihasini yaratishda Birlashgan Millatlar Tashkiloti hujjatlariga, Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasiga, xalqaro huquqning barcha e'tirof etilgan qoidalariga amal qilindi. Shuningdek, rivojlangan demokratik davlatlar, jumladan, Amerika Qo'shma Shtatlari, Yaponiya, Kanada, Germaniya, Fransiya, Portugaliya, Italiya, Shvetsiya, Turkiya, Ispaniya hamda Sharq mamlakatlari Hindiston, Pokiston, Misr davlatlarining tajribasidan foydalanildi. Sessiyada deputatlar loyihaga 80 ga yaqin o'zgartirish, qo'shimcha va aniqliklar kiritdilar. Shunday qilib, 1992-yil 8-dekabr kuni O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi qabul qilindi va Konstitutsiya qabul qilingan sana umumxalq bayrami – O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi kuni deb e'lon qilindi.

Yangi ishlab chiqilgan mustaqil O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi 6 bo'lim, 128 moddadan iborat. U "Mustaqillik Deklaratsiyasi", "O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi asoslari to'g'risida"gi Qonunda mustahkamlangan tamoyillar va g'oyalarni o'zida to'la mujassamlashtirdi, ularni rivojlantirdi. O'zbekiston Respublikasining Asosiy qonuni, pasporti hisoblanuvchi Konstitutsiya sovet davridagi barcha Konstitutsiyalardan tubdan farq qiladi. Biz buni quyidagilarda ko'rishimiz mumkin.

Birinchidan, yangi qabul qilingan Konstitutsiya mustaqil O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi bo'lib, barcha moddalari mustaqillik g'oyalari bilan sug'orilgan. Ilgarigi Konstitutsiyalar esa O'zbekistonning mustaqilligini to'la ta'minlay olmaydigan, respublikaning "suveren"ligi haqida quruq gaplar

yoʻzilgan, huquqiy qoidalari qogʻozda qolib ketadigan, rasmiy bir hujjat edi.

Ikkinchidan, yangi Konstitutsiya ijodkor xalqimizning xohish-irodasi va dono fikr-mulohazalari asosida hamda jahonda toʻplangan eng ilgʻor Konstitutsiyaviy rivojlanish tajribasini va milliy davlatchiligimiz xususiyatlarini hisobga olgan holda mustaqil ishlab chiqildi. Ilgarigi Konstitutsiyalar esa Markaziy hokimiyat tomonidan tayyorlangan Ittifoq Konstitutsiyasi nusxalaridan koʻchirib olinar edi. Shu boisdan ham yangi Asosiy qonunimiz mustaqil Oʻzbekistonning birinchi Konstitutsiyasi hisoblanadi.

Biz Oʻzbekiston Respublikasining Konstitutsiyasini oʻrganish jarayonida uning mohiyatini ochib beruvchi asosiy tamoyillarini bilib olishga ahamiyat berishimiz zarur. Ular quyidagilar:

Birinchi tamoyil – davlat suverenitetidir. 1–6-moddalarda Oʻzbekiston – suveren demokratik respublika, davlat xalq manfaatlariga xizmat qiladi, mustaqil ichki va tashqi siyosat yuritadi, Oʻzbek tili davlat tilidir – deb belgilab qoʻyilgan.

Ikkinchi tamoyil – xalq hokimiyatchiligidir. 7–14-moddalarda xalq davlat hokimiyatining birdan bir manbayidir, Oʻzbekiston xalqini millatidan qatʼi nazar uning fuqarolari tashkil etadi, davlat oʻz faoliyatini inson va jamiyat farovonligini koʻzlab amalga oshiradi – deb koʻrsatilgan.

Uchinchi tamoyil – davlat hokimiyatining uch tarmoqqa boʻlinishidir. Oʻzbekiston davlat hokimiyati tizimi hokimiyatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatlariga boʻlinishi qonunlashtirildi. Uch hokimiyatdan har biri faoliyatda mustaqil boʻlib, faqat qonunga boʻysunadi. Oʻzbekistonda qonun chiqaruvchi hokimiyat – Oliy Majlis, ijro etuvchi hokimiyat – Prezident rahbarligida faoliyat koʻrsatuvchi Vazirlar Mahkamasidir. Sud hokimiyati – Konstitutsiyaviy Sud, Oʻzbekiston Respublikasining Oliy Sudi va Oliy xoʻjalik Sudi, Qoraqalpogʻiston Respublikasining Oliy Sudi va Oliy xoʻjalik Sudi, viloyatlar, Toshkent shahar, tuman va shahar sudlari hamda xoʻjalik sudlaridan iborat. Konstitutsiyaning 76–88-moddalarida Oliy Majlisning tuzilishi, vakolatlari, qonunlarni ishlab chiqish va qabul qilish qoidalari belgilab berilgan. 88–98-moddalarda Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti davlat va ijro etuvchi hokimiyat boshligʻi ekanligi, uning

vakolatlari va vazifalari, Vazirlar Mahkamasining faoliyat yuritish qoidolari qonunlashtirilgan.

To'rtinchi tamoyil – bu demokratiyaga sodiqlikdir. Konstitutsiyada demokratiya va ijtimoiy adolatga sadoqat e'lon qilinadi hamda insonparvar demokratik-huquqiy davlat barpo etish nazarda tutiladi. Konstitutsiyada umuminsoniy demokratik tamoyillarning, xalqaro huquq sohasida umume'tirof etilgan qoidalarining ustunligi tan olingan. O'zbekiston Konstitutsiyasida inson hayoti, erkinligi, or-nomusi, qadr-qimmati va boshqa daxlsiz huquqlari eng oliy qadriyat ekanligi belgilab qo'yilgan.

Beshinchi tamoyil – Konstitutsiya va qonunlarning ustuvorligidir. Konstitutsiyaning 15-moddasida “O'zbekiston Respublikasida O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlarining ustunligi so'zsiz tan olinadi. Davlat, uning organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalari, fuqarolar Konstitutsiya va qonunlarga muvofiq ish ko'radilar, deb belgilab qo'yilgan. Konstitutsiyaning 16-moddasida birorta ham qonun yoki boshqa normativ-huquqiy hujjat Konstitutsiya normalari va qoidalariga zid kelishi mumkin emasligi qayd etilgan.

Oltinchi tamoyil – xalqaro andozalar darajasida ifodalangan fuqarolar huquqlari, erkinliklari va majburiyatlarining tengligi hamda daxlsizligidir. O'zbekiston fuqarolarining huquqlari muhim xalqaro hujjatlar – “Inson huquqlari butun jahon Deklaratsiyasi”, “Iqtisodiy, sotsial va madaniy huquqlar to'g'risida xalqaro Pakt”, “Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risida xalqaro Pakt” va boshqalar asosida bayon etilgan. Konstitutsiyaning 18–52-moddalari inson va fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlariga bag'ishlangan. O'zbekiston davlati tomonidan fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini oliy qadriyat sifatida tan olingan va ular himoya qilinadi. Konstitutsiya bo'yicha har bir shaxsning o'z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilishi kafolatlanadi. Konstitutsiyada har bir shaxs mulkdor bo'lishga haqli ekanligi, O'zbekiston iqtisodiyotining negizini xilma-xil shakldagi mulk tashkil etishi, barcha mulk shakllarining teng huquqli ekanligi belgilab qo'yilgan. Konstitutsiyaning 21-moddasiga binoan O'zbekiston Respublikasining butun hududida yagona fuqarolik

o'rnatilgan. O'zbekiston Respublikasining millati, elatidan qat'i nazar barcha fuqarolari O'zbekiston xalqini tashkil etadi.

Yettinchi tamoyil – qonuniylikdir. Qonuniylik jamiyatning bir maromda hayot kechirishini, davlat organlarining maromli faoliyat ko'rsatishini ta'minlaydi. Davlat, uning organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalari, fuqarolar Konstitutsiya va qonunlarga muvofiq ish ko'rgandagina jamiyatda barqarorlik va taraqqiyot bo'ladi. Mazkur tamoyil davlatga va uning organlariga, siyosiy partiyalar va jamoat uyushmalariga o'z faoliyatlarini O'zbekiston Respublikasi qonunlari asosida amalga oshirishlarini talab qiluvchi Konstitutsiyaviy normadir. Konstitutsiyada siyosiy partiyalar, jamoat birlashmalari, ommaviy axborot vositalarining tuzilishi va faoliyatining huquqiy jihatlari asoslab berilgan.

Sakkizinchi tamoyil – O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining asosiy qoidalarini aniq belgilab qo'yilganligidadir. Konstitutsiyaning 17-moddasida: "O'zbekiston Respublikasi xalqaro munosabatlarning to'la huquqli subyektidir. Uning tashqi siyosati davlatlarning suveren tengligi, kuch ishlatmaslik yoki kuch bilan tahdid qilmaslik, chegaralarning daxlsizligi, nizolarni tinch yo'l bilan hal etish, boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik qoidalariga va xalqaro huquqning umum e'tirof etilgan boshqa qoidalari va normalariga asoslanadi", deb belgilab qo'yilgan. Konstitutsiyada davlat xalqning manfaatlari va xavfsizligini ta'minlash maqsadida boshqa davlatlar bilan ittifoq va do'stona aloqalar o'rnatishi hamda davlatlararo tuzilmalarga kirishi va ulardan ajralib chiqishi mumkinligi qonunlashtirilgan.

To'qqizinchi tamoyil – mahalliy o'zini o'zi boshqarishdir. O'zbekistonda O'zbek davlatchiligi rivojining tarixiy tajribasiga tayangan holda mahalliy hokimiyat boshlig'i bo'lgan hokim instituti joriy etildi. Viloyatlar, tumanlar va shaharlarda hokimiyatning vakillik organlari xalq deputatlari kengashlari bo'lib, ularga viloyat, tuman va shahar hokimlari boshchilik qiladilar. Konstitutsiyaning 99–104-moddalarida mahalliy davlat hokimiyati asoslari, hokimlarni tayinlash va tasdiqlash tartiblari, ularning vazifalari belgilab berilgan. Konstitutsiyada fuqarolik jamiyati qurishning muhim omili bo'lgan fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarini tuzish tartiblari belgilangan. 105-moddada:

“Shaharcha, qishloq va ovullarda, shuningdek, ular tarkibidagi mahallalarda hamda shaharlardagi mahallalarda fuqarolarning yig‘inlari o‘zini o‘zi boshqarish organlari bo‘lib, ular ikki yarim yil muddatga raisni (oqsoqolni) va uning maslahatchilarini saylaydi”, deb belgilab qo‘yilgan.

O‘ninchi tamoyil – odil sudlov, sudyalarning mustaqilligi va daxlsizligidir. Sudya faqat qonunga bo‘ysunadi. Konstitutsiyaning 106–116-moddalarida O‘zbekistonda sud tizimi va ularning vazifalari belgilab berilgan. Konstitutsiyada sudya deputatlikka saylana olmasligi, siyosiy partiyalar va harakatlarning a‘zosi bo‘la olmasligi qonuniylashtirilgan. Sud majlisi ochiq va oshkora olib boriladi, sud ishlari davlat tilida yuritiladi va zarur holda boshqa tilda yuritilishi ham mumkin. Sud hokimiyati davlat hokimiyatining muhim bir tarmog‘i bo‘lib, Konstitutsiyada sudning hujjatlari barcha davlat organlari, jamoat birlashmalari, muassasalar va tashkilotlar, mansabdor shaxs va fuqarolar uchun majburiy ekanligi qonunlashtirib qo‘yilgan. O‘zbekiston Respublikasida Qoraqalpog‘iston Respublikasining huquqiy maqomi, O‘zbekiston bilan o‘zaro munosabatlarning huquqiy asoslari belgilab berilgan.

Shuni tan olish kerakki, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qabul qilinishi mamlakatimiz hayotida katta ahamiyatga ega bo‘ldi. U mamlakatimizda qonunchilikning rivojlanishi uchun, huquqiy islohotlar uchun asos bo‘lib qoldi. Yuzlab qonunlar, kodekslar, milliy dasturlar ishlab chiqildi, umumxalq muhokamasidan o‘tdi, qabul qilindi va hayotimizning barcha jabhalarida amal qilinmoqda. O‘zbekiston Konstitutsiyasi davlatimiz suverenitetini ro‘yobga chiqardi. O‘zbekistonni dunyodagi barcha nufuzli davlatlar tan oldi, ular bilan siyosiy, diplomatik, iqtisodiy, madaniy aloqalar o‘rnatildi va rivojlantirib borilmoqda.

6. Davlat ramzlarining qabul qilinishi

Mustaqillikning asosiy ramzlaridan biri hisoblangan milliy bayroq 1991-yil 18-noyabrda qabul qilindi. O‘zbekiston Respublikasining davlat bayrog‘i ramzi mamlakatimiz hududida ilgari mavjud bo‘lgan g‘oyat qudratli saltanatlar bayroqlariga xos bo‘lgan eng yaxshi an‘analarni davom ettirgan holda respublika

tabiatiga xos xususiyatlarni, xalqimizning milliy va madaniy o'zligini ham aks ettiradi. Bayroqdagi moviy rang – mangu osmon va musaffo suv ramzidir. Yaxshilikni, donishmandlikni, shon-shuhratga sadoqatni bildiruvchi moviy rang Sharqda azaldan qadrlanadi, o'z vaqtida buyuk Amir Temur ham o'z bayrog'iga bu rangni tanlagan. Oq rang – tinchlik va poklik timsolidir.

Yosh mustaqil davlat o'z yo'lida baland dovonlardan oshib o'tishi kerak. Bayrog'imizdagi oq rang yo'limizning musaffo va charog'on bo'lishi uchun yaxshi niyat ramzidir. Qizil yo'llar – bu har bir tirik jonning qon tomirida urib turgan hayotiy kuch, tiriklik ramzidir. Yashil rang – serne'mat va orombaxsh tabiat timsoli. Hozirgi vaqtda butun dunyoda atrof-muhitni muhofaza qilish harakatlari keng yoyilmoqda, uning ramzi ham yashil rangdir. Yarim oy – O'zbekiston xalqining ko'p asrlik an'alariga muvofiq keladi. Yarim oy va yulduzlar – musaffo osmonning va tinchlikning ramzlaridir. Bayrog'imizda 12 yulduz tasviri bor, bu o'lkamizda qadimdan barkamollik, mukammallik timsoli hisoblanadi. Davlat bayrog'i – bizning o'tmishimiz, bugungi kunimiz va kelajagimiz ramzidir. O'zbekiston Respublikasining davlat bayrog'i Nyu-York shahrida joylashgan Birlashgan Millatlar Tashkiloti qarorgohida dunyodagi suveren davlatlar bayroqlari qatorida turibdi. O'zbekiston bayrog'i O'zbekiston Prezidenti qarorgohi Oqsaroy binosi, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi binosi tepasiga ilib qo'yilgan. O'zbekiston sportchilari jahon sport musobaqalarida g'oliblikni qo'lga kiritib, shohsupaga ko'tarilgan paytlarda ham O'zbekiston bayrog'i ko'tariladi. Shu boisdan mamlakatimizda va jahon uzra O'zbekiston bayrog'ining ko'tarilishi, bir tomondan, davlatimiz shon-shuhratini oshirsa, ikkinchi tomondan, barchamizga quvonch, faxrlanish, g'urur bag'ishlaydi.

“O'zbekiston Respublikasining davlat gerbi to'g'risida”gi Qonun 1992-yil 2-iyulda O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining X sessiyasida qabul qilingan. Gerbning markazida tasvirlangan – qanotlarini keng yozib turgan Humo qushi – baxt-saodat va erksevarlik ramzidir. Buyuk bobokalonimiz Alisher Navoiy Humo qushini barcha tirik mavjudotlar ichida eng saxovatlisi deb ta'riflagan. Gerbning yuqori qismida

respublikamizning sobit va barqarorligining ramzi sifatida sakkiz qirrali yulduz tasvirlangan. U “qutlugʻ” degan maʼnoni anglatadi.

Uning ichida yarim oy va besh qirrali yulduz ifodalangan. Quyosh tasviri – davlatimizning yoʻli hamisha nurli boʻlishi uchun bildirilgan yaxshi niyat timsolidir. Ayni paytda u respublikamizning noyob iqlim sharoitini ham koʻrsatib turadi. Boshloqlar – rizq-roʻzimiz boʻlmish gʻallaning timsoli, oppoq boʻlib ochilayotgan paxta chanoqlari tasvirlangan gʻoʻza shoxlari – serquyosh yurtimizning dongʻini butun dunyoga taratgan asosiy boyligimizning ramzidir. Bugʻdoy boshloqlari va paxta chanoqlarining davlat bayrogʻiga oʻxshagan lenta bilan oʻrab qoʻyilgani – bu respublikada yashayotgan xalqlar yakdilligining timsolidir. Gerb rangli tasvirda boʻlib, Humo qushi kumushrangda, quyosh, boshloqlar, paxta chanogʻi va “Oʻzbekiston” degan yozuv tilla rangda, gʻoʻza shoxlari va barglari, vodiylar yashil rangda, togʻlar havo rangda, chanoqdagi paxta, daryolar, yarim oy va yulduz oq rangda, Oʻzbekiston Respublikasining davlat bayrogʻi tasvirlangan lenta toʻrt xil rangda berilgan. Gerb suveren davlatimiz ramzi sifatida ijtimoiy-siyosiy hayotda keng qoʻllaniladi. Oʻzbekistonning xorijiy mamlakatlar bilan tuzilgan bitim va shartnomalarida, davlatlararo aloqa va diplomatik hujjatlarda Oʻzbekiston Respublikasining davlat gerbi tasviri tushirilgan boʻladi. Shuningdek, davlat ahamiyatiga molik ichki hujjatlarda, davlat korxonalari va muassasalarining muhrlarida, oʻzaro aloqa hujjatlarida ham gerb tasviri boʻladi. Milliy valutamiz – soʻmda ham davlat gerbi oʻz ifodasini topgan.

“Oʻzbekiston Respublikasi davlat madhiyasi toʻgʻrisida”gi Qonun 1992-yil 10-dekabrda Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Kengashining XII sessiyasida qabul qilindi. Shoir Abdulla Oripov va bastakor Mutal Burhonov tomonidan tayyorlangan variant tasdiqlandi.

Davlat madhiyasi mamlakat mustaqilligining timsoli boʻlib, u Oʻzbekiston fuqarosida vatanparvarlik tuygʻusini uygʻotadi. Oʻzbekiston Respublikasining davlat madhiyasi jamoatchilik oldida ijro etilganida ishtirokchilar uni tik turib, qoʻlini koʻksiga qoʻyib kuylaydilar va tinglaydilar.

Tayanch soʻzlar

Oʻzbekiston, SSR, sovet, syezd, kompartiya, istiqlool, suverenitet, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, demografik, urbanizatsiya, madaniy hayot, mafkura, mustaqillik deklaratsiyasi, konsepsiya, Toshkent, Markaz, mustaqillik, Prezident, markaziy komitet, sotsialistik, agrar siyosat, sanoat, paxtachilik, xomashyo, Konstitutsiya, “Oʻzbek modeli”, besh tamoyil, konstitutsiyaviy kengash, konstitutsiyaviy qonun, gerb, bayroq, madhiya, davlat ramzlari, milliy valuta.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar

1. Nima sababdan ittifoqdosh respublikalar SSSR tarkibidan chiqib boshladilar?

2. SSSR oʻrniga qanday ittifoq tuzish masalasi koʻtarildi, u qanday prinsipda tuzilishi kerak edi?

3. XX asr 80-yillar oxirlari – 90-yillar boshida respublikadagi ijtimoiy-siyosiy hayot qay yoʻsinda kechdi?

4. Referendumning maʼnosini bilasizmi?

5. “Oʻzbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi toʻgʻrisida”gi Oliy Kengash Bayonoti haqida soʻzlab bering.

6. Oliy Kengashning Oʻzbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligini eʼlon qilish toʻgʻrisidagi qarorining mazmunini bilasizmi?

7. “Oʻzbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi asoslari toʻgʻrisida”gi Konstitutsiyaviy qonunni kutubxonadan toping va daftaringizga yozib oling.

8. Mustaqillik toʻgʻrisidagi referendum va uning natijalarini bilasizmi?

9. Oʻzbekiston Davlat mustaqilligini qoʻlga kiritishning tarixiy ahamiyati nimalardan iborat?

10. Oʻzbekiston Prezidenti saylovi qanday qonun asosida tashkil etiladi?

11. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentligiga kimlar saylanishi mumkin?

12. Oʻzbekiston Prezidentligiga birinchi umumxalq saylovi qachon boʻldi? Natijalarini bilasizmi?

13. O'zbekistonning o'ziga xos taraqqiyot yo'lini ishlab chiqishda nimalar asos qilib olindi?

14. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasini ishlab chiqish va qabul qilish jarayonini tushuntirib bering.

15. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining asosiy tamoyillarini bilasizmi?

16. Davlat ramzlari deganda nimalarni tushunasiz? O'zbekiston Respublikasining davlat bayrog'ini tasvirlab bering, u qanday hollarda ko'tariladi?

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Sh.M. Mirziyoyev. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. To'ldirilgan ikkinchi nashri. – Toshkent: O'zbekiston, 2022.

2. Sh.M. Mirziyoyev. Yangi O'zbekistonda erkin va farovon yashaylik. 5-jild. – Toshkent: O'zbekiston, 2023.

3. Sh.M. Mirziyoyev. Yangi O'zbekistonda taraqqiyot strategiyasi asosida demokratik islohotlar yo'lini qat'iy davom ettiramiz. 6-jild. – Toshkent: O'zbekiston, 2023.

4. Sh.M. Mirziyoyev. Hozirgi zamon va Yangi O'zbekiston. – Toshkent: O'zbekiston, 2024.

5. O'zbekiston Respublikasi: mustaqil davlatning bunyod bo'lishi. – Toshkent: O'zbekiston, 1992.

6. Usmonov Q., Abdug'aniyev A. O'zbekiston – siyosiy va huquqiy islohotlar sari. – Toshkent: O'qituvchi, 1996.

7. Usmonov Q., G'aniyev D. O'zbekiston mustaqil taraqqiyot yo'lida. – Toshkent: O'zbekiston, 1994.

8. Usmonov Q., Sodiqov M., Burxonova S. O'zbekiston tarixi. Darslik. – Toshkent: Iqtisod-moliya, 2006

9. Yusupov E. Istiqloq yo'lida. – Toshkent: Fan, 1996.

10. O'zbekistonning yangi tarixi. Mustaqil O'zbekiston tarixi. Uchinchi kitob. – Toshkent: Sharq, 2000.

11. O'zbekiston tarixi (1917–1991-yillar). Ikkita kitob. Mas'ul muharrirlar: R.Abdullayev, M.Raximov, K.Rajabov. – Toshkent: O'zbekiston, 2019.

12. O'zbekiston tarixi. Darslik. R.H.Murtazayevaning umumiy tahriri ostida. – Toshkent, 2020.

5-MAVZU. O'ZBEKISTONDA DEMOKRATIK, FUQAROLIK JAMIYATI ASOSLARINING SHAKLLANISHI, AMALGA OSHIRILGAN SIYOSIY ISLOHOTLAR

Reja:

1. Fuqarolik jamiyati – taraqqiyotning yuqori bosqichi.
2. O'zbekistonda fuqarolik jamiyatining konseptual asoslarining shakllanishi.
3. O'zbekistonda ko'ppartiyaviylik tizimining shakllanishi va uning ahamiyati. Siyosiy partiyalar faoliyatidagi xususiyatlar.
4. O'zbekistonda parlament tizimi va undagi islohotlar.
5. O'zbekistonda nodavlat-notijorat tashkilotlari va ularning siyosiy, ijtimoiy hamda iqtisodiy jarayonlardagi ishtiroki. Ijtimoiy sherikchilik.
6. O'zini o'zi boshqarish organlarining faoliyati va ularning jamiyatni demokratlashtirishdagi o'rni.
7. O'zbekistonda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. Inson haq-huquqlarini ta'minlash va himoya qilish.

1. Fuqarolik jamiyati – taraqqiyotning yuqori bosqichi

Mustaqillikka erishganimizdan keyin bozor iqtisodiyotiga asoslangan mustaqil demokratik davlat barpo etish, inson manfaatlari, huquq va erkinliklari, qonun ustuvorligi hamda mamlakatimizning barcha fuqarolari uchun qonun oldida tenglik ta'minlanadigan fuqarolik jamiyatini shakllantirish strategik maqsad sifatida belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov "Bizning bosh strategik maqsadimiz qat'iy va o'zgarmas bo'lib, bozor iqtisodiyotiga asoslangan erkin demokratik davlat barpo etish, fuqarolik jamiyatining mustahkam poydevorini shakllantirishdan iborat" deb ta'kidlagan edi.

Fuqarolik jamiyati tushunchasi – kishilik jamiyatining asrlar mobaynida shakllangan tafakkur mahsuli bo'lib, inson huquqlari va erkinliklarining holati bilan belgilanadi. Fuqarolik jamiyatining poydevorini yaratish va uni amalda shakllantirish uchun, avvalo, u

haqdagi g'oyalar genezisini, asoslarini bilish lozim. Fuqarolik jamiyati ma'lum asoslar, xususan, iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, huquqiy, ma'naviy asoslar bilan shakllanishi mumkin. Bular quyidagilardan iborat:

iqtisodiy asos – shaxs va jamiyat manfaatlarining umumiyligiga asoslangan mulk shakllarining xilma-xilligi, iqtisodiy plyuralizm, ko'p ukladlilik, erkin bozor munosabatlari. Qaysiki jamiyatda uning har bir a'zosi, qandaydir mulkka ega bo'lishi, o'z xohishi bilan tasarruf etish, sarflash huquqiga ega bo'lishi, xususiy mulk daxlsizligi, davlat tomonidan kafolatlangan tadbirkorlik, mehnat va iste'mol faoliyati erkinligining ta'minlanganligi;

ijtimoiy-siyosiy asos – mustaqil davlatlarning tashkil topishi, iqtisodiy va siyosiy hokimiyatning ajratilishi. Insonlarning o'z maqsadlarini himoya qilish maqsadida ma'lum tashkilotlarga birlashishi, hokimiyatlar turli-tuman markazlar, tashkilotlar, siyosiy institutlar qo'lida jamlangan bo'lsa, ular bir-birini cheklaydi va muvozanatga solib turadi. Siyosiy plyuralizm, davlat hokimiyati funksiyalarining sekin-asta fuqarolik jamiyati institutlariga berib borilishi. "Kuchli davlatdan – kuchli jamiyat sari" tamoyilining namoyon bo'lishi;

huquqiy asosi – inson uchun ahamiyatli bo'lgan ozodlik, tenglik, adolat qadriyatlarining qaror topishi, yuridik tenglikning ta'minlanishi va ularga huquq hamda erkinliklar berish orqali qonun yo'li bilan tan olinishi;

ma'naviy asos – insonlar o'z qadr-qimmatiga, jamiyatning asosiy qadriyatlari himoyasida tura oladigan, zaruriyat tug'ilganda ular uchun kurasha oladigan bo'lishlari, vijdon erkinligi, axloqiy normalarga rioya qilish, yagona mafkura, dunyoqarashning yakka hokimligining mavjud emasligi, ijtimoiy jarayonlarni demokratlashtirishda bevosita va bilvosita ishtirok etishadi.

O'zbekistonda yangi jamiyatni rivojlantirish islohotlari jarayonida jahondagi turli mamlakatlarda fuqarolik jamiyati asoslarining yaratilishi turli darajada va davrlarda amalga oshirilganligining nazariy va amaliy jihatlarini, tajribalarini o'rganish muhim ahamiyatga egadir. Chunki fuqarolik jamiyatining bu progressiv jihatlarini (tamoyillari va belgilari) sinalgan tajriba

sifatida o'tish davrini o'z boshidan kechirayotgan mamlakatlarda fuqarolik jamiyati qurishda e'tiborga olishga imkon beradi.

Aslini olganda, "fuqarolik jamiyati" atamasi turli xorijiy adabiyotlarda alohida mazmun kasb etgan tushuncha bo'lib, u hozirgi davr talqinida jamiyatning muayyan shakli (holati va xususiyati)ni, uning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va huquqiy tabiatini, rivojlanish darajasini ifodalaydi. Fuqarolik jamiyatini shakllantirish masalalari doimo davlatni takomillashtirish, huquq va qonunning rolini yuksaltirish muammolarini hal etish bilan chambarchas tarzda o'zaro bog'liqdir.

Ma'lumki, yetuk fuqarolik jamiyatisiz huquqiy demokratik davlat qurish mumkin emas, chunki ongli erkin fuqarolargina kishilik jamiyatining eng oqilona shakllarini yaratishga qodirdirlar. Shunday qilib, fuqarolik jamiyati erkin individ va markazlashgan davlat xohish-irodasi o'rtasida bog'lovchi bo'g'in hisoblansa, davlatning vazifasi parchalanish, tartibsizlik, tanglik, tanazzulga qarshi ish ko'rish, erkin shaxsning huquq va erkinliklarini ro'yobga chiqarish uchun shart-sharoitlar yaratishdan iborat.

Bu haqda so'z borar ekan, aytish mumkinki, mustaqillikning dastlabki kunlaridan boshlab O'zbekiston demokratiyani o'z taraqqiyotining bosh yo'li sifatida tanladi. Demakki, fuqarolik jamiyati va demokratik huquqiy davlatni qurish davlat va jamiyat oldida muhim vazifa bo'lgan.

Fuqarolik jamiyati tushunchasini quyidagi jihatlarida ham ko'rishimiz mumkin. Ya'ni u:

- davlat hokimiyati tizimining ijtimoiy negizi;
- jamiyat a'zolari ijtimoiy faolligini shakllantirish, ta'minlash makoni;
- jamiyatni demokratlashtirishning ijtimoiy zamini;
- davlat hokimiyati idoralari tizimi vakolatlari ta'siri doirasini oqilona chegaralash va uning ustidan jamoatchilik nazoratini yo'lga qo'yish vositasi;
- kishilar o'rtasidagi iqtisodiy, ijtimoiy, ma'naviy munosabatlarning siyosiy lashmagan tomonlari;
- siyosiy tizim, davlat hokimiyati shakllanishining dastlabki negizi kabilarni ham tushunish mumkin.

Huquqiy davlat – bu shunday bir davlat hokimiyatidirki, u huquq normalariga binoan va ularning doirasida ish ko‘radi, bu normalarni buzish, bekor qilish yoki cheklashga jur‘at etmaydi, fuqarolar va ularning birlashmalarining uzviy tabiiy-tarixiy huquqlarini e‘tirof etadi.

Fuqarolik jamiyatining yuzaga kelishi inson huquqlari va fuqaro huquqlarining farqlanishini belgilab berdi.

Inson huquqlarini fuqarolik jamiyati, fuqaro huquqlarini – davlat ta‘minlaydi. Ikkala holatda ham shaxs huquqlari to‘g‘risida so‘z yuritiladi, biroq birinchi holatda ayrim inson sifatidagi shaxsning yashash, erkinlik huquqlari nazarda tutilsa, ikkinchi holatda – uning siyosiy huquqlari nazarda tutiladi.

Inson huquqlari va fuqaro huquqlari o‘rtasidagi farq muayyan asoslarga ega bo‘lib, ular quyidagilardan iborat:

1) inson huquqlari davlat tomonidan e‘tirof etilgani va qonun yo‘li bilan mustahkamlanganidan, ularning egasi – inson u yoki bu davlatga mansubligidan qat‘i nazar mavjud bo‘lishi mumkin. Fuqaro huquqlari esa mazkur shaxs qarashli bo‘lgan davlat tomonidan himoya qilinadi;

2) dunyoda hali anchagina odamlar umuman fuqarolik maqomiga ega emas (fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar, apatridlar). Binobarin, ular rasmiy darajada fuqaro huquqlariga emas, balki inson huquqlariga egadirlar. Fuqarolik jamiyatining vazifasi ijtimoiy hayotning rivojlanishini ta‘minlashdan iborat. Shu sababli, uning asosiy tarkibiy qismlarining vazifalari qatoriga bu jarayon normal kechishi uchun shart-sharoit yaratib beruvchi institutlar faoliyati tashkil etadi.

Fuqarolik jamiyatining asosiy qadriyatlarini oila, mulk, shaxs, erkinlik, huquq, ma‘naviyat, tartib, davlatchilik tashkil etadi. Bunda hammani va majburiy tartibda mulkdorlarga aylantirish nazarda tutilmaydi – ularning ko‘pchiligi buni xohlamaydi, biroq bunday imkoniyat har kim uchun saqlanishi lozim. Mulk har doim shaxs va butun jamiyat erkinligining bosh omili sifatida amal qiladi. Mulkka nisbatan hurmat mavjud bo‘lmagan joyda shaxsga nisbatan hurmat ham mavjud bo‘lmaydi.

Fuqarolik jamiyati tuzilmalari “yuqoridan” turib emas, balki “quyidan”, fuqarolarning tashabbusi bilan, ixtiyoriy asosda,

tabiiyki, muassislarning manfaatlari, qiziqishlari va moyilliklariga muvofiq tuziladi. Ularning erkinligi davlat tuzilmalariga qaram emaslikda, ichki qoidalar bilan nazarda tutilgan vazifalarni hal qilishga qaratilgan o'zini o'zi boshqarish faoliyatida namoyon bo'ladi.

Fuqarolik jamiyatining asosiy belgilari mavjud bo'lib, ular quyidagilardir:

- erkin individlar uyushmasi;
- o'zaro hamkorlikka asoslangan ijtimoiy tuzilma;
- murakkab tuzilishga ega bo'lgan plyuralistik tizim;
- o'zini o'zi rivojlantiradigan va o'zini o'zi boshqaradigan tizim.

Fuqarolik jamiyatining eng muhim omillari:

1) iqtisodiy erkinlik, mulk shakllarining rang-barangligi, bozor munosabatlari;

2) inson va fuqaroning tabiiy huquqlarini so'zsiz e'tirof etish va himoya qilish;

3) hokimiyatning qonuniyligi va demokratik xususiyati;

4) qonun va odil sud oldida hammaning tengligi, har bir shaxsning yuridik jihatdan ishonchli himoyalanganligi;

5) hokimiyatning uchga bo'linishi va hokimiyatlarning o'zaro aloqasi prinsipiga asoslangan huquqiy davlat;

6) siyosiy va mafkuraviy plyuralizm, konstruktiv muxolifatning mavjudligi;

7) so'z va matbuot erkinligi, ommaviy axborot vositalarining mustaqilligi;

8) fuqarolarning shaxsiy hayotiga davlatning aralashmasligi, ularning o'zaro majburiyatlari va burchlari;

9) sinfiy va milliy totuvlik, ijtimoiy sherikchilik;

10) odamlarning munosib turmush darajasini ta'minlovchi samarali ijtimoiy siyosat kabilardir.

Shunday ekan fuqarolik jamiyatini shakllantirish va rivojlantirish orqali ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniyat yo'nalishlaridagi masalalarni hal etish mumkin bo'ladi. Unda ko'pchilikning ishtirokini ta'minlash imkoniyati yaratiladi.

2. O'zbekistonda fuqarolik jamiyatining konseptual asoslarining shakllanishi

Suveren O'zbekiston tarixi hali nisbatan qisqa – respublika mustaqilligi 1991-yil 31-avgustda e'lon qilingan, biroq o'tgan vaqt ichida mamlakatimiz xalqaro miqyosda e'tirof etildi va jahon hamjamiyatidan munosib o'rin egalladi.

O'tmish ham, kelajak ham o'z holicha mavjud bo'lmashligini O'zbekiston fuqarolari yaxshi tushunadilar. Ular tarix qirg'oqlari oralig'ida, bir oqimda suzadilar, ularni tarixiy harakatning yagona subyekti – inson birlashtiradi.

Mustaqillikka erishganimizdan keyin bozor iqtisodiyotiga asoslangan mustaqil demokratik davlat barpo etish, inson manfaatlari, huquq va erkinliklari, qonun ustuvorligi hamda mamlakatimiz barcha fuqarolari uchun qonun oldida tenglik ta'minlanadigan fuqarolik jamiyatini shakllantirish strategik maqsad sifatida belgilangan.

Agar nazar tashlaydigan bo'lsak, 1991–2000-yillarda mamlakatda fuqarolik jamiyati qurishning poydevori – huquqiy davlatga xos bo'lgan qonunlar va boshqa huquqiy shart-sharoitlar shakllandi. Xususan, mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab O'zbekistonda xalqning davlat hokimiyatini boshqarishda ishtirok etishini ta'minlashning siyosiy-huquqiy asoslarining yaratilishiga alohida e'tibor qaratildi. O'zbekistonda yangi demokratik jamiyat asoslariga o'tish, totalitarizmdan meros bo'lib qolgan davlat va fuqaro munosabatlariga barham berish siyosatning ustuvor yo'nalishiga aylandi. Qisqa davrda mamlakatda “fuqaro – jamiyat – davlat” tizimi qonuniy asosga qo'yildi. Bu – siyosiy jihatdan keng va atroflicha tahlilga ega bo'lgan jarayon. Chunki uning mohiyati jamiyatda demokratik jarayonlarni amalga oshirishni nazarda tutadi, eng muhimi, fuqaro manfaati bilan davlat hokimiyatini boshqarish o'zaro muvofiqlashtiriladi. Bu jamiyatda insonning barcha huquqlari, xususan, davlat ishlarida qatnashish; e'tiqod erkinligi; yig'ilishlar; uyushmalar erkinligini amalda ta'minlash siyosiy voqelikka aylanadi. “Fuqaro” va “davlat” munosabatlaridagi mavjud begonlashish jarayonlariga barham berilib, ularning davlat hokimiyatini boshqarishga bo'lgan mas'ulligi hamda davlatning fuqarolar oldidagi javobgarligi vujudga keldi. Jumladan, bosh

Qomusimizning 32-moddasida belgilab qo'yilganidek, O'zbekiston Respublikasining fuqarolari jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda bevosita hamda o'z vakillari orqali ishtirok etish huquqiga egadirlar, deb belgilab qo'yiladi. Bunday imkoniyat jamiyatda demokratik institutlarning rivoji bilan ta'minlanadi.

Demokratik institutlar – jamiyat hayotida demokratik tamoyillarning qaror topishiga xizmat qiladigan tashkilotlar va tuzilmalar majmuasi. Tarixiy jihatdan ularni shartli ravishda demokratik mazmunga ega bo'lgan an'anaviy, ijtimoiy-siyosiy institutlar (davlat, siyosiy partiyalar, jamoat tashkilotlari, OAV) hamda faqat demokratik jamiyat sharoitida faoliyat yuritadigan maxsus institutlarga, masalan, inson huquqlariga amal qilinishini ta'minlovchi turli nodavlat tuzilmalarga ajratish mumkin.

Bugungi kunda O'zbekistonda fuqarolik jamiyati institutlarini shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan 200 dan ortiq qonun va qonunosti hujjatlari qabul qilindi. Bular jumlasiga asosiy hujjatlar sifatida "O'zbekiston Respublikasida jamoat birlashmalari to'g'risida" (1991-y.), "Kasaba uyushmalari, ularning huquqlari va faoliyatining kafolatlari to'g'risida" (1992-y.), "Nodavlat-notijorat tashkilotlari to'g'risida" (1999-y.), "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida" (1999-y.), "Siyosiy partiyalar to'g'risida" (1996-y.), "Jamoat fondlari to'g'risida" (2003-y.), "Siyosiy partiyalarni moliyalashtirish to'g'risida" (2004-y.), "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida" (1991-y.), "Nodavlat-notijorat tashkilotlari faoliyatining kafolatlari to'g'risida" (2007-y.), "Ommaviy axborot vositalari to'g'risida" (1997-y.), "Jamoatchilik nazorati to'g'risida", "Ijtimoiy sherikchilik to'g'risida" (2014-y.) O'zbekiston Respublikasi qonunlarini e'tirof etish mumkin. Jamiyatda NNT tizimining rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratildi. Muhimi, "uchinchi sektor" deb ataluvchi NNT jamiyatning asosiy institutlari sifatida namoyon bo'la boshladi.

Jahon tajribasidan ma'lumki, aholi fuqarolik jamiyati institutlari, ya'ni jamoat tashkilotlari, siyosiy partiyalar, NNT, ayollar va yoshlar uyushmalari, o'zini o'zi boshqarish organlari, ayniqsa, mahallalar, ommaviy-axborot vositalari kabi ijtimoiy tuzilmalar vositasida davlat va jamiyat ishlarini boshqarishda ishtirok etishlari uchun shart-sharoitlar yaratish talab etiladi.

O'zbekistonda ham fuqarolik jamiyati institutlari o'sib bordi: agar 1991-yilda respublikamizda 200 ta fuqarolik jamiyati institutlari – NNT qayd etilgan bo'lsa, 2000-yilga kelib ularning soni 2585 taga, 2013-yilda esa 6000 taga yetdi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2020-yil 11-fevral kuni korrupsiyaga qarshi kurashish hamda jamoatchilik nazorati tizimlarini takomillashtirish masalalari bo'yicha yig'ilish o'tkazdi. Shunda mamlakatimizda 10 mingdan ziyod nodavlat-notijorat tashkilotlari mavjudligi ta'kidlandi.

O'zbekistonda fuqarolik jamiyatini qurish va rivojlantirishga oid konseptual va strategik hujjatlarning qabul qilinishi 2000–2016-yillarni o'z ichiga oladi. Biroq, 2016-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev “Xalq davlat idoralariga emas, davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak” prinsipini o'rnatishga oid tashabbusi O'zbekistonda fuqarolik jamiyati rivojlanishining asosiy omili sifatida namoyon bo'ldi. Prezident tashabbusi bilan 2017-yil esa “Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili” deb e'lon qilindi. Albatta, xalq bilan doimiy muloqot – bu fuqarolik jamiyatining eng asosiy prinsipi edi. Lekin mamlakatda davlat hokimiyati organlari boshqaruvining ahvoli qandayligi, fuqarolarning bu haqda qanday fikrda ekanligini aniqlash lozim edi.

2016-yilning 28-dekabrida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to'g'risida”gi Farmoni e'lon qilindi. Unga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Prezidenti devoni ishlar boshqarmasining Fuqarolar qabulxonasi negizida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonasi hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida, shuningdek, har bir tuman va shaharda (tumanga bo'ysunuvchi shaharlardan tashqari) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining virtual qabulxonasi tuzildi. Bu borada aholi bilan doimiy muloqot qilish, ularni qiynayotgan muammolarni hal etishning yangi mexanizmlari va samarali usullarini joriy etishimiz darkor. Biz aholi eng ko'p murojaat qiladigan davlat idoralari faoliyatida odamlar bilan ishlash bo'yicha sifat jihatidan mutlaqo yangi tizimga o'tish haqida o'ylayapmiz”.

Albatta, 2017-yildan boshlab fuqarolik jamiyati qurishga yangicha qarashlar, bu sohadagi tub o'zgarishlar o'z natijasini bera boshladi. 10 oy ichida – 2017-yilning 21-iyuligacha Xalq qabulxonalariga bir millionta murojaat kelib tushdi. Hattoki, bu ko'lamdagi xalq muammolariga doir axborotlar olib, ularni tahlil etadigan institutlar g'arb davlatlari tarixida ham uchramaydi. Shu bilan birga murojaatlar ichida ularning bittasi ham davlat organlari e'tiboridan chetda qolmaydigan mexanizm o'z samarasini ko'rsatdi.

2017-yil 7-fevralda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida “davlat va jamiyat qurilishini takomillashtirishga yo'naltirilgan demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va mamlakatni modernizatsiya qilishda parlamentning hamda siyosiy partiyalarning rolini yanada kuchaytirish, davlat boshqaruvi tizimini isloh qilish, davlat xizmatining tashkiliy-huquqiy asoslarini rivojlantirish, “Elektron hukumat” tizimini takomillashtirish orqali davlat xizmatlari ko'rsatishning samaradorligini oshirish, jamiyatda qonun ustuvorligini ta'minlash” masalalariga alohida e'tibor qaratilgan.

2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini amalga oshirish natijasida mamlakatda fuqarolik jamiyati va uning institutlarini rivojlantirishga oid huquqiy asoslar takomillashtirildi va demokratlashtirildi. 2017-yil 15-avgustgacha Harakatlar strategiyasining ijrosi yuzasidan davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini rivojlantirishga qaratilgan 15 ta qonun va 700 dan ortiq boshqa normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Xususan, davlat va jamiyat qurilishi tizimini takomillashtirish sohasida zamonaviy talablar hamda ustuvor yo'nalishlarni inobatga olgan holda 16 ta vazirlik, idora va boshqa tashkilotlarning tuzilmasi, vazifa va funksiyalari qayta ko'rib chiqildi, 20 ta davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, boshqa tashkilotlar qayta tashkil etildi.

Bu kabi sa'y-harakatlar tizimli ravishda olib borilmoqda.

3. O'zbekistonda ko'ppartiyaviylik tizimining shakllanishi va uning ahamiyati. Siyosiy partiyalar faoliyatidagi xususiyatlar

Huquqiy-demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini shakllantirishning asosiy prinsiplaridan eng muhimi davlat hokimiyati organlarining umumxalq saylovlari asosida shakllantirilishi hamda fuqarolarning davlat va jamiyat ishlarida bevosita yoki o'zlari tomonidan saylab qo'yilgan vakillari orqali ishtirok etishi hisoblanadi. Bunda, eng avvalo, jamiyat bilan davlat o'rtasida o'ziga xos "ko'pri" vazifasini o'tovchi va fuqarolik jamiyatining eng muhim institutlaridan biri bo'lgan – siyosiy partiyalar asosiy rol o'ynaydi.

Siyosiy partiya – bu qarashlar, manfaatlar va maqsadlar mushtarakligi asosida tuzilgan, davlat hokimiyati organlarini shakllantirishda jamiyat muayyan qismining siyosiy irodasini ro'yobga chiqarishga intiluvchi hamda o'z vakillari orqali davlat va jamoat ishlarini idora etishda qatnashuvchi fuqarolarning ko'ngilli birlashmasidir. Siyosiy partiyalar turli tabaqa va guruhlarining siyosiy irodasini ifodalaydilar va o'zlarining demokratik yo'l bilan saylab qo'yilgan vakillari orqali davlat hokimiyatini tuzishda ishtirok etadilar.

Partiya so'zi lotincha "partio" so'zidan olingan bo'lib, "bo'lak, bo'laman, ajrataman" degan ma'noni anglatadi, ya'ni butunning bir bo'lagi, jamiyatning bir bo'lagi degan tushunchalarni beradi. Shuningdek, partiya deganda "g'oyaviy jihatdan maslakdosh, manfaatlari mushtarak bo'lgan, shuningdek, muayyan ishni bajarish uchun ajratilgan kishilar guruhi"ni tushunish mumkin.

Ekspertlarning fikrlariga ko'ra, siyosiy partiya – bu siyosiy ambitsiyaga ega bo'lgan shaxslar tomonidan tuzilgan va boshqariladigan hamda umumiy mafkura asosida birlashgan tarmoqdir (networks). Siyosiy partiyalar, eng avvalo, o'z elektorati manfaatlaridan, siyosiy mafkurasi va pozitsiyasidan kelib chiqib, siyosiy qarorlar qabul qilish jarayonlariga yetarlicha ta'sir o'tkazishlari hamda o'zining vakillari orqali davlatning markaziy va mahalliy ijroiya organlari ustidan jamoatchilik nazoratini o'rnatishda qatnashishlari lozim.

Mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab, erkin fuqarolik jamiyatini qurishni maqsad qilgan mamlakatimizda ko'ppartiyaviylik tizimiga o'tildi.

Aynan ko'ppartiyaviylik tizimi tanlanishini quyidagicha izohlash mumkin:

birinchidan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 12-moddasida: "O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy hayot siyosiy institutlar, mafkuralar va fikrlarning xilma-xilligi asosida rivojlanadi" mazmunidagi qoida mustahkamlangan va uning mazmuni ko'ppartiyaviylik tushunchasi bilan mutanosibdir;

ikkinchidan, salmoqli aholi soniga ega bo'lgan bu davlatda fikrlar, qarashlar ham xilma-xil bo'lishi tabiiy edi. Shuning uchun ham jamiyatda mavjud turli qatlamlar, guruhlarining manfaatini ifodalovchi hamda uni davlat boshqaruvida amalga oshishiga zamin yaratuvchi ko'ppartiyaviylik tizimi zarur deb tanlandi;

uchinchidan, jamiyatdagi barcha siyosiy kuchlar, ijtimoiy tabaqalarning keng ishtirokini ta'minlovchi ko'ppartiyaviylikka asoslangan saylov davlat hokimiyati vakillik organlarini tashkil etishning demokratik ko'rinishi hisoblanadi.

Shunday ekan, mamlakatda fuqarolik jamiyati institutlarining muhim qismi bo'lgan siyosiy partiyalarning faoliyatiga oid yetarli tashkiliy-huquqiy asoslari mustahkamlangan.

1991-yil 15-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasida Jamoat birlashmalari to'g'risida"gi Qonunning birinchi moddasida: "O'z huquqlari, erkinliklarini hamda siyosat, iqtisodiyot, ijtimoiy rivojlanish, fan, madaniyat, ekologiya va hayotning boshqa sohalaridagi qonuniy manfaatlarini birgalikda ro'yobga chiqarish uchun birlashgan fuqarolarning xohish-irodalarini erkin bildirishlari natijasida vujudga kelgan ixtiyoriy tuzilma jamoat birlashmasidir. Siyosiy partiyalar, ommaviy harakatlar, kasaba uyushmalari, xotin-qizlar, yoshlar va bolalar tashkilotlari, veteranlar va nogironlar tashkilotlari, ilmiy-texnikaviy, madaniy-ma'rifiy, jismoniy tarbiya, sport va boshqa ko'ngilli jamiyatlar, ijodiy uyushmalar, yurtdoshlar uyushmalari, assotsiatsiyalar va fuqarolarning boshqa birlashmalari jamoat birlashmalari deb e'tirof etiladi", degan qoidada o'z ifodasini topgan.

Siyosiy partiyalarning huquqiy asosi sifatida yana O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 34-moddasida: "O'zbekiston Respublikasi fuqarolari kasaba uyushmalariga, siyosiy partiyalarga va boshqa jamoat birlashmalariga uyushish, ommaviy harakatlarda ishtirok etish huquqiga ega"ligi to'g'risida qoida belgilandi.

Asosiy qonunning 58-moddasida davlat siyosiy partiyalarning huquqlari va Qonuniy manfaatlariga rioya etilishini ta'minlashi, ularga ijtimoiy hayotda ishtirok etish uchun teng huquqiy imkoniyatlar yaratib berishi lozimligi, shuningdek, davlat organlari va mansabdor shaxslar tomonidan siyosiy partiyalar faoliyatiga aralashishiga yo'l qo'ymasligi ham mustahkamlangan.

Siyosiy partiyalar fuqarolik jamiyati va huquqiy davlatning ajralmas belgisi hisoblanar ekan, siyosiy partiyalar muhim konstitutsiyaviy institut ekanini namoyon qiladi. Buning asosi sifatida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida siyosiy partiyalar huquqiy maqomini belgilab beruvchi alohida "Jamoat birlashmalari" deb nomlangan XIII bobning mavjudligi, unda jamoat birlashmalari turi sifatida siyosiy partiyalar haqidagi tegishli moddalarning kiritilishi Asosiy Qonunning hayotiyligidan, jamiyatdagi mavjud munosabatlarni tartibga solishga qaratilganligidan dalolat beradi.

Umuman olganda, Asosiy Qonunning 13 ta (ya'ni 10, 12, 32, 34, 56, 57, 58, 60, 62, 106, 108, 112, 120) moddalarida siyosiy partiyalar bilan bog'liq normalar haqida so'z yuritiladi.

Siyosiy partiyalar huquqlari O'zbekiston Respublikasining "Siyosiy partiyalar to'g'risida"gi Qonunining 12-moddasida mustahkamlangan, ya'ni:

- o'z faoliyati to'g'risida axborotni erkin tarqatish, o'z g'oyalari, maqsadlari va qarorlarini targ'ib etish;

- saylab qo'yiladigan davlat organlaridagi o'z vakillari orqali tegishli qarorlarni tayyorlashda ishtirok etish;

- qonunlarda belgilab qo'yilgani kabi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti davlat hokimiyati organlari saylovlarida ishtirok etish;

- partiya faoliyati bilan bog'liq yig'ilishlar, konferensiyalar va boshqa tadbirlar o'tkazish;

– qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda ommaviy axborot vositalari ta'sis etish va boshqa ommaviy axborot vositalaridan foydalanish;

– O'zbekiston Respublikasining siyosiy partiyalari bilan ittifoq (blok) tuzish, ular va boshqa jamoat birlashmalari bilan shartnoma munosabatlarini o'rnatish;

– qonunlarda nazarda tutilgan boshqa huquqlardan ham foydalanish mumkin.

Bundan kelib chiqib aytish mumkinki, siyosiy partiyalarning boshqa nodavlat-notijorat tashkilotlaridan farqi hech bir NNTi yoki jamoat tashkiloti o'z oldiga hokimiyatga erishishni maqsad qilmaydi. Bunga faqat siyosiy partiyalar haqli.

Siyosiy partiyalarning o'ziga xos muhim belgilari quyidagilardan iborat:

- muayyan rasmiy tashkilot sifatida mavjudligi;
- ma'lum bir faoliyat dasturiga egaligi;
- alohida ijtimoiy maqomga egaligi;
- jamiyat siyosiy hayotiga bevosita ta'sir ko'rsatishi;
- o'z nomzodlari bilan saylov kompaniyasini tayyorlash va o'tkazishdagi muhim roli;
- davlat boshqaruvchini shakllantirish va uning amal qilishidagi ishtiroki;
- muayyan ijtimoiy bazaning mavjudligi;
- muayyan iqtisodiy asosga ega ekanligi;
- o'zining ramziy belgisiga egali va h.k.

Ma'lumot uchun aytish mumkinki, demokratik rivojlanish yo'lini tanlagan davlatlarda mingdan ortiq siyosiy partiyalar faoliyat olib boradi.

Agar siyosiy partiyalarning vujudga kelish tarixiga qisqacha to'xtalib, tushuncha hosil qilsak, zamonaviy partiyalar Angliyada XVII asrda vujudga kelganiga guvoh bo'lamiz. Ammo 1832-yil saylov islohotidan keyingina hozirgi ko'rinishni olgani ham ma'lum. AQSHda partiyalar 1830-yillarda, prezident Jekson davrida tashkil topgan. Fransiya va Yevropaning boshqa mamlakatlarida parlament guruhleri va siyosiy klublarning ommaviy tashkilotlarga aylanishi 1848-yil inqilobi bilan bog'liqdir. Sharq mamlakatidan esa Yaponiyada vujudga kelgan.

O'zbekiston hududida-chi? Mustaqillik uchun kurash jarayonida vujudga kelgan bir qator siyosiy harakatlarga to'xtalib o'tsak, ular "Birlik" harakati, "Erk" partiyasidir. Ularning faollari, asosan, yozuvchi va olimlardan iborat bo'lgan. Xususan, 1988-yil 11-noyabrda Abdurahim Po'latov, Muhammad Solih tomonidan asos solingan edi. Chunki o'sha vaqtda sobiq Ittifoqning g'arbiy hududlarida ijtimoiy harakatlar faollashgan edi. Xususan, Boltiqbo'yi respublikalarida "Sayudis" va boshqa harakatlar paydo bo'lgan edi. "Birlik" harakati dastlab til, milliy ma'naviyat kabi masalalarni ko'tarib chiqsa-da, so'ngra siyosiy liderlari "shaxsiy manfaati yo'lida" kurash boshlab, davlat va jamiyat faoliyatiga xavf tug'dira boshladi. So'ngra ularning faoliyati tugadi.

Keyin esa davlat va jamiyat rivojini ko'zlab siyosiy partiyalar tashkil topa boshladi. Ularning aniq maqsad va dasturlari mavjud edi.

Bugungi kunda O'zbekistonda beshta siyosiy partiya rasman ro'yxatdan o'tgan holda faoliyat olib bormoqda, bular: O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi; "Adolat" sotsial-demokratik partiyasi, "Milliy tiklanish" demokratik partiyasi va O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasi hamda O'zbekiston Ekologik partiyasidir.

O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi (O'zXDP) 1991-yilda O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng tashkil qilingan birinchi siyosiy partiya. Mazkur partiyaning ko'p jihatdan sobiq kommunistik partiyaning merosxo'ri sifatida ham e'tirof etadilar. O'zXDP 1991-yil 1-noyabrda rasman ro'yxatga olingan. Rasmiy ma'lumotlarga qaraganda bugungi kunda partiyaning a'zolari soni 500 mingga yaqin. Joylarda partiyaning 11 mingdan ortiq boshlang'ich partiya tashkilotlari faoliyat olib boradi. O'zXDP markaziy kengashi raisi – Ulug'bek Inoyatovdir.

Partiya ustavida uning asosiy maqsadi – davlat hokimiyatining vakillik organlarida davlat va jamiyat tomonidan manzilli ijtimoiy himoya va ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga ehtiyojmand aholi qatlamlari manfaatlarini himoya qilishdan iborat ekanligi belgilab qo'yilgan. Partiyaning matbuot organi – "O'zbekiston ovozi" va "Голос Узбекистана" gazetolari.

"Adolat" sotsial-demokratik partiyasi 1995-yil 18-fevralda tashkil topgan. Bugungi kunda 400 ming a'zosi bor. Respublika

hududlarida 5 mingga yaqin boshlang'ich partiya tashkilotlariga ega. Partiya siyosiy kengashining raisi – Bahrom Abdurahmonov. Matbuot organi – “Adolat” ijtimoiy-siyosiy gazetasi. Partiya ustavida belgilangan asosiy maqsadi – huquqiy-demokratik davlat, ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotiga asoslangan kuchli adolatli fuqarolik jamiyatini barpo etish hamda O'zbekiston hududida yashayotgan barcha millat va elatlarning umumiy manfaatlariga mos keladigan, fuqarolarning qonun oldida tengligi, birdamligi, konstitutsiyaviy huquq va erkinliklari ta'minlangan ma'naviy jipslashgan jamiyatni shakllantirishda faol ishtirok etish deya belgilangan.

“Milliy tiklanish” demokratik partiyasi 2008-yil 20-iyunda Milliy tiklanish va Fidokorlar partiyalarining birlashuvi asosida shakllangan. Partiyaning a'zolari soni 490 mingga yaqin. “Milliy tiklanish” partiyasi markaziy kengashi raisi – Alisher Qodirov.

Partiya ustaviga muvofiq asosiy maqsadi – O'zbekiston Respublikasi fuqarolarida milliy o'zlikni anglashning o'sishi, milliy g'urur, vatanga sadoqat va muhabbat tuyg'usini shakllantirish hamda mustahkamlash uchun qulay sharoitlar yaratish ekanligi ta'kidlanadi. Siyosiy partiyaning matbuot organi – “Milliy tiklanish” gazetasi.

Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati – O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasi (O'zLidep) 2003-yilning 15-noyabrida tuzilgan. Partiya o'zining asosiy maqsadi sifatida – tadbirkorlar, ishbilarmonlar va fermerlarning yanada kengroq faoliyat yuritishlari uchun yangi imkoniyatlar yaratish, ularning istiqbolini ham nazariy, ham amaliy jihatdan asoslab berish, jamiyatning mazkur qatlami manfaatlarini himoyalash va ertangi kunini ta'minlash ekani qayd etiladi. O'zLidepning a'zolari soni 700 ming nafarni tashkil etadi. Partiya siyosiy kengashi raisi – Aktam Xaitov. Matbuot organi – “XXI asr” ijtimoiy-siyosiy gazetasi.

O'zbekiston Ekologik partiyasi – dastlab harakat ko'rinishida faoliyat olib borgan bo'lsa-da 2018-yildan siyosiy partiya sifatida ro'yxatdan o'tib, 2019-yildagi ilk saylovlarda ishtirok etdi. Uning markaziy kengash raisi – Narzulla Oblomurodovdir. Partiya toza ekologik muhit yaratish, tabiatni asrash va uning sofligini ta'minlashni maqsad qiladi.

So'nggi yillarda O'zbekistonda ko'ppartiyaviylik tizimini shakllantirish va faoliyati samaradorligini oshirish borasida yetarlicha huquqiy asoslar yaratildi deyishimiz mumkin. Jumladan, O'zbekiston Respublikasining "Siyosiy partiyalar to'g'risida"gi, "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to'g'risida"gi, "Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylov to'g'risida"gi, "Siyosiy partiyalar faoliyatini moliyalashtirish to'g'risida"gi, "Davlat boshqaruvini yangilash va yanada demokratlashtirish hamda mamlakatni modernizatsiya qilishda siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirish to'g'risida"gi qonunlari hamda O'zbekiston Respublikasi Saylov kodeksini alohida ta'kidlash lozim.

Bundan tashqari 2018-yilning 4-oktabr kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Saylov jarayoniga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori qabul qilindi. Unga ko'ra, respublikada saylovchilarning yagona elektron ro'yxatini shakllantirish hamda barcha darajadagi saylovlar tizimiga Saylov jarayonini boshqarish axborot tizimini ishlab chiqish va joriy qilish vazifalari belgilab berildi.

Chunki siyosiy partiyalar o'z maqsadlarini amalga oshirish uchun saylovlarda munosib ishtirok etishi lozim.

Siyosiy partiyalar va saylov tushunchalari o'zaro bir-biriga bog'liq, bir-birini taqozo qiladigan tushunchalardir. Chunki siyosiy partiyalar aynan saylovlar orqali o'z tarafdorlarini aniqlaydi, kim unga ovoz beryapti, kim uning g'oya va dasturlarini qo'llab-quvvatlayapti – bularning barchasini amalda ko'rishga muvaffaq bo'ladi. Siyosiy partiyalarning fuqarolarni o'z dasturiy g'oyalariга ishonтира olgani, kimning manfaatlarini ifoda qilgani, shu bilan birga, kimning ularga ergashayotgani, kimlar ishonch bildirgani faqat saylov natijalariga ko'ra ayon bo'ladi. Aynan saylov paytida siyosiy partiyalar o'zlarining asosiy va ustuvor qarashlari, islohotlarni qanday amalga oshirish borasidagi g'oyalarini ilgari suradilar.

Saylovlar partiyalar uchun sinov vazifasini o'taydi, partiya g'oya va maqsadlarining yashovchanligi, ularning jamiyat

hayotidagi o'zni, mamlakatni isloh etishdagi ishtiroki aynan saylovlar jarayonida yaqqol namoyon bo'ladi.

Shunday ekan, siyosiy partiyalar faoliyati va davlat qurilishida muhim bo'lgan saylovlarni ko'ppartiyaviylik asosida o'tkazish, saylovchilar tanlovi uchun bir necha nomzodlar kurashini taqozo qiladi. Saylovchilarga, ya'ni xalqqa ushbu nomzodlardan tanlab olish huquqi beriladi.

Chunki siyosiy partiya va saylov jarayonlari yonma-yon keladi. Bu haqda O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimov saylov va siyosiy partiyalarning o'zaro bog'liqligiga shunday baho beradi: "Agar har qaysi partiya muayyan ijtimoiy toifa yoki guruhning manfaatini ifoda etadigan bo'lsa, demokratiyaning eng ta'sirchan mexanizmi bo'lgan saylovlar hisobidan dasturini amalga oshirish, o'z maqsadiga yetish imkoniga ega bo'ladi. Demokratiya va saylov tushunchalari doimo yonma-yon yuradi, ular o'zaro birlashib ketgan. Saylov – demokratiya degani. Demokratiya – bu saylov deganidir" degan edi.

Saylov ovoz berish orqali davlat organlari, mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari va boshqa tuzilmalarni tashkil etish vositasidir. Fuqarolarning o'z saylov huquqini amalga oshirishi – ularning davlatni boshqarishda ishtirok etishining eng muhim shakllaridan biri. Saylov o'tkazishning asosiy qoida va prinsiplari, odatda, har bir davlating konstitutsiyasi va boshqa huquqiy hujjatlarda belgilanadi. Saylov turli ko'rinishda bo'ladi. Unda aholi qatnashishi yoki ularning vakillari ishtirok etishi mumkin. Saylov ochiq yoki yashirin ovoz berish yo'li bilan o'tkaziladi. Qaysi organ saylanayotganiga qarab parlamentga yoki prezidentlikka saylov, parlamentning umumiy yoki bir qismi uchun saylov o'tkazilishiga qarab yalpi yoki qisman saylov bo'lishi mumkin. Hududga qarab umumdavlat yoki mahalliy; o'tkazilish vaqtiga qarab navbatdagi yoki muddatdan oldingi; bir partiyali, ko'ppartiyali yoki partiyasiz; muqobillik asosida va nomuqobil (agar yagona nomzod ko'rsatilsa); to'g'ridan-to'g'ri yoki ko'p bosqichli; asosiy yoki takroriy saylov o'tkazilishi mumkin. Shuningdek, "saylov" tushunchasi biron-bir organni (davlat, jamoatchilik, xalqaro va hokazolar) ovoz berish yo'li bilan shakllantirish demakdir.

Shuningdek, amaldagi siyosiy partiyalarning 1994-, 1999-, 2004-, 2009-, 2014-, 2019-yillardagi Oliy Majlis va xalq deputatlari mahalliy kengashlariga bo'lib o'tgan saylovlarda ishtiroki va saylovlar jarayonida o'ttirilgan o'ziga xos tajribasi ham O'zbekistonda ko'ppartiyaviylik tizimining rivojiga ijobiy ta'sir etadi, albatta.

Siyosiy partiyalar va saylovga oid yana bir jihat saylovoldi tashviqot – saylov kompaniyasi davrida amalga oshiriladigan va saylovchilarni nomzodni yoki siyosiy partiyani yoqlab ovoz berishga undashga qaratilgan faoliyatdir.

Saylovoldi tashviqot nomzodlarni ro'yxatga olish uchun belgilangan oxirgi kunning ertasidan e'tiboran boshlanadi. Saylov kuni va ovoz berishga bir kun qolganda tashviqotga yo'l qo'yilmaydi. Bu jarayonlar barcha siyosiy partiyalarning saylov natijalarida asosiy o'rin tutadi.

Zero, saylovlar haqida gap ketar ekan, 2019-yil 25-iyun kuni saylovlarga doir yana bir o'zgarish bo'ldi. O'zbekiston tarixida ilk bor Saylov kodeksi qabul qilindi. Ushbu kodeks bilan tarqoq holdagi 5 ta qonun ("O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi to'g'risida", "Fuqarolarning saylov huquqlari kafolatlari to'g'risida", "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to'g'risida", "Xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashlariga saylov to'g'risida", "O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi to'g'risida"gi) va Markaziy saylov komissiyasining saylovlarni tashkil etish va o'tkazishga oid o'nlab qaror va yo'riqnomalari o'z kuchini yo'qotdi.

Shuningdek, 2021-yilda Saylov kodeksiga tegishli o'zgartishlar kiritish to'g'risidagi qonun bilan prezident saylovlari bo'lib o'tadigan kun dekabr oyidan oktabr oyiga ko'chirildi. Shundan kelib chiqib 2021-yil 24-oktabr kuni bo'lib o'tgan mustaqil O'zbekiston tarixidagi oltinchi prezident saylovida saylovchilar ro'yxatiga kiritilgan 20 million 158 ming 907 nafar saylovchidan 16 million 212 ming 343 nafari (80,4 foizi) qatnashdi.

Shuningdek, shu yildagi prezident saylovida 887 ming 686 nafar yoshlar hamda uncha og'ir bo'lmagan yoki ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan jinoyatlarni sodir etgan 8 203 nafar mahkum ham birinchi marta ovoz berishi ma'lum qilindi.

Ovozlar berilishi quyidagicha taqsimlandi: Shavkat Mirziyoyev ("O'zLiDeP") – 80,12 foiz ovoz, Maqsuda Vorisova (XDP) – 6,63 foiz ovoz, Alisher Qodirov ("Milliy tiklanish" DP) – 5,48 foiz ovoz, Narzullo Oblomurodov ("Ekopartiya") – 4,14 foiz ovoz, Bahrom Abduhalimov ("Adolat" SDP) – 3,39 foiz ovoz bilan yakunlandi.

MSK joriy yilgi prezident saylovini yigirmaga yaqin xalqaro tashkilotlardan va ellikka yaqin xorijiy davlatlardan jami mingga yaqin xalqaro kuzatuvchi hamda mahalliy va xorijiy mamlakatlar ommaviy axborot vositalarining 1 ming 672 nafar vakili bevosita kuzatib va yoritib borganini qayd etib, bu O'zbekistonda o'tgan saylovlar tarixidagi rekord ko'rsatkich ekanini ta'kidladi.

Bunda fuqarolar faol va munosib ishtirok etdi. Bu ham jamiyatda fuqarolik institutlarining rivojidan darak beradi.

4. O'zbekistonda parlament tizimi va undagi islohotlar

Ma'lumki, qonunchilik hokimiyatining yaqin tarixi, ya'ni ikki palatali davri haqida to'xtalib o'tadigan bo'lsak, 2002-yilgi umumxalq referendumidan so'ng mamlakat tarixida birinchi marta Qonunchilik palatasi (quyi palata) hamda Senat (yuqori palata)dan iborat bo'lgan ikki palatali parlament tizimiga o'tildi. Besh yil o'tib parlament siyosiy partiyalar rolini kuchaytirishga qaratilgan konstitutsiyaviy qonunlarini qabul qildi. Birinchi marta siyosiy partiya fraksiyalari parlamentda muxolifatni shakllantirish va muqobil qonun loyihalarini hamda milliy taraqqiyot dasturlarini ilgari surish imkoniyatiga ega bo'ldi. 2008-yilda Qonunchilik palatasi a'zolari soni 120 dan 150 taga oshirildi va nomzodlar faqat siyosiy partiyalar tomonidan ilgari surilishi mumkinligi belgilab qo'yildi.

2008–2014-yillarda demokratik islohotlarni yanada kuchaytirish va davlat hokimiyatining uch bo'g'ini o'rtasidagi muvozanatni yaxshilash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga bir qator o'zgartishlar kiritildi. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi o'rtasida ziddiyatlar doimiy tus olgan holda Qonunchilik palatasi deputatlari umumiy sonining kamida uchdan bir qismi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti nomiga rasman kiritilgan taklif bo'yicha O'zbekiston

Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qo'shma majlisi muhokamasiga Bosh vazirga nisbatan ishonchsizlik votumi bildirish haqidagi masala kiritiladi. Bosh vazirga nisbatan ishonchsizlik votumi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi deputatlari va Senati a'zolari umumiy sonining kamida uchdan ikki qismi ovoz bergan taqdirda qabul qilingan hisoblanadi.

Bunday holatda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Bosh vazirni lavozimidan ozod etish to'g'risida qaror qabul qiladi. Bunda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining butun tarkibi Bosh vazir bilan birga iste'foga chiqadi.

2014–2016-yillarda qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud organlari faoliyatini takomillashtirish hamda davlat organlari bilan fuqarolik jamiyati institutlari o'rtasidagi o'zaro hamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan islohotlar amalga oshirildi. Masalan, 2016-yilning aprelida qabul qilingan "Parlament nazorati to'g'risida"gi qonunda parlament tomonidan nafaqat ijro etuvchi, balki huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyati ustidan nazorat shakllari va tartiblari belgilab berildi. Unga ko'ra, parlament eshituvlarini o'tkazish, parlament va deputatlar tomonidan so'rovlar yuborish, Qonunlar qabul qilinganidan so'ng ularning amalga oshirilishini monitoring qilish amaliyoti kiritildi. Qonunchilik palatasida Oila va ayollar masalalari bo'yicha, Yoshlar masalalari bo'yicha komissiyalar, Fuqarolarning sog'lig'ini saqlash masalalari qo'mitasi tuzildi; Senat tarkibida esa Prokuratura organlari faoliyati ustidan nazorat qiluvchi komissiyasi tuzildi hamda Vazirlar Mahkamasining parlamentdagi vakolatli vakili lavozimi joriy etildi.

Davlat boshqaruvi sohasidagi keng ko'lamli islohotlar mavzusi dastlab Prezident Sh.Mirziyoyevning 2017-yil parlamentga qilgan murojaatida ko'tarilgan. Ilgari surilgan islohotlarning ko'pi aynan parlament roliga aloqador bo'lib, bu borada u shunday degan edi:

Mamlakatimiz parlamenti haqiqiy demokratiya maktabiga, islohotlarning tashabbuskori va asosiy ijrochisiga aylanishi zarur.

Prezident, shuningdek, Qonunchilik muammolari va parlament tadqiqotlari institutining (QMPTI) tashkil etilishiga alohida to'xtalib o'tdi: "Biz yaqinda Oliy Majlis huzurida Qonunchilik muammolari va parlament tadqiqotlari institutini tashkil etdik". Ushbu institut Oliy Majlisga kelayotgan turli takliflarni chuqur

tahlil qiladigan, ta'bir joiz bo'lsa, elakdan o'tkazadigan ilmiy markaz bo'lishi lozim.

5. O'zbekistonda nodavlat-notijorat tashkilotlari va ularning siyosiy, ijtimoiy hamda iqtisodiy jarayonlardagi ishtiroki.

Ijtimoiy-sherikchilik

So'nggi yillarda amalga oshirilgan islohotlar ijtimoiy taraqqiyotda nodavlat sektorining ahamiyatini yaqqol ko'rsatmoqda. Bugungi kunda eng chekka hududda yashayotgan fuqaro bilan mamlakat rahbari o'rtasida aloqani ta'minlashda aynan nodavlat sektori eng samarali mexanizm sifatida namoyon bo'layotganiga guvoh bo'lmoqdamiz.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 58-moddasiga ko'ra, davlat jamoat birlashmalarining manfaatlarini ta'minlaydi, ularga ijtimoiy hayotda ishtirok etish uchun teng huquqiy imkoniyatlar yaratib beradi.

Bu borada nodavlat-notijorat tashkilotlarining demokratik jarayonlardagi ishtirokini huquqiy ta'minlash, ularga qo'shimcha shart-sharoitlar yaratish mamlakatimizni ijtimoiy-siyosiy rivojlantirishning g'oyat muhim sharti hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov 2010-yil 12-noyabrdagi Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisida ilgari surgan Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirishga oid konsepsiyada boshqa sohalar qatori fuqarolik jamiyati institutlari, xususan, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining vakolatlarini kengaytirishga qaratilgan qonunchilikni takomillashtirish ustuvor vazifalardan biri ekanini alohida ta'kidladi. Chunonchi unda "Ijtimoiy sheriklik to'g'risida"gi Qonun qabul qilinishi lozimligi alohida ta'kidlandi.

Bu Qonun, eng avvalo, ijtimoiy, iqtisodiy, gumanitar sohalarida davlat idoralari bilan birga, fuqarolik jamiyati institutlarining o'zaro hamkorligini nazarda tutadi. Ya'ni jamiyat hayotining turli yo'nalishlarida istiqbolli dasturlar, loyihalarni amalga oshirishda nodavlat-notijorat tashkilotlarining ishtirok etishlari uchun muhim huquqiy asos bo'lib xizmat qiladi. Boshqacha aytganda, mazkur qonun hududlarni har tomonlama rivojlantirish, turli ijtimoiy

masalalar yechimini nodavlat tashkilotlari hamkorligida hal etishga sharoit yaratadi.

O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 28-moddasida ish beruvchilarning jamoat birlashmalari ixtiyoriy jamoat tashkilotlari sifatida tuziladi va ish olib boradi, ularning maqsadi iqtisodiyotni va tadbirkorlik tashabbusini rivojlantirish hamda samaradorligini oshirish, shuningdek, davlat hokimiyati va boshqaruv organlarida, kasaba uyushmalari, xodimlarning boshqa vakillik organlari bilan o'zaro munosabatlarda korxonalar va ular mulkdorlarining manfaatlarini ifoda etish yo'li bilan ijtimoiy sheriklikni amalga oshirish, xo'jalik va mehnatga oid munosabatlar sohasida ularning huquqlarini himoya qilishdan iboratdir, deb ko'rsatilgan. Ushbu kodeksning 52-moddasida esa jamoa kelishuvlarida ijtimoiy sheriklik hamda uch taraflama hamkorlikni rivojlantirish, jamoa shartnomalarini tuzishga ko'maklashish, mehnat nizolarining oldini olish, mehnat intizomini mustahkamlash to'g'risidagi qoidalar nazarda tutilishi mumkin, deyilgan.

Fuqarolik jamiyatini rivojlantirish uchun uning asosiy institutlaridan biri – jamiyatdagi ijtimoiy sheriklikni shakllantirish zarur. Hozirgi fuqarolik jamiyatiga transformatsiyasi jarayonini o'z boshidan kechirayotgan O'zbekistonda 2014-yil 25-sentabrda O'zbekiston Respublikasining "Ijtimoiy sheriklik to'g'risida"gi Qonuni qabul qilingan edi.

O'zbekistonda birinchi marta 2019-yilga kelib ijtimoiy sheriklikka doir asosiy prinsiplar va qoidalar Prezident Sh.M.Mirziyoyev tashabbusi bilan qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining "Kasaba uyushmalari to'g'risida" yangi tahrirda qabul qilingan Qonunda o'z ifodasini topdi. Unda xalqaro me'yoriy hujjatlar, rivojlangan mamlakatlar tajribasi, BMTning XMT konvensiyalariga muvofiq tarzda ifodalandi. Albatta, bu holat O'zbekistonda ijtimoiy-mehnat munosabatlarini fuqarolik jamiyati talablari asosida rivojlantirishning yangi bosqichi boshlanganligini bildiradi. Va nihoyat, "ijtimoiy sheriklik" tushunchasining mohiyati kasaba uyushmalari timsolida xodimlar, ish beruvchilar (ish beruvchilarning vakillari), davlat boshqaruv organlarining xodimlar, ish beruvchilar va davlatning ijtimoiy-mehnat masalalaridagi o'zaro sherikligi sifatida e'tirof etildi.

Mazkur Qonunning “Kasaba uyushmalarining asosiy huquqlari” 5-bobining 28, 30–32-moddalari xalqaro me’yoriy hujjatlar, XMT konvensiyalari talablari, rivojlangan davlatlar tajribalari asosida kasaba uyushmalarining ijtimoiy sheriklik va tomonlarning konsensusga erishishi jarayonlarini muvofiqlashtiradi. Jumladan, 28-moddada kasaba uyushmalarining asosiy huquqlari quyidagicha belgilangan:

ijtimoiy-iqtisodiy masalalarni hal qilishda ishtirok etish;

mehnat va ijtimoiy rivojlanish sohasida qonunlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarini ishlab chiqishda ishtirok etish va h.k.;

xodimlarning ijtimoiy-iqtisodiy huquqlari va manfaatlarini ifoda etish va himoya qilish;

jamoa muzokaralarini olib borish, jamoa shartnomalari va jamoa kelishuvlarini tuzish hamda ularning bajarilishi yuzasidan nazoratni amalga oshirish;

bandlikni ta’minlashga ko’maklashish;

xodimlarni ijtimoiy himoya qilishga yo’naltirilgan choralarni ko’rish;

mehnat va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish masalalari bo’yicha axborotlar olish;

mehnatni muhofaza qilish sohasida xodimlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish;

mehnat to’g’risidagi qonun hujjatlari va mehnatni muhofaza qilish qoidalariga rioya qilish ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish;

mehnat nizolarini ko’rib chiqishda xodimlar manfaatlarini himoya qilish;

mehnat va ijtimoiy rivojlanish sohasida xalqaro shartnomalarni tuzishda ishtirok etish.

Kasaba uyushmalari, kasaba uyushmalari birlashmalari va ularning organlari jamoa muzokaralari olib borish, manfaatlari ifoda etilayotgan xodimlar nomidan jamoa shartnomalari va jamoa kelishuvlari tuzish huquqiga ega.

Umuman olganda, O’zbekistonda ijtimoiy-mehnat munosabatlarini rivojlantirish, xususan, ijtimoiy sheriklikni fuqarolik jamiyatini rivojlantirish va jamiyatda barqarorlikni ta’minlashda muhim o’rin egallashini e’tiborga olib, davlatimiz va

O'zbekiston kasaba uyushmalari federatsiyasi tomonidan keyingi ikki yil ichida bu sohada chuqur islohotlar amalga oshirildi.

6. O'zini o'zi boshqarish organlarining faoliyati va ularning jamiyatni demokratlashtirishdagi o'rni

Fuqarolik jamiyati institutlari tizimida o'zini o'zi boshqarish organlarining o'rni beqiyosdir. Zero, boshqa mamlakatlardan farqli o'laroq, mahalla instituti yurtimizda ming yillar davomida sinalgan va chuqur ildiz otgan, aholini birlashtirib turadigan ijtimoiy hodisa sifatida rivojlanib kelmoqda. Ayniqsa, uning hozirgi bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida xalqimizning urf-odatlarini, an'analari va qadriyatlarini saqlab qolish, ularni jipslashtirish kafolati sifatida maydonga chiqayotganini yaqqol ko'rib turibmiz.

Mahallaning tuzilmasi va funksiyasi vaziyatga qarab asrlar davomida o'zgarib turgan, ammo u o'zini o'zi boshqarish tamoyilini saqlab qolgan, o'z hududida istiqomat qiluvchi kishilar o'rtasida ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni muvofiqlashtirib turgan.

Mahalla o'zini o'zi boshqarish organlarining eng yorqin ko'rinishi, ayni paytda fuqarolik jamiyatining asosi va tayanchi deb tan olingani bilan ham o'zining yuksak mavqeyiga ega. U yuksak madaniyat va kishilar o'rtasidagi munosabatlar ma'naviyatiga asoslanadi.

Mustaqillik yillarida mahalla hayoti bilan bog'liq ko'plab qadriyatlar, udum va an'alarimiz qayta tiklanib, zamon talablari asosida boyib bormoqda. Shu bilan birga, mahallaning huquq va vakolatlari kengaytirilmoqda, ular bugun o'zini o'zi boshqarish idorasi, haqiqiy demokratiya darsxonasi sifatida keng ko'lami faoliyat olib bormoqda.

Bu borada Janubiy Koreyaning Koreyashunoslik akademiyasining professori Xan Do Xyon ta'kidlaganidek, "O'zbekistonda mustaqillik yillarida mahallaning noyob tarixiy roli qayta tiklandi va boyidi. O'zbekistonning barcha hududida, katta shaharlar bilan bir qatorda, uzoq tumanlarda ham mahallalarning faoliyat ko'rsatayotgani O'zbekistonda davlat boshqaruvi xalq va davlatning yaqin hamkorligi asosida qurilganidan dalolat beradi. Mahalla instituti umuminsoniylik o'lchovida katta qadriyat kasb etadi. Shu bois uni YUNESKOning Umumjahon nomoddiy meros

obyektlari ro'yxatiga kiritish zarur, deb hisoblayman", deya fikr bildiradi.

O'zbek jamiyatida jamoa bo'lib yashashning eng oliy shakli mahalladir. O'zini o'zi boshqarishning mazkur shakli asrlar osha yashab kelmoqda. Mahalla mamlakatimizda ko'p asrlardan buyon mavjud bo'lsa-da, O'zbekiston davlat mustaqilligidan keyingina munosib ijtimoiy-huquqiy maqomga ega bo'ldi.

Xususan, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi qabul qilinishi bilan davlatchiligimiz tarixida birinchi marta "mahalla" tushunchasi Konstitutsiyamizga kiritilib, uning jamiyat boshqaruvidagi o'rni va maqomi qat'iy belgilab qo'yildi. Uning 32-moddasida O'zbekiston Respublikasining fuqarolari jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda bevosita hamda o'z vakillari orqali ishtirok etish huquqiga ega ekanliklari, bunday ishtirok etish o'zini o'zi boshqarish, referendumlar o'tkazish va davlat organlarini demokratik tarzda tashkil etish, shuningdek, davlat organlarining faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini rivojlantirish va takomillashtirish yo'li bilan amalga oshirilishiga oid norma o'z ifodasini topdi.

Shuningdek, "Mahalla" so'zi asli arabcha "joy", "o'rin", ma'nosini anglatadi. Respublika Konstitutsiyasining 105-moddasida shaharcha, qishloq va ovullardagi mahallalarda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarishning huquqiy o'rni belgilab qo'yilgan. Asosiy Qomusimizning 105-moddasi bilan fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining huquqiy asoslari yanada mustahkamlandi. Unga ko'ra, shaharcha, qishloq va ovullarda, shuningdek, ular tarkibidagi mahallalarda hamda shaharlardagi mahallalarda fuqarolarning yig'inlari o'zini o'zi boshqarish organlari bo'lib, ular ikki yarim yil muddatga raisni (oqsoqolni) va uning maslahatchilarini saylashi belgilandi.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi — xalq hokimiyatini amalga oshirishning shakllaridan biri sifatida fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining huquqiy maqomini belgilab berdi. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi nafaqat fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari tizimining huquqiy hujjatlarida, balki butun normativ-huquqiy hujjatlar ichida shoh

hujjat hisoblanib, jamiyatning butun ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy masalalari uning asosida tartibga solinadi.

Asosiy Qonunimizda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga alohida to'xtalib o'tilganligi, bu demokratik institutga nisbatan yuksak umid va ehtirom bildirilganligidir. Uning barqarorligi va ustunligi jamiyat siyosiy-huquqiy tizimida katta o'rin egallab, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari bilan chambarchas holda rivojlanadi. Chunki mamlakatimizda Konstitutsiyaning ustunligi fuqarolarning huquqiy ongi va madaniyatining yuksakligi bilan ta'minlanadi. Huquqiy ong va madaniyat esa jamiyatning eng dastlabki jabhasi bo'lgan mahallalarda, qolaversa, o'zini o'zi boshqarish organlarida fuqarolarning rivojlantirishi bilan taraqqiy etadi.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida sof nazariy nuqtayi nazardan fuqarolar o'zini o'zi boshqarishining umumiy maqomi belgilab berildi.

Konstitutsiya fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining tashkil etilish asoslari, ularning boshlang'ich faoliyati hamda jamiyatdagi o'rni va ahamiyatini birinchilardan bo'lib o'zida aks ettirdi. Konstitutsiya fuqarolar o'zini o'zi boshqarishining huquqiy asoslari ichida eng asosiy o'rinni egallaydi va quyidagi omillari bilan ajralib turadi:

– O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi – fuqarolarning o'zini o'zi boshqarishini xalq hokimiyati amalga oshuvining bir shakli sifatida tan oladi va kafolatlaydi;

– O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi – xalqaro huquqning umum e'tirof etgan normalariga asoslangan holda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining rivojlanishiga normal sharoit yaratib beradi;

– O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi – fuqarolarning mahalliy ahamiyatga molik masalalarini amalga oshirishda bevosita va bilvosita qatnashishini kafolatlaydi.

Ta'kidlash kerakki, 1992-yil 12-sentabrda O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning Farmoni bilan "Mahalla" Respublika xayriya jamg'armasi tashkil etilgani, 1993-yil 2-sentabrda "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida"gi Qonun qabul qilinishining o'ziyozq mahalla

institutining davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanayotganligining yorqin dalilidir. O'z navbatida, Qonunda umumiy qoidalar, fuqarolar yig'inini chaqirish tartibi, rais (oqsoqol) va uning maslahatchilarini saylash tartibi, o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatining iqtisodiy va moliyaviy negizi, o'zini o'zi boshqarish organlarining vakolatlari, o'zini o'zi boshqarish organlarining strukturasi va ularning faoliyatini tashkil etish, raisning vakolatlari kabi masalalar o'zining huquqiy yechimini topgan edi. Ushbu Qonun bilan milliy davlatchilik tarixi, huquqiy an'analarimiz va qadriyatlarimizga mos keladigan, xalqimizning xohish-irodasini aks ettiradigan, davlat va jamoat ishlarida aholining faol ishtirokini ta'minlaydigan fuqarolar o'zini o'zi boshqarish tizimining maxsus huquqiy kafolati yaratildi hamda mazkur sohani tubdan qayta qurishning huquqiy mezonlari belgilab berildi.

1995-yil 21-dekabrda tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksiga ham mahalla haqida alohida modda kiritilgan bo'lib (78-modda), unda qayd etilganidek, "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari yuridik shaxs sifatida fuqarolik-huquqiy munosabatlarning qatnashchilaridir".

Jamiyat taraqqiyoti takomillashgan sari hamda bozor munosabatlarga o'tish davrida, ayniqsa, fuqarolik jamiyatining vujudga kelishi bilan ushbu Qonunni ma'lum normalar bilan to'ldirish ehtiyoji sezildi. Shu boisdan 1999-yil 14-aprelda O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida" yangi tahrirdagi Qonuni qabul qilindi. Fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan hujjatlar jumlasiga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1998-yil 23-apreldagi "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarini qo'llab-quvvatlash to'g'risida"gi Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 19-apreldagi "Mahalla posboni" jamoat tuzilmalari va Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari huzuridagi yarashtirish komissiyalari to'g'risidagi Nizomlarni tasdiqlash haqida"gi qarori mamlakatimizda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari tizimining rivojlanishida muhim rol o'ynadi.

Konstitutsiyaning 100-moddasida mahalliy hokimiyat organlari ixtiyoriga berilgan vakolatli huquqlar: qonuniylikni, huquqiy

tartibotni va fuqarolarning xavfsizligini ta'minlash; hududlarni iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy rivojlantirish; atrof-muhitni muhofaza qilish; mahalliy kommunal xo'jalikka rahbarlik qilish; fuqarolik holati aktlarini qayd etishni ta'minlash; normativ hujjatlarni qabul qilish va qonunlariga zid kelmaydigan boshqa vakolatlarni amalga oshirish; mahalliy budjetni shakllantirish va uni ijro etish, mahalliy soliqlar, yig'implarni belgilash, budjetdan tashqari jamg'armalarni hosil qilishdir.

Viloyatlar hokimlari va Toshkent shahar hokimi Prezident tomonidan tayinlanadi va lavozimidan ozod qilinadi. Tuman va shaharlarning hokimlari tegishli viloyat hokimlari tomonidan tayinlanadi.

Shaharlardagi tumanlarning hokimlari tegishli shahar hokimlari tomonidan tayinlanadi va ishdan ozod qilinadi. Viloyat, tuman va shahar hokimlarining qarorlari Xalq deputatlari kengashlari tomonidan tasdiqlanadi.

Xalq deputatlari mahalliy Kengashlari davlat hokimiyatining vakillik idorasi bo'lib, hududni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga rahbarlik qiladi. Xalq deputatlari mahalliy Kengashlariga: shaharlardagi tuman, shahar va viloyat Kengashlari kiradi.

Mustaqillik yillarida hokimlik institutining tashkil qilinishi hududiy boshqaruv tizimining muvofiqlashishi va mexanizmining aniq faoliyat ko'rsatishida muhim qadam bo'ldi. 1993-yil 2-sentabrdagi "O'zbekiston Respublikasida mahalliy hokimiyat idoralarini qayta tashkil etish to'g'risida"gi Qonun bu borada tegishli huquqiy hujjat vazifasini o'tadi.

Qoraqalpog'iston Respublikasida xalq deputatlari tuman, shahar Kengashlari va tegishli hokimlarning faoliyati O'zbekiston Konstitutsiyasi, "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonun va Qoraqalpog'iston qonunlari bilan tartibga solinadigan bo'ldi.

1994-yil 4-yanvarda Oliy Kengashning 9-sessiyasida "O'zbekiston Respublikasida mahalliy hokimiyat idoralarini qayta tashkil etish to'g'risida"gi Qonun qabul qilindi. Toshkent shahri va 12 viloyatda 1992-yil davomida Prezident tavsiyasi asosida birinchi marta hokimlar tayinlandilar.

1995-yil sentabrda Prezident huzuridagi Davlat va jamiyat qurilishi Akademiyasi tashkil qilindi. Ushbu akademiyada o'tgan

faoliyat yillari davomida 2000 ga yaqin rahbar va tegishli mutaxassis kadrlar o'z malakalarini oshirdilar. Respublika Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2018-yil 30-maydagi qarorida istiqbolli boshqaruv kadrlar faoliyatini takomillashtirishda mazkur akademianing o'rni va roli alohida belgilab qo'yildi.

Jamiyatni demokratlashtirish, huquqiy fuqarolik jamiyatini barpo etish – O'zbekiston istiqbolda tanlagan bosh strategik yo'l bo'lib hisoblanadi.

O'zbekiston uchun an'anaviy sharq falsafasi va islom dini ta'limotlarini aks ettiruvchi hamjihatlik, totuvlik, bag'rikenglik g'oyalari hamda jamoatchilik fikrining ustuvorligiga tayanuvchi sharqona demokratik qadriyatlar asos qilib olindi. Shubhasiz o'z-o'zini boshqaruv tizimida an'anaviy mahalla institutining o'rni va roli katta ahamiyat kasb etadi. Tarixiy jihatdan mahalla kishilarni hamjihatlikka, totuvlik, o'zaro xayrixohlikka chaqiradigan organ bo'lib kelgan.

O'zini o'zi boshqarish organlarini tashkil qilishda 1993-yil sentabrda Oliy Kengash 12-sessiyasida qabul qilingan "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida"gi Qonun alohida ahamiyatga ega bo'ldi. Prezidentning 1992-yil 12-sentabrda "Mahalla" xayriya jamg'armasini tashkil etish va 1992-yil 8-oktabrda xayriya jamg'armasiga mablag' ajratish to'g'risidagi Farmonlari mahallalarga homiylikni tashkil etishda katta ahamiyatga ega bo'ldi.

Yirik shaharlarda ko'p qavatli uylar joylashgan kvartallarga 1992-yil boshlaridan mahalla maqomi berilib, tarixiy nomlar qo'yildi, fuqarolar yig'ini o'tkazilib, mahalla oqsoqoli va mas'ul kotiblar saylandi. Sovet davrida tuzilgan qishloq va posyolka (shaharcha)larda vakillik boshqaruv organlari qishloq yoki posyolka sovetlari deb atalgan, ular mustaqil hokimiyat organi bo'lmay, xalq deputatlari tuman yoki shahar kengashlari, ularning ijroiya qo'mitalariga bo'ysunar edi. Mustaqil bo'lgach mahalliy o'zini o'zi boshqarish tizimi tubdan isloh qilindi, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari tizimini davlat hokimiyati tizimidan ajratish tomon yo'l tutildi.

1994-yil 12 mingdan ortiq o'zini o'zi boshqarish organlari shakllantirildi, 2001-yil ularning soni 7847 tani tashkil etdi. 1999-

yil 14-aprelda qabul qilingan "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida"gi yangi tahrirdagi Qonunda o'zini o'zi boshqarish organlarining vakolatlari va huquqi kengaytirildi.

Mustaqillik yillari mobaynida jamiyatdagi boshqaruv tizimlarini isloh qilish, davlat vazifalarini jamoat tashkilotlariga bosqichma-bosqich o'tkazish, ya'ni kuchli davlatdan kuchli jamiyatga o'tish borasidagi ishlar izchil davom ettirilmoqda. Ushbu jarayonda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari va ularning asosiy negizini tashkil etuvchi mahalla instituti fuqarolik jamiyati institutlarining eng muhim bo'g'ini sifatida muhim ahamiyatga ega bo'lmoqda.

Konstitutsiyaning ushbu qoidasi mahallaning huquqiy asoslarini yanada rivojlantirish uchun dasturulamal bo'lib xizmat qildi. Shunday qilib, 1993-yil 2-sentabr kuni "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida"gi Qonun qabul qilindi. Ushbu Qonun ilk marta qonunchilik darajasida mahalla faoliyatini tartibga soldi, ya'ni uning huquqiy maqomini belgilab berdi.

Fuqarolarning moddiy mustaqilligi va siyosiy-huquqiy ongi oshishiga sabab bo'layotgan demokratik islohotlar chuqurlashib, bozor munosabatlari rivojlanib borgani sari mahalla institutining huquqiy asoslarini takomillashtirish zarurati tug'ildi. Natijada 1999-yil 14-aprel kuni "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida"gi Qonun yangi tahrirda qabul qilindi. Unda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish huquqi bevosita mustahkamlab qo'yildi, mahalla faoliyatining asosiy tamoyillari, uning faoliyatini qo'llab-quvvatlashga davlat kafolati belgilab berildi, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari vakolatlari kengaytirildi.

2004-yil 29-aprelda "Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) va uning maslahatchilari saylovi to'g'risida"gi Qonunning qabul qilinishi mahalla faoliyatini demokratlashtirish yo'lidagi ulkan qadam bo'ldi. Ushbu Qonunda, birinchidan, fuqarolar yig'ini organlariga saylovning demokratik tamoyillari belgilab berildi va mahalla organlariga saylov tizimi barpo etildi; ikkinchidan, saylov jarayonining barcha bosqichlari batafsil tartibga solindi; uchinchidan, Qonun darajasida mustahkam huquqiy kafolat yaratildi.

Mahalla o'z faoliyatini moliyalashtirish bo'yicha ham davlat ko'magini ola boshladi. Shunday qilib, rais, mas'ul kotib, "Mahalla posboni", jamoatchilik tuzilmasi rahbari va fuqarolar yig'inlarining diniy ma'rifat va ma'naviy-axloqiy tarbiya masalalari bo'yicha maslahatchisidan iborat to'rt nafar mas'ul shaxs ishi, shuningdek, mahallaning qo'shimcha xarajatlari davlat hokimiyatining mahalliy organlari budjetidan moliyalashtirilmoqda.

Hozirgi paytda O'zbekistonda 10000 ga yaqin o'zini o'zi boshqarish organi faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 8275 ta mahalla, 1301 ta qishloq, 154 ta shaharcha va 155 ta ovul fuqarolar yig'inidir. Mahalla fuqarolar yig'inlari va faollari qonunchilik belgilab bergan vakolatlardan kelib chiqib, fuqarolar yig'inlari faoliyatining asosiy yo'nalishlari bo'yicha tuzilgan komissiyalar yordamida aholini ijtimoiy-siyosiy hayotga jalb qilish, ma'naviy-axloqiy tarbiyani kuchaytirish, oilalarda qulay muhitni saqlab qolish, ehtiyojmand oilalar va nogironlarga moddiy yordam ko'rsatish, aholining tadbirkorlik sohasidagi bilim va ko'nikmalarini oshirish, hududlarni obodonlashtirish bo'yicha ulkan ishlarni amalga oshirmoqda, boshqa bir qancha tadbirlarni tashkil etmoqda.

2013-yilda yangi tahrirda qabul qilingan "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida"gi Qonunga ko'ra, fuqarolar yig'inlaridagi asosiy yo'nalishlar bo'yicha komissiyalar ro'yxati quyidagilardir:

- yarashtirish komissiyasi;
- ma'rifat va ma'naviyat masalalari bo'yicha komissiya;
- ijtimoiy qo'llab-quvvatlash bo'yicha komissiya;
- xotin-qizlar bilan ishlash bo'yicha komissiya;
- voyaga yetmaganlar, yoshlar va sport masalalari bo'yicha komissiya;
- tadbirkorlik faoliyati va oilaviy biznesni rivojlantirish masalalari bo'yicha komissiya;
- ekologiya va tabiatni muhofaza qilish, obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish bo'yicha komissiya;
- jamoatchilik nazorati va iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish bo'yicha komissiya o'z faoliyatini olib boradi.

2017-yil fuqarolar yig'inlari va o'zini o'zi boshqarish organlari – mahallalar soni 10 mingdan ortiqni tashkil etdi. Shu yildan boshlab mahalla o'z-o'zini boshqaruv organlarining faoliyatida zamonaviy asnodagi o'zgarishlar ro'y berib, uni tom ma'noda xalq organiga aylantirish chora-tadbirlari belgilandi.

Mahalla oldida turgan eng dolzarb masalalardan biri fuqarolarning ijtimoiy faolligini oshirish, oilalarni mustahkamlash, odamlarni loqaydlik, boqimandachilik kabi illatlardan forig' etish, aholini tom ma'nodagi fuqarolik jamiyatini barpo etishga safarbar qilishdir.

O'zbekistonda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari tomonidan yarashtirish masalasida qator ishlar amalga oshirilmoqda. Ta'kidlash joizki, fuqarolar yig'inlarida faoliyat olib borayotgan Yarashtirish komissiyalarining vazifasi faqat nizoli oilalardan kelib tushgan arizalarni ko'rib chiqishdangina emas, balki nizoni keltirib chiqaruvchi sabablarni atroflicha o'rganib, oilalarda sog'lom turmush tarzini keng targ'ib qilishdan ham iborat hisoblanadi.

Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining muqaddimasida xalqlar o'rtasida do'stona munosabatlarni rivojlantirishga ko'maklashish zaruriyatiga e'tibor qaratish lozim, deb belgilangan. G'arb mamlakatlarining ayrim siyosatchilari ham O'zbekistondagi fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlari tizimining o'ziga xosligini yuqori baholashgan. Jumladan, nemis siyosatchisi Artur Faynberg: "Mahalla – inson huquqlarini hurmat qilgani holda yoshlarni tarbiyalashga, uning kamol topishiga ko'mak beruvchi jamiyat instrumenti", deb baho bergan. Shu bilan birga individualizm singib ketgan G'arb mutaxassisarlari uchun bu tizimning tub mohiyatini tushunish mushkulligini ham obyektiv tavsiflab berishgan.

O'zbekistonda bosqichma-bosqich amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar va milliy taraqqiyot talablaridan kelib chiqib mahalla faoliyatiga oid qonun hujjatlari muntazam ravishda takomillashtirib borilyapti. Xususan, 2013-yil 22-aprelda "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida"gi Qonunning yangi tahriri tasdiqlandi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 18-fevraldagi "Jamiyatdagi ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtirish, mahalla institutini yanada qo'llab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5338-son Farmoni qabul qilindi.

Farmonga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi tashkil etildi. Mahalla va oila institutlarida bir qancha o'zgarishlar bo'ldi. Xotin-qizlar qo'mitalar, Respublika Mahalla kengashi, "Nuroni" jamg'armasining hududiy bo'limlari tugatildi. "Oila" ilmiy-amaliy tadqiqot markazi, "Mahalla" o'quv-uslubiy va ilmiy tadqiqot markazi negizida "Mahalla va oila" ilmiy tadqiqot instituti tashkil etildi. Mahallalarga yuklatilgan 46 turdagi va Profilaktika inspektorlariga yuklatilgan 13 turdagi vazifa va funksiyalar qisqartirildi. Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi va uning hududiy bo'linmalari tashkil etildi. Jamoatchilik tuzilmalari maqbullashtirildi, ayrimlari tugatildi. Oilaviy qadriyatlarni mustahkamlash komissiyasi, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash va jamoatchilik nazorati bo'yicha komissiya tashkil etildi. 2020-yil 1-apreldan boshlab FHDYo organlari Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi tasarrufiga o'tkazildi. 22-mart "Mahalla tizimi xodimlari kuni" deb e'lon qilindi. Endilikda mahalla raisining saylanish muddati 5 yil qilib belgilandi. Mahalla raisining huquq-tartibot masalalari bo'yicha o'rinbosari vazifasini profilaktika katta inspektori bajarib, u ham 5 yil muddatga tayinlanadi. Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligida vazir, uning birinchi o'rinbosari, Xotin-qizlar qo'mitasi raisi, 3 ta o'rinbosar "Nuroni" jamg'armasi, "Mahalla" kengashi raisi o'rinbosari va huquq-tartibot masalalari bo'yicha o'rinbosarlari lavozimi ta'sis etildi.

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining taklifi bilan keng aholining qo'llab-quvvatlashiga asoslanib, 2021-yil kuzidan boshlab mamlakatdagi mahalliy boshqaruv tizimida yangi institut "hokim yordamchisi" lavozimi joriy etildi.

Albatta, bundan markazlashtirilgan boshqaruvdan asta-sekin voz kechib, mahallalarda ishlash va shu yerdagi muammolarni tezkorlik bilan hal etish imkoniyatini yaratish maqsadi ko'zlanadi.

O'zbekiston Respublika Prezidentining 2021-yil 3-dekabr kuni qabul qilingan "Mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish bo'yicha davlat siyosatining yo'nalishlari to'g'risida"gi Farmonida belgilab berilganidek:

– hokim yordamchisi lavozimiga Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi, Moliya vazirligi, Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi, Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi, Davlat soliq qo'mitasi, tijorat banklari, iqtisodiy va investitsiya komplekslariga kiruvchi boshqa idoralar, ularning hududiy bo'linmalarida bo'lim (sho'ba) boshlig'idan past bo'lmagan lavozimda ishlovchi rahbar xodimlar, shuningdek, mahalliy hokimliklarning rahbar xodimlari tayinlanadi;

– hokim yordamchisi lavozimiga nomzodlar tegishli Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlari boshchiligidagi tanlov komissiyalari orqali ochiq tanlovlar asosida ishga qabul qilinadi;

– nomzodlarning intiluvchanligi, maqsadga yo'nalganligi, qobiliyati, tajribasi kabilarni inobatga olgan holda tadbirkorlar, boshqa soha vakillari, faol yoshlar, rahbarlik lavozimida faoliyat yuritmayotgan xodimlar va oliy ma'lumotga ega bo'lmagan fuqarolar ham ishga qabul qilinishi mumkinligi qayd qilingan.

Demak, bu tuzilma tajriba tariqasida qo'llanilmoqda. Uning natijasidan esa tizim yanada takomillashib boradi.

7. O'zbekistonda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. Inson haq-huquqlarini ta'minlash va himoya qilish

Istiqlol yillarida insonning ishonchli konstitutsion va yuridik huquqlarini, ijtimoiy kafolatlarni va aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlashni ta'minlaydigan qonunlarning qabul qilinishiga asosiy e'tibor qaratildi. Shuningdek, sud tizimi mustaqil va boshqa tarmoqlarga bog'liq bo'lmagan hokimiyat sifatida shakllantirildi. Sud hokimiyatining yangi tuzilmalari vujudga keldi. Sudning huquq doirasi kengaydi.

Jumladan, 1994-yili Jinoyat kodeksi qabul qilinganida 13 ta moddada jazo chorasi sifatida o'lim jazosi ko'zda tutilgan edi. 1998-yili bu jazo turi jinoyat kodeksining 5 ta moddasidan olib tashlandi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti 2005-yil 1-avgustdagi "O'zbekiston Respublikasida o'lim jazosini bekor qilish to'g'risida"gi Farmoniga asosan, 2008-yil 1-yanvaridan mamlakatimizda jinoiy jazo turi sifatida o'lim jazosi bekor qilindi va uning o'rniga umrbod yoki uzoq muddatga ozodlikdan mahrum etish jazosining joriy etilishi butun dunyoda katta aks sado berdi. Bu boradagi islohotlar O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida e'lon qilingan insonparvarlik va odillik tamoyillarini izchil ifoda etib, jahon tendensiyalariga to'la mos keladi. Sud-huquq sohasidagi islohotlar xususida so'z yuritganda, O'zbekistonda o'tgan qisqa davr mobaynida yaxlit sud hokimiyati tizimini shakllantirish vazifasi muvaffaqiyatli hal etilganiga to'xtalmaslikning iloji yo'q. Sudlar ixtisoslashtirilib, aniqroq aytganda, fuqarolik, jinoiy va xo'jalik ishlari bo'yicha alohida sudlar tashkil etilib, sudlar sud qarorlarini ijro etish kabi o'zlariga xos bo'lmagan vazifalardan ozod qilindi. Sudyalarning mustaqilligi va huquqiy kafolatlari tizimining huquqiy asoslari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, "Sudlar to'g'risida"gi Qonuni va boshqa qonun hujjatlarida mustahkamlab qo'yildi. Mazkur normativ-huquqiy hujjatlarda "sudyalarning mustaqilligi" tushunchasi mustahkamlandi va yangi huquqiy kategoriya – "sud hokimiyatining mustaqilligi" joriy etildi. Jumladan, Konstitutsiyamizning 106-moddasiga muvofiq, O'zbekiston Respublikasida sud hokimiyati qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlardan, siyosiy partiyalardan, boshqa jamoat birlashmalaridan mustaqil holda ish yuritadi.

Qamoqqa olishga sanksiya berish huquqi sudlarga o'tkazilib, uni amalga oshirishning aniq protsessual-huquqiy mexanizmi yaratildi. Bu fuqarolarning huquq hamda qonuniy manfaatlarini samarali himoya qilishning muhim kafolatiga aylandi. Yana bir yangilik bu – Yarashtiruv institutining joriy etilishi jinoyat protsessi qonunchiligini takomillashtirishda muhim qadam bo'ldi. Xo'sh, bu yerda gap nima haqda bormoqda? Ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan jinoyat sodir etgan shaxs, agar muqaddam sudlanmagan bo'lsa, o'z

aybini bo'yniga olsa, jinoyat oqibatida keltirgan zararni to'lasa, jabrlanuvchi bilan yarashsa, sud ishni harakatdan to'xtatadi. Demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va mamlakatda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi haqida so'z yuritilar ekan, ushbu materialda O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov 2010-yil 12-noyabrda parlament palatalarining qo'shma majlisida so'zlagan nutqida sud-huquq tizimini yanada isloh qilishga qaratilgan qator qonunchilik tashabbuslarini ilgari surgani ta'kidlanadi. Konsepsiyada belgilangan vazifalarning hayotga tatbiq etilishi fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini sud orqali himoya qilish kafolatini kuchaytirish imkonini beradi. Umuman olganda, sud-huquq islohotlari barcha istiqbolli yo'nalishlarining muvaffaqiyatli amalga oshirilishi nafaqat jamiyat va davlat tuzilmasini demokratlashtirish va liberallashtirishning natijasi, balki uning kafolati sifatida xizmat qilib, amalda mamlakatning "Kuchli davlatdan – kuchli fuqarolik jamiyati sari" tamoyili asosida olg'a harakatlanishini ta'minlaydi. Axborot materialida qayd etilishicha, O'zbekistonda olib borilayotgan sud-huquq islohotlarining asosiy maqsadlari sud-huquq tizimining mohiyatini o'zgartirish, uni inson huquqlarini samarali ta'minlashning asosiy kafolatiga aylantirish hamda sud hokimiyatining tom ma'nodagi mustaqilligini ta'minlash hisoblanadi. Ishlarning sudlarda ko'rib chiqilishi sifatini yaxshilash maqsadida "Sudlar to'g'risida"gi Qonunga muvofiq, ularning jinoyat, fuqarolik va xo'jalik ishlari bo'yicha ixtisoslashuvi mustahkamlandi, ishlarni apellyatsiya tartibida ko'rib chiqish tartibi joriy qilindi. 2008-yil 1-yanvardan e'tiboran "Xabeas korpus" institutining joriy qilinishi, ya'ni ehtiyot chorasi sifatida qamoqqa olishga sanksiya berish huquqi prokurordan sudga o'tkazilishi natijasida sudlarning fuqarolar huquqlarini samarali himoya qilish bo'yicha vakolatlari sezilarli darajada kengaytirildi. Jinoyat ishi qo'zg'atish, ish yuzasidan ayblov xulosasini o'qib eshittirishni sudlar vakolatidan chiqarilishini nazarda tutuvchi o'zgartishlar jinoyat-protsessual qonun hujjatlariga kiritilib, bu sudlarning xolisligini, betarafligini ta'minlash, jinoyat protsessida tortishuv prinsipining kuchayishiga xizmat qildi. Mustaqillik yillarida jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchilikni liberallashtirish bo'yicha

amalga oshirilgan ishlar natijasi o'laroq, O'zbekistonda quyidagilarga erishildi: og'ir jinoyatlar tasnifi kamaytirilib, og'ir va o'ta og'ir toifadagi jinoyatlar ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan va uncha og'ir bo'lmagan jinoyatlar toifasiga o'tkazildi; sodir etilgan jinoyatlar uchun ozodlikdan mahrum etish bilan bog'liq bo'lmagan jazolar joriy etildi; iqtisodiyot sohasidagi jinoyat ishlari bo'yicha qamoq va ozodlikdan mahrum etish jazolari o'rniiga jarima shaklidagi iqtisodiy sanksiyani qo'llash imkoniyati ancha kengaytirildi. 2013-yilda ozodlikdan mahrum qilingan shaxslar soni 2000-yil bilan solishtirganda, ikki marotabadan ziyodga kamaydi.

Xususan, jinoiy jazolarning liberallashtirilishi to'g'risidagi Qonun qabul qilinganidan so'ng 412 milliard so'mlik zararni qoplagan 26000 nafar shaxsga nisbatan ozodlikdan mahrum qilish bilan bog'liq bo'lmagan jazo choralari qo'llandi. Mamlakatda yarashuv instituti joriy etilganidan buyon 138 ming 527 ta ish bo'yicha 150 ming 346 shaxsga nisbatan ozodlikdan mahrum qilish bilan bog'liq bo'lmagan jazo choralari qo'llanildi. Bugun O'zbekistonda 60 turdagi jinoyatlar bo'yicha yarashuv institutini qo'llash imkoniyati mavjud. Amnistiya aktini qo'llash sudlar vakolatiga berilgan. Mustaqillikning ilk yillaridanoq respublikada amnistiya aktini e'lon qilish tartibi joriy qilingan. Har yili O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 80 va 93-moddalariga binoan, amnistiya haqida akt qabul qilinib, uning asnosida jazodan ozod qilish, mahkumlarning ozodlikka chiqishi va ularning o'z oilalari bag'riga qaytishi bilan bir qatorda, amnistiya qilinganlarning salomatligini mustahkamlash, ularning turmush shart-sharoitlarini yaxshilashga va ish bilan ta'minlashga ko'maklashish yuzasidan ham ishlar amalga oshiriladi.

2008-yilning 1-yanvaridan boshlab o'lim jazosi bekor qilinishi jinoyat qonunchiligini liberallashtirish yo'lidagi muhim qadam bo'ldi. Bundan tashqari oliy jazo – umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazo turi faqatgina ikki turdagi jinoyatlar – terrorizm va javobgarlikni og'irlashtiruvchi holatlarda qasddan odam o'ldirish uchun tayinlanadiki, ushbu holatlar bo'yicha muqobil, uncha og'ir bo'lmagan jazo turlari ham qo'llanilishi mumkin.

Insonning huquq va erkinliklari samarali himoya qilinishini har tomonlama ta'minlashga yo'naltirilgan sud-huquq islohotlarining

hayotga tatbiq etilishida advokatura institutini mustahkamlash muhim ustuvorlik hisoblanadi. Ushbu institutni yanada takomillashtirish maqsadida 2008-yil 1-may kuni qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida advokatura institutini yanada isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni bu borada muhim dasturulamal bo'ldi. Ushbu Farmon fuqarolarning tergov va sud ishini yuritishning har qanday bosqichida malakali yuridik yordam olish huquqini mustahkamlashga qaratilgan konstitutsiyaviy me'yorni amalga oshirish, advokatura instituti mustaqilligini ta'minlash, uni malakali kadrlar bilan to'ldirish, advokatlik kasbining nufuzini oshirish hamda insonning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlarini kafolatli himoya qilish borasida amalga oshirilayotgan islohotlarni yangi bosqichga olib chiqdi. Fuqarolik jamiyatining asosiy institutlaridan biri sifatida O'zbekiston Respublikasi Advokatlar palatasi tuzildi, 2008-yil 31-dekabrda "Advokatura instituti takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi Qonun qabul qilindi. Shuningdek, 2009-yil sentabrida kuchga kirgan O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 52-moddasiga o'zgartish va qo'shimcha kiritish to'g'risida"gi Qonuniga binoan, sudda ish yuritish bo'yicha vakil sifatida professional faoliyat bilan faqat advokatlar shug'ullanishi haqidagi muhim me'yor mustahkamlab qo'yildi. O'rnatilgan bunday tartib sud ishida yurisprudensiya sohasidagi maxsus bilimlardan bexabar shaxslarning ishtirokiga yo'l qo'ymaslik va fuqarolarga ko'rsatiladigan huquqiy yordam sifatini oshirishga yo'naltirilgan.

Sud qarorlarining qat'iy bajarilishi odil sudlov faoliyatining muhim va ajralmas qismi hisoblanadi. Keyingi yillarda O'zbekistonda amalga oshirilayotgan sud-huquq islohotlari doirasida sud qarorlarining majburiy ijro etilishi samaradorligini oshirish, sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlari ijro etilishi sohasidagi me'yoriy-huquqiy bazani takomillashtirish yuzasidan qator chora-tadbirlar amalga oshirildi, sud qarorlari ijro etilmasligi va ularning bajarilishiga to'sqinlik uchun javobgarlik kuchaytirildi.

2016-yil oxirlaridan boshlab, sud-huquq tizimini tubdan isloh qilish, ya'ni sohani yanada demokratlashtirish va erkinlashtirish, faoliyati samaradorligini yuksaltirish, aholining odil sudlovga bo'lgan ishonchini oshirish, jamiyatda qonun ustuvorligini ta'minlash hamda qonuniylikni mustahkamlash, sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini, fuqarolar huquq va erkinliklarining ishonchli himoyasini yuzaga keltirish, jismoniy, yuridik shaxslarning murojaatlarini o'z vaqtida hal etish, yuksak axloqiy-irodaviy, kasbiy fazilatlariga ega, yuklatilgan vazifalar, amalga oshirilayotgan islohotlarning samarali bajarilishini ta'minlashga qodir bo'lgan kadrlarni shaffof tanlov asosida ishga qabul qilish, qolaversa, sudlarning jamoatchilik va ommaviy axborot vositalari bilan ishlash mexanizmini davrimizning yuksak talablari darajasida tashkil etishga, tizim xodimlariga, sudyalarga alohida mehnat sharoitlari yaratish, lavozim maoshlariga ustamalar hamda malakamansab darajasi uchun qo'shimcha haq miqdorlarini berishga qaratilgan uchta Farmon chiqarildi. Boshqacha aytganda, sud-huquq tizimidagi islohotlar davlat siyosatining asosiy ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 21-oktabrdagi "Sud-huquq tizimini yanada isloh qilish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonida sud hokimiyati mustaqilligi to'g'risidagi konstitutsiyaviy normalarga va odil sudlovni amalga oshirish faoliyatiga aralashganlik uchun javobgarlikning muqarrarlari prinsipiga og'ishmay amal qilinishi kerakligini ta'minlash, fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga tajovuz qilish holatlari bo'yicha zudlik bilan choralar ko'rish, sud faoliyatining ochiqqligi va shaffofligini ta'minlash, ommaviy axborot vositalari hamda aholi bilan hamkorlik qilishning samarali mexanizmlarini keng qo'llashga e'tibor qaratilishi alohida ta'kidlab o'tildi. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi, Oliy xo'jalik sudi, Bosh prokuraturasi, Adliya vazirligining sudyalik lavozimiga birinchi marotaba besh yil muddatga va keyin o'n yil muddatga, shundan so'ng muddatsiz davrga tayinlash (saylash)ni nazarda tutuvchi takliflari ma'qullandi.

Ushbu Farmonga muvofiq, 2017-yil 1-apreldan ozodlikdan mahrum qilish bilan bog'liq bo'lmagan muqobil jazo turlarini qo'llashni kengaytirish orqali qamoq tariqasidagi jinoiy jazo tugatildi. Jinoyatni sodir etishda gumon qilingan shaxslarni ushlab turish muddati 72 soatdan 48 soatga qisqartirildi. Qamoqqa olish va uy qamog'i tarzidagi ehtiyot choralari qo'llashning, shuningdek, dastlabki tergovning eng ko'p muddati 1 yildan 7 oyga qisqartirildi. Pochta-telegraf jo'natmalarini xatlab qo'yish va ekskumatsiya qilish uchun sanksiya berish huquqi sudlarga o'tkazildi. Sudlarga qamoqqa olish yoki uy qamog'i tarzidagi ehtiyot chorasini qo'llash rad etilganda muqobil ehtiyot choralari qo'llash huquqi berildi. Tergovning to'liq emasligini sud muhokamasi jarayonida to'ldirish mexanizmlarini joriy etish orqali sud tomonidan jinoyat ishini qo'shimcha tergov yuritishga qaytarish bekor qilindi. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining ishlarni nazorat tartibida ko'rib chiqish bo'yicha bir-birini takrorlovchi vakolatlari bekor qilindi. Sud-huquq tizimini yanada isloh qilish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi tasdiqlandi. Dasturni amalga oshirish bo'yicha komissiya tashkil etildi. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi, Oliy xo'jalik sudi, Bosh prokuraturasi, Adliya vazirligiga sud-huquq tizimidagi ilg'or xorijiy tajribalarni chuqur o'rganish vazifasi topshirildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 21-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasi sud tizimi tuzilmasini tubdan takomillashtirish va faoliyati samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoniga ko'ra, sud hokimiyatining ikki oliy organi – O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi va Oliy xo'jalik sudining mavjudligi sud tizimini boshqarish vazifalarining takrorlanishiga, yagona sud amaliyoti ta'minlanmasligiga olib kelganligi uchun birlashtirildi. Bundan tashqari sudyalarning hamjamiyatining organi hisoblanadigan va O'zbekiston Respublikasida sud hokimiyati mustaqilligining konstitutsiyaviy prinsipiga rioya etilishini ta'minlashga ko'maklashadigan, nomzodlarni tanlash va sudyalik lavozimiga tayinlash tizimini tubdan yaxshilash hamda yuqori malakali sudyalarning korpusini shakllantirishga mas'ul bo'lgan organ – O'zbekiston Respublikasi

Sudyalar oliy kengashi tashkil etildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Sudyalarni tanlash va lavozimiga tavsiya etish bo'yicha oliy malaka komissiyasi tugatilib, uning 21 nafar bo'shagan ijro apparati shtat birligi kengashga o'tkazildi. Kengash tarkibi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti taqdimnomasiga binoan Senat tomonidan tasdiqlanadigan kengash raisi va ko'pchilikni tashkil etuvchi sudyalar hamda huquqni muhofaza qiluvchi organlar, fuqarolik jamiyati instituti vakillari, shuningdek, huquq sohasidagi malakali mutaxassislar orasidan Prezident tomonidan tayinlanadigan 20 nafar a'zodan iborat bo'ldi. Kengashning 13 nafar a'zosi doimiy, 8 nafar a'zosi esa jamoatchilik asosida o'z faoliyatlarini amalga oshirmoqda. Sudyalar oliy kengashiga O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi, Oliy sud sudyalari, O'zbekiston Respublikasi Harbiy sudi, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar sudlari raislaridan tashqari barcha sudyalarni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti bilan kelishgan holda lavozimlariga tayinlash va lavozimlaridan ozod etish bo'yicha vakolatlar berildi. Sudyalarni kasbiy jihatdan tayyorlash, malakasini oshirishni tashkil etish, ularning faoliyati samaradorligini baholash, shuningdek, sudyalarni rag'batlantirish bo'yicha tashabbus ko'rsatish ham Sudyalar oliy kengashi zimmasiga yuklatildi.

Ilk marotaba davlat organlari va ularning mansabdor shaxslari g'ayriqonuniy harakatlari (harakatsizligi) ustidan fuqarolarning sudga shikoyat qilish huquqining konstitutsiyaviy kafolatlarini amalga oshirishni ta'minlashga xizmat qiladigan O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining ma'muriy ishlar bo'yicha sudlov hay'ati, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar ma'muriy sudlari, tuman (shahar) ma'muriy sudlari tashkil etildi. Davr talablardan kelib chiqib, shuningdek, tadbirkorlik subyektlarining huquqlarini himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish maqsadida ushbu Farmon bilan Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar xo'jalik sudlari iqtisodiy sudlar etib o'zgartirildi. Bunda mamlakatning iqtisodiy salohiyati va tadbirkorlik subyektlarining ortib borishini hisobga olgan holda tumanlararo tuman (shahar) iqtisodiy sudlari tashkil etildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 13-iyuldagi "Sud-huquq tizimini yanada takomillashtirish va sud hokimiyati organlariga ishonchni oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonida odil sudlovni amalga oshirish sifatini yaxshilash, jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari himoyasi kafolatlarini kuchaytirish maqsadida, shuningdek, 2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasiga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi, Sudyalar oliy kengashi va O'zbekiston Sudyalar assotsiatsiyasining sud organlari faoliyatining shaffofligini ta'minlash, aholi bilan ochiq muloqotni kengaytirish hamda odil sudlovni amalga oshirishda jamoatchilik rolini kuchaytirish borasidagi takliflari qabul qilindi. Sudlar faoliyati to'g'risida jamoatchilik va ommaviy axborot vositalarini xabardor qilish maqsadida har chorakda viloyat sudlari raislari va ularning o'rinbosarlari tomonidan brifinglar o'tkazish yo'lga qo'yildi.

O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashining sudyalarni tanlash va lavozimga tayinlashning xolisligi hamda shaffofligiga ishonchni oshirish maqsadida har bir hududda sudyalar korpusini shakllantirishga ko'maklashuvchi komissiyalar tuzish haqidagi takliflari qabul qilinib, bu borada komissiyalar tuzildi. Farmonga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi raisiga Oliy sud va uning huzuridagi Sudlar faoliyatini ta'minlash departamentining yuqori malakali, tashabbuskor, xizmat majburiyatlarini, vazifalarini halol va samarali bajarayotgan sudyalariga, xodimlariga Sud hokimiyati organlarini rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari hisobidan qo'shimcha ravishda oylik mehnatga haq to'lash fondining 100 foizigacha miqdorda ustama (pul ta'minoti) to'lash huquqi berildi. Shuningdek, ushbu Farmonda malaka va mansab darajasiga ega bo'lgan sudyalarga, ularga tenglashtirilgan shaxslarga avtomobillar sotib olish uchun, Konstitutsiyaviy sud, Sudyalar oliy kengashi, Oliy sud, quyi sudlar apparatlari, Oliy sud huzuridagi sudlar faoliyatini ta'minlash departamenti va uning hududiy bo'limlari xodimlariga esa uy-joy sotib olish uchun imtiyozli kreditlar berishni nazarda tutuvchi

takliflar bildirildi. Ayni paytda bu borada ijobiy ishlar qilinayotganligi ahamiyatlidir.

Istiqlol yillarida mamlakatimizda sud hokimiyati mustaqilligini ta'minlash va nufuzini oshirish, uni ilgarigi jazolovchi organdan inson huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qiladigan, jamiyatdagi demokratik o'zgarishlarning muhim vositasi bo'lgan institutga aylantirishga qaratilgan keng qamrovli ishlar amalga oshirilayotganligi, sud-huquq tizimini isloh qilish hamda takomillashtirish davrimizning yuksak talablaridan biri ekanligi yig'ilishda alohida ta'kidlab o'tildi. Asosiy maqsadimiz, fuqarolarning huquq va erkinliklarini munosib tarzda himoya qilish orqali xalqimizning sud tizimiga bo'lgan ishonchini qat'iy mustahkamlash, sudni tom ma'noda "Adolat qo'rg'oni"ga aylantirishdan iborat ekanligini Prezident Sh.M.Mirziyoyev o'z chiqishlarida ko'p marotaba qayd etib o'tmoqda.

Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9-yanvardagi "Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida"gi Farmoni alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki Farmonga, asosan, quyidagilar jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirishning asosiy vazifalari etib belgilandi: birinchidan, aholiga mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, qabul qilinayotgan qonun hujjatlari va davlat dasturlarining mazmuni va mohiyatini izchil yetkazish tizimini shakllantirish, fuqarolar ongida "Jamiyatda qonunlarga hurmat ruhini qaror toptirish – demokratik huquqiy davlat qurishning garovidir!" degan hayotiy g'oyani mustahkamlash; ikkinchidan, jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirishda, eng avvalo, ta'lim-tarbiyaning tizimli va uzviy ravishda olib borilishiga alohida e'tibor qaratish, maktabgacha ta'lim tizimidan boshlab, aholining barcha qatlamlariga huquqiy ong va huquqiy madaniyatni chuqur singdirish, shaxsiy manfaatlar hamda jamiyat manfaatlari o'rtasidagi muvozanatni saqlash g'oyalarini keng targ'ib qilish; uchinchidan, yosh avlod ongiga huquq va burch, halollik va poklik tushunchalarini hamda odob-axloq normalarini chuqur singdirib borish, Konstitutsiyaning muhim jihatlarini ularga bolaligidan boshlab o'rgatish; to'rtinchidan, aholi o'rtasida huquqiy

madaniyatni shakllantirish bo'yicha huquqiy-ma'rifiy tadbirlarni xalqimiz tarixi, dini, milliy qadriyatlarini o'rgatish bilan uyg'un holda tashkil qilish, shuningdek, har bir fuqaroda davlat ramzlari bilan faxrlanish tuyg'ularini shakllantirish orqali mamlakatga daxldorlik, vatanparvarlik hissini kuchaytirish va boshqalar.

Tayanch so'zlar

Inson, jamiyat, davlat, konstitutsiya, demokratiya, fuqarolik jamiyati, demokratik institutlar, jamoat birlashmasi, nodavlat-notijorat tashkilotlari, siyosiy partiyalar, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, fuqarolar yig'ini, kasaba uyushmasi, davlat va jamiyat boshqaruvi, ijtimoiy nazorat, ijtimoiy sheriklik, milliy qadriyat, fuqarolik madaniyati, faollik, ishtirok, mas'uliyat, javobgarlik.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar

1. Fuqarolik jamiyati institutlari deganda siz nimani tushunasiz?

2. Fuqarolik jamiyatini shakllantiruvchi omillar va ularga yaratilgan imkoniyatlar?

3. O'zbekistonda qanday siyosiy partiyalar faoliyat yuritadi?

4. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi huzuridagi Inson huquqlari bo'yicha vakil (Ombudsman) to'g'risida nimalar bilasiz?

5. Inson huquqlari to'g'risida ma'lumot bering.

6. Nodavlat-notijorat tashkilotlari haqida hamda ularning faoliyati bo'yicha nimalarni bilasiz?

7. Mahalla instituti – jamiyatning asosiy bo'g'inidir.

8. Mahalliy boshqaruvning tashkil etilishi va ularning faoliyatiga oid huquqiy hujjatlar haqida fikr yuriting.

9. Sud hokimiyati mustaqil idoradir. Ularga oid huquqiy-tashkiliy ishlar haqida nimalar bilasiz?

10. Saylov jarayonlari – fuqarolik jamiyatining ko'zgusidir.

11. Xotin-qizlar manfaatini ifoda qilishda qanday o'zgarishlar yuz berdi? Gender tengligi nima?

12. Ommaviy axborot vositalari va ularning faoliyatiga oid ma'lumot bering.

13. Advokatlik instituti haqida ma'lumot bering.

14. O'zbekistonda Prezident saylovi haqida ma'lumot bering.
15. O'zbekiston parlamenti – qonunchilik hokimiyatining ko'zgusidir.
16. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi – fuqarolik jamiyatini qurish bo'yicha normalar majmuasidir.
17. Fuqarolik jamiyatida – ijtimoiy sherikchilik masalasiga oid nimalarni bilasiz?
18. Ijtimoiy fikr – jamoatchilik ko'zgusidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. T.1. – Toshkent: O'zbekiston, 2017.
2. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2017.
3. Mirziyoyev Sh.M. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2018.
4. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. – Toshkent: O'zbekiston, 2018.
5. Mirziyoyev. Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. To'ldirilgan ikkinchi nashri. – Toshkent: O'zbekiston, 2022.
6. Mirziyoyev. Sh.M. Yangi O'zbekistonda erkin va faravon yashaylik. 5-jild. – Toshkent: O'zbekiston, 2023.
7. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekistonda taraqqiyot strategiyasi asosida demokratik islohotlar yo'lini qat'iy davom ettiramiz. 6-jild. – Toshkent: O'zbekiston, 2023.
8. Mirziyoyev. Sh.M. Hozirgi zamon va Yangi O'zbekiston. – Toshkent: O'zbekiston, 2024.
9. Jumaniyazov B.O. O'zbekistonda fuqarolik jamiyatini qurish va rivojlantirish – oliy strategik maqsad // Berdax nomidagi QDU Xabarshisi. – Nukus, 2017. – № 2.

10. 2017–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha Harakatlar strategiyasi.

11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mamlakatni demokratik yangilash jarayonida fuqarolik jamiyati institutlarining rolini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2018-yil 4-maydagi Farmoni (Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi).

12. Inoyatova D.M. O‘zbekistonda fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organlarining tarixiy taraqqiyot bosqichi. Mahalla – fuqarolar o‘zini o‘zi boshqaruvi institutining noyob namunasi. – Toshkent: MUMTOZ SO‘Z, 2016.

13. Inopov A.A. O‘zbekistonda atrof-muhit muhofazasi, aholi sog‘ligini saqlashda davlat va nodavlat tashkilotlar ijtimoiy sherikligi // O‘zMU xabarlari ilmiy jurnali. – Toshkent, 2016. – № 1/6.

14. Ishquvatov V.T. O‘zbekistonda o‘zini o‘zi boshqarish organlarini rivojlanish tarixi. Monografiya. – Toshkent, 2020.

15. Турсунова Р.Ю. Духовный аспект в модернизации институтов гражданского общества (на примере политических партии). Монография. – Ташкент: УМЕД, 2012.

16. Fuqarolik jamiyati asoslari (O‘quv qo‘llanma). – Toshkent, 2015.

17. Utamuradov A. va boshqalar. Fuqarolik jamiyati. O‘quv qo‘llanma. Lotin yozuvida. – Toshkent: Universitet, 2018.

18. O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasi. Fuqarolik jamiyati (Uslubiy qo‘llanma). – Toshkent: Info Capital Group, 2019.

19. Qirg‘izboyev M. Fuqarolik jamiyati: genezisi, shakllanishi va rivojlanishi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2010.

6-MAVZU. IQTISODIY ISLOHOTLAR, XUSUSIY MULKCHILIKNING SHAKLLANISHI. O'ZBEKISTONDA BOZOR MUNOSABATLARINING RIVOJLANISHI

Reja:

1. Bozor iqtisodiyotiga o'tishning asosiy tamoyillari. O'zbekistonning o'ziga xos ijtimoiy-iqtisodiy yangilanish yo'lini tanlashi.
2. Bozor iqtisodiyotiga o'tilishi, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlantirilishi, mamlakatimizdagi iqtisodiy o'sish.
3. O'zbekiston iqtisodiyotida qishloq xo'jaligining o'rni. Agrar islohotlar.
4. O'zbekiston xalq xo'jaligining yangi istiqbollari.

1. Bozor iqtisodiyotiga o'tishning asosiy tamoyillari. O'zbekistonning o'ziga xos ijtimoiy-iqtisodiy yangilanish yo'lini tanlashi

Butun dunyodagi rivojlangan davlatlar iqtisodining asosini bozor iqtisodiyoti tashkil etadi. Bozor iqtisodiyoti tovar-pul munosabatlariga asoslangan va ularga xos iqtisodiy qonunlar asosida ishlaydigan iqtisoddir. Bozor iqtisodiyoti qadim zamonlardan boshlab ming yillar davomida shakllanib, takomillashib kelmoqda. Iqtisodiy taraqqiyotda bozor munosabatlari ikki xil shaklda namoyon bo'ldi. Birinchisi, tartibsiz, stixiyali faoliyat yurituvchi bozor iqtisodiyoti bo'lib, bunda ishlab chiqaruvchilar va iste'molchilar tarqoq, o'zibo'larchilik asosida, maqsadi va harakati oldindan kelishilmagan holda faoliyat yuritadilar. Ikkinchisi, davlat, iqtisodiy qonunlar va iqtisodiy vositalar bilan tartibga solinadigan, boshqariladigan bozor iqtisodiyotidir.

Uning quyidagi xususiyatlari mavjud:

- tovar ishlab chiqaruvchilar iqtisodiy erkin bo'ladi;
- kishilar mulk egasi bo'ladi, o'zi ishlab chiqargan mahsulot egasi bo'lib, uning o'zi xohlaganicha sotishi va sotmay turishi mumkin;
- tovar oldi-sotdisi sotuvchi bilan xaridorning erkin va ixtiyoriy munosabatiga asoslanadi;

– tovar ishlab chiqaruvchilar bozorda erkin raqobatda bo‘ladilar;

– bozorda ishlab chiqaruvchi emas, iste’molchi o‘z shartini qo‘yadi, chunki pul uning qo‘lida bo‘ladi;

– bozorda nimaga talab oshsa, shu narsani ishlab chiqarish foydali bo‘ladi;

– jamiyat a‘zolari o‘z daromadiga ko‘ra tabaqalanadi.

Jahon tarixi tajribasi guvohlik beradiki, insoniyat birdaniga tartibga solinuvchi bozor iqtisodiyotini yaratolmagan, necha ming yillar davomida stixiyali bozor iqtisodiyoti sharoitida yashab, vaqti-vaqti bilan iqtisodiy larzalarni, chuqur iqtisodiy inqirozlarni boshidan kechirgan. XX asrda jahon sivilizatsiyasi insoniyat manfaatlarini yo‘lida yanada jadal taraqqiy etdi. Bu jarayon iqtisodiy tafakkurga ijobiy ta’sir etib, tartibga solinuvchi bozor iqtisodiyoti g‘oyasini keltirib chiqardi. Unga amal qilgan davlatlarda iqtisodiyot jadal o‘sa boshladi, aholi turmushi, farovonligi yaxshilanib bordi. Shu tariqa dunyoda tartibga solinadigan bozor munosabatlari iqtisodiyotning yetakchi shakliga aylanib bordi.

Sovet hukmronligi davrida esa hokimiyat tepasida turgan kommunistlar mulkni yoppasiga davlat ixtiyoriga olish, resurslarni markazlashtirilgan tarzda ma’muriy-buyruqbozlik, rejallashtirish asosida boshqarish va taqsimlash yo‘li bilan ijtimoiy adolatni qaror toptirish va xalq farovonligini oshirishga urinib ko‘rdi. 74 yil davom etgan bu sinov o‘zini oqlamadi, ijtimoiy adolat ham qaror topmadi, xalq uchun farovon turmush ham yaratilmadi va oxir-oqibatda ma’muriy-buyruqbozlik asosida boshqariladigan o‘ta siyosiylashgan, mafkuralashgan iqtisodiyot tanazzulga uchradi.

Mustaqillik yillarida O‘zbekiston iqtisodiyotidagi yangilanish, tub o‘zgarishlarni o‘rganishga kirishar ekanmiz, avvalo, mustabid sovet tuzumidan bizga qanday iqtisodiyot meros bo‘lib qolganini tushunib, chuqur anglab yetishimiz lozim. O‘zbekiston qaramlik davrida o‘z tabiiy boyliklariga, yer-suv, o‘rmon va boshqa resurslariga o‘zi egalik qila olmasdi, iqtisodiy taraqqiyot yo‘lini o‘zi belgilay olmasdi. Respublika hududida qurilgan va faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar markazga, uning manfaatlariga bo‘ysundirilgan edi. O‘zbekiston rahbariyati, xalqi o‘z hududida qancha mahsulot ishlab chiqarilayotganini, ular qayerda realizatsiya qilinayotganini va qancha daromad keltirayotganidan bexabar edi.

Mustaqillikni qo'lga kiritgan O'zbekiston moliya-kredit, bank siyosati yuritishda qaram edi, o'zining milliy valutasiga, valuta jamg'armasiga ega emasdi. Sovet davlatidan zaif xomashyo yetishtirishga yo'naltirilgan, ya'ni arzon xomashyo va strategik mineral resurslar tayyorlanadigan iqtisodiyot meros bo'lib qolgan edi. Respublika iqtisodiyotida boy mineral xomashyo resurslaridan ayovsiz, nazoratsiz foydalanish hukmronlik qilardi. Umri tugagan sovet tuzumidan iqtisodiy boshqaruvning ma'muriy-buyruqbozlik usuli, "Qayta qurish" davrida batamom barbod bo'lgan iqtisodiyot, izdan chiqqan moliyaviy narx-navo tizimi, tushkunlik holatidagi ijtimoiy-iqtisodiy muhit meros bo'lib qolgan edi. Respublika korxonalari Sovet Ittifoqi bo'yicha boshqa korxonalar bilan uzviy bog'langani sababli, endi ular o'rtasidagi aloqalar uzilib, xo'jalik yuritish murakkablashib qolgan edi. O'zbekiston yoqilg'i va oziq-ovqat masalasida ham markazga qaram edi.

Ekin ekiladigan yerlarning paxta maydonlariga aylantirilishi, paxta yakka hokimligining o'rnatilishi natijasida O'zbekiston un, go'sht, sut mahsulotlari va boshqa eng muhim oziq-ovqat mollari, xalq iste'moli tovarlari, tayyor mahsulotlarni chetdan keltirishga mahkum etilgan edi. Paxta, oltin, rangli metallar, strategik ahamiyatga ega bo'lgan boshqa materiallar tashib ketilar, ularni sotishdan keladigan daromad O'zbekiston xazinasiga tushmas edi. Hatto o'ziga qarashli bo'lgan mablag'ni markazdan dotatsiya sifatida so'rab olishga majbur edi. Aholi turmush darajasi bo'yicha nochorlik va yetishmovchilik Ittifoq miqyosida eng oxirgi o'rinlardan birida edi.

Ittifoqdan mustaqil bo'lgan Rossiya, Ukraina va Belorussiyadan farqli o'laroq, O'zbekiston aholisining deyarli uchdan ikki qismi qo'l uchida tirikchilik qilardi. Sovet tuzumidan o'tkir ijtimoiy, ekologik muammolar meros bo'lib qolgan edi. Aholi yerning nihoyat darajada sho'rlanishi, havoning va suv zaxiralarining ifloslanganligi, radioaktiv ifloslanish, Orol dengizining qurib borishi oqibatida juda katta ekologik xavfga duch kelib qolgan edi.

Iqtisodiy mustaqillikning imkoniyatlari. Iqtisodiy mustaqillik xalqimizni o'z yeri, yer osti boyliklari, suv, o'simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy zaxiralarga to'la egalik qilish

huquqini berdi. O'z hududimizdagi barcha mulk, korxonalar O'zbekiston tasarrufiga olindi, mustaqil iqtisodiy siyosat yuritish, iqtisodiy taraqqiyot yo'lini o'zi belgilash erkinligi qo'lga kiritildi. Iqtisodiy mustaqillik mamlakatimizga mustaqil moliya-kredit, bank siyosatini yuritish, o'z davlat budjetini yaratish va unga to'la egalik qilish, milliy valuta, oltin zaxirasi va valuta jamg'armasini tashkil etish va ulardan xalqimiz farovonligi, yurtimiz obodonligi yo'lida mustaqil foydalanish imkoniyatini yaratdi. Iqtisodiy mustaqillik tufayli ishlab chiqarish munosabatlarini ma'muriy-buyruqbozlik, markaziy rejalashtiruvchi mexanizmdan erkin bozor iqtisodiyoti sharoitlariga o'tkazish, jahon xo'jaligi aloqalari tizimiga kirish imkoniyati bo'ldi. Davlat mustaqilligi qo'lga kiritilgach, O'zbekiston umumbashariy, jahon sivilizatsiyasining katta yo'liga tushib oldi.

Mustaqillikning dastlabki yillarida O'zbekiston bozor munosabatlarini shakllantirish, milliy an'analarga asoslangan o'z taraqqiyot yo'lini tanlab oldi. Chunki turli mamlakatlardagi bozor iqtisodiyoti, u xoh Amerika yoki Germaniyada bo'lsin, xoh Yaponiya yoki Janubiy Koreyada bo'lsin, baribir umumiy qonunlar bo'yicha rivojlanib borgan holda har biri o'zining o'ziga xos xususiyatlariga ham ega bo'lgan. Bu xususiyatlar xo'jalikning tuzilishi va shart-sharoitlari, tabiati va iqlimi, milliy rasm-rusumlari, an'analari va milliy xarakteri orqali belgilanadi. O'zbekistonda bozor munosabatlariga o'tishning o'ziga xos yo'li ishlab chiqildi.

Bu yo'lning asosiy qoidalari Birinchi Prezident Islom Karimovning "O'zbekiston – bozor munosabatlariga o'tishning o'ziga xos yo'li" nomli asarida, Respublika parlamentida qilgan ma'ruza va nutqlarida, mamlakat parlamenti qabul qilgan qonunlarda bayon etib berilgan. Bu yo'lga, birinchidan, xalqaro tajriba asos qilib olindi. Ikkinchidan, respublikamiz xo'jalik imkoniyatlari, shart-sharoitlari, eski tuzumdan meros bo'lib qolgan muammolar hisobga olindi. Davlat qurilishi dasturining va O'zbekiston iqtisodini isloh etishning butun o'zagini mamlakatning Birinchi Prezidenti I.A.Karimov tomonidan ishlab chiqilgan besh asosiy tamoyil tashkil etdi. Ushbu tamoyil asosini quyidagilar tashkil etadi:

Birinchidan, iqtisodiyotni mafkuradan batamom xoli qilish. Iqtisodiyot siyosatdan ustun turmog'i lozim. Aynan iqtisodiyot, uni

yanada rivojlantirish muammolari davlat siyosatining asosiy mazmuniga aylandi.

Ikkinchidan, davlatning o'zi eski tuzumdan yangi tuzumga o'tish davrida bosh islohotchisi bo'lishi zarur. Davlat butun xalqning manfaatlarini ko'zlab, islohotlar jarayonining tashabbuskori bo'lishi, iqtisodiy taraqqiyotning yetakchi yo'nalishlarini belgilashi, iqtisodiyotda, ijtimoiy sohada va suveren davlatimizning ijtimoiy-siyosiy hayotida tub o'zgarishlarni amalga oshirish siyosatini ishlab chiqishi va izchil ro'yobga chiqarishi kerak.

Uchinchidan, Qonunning ustuvorligi, yangilanish va taraqqiyot jarayoni qonunlarga asoslanmog'i zarur. Iqtisodiy o'zgarishlar amaliy kuchga ega bo'lgan qonunga tayangandagina sezilarli natija berishi mumkin.

To'rtinchidan, bozor iqtisodiyotiga o'tishda kuchli ijtimoiy siyosatni amalga oshirish, davlatning aholining ijtimoiy nochor guruhlarini qo'llab-quvvatlash borasida mas'ul bo'lishidir. Iqtisodiy islohotlarning barcha bosqichlarida demografiya sohasidagi real ahvolni, aholining mavjud turmush darajasini hisobga olgan holda odamlarni ijtimoiy himoyalash sohasida kuchli chora-tadbirlarni eldindan amalga oshirish kerak. Ijtimoiy himoyalash mexanizmi mavjud bo'lganidagina ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni saqlash mumkin.

Beshinchidan, islohotlarni, bozor munosabatlarini shakllantirishni puxta o'ylab, bosqichma-bosqich amalga oshirish lozim. "Bu yo'l va andoza iqtisodiyoti bozor munosabatlari asosiga qurilgan rivojlangan mamlakatlarning ko'p asrlik tajribasiga, shuningdek, O'zbekiston xalqining milliy-tarixiy merosi, turmush tarzi, an'analari va ruhiyati xususiyatlariga tayanishi lozim".

Ushbu beshta tamoyilning har biri demokratik va iqtisodiy o'zgarishlarni muvaffaqiyatli isloh qilib borishda muhim ahamiyatga egadir. Shu bilan birga bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o'tish tamoyili alohida e'tiborga loyiq. Bu yetakchi tamoyillardan biridir. Bu iqtisodiy islohotlarning butun ichki mantiqini, rivojlanib borishi va xarakterini belgilab beradi, belgilangan maqsadlarga erishish uchun mavjud kuchlarni va imkoniyatlarni mujassam etish, eng muhim va birinchi o'rindagi

vazifalarni aniqlash va ularni islohotlar muvaffaqiyati yo'lida xizmat qildirishga sharoit yaratadi. Bu tamoyil bozor munosabatlarini qadam-baqadam shakllantirishni, bir bosqichini oxiriga yetkazib va tegishli asos, zamin yaratib, keyin yangi bosqichga o'tishni taqozo etadi. O'zbekistonda iqtisodiy islohotlarning uzoqni ko'zlagan quyidagi strategik maqsadlari belgilab olindi:

- milliy boyliklarning o'sishini, kishilar turmushi va faoliyati uchun munosib sharoitni ta'minlaydigan kuchli va muntazam rivojlanib boruvchi tizim yaratish;

- ko'p ukkladli iqtisodiyotni vujudga keltirish, kishining mulkdan begonalashuvini bartaraf etish, tashabbuskorlik va tadbirkorlikning har taraflama o'sishi uchun asos bo'ladigan xususiy mulkchilikning davlat tomonidan himoya qilinishini ta'minlash;

- korxonalar va fuqarolarga keng iqtisodiy erkinliklar berish, ularning xo'jalik ishlariga davlatning to'g'ridan to'g'ri aralashuvidan voz kechish, iqtisodni boshqaruvning ma'muriy-buyruqbozlik usullarini yo'q qilish, iqtisodiy vositalar va rag'batlantirishlarni keng qo'llash;

- moddiy, tabiiy va mehnat resurslaridan unumli foydalanishni, raqobatbardosh tayyor mahsulotlarni ishlab chiqarishni, jahon iqtisodiyot tizimiga kirib borishni ta'minlaydigan chuqur iqtisodiy o'zgarishlarni amalga oshirish;

- kishilarda yangicha iqtisodiy tafakkurni shakllantirish, ularning dunyoqarashini o'zgartirish, har bir kishiga o'z mehnatini qo'llash sohalari va shakllarini o'zi mustaqil belgilab olishi uchun imkoniyat yaratish.

Strategik maqsadlar asosida iqtisodiy islohotlarning asosiy va muhim tomonlari aniq belgilab olindi. Eng avvalo, birmuncha o'tkir ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni yaqin vaqtlar ichida hal etishga yordam beradigan asosiy tarmoqlarni rivojlantirishga e'tibor qaratildi.

O'zbekistonda iqtisodiy islohotlar quyidagi yo'nalishlarda amalga oshirildi: mulkiy islohotlar, institutsional (muassasalar) va moliya-kredit islohotlari, agrar islohotlar, tashqi iqtisodiy faoliyat islohotlari, ijtimoiy sohadagi islohotlar.

Bu jarayonda islohotlarni huquqiy jihatdan ta'minlash, qonuniy asoslarini yaratishga alohida e'tibor berilib, ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirish uchun iqtisodiyotni tubdan isloh qilishga kirishildi. Avvalo, iqtisodiy islohotlarning quyidagi strategik maqsadlari belgilab olindi:

- kishilar hayoti va faoliyati uchun zarur shart-sharoitlarni ta'minlaydigan iqtisodiy tizimni barpo etish;

- ko'p ukladli iqtisodiyotni yaratish;

- xususiy mulkning davlat tomonidan himoya qilinishini ta'minlash;

- korxonalar va fuqarolarga keng iqtisodiy erkinliklar berish;

- iqtisodiyotda chuqur tarkibiy o'zgarishlar qilish va raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarish;

- jahon iqtisodiy tizimiga qo'shilib borish;

- kishilarda yangicha iqtisodiy fikrlashni shakllantirish;

- iqtisodiy islohotlarning huquqiy negizini yaratish.

O'zbekiston Respublikasida iqtisodiy islohotlarning huquqiy negizini yaratishga yo'naltirilgan 400 dan ortiq qonun hujjatlari qabul qilingan bo'lib, o'z navbatida ularni bir necha yo'nalishlarga bo'lish mumkin:

1. Mulkchilik munosabatlari va ko'p ukladli iqtisodiyotni shakllantiruvchi qonunlar. Bu yo'nalish doirasida mulkchilik to'g'risida, mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish to'g'risida, ijara to'g'risida, davlat uy-joy fondini xususiylashtirish to'g'risida va boshqa qonunlar qabul qilindi.

2. Xo'jalik yuritishni tartibga soluvchi qonunlar, ya'ni xususiy korxonalar to'g'risida, kooperatsiya to'g'risida, dehqon xo'jaligi to'g'risida, shirkat xo'jaligi to'g'risida qonunlar qabul qilindi. Bozor infratuzilmasini yaratuvchi va uning faoliyatini tartibga solib turuvchi, banklar va bank faoliyati to'g'risida, pul tizimi to'g'risida, tadbirkorlik to'g'risida, sug'urta to'g'risida, birjalar va birja faoliyati to'g'risida, qimmatli qog'ozlar va fond birjasi to'g'risida va boshqa qonunlar qabul qilindi. Korxona bilan davlat o'rtasidagi, korxonalar o'rtasidagi munosabatlarni yo'lga soluvchi qonunlar, Soliq kodeksi, Bojxona kodeksi, monopolistik faoliyatni cheklash, korxonalarning bankrot bo'lishi haqida qonunlar qabul qilindi. Xo'jalik protsessual kodeksi ishlab chiqildi, Xo'jalik sudi tuzildi.

3. O'zbekistonning tashqi iqtisodiy faoliyatini belgilab beruvchi huquqiy normalar yaratildi. Tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risida qabul qilingan qonunlar, xalqaro pakt va bitimlar, ularning O'zbekiston tomonidan imzolanishi mamlakatimiz tashqi aloqalarining rivojlanishi tarixida yangi sahifa ochdi. Respublika iqtisodiyotining huquqiy asoslari Prezident farmonlarida, hukumat qarorlari va boshqa me'yoriy hujjatlarda yanada takomillashtirib borildi. Qabul qilingan qonunlar amalga oshirilayotgan bozor islohotlarining ortga qaytmasligining kafolati bo'lib xizmat qilmoqda. Iqtisodiy islohotlarning muhim yo'nalishlaridan biri bozor infratuzilmasini yaratishdan iboratdir.

"Bozor munosabatlarini shakllantirishni tegishli muhimsiz – tovar, pul bozorlarida va mehnat resurslari bozorida xo'jalik yurituvchi subyektlar o'rtasida o'zaro aloqani ta'minlashi kerak bo'lgan bozor infrastrukturasiz tasavvur etib bo'lmaydi".

Bozor infratuzilmasi deganda bozor munosabatlarini shakllantirish va rivojlantirishga, ularni samarali faoliyat yuritishiga xizmat qiluvchi muassasa, tashkilot va korxonalar majmuasi tushuniladi.

Respublikamizda bozor munosabatlarini shakllantirish va rivojlantirishga xizmat qiluvchi infratuzilmaning asosiy bo'g'inlari – turli muassasalar, tashkilotlar va korxonalar majmuasi yaratildi. Avvalambor, ishlab chiqarishga xizmat qiluvchi transport, aloqa, suv va energetika ta'minoti, yo'l va ombor xo'jaligi tuzilmalari yaratildi. Bozor munosabatlarini shakllantirishda birjalar alohida o'ringa ega bo'ldi.

Iqtisodiy islohotlarning dastlabki bosqichidayoq "Respublika ko'chmas mulk birjasi", "Tovar xomashyo birjasi", "Toshkent fond birjasi" tashkil etildi. Bu tarmoq yanada rivojlantirildi. 1991–2000-yillarda xo'jalik yurituvchi subyektlar uchun xizmat qiluvchi 58 ta tovarlar va xomashyo birjalari, 24 ta biznes inkubator, 496 ta auditorlik va konsalting firmalari, ko'plab savdo uylari, auksionlar, tijoratchilik idoralari, reklama firmalari, savdo-sotiq va ularni nazorat qiluvchi davlat muassasalari tashkil etildi. Bozor munosabatlarini rivojlantirishda axborot infratuzilmasi alohida ahamiyatga ega. Shu boisdan iqtisodiy faoliyat uchun zarur bo'lgan axborotlar, xabarlar va ma'lumotlarni to'plovchi, umumlashtiruvchi vositalar, firmalar vujudga keladi.

Mustaqil, erkin davlatning asosiy belgisi, asl poydevori – milliy valutatidir. O‘z valutasiga ega bo‘lmagan davlat o‘z manfaatlarini ko‘zlab mustaqil ravishda moliya-kredit, bank siyosatini yurita olmaydi, o‘z taqdirini, tashkilotlar, xo‘jaliklar va fuqarolar taqdirini belgilay olmaydi. Ichki bozorni naqd pul bilan ta‘minlash, pul chiqarish miqdori, uning xarid kuchi, kelajak istiqboli uchun sarmoya ajratish, kimga qarz berish va kimdan qarz olish, qarzni to‘lash va undirib olish, foiz stavkalarini belgilash kabi masalalarni mustaqil hal qila olmaydi. Pirovardida bunday davlat boshqa kuchli davlatlar ko‘rsatmalariga qaram bo‘lib qoladi, uni hech kim haqiqiy mustaqil davlat deb tan olmaydi. Shu boisdan milliy valyutaga o‘tish O‘zbekiston uchun oliy maqsad edi. Biroq milliy valyutaga o‘tish oson ko‘chmaydi, yangi valyutani muomalaga kiritish inqilob bilan teng. Dunyo tajribasi ko‘rsatadiki, davlatlar o‘z milliy valyutasiga erishish uchun uzoq va mashaqqatli yo‘llarni bosib o‘tgan, bor qudratini safarbar etgan. O‘zbekistonda milliy valutani muomalaga kiritish uchun ham ma‘lum vaqt, tajriba kerak edi. Avvalo, haqiqiy mustaqil iqtisodiyotga erishish lozim edi. Shu boisdan O‘zbekiston mustaqillikning dastlabki payti 1991–1993-yillarda Ittifoqdan meros qolgan rubl zonasida bo‘lib turdi. Biroq sovetlardan keyingi davrda yalpi ichki mahsulot ishlab chiqarishning keskin pasayishi natijasida rublning qadri ham shunga mos ravishda tushib bordi. 1993-yil may oyi boshlarida 800-900 rublning qadri 1 AQSH dollari darajasiga tushib ketgan edi. Shu yili Rossiyada oldingi rubl kursiga tenglashtirilgan yangi namunadagi rubl chiqarildi.

Rossiya hukumati 1993-yil 26-iyulda O‘zbekiston mutasaddi vakillarini Moskvaga taklif qilib, birgalikda rubl zonasida bo‘lamiz deb aytdi. Keyinroq Rossiya, O‘zbekiston va Qozog‘iston rahbarlari Moskvada uchrashib, rubl zonasini saqlashga, O‘zbekiston va Qozog‘istonni 1993-yilgi yangi rubl namunasi bilan ta‘minlashga qaror qilindi. Biroq amalda boshqacha yo‘l tutildi, to‘g‘rirog‘i Rossiya hukumati bu tadbirlardan o‘z manfaati yo‘lida foydalanmoqchi bo‘ldi. Rossiya hukumati O‘zbekistonning oldiga o‘z shartlarini qo‘ydi. Birinchidan, kerakli rublni davlatlararo qarz sifatida, keyinchalik boylik yoki mahsulot bilan to‘lash sharti qo‘yildi. Ikkinchidan, rublni olishdan oldin uning 50 % miqdoridagi

AQSH dollari yoki O'zbekiston oltinini garovga qo'yish talab qilindi. Uchinchidan, O'zbekistonda muomalada bo'lgan 1961–1992-yilgi namunasidagi pulni (rubl) yangi 1993-yil namunasidagi rublga uchga bir nisbati bilan almashtirish sharti qo'yildi. To'rtinchidan, birorta shart bajarilmay qolsa, tovon puli to'lash majburiyati belgilandi. Beshinchidan, O'zbekiston Markaziy Banki Rossiya Markaziy Bankiga hisobot berishi, ya'ni tobe bo'lishi kerak edi. O'zbekiston bunday shartlarga rozi bo'lolmas edi, rozi bo'lmadi ham. Shu boisdan muomalaga yangi milliy valutani joriy qilishga jiddiy kirishildi. 1993-yil 1-noyabrda O'zbekistonda so'm-kupon muomalaga kiritildi, uning kursi oldin muomalada bo'lib kelgan rublga tenglashtirilgan edi. Shu yil noyabr oyi davomida aholi qo'lidagi rubl namunasidagi pullarini jamg'arma banklari orqali so'm-kuponga almashtirildi. So'm-kupon joriy etilayotgan dastlabki paytlarda chetdan rubl oqib kelmoqda, degan mish-mishlar ko'paydi. Bozorda narxlar ko'tarilib ketdi. Hukumat buning oldini olish choralarini ko'rdi. Aholi ortiqcha tashvish, aziyat chekmadi, aksincha, aholi, iqtisodiyot himoya qilindi. O'zbekiston rahbariyati so'm-kuponlar asosida zarur tajriba orttirdi va haqiqiy milliy valutani joriy qilish tadbirlarini ko'rdi. 1994-yil 16-iyundagi "O'zbekiston Respublikasining milliy valutasini muomalaga kiritish to'g'risida"gi Prezident Farmoni va Vazirlar Mahkamasining qaroriga binoan 1994-yil 1-iyuldan boshlab milliy valuta – so'm muomalaga kiritildi. 1 so'm kursi 1000 so'm-kuponga tenglashtirilgan holda joriy qilindi.

Milliy valuta – so'm O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining qiymati 1, 3, 5, 10, 25, 50, 100 so'm bo'lgan bank qog'oz pullari (banknotlar) holida muomalaga chiqarildi. Aholi qo'lidagi so'm-kuponlar jamg'arma banklari orqali 1000 ga 1 qiymatda almashtirildi. Keyinroq 200, 500, 1000 so'mlik qog'oz pullari ham muomalaga kiritildi. Shuningdek, qiymati har xil miqdordagi tangalar ham naqd pul holida muomalaga chiqarildi. Milliy valutaning muomalaga kiritilishi mamlakatimiz hayotida muhim voqea bo'ldi. O'zbekistonning xalqaro maydondagi mavqeyi oshdi, o'zining pul-kredit, moliya siyosatini amalda mustaqil yuritadigan bo'ldi. Bu iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish uchun qulay imkoniyat yaratdi. 2003-yil 15-oktabrdan boshlab, so'm qisman konvertatsiyalanadigan valuta maqomiga ko'tarildi.

Xo‘jalik yurituvchi subyektlarning moliya-kredit munosabatlariga xizmat qiluvchi infratuzilma – yangi bank tizimi, o‘z-o‘zini kreditlash idoralari, sug‘urta kompaniyalari, moliya kompaniyalari, soliq undirish idoralari, pul jamg‘armalari yaratildi. Bozor iqtisodiyotiga xizmat qiluvchi bank-moliya tizimi yaratildi. “O‘zbekiston Respublikasining Markaziy banki to‘g‘risida”, “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi qonunlarda banklarning maqomi va faoliyatining huquqiy asoslari belgilab berildi. Tijorat banklari ixtisoslashtirildi.

Mustaqillikning dastlabki yilida 6 ta bank faoliyat ko‘rsatgan bo‘lsa, 2010-yilda 31 ta tijorat banklari, ularning 810 ta filiali aholiga xizmat ko‘rsatdi. Viloyat, shahar va tumanlarda aholiga xizmat qiluvchi minibanklar ochildi. Minibanklarning soni 2011-yil boshlarida 4000 dan oshdi. Respublika iqtisodiyotini rivojlantirishga yo‘naltirilgan kredit qo‘yilmalarini qo‘yish va chet el sarmoyalarini jalb qilishda banklar faol qatnashmoqdalar. Tijorat banklarining iqtisodiyotning real sektoriga kreditlar berish imkoniyati, moliya bozoridagi ishtiroki yildan yilga mustahkamlanib bormoqda.

To‘lovlarni naqd pulsiz plastik kartochkalar vositasida amalga oshirish tizimi yaratildi. So‘mdagi plastik kartochkalar 1996-yilda paydo bo‘ldi. 2011-yilda muomaladagi bank plastik kartochkalari soni 8 million donani tashkil etdi. Savdo va xizmat ko‘rsatish shoxobchalarida plastik kartochkalariga xizmat ko‘rsatadigan terminallar soni 86 mingga yetdi.

Respublikamizda tadbirkorlar va aholini ehtimoli bo‘lgan turli zararlardan himoya qiluvchi sug‘urta bozori vujudga keldi.

Davlat ishtirokida bozor munosabatlariga xizmat qiluvchi “Kafolat”, “Agrosug‘urta”, “O‘zbekinvest” kabi uchta yirik sug‘urta kompaniyasi tashkil etildi. Ko‘plab xususiy sug‘urta kompaniyalari, shuningdek, xorijiy mamlakatlar bilan hamkorlikda ishlaydigan qo‘shma sug‘urta kompaniyalari ham vujudga keldi. 2002-yilda sug‘urta kompaniyalarining soni 28 taga yetdi, ular moliya bozorida mamlakatimiz fuqarolari va tashkilotlariga 150 turdan ortiq yo‘nalish bo‘yicha sug‘urta xizmati ko‘rsatmoqdalar. “Sug‘urta faoliyati to‘g‘risida”gi Qonunning qabul qilinishi (2002-y.), Prezident Farmoni bilan 2002-yil 1-fevralidan boshlab

sug'urta tashkilotlarining 3 yil muddatga daromad solig'idan ozod qilinishi mamlakatimizda sug'urta bozorini yanada erkinlashtirish va rivojlantirishga xizmat qildi. Bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida ish bilan bandlik masalasi jiddiy muammoga aylanadi. Negaki, iqtisodiy tizim o'zgarayotgan paytda malakasiz kishilargagina emas, ma'lum ixtisosga ega bo'lgan xodimlarga ham talab cheklanadi, ishsizlar toifasi kengayadi. Bunday sharoitda ishsizlar sonining ko'payishiga yo'l qo'ymaslik borasida qator chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Keyinchalik Respublika "Mehnat birjasi" va joylardagi 225 dan ortiq mehnat birjasini o'z ichiga oluvchi katta tarmoq barpo etildi. Har bir tumanda mehnat birjasi tashkil etildi. Ishsizlarni ro'yxatga olish, ularning kasbini o'zgartirish mexanizmi yaratildi, ishsizlik bo'yicha nafaqa to'lash yo'lga qo'yildi. Yangi ish o'rinlarini tashkil etishga e'tibor berildi. 1993-yilda Respublikada tadbirkorlikni rivojlantirish hisobiga 185,1 ming yangi ish o'rinlari tashkil etilgan bo'lsa, 1998-yilda bu ko'rsatkich 345,9 mingni tashkil etdi yoki 1,8 marta ko'p yangi ish o'rinlari yaratildi. 2000-yilda faqat kichik va o'rta biznes rivoji hisobiga 192,5 mingta, 2001-yilda esa 372 mingta, 2002-yilda 370 mingta yangi ish o'rinlari yaratildi. Iqtisodiy islohotlarning birinchi bosqichidayoq narxlar erkinlashtirildi. Bu jarayon ijtimoiy larzalarsiz o'tdi. Negaki, davlat turli kompensatsiya jamg'armalari tuzdi, bolalar uchun nafaqalar joriy etdi, eng kam ish haqi, pensiya, nafaqalar va stipendiyalar muntazam sur'atda oshirib borildi. Narxni erkinlashtirish iqtisodiyotda raqobatchilik muhitini vujudga keltirish bilan bevosita bog'liq. 1992-yil avgust oyida O'zbekiston Respublikasining "Monopol faoliyatni cheklash to'g'risida"gi Qonuni kuchga kiritildi. Bu qonun asosida raqobatchilikni rivojlantirishga qaratilgan bir qator normativ hujjatlar ishlab chiqildi. Moliya vazirligi tizimida tuzilgan Antimonopol va narx-navo siyosatini o'tkazish bosh boshqarmasi monopol mavqeyidagi korxonalarni belgilab, ularning mahsulotlari bo'yicha narxlarni va rentabellikni tartibga solib turibdi. Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonda bozor iqtisodiyotiga o'tishning o'ziga xos yo'li ishlab chiqildi va unga amal qilinmoqda. Bozor munosabatlarini shakllantiruvchi va unga xizmat qiluvchi huquqiy negizlar hamda bozor infratuzilmasi yaratildi.

2. Bozor iqtisodiyotiga o‘tilishi, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlantirilishi, mamlakatimizdagi iqtisodiy o‘sinh

Mustaqillikning dastlabki o‘n yilligida mamlakatimizning Birinchi Prezidenti Islom Karimov tomonidan ishlab chiqilgan mustaqil taraqqiyot yo‘li xalqimiz tomonidan ham, xalqaro maydonda ham taraqqiyotning “O‘zbek modeli” deb qabul qilindi. O‘zbek modelini ishlab chiqishda, birinchidan, xalqaro tajriba asos qilib olindi. Ikkinchidan, xo‘jalik imkoniyatlari, shart-sharoitlari, eski tuzumdan meros bo‘lib qolgan muammolar hisobga olindi.

Barchaga ma‘lumki, taraqqiyotning bozor iqtisodiyotiga asoslangan yo‘lini tanlagan O‘zbekistonda mustaqillikning ilk kunlaridan boshlab, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojlantirib borildi. Bu borada qator qonunlar qabul qilindi.

Darhaqiqat, O‘zbekiston o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritgandan so‘ng, dastlabki yillarda, kichik biznes faoliyatini shakllantirish va rivojlantirish uchun quyidagi dastlabki normativ-huquqiy qonun hujjatlari qabul qilindi. Jumladan, 1991-yil 18-noyabrda O‘zbekiston Respublikasining “Mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish to‘g‘risida”gi Qonuni muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Unga ko‘ra, mulkchilik shakllarini o‘zgartirish sohasidagi ishlar respublika hamda hududiy maqsadga bosqichma-bosqich ishlab chiqiladigan va tasdiqlangan maxsus dastur asosida amalga oshirilishi qat’iy belgilab qo‘yildi. Albatta, ushbu Qonunning qabul qilinishi sohani bosqichma-bosqich rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilab berdi. Qabul qilingan qonunlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga muvofiq, xalq xo‘jaligidagi barcha soha tarmoqlarini ommaviy xususiylashtirish uchun keng imkoniyat yaratildi, bu boradagi cheklashlar olib tashlandi. Birgina 1992–1996-yillarda davlat mulki obyektlarini xususiylashtirish tufayli 1 million 74 ming kishi turar joy egasi, 2 million kishi xalq xo‘jaligining barcha tarmoqlarida xususiylashtirilgan korxonalar aksiyalari, paylarining egalari, qishloq joylarida esa 3 million kishi yordamchi xo‘jalik, 19 ming kishi ko‘chmas mulk egasi bo‘lib qoldilar. Bu raqamlar, shubhasiz, jamiyatda mulkdolar sinfini shakllantirish yo‘lidagi muhim qadamlar qo‘yilganligini anglatar edi. Amalga oshirilgan dastlabki

islohotlar natijasida 1991–1996-yillar mobaynida iqtisodiy islohotlarning barcha yo‘nalishlarida salmoqli institutsional o‘zgarishlar sodir bo‘ldi. Xususan, turar joylar, savdo xizmat ko‘rsatish sohalari, matbuot jamiyati obyektlari va turli tarmoqlarning mayda korxonalarini xususiylashtirish amalda tugallandi, o‘rta va yirik korxonalarni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish jarayoni jadal davom ettirildi. Bu borada mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish, ko‘p ukladli iqtisodiyotni barpo qilish, qishloq xo‘jaligida islohotlarni chuqurlashtirish, agrar munosabatlarning yangi tipini yaratish jarayonlari amalga oshirildi. Bu tadbirlarning natijasi o‘laroq iqtisodiyotda tub sifat o‘zgarishlari vujudga keldi. Davlatga qarashli bo‘lmagan, nodavlat, ya‘ni xususiy sektorning iqtisodiyotdagi ulushi keskin oshdi. Bu sektor 1995-yilda sanoat mahsulotlarning 44 foizini, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining esa 97 foizini berdi. Barcha kapital mablag‘larning 44 foizdan ortiqrog‘i uning hissasiga to‘g‘ri keldi.

2000-yilgacha xalq xo‘jaligida band bo‘lganlarning 64 foizi ana shu sektorda mehnat qilgan. Bu esa o‘sha paytlarda bozor munosabatlariga o‘tish muammolarini sinchkovlik bilan o‘rganib, ularni hal etishda ehtiyotkorlik bilan yondashishga e‘tibor qaratishni taqozo etar edi. Ayniqsa, endigina bozor psixologiyasi odamlar ongida shakllanib kelayotgan bir sharoitda respublikada, birinchi navbatda, maishiy xizmat, umumiy ovqatlanish, savdo-sotiq, mahsulotni qayta ishlovchi kichik korxonalarni ochish zarur edi.

O‘zbekiston o‘z mustaqilligining dastlabki yillarida, kichik biznesga ko‘maklashish maqsadida respublika va hududiy miqyosda faoliyat olib boruvchi – Xususiy tadbirkorlik va kichik biznesni qo‘llab-quvvatlash fondi (Biznes fond, 1995-yil iyul), “Madad” sug‘urta agentligi (1995-yil 26-iyun), O‘zbekiston Tovar ishlab chiqaruvchilar va tadbirkorlar palatasi (1996-yil mart) hamda ularning hududiy bo‘limlari tashkil etildi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanishiga Dehqon va fermer xo‘jaliklari uyushmasi, “Hunarmand” uyushmasi, Tadbirkor ayollar uyushmasi tashkil etildi.

Ammo o‘sha paytlarda sohada qator muammolar ham mavjud bo‘lib, ularning holati bir necha yillar davomida taraqqiyotga to‘siq

bo'lib keldi. Xususan, 1999-yil 1-iyunga qadar ro'yxatdan o'tgan korxonalar tarkibida kichik va o'rta korxonalar salmog'i kommunal xo'jalikda 42,9 %, maishiy xizmat sohasida 85,0 %, qurilishda 89,3 %, qishloq xo'jaligida 89,9 %, sanoatda 93,5 %, savdoda 95,3 %, umumiy tijoratda 96,6 %ni tashkil etgan bo'lsa-da, amalda esa ro'yxatdan o'tib, o'z faoliyatini davom ettirayotgan korxonalar ulushi 20 %ni tashkil etgan xolos. Qolganlari esa turli sabablar bilan yopilib ketgan bo'lib, buni quyidagi misollar ham tasdiqlaydi.

Statistik ma'lumotlarga murojaat qilinsa, respublika bo'yicha 1996-yilda tashkil qilingan 7400 kichik korxonadan 20 %, 1998-yili esa 3700 ta korxonadan 70 % tugatilib ketgan. Shu boisdan ko'pgina tadbirkorlar faoliyat bilan shug'ullanishdan sekin-sekin uzoqlashganlar yoki ish boshlab qo'yib, uni oxirigacha yetkazmasdan, javobgarlikni davlatga tashlab qo'yanlar. Masalan, 2000-yilning o'zida faqat Toshkent shahri bo'yicha tugatish jarayonida turgan kichik biznes subyektlari 4666 ta bo'lib, ulardan 54,7 % yoki 2552 tasida ta'sischilar bo'lmagan. Tugatilish holida turgan jami korxonalardan tugatilganlari 25,6 %ni tashkil qilgan yoki 1194 ta bo'lgan.

Shunday bo'lgani holda mustaqillik yillarida tadbirkorlik sohasida ma'lum darajada yutuqlarga erishilgan. Soha rivoji tahliliga ko'ra, yana raqamlarga murojaat etilsa, 2003-yili yurtimizdagi 5 ming 630 ta aholi yashash manzilgohlarida ko'plab kichik va o'rta biznes korxonalari tashkil etilib, qariyb 155 mingta yangi ish o'rinlari yaratilgan. Dastur doirasida aholiga 2003-yilda 1 milliard 200 million so'mlik xayriya yordami ko'rsatilgan. Ikki yoshgacha bo'lgan bolalar tarbiyasi bilan shug'ullanayotgan 400 mingdan ziyod ayolga davlat tomonidan nafaqa puli tayinlangan. 180 ming kam ta'minlangan oilaga qariyb 4 milliard so'm miqdorida moddiy ko'maklar berilgan. 2003-yilda 25 mingdan ziyod yolg'iz pensioner va nogironlarga 630 million so'mlik moddiy yordamlar ko'rsatilgan.

2000-yillardan boshlab joylarda kichik korxonalar ochilishi va fermer xo'jaliklarining ko'payishi natijasida ish bilan band aholi sonining ham yil sayin ortib borishi kuzatildi. Xususan, 2007-yildagi 2094,2 ming kishidan 2011-yilda 2338,4 ming kishiga yoki 11,6 foizga ko'paydi. Shu yillarda respublika bo'yicha yuridik

shaxs maqomiga ega bo'lmagan, lekin litsenziya asosida tadbirkorlik bilan band bo'lganlar soni 140,8 ming kishidan 698,4 ming kishiga yoki 4,96 marta ko'paygan edi. Lekin bu ko'rsatkichlar respublika miqyosida yuqori emasdi, tadbirkorlik bilan shug'ullanishdagi ayrim to'siqlar oqibatida, bir qator korxonalarining yopilish holatlari ham kuzatildi.

Ushbu muammolarni to'g'ri anglagan va unga tanqidiy asosda yondoshgan Prezident Shavkat Mirziyoyev 2017-yil 22-dekabrda Oliy Majlisga qilgan Murojaatnomasida "Yurtimizda tadbirkorlik nima uchun kutilgan darajada rivojlanmayapti? Chunki bu soha vakillarini asossiz ravishda tekshirish holatlari ko'p. Ochig'ini aytganda, tadbirkorlikning erkin rivojlanishiga o'zimiz, davlat idoralari yo'l qo'ymayapmiz. Hech kimga kerak bo'lmagan tartib-tamoyillar hamon saqlanib qolmoqda, joylarda ko'pgina amaldorlar faqat o'z shaxsiy manfaatini o'ylab ish ko'rmoqda. Bundan buyon bu sohani qo'llab-quvvatlash, biznes subyektlarini jadal barqaror rivojlantirish yo'lidagi to'siq va g'ovlarni bartaraf etish bo'yicha zarur choralar ko'riladi" – deya qayd qilganligi bejiz emas, albatta.

Mashinasozlik, avtomobilsozlik va sanoat korxonalarining faoliyati.

Mustaqillik mashinasozlik sanoati jadal rivojlanishi uchun ham zamin yaratdi. 1994-yilda barpo etilgan O'zbekiston – Isroil "O'zIsmash" qo'shma korxonasida paxta terish mashinalarining gorizontal shpindelli yangi xili yaratildi. Bu agregat jahon mashinasozligining eng yangi yutug'i, deb e'tirof etildi.

1992-yilda Janubiy Koreya bilan hamkorlikda O'zbekistonda avtomobil ishlab chiqaruvchi korxona barpo etishga kelishib olindi. 1993–1996-yillarda Asaka shahrida "Uz-DAEWOOavto" zavodi barpo etildi va "Damas", "Tico", "Nexia" rusumli avtomobillar ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi. 1996-yilda 25,3 ming, 1997-yilda 64,9 ming, 1998-yilda 54,4 ming, 1999-yilda 58,4 ming, 2004-yilda 70 ming dona yengil avtomobil ishlab chiqarildi. "Uz-DAEWOO" zavodida 1999–2003-yillarda "Matiz", "Lacetti" rusumli avtomobillar ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi. O'zbekiston dunyoda avtomobil ishlab chiqaruvchi 28 mamlakatdan biriga aylandi. "Uz-DAEWOOavto" zavodi 10 yil (1996–2006-yil iyun) davomida 571580 ta avtomobil tayyorladi, ularning 198609 tasi xorijga eksport qilindi.

Samarqandda avtobus va yuk mashinalari ishlab chiqarishga ixtisoslashgan "SamKochavto" zavodi qurildi va 1999-yilda ishga tushirildi. 2000-yilda "SamKochavto" zavodi 483 ta avtobus, 102 ta yuk avtomobili ishlab chiqardi.

Respublikamizda avtomobillarga butlovchi qismlar ishlab chiqaruvchi o'nlab yangi korxonalar bunyod etildi. Andijon, Namangan, Farg'ona viloyatlarida avtomobillarga butlovchi qismlar tayyorlaydigan 61 ta qo'shma korxonalar qurilib ishga tushirildi. Hozirgi paytda "Uz-DAEWOO" zavodi uchun zarur bo'lgan butlovchi qismlarning 60 foizi O'zbekistonda ishlab chiqarilmoqdi.

2007-yilda "O'zavtosanoat" uyushmasi bilan AQSHning General Motors kompaniyasi o'rtasida GM-Uzbekistan qo'shma korxonasi tashkil etildi. 2012-yilning 20-mart kuni "GM-Uzbekistan" qo'shma korxonasida ishlab chiqarilgan "Chevrolet Malibu" avtomobillarining taqdimoti bo'lib o'tdi.

2009-yildan Germaniyaning "MAN Nutzfahrzeuge AG" konserni hamkorligida "MAN Avto-Uzbekistan" qo'shma korxonasi tashkil etilib, "MAN" yuk mashinalari ishlab chiqilmoqda. Samarqandda barpo etilgan va ishga tushirilgan "SamKochavto" zavodida avtobus va yuk avtomobillari ishlab chiqarilmoqda.

Mashinasozlik sanoatining yirik korxonalari – Toshkent traktor zavodi, O'zbekiston qishloq xo'jaligi mashinasozligi, Toshkent va Chirchiq qishloq xo'jaligi mashinasozligi, Toshkent agregat zavodi va boshqa korxonalar mustaqillikning dastlabki yillarida uchragan qiyinchiliklarni yengib o'tdi. Birgina Toshkent traktor zavodida 2000-yilda 954 ta, 2001-yilda 1002 ta traktor ishlab chiqarilgan bo'lsa, hozirgi paytda yiliga 3,5–4 ming donagacha traktor, minglab tirkamalar ishlab chiqarilmoqda.

1995-yil oktabr oyida O'zbekiston bilan AQSHning "ABB Lummus Global" kompaniyasi o'rtasida Sho'rtan gaz-kimyo majmuasini qurish bo'yicha hamkorlik yo'lga qo'yildi. Qurilish ishlari 1997–2001-yillarda amalga oshirildi, majmua qurilishiga 1 mlrd. AQSH dollari hajmida sarmoya o'zlashtirildi. 2001-yil dekabrda Sho'rtan gaz-kimyo majmuasi ishga tushirildi. Majmua yiliga 125 ming tonna polietilen, 137 ming tonna suyultirilgan gaz va 126 ming tonna gaz kondensati ishlab chiqarish quvvatiga ega.

Respublikada sanoatning yengil va to'qimachilik kabi turlari tez sur'atlar bilan rivojlanib bormoqda. Janubiy Korea ishtirokida paxtani qayta ishlovchi "Qabul-O'zbekKO", "Kosonsoy-Tekmen", "Papfen", "Asnam tekstil", "Karakulteks", "Chinoz to'qimachi", "Qabul-FerganaKO", "Oqsaroy to'qimachi" qo'shma korxonalari barpo etildi. Faqat 2004-yilda 17 ta yengil sanoat korxonalari qurilib ishga tushirildi. Bu tarmoqda xalq iste'mol mollarini ishlab chiqarish kengaydi, minglab yangi ish o'rinlari yaratildi. Agar 1991-yili respublikamizda paxta tolasini qayta ishlash 12 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2004-yilda bu ko'rsatkich 28 foizga yetdi. Kalava, ip, paxta va shoyi gazlamalarini eksport qilish hajmi ancha oshdi.

Mustaqillik yillarida "Zarafshan-Newmont" korxonasi, Qizilqum fosforit kombinati, Qo'ng'iro't soda zavodi, Quvasoy kvars zavodi, Yangiyo'l va Andijon spirt zavodlari, Toshloq ip yigiruv fabrikasi va boshqa ko'plab korxonalar bunyod etildi.

Mustaqillik yillarida iqtisodiyot tarkibidagi tub o'zgarishlar, yangi korxonalarning bunyod etilishi sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish sohasida samarali natijalar berdi. 1991–2002-yillarda 1872 korxona va boshqa ishlab chiqarish muassasalari qurildi, mahsulotning 9,5 mingdan ortiq yangi turlarini ishlab chiqarish o'zlashtirildi. 1990-yilda respublika bo'yicha ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmini 100 foiz deb olsak, undan keyingi yillarda kamayib bordi. 1995-yilga kelib makroiqtisodiyotda barqarorlikka erishildi va 1995-yildan boshlab barqaror o'sish ta'minlandi. 1990-yilda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini 100 foiz deb olsak, 2000-yilda 123,6 foizga, 2010-yilda 3 marta o'sdi. Un va un mahsulotlari, kiyim-kechak, poyabzal, shakar va qand mahsulotlari ishlab chiqarish sezilarli darajada ko'paydi, iste'mol buyumlari importi kamaydi.

Dastlab, yalpi ichki mahsulot ishlab chiqarish 1991–1995-yillarda pasayib bordi, 1996-yildan boshlab o'sish boshlandi. Natijada O'zbekistonda 2000-yilda ishlab chiqarilgan yalpi ichki mahsulot (xarid qobiliyati pariteti bo'yicha) 1990-yilga nisbatan 1,3 marta, 2010-yilda esa 3,4 marta o'sishiga erishildi.

O'zbekiston MDH davlatlari orasida birinchi bo'lib iqtisodiy barqarorlikka erishgan, iqtisodiy ko'rsatkichlari izchil o'sib

borayotgan mamlakatdir. O'zbekistonda yalpi ichki mahsulotning yillik o'sish sur'atlari 2005–2015-yillar davomida 8 foizdan yuqori bo'lib kelmoqda.

O'zbekistonning umumiy eksport hajmida tayyor mahsulot va xizmatlar ulushi oshdi, tashqi savdoda ijobiy saldoga erishildi.

Istiqlol yillarida olib borilgan islohotlar natijasida shahar va qishloqlarimizning qiyofasi o'zgarib, aholi turmush saviyasi o'sib bordi. Yirik inshootlar, korxonalarning bunyod etilishi, iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlar, izchil o'sish sur'atlari odamlarning moddiy va ijtimoiy hayotini, farovonligini yildan yilga yaxshilanishiga xizmat qilmoqda. Aholini tabiiy gaz, ichimlik suvi bilan ta'minlash darajasi salmoqli darajada o'sdi. Birgina 1999-yilda 4,5 ming kilometr gaz tarmog'i (shundan 4,3 ming kilometri qishloq joylarida), 2 ming kilometrdan ziyod ichimlik suv tarmog'i (shundan 1,9 ming kilometri qishloq joylarida) ishga tushirildi.

Transport sohasida jahondagi yetakchi kompaniyalarni havo kemalari bilan ta'minlagan O'zbekiston Havo yo'llari aviakompaniyasi dunyoning 25 mamlakati bilan havo aloqalarini o'rnatgan, yo'lovchilarga xizmat ko'rsatmoqda.

Respublika miqyosida tadbirkorlik subyektlarining faol qo'llab-quvvatlanishi natijasida uning mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi ulushi yildan yilga ortib bormoqda. Xususan, 2000-yilda yalpi ichki mahsulotning qariyb 31 foizi iqtisodiyotning faol rivojlanib borayotgan ushbu sektori ulushiga to'g'ri kelgan bo'lsa, 2008-yilda bu ko'rsatkich 48,2 foizni, 2009-yilda 50,1 foizni, 2010-yilda 52,5 foizni, 2011-yilda esa 54 foizni tashkil etdi yoki 2000-yilga nisbatan 23 foizga o'sgan. 2010–2016-yillar davomida respublikada tadbirkorlik orqali tashkil etilgan ish o'rinlarining soni 3,9 foizga ortgan. 2017-yilda esa dasturga muvofiq sanoatni (5440 ta loyihada 131 mingta ish o'rni bilan), qishloq xo'jaligini (8430 loyihada 55,8 mingta ish o'rni bilan) va xizmat ko'rsatishni (11 mingta loyiha 69,5 mingta ish o'rni bilan) rivojlantirish bo'yicha viloyatlar, tumanlar va shaharlar hokimliklarining faoliyati kuchaytirildi. Kelajakda mamlakatda 25 mingga yaqin investitsiya loyihalarini amalga oshirish hisobiga 256,4 mingdan ortiq ish o'rinlari tashkil etishga erishiladi.

3. O'zbekiston iqtisodiyotida qishloq xo'jaligining o'rni. Agrar islohotlar

Qishloq xo'jaligi sohasida islohotlarni amalga oshirish jarayonida davlat xo'jaliklari tugatilib, jamoa, shirkat xo'jaliklariga aylantirildi, chorvachilik, aksariyat xo'jaliklarning qoramolchilik fermalari xususiylashtirildi, dehqon va chorvachilik yo'nalishidagi fermer xo'jaliklari tashkil etila boshlandi. Agar mamlakatimizda fermerlik harakatining shakllanish tarixi va rivojlanishiga murojaat qilinsa, fermerlikni shakllantirish chorvachilik sohasi islohotlaridan boshlangan edi. Qishloq xo'jaligida ishlab chiqarish tarkibini takomillashtirishga e'tibor berildi. Xo'jaliklar ekin ekish sohasida mustaqil bo'ldilar. Respublikada don mustaqilligiga erishish, shakar va boshqa oziq-ovqat mahsulotlari tayyorlashni tiklash yo'li izchillik bilan amalga oshirildi. Paxta ekiladigan maydonlar qisqartirilib, donli ekinlar maydoni kengaytirildi. Umumiy ekin maydonlarida donli ekinlar salmog'i 1991-yilda 18,8 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2000-yilda 42 foizga o'sdi.

Agar 1991-yilda mamlakatimizda 1,9 mln. tonna don tayyorlagan bo'lsa, 2012-yilda 7,5 mln. tonna don yetishtirildi. 2014-yilda 8 mln. 50 ming tonnalik g'alla xirmoni tayyorlandi.

Yaqin tariximizda chorvachilik sohasini rivojlantirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1993-yil 15-martdagi "Respublika chorvachiligida iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 1994-yil 23-fevralda "Chorvachilikda iqtisodiy islohotlarni takomillashtirish hamda dehqon (fermer) xo'jaliklari va xususiyashtirilgan fermalar manfaatlarini himoya qilish choralari to'g'risida", 1995-yil 24-martdagi "Chorvachilikda xususiyashtirishni davom ettirish va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari muhim ahamiyat kasb etdi. Bu qarorlarga asosan, 1995-yilda jamoa xo'jaliklarining zarar bilan ishlayotgan 1499 qoramolchilik fermalari xususiyashtirildi. Natijada respublikada ishlab chiqarilayotgan go'sht va sutning 75 %ni xususiy sektor bera boshladi.

Ushbu davrda agrar soha fermerlik yo'nalishining shakllanishida davlat tasarrufidagi qo'y, echki, qoramollar, yilqi, tuya kabi hayvonlarni fermerlarga bo'lib berish, davlat

mulkchiligini tugatish, ularni xususiylashtirishga katta e'tibor qaratildi. Natijada 1990-yilda respublikada bironta ham fermer xo'jaligi faoliyat yuritmagan bo'lsa, qishloq xo'jaligi ekin maydonlarining xo'jalik shakllari bo'yicha taqsimlanishiga e'tibor qaratilib, 2000-yilga kelib ular tasarrufidagi yerlar 632,2 ming gektarga, 2010-yilga kelib esa 3 mln. 143 ming gektarga yetgan. Vaholanki 1990-yilda O'zbekistonda sovxozlar, kolxozlar, yordamchi xo'jaliklar, maxsus shirkatlar, qorako'lichilik fermalariga tegishli yer maydonlari 3 mln. 974 ming gektarni tashkil qilgan bo'lsa, 2000-yilga kelib ularning yerlari fermer xo'jaliklariga bo'lib berilib, o'sha qishloq xo'jalik korxonalarining yiriklashtirilishi natijasida 2010-yilda umumiy yer maydonlari qisqartirilib, zarar bilan ishlayotgan yoki dotatsiyaga tushgan xo'jaliklarning yerlari 93 ming 900 gektarga kamaytirilgan edi.

2000-yillardan boshlab agrar sohada fermer xo'jaliklarining tashkil etilishi barqaror tus oldi. Fermer xo'jaligining yuzaga kelish asoslari Vazirlar Mahkamasining 2002-yil 5-yanvardagi 8-sonli "Qishloq xo'jaligi korxonalarini fermer xo'jaliklariga aylantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori va 2003-yil 27-oktabrdagi "2004–2006-yillarda fermer xo'jaliklarini rivojlantirish konsepsiyasi to'g'risida"gi Prezident Farmonida batafsil yoritib berilgan.

Agar 2001-yilda respublikada faoliyat ko'rsatayotgan fermer xo'jaliklarining soni 55445 birlikdan iborat bo'lgan bo'lsa, 2006-yilga kelib 189235 birlikka yetgan yoki 3,4 baravar oshgan. Xo'jaliklar sonining tahlil davridagi o'rtacha yillik o'sishi 40,2 foizni tashkil etgan. Jami 428 ta shirkat xo'jaligi negizida 22 mingdan ortiq fermer xo'jaliklari tashkil etildi.

Respublikamizda fermerlikning kelgusidagi rivojlanishi va yangi imkoniyatlaridagi o'zgarishlar 2000-yillar oxiriga to'g'ri keladi. Puxta o'ylangan dastur asosida 2008–2010-yillar davomida o'tkazilgan maqbullashtirish jarayoni natijalariga ko'ra, fermer xo'jaliklarining yer maydonlari hajmi kamaytirildi. Amalga oshirilgan maqbullashtirish jarayoni natijasida 2011-yil yakuniga ko'ra, Respublikamizdagi fermer xo'jaliklarining soni 215776 tadan 66134 taga yoki 69,4 foizga kamaytirildi, bunda bir fermer xo'jaligiga to'g'ri keladigan o'rtacha yer maydoni hajmini 27,4 gektardan 80,1 gektargacha ko'paytirishga erishildi. O'rtacha bir

fermer xo'jaligiga to'g'ri keladigan yer maydonini tarmoqlar bo'yicha olib qaraydigan bo'lsak, bu ko'rsatkich o'sha davrda paxtachilik va g'allachilikda 106,3 gektarga, sabzavotchilik va polizchilikda 23,5 gektarga, bog'dorchilik va uzumchilikda 13,1 gektarga, chorvachilikda 205 gektarga teng bo'lgan.

So'nggi yillarda mamlakatimizda agrar islohotlarga e'tibor kuchaytirildi. Chunki Respublika aholisining 62 %i qishloqda yashaydi, qishloq xo'jaligida YalMning 30 foizi, mamlakat valuta tushumlarining 55 foizi shakllanardi. Agrar islohotlar natijasida qishloq xo'jaligida davlat tasarrufidagi mulk xususiylashtirildi. Qishloq xo'jaligida nodavlat sektorining ulushi qariyb 100 foizni tashkil qilmoqda.

Islohot yillarida odamlarga shaxsiy tomorqa uchun qo'shimcha ravishda 550 ming gektar sug'oriladigan yer ajratildi va shaxsiy tomorqa uchun berilgan yer maydoni 700 ming gektarga yetdi, 9 milliondan ortiq odam ana shu yer hosilidan foydalanmoqda.

Shu o'rinda qayd etish kerakki, agrar islohotlarning dastlabki yillarida sovxoz va kolxozlar jamoa xo'jaliklariga aylantirilgan edi. Ammo ular xo'jalik yuritishda o'zlarini to'la-to'kis oqlamaganliklari tufayli mulk paylari asosida shirkatlarga aylantirildi. 1999-yilda 898 ta, 2000-yilda 856 ta qishloq xo'jaligi korxonalari shirkatlarga aylantirildi. Ularning umumiy soni 2002-yilning 1-yanvar holatiga ko'ra, respublika bo'yicha 1900 taga yetdi, ularda 1 mln. 400 ming kishi shirkat a'zosi sifatida mehnat qildi. Biroq shirkat xo'jaliklari ham o'zini oqlamadi. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining 2003-yil 24-martdagi "Qishloq xo'jaligida islohotlarni chuqurlashtirishning eng muhim yo'nalishlari to'g'risida"gi Farmonida agrar islohotlarining yangi yo'nalishlari belgilab berildi. Farmonga binoan, 2003-2007-yillarda shirkat xo'jaliklari tugatildi, ularning negizida fermer xo'jaliklari tashkil etildi. 2007-2008-yillarda paxtachilik, sabzavotchilik, chorvachilikka ixtisoslashgan fermer xo'jaliklarining yer maydonlari qariyb 2,5 baravarga kengaytirildi. Fermer xo'jaliklari qishloq xo'jaligini ishlab chiqaruvchining asosiy shakliga aylandi. Qishloqlarda shaxsiy yordamchi xo'jaliklar dehqon xo'jaliklari sifatida qayta shakllantirildi. Dehqon xo'jaligi – bu oilaviy mayda tovar xo'jaligi bo'lib, tomorqa yer uchastkasi oila boshlig'iga

umrbod meros qilib berildi, mahsulotlar oila a'zolarining shaxsiy mehnati asosida yetishtiriladi va sotiladi. 2004-yil boshlarida mamlakatimizda 3,5 millionga yaqin dehqon xo'jaliklari yuridik va jismoniy shaxs maqomida faoliyat yuritdi, ularda 8 milliondan ortiq ishga yaroqli kishilar mehnat bilan band bo'ldi. Dehqon va fermer xo'jaliklari O'zbekistonda asosiy ishlab chiqarish subyektlariga aylandi. Mamlakatimiz qishloq xo'jaligida ishlab chiqarilayotgan yalpi mahsulotning qariyb 100 foizi dehqon va fermer xo'jaliklarida yetishtirilmoqda.

Mustaqillik yillarida amalga oshirilgan agrar islohotlar natijasida qishloq hayoti yangilandi, dehqon va fermerning mehnatga munosabati, dunyoqarashi o'zgardi. Ular yerning haqiqiy egasiga, o'z mehnati evaziga yetishtirgan mahsulotning egasiga aylandi.

4. O'zbekiston xalq xo'jaligining yangi istiqbollari

Mamlakat rahbari tomonidan 2019-yil O'zbekistonda "Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili" deb e'lon qilindi. Bu boradagi Davlat Dasturiga muvofiq, mamlakatda biznes va xususiy tadbirkorlik rivojini rag'batlantirish, hududlar, tuman va shaharlarni kompleks va mutanosib holda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiy ettirish, investitsiyaviy muhitni yaxshilash orqali mamlakatimiz iqtisodiyoti tarmoqlari va hududlariga xorijiy sarmoyalarni faol jalb etish masalalari keng o'rin olganligi istiqbolda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yanada taraqqiy ettirish vazifasini qo'ymoqda. 2017-yilda ko'zlangan rejaga muvofiq sanoatni (5440 ta loyihada 131 mingta ish o'rni bilan), qishloq xo'jaligini (8430 loyihada 55,8 mingta ish o'rni bilan) va xizmat ko'rsatishni (11 mingta loyiha 69,5 mingta ish o'rni bilan) rivojlantirish bo'yicha viloyatlar, tumanlar va shaharlar hokimliklarining faoliyati kuchaytirildi. Kelajakda mamlakatda qishloq xo'jalik sohasi bilan bog'liq 25 mingga yaqin investitsiya loyihalarini amalga oshirish hisobiga, 256,4 mingdan ortiq ish o'rinlari tashkil etishga erishilishi ko'zlangan.

Vaholanki, mamlakatda to'g'ridan to'g'ri investitsiyalarni jalb qilish uchun qulay investitsiya muhitini shakllantirish maqsadida iqtisodiyotni liberallashtirish, davlat boshqaruvini isloh qilish,

tadbirkorlik subyektlari faoliyatiga aralashuvni cheklash, litsenziyalash va ruxsat berish tartib-tamoyillarini qisqartirish hamda soddalashtirish maqsadida 2018-yil 1-avgustda "O'zbekiston Respublikasida investitsiya muhitini tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida"gi Prezident Farmoni e'lon qilindi. Farmonda investitsiya muhitini yanada yaxshilash, to'g'ridan to'g'ri investitsiyalarni jalb etishni rag'batlantirish, investitsiyalarning bu boradagi davlat siyosatining izchilligiga bo'lgan ishonchini mustahkamlashga asosiy urg'u berilgan. Unda, shuningdek, qator yillar mobaynida sohadagi dolzarb muammolar ko'rsatib o'tilgan bo'lib, ular orasida, ayniqsa, joylarda, investorlarning qo'llab-quvvatlanmasligi, bu borada tegishli vazirlik va idoralar faoliyati aniq muvofiqlashtirilmaganligi bilan bog'liq byurokratik to'siq va g'ovlar hali ham mavjudligi, soliq yukini kamaytirish va investorlar uchun soliqqa tortish tizimidagi muammolar hamda ularni bartaraf etish yuzasidan aniq vazifalar belgilangan.

Agar raqamlarga murojaat qilsak, 2017-yilgacha 90 dan ziyod mamlakatning xorij mablag'lari ishtirokidagi 4 mingdan ziyod korxonalari faoliyat yuritgani ma'lum bo'ladi. Har yili jalb qilinayotgan investitsiyalarning 20 foizini xorij investitsiyalari va kreditlari tashkil etgan. Masalan, mamlakatimizning investitsion loyihalarni amalga oshiruvchi asosiy chet el hamkorlariga "General motors", "Boing", "Xonevell", "Eyrbas", "MAN", "Klaas", "Knauf", "Lemken", "Nestle", "Teknip", "ABB", "Maksam", "Isuzu", "Itochu", "Mitsibisu", "Xitachi", "Marubeni", "Xyunday", "Samsung", "Eldji", "Lotte kemikal", "Xuavey", "Si en Pi Si", "SITIK" va boshqa ko'plab kompaniyalar kiradi.

2017-yilgacha O'zbekiston iqtisodiyoti deyarli olti martaga, aholining real daromadlari esa to'qqiz martaga yaqin o'sdi. Aholi jon boshiga ichki yalpi mahsulot ulushi 6,9 martagacha ortdi, bu esa O'zbekistonga o'rta darajadagi daromadli davlatlar qatoriga kirish imkonini berdi.

O'sha paytda jahon banki reytingiga binoan iqtisodiy darajasiga ko'ra, O'zbekiston 190 mamlakat orasida 63 o'rinni egalladi. Butunjahon iqtisodiy forum bahosiga ko'ra, 2014 va 2015-yakuni va 2016–2017-yillar o'sish prognozlarini bo'yicha O'zbekiston dunyoda eng tez rivojlanayotgan beshta davlatdan biri hisoblanishi

qayd qilingan. Iqtisodiy o'sishning yuqori sur'atlari aholi o'rtasida daromadlarni nisbatan mutanosib ravishda taqsimlanishini ta'minlagan edi.

O'zbekiston o'z mustaqilligini qo'lga kiritgach, 2002-yilgacha respublikaga 12 mlrd. AQSH dollaridan ortiq investitsiya kiritilgan. Yoki xorijlik fuqarolar va tashkilotlar tomonidan tashkil qilingan qo'shma korxonalarga jalb qilingan investitsiyalar ulushi 2000-yildagi 6,9 %dan 2001-yilda 26,0 %ga, ya'ni 3,7 baravar oshgan. Respublika bo'yicha 2007–2011-yillarda umumiy investitsiyalar hajmida xorijiy investitsiyalar ulushi 22–25 %ni tashkil qildi.

Lekin hali ham xorijiy investitsiyalarni jalb etishni ko'ngildagidek, deb bo'lmaydi. Agar mustaqillik yillaridagi statistik ma'lumotlarga e'tibor qaratilsa, jumladan, 2002-yilgacha respublikaning 31 tumanida xorijiy investitsiyalar ishtirokida birorta ham korxona tashkil etilmagan edi. Agar 2000-yilning boshida 143,5 ming korxona mavjud bo'lsa, 2002-yilda yurtimizda 240 mingta o'rta va kichik korxonalar faoliyat ko'rsatgan. Shulardan 85 mingtasi fermer xo'jaliklaridir. Xususiy sektor aholining 30 %ini ish bilan ta'minladi. Xususiy korxonalarning YalMdagi ulushi 35 % bo'lgan. Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki huzurida maxsus tashkil etilgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining eksportini qo'llab-quvvatlash jamg'armasining roli esa bu borada oshib bormoqda. Jamg'arma tomonidan tadbirkorlik subyektlariga o'z tovar va xizmatlarini tashqi bozorlarga chiqarish bo'yicha huquqiy, moliyaviy va tashkiliy xizmatlar ko'rsatilgan. O'zaro tuzilgan shartnomalar asosida 2015-yili qiymati 840 million dollardan ziyod tovarlar eksport qilingan. Jamg'arma ko'magida 2016-yilda tadbirkorlik subyektlari tomonidan 1 milliard 250 million dollar miqdoridagi eksport shartnomalari tuzilgan.

Ushbu ko'rsatkich O'zbekistonning bugungi imkoniyatlari nuqtayi nazaridan olib qaraganda albatta past. Shu boisdan, Prezident o'zining "Tanqidiy tahlil qat'iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak" nomli kitobida muhim vazifalardan biri sifatida – "O'ztadbirkoreksport" va "O'zsanoateksport" aksiyadorlik jamiyatlari, shuningdek, Milliy bank huzuridagi Kichik biznes va

xususiyl tadbirkorlik subyektlarining eksportini qo'llab-quvvatlash jamg'armasi yo'nalishi bo'yicha kichik biznes va xususiyl tadbirkorlik subyektlari eksporti bilan bog'liql kamida 1 milliard 500 million dollarlik eksportni ta'minlashi kerakligini uqtirgan edi.

Keyingi yillarda qishloql xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish hajmining o'sishi o'rtacha 67 foizdan kam bo'lmagan. Birgina 2015-yilda dalalardan 7,3 million tonnadan ortiql don, 12,8 mln. tonnadan ziyod sabzavot va kartoshka, salkam ikki million tonna poliz mahsulotlari, qariyb 2,8 million tonna meva, 1,5 million tonnadan ziyod uzum mahsulotlari yig'ishtirib olindi. Go'sht ishlab chiqarish hajmi 2014-yilga nisbatan 106,7, sut ishlab chiqarish 107,1, tuxum ishlab chiqarish 111,1 foizni tashkil etdi. Bu qishloql mehnatkashlari, soha mutaxassislari va mutasaddilarining qilgan mehnatlarining samarasidir. 2017-yilgacha yurtimizda 160 mingdan ziyod fermer xo'jaliklari faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, ularning 36 mingdan ortig'i ko'p tarmoqli yirik subyektlarga aylandi. Buning quvonarli jihati shundaki, ayni paytda ular faqatgina dehqonchilik yoki chorvachilik bilan cheklanib qolmasdan, balki zamonaviy texnologiyalar, ixcham qayta ishlash uskunalari jalb etgan holda qo'shimcha tarmoqlarni o'zlashtirishga harakat qilishyapti.

O'zbekistonda yetishtirilgan meva-sabzavotlarga bo'lgan talab dunyo miqyosida ortib bormoqda. Shu bois ham hukumat tomonidan istiqbolda oziql-ovqat ekinlari maydonlarini kengaytirishga jiddiy e'tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 29-dekabrdaql "2016–2020-yillar davrida qishloql xo'jaligini qayta shakllantirish va rivojlantirish chora-tidbirlari to'g'risida"gi qarori bu boradagi muhim dasturulamaldir. Chunki bu hujjatda tuproql unumdorligi nisbatan past, suvl ta'minoti og'ir, kam rentabelli ekin maydonlariga paxta va g'alla o'rniqa meva-sabzavot, kartoshka, moyli, ozuqabop ekinlar ekish vazifasi belgilab berildi. Ularning amalga oshirilishi natijasida boshhoqli don yetishtirish hajmi 8,5 mln. tonnaga oshirildi, kartoshka yetishtirish 35 %ga, sabzavotlar 30 foizga, meva va uzumni 21,5 foizga, go'sht yetishtirish 26,2 foizga, baliql yetishtirish 2,5 martaga ko'paydi.

Shuni qayd etish kerakki, 2024-yilning birinchi choragida mamlakatimizda ishlab chiqarilayotgan yalpi qishloql xo'jalik

mahsulotining 40 foizdan ortig'ini chorvachilik mahsulotlari tashkil etadi. Chorvachilik sohasida ham erkin bozor mexanizmlari shakllantirilgani, ko'plab imtiyozlar berilayotgani natijasida chorva mollari bosh soni va chorvachilik ishlab chiqarish hajmi muttasil ortib boryapti. Chorvachilik fermer xo'jaliklarini rivojlantirish, ularda naslli qoramollar podasini ko'paytirish maqsadida keyingi 10 yil mobaynida Polsha, Avstriya, Gollandiya, Germaniya kabi mamlakatlardan 60 mingdan ko'proq naslli qoramollar olib kelindi.

Bugungi kunda agrar sohada salohiyatli kadrlar tayyorlash masalasi ham muhim hisoblanadi va hali bu borada qator muammolar borligini ham ta'kidlash o'rinli.

Agrar sohada zamonaviy fan-texnikani puxta biladigan trener-o'qituvchilarni tayyorlovchi maxsus kurslarning muttasil ishlab turganligiga qaramay, yuqorida ko'rsatilgan o'qitish tizimlarida mahoratli, bilimli pedagog kadrlarning yetishmasligi ham dolzarb muammolardan biridir.

Shu boisdan yoshlarning agrar sohada biznes tashabbuslari, startaplari, g'oyalari va loyihalarini ro'yobga chiqarishga ko'maklashish va qo'llab-quvvatlash, band bo'lmagan yoshlarni mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan mutaxassisliklar va biznes yuritish ko'nikmalariga o'qitish, umuman, yoshlarning ijtimoiy-iqtisodiy faolligini oshirish orqali ularning bandligini ta'minlashga qaratilgan "Yoshlar – kelajagimiz" Davlat dasturi qabul qilindi. Shuningdek, "Har bir oila – tadbirkor" dasturi doirasida ularning oila a'zolariga issiqxona tashkil etish, qoramol, parranda sotib olish va tadbirkorlik faoliyati uchun 3 yillik muddatga, 6 oylik imtiyozli davr bilan, yillik 7 % stavkasi miqdorida kreditlar ajratilishi o'qituvchilarning jamiyatdagi mavqeyini oshirishga xizmat qiladi.

Qishloq xo'jaligi barcha davrda eng muhim tarmoqlardan biri bo'lgan. Boisi, inson yashar ekan, oziq-ovqat mahsulotlariga hamisha talab kuchli bo'ladi. Dunyo olimlarining fikriga ko'ra, 2050-yilga qadar yer yuzi aholisi 8 milliarddan ortadi. Bu esa oziq ovqatga bo'lgan talabning bir necha barobar ortishiga sabab bo'ladi. Bu esa ko'pchilik ekspertlarni xavotirga solmoqda. Ayni bu vaqtda Yaponiya va Janubiy Koreya texnologiyasi barcha mamlakatlar uchun andoza, shuningdek, tajriba bo'lmoqda deb bimalol ayta olamiz. Intensiv tarzda mahsulotlar yetishtirish, yiliga 4-5 balkim

undan ko‘proq marta hosil olish imkonini o‘rganish mumkin. Yerdan unumli foydalanish, intensiv usuldagi issiqxonalarni ko‘paytirish aslida davr talabi hamdir. O‘zbekiston bugun 37 millionlik aholiga ega bo‘lgan, o‘tgan davrda ko‘plab muammolar to‘planib qolgan mamlakatning taqdiri va kelajagini belgilash borasida to‘g‘ri yo‘l tanlash – kuchli bilim, tajriba va azmu shijoatni talab etadi. Ya‘ni O‘zbekiston aholisining ko‘payishi, qishloq xo‘jaligini rivojlantirish borasida alohida tashabbusga muhtoj ekanligi kundek ravshan edi.

Ta‘kidlash joizki, 2021-yilda qishloq xo‘jaligini rivojlantirishga oid bir qancha normativ hujjatlar qabul qilindi. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Qishloq xo‘jaligida bilim va innovatsiyalar tizimi hamda zamonaviy xizmatlar ko‘rsatishni yanada rivojlantirish to‘g‘risida»gi Farmoni hamda «O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi huzuridagi Qishloq xo‘jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida»gi qarori qabul qilindi. Yuqoridagi Farmon bilan «2021–2025-yillarda qishloq xo‘jaligida bilim va innovatsiyalar tizimini ustuvor rivojlantirish konsepsiyasi» tasdiqlandi.

O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020–2030-yillarga mo‘ljallangan strategiyasi doirasida oziq-ovqat xavfsizligi bo‘yicha davlat siyosatini ishlab chiqish va joriy etish hamda shakllangan dehqonchilik ko‘nikmalari, tuproq-iqlim sharoiti, suv ta‘minotidan kelib chiqib, respublikaning barcha tumanlari hududlari muayyan turdagi mahsulotlar yetishtirishga bosqichma-bosqich ixtisoslashtirilishi belgilandi.

Bundan tashqari, qishloq xo‘jaligi ekinlarini joylashtirishda asosiy e‘tibor uning hosildorligi, eksportbopligi, yaxlit maydonlarda yetishtirilishiga hamda kooperatsiya va klaster tizimi asosida mahsulot yetishtirish, uni qayta ishlash, saqlash, ichki va tashqi bozorlarga sotish tizimi yo‘lga qo‘yilishini o‘z ichiga oladi. Jumladan, meva-sabzavot mahsulotlari eksportini oshirish uchun har bir viloyatda kamida bitta tuman hududini organik qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirishga ixtisoslashtirish belgilandi.

Bugun esa Yangi O‘zbekiston milliy iqtisodiyotining eng asosiy yo‘nalishi bo‘lgan sanoat sohasini rivojlantirish asosiy vazifaga aylandi. Mamlakatimiz “agrar-industrial davlat”dan

“industrial-agrar davlat”ga aylandi. Sanoat sohasidagi siyosatni samarali amalga oshirish, sanoatni innovatsion asosda tashkil etish, uni rivojlantirishda drayver va o’sish nuqtalarini belgilab olish, ishlab chiqarishga ilg’or texnologiyalarni jalb etish orqali sanoat tarmoqlari raqobatbardoshligi va ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga alohida e’tibor berilmoqda.

Olib borilgan keng ko’lamli islohotlar natijasida yalpi ichki mahsulot hajmi ilk bor 80 milliard dollardan oshdi. Bunday muvaffaqiyatlarga erishishda yalpi ichki mahsulotning chorak qismini tashkil etuvchi sanoat sohasining ulushi sezilarli bo’ldi.

Hozirda jahondagi murakkab geosiyosiy vaziyatga qaramay, O’zbekiston sanoati Mustaqil davlatlar hamkorligi mamlakatlari orasida jadal o’smoqda. Masalan, O’zbekistonda 2022-yilda sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi indeksining o’sishi 5,2 foizni tashkil etga bo’lsa, bu raqam Qozog’istonda 1,1 foizga, Rossiyada 0,6 foizga, Ozarbayjonda 1,1 foizga pasaygan. Mamlakatimizda sanoat sohasiga qaratilayotgan alohida e’tibor tufayli yutuqlar salmog’i tobora ortib bormoqda. Masalan, 2022-yilda sanoat ishlab chiqarish hajmi 551,1 trillion so’mga yetdi. Vaholanki, bu raqam avvallari 63 milliard so’mdan iborat edi xolos. Yalpi ichki mahsulot tarkibida sanoat ishlab chiqarish sohasining ulushi 2022-yilda 26,7 foizni tashkil etdi, sohaga jalb etilgan investitsiyalar hajmi mazkur yilda 124,6 trillion so’mga yetdi.

Tayanch so’zlar

Ma’muriy-boshqaruv tizimi, “O’zbek modeli”, rekonstruktsiya va modernizatsiya, bozor iqtisodiyoti, ko’p ukkladli iqtisodiyot, xususiy mulkchilik, agrar islohotlar, makroiqtisodiyot, kichik biznes, ma’muriy-buyruqbozlik, tovar, mulk egasi, erkin raqobat, iste’molchilar.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar

1. Bozor iqtisodiyoti nima?
2. Mustabid sovet tuzumidan mustaqil O’zbekistonga qanday iqtisodiyot meros qolgan edi?
3. Davlat mustaqilligi iqtisodiyot sohasida qanday imkoniyatlar yaratdi?

4. Bozor iqtisodiyotiga o'tishda qanday tamoyillarga tayanildi?
5. Islohotlarning strategik maqsadlarini bilasizmi?
6. Iqtisodiy islohotlar qanday yo'nalishlarda olib borildi?
- 7 Bozor munosabatlarini shakllantiruvchi qanday qonunlar qabul qilindi?
8. Bozor infratuzilmasi deganda nimani tushunasiz?
9. O'zbekistonda bozor infratuzilmasining yaratilishi haqida so'zlab bering.
10. Aholini ish bilan band etish muammosi qanday hal qilinmoqda?

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birlashtirish. – Toshkent: O'zbekiston, 2016.
2. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. To'ldirilgan ikkinchi nashri. – Toshkent: O'zbekiston, 2022.
3. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekistonda erkin va farovon yashaylik. 5-jild. – Toshkent: O'zbekiston, 2023.
4. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekistonda taraqqiyot strategiyasi asosida demokratik islohotlar yo'lini qat'iy davom ettiramiz. 6-jild. – Toshkent: O'zbekiston, 2023.
5. Mirziyoyev Sh.M. Hozirgi zamon va Yangi O'zbekiston. – Toshkent: O'zbekiston, 2024.
6. Рахимов М.А. Новейшая история Узбекистана. – Ташкент: Adabiyot uchqunlari, 2018.
7. Tuxliyev N., Taksanov A. O'zbekiston milliy iqtisodiyot modeli. –Toshkent, 2000.
8. Талипова Н.Т. Организация внешне экономической деятельности. Учебник. – Ташкент: Фан ва технология, 2011.

7-MAVZU. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDAGI IJTIMOIY O'ZGARISHLAR

Reja:

1. Kuchli ijtimoiy siyosat konsepsiyasining shakllanishi.
2. Aholi turmush darajasini yuqori darajada ta'minlash.
3. O'zbekiston Respublikasi "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonunining mazmun-mohiyati.

1. Kuchli ijtimoiy siyosat konsepsiyasining shakllanishi

O'zbekistonda mustaqillik e'lon qilingandan so'ng aholi turmush darajasini yuqori darajada ta'minlash, inson manfaatlarini ro'yobga chiqarish va uning har tomonlama rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish maqsadida ijtimoiy yo'naltirilgan barqaror bozor iqtisodiyoti, ochiq tashqi siyosatga ega kuchli demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati barpo etish borasida keng qamrovli islohotlar amalga oshirila boshlandi. Ushbu maqsadlarni amalga oshirish uchun O'zbekistonda mustaqillikning dastlabki davridayoq, davlat ijtimoiy siyosatining asoslari yaratilib, amalga oshirila boshlandi. O'zbekistonda ijtimoiy siyosat ustuvor yo'nalish hisoblanadi va u bosqichma-bosqich amalga oshiriladi. Respublikada ijtimoiy siyosatning *o'ziga xos xususiyatlari* mavjud bo'lib, ular quyidagilardan iboratdir:

- ◆ ijtimoiy siyosatni o'tkazishda davlatning boshqarish funksiyasiga egaligi;

- ◆ ijtimoiy islohotlarning bosqichma-bosqichligi;

- ◆ aholining yashash darajasini keskin tushib ketishiga yo'l qo'ymaslik;

- ◆ mahalliy o'zini o'zi boshqarish idoralari mahallalar orqali aholiga aniq manzilli ijtimoiy yordam ko'rsatish;

- ◆ ijtimoiy islohotlarning iqtisodiy va huquqiy asoslarini yaratish.

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan *ijtimoiy siyosatning asosiy vazifalari* quyidagilardan iborat qilib belgilangan:

- ◆ aholining iqtisodiy faolligini qo'llab-quvvatlash;

- ◆ mahsulot, xizmat va uy-joyning kuchli ichki iste'mol bozorini shakllantirish;

♦ aholining to'lov talablarini keng miqyosda qondirish va uning o'sishini ta'minlash;

♦ aholining daromad va mulkka egalik darajasining keskin tabaqalashuvining oldini olish;

♦ ijtimoiy xizmatlarga bo'lgan zarur kafolatni ta'minlash.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning maqsadi va vazifalaridan kelib chiqqan holda davlat *ijtimoiy siyosati quyidagi asosiy yo'nalishlarda* olib borilmoqda:

♦ davlat ijtimoiy iste'mol fondlarini tashkil etish va ulardan jamiyatning har bir a'zosining foydalanishini kafolatlaydigan qonunlarni qabul qilish;

♦ davlatning markazlashgan ijtimoiy sug'urta fondini tashkil etish;

♦ ko'rsatilgan xizmatlar va samarali mehnatlari uchun davlat tomonidan beriladigan imtiyozlar;

♦ ish haqi va pensiya eng kam miqdorining davlat tomonidan kafolatlanishi;

♦ ko'p bolali oilalarga to'lanadigan nafaqalar;

♦ kam ta'minlangan aholi tabaqalariga moddiy yordam ko'rsatish;

♦ bolalikdan nogiron va boshqa mehnat qobiliyatini yo'qotganlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash;

♦ talabalar uchun to'lanadigan davlat stipendiyalari;

♦ ishsizlik nafaqasi;

♦ eng muhim oziq-ovqat mahsulotlari turlarini belgilangan narxlarda sotilishini ta'minlash;

♦ ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan xizmatlar baholaridagi farqlarni budget hisobidan qoplash;

♦ ijtimoiy sohaning eng muhim tarmoqlari (sog'liqni saqlash, ta'lim, jismoniy tarbiya, sport va madaniyat) moddiy bazasini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash va mustahkamlash.

Demak, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan tub demokratik islohotlar ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotiga asoslangan demokratik jamiyat barpo etishga qaratilgan. Buni ijtimoiy sohadagi islohotlarni amalga oshirish orqali ta'minlash mumkin. Chunki har qanday jamiyatning rivojlanganlik darajasi ijtimoiy masalalarning qay darajada hal etilayotganiga bog'liq. Ijtimoiy masalalar

mamlakat taraqqiyotining muhim omili sifatida iqtisodiy rivojlanishga ta'sir etadi. Shuning uchun ham O'zbekiston Respublikasida davlat ijtimoiy siyosati ijtimoiy islohotlarni davomli amalga oshirib borish orqali aholi turmush darajasini barqaror o'stirib borishdan iboratdir.

Mamlakatimizda aholi daromadlari va turmush darajasini oshirishga qaratilgan ijtimoiy siyosatning amalga oshirilishi natijasida aholi jon boshiga o'rtacha to'g'ri kelgan daromadlari, ish haqi va pensiyalar o'sishining ijobiy dinamikasi vujudga kela boshladi. Misol uchun eng kam oylik ish haqi 01.07.1997-yil 750 so'm, 01.12.2017-yil 172 240 so'm hamda 2023-yil 1-dekabrda boshlab O'zbekiston Respublikasi hududida mehnatga haq to'lashning eng kam miqdori – oyiga 1 050 000 so'mni tashkil etmoqda. Aholining daromadlari tarkibida yollanma ishchilarning daromadlari ulushi 2010–2017-yillarda 45,0 %dan 34,3 %ga kamaydi, mustaqil ravishda band bo'lishdan olingan daromadlar ulushi 25,0 %dan 34,5 %ga o'sdi.

Mamlakatimizda ijtimoiy himoyaga va yordamga muhtoj toifalarga kam ta'minlanganlar, ko'p bolali onalar, nogironlar, yolg'iz qariyalar va boshqalar kiradi. Har qanday tuzum va jamiyatda aholining bunday toifalari u yoki bu darajada uchraydi. Adolatli jamiyat hamisha ularni himoya qilishni o'z zimmasiga oladi. Shuning uchun ham O'zbekiston o'z mustaqilligiga erishganidan keyin kuchli ijtimoiy siyosat yuritdi. Ijtimoiy sohaga muhim e'tibor hozirgi paytda ham davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

O'tish davrining O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov tomonidan ishlab chiqilgan, jahonda "O'zbek modeli" deb nom qozongan beshta tamoyilning to'rtinchisi aynan aholining murakkab demografik tarkibini hisobga olgan holda kuchli ijtimoiy siyosat yuritishdan iborat qilib belgilangan edi. Hatto mamlakatimizda amalga oshirilgan islohotlar mohiyati xalqaro ekspertlar tarafidan aynan "ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotiga o'tish" deb ham nomlandi. Bu bejiz emas edi.

Chunki bir ijtimoiy-siyosiy tuzumdan boshqasiga, ayniqsa, unga mohiyatan tamoman zid bo'lgan ijtimoiy-siyosiy tuzumga o'tish hamisha murakkab kechadi. Bu aholining muayyan qismi

hayotida keskin tarzda aks etadi. Bir tuzumdan ikkinchi tuzumga o'tayotganda, xususan, eski ishlab chiqarish tizimi, mavjud iqtisodiy integratsiya tabiiy ravishda izdan chiqadi, ularning barini yangidan shakllantirishga to'g'ri keladi. Shuningdek, mulkka egalik qilishning shakli o'zgaradi, davlat korxonalari, hatto ekin yerlari egalari o'zgaradi, ishchi kuchi ham bevosita bozor iqtisodiyoti qonuniyatlari asosida qayta taqsimlanadi. Demak, ijtimoiy himoyaga muhtojlar safining o'zgarib, ya'ni kamayib-ko'payib turishi ham tabiiy holdir. Shuning uchun bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayonida aholining himoyaga muhtoj qismini ijtimoiy qo'llab-quvvatlashning kafolatli tizimi yaratilmas ekan, bu og'ir ijtimoiy oqibatlariga olib kelishi mumkin. Mustaqil O'zbekistonda avvalboshdan bu borada oqilona yo'l tutildi. O'zbekiston xalqining o'ziga xos xususiyatlari hamda ilg'or jahon tajribalarini mujassamlashtirgan bu taraqqiyot modeli negizida kuchli ijtimoiy siyosat yuritish maqsadi ham yotadi.

Shunday ekan, o'zgarishlar mohiyati ham shaxs, uning manfaatlari bilan bevosita bog'liq, islohotlar mas'uliyati ham to'g'ridan to'g'ri fuqaro zimmasiga tushadi. Ko'rinib turibdiki, kuchli ijtimoiy himoya doimo mustaqil O'zbekiston davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib keldi. Mamlakatimizda davlat budjetining asosiy qismi aynan ijtimoiy sohaga yo'naltirilgan va bu qat'iy qoidaga izchil amal qilib kelinyapti.

Birinchi Prezident I.Karimovning 1993-yili chop etilgan "O'zbekiston – bozor munosabatlariga o'tishning o'ziga xos yo'li" kitobida mazkur besh tamoyildan har birini sharhlash uchun bittadan maxsus bob ajratiladi. Jumladan, "Kuchli ijtimoiy siyosat-iqtisodiy o'zgartirishlarning ishonchli kafolati" deb nomlangan yettinchi bobda to'rtinchi tamoyil har taraflama va batafsil tahlil etib berilgan.

Bu besh tamoyil Birinchi Prezident I.Karimov ta'limotida o'z-o'zidan yoki birdaniga shakllanib qolmagan. Bu – uning davlatchilik borasidagi tadrijiy tafakkuri mahsuli yanglig' yuzaga keldi. Buning isboti shuki, uning 1992-yili yozilgan "O'zbekistonning o'z istiqloq va taraqqiyot yo'li" asarida ilgari

surilgan ayrim qat'iy pozitsiyalarning ana shu tamoyillar bilan bevosita aloqadorligi bor.

Demak, islohotlardan ko'zlangan bosh maqsad – xalq hayotini yaxshilash, fuqarolarning emin-erkin yashashi, rivojlanishi, bunyodkorlik ishlari bilan faol shug'ullanishi, umrni unumli o'tkazishi, turmush mazmunining boyishiga erishishdan iborat.

1997-yildan yillarni ijtimoiy yo'nalish bo'yicha nomlash an'anasi yo'lga qo'yildi. O'sha yili "Inson manfaatlar yili" bo'lgan. Inson manfaatlar deganda esa, avvalo, fuqarolarni ijtimoiy himoya qilish ma'nosi ko'zda tutilgan. E'tibor qilinsa, o'shandan buyon har bir yilning yo'nalishida u yoki bu tarzda aynan ijtimoiy masala o'rtaga qo'yiladi. 2007-yil esa maxsus ravishda "Ijtimoiy himoya yili" bo'ldi. 2024-yil O'zbekistonda "Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili" deb e'lon qilindi

Istiqlol yillarida ijtimoiy muhofaza muayyan tizimga aylandi. Muhtoj qatlam va guruhlariga moddiy yordam ko'rsatishning o'ziga xos, ya'ni milliy mexanizmi ishlab chiqildi. Buni adolatli amalga oshirishda qishloq, ovul va mahalla fuqarolar yig'inlarining mas'uliyati oshirildi. Inflatsiyani inobatga olgan holda har yili bir necha marotabadan davlat budjetidan ajratiladigan maoshlar, nafaqa va stipendiyalar oshirib borilyapti. Muhtoj qatlam va guruhlariga nodavlat va jamoat tashkilotlari tarafidan moddiy yordam ko'rsatishning ham turli xil shakllari paydo bo'ldi va bu jarayon tobora takomillashib boryapti.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining yigirma olti yillik bayramiga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish to'g'risida"gi qarori qabul qilingan bo'lib, bu bayram "Fidoying bo'lgaymiz seni, O'zbekiston!" degan bosh g'oyani o'zida mujassam etgan tashkiliy-amaliy, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar hamda targ'ibot-tashviqot ishlari dasturi asosida amalga oshirildi. Chunki qarorda ushbu dasturni 2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi hamda "Xalq bilan muloqot va inson manfaatlar yili" Davlat dasturining ma'no-mazmunidan kelib chiqqan holda tayyorlash belgilangan edi. Bu beshta ustuvor yo'nalishdan to'rtinchisida aynan ijtimoiy sohani rivojlantirish ko'zda tutilgan. U

quyidagicha bayon etilgan: ijtimoiy sohani rivojlantirishga yo'naltirilgan aholi bandligi va real daromadlarini izchil oshirib borish, ijtimoiy himoyasi va sog'lig'ini saqlash tizimini takomillashtirish, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, arzon uy-joylar barpo etish, yo'l-transport, muhandislik-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilmalarni rivojlantirish hamda modernizatsiya qilish bo'yicha maqsadli dasturlarni amalga oshirish, ta'lim, madaniyat, ilm-fan, adabiyot, san'at va sport sohalarini rivojlantirish, yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish.

2. Aholi turmush darajasini yuqori darajada ta'minlash

Bugunga kelib mamlakatimiz o'z taraqqiyotining muhim bosqichiga kirdi. Ijtimoiy siyosat borasida istiqlol yillaridagi katta tajribalarga suyanan, mavjud an'analarni izchil davom ettirgan holda yangi-yangi qadamlar tashlanyapti.

Harakatlar strategiyasi asosida ijtimoiy sohada amalga oshirilgan ishlar ko'lami esa ortib bordi. 2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi doirasida amalga oshirilgan ishlar sarhisob qilindi.

Jumladan, ijtimoiy sohadagi eng muhim ishlar ham o'z aksini topgan. Unga muvofiq, majburiy mehnatga qarshi kurashishda O'zbekiston tajribasi xalqaro miqyosda e'tirof etildi, mehnat stajini elektron tarzda hisobga olish joriy etildi, tibbiyot sohasidagi OTMlar soni 7 tadan 9 taga, bakalavriat yo'nalishlari soni 14 tadan 16 taga, magistratura yo'nalishlari soni 41 tadan 51 taga ko'paytirildi, mamlakatda 11 yillik majburiy maktab ta'limi qayta joriy etildi, oliy ta'limdan keyingi ta'limning ikki pog'onali tayanch doktorantura (PhD) va doktorantura (DSc) tizimi joriy etildi, "Humo Arena" ko'p tarmoqli muz arenasi, "Amirsoy" tog'-chang'i kurorti foydalanishga topshirildi.

Ta'kidlanganidek, so'nggi yillarda Yangi O'zbekistonda ijtimoiy himoya tizimi samaradorligi va manzilliligini oshirish orqali aholining ko'makka muhtoj qatlami ijtimoiylashuvini ta'minlash, ijtimoiy himoyani mahalla darajasigacha tashkil etish, og'ir hayotiy ahvolga tushib qolgan aholiga individual yondashuvga

muvofig ijtimoiy xizmat va yordam ko'rsatishni yo'lga qo'yish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi. Ijtimoiy muammolarni adolatli hal etishning mutlaqo yangi va o'ziga xos tizimi yaratilib, "temir daftar", "ayollar daftari", "yoshlar daftari", "mahallabay" va "xonadonbay" ishlash usullari joriy etilgani bugun ijtimoiy masalalarni samarali hal etishga xizmat qilmoqda.

Shuningdek, yangi tahrirdagi (2023-y.) Konstitutsiyaning 1-moddasida O'zbekiston ijtimoiy davlat ekani belgilab qo'yildi. Bosh qomusimizda ijtimoiy majburiyatlarga doir normalar 3 barobarga oshganligi, mehnatga layoqatsiz va yolg'iz keksalar, nogironligi bo'lgan shaxslar hamda aholining ijtimoiy jihatdan ehtiyojmand boshqa toifalarining huquqlari davlat himoyasida bo'lishi belgilandi.

Prezidentimizning 2023-yil 1-iyundagi "Aholiga sifatli ijtimoiy xizmat va yordam ko'rsatish hamda uning samarali nazorat tizimini yo'lga qo'yish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida Ijtimoiy himoya milliy agentligi tashkil etildi. Amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida mamlakatimizda nafaqa oluvchilar soni 2016-yilda 466 ming nafarni tashkil etgan bo'lsa, bugunga kelib 2 milliondan oshdi.

Ijtimoiy muammoning og'irligiga qarab, uni hal qilish bo'yicha 1-darajada "Inson" markazi, 2-darajada sektor rahbari, 3-darajada tuman hokimi shug'ullanishi, barcha ijtimoiy xizmatlar bosqichma-bosqich ijtimoiy xizmat ko'rsatish shartnomasi orqali ko'rsatilishiga o'tilayotganligini ta'kidlash lozim.

Mamlakatimizda aholini ijtimoiy muhofaza qilishni kuchaytirish, ayniqsa ijtimoiy himoyaga muhtoj qismi bo'lmish nogironlarga hayotda teng imkoniyat va sharoitlar yaratib berish borasida amalga oshirilayotgan ishlar ham alohida ahamiyatga ega. O'zbekiston 2021-yilda Nogironligi bo'lgan shaxslar huquqlari to'g'risidagi konvensiyaga qo'shilgan. Bunday shaxslarni ishga olgan korxona va tashkilotlar uchun bir qator imtiyozlar berilgan. Endilikda bino va inshootlarni qurish loyihasi nogironligi bo'lganlar uchun qulay muhit yaratilganligi bo'yicha ham majburiy ekspertizadan o'tkazilmoqda. Jamoat transporti, bekatlar va chorrahalarda ular uchun to'siqsiz muhit yaratish choralari

ko'rilmoqda. Shuningdek, xodimlarining 50 foizida nogironlik bo'lgan tadbirkorlarga davlat buyurtmachilari bilan to'g'ridan to'g'ri shartnoma tuzish imkoniyati berilmoqda.

O'tgan davr mobaynida davlat rahbari tomonidan qator hujjatlar qabul qilinib, hayotga tatbiq etib borilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Bandlik sohasida davlat siyosatini yanada takomillashtirish va mehnat organlari faoliyati samaradorligini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, "Aholi bandligini ta'minlash bo'yicha olib borilayotgan ishlar natijadorligi va samaradorligini oshirishda mahalliy ijro hokimiyati va iqtisodiy kompleksni hududiy organlari rahbarlarining shaxsiy mas'uliyatini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida", "Kasanachilikni yanada rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida", "Madaniyat san'at tashkilotlari, ijodiy uyushmalar va ommaviy axborot vositalari faoliyatini yanada rivojlantirish, soha xodimlari mehnatini rag'batlantirish bo'yicha qo'shimcha sharoitlar yaratishga doir chora-tadbirlar to'g'risida" va boshqa qaror va farmonlari qabul qilindi.

Ayniqsa, aholi ijtimoiy himoyasi va sog'lig'ini saqlash tizimini takomillashtirish bo'yicha ham ko'p ish qilindi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Shoshilinch tibbiy yordamni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", "Uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish tizimini boshqarishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida Ichimlik suvidan foydalanishni nazorat qilish davlat inspeksiyasini tashkil etish to'g'risida", "Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish to'g'risida", "Davlat veterinariya xizmati boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" va boshqa farmonlari ham qabul qilindi.

Arzon uy-joylar barpo etish mamlakatimizda ijtimoiy sohada amalga oshirilayotgan ishlarning insonparvarligini ko'rsatib turibdi. Uy-joylar arzon narxlarda qurilsa, uni sotib oluvchilar soni ko'payadi. Eng muhimi, bu birinchi galda aholining uy-joyga o'ta muhtoj qatlamining manfaatlarini o'ylagan holda yo'lga qo'yildi. Hozirgi paytda mamlakatimizning barcha mintaqalarida ikki sotixli namunali qishloq uylarini, shuningdek, ikki-uch xonali ko'p qavatli

uylarni qurish jadal davom ettirilyapti. Bugungi kunda poytaxtimiz katta uy-joy qurilishi maydoniga aylandi. Xususan, Sergeli tumani hududida jadal sur'atlar bilan bunyod etilayotgan har taraflama shinam, zamonaviy qulayliklarga ega arzon ko'p qavatli uylar peshma-pesh bitkazilyapti.

Yo'l-transport, muhandislik-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilmalarni rivojlantirish hamda modernizatsiya qilish bo'yicha maqsadli dasturlarni amalga oshirish yo'nalishiga ham jiddiy e'tibor berilyapti. Sergeli tumanini shaharning asosiy qismi bilan bog'lashga xizmat qilishi mo'ljallangan yer usti metrosining qurilganiga hammamiz guvohmiz. Metroga parallel ravishda Sergelini metroning Olmazor bekati bog'laydigan avtomobil yo'li ham quriladi. Shuningdek, Sergelining bir tomoni shahar katta Halqa yo'liga bog'laydigan, ikkinchi tomoni esa Bektemir tarafga yo'nalgan yangi magistral yo'lga ulaydigan yo'l qurilishi ham jadallik bilan davom ettirilyapti. Shahrimizning yo'l va ko'chalariga yangidan asfalt yotqizilyapti.

Ta'lim, madaniyat, ilm-fan, adabiyot, san'at va sport sohalarini rivojlantirish ijtimoiy sohaning muhim yo'nalishini tashkil etadi. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida", "Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida", "Madaniyat va san'at tashkilotlari, ijodiy uyushmalar va ommaviy axborot vositalari faoliyatini yanada rivojlantirish, soha xodimlari mehnatini rag'batlantirish bo'yicha qo'shimcha sharoitlar yaratishga doir chora-tadbirlar to'g'risida" va boshqa qarorlari chiqarilganini alohida qayd etish lozim.

Yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish borasida tub burilish yuz berdi. 2017-yilning 30-iyun kuni "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakatining IV qurultoyi bo'lib o'tdi. Unda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev qatnashib, nutq so'zlad. Davlatimiz rahbari yoshlar siyosatini chuqur tahlil etib, bu borada yangicha ishlash prinsiplarini bayon qilib berdi. "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakati Yoshlar ittifoqiga aylantirildi. Bundan buyon 30-iyun Yoshlar kuni sifatida bayram qilinadigan bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O'zbekiston Yoshlar ittifoqi

faoliyatini qo'llab-quvvatlash to'g'risida"gi Farmoni qabul qilindi. Boshqa ko'p qonunosti hujjatlarida ham yoshlarni ijtimoiy faollikka undaydigan, ular hayotini yaxshilashga qaratilgan tartib-qoidalar belgilandi.

Siyosatdagi barqarorlik va izchillik har qanday davlatda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning muhim omili bo'lib xizmat qiladi. Poytaxtimizning mahallalarida, aholining baxtli yashashi uchun qulay sharoitlar yaratishga kirishilganiga guvoh bo'lasiz. Ko'p qavatli uylarning fasadlari ta'mirlanyapti. Bu uylar orasidagi yo'l va yo'laklarga sement yotqizilyapti. Bolalar uchun o'yingohlar yangidan jihozlanayapti. Shaharning bo'sh turgan inshootlarida yangi-yangi ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish shoxobchalari bunyod etilyapti. Bu ko'plab yangi ish o'rinlarini tashkil etish imkonini beryapti. Bularning bari – ijtimoiy sohani rivojlantirish, aholining turmush darajasini ko'tarishni ko'zlab amalga oshirilyapti.

Jahon bankining "O'zbekiston fuqarolarini tinglab" loyihasi doirasida, uy xo'jaliklari orasida o'tkazilgan so'rovnoma natijalariga ko'ra, 2020-yilning yanvar-mart oylari uchun o'rtacha kambag'al xonadonning oylik daromadi taxminan 1,5 million so'mni tashkil etib, taqqoslama narxlarda bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 12 foizga oshgan.

Mazkur muammoni hal qilishga hukumat tomonidan katta hajmdagi sa'y-harakatlar qaratilgan. Jumladan, mamlakatda kambag'allikka qarshi kurashish uchun zarur institutlar yaratildi. Bu, avvalambor, Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligining tashkil etilishi, kambag'allikka qarshi kurashish bo'yicha davlat siyosatini belgilab beradi.

Ijtimoiy himoyaga muhtoj va kam ta'minlangan oilalarni qo'llab-quvvatlash maqsadida Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi tashkil etilgan edi. Mazkur vazirlik fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish institutlari faoliyatini muvofiqlashtiruvchi mas'ul davlat organi sifatida ijtimoiy himoyaga muhtoj va kam ta'minlangan qatlamlarini aniqlash va manzilli ko'mak berish borasida samaradorlikni oshirishga xizmat qilgan.

Shuningdek, aholining turmush sharoitlarini yaxshilash va qishloq joylarini obodonlashtirish dasturlari amalga oshirilmoqda.

Xususan, “Obod qishloq” dasturining amalga oshirilishi tufayli 1,7 mln. qishloq aholisining yashash sharoitlari yaxshilandi. Birgina 2019-yilda “Obod qishloq” va “Obod mahalla” dasturlarini amalga oshirish uchun jami 600 million AQSH dollariga teng 6,1 trln. so‘m ajratildi.

Biroq erishilgan natijalarga qaramay, hozirgi kunda O‘zbekistonda 400 mingdan ortiq oila turmush sharoitlari yaxshilanishiga muhtoj (Jahon banki mezonlariga ko‘ra, 2015-yil oktabridan boshlab Global kambag‘allik darajasiga kuniga 1,9 AQSH dollaridan kam daromad olganlar kiritilgan). Norasmiy sektorning mehnat bozoridagi ulushi 40–50 foizni tashkil etadi. Biroq kambag‘al uy xo‘jaliklarining faqat 23 foizigina ijtimoiy nafaqa olishadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni qabul qilindi. Bu bilan, kelgusi yillarga mo‘ljallangan Taraqqiyot strategiyasi tasdiqlandi. Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi O‘zbekistonni keyingi 5 yilda rivojlantirishning 7 ta ustuvor yo‘nalishi doirasida 100 ta maqsadga erishishga qaratilgan. Ushbu strategiya 4-yo‘nalishi “Adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish” deb nomlangan. Unda 34 ta maqsad belgilangan bo‘lib, bu maqsadlar asosida ijtimoiy sohani yanada rivojlantirish ishlari amalga oshirilmoqda.

Shuningdek, “O‘zbekiston Respublikasi aholisini ijtimoiy himoya qilish strategiyasi” ham ishlab chiqildi. O‘zbekiston Respublikasi aholisini ijtimoiy himoya qilish strategiyasi aholini ijtimoiy himoya qilish tizimini rivojlantirish bo‘yicha 2030-yilgacha bo‘lgan davrda ustuvor yo‘nalishlarni va kompleks chora-tadbirlarni belgilab beradi. Strategiya Xalqaro mehnat tashkiloti, Jahon banki va Birlashgan Millatlar Tashkilotining bolalar jamg‘armasi tomonidan 2020-yilda tayyorlangan “O‘zbekistonda ijtimoiy himoya tizimini baholash” natijalari va tavsiyalariga asoslanib ishlab chiqildi.

3. O'zbekiston Respublikasi "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonunining mazmun-mohiyati

Ta'kidlash lozimki, 2016-yilning oktabr oyida davlatimiz rahbari O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzod sifatida Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati – O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasining VIII syezdidagi saylovoldi ma'ruzasida mahalliychilik va urug'-aymoqchilik kabi illatlar barobarida O'zbekistonning barqaror rivojiga xavf tug'dirayotgan tahdidlar orasida aynan davlat hokimiyatini obro'sizlantirib, iqtisodiyotning o'sishi va tadbirkorlik rivojiga jiddiy to'siq bo'lib kelayotgan korrupsiya masalasiga barchamizning e'tiborimizni qaratdi. Aynan shu davrdan boshlab mamlakatimizda bu salbiy illat bilan murosasiz kurash olib borish borasida barqaror qadamlar qo'yildi.

Darhaqiqat, ko'p vaqt o'tmay, ya'ni 2017-yilning 3-yanvarida O'zbekiston Respublikasi "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonun qabul qilindi. Qonun 34 moddadan iborat bo'lib, unda korrupsiyaga quyidagicha ta'rif beriladi: **Korrupsiya** – shaxsning o'z mansab yoki xizmat mavqeyidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o'zga shaxslarning manfaatlarini ko'zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek, bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etish.

Korrupsiyaga qarshi kurashishning asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat:

qonuniylik;

fuqarolar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarining ustuvorligi;

ochiqlik va shaffoflik;

tizimlilik;

davlat va fuqarolik jamiyatining hamkorligi;

korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlar ustuvorligi;

javobgarlikning muqarrarliligi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni bevosita amalga oshiruvchi davlat organlari quyidagilardan iborat:

O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi;

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi;

O'zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati;

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi;

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi;

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti. Ushbu qonunda yuqorida keltirib o'tilgan davlat organlarining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi vakolatlari keltirib o'tilgan.

Mazkur qonun hujjatining samaradorligini ta'minlash maqsadida 2017-yil 2-fevral kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining qoidalarini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori ham qabul qilindi.

Ushbu e'lon qilingan hujjat ana shu tizimli ishlarning mantiqiy davomi bo'lib, unda korrupsiyaga qarshi kurashish borasida yaratilgan mexanizmlarni yanada takomillashtirish, ushbu illatni batamom bartaraf etish choralari ochib berilgan.

Aynan shuning uchun ham mazkur hujjatda iqtisodiyotni yanada ravnaq toptirish, xalq farovonligini oshirish, mamlakatda investitsiya muhitini yaxshilash borasidagi strategik vazifalarni hal etish korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida davlat siyosatining samarali amalga oshirilishini ta'minlash hamda korrupsiya ko'rinishlarining sabab va shart-sharoitlarini bartaraf etish bo'yicha yangi tizimli choralar ko'rilishini ta'minlash alohida ko'rsatib o'tilgan. Farmonning asl mazmun-mohiyati shundan iboratki, korrupsiyaga qarshi kurashish bu nafaqat davlatning vazifasi, balki jamiyat ham davlat bilan hamkorlikda bu salbiy illatga barham berishda faol ishtirok etishi lozim.

Darhaqiqat, korrupsiya va uning har qanday ko'rinishi bilan murosasiz kurash olib borish muhim o'rinni egallaydi. Chunki mazkur salbiy illatga barham berilmas ekan, iqtisodiyotni rivojlantirish, mamlakatda sog'lom raqobat muhitini shakllantirish, chet el investitsiyalarini mamlakat iqtisodiyotiga jalb etish hamda davlatimizda o'rta sinfni shakllantirish nihoyatda og'ir kechadi. Korrupsiyaning yana bir salbiy tomoni shundaki, u mamlakatning xalqaro maydondagi ijobiy imijiga, reytingiga o'zining salbiy

ta'sirini ko'rsatadi. Buning natijasida mamlakatning investitsiya jozibadorligiga putur yetishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonunning mazmun-mohiyati, aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish zarur. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2020-yil 24-yanvar kuni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga qilgan Murojaatnomasida ta'kidlaganidek, "Jamiyatimizda korrupsiya illati o'zining turli ko'rinishlari bilan taraqqiyotimizga g'ov bo'lmoqda. Bu yovuz baloning oldini olmasak, haqiqiy ishbilarmonlik va investitsiya muhitini yaratib bo'lmaydi, umuman, jamiyatning birorta tarmog'i rivojlanmaydi".

Korrupsiyaga qarshi kurashishning ustuvor huquqiy asoslari qator xalqaro huquqiy normalarda o'z ifodasini topgan bo'lib, ularga quyidagilarni kiritish mumkin:

2003-yil 31-oktabrda qabul qilingan BMTning Korrupsiyaga qarshi Konvensiyasi;

2000-yil 15-noyabrda qabul qilingan BMTning Transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi Konvensiyasi;

1999-yil 27-yanvardagi Yevropa Kengashining "Korrupsiya uchun jinoiy javobgarlik to'g'risida"gi Konvensiyasi;

1999-yil 4-noyabrdagi "Korrupsiya uchun fuqarolik huquqiy javobgarlik to'g'risida"gi Konvensiyalari va boshqalar.

O'zbekiston yuqorida ta'kidlangan xalqaro normalardan 2008-yilda Birlashgan Millatlar Tashkilotining Korrupsiyaga qarshi Konvensiyasi, shuningdek, 2010-yilda Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti doirasida qabul qilingan Korrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha Istanbul Harakat rejasini ratifikatsiya qilgan.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-iyundagi PF-6013-sonli "O'zbekiston Respublikasida Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni qabul qilinib, mazkur Farmon asosida korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatini, shuningdek, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarning tizimli sabab va shart-sharoitlarini bartaraf etish hamda korrupsiyaga qarshi kurashish choralarining

samaradorligini oshirishga qaratilgan davlat va boshqa dasturlarni shakllantirish va amalga oshirish maqsadida Korrupsiyaga qarshi kurash Agentligi tashkil etildi.

Farmon bilan Agentlikka Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining Sharqiy Yevropa va Markaziy Osiyo mamlakatlari uchun korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha tarmog'ining Istanbul harakatlar dasturi doirasidagi ishlar hamda ishlab chiqilgan tavsiyalarning amalga oshirilishini ta'minlash, BMTning Korrupsiyaga qarshi konvensiyasi va O'zbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi boshqa xalqaro shartnomalari qoidalarining bajarilishi bilan bog'liq chora-tadbirlarni amalga oshirish hamda ushbu yo'nalishdagi faoliyatni muvofiqlashtirish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi milliy koordinatorining vazifa va vakolatlari, shuningdek, fuqarolik jamiyati institutlari bilan birgalikda hududlar, iqtisodiyot tarmoqlari va boshqa sohalar kesimida korrupsiyaning darajasini baholovchi milliy indeks tuzishni tashkillashtirish yuklatildi.

Shuningdek, mazkur Farmon asosida quyidagi chora-tadbirlarni bosqichma-bosqich amalga oshirish belgilanganligi ahamiyatlidir, xususan:

2020–2021-yillarda barcha davlat va xo'jalik boshqaruvi organlarida korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tizimi ("komplaens-nazorat")ni bosqichma-bosqich joriy etish;

davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi faoliyati, shuningdek, ushbu sohadagi davlat va boshqa dasturlar samaradorligini monitoring qilish hamda baholash imkonini beruvchi E-Anticor.uz elektron platformasini joriy etish;

korrupsiya holatlari haqida xabardor qilish imkonini beruvchi maxsus mobil dasturiy ta'minotni joriy etish (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-iyundagi PF-6013-sonli "O'zbekiston Respublikasida Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni).

Xorijiy amaliyot tahlili shuni ko'rsatdiki, bozor iqtisodiyoti qonunlarga asoslangan mamlakatlarda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida davlat va xususiy sektor ishtirokchilarining

xalqaro standartlar, qonun hujjatlari va boshqa zamonaviy usullarga muvofiq samarali faoliyat yuritishini ta'minlovchi muhim vositalardan biri o'z tarkibida korrupsiyaga qarshi kurashish komplaens nazorat (compliance control) tizimini tashkil etish hisoblanadi.

Korrupsiyaga qarshi komplaens nazorati – davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi xalqaro standartlar, qonun va boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarga muvofiq tashkil etuvchi, korrupsiya xavf-xatarlari, manfaatlar to'qnashuvini o'z vaqtida aniqlash va chek qo'yish, qonun buzilishi va korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar haqida xabar berishni o'zida mujassam etgan profilaktik tizimdir.

Qayd etish lozimki, olib borilayotgan islohotlarni amaliy hayotga tatbiq etish maqsadida 2020-yil 4-fevralda Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha Vakili (Ombudsman) tomonidan Korrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha idoraviy chora-tadbirlar dasturi tasdiqlangan bo'lib, fuqarolar va yuridik shaxslar vakillari tomonidan korrupsiya haqida xabar berish mexanizmlari joriy etilganligi ahamiyatlidir, xususan, bugungi kunda:

- Ombudsmanning “10-96” ishonch telefoni va virtual qabulxonasi faoliyat yuritmoqda;

- fuqarolar va yuridik shaxslar vakillarining korrupsiyaviy holatlar bo'yicha hamda xodimlarning boshqa qonunga xilof ishlari to'g'risidagi murojaatlari tahlil qilinib boriladi, ularning natijalari o'dob-axloq komissiyasi yig'ilishlarida muhokama qilinadi;

- Ombudsman Kotibiyatiga ishga birinchi marta qabul qilinayotgan shaxslar uchun korrupsiyaga qarshi kurashish maqsadida yo'l-yo'riqlarni tushuntirish, xizmat vazifasiga qo'yiladigan asosiy majburiyatlar, taqiqlar, cheklovlar, talablar va idoraviy o'dob-axloq qoidalari mazmun-mohiyati 3 ish kunidan kechiktirmay tushuntiriladi;

- Vakilga korrupsiya bilan bog'liq bo'lgan murojaatlarga e'tibor qaratadigan bo'lsak, 2020-yilning 6 oy davomida “Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 26-moddasiga muvofiq Ombudsman

tomonidan Bosh prokuraturaga 17 ta murojaat yuborilgan (2019-yil – 21 ta). Ushbu murojaatlardan 2 tasi o‘z tasdig‘ini topgan.

Sohada amalga oshirilayotgan ushbu mazmundagi islohotlarning natijasi sifatida Transparency International xalqaro nohukumat tashkiloti tomonidan har yili e‘lon qilib boriladigan “Korrupsiyani qabul qilish indeksi”da O‘zbekiston 180 ta davlat orasida 2017-yilda 157-o‘rin, 2018-yilda esa 158-o‘rinni egallagan bo‘lsa, 2019-yilda 25 ball bilan 153-o‘rinni egallab, 5 pog‘onaga ko‘tarildi. O‘zbekiston 2023-yil 180 ta davlat ichida 121-o‘rinni egalladi.

Ta’kidlash joizki, mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi kurashish hamda ushbu turdagi jinoyatlarni sodir etilishining oldini olishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar tizimli ravishda amalga oshirilmoqda. Davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarida korrupsiya omillarini keltirib chiqarayotgan tizimli muammolarni bartaraf etishga qaratilgan.

Tayanch so‘zlar

Ijtimoiy soha, aholi daromadi, arzon uy-joy, korrupsiya, “Obod qishloq”, “Obod mahalla”, aholi turmush darajasi, ijtimoiy soha, kam ta’minlangan oila, ishsizlik nafaqasi, islohot, aholi daromadi, yalpi ichki mahsulot, iste’mol savatchasi, infratuzilma, modernizatsiya, muhandislik-kommunikatsiyasi, taqsimlash.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar

1. O‘zbekistonda ijtimoiy siyosatning o‘ziga xos xususiyatlarini sanab bering.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining qoidalarini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori qachon qabul qilindi?

3. Harakatlar strategiyasi dasturi asosida ijtimoiy siyosat sohasida qanday ishlar amalga oshirildi?

5. O‘zbekistonda aholi bandligini ta’minlash va real daromadlarning izchil oshirilishi bo‘yicha olib borilayotgan islohotlarning mazmuni nimalarda ifoda etiladi?

6. Mamlakatimizda aholini ijtimoiy himoya qilish borasida olib borilayotgan islohotlarning mazmuni.

7. O'zbekistonda sog'liqni saqlash tizimini takomillashtirish, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish borasida olib borilayotgan islohotlar.

8. "Obod qishloq dasturi" doirasida olib borilayotgan izchil siyosat.

9. Yangi O'zbekistonda ijtimoiy siyosatning huquqiy asoslari nimalarda aks etgan?

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va faravon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2016.

2. Mirziyoyev. Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. To'ldirilgan ikkinchi nashri. – Toshkent: O'zbekiston, 2022.

3. Mirziyoyev. Sh.M. Yangi O'zbekistonda erkin va faravon yashaylik. 5-jild. – Toshkent: O'zbekiston, 2023.

4. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekistonda taraqqiyot strategiyasi asosida demokratik islohotlar yo'lini qat'iy davom ettiramiz. 6-jild. – Toshkent: O'zbekiston, 2023.

5. Mirziyoyev. Sh.M. Hozirgi zamon va Yangi O'zbekiston. – Toshkent: O'zbekiston, 2024.

6. O'zbekistonning yangi tarixi. Mustaqil O'zbekiston tarixi. Uchinchi kitob. – Toshkent: Sharq, 2000.

7. Mustaqil O'zbekiston tarixi. – Toshkent: Akademiya, 2013.

8. Новейшая история Узбекистана. Учебник для вузов. – Ташкент: Адабиёт учқунлари, 2018.

9. Shamsutdinov R., Mo'minov H. O'zbekiston tarixi. – Toshkent: Sharq, 2013.

8-MAVZU. MUSTAQILLIK YILLARIDA O'ZBEKISTONDAGI MA'NAVIY VA MADANIY TARAQQIYOT

Reja:

1. Mustaqillik yillarida milliy urf-odatlar, qadriyatlar va an'analarning qayta tiklanishi.
2. O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimovning ajdodlar merosi va milliy qadriyatlarni tiklash borasidagi xizmati.
3. Shaharlar – ilm-fan, madaniyat va ma'naviyat maskani. Toshkent – "Islom madaniyati poytaxti".
4. Yangi O'zbekistonda ma'naviy va madaniy taraqqiyotning yangi bosqichi.
5. O'zbekistonda millatlararo va dinlararo munosabatlardagi barqarorlikni ta'minlash borasidagi davlat siyosati.

1. Mustaqillik yillarida milliy urf-odatlar, qadriyatlar va an'analarning qayta tiklanishi

Biron-bir jamiyat ma'naviy imkoniyatlarini, odamlar ongida ma'naviy va axloqiy qadriyatlarni rivojlantirmay hamda mustahkamlamay turib o'z istiqbolini tasavvur etish qiyin. Xalqning madaniy qadriyatlari, ma'naviy merosi ming yillar mobaynida Sharq xalqlari uchun qudratli ma'naviyat manbayi bo'lib xizmat qilgan. Uzoq vaqt davom etgan kuchli mafkuraviy tazyiqqa qaramay, O'zbekiston xalqi avloddan-avlodga o'tib kelgan o'z tarixiy va madaniy qadriyatlarini hamda o'ziga xos an'analarini saqlab qolishga muvaffaq bo'ldi.

Shu o'rinda milliy istiqlool g'oyasiga to'xtalib o'tish joiz. Mustaqillik g'oyibdan kelmaydi. Tirik jonzod borki erkinlikka intilib yashaydi. Mustaqillik shaxs, jamiyat, davlatning tarixiy orzusi hisoblanib, u haqidagi tasavvurlar, bilim va g'oyalar amaliyot tajribalariga asoslangan holda o'zgarib, boyib boradi. Mustaqil fikr va g'oyasiz mustaqil amaliyot bo'lmaydi. Ushbu qonuniyatga amal qilmagan jamiyat inqirozga duchor bo'ladi, o'z yo'lini yo'qotadi. G'oya davlat, jamiyat va inson yo'lini yoritib boruvchi nurga o'xshaydi. Inson tanasi tabiat qonunlari asosida yashaydi, ammo uning ongi g'oyasiz yaratuvchanlik qobiliyatini

yo'qotadi. Har qanday mustaqillikning ma'naviy poydevorini g'oya tashkil etadi. Shu sababli g'oya va mafkura hamda milliy va diniy qadriyatlarining saqlanishi jamiyat asoslangan bo'lsa, jamiyat mustahkam, davlat barqaror bo'ladi. Ilmiy adabiyotlarda g'oya va mafkura tushunchalariga turlicha ta'riflar berilgan bo'lsa-da, ularni birlashtiruvchi yondashuv mavjud.

Mustaqil yashashni istagan millat uchun, birinchi navbatda, milliy g'oya kerak. Milliy g'oya mustaqil ichki va tashqi siyosatni, uning huquqiy asoslarini belgilaydi. Milliy g'oya har bir xalq va mamlakatning o'ziga xos immunitetidir. Milliy g'oyasini anglab yetmagan millat o'zga g'oyalar ta'siriga tushadi va o'zligini yo'qotadi. Milliy g'oyasi zaif millatni bo'lib tashlash va bo'ysundirish oson kechadi. Shu bois buyuk davlatchilik shovinizmi yoki egotsentrizm kasalligiga duchor bo'lgan kuchlar o'zga millat va xalqlarni bo'ysundirish uchun, birinchi navbatda, ularning milliy g'oyasiga tahdid soladi. Tarixda bo'lganidek, bugun ham ushbu qurol yangicha shakl va mazmunlarda qo'llanilmoqda. O'zbekiston xalqi mustaqilligini qo'lga kiritib, butun dunyoga O'zbekistonning o'ziga xos va o'ziga mos yo'li borligi, u o'zbek xalqining milliy manfaatlariga asoslanishini e'lon qildi. O'zbekistonning milliy manfaatlarini esa, albatta, uning milliy g'oyasi ifoda etadi. Milliy g'oya hech bir shaxs yoki buyuklar tomonidan o'ylab topilmagan. U buzg'unchi g'oyalardan farqli ravishda o'zbek xalqining og'zaki (Alpomish, Go'ro'g'li, Kuntug'mish kabi) va yozma ijodiyotida (Avesto, Forobiy, Navoiy asarlari kabi), xalqimiz hikmatlari, urf-odat va an'analarida asrlar davomida shakllanib, rivojlanib kelmoqda.

Milliy g'oya ongu shuuriga singdirilgan xalq farzandlari o'zligini anglab, buyuk ma'naviy jasorat namunalarini ko'rsatishgani tarixdan ma'lum. O'zbekistonning Birinchi Prezidenti Islom Karimov "Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch" asarida ta'kidlaganidek, To'maris, Shiroq, Muqanna, Temur Malik, Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur, Navoiy, Avloniy, Qodiriy, Fitrat ana shunday ma'naviy jasorat sohiblaridir. O'zbek xalqi bor ekan, ularning nomi va xotirasi abadiydir. Milliy g'oyani anglagan avlod ajdodlari an'analari davom ettiraveradi.

Jamiyat amal qiladigan g'oya salkam uch ming yillik mustaqil rivojlanish yillarida o'zbek xalqini buyuk kashfiyotlar va g'alabalar

sari yetaklab, xalqimizning milliy rivojlanish g'oyasiga aylandi. Darhaqiqat, O'zbekiston ko'p millatli, ko'p konfessiyali davlat bo'lgani bois hech bir din yoki elatning g'oyasi jamiyatni birlashtirishga qodir emas. Faqat O'zbekiston xalqining g'oyasi bo'lgan milliy g'oyagina jamiyat subyektlarini birlashtirish salohiyatiga ega. Tarixdan ma'lumki, birlashtiruvchi g'oyaga ega bo'lmagan jamiyat, davlat tanazzulga yuz tutadi. Shu sababli milliy g'oya va milliy mafkura masalasi har qanday jamiyat uchun hayot-mamot masalasidir. Hozirgi mustaqillik yillarida O'zbekiston xalqining milliy g'oyasi nafaqat amaliyotga tatbiq etildi, balki nazariy va amaliy jihatdan rivojlantirildi.

Milliy tiklanish o'z-o'zidan sodir bo'lmaydi. Bu, avvalo, ko'p jihatdan ma'naviyatga bog'liq. Shu boisdan mustaqillikning dastlabki kunlaridan ajdodlarimizning ma'naviy merosini tiklash ishlari keng jabhada amalga oshirildi. Ma'naviy meros qadimgi zamonlardan buyon ajdodlarimiz, ota-bobolarimizdan bizgacha yetib kelgan ma'naviy boyliklar siyosiy, falsafiy, huquqiy va diniy qarashlar, axloq-odob me'yorlari, ilm-fan yutuqlari, tarixiy, badiiy va san'at asarlari majmuasidir. Ma'naviy qadriyatlar, boyliklar jamiyat taraqqiyotining barcha bosqichlarida uning ehtiyojlari tufayli vujudga keladi va o'sha davr hayotini aks ettiradi. Davrlar almashinuvi, jamiyatlardagi o'zgarishlar haqiqiy ma'naviy merosning qadrini oshirib boradi hamda keyingi avlodlar uchun ma'naviy meros maqomiga olib chiqadi. Mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq ajdodlar tomonidan ko'p asrlar mobaynida yaratib kelingan g'oyat ulkan, bebaho ma'naviy va madaniy merosni tiklash davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan nihoyatda muhim vazifa bo'lib qoldi. Darhaqiqat, O'zbekistondagi ijtimoiy sohaning tub ildizlaridan bo'lgan ma'naviy sohaning keng rivojlanishi xalqning faol ishtiroki bilan bo'ldi. O'zbek xalqining o'z tarixi, urf-odatlar, milliy va diniy qadriyatlariga o'zgacha ehtirom bilan munosabatda bo'lishi jahon ahli tomonidan e'tirof etilgan.

Umuman olganda, ma'naviy qadriyatlarning tiklanishi xalqning ma'naviy sarchashmalariga, uning ildizlariga qaytishdan iborat uzviy, tabiiy jarayondir. Haqqoniy tarixni tiklash, milliy o'zlikni anglash, ta'bir joiz bo'lsa, milliy ifixorni o'stirish jarayonida g'oyat muhim o'rin tutadi. Buyuk ajdodlarning hayot yo'li va jasratlari tarixiy

xotirani jonlantirib, jamiyatda yangi fuqarolik ongni shakllantirishda axloqiy tarbiya va ibrat manbayiga aylanmoqda.

2. O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimovning ajdodlar merosi va milliy qadriyatlarni tiklash borasidagi xizmati

O'zbekistonning Birinchi rahbari Islom Karimov mustaqillik ostonalarida, ya'ni 1990-yil 20-yanvarda Toshkent shahar faollari bilan yig'ilish o'tkazdi. Unda Toshkentni yuksak madaniyatli shaharga aylantirish kerakligi, zamondoshlarini emas, kelajak avlod ham u bilan haqli ravishda faxrlanadigan shaharga aylantirish masalasi qo'yildi. Ushbu yig'ilishda Islom Karimov shunday degan edi: "Tariximiz uchun ham, hozirgi kun uchun ham o'zbek ishchilarining, o'zbek dehqonlarining, o'zbek ziyolilarining uyalishlariga hech bir asos yo'q. Aksincha, ular juda og'ir sinovlarga, ba'zan esa nohaq sinovlarga qaramay, o'zlarining mashaqqatli ishlarini munosib ravishda ado etib kelmoqdalar, bu bilan ular haqli ravishda faxrlanishlari mumkin".

O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I. Karimovning 1994-yil 23-apreldagi Farmoni asosida "Ma'naviyat va ma'rifat" jamoatchilik markazi tashkil etildi. Bu, o'z navbatida, respublikada ma'naviy va mafkuraviy ishlarni yuksaltirishda katta ahamiyatga ega bo'ldi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2000-yilning 2-iyunidagi "Respublika ma'naviyat va ma'rifat kengashini qo'llab-quvvatlash to'g'risida"gi Farmoni esa mamlakatimizda ma'naviy-ma'rifiy islohotlarni izchil amalga oshirish, milliy istiqloq g'oyasining asosiy tushuncha va tamoyillarini xalqimiz ongi va qalbiga singdirish borasida ulkan ishlarni amalga oshirishga qaratilgan muhim dastur bo'ldi.

Mustaqil O'zbekistonda ma'naviy yuksalishning bosh yo'li deb, avvalo, ajdodlar merosini chuqur o'rganish, undan faxrlanish tuyg'usi asosiy o'ringa qo'yildi. Markaziy Osiyo tarixida siyosiy aql-idrok bilan ma'naviy jasoratni, diniy dunyoqarash bilan qomusiy bilimdonlikni o'zida mujassam etgan buyuk arboblarni ko'p bo'lgan. Ularning nomlari, jahon sivilizatsiyasi taraqqiyotiga qo'shgan buyuk hissalar hozirgi kunda butun dunyoga ma'lum. Tarixiy tajriba, an'analarning meros bo'lib o'tishi – bularning barchasi yangidan

yangi avlodlarni tarbiyalaydigan qadriyatlarga aylanib qolmog'i zarur.

Ma'naviy sohadagi o'zgarishlarning keng ko'lami, ayniqsa, so'nggi yillarda yanada aniq namoyon bo'la boshladi. Islom hamkorlik tashkiloti Tashqi ishlar vazirlari kengashining 43-sessiyasida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimini bajaruvchi, mamlakat Bosh vaziri Sh.M.Mirziyoyev "Ta'lim va ma'rifat-tinchlik va bunyodkorlik sari yo'l" nomli ma'ruzasida (2016-yil 18-oktabr) shunday degan edi: "Buyuk tarixda hech narsa izsiz ketmaydi. U xalqlarning qonida, tarixiy xotirasida saqlanadi va amaliy ishlarida namoyon bo'ladi. Shuning uchun ham u qudratlidir. Tarixiy merosni asrab-avaylash, o'rganish va avlodlardan avlodlarga qoldirish davlatimiz siyosatining eng muhim ustuvor yo'nalishlaridan biridir".

O'zbekiston Respublikasida iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish bilan bir vaqtda ma'naviy merosni, madaniy qadriyatlarni tiklash va ularni xalqqa yetkazish borasida keng ko'lamlı ishlar olib borilmoqda. O'zbek xalqi mustaqil taraqqiyot yillarida ikkita renessansni (ya'ni buyuk rivojlanishni) o'z tarixiga muhrlab qo'ydi. Biriachi uyg'onish davrida (IX–XII asrlar) ilmiy va diniy bilimlarning uyg'unligi asnosida dunyoni larzaga keltiradigan buyuk kashfiyotlar qilindi. Yurtimiz ilm-fan o'chog'iga aylandi. Ibn Sino, Forobiy, Al-Xorazmiy, Beruniy kabi mutafakkirlar tabiiy-ilmiy bilimlarni yangi sifat bosqichiga ko'targan bo'lsalar, At-Termiziy, Moturudiy, Imom Buxoriy, Ahmad Yassaviy, Bahouddin Naqshband, Najmiddin Kubro kabi ularnolar islom dinini milliy g'oya va qadriyatlarimizga uyg'un holda rivojlantirdilar. Imom Buxoriy musulmon dunyosida "hadis ilmining sultoni" sifatida e'tirof etildi. Islom dinidagi hanafiy mazhabi, yassaviya, kubroviya, naqshbandiya tariqatlari o'zbek xalqining milliy g'oyasiga mos holda rivoj topdi, yurtimiz islom ilmining markaziga aylandi.

Ikkinchi uyg'onish XIV–XVI asrlarda o'zbek davlati dunyoda eng rivojlangan, kuchli va adolatli davlatga, Amir Temurning "Kuch adolatdadir" g'oyasi esa mamlakatning harakat dasturi va amaliyotiga aylandi. Alisher Navoiy kabi buyuk allomalar komil inson g'oyasini fan darajasiga ko'tardi. Bugun g'arb olimlari 500 yil oldin o'rganilgan inson omili, inson huquqi masalasini

antropologiya fani tarkibida katta qiziqish bilan o'rganishmoqda. O'zbekistonning Birinchi Prezidenti I.Karimov tomonidan chop etilgan "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" nomli asarda ma'naviyatning mustaqil O'zbekiston uchun ahamiyatiga shunday to'xtalgan edi: "Biz xalqimizning dunyoda hech kimdan kam bo'lmasligi, farzandlarimizning bizdan ko'ra kuchli, bilimli, dono va albatta, baxtli bo'lib yashashi uchun bor kuch va imkoniyatlarimizni safarbar etayotgan ekanmiz, bu borada ma'naviy tarbiya masalasi, hech shubhasiz, beqiyos ahamiyat kasb etadi". Shu sababli O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti tomonidan qadriyatlar, urf-odatlar, buyuk otabobolarimizning bizga qoldirgan meroslarini o'rganish va targ'ib etish uchun keng imkoniyatlar yaratildi. Mustaqillik yillarida, xususan, 1991-yil – Alisher Navoiy tavalludining 550 yilligi, 1992-yil – Boborahim Mashrab tavalludining 350 yilligi, 1993-yil – Zahiriddin Muhammad Bobur tavalludining 510 yilligi, 1994-yil – Mirzo Ulug'bek tavalludining 600 yilligi, 1996-yil – Amir Temur tavalludining 660 yilligi, 1997-yil – Abdulhamid Sulaymon o'g'li Cho'lpon tavalludining 100 yilligi, 1998-yil – Ahmad al-Farg'oni tavalludining 1200-yilligi, 1999-yil – "Alpomish" dostonining 1000-yilligi, 2000-yil – Burhoniddin Marg'inoniy tavalludining 910 yilligi, 2000-yil – Kamoliddin Behzod tavalludining 545 yilligi, 2001-yil – "Avesto" yaratilganligining 2700-yilligi nishonlandi.

1991-yili buyuk alloma, g'azal mulkining sultoni Alisher Navoiy yubileyini o'tkazish katta voqea bo'ldi. Bu tantanaga bag'ishlanib respublikada shoirning asarlari nashrdan chiqarildi. Alisher Navoiy tavalludining 550 yilligi munosabati bilan haykalning ochilish marosimida (1991-yil 1-oktabr) O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.Karimov: "O'z tarixi va ajdodlarini siylagan xalqning kelajagi, albatta, porloq bo'ladi. Ishonamizki, O'zbekistonimiz tez orada dunyo hamdo'stligi o'rtasida o'ziga munosib o'rinni egallaydi, inshoolloh. Ana o'shanda ham Alisher Navoiyning qutlug' nomi bizga madadkor bo'ladi" – deya niyat bildirgan edi.

O'zbekistonning mustaqillikka erishishi natijasida badiiy ijod, tasviriy san'atga e'tibor davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Sharqning buyuk musavviri Kamoliddin Behzod tavalludining 540

va 550 yilligi keng nishonlandi, 545 yilligi YUNESKO qaroriga binoan xalqaro miqyosda Toshkentda o'tkazildi. Kamoliddin Behzod nomidagi muzeyga asos solindi. 1994-yil Mirzo Ulug'bek tavallud topgan kunining 600 yilligi, 2024-yilda 360 yilligi keng ko'lamda, jahon miqyosida nishonlandi.

YUNESKO tomonidan 1996-yil "Amir Temur yili" deb e'lon qilindi. Shu yili YUNESKOning Parijdagi qarorgohida "Temuriylar davri, fan, madaniyat va maorifning gullab-yashnashi" mavzusida anjuman o'tkazildi va unga bag'ishlangan ko'rgazma ochildi. Mamlakatimizda Amir Temur va Temuriylar tarixi muzeyi, Amir Temur nomi berilgan bog'lar, ko'chalar barpo etildi. 1999-yili mamlakatimizda Jaloliddin Manguberding 800 yillik tavalludiga, "Alpomish" dostoni yaratilishining 1000-yilligiga bag'ishlangan turli kechalar, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar tashkil etildi. O'zbekistonda unga atab bir nechta haykallar o'rnatildi, Xorazm viloyatida Jaloliddin Manguberdiga bag'ishlangan memorial majmua qurildi.

Buyuk ajdodlarimizning jahon ilm-faniga qo'shgan hissasi beqiyos bo'lib, jumladan, Imom Buxoriy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, Muso Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Rudakiy, Ulug'bek, Jomiy, Navoiy, Bobur, Abdulla Qodiriy, Cho'lpon, Fitrat va boshqa yuzlab bobokalonlarni dunyo e'tirof etgan. Istiqlol yillarida ularning nomlari qayta tiklanib, ma'naviy merosi xalqimizga qaytarib berildi, ularning yubiley tantanalari mamlakatimizda va jahon miqyosida keng nishonlandi. 1998-yili Imom al-Buxoriy tavalludining 1225-yilligi, Ahmad al-Farg'oniy tavalludining 1200-yilligi, Al-Marg'inoniy tavalludining 910 yilligi, kalom ilmining asoschisi Abu Mansur al-Moturudiy tavalludining 1130-yilligi, Iso at-Termiziyni 1200-yilligi, Mahmud az-Zamaxshariyning 920 yilligi, Najmiddin Kubroning 850 yilligi, Bahouddin Naqshbandiyni 675 yilligi o'tkazildi va allomalar hayotiga bag'ishlangan ilmiy anjumanlar, badiiy ko'rgazmalar ochildi.

O'zbek xalqi tarixiy xotirasini tiklash yo'lida juda muhim me'moriy tadbirlar amalga oshirildi. Ayniqsa, Imom Buxoriy tavalludining 1225-yilligi munosabati bilan Samarqand viloyati Xartang qishlog'ida ulkan me'moriy majmuot (maqbara, masjid, me'moriy idora, kutubxona va oshxona)ning yangi loyiha asosida

tiklanishi (1998) musulmon dunyosida g'oyat minnatdorlik va katta olqish bilan kutib olindi. Ahmad al-Farg'oniyni 1200-yilligi munosabati bilan Quva va Farg'ona shaharlarida haykal va saylgoh bog'lar barpo etildi. Samarqandda Imom Moturudiy qabri ustiga me'moriy yodgorlik tiklandi, Burhoniddin Marg'inoniy xotirasiga bag'ishlangan me'moriy majmuot Marg'ilon shahrida bunyod etildi. Buxoroda Imom Buxoriy majmuasi qurildi. Shuningdek, Buxoroda Xo'ja Bahouddin ansambli yangidan rekonstruksiya qilindi.

3. Shaharlar – ilm-fan, madaniyat va ma'naviyat maskani.

Toshkent – “Islom madaniyati poytaxti”

Ittifoq davrida qadimiy shaharlarga qo'yilgan sun'iy nomlar istiqlolni ilk kunlaridayoq olib tashlandi. Natijada respublikadagi 30 ga yaqin ko'ha shaharlar o'zining haqiqiy nomi bilan yuritiladigan bo'ldi. Bugungi kunda Farg'ona viloyati Oltiariq tumanidagi Hamza – Tinchlikka (2011), Andijon viloyati Jalolquduq tumani markazi Oxunboboyev – Jalaquduqqa (2015), Toshkent viloyatining O'rtachirchiq tumanidagi To'ytepa shahri Nurafshon (2017-yil) deb ataladigan bo'ldi. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining “O'zbekiston Respublikasining shaharsozlik kodeksi”ni tasdiqlash to'g'risidagi qarorining qabul qilinishi (2002-y.) ayni muddao bo'ldi. Mazkur qarorda Shaharsozlik to'g'risidagi qonun hujjatlari tartibga solinib, aholi punktlari turlarga bo'lindi. Qonunning 9-moddasida aholi punktlarining turlarga bo'linishi belgilab qo'yildi.

Mustaqillikning dastlabki yillarida shaharlar miqdorida katta o'zgarish yuz bermadi. Faqat Xorazm viloyatidagi Gurlan, Xonqa, Shovot, Qo'shko'pir va Hazorasp shaharlari shaharchalarga (1992-y.), Samarqand viloyatidagi Payariq (1994-y.), Buxoro viloyatidagi Shofirkon (1995-y.) va Navoiy viloyatidagi Yangirabot (1998-y.) shaharchalari shahar aholi punktiga, Jizzax viloyatidagi Marjonbuloq shahri esa shaharchaga aylantirildi, Navoiy viloyatida, asosan, qurilish materiallari (marmar) yetkazib beradigan Gazgon shahri qo'shildi (2020-y.).

Jahon sivilizatsiyasi rivojiga ulkan hissa qo'shgan, haqli ravishda “Sharq darvozasi” deb nom olgan, xalqimizning g'urur-iftixori bo'lmish azim poytaxtimiz Toshkent shahrining milliy

davlatchiligimiz tarixida va ijtimoiy-siyosiy hayotimizdagi oʻrni va ahamiyati beqiyosdir. Qadimdan ilm-fan va madaniyatning yirik markazi, tinchlik va doʻstlik ramzi boʻlib kelayotgan Toshkent shahrining 2200 yilligini oʻtkazish maqsadida Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2008-yil 2-aprelda qarori chiqdi, 2009-yilning aprel oyida YUNESKOning Parijdagi bosh qarorgohida Toshkent shahrining 2200 yilligiga bagʻishlangan yubiley tantanalari boʻlib oʻtdi. Shu yil 26–27-mayda “Toshkentning jahon sivilizatsiyasi taraqqiyotidagi tutgan oʻrni” mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya ham oʻtkazildi. Mamlakatimizda islom madaniyati hamda maʼnaviy qadriyatlarni tiklash va saqlab qolish boʻyicha amalga oshirilayotgan ezgu ishlarning xalqaro koʻlamdagi eʼtiroflaridan biri sifatida Toshkent shahri “Islom madaniyati poytaxti” deb eʼlon qilinishida yana bir bor namoyon boʻldi. 2007-yil yanvarda Islom konferensiyasi tashkiloti tarkibidagi muassasalardan biri – Taʼlim, fan va madaniyat masalalari boʻyicha xalqaro islom tashkiloti (ISESCO) tomonidan bir qator shaharlar Fes (Marokash), Tripoli (Liviya), Dakar (Senegal) shaharlari, shuningdek, Toshkent islom madaniyatining poytaxti, deb eʼlon qilindi hamda YUNESKOning “Butunjahon ahamiyatiga molik yodgorliklar roʻyxati”ga kiritildi. Tadbir munosabati bilan shaharda bunyodkorlik ishlari yanada avj oldirildi. Jumladan, qisqa muddatlarda Hazrati Imom majmuasi tubdan qayta taʼmirlandi, yangi minora, masjid, xiyobonlar bunyod etilib, unda koʻplab shaharliklar oʻz beminnat mehnatlari bilan hissa qoʻshdilar. Koʻkaldosh madrasasi (XVI asr), Shayx Zayniddinbobo (XIII–XIX asrlar), Zangiota (XIV–XX asr), Xoʻja Alambardor (XIX asr), Shayx Xovandi Tohur (XV asr), Yunusxon (XV asr) maqbaralari, Abulqosim madrasasi (XIX asr) va boshqalar taʼmirlandi. Toshkent qadimdan mintaqamiz tarixida muhim oʻrin tutgan qadimiy shahardir. U turli davrlarda jahon dinlari tutashgan markaz boʻlib kelgan va islom tamadduni tarixidagi oʻrni beqiyosdir.

Keyingi yillarda shaharsozlikning yangi konsepsiyasi yaratildi. Yaʼni bunyodkorlik jarayonlari mintaqaning iqlimi, aholining tarixan shakllangan urf-odatlarini, madaniy-maishiy ehtiyojlari inobatga olinib, koʻrkam manzillarda, zamonaviy koʻrinishlarda namoyon boʻlmoqda. Bosh rejani ishlab chiqishda va qurilishda kichik biznes

obyektlarining imkoniyatlari alohida e'tiborga olinib, qulay muhandislik infratuzilmalari yaratilyapti. Bugungi kunda O'zbekistonda "Aqlli shahar" innovatsion texnologiyalarini joriy etishning boshlang'ich bosqichi davom etmoqda. "Aqlli shahar" texnologiyalarini joriy etish bo'yicha Toshkent shahrida "Xavfsiz shahar", "Aqlli hisoblagichlar", "Aqlli transport", "Aqlli tibbiyot" yo'nalishlari bo'yicha dastlabki sinov loyihalarini rejalashtirish va amalga oshirish yo'lga qo'yilmoqda. Nurafshon shahrida zamonaviy shahar infratuzilmasini joriy etish bo'yicha keng qamrovli ishlar bilan birga "Tashkent City" va "Delta City" loyihalari doirasida zamonaviy shaharsozlik infratuzilmasini joriy etish bo'yicha kompleks ishlar amalga oshirilmoqda. 2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida belgilangan vazifalarni izchillik bilan amalga oshirish maqsadida 2019-yil 18-yanvar "O'zbekiston Respublikasida "Aqlli shahar" texnologiyalarini joriy etish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Vazirlar Mahkamasining 48-sonli qarori asosida Konsepsiya ishlab chiqilishi muhim qadamlardan biri bo'ldi. Qadimiy shaharlarimizdan biri Buxoro shahrida "Bukhara City" majmuasini qurish uchun 2019-yil 8-iyulda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Buxoro shahrida "Bukhara City" zamonaviy ishbilarmonlik va turar joylar markazini barpo qilishga doir tashkiliy tadbirlar to'g'risida"gi VM-565-sonli qarori chiqdi. Unga asosan Buxoro shahrining Hofiz Tanish Buxoriy, Zulfiya, Qayum Murtazoyev, Ibrohim Mo'minov va Sanoatchilar ko'chalariga tutash hududlarda samarasiz foydalanilayotgan obyektlar, bino va inshootlar egallagan jami 83 gektar maydon "Bukhara City" zamonaviy ishbilarmonlik va turar joylar markazini barpo qilishga ajratildi.

Andijon viloyatida "Yangi Andijon" shaharchasini barpo etish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 21-iyunda "Yangi Andijon" shaharchasini barpo etish va Andijon viloyatida tadbirkorlikni yanada qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5154-sonli qarori chiqdi hamda yangi shaharchani barpo etish uchun davlat budjetidan qaytarib bermaslik sharti bilan 100 million AQSH dollari ajratildi.

Mustaqillik yillarida O'zbekistonda shaharlar arxitekturasida zamonaviy ko'rinishda o'zgarib bordi. Bu esa tarixiy kentlarimizda milliylik va zamonaviylikni uyg'unlashtirgan o'ziga xos me'morchilik uslubini namoyon etdi. O'rta asrlarda bunyod etilgan Samarqanddagi Registon, Buxorodagi Labi Hovuz, Devonbegi, Xivadagi Muhammad Rahimxon ansambllari an'analarining davomi istiqlol davrida Toshkentdagi Hazrati Imom, Navoiy nomidagi Milliy bog', Mustaqillik maydoni, Urganchdagi Shovot kanali yoqasida bunyod qilingan ansambllarda zamonaviy qiyofada davom ettirilganligini e'tirof etish kerak. Poytaxtdagi ilgari ko'rimsiz holatda bo'lgan bosh maydonda barpo etilgan Ezgulik arkasi, Baxtiyor Ona, Xotira maydoni, Senat bog'i, Mustaqillik Chorbog'i, Anhor saylgohi singari qator landshaft ansambllari shaharga mutlaqo yangi manzara baxsh etdi. Vaholanki, sovet davrida bunyod etilgan mazkur maydon na mashtab va na qulaylikka ega edi. Yoz oylarida benihoya qizib, qishda izg'irin shamollar tufayli o'ta noqulayliklar tug'dirar edi. Mustaqillik yillarda bu maydonda, Yer yuzidagi davlatlar qatoriga yangi mamlakat hur O'zbekiston Respublikasi qo'shilganligini anglatuvchi, ustiga O'zbekiston Respublikasi xaritasi tushirilgan Yer sharining timsoli o'rnatildi. Mavhumlik bilan sug'orilgan "Noma'lum askar monumenti" o'rniga Ikkinchi jahon urushida qahramonlik ko'rsatib, qurbon bo'lgan vatandoshlarimizning ismi-sharifi zarhal lavhalarda bitilgan xotira ayvonlari barpo etildi. Uning markaziga Motamsaro va mushtipar Ona haykali o'rnatildi. O'zbekistonda sobiq sovet davridagi har bir tumanda mavjud bo'lgan, paxta changi (lint) bosib, ulkan hududni egallab yotgan paxta va yog' zavodlari o'rniga mustaqillik yillarida ixcham, atrofi va ko'rinishi badiiy jihatdan puxta o'ylab chiqilgan, yangicha ko'rinishdagi paxta zavodlari qurildi. Ayni paytda shahar bo'ylab tobora keng tus olib borayotgan ko'p qavatli, keng, baland, go'zal, zamon talablari asosida qurilayotgan 4-5 va 7-8 qavatli mahalliy sharoitlarga mos keluvchi g'ishtli uy-joylar qurilishi ko'paymoqda. Ularning rejali barpo etilishi, yo'l-transport tizimi bilan bog'lanishi, landshaft dizayni bilan uyg'unlashuvi, savdo va maishiy xizmat tizimi bilan bog'lanishi shahar aholisiga qulaylik, qiyofasiga esa zamonaviy ruh bag'ishlamoqda.

Zamonaviy jahon shaharsozligida XX asrdagi nazariy paradigmalarning asosiy qismi o'z ahamiyatini yo'qotdi va "shaharlarning barqaror rivojlanishi" g'oyasi ustuvor ahamiyat kasb eta boshladi. XX asr o'rtalarida zo'r berib rivojlantirilgan "megapolislar" yaratish g'oyasi o'rni "ekopolislar" yaratish loyihalari egalladi. Ekopolislar atrof-muhitga zararsiz bo'lish bilan birga uni sog'lomlashtirishga qaratilgan. Ekopolislarning to'qimasini, shahar strukturasini "yashil belbog'", "yashil koridor", "yagona suv tizimi", "yashil tomrlar" tashkil qiladi. Bularning barchasi ekologiyani yaxshilashga, muhitni sog'lomlashtirishga inson faoliyati uchun qulaylik yaratishga qaratilgan bo'lib, yuqorida belgilab o'tilganidek, qadimiy an'analar asosida yangi texnologik tizimga asoslanib rivojlantirilmoqda. Barqaror shaharsozlikning iqtisodiy tomoni insonning jismoniy, iqtisodiy va boshqa imkoniyat hamda resurslarini iqtisod qilishga qaratilgan. Bunda aholi yashash hududlaridan unumli foydalanish g'oyalaridan boshlab, energiya tejamkorligi, ergonomik ratsionalizm singari cheksiz ko'p indikatorlardan foydalaniladi. "Aqlli arxitektura" tushunchasi va yo'nalishining kelib chiqishi shu omilning rivojlanayotganligidan dalolat beradi. O'zbekistonda zamonaviy shahar qurilishi va obodonchilik sohasida olib borilayotgan ulkan ishlarni barcha viloyat markazlari siymosida kuzatish mumkin. Masalan, Urganch shahrida Pahlavon Mahmud, Abu Alg'oziy Bahodirxon, Al Xorazmiy ko'chalari ilk marta halqa tizimida o'zaro bog'landi.

4. Yangi O'zbekistonda ma'naviy va madaniy taraqqiyotning yangi bosqichi

Mustaqillik yillarida yoshlarimizga bo'lgan e'tiborni yanada kuchaytirish, ularni madaniyat, san'at, jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish, yoshlarda axborot texnologiyalaridan foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish, yurtimiz yoshlari o'rtasida kitobxonlikni targ'ib qilish, xotin-qizlar bandligini oshirish maqsadida Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan 5 ta muhim tashabbus muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur 5 tashabbus keng jamoatchilik, ayniqsa, yoshlar tomonidan katta qiziqish bilan kutib olindi. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, 5 ta muhim tashabbusning har bir yo'nalishi ma'lum bir sohani o'z ichiga qamrab oladi.

Birinchi tashabbus – yoshlarning musiqa, rassomlik, adabiyot, teatr va san’atning boshqa turlariga qiziqishlarini oshirishga, iste’dodini yuzaga chiqarishga xizmat qiladi.

Ikkinchi tashabbus – yoshlarni jismoniy chiniqtirish, ularning sport sohasida qobiliyatini namoyon qilishlari uchun zarur sharoitlar yaratishga yo’naltirilgan.

Uchinchi tashabbus – aholi va yoshlar o’rtasida kompyuter texnologiyalari va Internetdan samarali foydalanishni tashkil etishga qaratilgan.

To’rtinchi tashabbus – yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish, ular o’rtasida kitobxonlikni keng targ’ib qilish bo’yicha tizimli ishlarni tashkil etishga yo’naltirilgan.

Beshinchi tashabbus – xotin-qizlarni ish bilan ta’minlash masalalarini nazarda tutadi.

5 ta muhim tashabbus doirasida mamlakatimiz yoshlari o’rtasida kitobxonlik an’anasini yanada jonlantirish, kitob mutolaasiga keng e’tibor qaratish bo’yicha amalga oshirilayotgan sa’y-harakatlar diqqatga sazovordir. 2017-yil sentabr oyida ta’lim muassasalarida “Men sevib o’qigan kitob”, “Eng yaxshi kitobxon” tanlovlari tashkil etildi. Buning uchun budjetdan tashqari mablag’lar, xayriya mablag’lari hisobidan 160 mln. so’m ajratildi. Har bir tuman markazlarida kitob do’konlari, kutubxonalar ochildi va yangi asarlar bilan boyitildi.

Davlatimiz rahbari tomonidan 2017-yil 28-iyulda qabul qilingan “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishning yangi bosqichga ko’tarish to’g’risida”gi qarori bilan Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi tashkil etildi. Ushbu markazning faoliyati bilan bog’liq asosiy vazifalarda, xususan, milliy g’oyani yurtimizda yashayotgan barcha millat va elatlar, ijtimoiy toifa vakillari orasida keng targ’ib qilish, bunyodkorlik ruhini yalpi ijtimoiy harakatga aylantirish, yoshlar orasida ertangi kunga ishonch tuyg’ularini kuchaytirish bo’yicha vazifalar belgilandi.

So’nggi yillarda mamlakatimizda xalqimizning ma’naviy-ma’rifiy saviyasi yuksaltirilib, madaniyat va san’at muassasalarining faoliyati yaxshilanib, madaniyat va ma’rifat markazlar faoliyati samarali kechmoqda.

Shu o’rinda, O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev: “Agar jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot

bo'lsa, uning joni va ruhi ma'naviyatdir" deb, Yangi O'zbekistonni barpo etishda ikkita mustahkam ustunga tayanamiz. Birinchisi – bozor tamoyillariga asoslangan kuchli iqtisodiyot bo'lsa, ikkinchisi – ajdodlarimizning boy merosi va milliy qadriyatlarga asoslangan kuchli ma'naviyat ekanligini alohida ta'kidlab o'tgan. ma'naviyatning yangi bosqichi "Yangi O'zbekiston – ma'rifatli jamiyat" konsepsiyasini amalga oshirish, mafkuraviy xurujlarga qarshi milliy g'oya asosida birgalikda kurashish, oila, maktab va mahalla hamkorligini mustahkamlash va shu asosda ma'naviy tarbiyaning uzviyligini ta'minlash ko'nikmasini shakllantirish, "Yoshlar – Yangi O'zbekiston bunyodkorlari" shiori ostida "Yangi O'zbekiston – Uchinchi Renessans" g'oyasining ro'yobga chiqarilishini ta'minlashning nazariy-metodologik jihatlarini amaliyotga tatbiq etilganligi, milliy ma'naviy taraqqiyotimizning yangi bosqichga ko'tarish, xalqimizning boy ma'naviy merosini ilmiy nuqtayi nazardan yoshlarning ongiga yetkazishdan dalolat beradi.

O'zbekiston Respublikasining 2018-yil 28-noyabrda PQ-4038-sonli "O'zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasi" to'g'risidagi qarori qabul qilindi. Mazkur Konsepsiya davlat va jamiyat faoliyatining barcha sohalarini modernizatsiya qilish, madaniyat sohasida islohotlar o'tkazish, mamlakatning innovatsion rivojlanish yo'liga o'tishi, jamiyatni rivojlantirishning maqsad va ahamiyatini anglashga xizmat qiluvchi madaniy muhitda intellektual va madaniy rivojlangan kadrlarni tayyorlash uchun uslubiy asos bo'lib xizmat qilmoqda.

Konsepsiyaning amalga oshirilishi madaniyatning ustuvorligiga urg'u berish orqali jamiyat hayoti sifatining yanada yuqori darajasiga erishish, xalqimizda vatanparvarlik va milliy g'urur hissini tarbiyalash, fuqarolarni ahil, ma'naviyatli, mas'uliyatli, mustaqil fikrlovchi, ijodkor shaxs sifatida shakllantirish, madaniyat sohasidagi xizmatlar bozorini kengaytirish imkoni yaratilmoqda. Ushbu vazifalarni amalga oshirish maqsadida O'zbekiston ijodkorlarini qo'llab-quvvatlash "Ilhom" jamoat fondi, O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi huzurida Madaniyat va san'atni rivojlantirish jamg'armasi, O'zbekiston kompozitorlari va

bastakorlari uyushmasi, O'zbekiston davlat filarmoniyasi, O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutining Farg'ona mintaqaviy filiali faoliyati yo'lga qo'yilgan.

O'zbek mumtoz va folklor san'atining noyob namunalarini, o'ziga xos ijro maktablari va an'alarini asrab-avaylash va rivojlantirish tizimi yaratildi. O'zbek milliy maqom san'ati markazi va muzeyi tashkil etildi. Har ikki yilda bir marta Xalqaro maqom san'ati anjumani hamda Xalqaro baxshichilik san'ati festivalining o'tkazilishi noyob merosimizning nufuzini jahon miqyosida oshirish yo'lida muhim amaliy qadam bo'ldi.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2020-yilda yurtimizda madaniyat-ma'rifat markazlari soni 826 tani tashkil qilib, tarkibida 4522 ta to'garak faoliyat yuritib, ularda 52 970 nafar havaskor (ulardan 37340 tasi yoshlar) qatnashmoqda. Ulardagi xalq havaskorlik jamoasi maqomiga ega bo'lgan 482 ta jamoada 5000 dan ortiq havaskor bo'lib, 367 ta madaniyat markazi tubdan ta'mirlandi.

2021–2024-yillarda madaniyat markazlarining binolari kompleksini qurish va jihozlanishi natijasida mamlakatimizda 4748 ta arxeologiya yodgorligi, 2250 ta arxitektura yodgorligi, 678 ta monumental san'at yodgorligi, 532 ta diqqatga sazovor joy, jami 8208 ta obyekt moddiy-madaniy merosning ko'chmas mulk obyektlari milliy ro'yxatiga kiritilgan.

Shu bilan birga Mo'ynoq Ekologiya muzeyi, Shahrisabz shahrida Maqom muzeyi, Farg'ona viloyatidagi Erkin Vohidov uy-muzeyi hamda memorial muzeyi, Haziniy uy-muzeyi, Qo'qon shahrida Buyuk allomalar muzeyi, Buxoro viloyatida Mutal Burxonov uy-muzeyi, Samarqand viloyatida Ergash Jumanbulbul o'g'li yodgorlik muzeyi, Namangan viloyatida Is'hoqxon Ibrat, Jizzax viloyatida Hamid Olimjon va Zulfiya, Sharof Rashidov yodgorlik muzeylari, Toshkent shahrida Abdulla Qodiriy uy-muzeyi hamda Abdulla Qodiriy memorial muzeyi ishga tushirilgan.

Kino sohasida ham tarixiy – “Imom Termiziy”, “Islomxo'ja”, “Elparvar”, “Qo'qon shamoli”, “101”, “Ibrat” nomli yangi filmlar yaratildi.

Hozirgi kunda milliy iqtisodiyotga yuqori daromad keltiradigan istiqbolli tarmoqlardan biri – bu turizmdir. O'zbekiston turizm

sohasida dunyo bo'yicha ulkan salohiyatga ega bo'lgan davlat hisoblanadi. Yurtimizda 7300 dan ortiq madaniy meros obyektlari mavjud va ularning qariyb 200 tasi YUNESKO ro'yxatiga kiritilgan.

Shu bilan birga, mamlakatimizning betakror tabiati, go'zal dam olish maskanlari imkoniyatlaridan foydalanib, yangi turistik yo'nalishlar ochilib, sohaga jahon brendlari faol jalb etilib, ziyorat turizmi, ekologik, ma'rifiy, etnografik, gastronomik turizm rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilgan. Mahalliy festivallar an'anaga aylangan, xususan, "Maqom", "Baxshichilik", "Hunarmandchilik", "Lazgi" kabi xalqaro festivallar o'tkazilib, 24 ta xorijiy mamlakatda, jumladan, Markaziy Osiyo davlatlari bilan hamkorlikda "O'zbekiston madaniyati kunlari", Yevropa Ittifoqi davlatlari bilan "O'zbekiston – Buyuk ipak yo'lining marvaridi" loyihasi doirasida Germaniyaning 27 ta shahrida 1000 nafardan ortiq odam ishtirok etgan tadbir o'tkazilgan.

So'nggi yillarda turizm infratuzilmasini rivojlantirish bo'yicha yirik investitsiya loyihalari amalga oshirilgan, shu jumladan Toshkent shahrida "Nyatt Regency Tashkent" va "Lotte City Hotel Tashkent Palace" brendli mehmonxonalar, Andijon, Urganch va Toshkent shahrida madaniy-ko'ngilochar bog'lar, "Angren-Pop" temiryo'li, Buxoro, Qarshi, Shahrisabz va Xiva shaharlariga tezyurar poyezdlar uchun elektrlashtirilgan temiryo'llari ochilgan.

O'zbekistonga kirib kelayotgan xorijiy turistlar sonini ikki baravarga oshirishning muhim omillari sifatida viza rejimi, O'zbekistonda bo'lish qoidalari hamda tadbirkorlik faoliyatini olib borish tartibi soddalashtirilgani, turizm sohasida infratuzilmaning rivojlanishi va turizm salohiyatini targ'ib qilish choralari ko'rilganini ko'rsatish mumkin, shu jumladan, qo'shimcha 9 ta (umumiy 18 ta) davlatga vizasiz rejim joriy etilgani, fuqarolariga kirish vizalarini berishning soddalashtirilgan tartibi joriy etilgan davlatlar soni 12 tadan 50 taga yetgan. Elektron kirish vizalarini rasmiylashtirish va taqdim etish tizimi ishga tushirilgani, O'zbekiston hududidan tranzit bilan o'tayotgan 101 davlat fuqarolariga O'zbekistonga vizasiz kirish, vaqtincha bo'lish va fuqarolarni o'tkazish punktlari orqali chiqib ketish tartibi joriy qilingan. Xorijiy fuqarolarni respublika hududida vaqtinchalik

ro'yxatga olish tartibi soddalashtirilgani, mazkur tartib "e-mehmon" tizimi orqali to'liq elektron shaklga o'tkazilgani bu sohaning yanada rivojlanishiga turtki bo'lgan.

Yurtimiz yoshlari sport sohasida ham yurtimiz sharafigini himoya qilib ko'plab musobaqalarda munosib o'rin egallab kelishgan. O'zbekiston 2023-yilgacha yozgi Olimpiya va qishki Olimpiya o'yinlarida to'rt marotaba ishtirok etib, boks bo'yicha bitta oltin va beshta bronza, kurash bo'yicha ikkita oltin va ikkita kumush, dzyudo bo'yicha kumush medalni qo'lga kiritgan. 2016-yilgi Rio Olimpiadasida O'zbek o'g'loni og'ir atletika bo'yicha erkaklar o'rtasida 105 kilogramm vazn toifasida jami 431 kilogramm, siltab ko'tarishda 237 kilogramm tosh ko'tarib, Olimpiya rekordini qo'lga kiritgan.

Jahon miqyosida 2024-yilda bo'lib o'tgan Parij-2024 XXXIII yozgi Olimpiya o'yinlarida O'zbekiston sport delegatsiyasi o'yinlarni tarixiy natija bilan, 206 mamlakat orasida 13-o'rinda yakunladi. Bu – Osiyo qit'asidagi to'rtinchi, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlari orasida, islom olami va turkiy dunyo miqyosida esa eng yaxshi natija qayd etganlar. O'zbekiston hisobidagi 13 ta medaldan iborat jamg'arma tarkibi – 8 ta oltin, 2 ta kumush va 3 ta bronzadan iborat bo'lgan. Bu o'yinlarda o'zbek sportchilari juda yaxshi natijani qayd etishib, tarixda ilk marta o'zbekistonlik ayol sportchi Olimpiadaning oltin medaliga sazovor bo'lgan bo'lsa, Delegatsiyaning birdaniga uch a'zosi olimpiya o'yinlarining ikki karra chempioniga aylanishgan.

Bugungi kungacha dunyoda o'tkazilgan xalqaro turnir va chempionatlarda O'zbekiston sportchilari 247 ta oltin, 119 ta kumush va 110 ta bronza medallarini qo'lga kiritgan. 2018–2020-yillarda jami 4001 nafar yoshlar sportdagi yutuqlari uchun imtiyozdan foydalanib, Oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirishgan.

Barcha sohalar qatorida yoshlar o'rtasida kitobxonlik madaniyatini oshirish qo'llab-quvvatlanib, 2023-yildan nashriyot va matbaa korxonalarining moliyaviy imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida 5 yilga soliqlardan ozod qilindi.

5. O'zbekistonda millatlararo va dinlararo munosabatlardagi barqarorlikni ta'minlash borasidagi davlat siyosati

1990-yil iyun oyida O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov "Musulmonlarning Saudiya Arabistoniga haj qilishi to'g'risida"gi Farmonga imzo chekdi. 1992-yil Prezident Farmoni bilan Ramazon va Qurbon hayit kunlari umumxalq bayrami, deb e'lon qilindi. Natijada uzoq yillar man etilgan ikki ulug' bayram Iydi-Ramazon va Iydi-Qurbon kunlarini O'zbekiston xalqi katta shodiyona bilan nishonlamoqda. O'zbekiston hukumatining har tomonlama qo'llab-quvvatlashi bilan 1991-yilda haj qilish baxtiga 350 kishi sazovor bo'lgan bo'lsa, 2009-yilning o'zida haj ziyoratini amalga oshirganlar soni 9000 tadan oshdi. Jami mustaqillik yillari haj ibodatini ado etishga muvaffaq bo'lganlarning soni 100 mingdan oshiq ziyoratchilarni tashkil qildi. Shu o'rinda aytish mumkinki, sovet davrida haj amallarini yiliga 3-4 kishigina amalga oshira olganlar. 1999-yil Toshkentda Mirkaziy Osiyodagi birinchi Islom Universiteti ochildi. Mamlakatimizda 10 ta diniy ta'lim muassasasi, jumladan, Toshkent islom instituti, 9 ta o'rta maxsus o'quv yurti faoliyat ko'rsatmoqda. Ularning ikkitasi xotin-qizlar o'quv muassasasidir.

Vijdon erkinligi diniy bag'rikenglikning shakllaridan biri bo'lib, dinga e'tiqod qilish va qilmaslik huquqini anglatadi. Mustaqillik yillarida mamlakatimizda diniy bag'rikenglik va vijdon erkinligi O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida, "Vijdon erkinligi, diniy tashkilotlar to'g'risida"gi Qonunda o'z aksini topdi. Mustaqillik yillarida minglab masjidlar qurildi va ta'mirlandi hamda cherkov, sinagog va boshqa ibodatxonalar o'z faoliyatini jonlantirdi. Taqqoslash uchun ko'rishimiz mumkinki, O'zbekiston SSRda 89 masjid, 2 ta madrasa mavjud bo'lgan bo'lsa, 2012-yilda 2035 ta masjid, 70 ta madrasa, Islom universiteti, Islom instituti 16 ta diniy konfessiyaga mansub ikki mingdan ortiq diniy tashkilotlar faoliyat yuritdi. Respublikada 170 ta xristian tashkiloti, 8 ta yaxudiy jamoasi, 6 ta baxay jamoasi, 1 ta buddaviylik ibodatxonasi va 1 ta xristianlar jamoasi qayd etilgan.

Yurtimizda hukm surayotgan diniy bag'rikenglik muhiti tufayli mamlakatimizda 2 ming 200 dan ortiq turli diniy tashkilotlar faoliyat yuritmoqda. Zero, turli din vakillari o'rtasida o'zaro hurmat va do'stona munosabatlarni rivojlantirish, fuqarolar qaysi din va

e'tiqodga mansubligidan qat'i nazar, ularning teng huquqliligini ta'minlash masalasi har doim hukumatning eng muhim vazifalaridan biri bo'lib kelgan. Bugungi O'zbekiston jamiyatida diniy bag'rikenglikning noyob tajribasi to'planganligi jahon hamjamiyati tomonidan e'tirof etilgan. Din inson ruhini poklashi, odamlar o'rtasida mehr-oqibat tuyg'ularini mustahkamlashi, milliy qadriyat va an'analarni asrashga xizmat qilishi bilan jamiyat hayotida muhim o'rin tutib kelgan. O'zbek yurti azaldan qadimiy dinlar rivoj topgan makondir. O'zga din vakillari bilan hamjihatlikda, o'zaro ishonch, yaqinlik asosida istiqomat qilish, vijdon erkinligiga qaramay O'zbekistondagi davlat siyosati, qolaversa, dunyo hamjamiyatining oldidagi muhim maqsadlardan biridir. O'zbekistonda turli konfessiya vakillari, diniy mansubligi turlicha xalqlarning asrlar davomida o'zaro tinchlik va xotirjamlikda yashab kelishlarining asrlar davomida tajribasi mavjud. Uzoq yuz yillar davomida musulmonlar, xristianlar, iuedallar va boshqa diniy qatlamlar tolerant yashashning o'ziga xos ijobiy jihatlarini o'zlarida jamlaganlar.

Bu borada 1995-yili rus pravoslav cherkovi Toshkent va O'rta Osiyo yeparxiyasi tashkil etilganligining 125 yillik yubileyi, O'zbekiston yevangel-lyuteran jamoasi tashkil etilganining 100 yilligiga bag'ishlangan "Bir osmon ostida" shiori bilan musulmon va xristian dinlari vakillari o'rtasida o'tkazilgan muloqot katta ahamiyat kasb etdi. Shuningdek, 2000-yilning sentabr oyida Toshkentda YUNESKO rahnamoligida "Jahon dinlari tinchlik madaniyati yo'lida" mavzusida dinlararo muloqot, xalqaro anjuman bo'lib o'tdi. Unda AQSH, Fransiya, Rossiya, Eron, Isroil, Hindiston, Xitoy, Vatikan kabi o'ttizga yaqin mamlakat hamda bir qator xalqaro diniy muassasalar vakillari qatnashdilar. Anjumanni o'tkazish uchun aynan O'zbekiston tanlangani bejiz emas. Zero, bu o'lkadan dunyoga dong'i ketgan buyuk allomalar, islom olamida katta hurmatga ega bo'lgan buyuk zotlar yetishib chiqqan.

Diniy qadriyatlarga bo'lgan munosabat yangilanayotgan O'zbekistonda tubdan o'zgardi. Diniy qadriyatlardan xavfsirash emas, undan ilm-u ma'rifat yo'lida, yosh avlodning tarbiyasi yo'lida foydalanish o'z natijalarini bera boshladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev diniy qadriyatlarga o'ziga xos yondashuv, ya'ni xalqimiz kelajagi va yoshlarimiz tarbiyasidagi beqiyos o'rmini

teran anglash lozimligini doimo uqtirib kelmoqda. Jumladan, Prezidentimizning ta'kidlashicha, "Azaliy qadriyatlarimiz va axloqiy fazilatlarni o'zida mujassam etgan muqaddas dinimizni asrash va qadrlash har birimizning sharaflı burchimizdir. Islom haqiqatni anglash demakdir, u odamzodni ezgu amallarni bajarishga undaydi, har birimizni yaxshilik va tinchlikka chorlaydi, haqiqiy inson bo'lishni o'rgatadi. Shu nuqtayi nazardan buyuk ajdodlarimiz bo'lgan islom olamining mutafakkirlari asarlarini, ularning butun jahon sivilizatsiyasi rivojiga qo'shgan bebaho hissasini chuqur o'rganish, teran anglash va keng ommalashtirish alohida ahamiyatga egadir. Bu masala yoshlarda ilm-fanga va ta'lim olishga intilish tuyg'usini kuchaytirish, barcha jamiyatlarda islom qadriyatlari va madaniyatini to'g'ri anglash hamda qabul qilish, dunyoning barcha xalqlariga islom dinining haqiqiy mazmun-mohiyatini yetkazish uchun muhimdir. Shuningdek, bugungi kunda xalqaro miqyosda konfessiyalar, millatlar va madaniyatlararo muloqotni yo'lga qo'yish, tinchlik va totuvlikka erishishda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Samarqandda Imom Buxoriy nomidagi ilmiy tadqiqot markazi, Toshkent shahrida Islom sivilizatsiyasi markazi barpo etilishi boshlandi. Bundan maqsad – islom dinining haqiqiy insonparvarlik mohiyatini, ma'rifiy islomni bolalarimiz ongiga singdirish uqtirib o'tildi. Shu yo'lda bizning buyuk ajdodlarimiz qanday ulug' ishlarni amalga oshirganliklari haqida ular ana shu maskanlarga kelib o'zlari uchun kerakli, eng muhim bo'lgan bilim va tasavvurlarga ega bo'ladi. Eng asosiysi ularning qalbida boy tariximiz, madaniy merosimiz bilan faxrlanish tuyg'usi kamol topadi. Imom Termiziy nomlaridagi ilmiy tadqiqot markazlari, islom akademiyasi kabi ilmiy-ma'rifiy muassasalar faoliyatini yo'lga qo'yish ishlari jadallashtirildi. Toshkent shahrida Islom sivilizatsiyasi markazining tashkil etilishi natijasida "Jaholatga qarshi – ma'rifat" shiori ostida kurash olib borishga imkoniyat yaratildi. Demak, Prezidentimiz tashabbusi bilan Samarqandda Imom Buxoriy ilmiy markazida hadisshunoslik, Imom Moturudiy markazi qoshida Kalom ilmi, Farg'onada – Marg'iloniy markazida Islom huquqi maktabi, Buxoroda – Bahouddin Naqshband markazida Tasavvuf, Qashqadaryoda Abu Muin Nasafiy markazida Aqida ilmi maktablari tashkil etildi. Eng diqqatga sazovor

yutuqlardan biri xofizi Qur'onlar o'rtasida respublika tanlovining o'tkazilishi bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasi aholisi ko'p millatli davlatlar qatoriga kiradi. Hozirgi kunda mamlakatda 136 ta millat va elatlarning vakillari istiqomat qiladi, ularning umumiy manfaatlari bilan birga o'z qadriyatlari ham bor. O'zbekiston kabi ko'p millatli mamlakatda turli millatlar manfaatlarini uyg'unlashtirish, ular orasida totuvlikni ta'minlash taraqqiyotning hal qiluvchi omillaridan biri hisoblanadi. Millatlararo totuvlik g'oyasi sayyoramizda yashayotgan 1600 dan ziyod etnik guruhlarning teng huquqlilik, o'zaro hurmat va hamkorlik asosida tinch-totuv yashash g'oyasidir. Millatlararo totuvlik g'oyasi millatparvarlik g'oyasidir. U barcha millat va elatlarning tili, urf-odati, an'analari, bayramlari rivojlanishini talab etadi. O'zbekistonda millatlararo totuvlik g'oyasi O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlariga singdirilgan. Jumladan, bosh Qomusimizda "O'zbekiston xalqini, millatidan qat'i nazar O'zbekiston Respublikasining fuqarolari tashkil etadi", degan muhim qoida belgilanib qo'yilgan (8-modda).

Bugun kunda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalari qo'mitasi tarkibida 100 dan ziyod milliy-madaniy markazlar (Chingiz Aytmatov iborasi bilan aytganda, kichik BMTlar) millatlararo totuvlik g'oyasini hayotga tatbiq etmoqda.

Eng asosiysi – bag'rikenglikning muhim omillaridan biri bo'lgan millatlararo va dinlararo totuvlik to'la ta'minlandi. O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Abdug'aniyevich Karimov o'zining "Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo'lida" asarida ushbu masalalarga quyidagicha to'xtalgan edi: "Og'ir sinov yillarida, urushlar va Stalin qatag'onlari davrida O'zbekiston hududiga kelib qolgan ayrim kishilar, oilalar, hatto butun-butun xalqlarni ham qurshab olgan iliq munosabat, samimiyat va g'amxo'rlik, o'zbek xalqiga xos bo'lgan bag'rikenglik, insoniy mehribonlik va o'zgarar qayg'usiga sherik bo'lish ochiq ko'ngillilik va mehmondo'stlikning yorqin namoyishi bo'ldi. O'zbeklar qiyinchilik yillarida o'zlari yemay, bolalariga yedirib-ichirmay, mutlaqo begona, ammo yordamga muhtoj odamlar bilan topganlarini baham ko'rdilar. O'sha og'ir yillarda turli millatlarga mansub bir emas, o'nlab yetim bolalar

shundoq ham ko'p bolali o'zbek oilalarida yangi ota-ona orttirdilar, ota va ona mehriga qondilar. Butun bir xalq ana shunday yuksak oliyjanoblik va ma'naviy fazilatlarini namoyish etganligi haqidagi misollar tarixda kam topiladi. O'zbekiston o'z tarixida ana shunday sahifalar bo'lganligi va hozir ham borligi bilan faxrlanadi. Xalqimiz va davlatimizning tarixiy xotirasida antisemitizm, irqchilik va o'zga millatga, o'zga xalqqa mensimasdan, hurmatsizlarcha munosabatning boshqacha shakllari namoyon bo'lgan sharmandali sahifalar yo'qligi bilan faxrlanadi".

O'zbekiston hukumati tomonidan mamlakatda yashovchi turli millat va elatlarning milliy an'analari, o'z tillari, urf-odatlarini saqlanib qolishi uchun keng qamrovli tadbirlar amalga oshirilib kelinmoqda. Masalan, "Yagona oilada" ("В единой семье") jurnali nashr etilmoqda. Ruslarning "Maslennitsa", tatar boshqirdlarining "Sabanto'y", uyg'urlarning "Sayil" bayramlari, xitoylarning "Chunuze" yangi yili, koreyslarning "Soller" va "Ovol – tano" bayramlari nishonlanmoqda. Har yili respublikamiz miqyosida "Biz yagona oila farzandlarimiz", "Vatan yagonadir, Vatan bittadir", "O'zbekiston – umumiy uyimiz" shiori ostidagi festivallar o'tkazilmoqda. O'zbekistonda yetti tilda: o'zbek, qoraqalpoq, rus, tojik, turkman, qirg'iz va qozoq tillarida ta'lim olib borilmoqda. Gazetalar sakkiz tilda (o'zbek, qoraqalpoq, rus, tojik, turkman, qozoq, ingliz, koreys tillarida) nashr etilmoqda. Radio eshittirishlar o'n bitta tilda olib borilyapti.

Bugungi kunda mamlakatimizda turli e'tiqodga mansub diniy tashkilotlar o'rtasida o'zaro hurmat va bag'rikenglik muhitining o'rnatilishi uchun barcha sharoitlar yaratilgan. O'tgan yillar mobaynida bu yo'nalishda muayyan natijalarga erishildi. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risidagi Farmonning qabul qilinishi katta ahamiyat kasb etadi. Harakatlar strategiyasining beshinchi ustuvor yo'nalishida fuqarolik, millatlararo va konfessiyalararo tinchlik hamda totuvlikni mustahkamlashga alohida urg'u berilgan.

Shunday qilib, mustaqillik yillarida mamlakatimiz ichki siyosatining bosh bo'g'inlaridan biri ma'naviy tiklanish bo'ldi.

Yangilanayotgan O'zbekistonda bu omil ma'naviy tiklanishdan ma'naviy yuksalish tomon rivojlandi. Aynan ma'naviy taraqqiyotga kelajakda tinchlik, farovonlik, jahon hamjamiyatida munosib o'rin olishdagi muhim tayanch deb qaralishi jamiyat hayotida barqaror bo'lib bormoqda. O'zbekistonda jamiyatda kechayotgan yangilanishlarning yana bir katta sohasi bu tarixiy shaxslar, tarixiy qadriyatlar va milliy san'at, qadriyatlarni aslicha saqlash borasidagi tadbirlardir. O'z tarixini chuqur o'rganish, milliy qadriyatlarni ijtimoiy hayotning muhim jihatlaridan biriga aylantirish O'zbekiston davlat siyosatining ilg'or qismiga aylandi.

Tayanch so'zlar

Qadriyat, marosim, madaniy meros, globalashuv, milliy g'oya, milliy mafkura, milliy bayramlar, "Ma'naviyat va ma'rifat markazi", mafkuraviy tahdidlar, diniy ekstremizm, suverenitet, ekopolislar, urbanizatsiya, aqli arxitektura, "Barqaror shahar", "Aqli shahar", "Xavfsiz shahar".

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar

1. Nechanchi yilda Toshkent yuksak madaniyatli shaharga aylantirish masalasini qo'ygan?

2. Nechanchi yilda "Respublika ma'naviyat va ma'rifat kengashini qo'llab-quvvatlash to'g'risida"gi Farmon qabul qilindi?

3. Adiblar xiyoboni maydonida qaysi adiblarning haykallari o'rnatilgan?

4. O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach, qaysi tarixiy shaharlarning yubiley tantanalari mamalakatimiz va xorijda nishonlandi?

5. Respublikada shaharlar klassifikatsiyasi va mavqeyi jihatidan qanday boshqaruv tizimi mavjud?

6. Hozirgi kunda respublikada faoliyat yuritayotgan qanday madaniyat markazlarini bilasiz?

7. Mamlakatimizda nechta diniy ta'lim muassasasi faoliyat ko'rsatadi?

8. 2017-yilda madaniyat, adabiyot va san'at, ommaviy axborot vositalari sohasiga taalluqli qanday muhim hujjatlar qabul qilindi?

9. Yurtimizdagi ijodiy uyushmalarning ijtimoiy hayotimizdagi o'рни va nufuzini oshirish, moddiy-texnik bazasini mustahkamlash maqsadida qanday fondlar tashkil etildi?

10. Prezidentimiz Sh. Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan 5 ta muhim tashabbus yo'nalishlarini aytib bering.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib yangi bosqichga ko'taramiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2019.

2. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. To'ldirilgan ikkinchi nashri. – Toshkent: O'zbekiston, 2022.

3. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekistonda erkin va faravon yashaylik. 5-jild. – Toshkent: O'zbekiston, 2023.

4. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekistonda taraqqiyot strategiyasi asosida demokratik islohotlar yo'lini qat'iy davom ettiramiz. 6-jild. – Toshkent: O'zbekiston, 2023.

5. Mirziyoyev Sh.M. Hozirgi zamon va Yangi O'zbekiston. – Toshkent: O'zbekiston, 2024.

6. Ma'naviyat asosiy tushunchalar izohli lug'ati. – Toshkent: G'afur G'ulom nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2009.

7. Milliy g'oya: asosiy tushuncha va tamoyillar. Darslik. – Toshkent: O'zR IIV Akademiyasi, 2011.

8. O'zbekistonda zamonaviy shahar madaniyati (1991–2016-yillar). – Toshkent: Yangi nashr, 2017.

9. To'xtaboyeva D.E. Mustaqillik yillarida Farg'ona vodiysidagi urbanizatsiya jarayonlari (kichik va o'rta shaharlar misolida 1991–2017-y). – Toshkent: TURON-IQBOL, 2018.

9-MAVZU. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA TA'LIM SOHASIDA AMALGA OSHIRILGAN ISLOHOTLAR

Reja:

1. Mustaqillik yillarida ilm-fanning rivojlanishi. "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun va "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi"ning qabul qilinishi.
2. Ta'limning milliy modelining shakllanishi, rivojlanishi va sohadagi muammolar.
3. Oliy ta'lim sohasida qabul qilingan qonunlar va ularda belgilangan vazifalar.
4. Ta'lim sohasida xalqaro hamkorlikning yo'lga qo'yilishi.

1. Mustaqillik yillarida ilm-fanning rivojlanishi. "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun va "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi"ning qabul qilinishi

O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining dastlabki yillaridanoq yosh avlodning ta'lim-tarbiyasiga katta e'tibor qaratilib, bu masala davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. O'zbekiston mustaqillik ostonasida turar ekan, respublika rahbariyati ilm-fanni, ta'lim tizimini isloh qilish, modernizatsiya qilish dastlabki vazifalardan biri ekanligini chuqur anglar edi. O'zbekiston rahbari I.Karimov 1988-yil 20-noyabrda O'zbekiston SSR Fanlar Akademiyasida bo'lgan uchrashuvda shunday degan edi: "Respublika hayotining barcha sohalarida ilm-fan mavqeyini prinsip e'tibori bilan yangi sifat darajasiga ko'tarish respublika Fanlar Akademiyasining asosiy vazifasidir, deb o'ylaymiz. Ilm-fan ahliga buyruq berish, quruq ma'muriyatchilik, olimlarga apparat xodimlari kabinetlarida paydo bo'ladigan "ijtimoiy buyurtmani" ro'baro' qilish davri o'tib ketdi. Ijodiy izlanishlarning natijalarini qamrab olgan Fanlar Akademiyasi olimlarining asarlari va tavsiyalari respublika taraqqiyotining istiqbolini belgilaydigan kelajakdagi hisob-kitoblar va siyosatning poydevori bo'lishi darkor...

Fanga iste'dodli yoshlarning kirib kelishini ta'minlash uchun kompleks tadbirlar turkumini amalga oshirish zarur. Bu borada oliy

maktabning hatto umumiy ta'lim maktablarining faoliyatini tubdan qayta qurish kerak".

Mustaqillik yillarida O'zbekiston Respublikasida islohotlarni boshidan kechirgan va natijasini ko'rsata olgan sohalardan biri ta'lim tizimidir. O'zbekistonda ilm-fanga alohida e'tibor qaratila boshlandi. Zamonning tezkor taraqqiyotiga xizmat qiluvchi yangi fan sohalari bo'yicha tadqiqotlar yo'lga qo'yildi. Tabiiy va aniq fanlarni o'qitish va ilmiy tadqiqotlar olib borish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. O'zbekiston Respublikasida ilm-fanni rivojlantirishda O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining o'rni beqiyosdir. Shuningdek, respublika oliy ta'lim muassasalaridagi professor-o'qituvchilar faoliyatining salmoqli qismi ilmiy tadqiqotlarga qaratilganligi o'z samarasini bera boshladi. "Fan, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasi" O'zbekistonda ilm-u fan rivojlanishida bosh maqsadlardan biri etib belgilandi.

1992-yilda O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining Farmoniga binoan Respublika Vazirlar Mahkamasi huzurida Oliy Attestatsiya Komissiyasi tashkil etilishi munosabati bilan Fanlar Akademiyasining mavqeyi ortdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ilmiy tadqiqot faoliyatini tashkil etishni takomillashtirish to'g'risida" 2002-yil 20-fevraldagi Farmoni ilmiy tadqiqotlar va texnologik ishlanmalar sifatiga qo'yilgan talablarga muvofiq ilmiy texnika va innovatsiya faoliyatini yanada rivojlantirishda, shuningdek, mamlakat ilmiy salohiyatidan samarali foydalanishni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

Respublikaning ilmiy tadqiqot majmuyini Akademiya, oliy ta'lim va boshqa tarmoqlaridagi 350 dan ortiq muassasani, jumladan, ilmiy tadqiqot institutlari, oliy o'quv yurtlaridagi ilmiy tadqiqot bo'linmalari, loyiha-konstruktorlik tashkilotlari, ilmiy ishlab chiqarish birlashmalari va tajriba korxonalari, axborot-hisoblash markazlari o'z ichiga oladi. 2006-yildagi natijalar bo'yicha fanning turli tarmoqlarida 34 mingdan ortiq ilmiy xodim faoliyat ko'rsatgan. Ularning 2,4 mingi fan doktori, 2,4 mingi fan nomzodlari edi.

O'zbekistonning mustaqillikka erishuvi xalq ta'limi tizimining taraqqiyotiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Milliy pedagogik tafakkur ta'sirchan ta'limni sog'lomlashtirish jarayoni boshlandi. Uzoq vaqt mobaynida tashqi dunyodan uzib qo'yilgan, o'zga mamlakatlar tarixiy tajribasidan ham, milliy-ma'rifiy merosdan ham bahramand bo'lmagan milliy pedagogika jahon maydoniga chiqdi. Erishilgan natijalarni o'zgalarniki bilan qiyoslash, boshqalardan ijobiy jihatlarni o'zlashtirish imkoniyati paydo bo'ldi.

Respublikanizmda ta'limning yangi tizimini amalga oshirishda O'zbekiston hukumati tariximizdagi ta'lim jarayonlarini o'rganib chiqib, ta'limni isloh qilish dasturini tayyorladi. Barcha e'tibor ta'lim tizimlarini demokratik va insonparvarlik tamoyillari asosida takomillashtirib, uning moddiy-texnik bazasini zamon va davr talablari darajasiga ko'tarish va O'zbekiston ma'rifiy salohiyatini kuchaytirishga qaratildi.

O'zbekiston Respublikasida 1992-yil 2-iyulda qabul qilingan "Ta'lim to'g'risidagi" Qonun ilgari erishilgan muvaffaqiyatlarni saqlab qolishga xizmat qildi. Ushbu Qonun o'z vaqtida muhim bo'lgan bo'lsa-da, ammo ta'lim tizimini isloh qilishning amaliy chora-tadbirlari, ta'lim-tarbiya va o'quv jarayonlarining tarkibini, bosqichlarini bir-biri bilan uzviy bog'lash, ya'ni uzluksizlikni ta'minlash muammolarini yecha olmadi. Ta'lim tizimidagi yig'ilib qolgan muammolar 1997-yil 29-avgustda qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi yangi qonunni va kadrlar tayyorlash milliy dasturining yaratilishiga sabab bo'ldi. Shu o'rinda ta'kidlash kerakki, O'zbekiston Respublikasida bolalarga doir davlat siyosatini Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyaga muvofiqlashtirish maqsadida qonunchilik, ma'muriy va boshqa yo'nalishlarda ko'plab chora-tadbirlar amalga oshirib kelinmoqda. Bolalar huquqini tartibga soluvchi O'zbekiston qonun hujjatlari tizimini mamlakat Konstitutsiyasi, Oila kodeksi, Mehnat kodeksi, "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun va boshqa qator qonunlar tashkil etadi.

Mustaqil davlat oldida turgan eng muhim masalalardan biri eskicha tafakkur va e'tiqodidan qutilgan, istiqlol uchun, o'z ona yurti uchun xizmat qiladigan kadrlar tayyorlash masalasi bo'ldi. Eski tuzumni asta-sekin tag-tomiri bilan tugatib, batamom yangi,

jahonning ilg'or taraqqiy etgan mamlakatlari yo'lidan boradigan haqiqiy demokratik jamiyat qurish endilikda yangicha fikrlaydigan quyidan tortib yuqori toifadagi kadrlarga bog'liq bo'lib qoldi.

Garchi mustaqillikning ilk yillarida O'zbekiston Respublikasida "Ta'lim to'g'risidagi" Qonun qabul qilingan bo'lsa-da (1992-yil 2-iyulda), 1997-yil 29-30-avgust kunlari o'tkazilgan birinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining IX sessiyasida "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun (yangi tahrirda) va Kadrlar tayyorlash milliy dasturi qabul qilindi (29-avgustda).

Mazkur dasturning maqsadi ta'lim sohasini tubdan isloh qilish, uni o'tmishdan qolgan mafkuraviy qarashlar va sarqitlardan to'la xalos etish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida, yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlashning Milliy tizimini yaratishdir. Ushbu maqsadni ro'yobga chiqarish uchun quyidagi vazifalar belgilandi:

- "Ta'lim to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq ta'lim tizimini isloh qilish, davlat va nodavlat ta'lim muassasalari hamda ta'lim va kadrlar tayyorlash sohasida raqobat muhitini shakllantirish negizida ta'lim tizimini yagona o'quv-ilmiy ishlab chiqarish majmuyi sifatida izchil rivojlantirishni ta'minlash;

- ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimini jamiyatda amalga oshirilayotgan yangilanish, rivojlangan demokratik-huquqiy davlat qurilishi jarayonlariga moslash;

- kadrlar tayyorlash tizimi muassasalarini yuqori malakali mutaxassislar bilan ta'minlash, pedagogik faoliyatning nufuzi va ijtimoiy maqomini ko'tarish;

- kadrlar tayyorlash tizimi va mazmunini mamlakatning ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyoti istiqbollariidan, jamiyat ehtiyojlaridan, fan, madaniyat, texnika va texnologiyaning zamonaviy yutuqlaridan kelib chiqqan holda qayta qurish;

- ta'lim oluvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning va ma'rifiy ishlarning samarali shakllari hamda uslublarini ishlab chiqish hamda joriy etish;

- ta'lim va kadrlar tayyorlash, ta'lim muassasalarini attestatsiyadan o'tkazish va akkreditatsiya qilish sifatiga baho berishning xolis tizimini joriy qilish;

– yangi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda ta’limning talab qilinadigan darajasi va sifatini, tayyorlash tizimining amalda faoliyat ko’rsatishi va barqaror rivojlanishining kafolatlarini, ustuvorligini ta’minlovchi normativ, moddiy-texnika va axborot bazasini yaratish;

– ta’lim, fan va ishlab chiqarishning samarali integratsiyalashuvini ta’minlash, tayyorlanayotgan kadrlarning miqdori va sifatiga nisbatan davlatning talablarini, shuningdek, nodavlat tuzilmalari, korxonalar va tashkilotlarning buyurtmalarini shakllantirishning mexanizmlarini ishlab chiqish;

– uzluksiz ta’lim va kadrlar tayyorlash tizimiga budjetdan tashqari mablag’lar, shu jumladan, chet el investitsiyalarini jalb etishning real mexanizmlarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish;

– kadrlar tayyorlash sohasida o’zaro manfaatli xalqaro hamkorlikni rivojlantirish kabi vazifalarni amalga oshirishni nazarda tutadi.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturida mazkur masalalarni quyidagi bosqichlarda amalga oshirish rejalashtirildi:

1. Birinchi bosqich (1997–2001-yillar) mavjud kadrlar tayyorlash tizimining ijobiy salohiyatini saqlab qolish asosida ushbu tizimni isloh qilish va rivojlantirish uchun huquqiy, ilmiy-uslubiy, moliyaviy-moddiy shart-sharoitlar yaratish.

2. Ikkinchi bosqich (2001–2005-yillar) Milliy dasturni to’liq ro’yobga chiqarish, mehnat bozorining rivojlanishi va real ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarni hisobga olgan holda unga aniqliklar Majburiy umumiy o’rta va o’rta maxsus, kasb-hunar ta’limiga, shuningdek, o’quvchilarning qobiliyatlari va imkoniyatlariga qarab, tabaqalashtirilgan ta’limga o’tish rejalashtirildi. Ta’lim muassasalarini maxsus tayyorlangan malakali pedagog kadrlar bilan to’ldirish ta’minlandi, ularning faoliyatida raqobatga asoslangan muhit vujudga keltirildi.

3. Uchinchi bosqich (2005 va undan keyingi yillar) to’plangan tajribani tahlil etish va umumlashtirish asosida mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish istiqbollariga muvofiq kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish va yanada rivojlantirish. Ta’lim muassasalarining resurs, kadrlar va axborot bazalari yanada

mustahkamlanadi, o'quv-tarbiya jarayoni yangi o'quv-uslubiy majmualar, ilg'or pedagogik texnologiyalar bilan to'liq ta'minlanadi.

“Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi qonunlariga va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O'zbekiston Respublikasida o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida”gi (1998-y.) 204-sonli qaroriga muvofiq kasb-hunar kollejlari tashkil qilina boshladi. 1999–2000-o'quv yilidan boshlab – tayanch pedagogika institutlari va universitetlar talabalarini tayyorlash dasturiga yangi ta'lim, kasb-hunar dasturlari hamda akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari o'qitish uslubiyoti bo'yicha maxsus kurslar kiritildi.

2. Ta'limning milliy modelining shakllanishi, rivojlanishi va sohadagi muammolar

So'nggi yillarda ta'lim tizimini isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, zamonaviy bilim va yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish masalasi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan o'tkazilgan ko'plab yig'ilishlar va soha vakillari bilan bo'lgan uchrashuvlarda muhokama qilindi.

Respublikaning barcha sohalarida islohotlarni amalga oshirish, odamlarning dunyoqarashini o'zgartirish, yetuk va zamon talabiga javob beradigan mutaxassis kadrlarni tayyorlashni hayotning o'zi taqozo etmoqda. Ta'lim tizimini mustahkamlash, uni zamon talablari bilan uyg'unlashtirishga katta ahamiyat berilmoqda. Bunda mutaxassis kadrlarni tayyorlash, ta'lim va tarbiya berish tizimi islohotlar talablari bilan chambarchas bog'langan bo'lishi muhim ahamiyat kasb etadi. Zamon talablariga javob bera oladigan mutaxassis kadrlarni tayyorlash, Davlat talablari asosida ta'lim va uning barcha tarkibiy tuzilmalarini takomillashtirib borish dolzarb masalalardan biridir.

O'zbekistonda olib borilayotgan islohotlardan asosiy maqsad, sog'lom va barkamol, bilimli, yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarga ega bo'lgan avlodni shakllantirishdan iborat. Aynan ana shu

maqsadga erishish uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidenti rahnamoligida yangi davrda yashaydigan, yangicha fikrlaydigan, yangi ishlab chiqarish, ijtimoiy sharoitlarda faoliyat ko'rsatadigan, zamonaviy kasbiy mahoratga ega bo'lgan mutaxassis kadrlar tayyorlashning "O'zbek modeli" hayotga tatbiq etilmoqda.

Ma'lumki, mustaqillik milliy ta'lim sohasida tub islohotlarni amalga oshirish uchun zamin yaratdi. Zamonaviy talablar inobatga olingan holda o'quv dasturlarini muntazam takomillashtirib borish ishlarini tashkil etish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning tashabbusi bilan ta'lim sohasida qat'iy islohotlar amalga oshirila boshlandi.

Sh.M.Mirziyoyevning prezidentlik faoliyatining dastlabki kunlaridan boshlab mamlakatda innovatsion va kreativ fikrlaydigan zamonaviy kadrlar tayyorlash, yoshlarni vatanparvarlik ruhida, yuksak ma'naviyat egalari qilib tarbiyalash, shu maqsadda ta'lim tizimini takomillashtirish masalalariga alohida e'tibor qaratib kelinmoqda.

Ma'lumki, murakkab o'tish yillarida maktablardagi ma'naviy-ma'rifiy muhit, o'qituvchi kasbining obro'yi, nufuzi pasayib ketgani, yangi davr pedagoglarini tarbiyalash, pedagogika fanini rivojlantirish, innovatsion ta'lim texnologiyalarini joriy etishga yetarli e'tibor berilmagani sohada bir qator jiddiy muammolarni keltirib chiqardi. Keyingi yillarda ana shu muammolarni samarali hal etish, kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish bo'yicha mamlakatda ulkan ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, Prezident Sh.M.Mirziyoyev tomonidan xalq ta'limi tizimiga oid 6 ta farmon va qarorlar, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 21 ta qarori qabul qilinib, bu sohadagi islohotlarning huquqiy-me'yoriy asoslari mustahkamlandi. Ota-onalar, jamoatchilikning istaklari inobatga olinib, yurtimizda 11 yillik maktab ta'lim tizimi qayta tiklandi. 2017–2019-yillarda respublika miqyosida 157 ta umumta'lim maktabi yangidan qurildi.

Ulug' allomalarimiz – Mirzo Ulug'bek va Muhammad Xorazmiy nomidagi iqtidorli bolalar maktablari, Hamid Olimjon va Zulfiya, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Ibroyim Yusupov,

Is'hoqxon Ibrat, Muhammad Yusuf, Halima Xudoyberdiyeva nomlari bilan atalgan ijod maktablari, "Temurbeklar maktabi", Prezident maktablari, xususiy maktablar singari yangi va zamonaviy namunadagi ta'lim dargohlari tashkil etildi. Ta'lim-tarbiya ishlarini samarali olib borishda erkak o'qituvchilarning alohida o'rni va ta'siri borligi hisobga olinib, ko'rilgan aniq chora-tadbirlar natijasida xalq ta'limi tizimiga 12 ming 871 nafar erkak o'qituvchi qaytdi.

Pedagog xodimlar mehnatini rag'batlantirish bo'yicha ham katta ishlar qilinmoqda. 2017–2020-yillar oralig'ida o'qituvchilarning ish haqi o'rtacha 2,5 barobar oshirildi. Uzoq tumanlarga borib ishlayotgan pedagog kadrlar mehnatini rag'batlantirish bo'yicha aniq mezonlar belgilandi. Ularga 50 foizgacha qo'shimcha oylik ustamalar to'lanmoqda. Bu olis hududlarda yetishmayotgan mingdan ziyod o'qituvchini jalb etish imkonini berdi.

Shuni alohida qayd etish kerakki, respublikada ta'limning yangi tizimini amalga oshirishda O'zbekiston hukumati tariximizdagi ta'lim jarayonlarini o'rganib chiqib, ta'limni isloh qilish dasturini tayyorladi. Barcha e'tibor ta'lim tizimlari demokratik va insonparvarlik tamoyillari asosida takomillashtirilib, uning moddiy-texnik bazasini zamon va davr talablari darajasiga ko'tarish va O'zbekiston ma'rifiy salohiyatini kuchaytirishga qaratildi.

Respublikada yangicha ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda shakllanayotgan maktabgacha ta'lim tizimi bir qator o'ziga xos xususiyatlarga ega. Statistik ma'umotlarda keltirilishicha, 2006-yilda 6565 ta maktabgacha ta'lim muassasasi bo'lib, unda 571157 nafar bola ta'lim-tarbiya olgan. 59595 nafar pedagog xodim shu sohaga jalb etilgan. Ammo bu raqam shuni ham ko'rsatadiki, bu paytda atigi 21,4 %gina maktabgacha bolalar qamrab olingan edi. Ushbu masalalarning yechimini topish jarayonida maktabgacha ta'lim muassasalarining yangi tarmog'i, ya'ni xususiy sektor ulushining ortganini ko'rish mumkin. Masalan, "Xonadon bog'chasi", "Fermer xo'jaligi bog'chasi", "Bolalar bog'chasi – boshlang'ich maktab" majmualari vujudga kelmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2017-yil 30-sentabrdagi qaroriga muvofiq, birinchi marta

Maktabgacha ta'lim vazirligi tashkil etildi. O'tgan qisqa davrda 980 dan ortiq bog'chalar ishga tushirildi. So'nggi 2019-yili respublika bo'yicha bolalar bog'chalarining soni 1 ming 400 taga ortib, 6 ming 367 taga yetdi. Ularda ta'lim va tarbiya ishlari mazmun hamda sifat jihatidan eng ilg'or usul va vositalar yordamida olib borildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Oliy majlisga Murojaatida O'zbekistonda ta'lim tizimining taraqqiyoti davlat siyosatining ajralmas qismi ekanligini ta'kidlab shunday dedi: "Uchinchidan, ilm-fan, zamonaviy va uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish zarur. Xalqimizda "ta'lim va tarbiya beshikdan boshlanadi" degan bir hikmatli so'z bor. Faqat ma'rifat insonni kamolga, jamiyatni taraqqiyotga yetaklaydi. Shu sababli, ta'lim sohasidagi davlat siyosati uzluksiz ta'lim tizimi prinsipiga asoslanishi, ya'ni ta'lim bog'chadan boshlanishi va butun umr davom etishi lozim".

Ta'lim tizimi aholining katta qismini jalb qiladi. Umumiy o'rta ta'lim uzluksiz ta'lim tizimidagi asosiy bo'g'in bo'lib, u bilimlarning zarur hajmini beradi, mustaqil fikrlash, tashkilotchilik qobiliyati va amaliy tajriba ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Pedagog xodimlarni namunaviy arzon uy-joylar, avtotransport bilan ta'minlash maqsadida uzoq muddatli imtiyozli kreditlar berish, ularning oila a'zolariga tadbirkorlik faoliyati uchun imtiyozli kreditlar ajratish tizimi yo'lga qo'yildi. 2019-yildan boshlab mutaxassis o'qituvchilarning oshirilgan haqi miqdori 54 foizga, oliy toifali pedagoglarniki esa 64 foizga yetkazildi. Ushbu harakatlar natijasida 2018-yilda umumiy o'rta ta'lim maktablari 16 ming nafar oliy ma'lumotli yosh kadrlar bilan to'ldirildi. Qariyb 13 ming nafar erkak o'qituvchilar maktablarga qaytishdi. Professor-o'qituvchilar oyligi va mavqeyini oshirish siyosati tizimli davom ettirilmoqda. Oylik maoshlari bir necha barobar oshirildi. Ilg'or o'qitish tizimini kengroq joriy etish, ilmiy tadqiqot ishlarini rag'batlantirish maqsadida 20 foizdan 60 foizgacha ustama haq to'lash o'z natijasini ko'rsatdi.

Maktablardagi ma'naviy-tarbiyaviy ishlarni yangicha asosda tashkil etish, "Milliy g'oya", "Odobnoma", "Dinlar tarixi", "Vatan tuyg'usi" kabi fanlarni birlashtirgan holda yagona "Tarbiya" fani joriy qilindi. Maktablarga buyuk allomalar, davlat va siyosat

arboblari, mashhur sarkarda ajdodlarimizning nomlarini berish yo'lga qo'yildi.

Maktablarda 10–11-sinflar joriy etilib, kollejlarda kontingent qisqarishi munosabati bilan mavjud moddiy-texnika bazasidan samarali foydalanish maqsadida 7 ta kollej va akademik litsey negizida yangi 3 ta oliy ta'lim muassasasi filiallari va 1 ta oliy o'quv yurti tashkil etildi.

Sohadagi islohotlar 2023-yil 30-aprel kuni referendum asosida qabul qilingan yangi tahrirdagi Konstitutsiyada o'z ifodasini topdi. Konstitutsiyaning 1-moddasida O'zbekiston Respublikasini ijtimoiy davlat sifatida e'lon qilinishi ta'lim sohasida ham o'z aksini topdi. Xususan, **“Davlat bepul umumiy o'rta ta'lim va boshlang'ich professional ta'lim olishni kafolatlaydi”**. Shuningdek, **“Ta'lim tashkilotlarida alohida ta'lim ehtiyojlariga ega bo'lgan bolalar uchun inklyuziv ta'lim va tarbiya ta'minlanadi”** mazmunidagi konstitutsiyaviy normalarni davlatning o'z fuqarolari oldidagi ulkan g'amxo'rligi sifatida qabul qilish mumkin.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada belgilangan yana bir muhim masala **“Maktabgacha ta'lim va tarbiya, umumiy o'rta ta'lim davlat nazoratidadir”** mazmunidagi normaning mavjudligi davlatning ta'lim va tarbiya sohasidagi asosiy majburiyatlarini belgilab berdi.

Buning natijasida sohada qonunchilik bazasi ham sezilarli ravishda takomillashdi. Xususan, “Pedagogning maqomi to'g'risida”gi Qonun qabul qilindi. Ushbu muhim hujjatda pedagoglarning huquqlari, majburiyatlari, faoliyatining asosiy kafolatlari aniq mustahkamlab qo'yildi. Mehnatiga yarasha haq to'lash, rag'batlantirish va ijtimoiy himoya qilish tamoyillari ko'rsatildi.

Ushbu Qonunga muvofiq, pedagogni kasbiy faoliyati bilan bog'liq bo'lmagan ishlarga, shu jumladan, hududlarni obodonlashtirish va qishloq xo'jaligi ishlariga jalb qilish taqiqlandi. Kasbiy majburiyatlariga taalluqli bo'lmagan ma'lumotlarni, xususan, bitiruvchilarning bandligi ta'minlangani haqidagi hisobotlarni shakllantirishi va taqdim etishini ulardan talab qilish man etildi.

Bundan tashqari, ta'lim sohasida olib borilayotgan islohotlarni chuqurlashtirish, ta'lim tashkilotlari faoliyatini ilg'or xorijiy amaliyotlar asosida tashkil etish, pedagog kadrlarni tayyorlash tizimini takomillashtirish, nodavlat ta'lim tashkilotlari faoliyatini qo'shimcha qo'llab-quvvatlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 02.02.2024-yildagi **“Ta'lim sohasidagi islohotlarni jadallashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi** 54-son qarori qabul qilindi.

Umuman aytganda, xalqimiz qadimdan ilm va ma'rifatga intilib kelgan. Istiqlol yillarida ushbu soha davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari qatoridan o'rin oldi. Buni olib borilayotgan keng ko'lamdagi islohotlar yaqqol tasdiqlaydi. Bu jarayonda jismonan sog'lom, ma'naviy yetuk barkamol yoshlarni tarbiyalash va ularning bilim olishi bo'yicha bergilangan vazifalarning amalga oshirilishi mamlakatimizda farovon hayotni ta'minlashning muhim omili bo'lib xizmat qiladi. Shuningdek, ustoz va shogirdlarning birgalikdagi sa'y-harakatlari, olimlarning fidokorona mehnatlari tufayli masofaviy ta'lim va onlayn dars berishda ham ijobiy tajribalar to'plandi. Endilikda uzluksiz ta'lim tizimini takomillashtirish, malakali kadrlar siyosatini rivojlantirishni hamda uning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash borasida qilinayotgan ishlar muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, ta'lim va o'qitish sifatini baholashning xalqaro standartlariga o'tishda ta'lim muassasalari faoliyati va samaradorligini oshirish taqozo etilmoqda.

3. Oliy ta'lim sohasida qabul qilingan qonunlar va ularda belgilangan vazifalar

Ta'lim tizimining eng asosiy bo'g'inlaridan biri bo'lgan oliy ta'limning tubdan o'zgartirilishi mustaqil O'zbekistonda olib borilayotgan islohotlarning tarkibiy qismi bo'ldi. Mamlakat kelajagi va taraqqiyoti bevosita yoshlarning bilimi va milliy istiqlol g'oyasi ruhida tarbiyalanganligi bilan belgilanadi. Bu murakkab vazifa esa zamonaviy ta'lim va tarbiya tizimini vujudga keltirish orqali amalga oshiriladi. Shu bois ta'lim tizimida o'quv, ilmiy va ma'naviy-ma'rifiy ishlarni zamon talablari darajasida rivojlantirish ustuvor vazifa sifatida belgilandi. Yoshlarni tegishli mutaxassislik, hunar va kasblarini chuqur egallashlari, shuningdek, Vatan va millat

manfaatlari yo'lida fidoyilik ko'rsata oladigan barkamol shaxsni tarbiyalash ham oliy ta'lim zimmasidagi asosiy vazifalardan hisoblanadi.

Oliy ta'lim uzluksiz ta'lim tizimining bosh bo'g'inlaridan biri bo'lib, bu soha jamiyatning iqtisodiyoti, fani, madaniyati va texnologik jarayoni bilan yaxlit holda chambarchas bog'liqdir. Shuning uchun uning taraqqiyoti umummilliy rivojlanish strategiyasining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. XXI asr globalizatsiya bilan bog'liq holda oliy ta'limda yangi an'analar va yangi muammolarni yuzaga keltirdi. Bu jarayon dunyoning barcha universitetlariga o'z ta'sirini o'tkazmoqda. Bugungi kunda barcha universitetlar uchun dunyo ta'lim kengliklarida o'z mavqeyini saqlab qolish, teng huquqli hamkor sifatida bo'lish muhim vazifalardan biri bo'lib qolmoqda.

Birinchi galda universitetlar ta'lim tizimining zamonaviy loyihasi tayyorlanib, ta'lim tizimining asosi bo'lgan yangi o'quv rejalar, dasturlar yaratildi. 1993-yildan davlat ta'lim standartlari ishlab chiqildi va bakalavrlar tayyorlashda qo'llanila boshladi. Viloyat markazlarida tashkil etilgan oliy o'quv yurtlarida mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirish, ularning ilmiy intellektual imkoniyat va moddiy-texnika bazasini mustahkamlash maqsadida 1995-yil 31-mayda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi mintaqaviy oliy o'quv yurtlarini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" maxsus qaror qabul qilindi.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni va Kadrlar tayyorlash milliy dasturi asosida oliy ta'lim muassasalari moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va rivojlantirish, ularni zamonaviy o'quv laboratoriya uskunalari va kompyuter texnikasi bilan jihozlash, darslik va o'quv-uslubiy materiallar, pedagog kadrlar bilan ta'minlash amalga oshirildi. Bu davrda Toshkent Islom universiteti, Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti kabi o'nlab universitet va institutlar tashkil etildi. Keyingi yillarda Moskva Davlat universitetining filiali, Xalqaro Vestministr universiteti, Turin politexnika instituti kabi nufuzli oliy ta'lim dargohlari ham ochildi. Natijada mamlakat oliy o'quv yurtlarida ta'lim sifatini oshirish, xorijda tayyorlanadigan mutaxassisliklarni

qo'shma fakultet va institutlar ko'magida tayyorlash tajribasi yo'lga qo'yildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2000-yil 28-yanvardagi Farmoni bilan Toshkent Davlat universitetiga "Milliy universitet" maqomi berildi. Respublikada emas, balki Markaziy Osiyoda oliy ta'limning tashkil topishi va rivojlanishida Toshkent Davlat Universiteti katta o'rin tutadi. Davrlar mobaynida ushbu universitetning qator fakultetlari negizida bir nechta mustaqil institutlar tashkil topdi. Milliy universitet mustaqillik yillarida oliy ta'lim rivojiga munosib hissasini qo'shdi. Shu o'rinda ta'kidlash o'rinliki, oliy ta'lim sohasida ko'plab sohalarga bosh mezonni belgilovchi O'zbekiston Milliy universitetida 40 dan ziyod ilmiy maktablar shakllangan bo'lib, ulardagi ilmiy natijalar ilm-u fan taraqqiyotiga xizmat qilib kelmoqda. Oliy ta'lim tizimida ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish maqsadida so'nggi yillarda O'zbekiston Milliy universiteti huzurida Nanotexnologiyalarni rivojlantirish markazi, Yarimo'tkazgichlar fizikasi va mikroelektronika ilmiy tadqiqot instituti, Biofizika va biokimyo instituti, Intellektual dasturiy tizimlar ilmiy-amaliy markazi tashkil etildi.

Mamlakatimizda 2016-yilda siyosiy-huquqiy, iqtisodiy, ma'naviy sohalar bilan bir qatorda, ijtimoiy sohalarda ham chuqur sifat o'zgarishlari ro'y berdi. Jamiyat ijtimoiy sohasining eng muhim tarkibiy qismlaridan biri ta'lim-tarbiya sohasi bo'lib, uning rivoji siyosiy, huquqiy-iqtisodiy va ma'naviy sohalarga bevosita ta'sir etadi hamda ijtimoiy sohalar me'yoriy mohiyati, kamolot darajasini belgilab beradi.

2017-yilda ta'lim davlat siyosatining eng ustuvor yo'nalishiga aylandi. Davlat budjetidan ta'limga ajratilgan mablag'lar budjet xarajatlari qismining 33,7 foizi darajasida rejalashtirilib, ta'lim sohasiga yo'naltirilayotgan xarajatlar hajmi mamlakatimiz Yalpi ichki mahsuloti tarkibida 10–12 foizni tashkil etdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish to'g'risida"gi qarorida boshlangan islohotlar qonuniy asosini topdi va bu tizimning rivojlanishiga katta hissa qo'shdi. Qarorda "har bir oliy ta'lim muassasasi tomonidan xorijdagi yetakchi turdosh ilmiy-ta'lim muassasalari bilan istiqbolli hamkorlik aloqalarini yaqindan yo'lga

qo'yish, o'quv jarayoniga xalqaro ta'lim standartlariga asoslangan eng zamonaviy pedagogik texnologiyalar, ta'lim dasturlari va o'quv metodik materiallarini keng joriy etish, ilmiy-pedagogik faoliyatga yuqori malakali chet el o'qituvchilari va olimlarini jalb etish" belgilandi.

Shuningdek, belgilangan vazifalar sirasiga "oliy ta'lim muassasalarining ilmiy salohiyatini mustahkamlash, oliy ta'lim tizimida ilmiy tadqiqotlarni yanada rivojlantirish, ularning akademik ilm-fan bilan integratsiyasini kuchaytirish, professor-o'qituvchilar tarkibining ilmiy faoliyati samaradorligini oshirish, iqtidorli talaba yoshlarni ilmiy faoliyat bilan shug'ullanishga jalb etish"ga ham e'tibor berildi.

Shuni alohida qayd etish kerakki, so'nggi yillarda oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish borasida ko'plab qonun hujjatlari qabul qilinib, amaliyotga joriy etildi. Jumladan, ta'lim sohasiga e'tiborning kuchaytirilishi natijasida respublikadagi oliy o'quv yurtlarining soni oshirildi, ularning o'quv rejalari, fan dasturlari xalqaro standartlarga moslashtirildi. Joylarda o'qituvchilarga bo'lgan ehtiyojni qoplash uchun Toshkent viloyatida Chirchiq davlat pedagogika instituti (2017-y.), viloyatlarda esa pedagogika institutlari tashkil etildi. Bundan tashqari oliy ta'lim muassasalarida tashkil etilgan maxsus sirtqi bo'limlarda o'rta maxsus ma'lumotga ega bo'lgan pedagoglar uchun oliy ma'lumot olish imkoniyati yaratildi.

Statistik ma'lumotlarga murojaat qiladigan bo'lsak, 2006-yil respublikada 62 ta oliy o'quv yurtida 265438 talabaga 21409 ta professor-o'qituvchi, jumladan, 1662 nafar fan doktori va professorlar, 7360 ta fan nomzodlari va dotsentlar ta'lim berdi.

2019-yilga kelib respublikadagi oliy o'quv yurtlarining soni 114 ta yetganini ko'rish mumkin. Shulardan 93 tasi mahalliy hamda 21 tasi xorijiy oliy ta'lim muassasasi va ularning filiallari hisoblanadi. Bu ko'rsatgich 2023-yilga kelib 2013 tani tashkil etdi. Ulardan 116 tasi davlat, 67 tasi nodavlat, 30 tasi esa xorijiy oliy ta'lim muassasasi hisoblanadi.

Kadrlar buyurtmachilari takliflari asosida Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatoriga 329 ta ta'lim yo'nalishi va 582 ta magistratura mutaxassisligi kiritildi. 2019-

2020-o'quv yilida 59 ta oliy ta'lim muassasasida sirtqi ta'lim, 10 ta oliy ta'lim muassasasida kechki ta'lim shakli joriy etildi.

Respublika oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalar soni bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha 410 ming, magistratura mutaxassisligi bo'yicha esa 13 ming nafarni tashkil qilib, 2016–2019-yillar oralig'ida 1,7 baravarga oshdi.

2019–2020-o'quv yili uchun qabul parametrlari 121 mingtani tashkil etdi va o'tgan yilga nisbatan 18 foizga, 2016-yilga nisbatan esa 92 foizga oshdi. Keyingi yillarda ham qabul ko'rsatkichlarini muntazam oshirib borish rejalashtirilganini alohida ta'kidlash joiz. Buning natijasida 2023-yilga kelib 213 ta oliygohda 1 mln. 300 ming nafardan oshiq talaba tahsil olib, bu ko'rsatkich orqali yoshlarni oliy ta'lim bilan qamrab olish darajasi 2022-yilgi 38 foizdan 42 foizga oshgan.

2023/2024-o'quv yili uchun 48 ta davlat oliy ta'lim muassasasining 20 ta xorijiy mamlakat bilan hamkorlikdagi qo'shma ta'lim dasturlari ekspertizadan o'tkazildi. Ijobiy xulosa berilgan 289 ta qo'shma ta'lim dasturi uchun 6 818 ta kvota kelishib berilgan.

Texnikumlarda grant o'rinlar soni 22 368 taga yetkazilib, 2022/2023-o'quv yiliga nisbatan 1,5 barobarga oshirildi. Akademik litsey bitiruvchilarining oliygohlarga o'qishga kirish ko'rsatkichi 90 foizga yetdi.

Oliy ta'lim sohasida davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish, hududlarda davlat va nodavlat oliy ta'lim muassasalari faoliyatini tashkil etish asosida oliy ta'lim bilan qamrov darajasini 50 foizdan oshirish, sohada sog'lom raqobat muhitini yaratish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi Farmoniga muvofiq, "Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi" tasdiqlandi. Unda 48 ta maqsadli ko'rsatkichlarga erishish bo'yicha aniq mexanizmlar belgilandi. Masalan, 2030-yilga borib o'quvchilar bilimini baholash bo'yicha PISA xalqaro dasturi reytingida O'zbekistonning jahondagi yetakchi 30 ta mamlakat qatoridan joy egallashi maqsad qilib qo'yilgan.

Oliy ta'lim tizimidagi o'zgarishning asosiylaridan yana biri yangi avlod darsliklarining yaratilishi, davlat ta'lim standartini

shakllantirish bo'ldi. Bu jarayonda professor-o'qituvchilar tomonidan ilm-fan sohasidagi innovatsiyalarni qo'llagan holda turli yo'nalish va mutaxassislik fanlaridan ko'plab darslik va o'quv qo'llanmalar yaratildi.

Oliy ta'limning maqsadi mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy rivojini ta'minlashga, o'zi tanlagan mutaxassislik bo'yicha bozor iqtisodiyoti sharoitida mustaqil ishlashga layoqatli, yuqori malakali, raqobatdardosh kadrlarni tayyorlashdan iborat. Respublika oliy o'quv yurtlarida talabalar bilim olish bilan birgalikda ilmiy tadqiqot ishlarini ham olib boradilar. Talabalarning ilmiy mavzulari ixtisosligi bo'yicha tegishli ishlab chiqarish korxonalarining ilmiy tadqiqot muassasalari bilan bog'liq holda amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev 2019-yil 24-may kuni O'zbekiston Milliy universitetida oliy ta'lim va ilm-fan namoyandalari bilan uchrashdi. Uchrashuvda ilmiy tadqiqotlar, ta'lim tizimini sifat jihatidan tubdan yaxshilash borasida qator fikrlar bildirildi va moddiy-texnika bazasini yaxshilash uchun moliyaviy ko'mak ajratishga ko'rsatmalar berildi.

Oliy ta'lim tizimida amalga oshirilgan islohotlar natijasida yuz bergan o'zgarishlar ijtimoiy-siyosiy, huquqiy, iqtisodiy va ma'naviy jihatdan katta tarixiy ahamiyatga ega. Amalga oshirilgan islohotlar nafaqat respublikada katta ijobiy o'zgarishlarga olib keldi, balki xalqaro maydonda ham mamlakat obro'-e'tiborini yangi bosqichga olib chiqdi. Bu borada bir qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi.

Prezident Sh.Mirziyoyev ta'limdagi kamchiliklarni tanqidiy tahlil qilib, uni bartaraf etish yo'llarini, Ta'lim tizimini rivojlantirish, pedagoglarning malakasi va jamiyatdagi nufuzini oshirish, yosh avlod ma'naviyatini yuksaltirish, ma'naviy- ma'rifiy muhitni zamon talabiga moslash, o'qituvchi kasbining, nufuzini oshirish, yangi davr pedagoglarini tarbiyalash, pedagogika fanini rivojlantirish, innovatsion ta'lim va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini ta'limga joriy etishga katta e'tibor qaratish masalalariga jiddiy yondashish va shu bilan birga, professor-o'qituvchilar oyligini oshirish va rag'batlantirib borish zarurligini

ko'rsatib berdi va bu masalalarda bugungi kunda katta ishlar amalga oshirildi.

O'zbekiston Respublikasida oliy ta'limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, zamonaviy bilim va yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlariga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, oliy ta'limni modernizatsiya qilish, ilg'or ta'lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi 5847-sonli Farmoni bilan "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi" qabul qilindi.

Ushbu konsepsiyada intellektual taraqqiyotni jadallashtirish, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, ilmiy va innovatsion faoliyatni samarali tashkil etish hamda xalqaro hamkorlikni mustahkamlash fan, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasini rivojlantirish singari vazifalar asos qilib olindi.

Konsepsiyaning mazmuni mamlakatimiz oliy ta'lim tizimini isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini aks ettiradi. Unda:

oliy ta'lim sohasida davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish, hududlarda davlat va nodavlat oliy ta'lim muassasalari faoliyatini tashkil etish asosida oliy ta'lim bilan qamrov darajasini 50 foizdan oshirish, sohada sog'lom raqobat muhitini yaratish;

O'zbekiston Milliy universiteti va Samarqand davlat universitetini mamlakatimiz oliy ta'lim muassasalarining flagmaniga aylantirish;

respublikadagi kamida 10 ta oliy ta'lim muassasasini xalqaro e'tirof etilgan tashkilotlar (**Quacquarelli Symonds World University Rankings, Times Higher Education ёки Academic Ranking of World Universities**) reytingining birinchi 1000 ta o'rindagi oliy ta'lim muassasalari ro'yxatiga, shu jumladan O'zbekiston Milliy universiteti va Samarqand davlat universitetini birinchi 500 ta o'rindagi oliy ta'lim muassasalari ro'yxatiga kiritish;

oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayonini bosqichma-bosqich kredit-modul tizimiga o'tkazish;

xalqaro tajribalardan kelib chiqib, oliy ta'limning ilg'or standartlarini joriy etish, jumladan o'quv dasturlarida nazariy bilim

olishga yo'naltirilgan ta'limdan amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim tizimiga bosqichma-bosqich o'tish;

oliy ta'lim mazmunini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarining barqaror rivojlanishiga munosib hissa qo'shadigan, mehnat bozorida o'z o'rnini topa oladigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini yo'lga qo'yish;

oliy ta'lim muassasalarining akademik mustaqilligini ta'minlash;

oliy ta'lim muassasalarida ta'lim, fan, innovatsiya va ilmiy-tadqiqotlar natijalarini tijoratlashtirish faoliyatining uzviy bog'liqligini nazarda tutuvchi «**Universitet 3.0**» konsepsiyasini bosqichma-bosqich joriy etish;

xorijiy investitsiyalarni keng jalb qilish, pullik xizmatlar ko'lamini kengaytirish va boshqa budjetdan tashqari mablag'lar hisobiga oliy ta'lim muassasalarida texnopark, forsayt, texnologiyalar transferi, startap, akselerator markazlarini tashkil etish hamda ularni tegishli tarmoq, soha va hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini tadqiq qiluvchi va prognozlashtiruvchi ilmiy-amaliy muassasalar darajasiga olib chiqish;

oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilari, ilmiy izlanuvchilari, doktorantlari, bakalavriat va magistratura talabalarining yuqori impakt-faktorga ega nufuzli xalqaro ilmiy jurnallarda maqolalar chop etishi, maqolalarga iqtiboslik ko'rsatkichlari oshishi, shuningdek, respublika ilmiy jurnallarini xalqaro ilmiy-texnik ma'lumotlar bazasiga bosqichma-bosqich kiritilishini ta'minlash;

O'zbekiston oliy ta'lim tizimini Markaziy Osiyoda xalqaro ta'lim dasturlarini amalga oshiruvchi «**Xab**»ga aylantirish;

oliy ta'limning investitsiyaviy jozibadorligini oshirish, xorijiy ta'lim va ilm-fan texnologiyalarini jalb etish;

talaba-yoshlar ta'lim-tarbiyasi uchun qo'shimcha sharoitlar yaratishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni o'z ichiga olgan beshta tashabbusni amaliyotga tatbiq etish;

oliy ta'lim muassasalarining infratuzilmasi va moddiy-texnik bazasini, shu jumladan xalqaro moliya institutlarining imtiyozli mablag'larini keng jalb qilish hisobiga yaxshilash, ularni

bosqichma-bosqich o'zini o'zi moliyalashtirish tizimiga o'tkazish va moliyaviy barqarorligini ta'minlash;

ta'limning ishlab chiqarish korxonalari va ilmiy-tadqiqot institutlari bilan o'zaro manfaatli hamkorligini yo'lga qo'yish;

aholining ijtimoiy hirnoyaga muhtoj qatlamlari, shu jumladan imkoniyati cheklangan shaxslarning oliy ta'lim bilan qamrov darajasini oshirish, ular uchun infratuzilmaga oid sharoitlarni yaxshilash;

ilmiy tadqiqotlar natijalarini tijoratlashtirish, xalqaro e'tirofga erishish hamda boshqa ko'plab aniq yo'nalishlar belgilab berilgan.

Shuningdek, 2020-yil 24-sentabrda yangi tahrirda qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun esa ushbu soha taraqqiyotida, yoshlarimizning zamonaviy bilimlarni egallashida hech shubhasiz, yangi ilm ufqlarni ochib berdi.

Mazkur qonun jahon standartlari talablaridan kelib chiqqan holda ta'lim sohasidagi munosabatlarni tartibga solishning qamrovi kengligi va o'ziga xos xususiyatga ega ekanligi bilan oldingi ya'ni, 1997-yilda qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi Qonundan tubdan farq qiladi.

Ushbu Qonunning o'ziga xos xususiyatlari ta'lim sohasiga bir qator yangiliklar kiritilganligida namoyon bo'ladi. Jumladan, unda belgilangan masofaviy ta'lim haqidagi qoidalar o'quv rejaları va o'quv dasturlariga muvofiq ta'lim oluvchilar tomonidan zarur bilim, malaka va ko'nikmalarni axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan hamda Internet jahon axborot tarmog'idan foydalangan holda masofadan turib olishga qaratilgan.

Shuningdek, qonunda dual ta'limga oid qoidalar belgilanib, u ta'lim oluvchilar tomonidan zarur bilim, malaka va ko'nikmalarni olishga qaratilgan bo'lib, ularning nazariy qismi ta'lim tashkiloti negizida, amaliy qismi esa ta'lim oluvchining ish joyida amalga oshiriladi.

Shu bilan birgalikda, katta yoshdagilarni o'qitish va ularga ta'lim berish haqida qoidalarda katta yoshdagilarni o'qitish va ularga ta'lim berish bu butun umr davomida o'qitishning markaziy tarkibiy qismi bo'lib, ta'lim berish hamda o'qitishning jamiyat hayotida va mehnat faoliyatida katta yoshdagilarning ishtirok etishini ta'minlashga qaratilgan barcha shakllarini o'z ichiga olishi,

shuningdek rasmiy, norasmiy va informal o'qitish jarayonlarining butun majmuyini qamrab olishi bayon etilgan.

Bundan tashqari, qonunga inklyuziv ta'lim to'g'risidagi qoidalar kiritilib, unga binoan, inklyuziv ta'lim alohida ta'lim ehtiyojlari va individual imkoniyatlarning xilma-xilligini hisobga olgan holda barcha ta'lim oluvchilar uchun ta'lim tashkilotlarida ta'lim olishga bo'lgan teng imkoniyatlarni ta'minlashga qaratilgan. Jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan bolalar (shaxslar) uchun ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'limni tashkil etadi.

Shuningdek, qonunda ta'lim tashkilotlari pedagog xodimlarining huquqiy maqomiga alohida e'tibor qaratilgan.

Tegishli ma'lumoti, kasbiy tayyorgarligi bo'lgan va ma'naviy-axloqiy fazilatlariga ega shaxslar pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish huquqiga egaligi mustahkamlab qo'yilgan.

Agar qonunchilikda boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, pedagogik oliy ma'lumotga ega bo'lmagan shaxslarga qayta tayyorlash kurslaridan o'tganidan keyin ta'lim tashkilotlarida pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish huquqi berilishi belgilab qo'yilgan.

Qonunning 45-moddasida pedagog xodimlarning maqomi va ular faoliyatining kafolatlari berilgan bo'lib, pedagog xodimlarning maqomi jamiyat va davlat tomonidan tan olinadi.

Pedagog xodimlar ijtimoiy qo'llab-quvvatlanadi, o'z kasbiy faoliyatini amalga oshirishi, ularning ijtimoiy maqomi va obro'sini oshirish uchun tashkiliy-huquqiy shart-sharoitlar yaratiladi, shuningdek, o'z huquq va qonuniy manfaatlarini amalga oshirish uchun kafolatlar beriladi.

Ta'lim tashkilotlari pedagog xodimlarining huquqlari, sha'ni, qadr-qimmatini va ishchanlik obro'si davlat himoyasi ostida bo'ladi.

Ta'lim tashkilotlari pedagog xodimlarining kasbiy faoliyatiga aralashishga, ta'lim oluvchilarning bilimlarini to'g'ri va xolis baholashga ta'sir ko'rsatishga, shuningdek, ushbu pedagog xodimlarning xizmat majburiyatlarini bajarishga to'sqinlik qilishga yo'l qo'yilmaydi.

Yangi tahrirdagi ta'lim to'g'risidagi Qonunning qabul qilinishi natijasida oliy o'quv yurtlarida ta'lim olish imkoniyatlari

kengaytirildi, xususan, sirtqi, kechki va masofaviy shakldagi hamda imkoniyati cheklangan bolalar uchun inklyuziv ta'lim tizimi joriy etildi.

Oliy ta'limdagi sifat o'zgarishlari bilan birgalikda, uning jamiyat hayotidagi insonparvarlik jihatlariga ham alohida to'xtalib o'tish joiz bo'ladi. Masalan, Davlat komissiyasi majlisining 2020-yil 1-son bayoni bilan, Respublika OTMlariga umumiy belgilangan davlat granti asosidagi qabul ko'rsatkichlariga nisbatan xotin-qizlar uchun to'rt foizli qo'shimcha davlat granti asosidagi qabul ko'rsatkichlarining hududlar kesimidagi taqsimoti tasdiqlandi. Unga ko'ra, yangi o'quv yilida xotin-qizlar uchun OTMlar bakalavriyatning kunduzgi ta'lim shakliga qo'shimcha 940 ta kvota ajaratildi.

2020/2021-o'quv yili uchun respublika OTMlariga abituriyentlarni qabul qilishning umumiy soniga nisbatan nogironligi bo'lgan shaxslar uchun qo'shimcha ikki foizli davlat granti asosidagi qabul ko'rsatkichlari belgilandi. Unga ko'ra, respublika miqyosida nogironligi bo'lgan shaxslar uchun jami 2799 ta kvota berildi.

O'zbekiston Respublikasi ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilish bo'yicha Davlat komissiyasi majlisining 2-son bayoni qaroriga muvofiq:

Iqtisodiyot tarmoqlarida kamida besh yil ish stajiga ega bo'lgan fuqarolarni 2020/2021-o'quv yilida respublika oliy ta'lim muassasalarining sirtqi va kechki ta'lim shakliga suhbat natijalariga ko'ra tabaqalashtirilgan to'lov-kontrakt asosida o'qishga tavsiya etish huquqiga ega bo'lgan vazirlik, idora va yirik xo'jalik birlashmalarining ro'yxati tasdiqlandi.

Respublikada so'nggi yillar davomida "Harakatlar strategiyasi" va uning mantiqiy davomi sanalmish O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022-yildagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60 son Farmoni bilan Taraqqiyot strategiyasi va Davlat dasturini amalga oshirish belgilab berildi.

Davlat dasturida oliy ta'lim sohasini yanada rivojlantirish uchun aniq maqsadlar belgilab olindi. Dasturda jami 100 ta maqsad belgilangan bo'lib, shulardan 6 tasi oliy ta'lim tizimiga tegishlidir:

46-maqсад: Oliy ta'lim bilan qamrov darajasini 50 foizga yetkazish va ta'lim sifatini oshirish.

47-maqсад: 2026-yilga qadar 10 ta salohiyatli oliy ta'lim muassasasini QS va TNE xalqaro reytinglariga kirishga maqsadli tayyorlash.

48-maqсад: Qariyb 100 ming o'rinli talabalar turar joylarini barpo etish.

49-maqсад: 2026-yilgacha nodavlat oliy ta'lim tashkilotlari sonini kamida 50 taga yetkazish.

50-maqсад: «El-yurt umidi» jamg'armasi orqali erkin va ijodiy fikrlaydigan yoshlarni nufuzli xorijiy oliygohlarga o'qishga yuborish ko'lamini 2 baravarga oshirish, bunda yoshlarning 50 foizini texnik, aniq fanlar va IT sohalariga o'qitish.

51-maqсад: Iqtisodiyotga innovatsiyalarni keng joriy qilish, sanoat korxonalari va ilm-fan muassasalarining kooperatsiya aloqalarini rivojlantirish.

O'tgan davr mobaynida "Taraqqiyot strategiyasi" doirasida, rivojlangan davlatlar kabi uzluksiz ta'lim tizimini muntazam takomillashtirib borish, sifatli ta'lim-tarbiya berish, malakali kadrlarni tayyorlash bo'yicha sezilarli islohotlar amalga oshirildi.

Ushbu islohotlar uchun davlat budjetidan xarajatlar 2023-yilga qadar 4,3 baravarga oshirildi, maktabgacha ta'lim tashkilotlari soni 2016-yildagi 5211 tadan 2021-yilga kelib 19316 taga, maktablar soni 9719 tadan 10289 taga yetkazildi, 11 yillik majburiy maktab ta'limi qayta tiklandi, maktab o'qituvchilarining ish yuklamasi maqbullashtirildi va majburiy mehnatga barham berildi. Ta'lim sohasi vakillarining oylik maoshi qariyb 4 baravarga oshirildi, OTM soni 70 tadan 191 taga yetkazildi, oliy ta'limdan keyingi ta'limning ikki pog'onali tayanch doktorantura (PhD) va doktorantura (Doctor of Science) tizimi joriy etildi.

Ta'lim sohasidagi islohotlar natijasida maktabgacha ta'lim bilan qamrov darajasi 27,7 foizdan 67 foizga, maktablardagi malakali oliy ma'lumotli o'qituvchilar ulushi 81,8 foizdan 87,8 foizga, yoshlarni oliy ta'lim bilan qamrov darajasi 9 foizdan 38 foizga yetkazildi.

Sohada islohotlarni izchil davom ettirish maqsadida 2026-yilga qadar Taraqqiyot strategiyasi doirasida maktabgacha ta'limda

qamrov darajasini hozirgi 67 foizdan 80 foizga yetkazish, 7 mingdan ziyod yangi nodavlat MTTLarni tashkil etish, xalq ta'limi tizimida qo'shimcha 1,2 million o'quvchi o'rmini yaratish. Qoraqalpog'iston Respublikasi va Xorazm viloyatining boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun bepul ovqatlanish bo'yicha yo'lga qo'yilgan ijobiy amaliyotni 2023/2024-o'quv yilidan barcha viloyatlar va Toshkent shahri maktablarida ham joriy etish belgilab qo'yildi. Shuningdek, oliy ta'limda qamrov darajasini 50 foizga, nodavlat OTMLar sonini kamida 50 taga yetkazish belgilab olindi.

Shu bilan bir qatorda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 25-yanvardagi «Respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatini samarali yo'lga qo'yishga doir birinchi navbatdagi tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida»gi PF-14-son Farmoni ijrosini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 3-iyuldagi **“Ma'muriy islohotlar doirasida oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida”gi** 200-son qarori qabul qilindi.

Yuqorida keltirilgan islohotlarni yanada mustahkamlash va bardavom bo'lishini ta'minlash, konstitutsiyaviy qonunchilikda yoshlarning uzluksiz ta'lim olishga bo'lgan imkoniyatlarini mustahkamlashni taqozo etardi.

2023-yil 30-aprel kuni referendum asosida qabul qilingan yangi tahrirdagi Konstitutsiyada ta'lim olish huquqining yanada yorqinroq aks ettirilishi yuksak ahamiyat va ulkan ma'no-mazmun kasb etmoqda. Zero, bugungi kundagi eng qimmat resurs hisoblanmish inson kapitalining yaratilishida ta'lim tizimining o'rni beqiyosdir.

Konstitutsiyada oliy ta'lim masalalariga alohida e'tibor qaratilgani e'tiborga molik. Chunki bugungi shiddat bilan rivojlanib borayotgan dunyoda zamonaviy kasb va ko'nikmalarga ega, raqobatbardosh kadrlarni yetkazib berish uchun oliy ta'lim muassasalariga zamonaviy yondashuvni talab etadi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada oliy ta'lim tashkilotlari qonunga muvofiq akademik erkinlik, o'zini o'zi boshqarish, tadqiqotlar o'tkazish va o'qitish erkinligi huquqiga ega ekanligi belgilandi. Bu akademik sohada, boshqaruv, ilmiy-tadqiqotlar olib borish, shuningdek, o'qitish borasidagi erkinlik oliy o'quv

yurtlariga bir qator imkoniyatlar eshigini ochib berdi. Natijada qotib qolgan qoliplardan xalos bo'lgan holda zamon talablariga mos o'quv reja va o'quv dasturlarini ishlab chiqish hamda ular asosida sifatli ta'lim berish imkoniyati vujudga keldi. Talabalarga o'zlari o'qiydigan fanlarni tanlash imkoniyatini berish orqali esa oliy ta'limning jozibadorligi oshdi.

Shuningdek, xalqaro nufuzli oliy ta'lim muassasalari va ishlab chiqarish tashkilotlari bilan o'zaro manfaatli hamkorlik aloqalari o'rnatish bo'yicha yangi bosqich boshlandi. Qolaversa, talabalarni ilm-fanning eng so'nggi yutuqlari bilan tanishtirish hamda ularda keng dunyoqarashni shakllantirish maqsadida akademik mobillik dasturlari yo'lga qo'yildi.

Islahotlarning eng muhim jihatlaridan yana biri — bu oliy ta'lim bilan ishlab chiqarish o'rtasidagi aloqadorlik integratsiyasini to'g'ri yo'lga qo'yilgani bo'ldi. Sababi hamkorliksiz yuqori malakali, zamon talabidagi kadrlar tayyorlash qiyin.

Respublikada yirik sanoat korxonalarining buzilib ketishi natijasida hamkorlik aloqalari uzilib, ta'lim o'z yo'lida, ishlab chiqarish o'z yo'lida faoliyat yuritardi. Mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar tufayli yirik va o'rta ishlab chiqarish korxonalari qad ko'tardi. Oliy ta'lim bilan ishlab chiqarish o'rtasidagi hamkorlik integratsiyasi yo'lga qo'yildi. Bugungi kunda texnika oliy o'quv muassasalari talabalari nafaqat yangi texnologiyalar bilan tanishish, balki ularni boshqarish amaliyotiga ham ega bo'lmoqda.

Umuman olganda, O'zbekistonda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar jarayonida oliy ta'limning o'rni va ahamiyati hamda ilm-fan taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shildi.

4. Ta'lim sohasida xalqaro hamkorlikning yo'lga qo'yilishi

Ta'lim tizimidagi islohotlar jarayonida xorijiy davlatlardagi yetakchi oliy o'quv yurtlari bilan hamkorlik aloqalarini kuchaytirish, o'quv jarayonini xalqaro ta'lim standartlariga moslashtirish masalasiga ham e'tibor qaratilib, 2018-yilda ilk bor xalqaro tajribalar asosida oliy ta'lim muassasalarining milliy reytingi yaratildi, ta'lim tizimi va ilmiy tadqiqot jarayoni tahlil etildi.

Mazkur tahlil sohada qator muammo hamda kamchiliklar borligini ko'rsatdi. Xususan, oliy ta'lim muassasalari qabul kvotasi qamrovi umumta'lim maktablari, akademik litsey va kasb-hunar kolleji bitiruvchilarining atigi 7–9 foizini tashkil etardi. Bu ko'rsatkich Rossiyada 74, Koreya respublikasida 96 foizdir.

Respublikaning 16 ta oliy ta'lim muassasasida 2018–2019-o'quv yilidan boshlab xorijiy oliy ta'lim muassasalari bilan hamkorlikda qo'shma ta'lim dasturlari asosida kadrlar tayyorlash faoliyati yo'lga qo'yildi.

Ta'lim tizimini takomillashtirish jarayonida 2019-yilda respublika miqyosida jami 14 ta yangi oliy ta'lim muassasasi tashkil etildi, ulardan 6 tasi mahalliy oliy ta'lim muassasasining filiali, 8 tasi xorijiy oliy ta'lim muassasalarining filiali edi. Yangi tashkil etilgan 14 ta oliy ta'lim muassasasida 40 ta yangi ta'lim yo'nalishi (bakalavriatura) va 41 ta yangi mutaxassislik (magistratura) ochildi.

Oliy ma'lumotli kadrlarga bo'lgan ehtiyoj yuqori bo'lgan olis, chekka va tog'li hududlarda joylashgan umumta'lim maktablari uchun maqsadli qabul ko'rsatkichlari belgilandi.

Natijada yoshlarning oliy ta'lim bilan qamrovi 20 foizga yetkazildi. Oliy ta'lim muassasalarida talabalar soni 423 ming nafardan oshdi (2016-yilda 273 ming nafar). 2019-yili Oliy ta'lim muassasalariga qabul ko'rsatkichlari 121 mingdan oshdi (2016-yilga nisbatan ikki barobar).

Magistraturaga qabul 7705 tani tashkil etib, 2016-yilga nisbatan 1,5 barobarga (54 %) oshirildi. Bunda tabiiy va muhandis-texnik soha mutaxassisliklari bo'yicha to'liq davlat granti asosida belgilandi hamda davlat granti ulushi 54 %ga oshirildi. 55 ta oliy ta'lim muassasasida 21 ta xorijiy davlatning (AQSH, Germaniya, Turkiya, Finlyandiya, Fransiya, Gollandiya, Indoneziya, Isroil, Italiya va boshqa) yetakchi universitetlari bilan hamkorlikdagi qo'shma ta'lim dasturlar asosida 83 ta ta'lim yo'nalishi (bakalavriatura) va 64 ta mutaxassislik (magistratura) bo'yicha kadrlar tayyorlash yo'lga qo'yildi.

2019-yili respublikamizdagi oliy o'quv yurtlari soni 60 foizga oshib, 116 taga yetdi. Ular orasida nufuzli xorijiy universitetlarning filiallari borligi alohida e'tiborga loyiq.

Prezidentning 2018-yil 5-iyundagi “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo’yicha qo’shimcha chora-tadbirlari to’g’risida”gi qarori oliy ta’lim tizimidagi mavjud muammolarni bartaraf etish, ta’lim sifatini yanada yuksaltirishga qaratilgani bilan ahamiyatlidir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2019-yil 8-oktabrda “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to’g’risida”gi Farmoniga muvofiq oliy ta’limda to’planib qolgan uzoq yillik muammolarga yechim topib berish barobarida, oliy ta’limni jahon standartlariga javob bera oladigan, mamlakatning kelajagi uchun xizmat qila oladigan darajaga ko’tarishning yangi bir davrini boshlab berganligini qayd etish zarur.

Ushbu konsepsiyada oliy ta’lim sohasida davlat – xususiy sheriklikni rivojlantirish, hududlarda davlat va nodavlat oliy ta’lim muassasalari faoliyatini tashkil etish asosida oliy ta’lim bilan qamrov darajasini 50 foizdan oshirish, sohada sog‘lom raqobat muhitini yaratish; respublikadagi kamida 10 ta oliy ta’lim muassasasini xalqaro e’tirof etilgan tashkilotlar (Quacquarelli Symondg Wotld University Ranking, Times Higher Education yoki Akademik Ranking of World Universites) reytingining birinchi 1000 ta o’rindagi oliy ta’lim muassasalari ro’yxatiga, shu jumladan, O‘zbekiston Milliy universiteti va Samarqand davlat universitetini birinchi 500 o’rindagi oliy ta’lim muassasalari ro’yxatiga kiritish, oliy ta’lim muassasalarining akademik mustaqilligini ta’minlash kabi qator muhim vazifalar belgilandi.

Shuningdek, Farmonda nodavlat-notijorat tashkilot shaklidagi Respublika oliy ta’lim Kengashini tuzish belgilandi. Kengash vazifalari sirasiga professor-o’qituvchilar, talabalar o’rtasida so’rovlar o’tkazish, jamoatchilik va ish beruvchining fikrini o’rganish hamda ilg’or xorijiy tajribalarni tahlil qilish orqali oliy ta’lim sifatini oshirish, o’quv dasturlarini takomillashtirish va zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqish, shuningdek, “ta’lim berishda yuqori sifatni ta’minlash yuzasidan ta’sirchan jamoatchilik nazoratini o’rnatish, bu borada ommaviy axborot vositalari va boshqa

fuqarolik jamiyati institutlari bilan yaqindan hamkorlik qilish” vazifasi kiritildi.

Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasining maqsadli ko’rsatkichlari quyidagilardan iborat:

- Xorijiy oliy ta’lim muassasalari dasturlari asosida o’qitish tashkil qilingan OTMLar soni 23 tadan 45 taga ko’payadi.

- O’quv va ilmiy adabiyotlarning elektron shaklini yaratish 20 foizdan 30 foizga oshiriladi.

- Magistratura mutaxassisligi bitiruvchilarini ilmiy faoliyatga yo’naltirish 15 foizdan 45 foizgacha ko’tariladi.

- Xorijda malaka oshirgan va stajirovka o’tagan professor-o’qituvchilarning ulushi 2 foizdan 20 foizgacha oshiriladi.

- Muhandislik – texnik ta’lim yo’nalishlarida tahsil olayotgan talabalar ulushi 20 foizdan 50 foizgacha ko’payadi.

- 2019-yil aholini oliy ta’lim bilan qamrab olish 20 foizni tashkil etgan bo’lsa, 2030-yilga borib 50 foizga oshadi.

- Nodavlat, shu jumladan, davlat-xususiy sheriklik shartlari asosida oliy ta’lim muassasalari soni 35 taga yetkaziladi.

- Kredit – moddiy tizim joriy etiladigan oliy ta’lim muassasalari soni ham 2 tadan 85 taga ko’payadi.

Shu o’rinda qayd etish kerakki, so’nggi yillarda ilmiy tadqiqot ishlarini rivojlantirish masalasiga ham katta e’tibor qaratildi. 2017–2019-yillarda 1693 nafar professor-o’qituvchi doktorlik dissertatsiyasini himoya qilishi natijasida oliy ta’lim muassasalarida ilmiy darajaga ega pedagog xodimlar soni 9636 taga yetdi, shu davr oralig’ida oliy o’quv yurtlarining 1611 nafar professor-o’qituvchisi xorijiy oliy ta’lim muassasalarida stajirovka o’tashi va malaka oshirishi ta’minlandi. Xalqaro hamkorlik doirasida xorijiy oliy ta’lim va ilmiy muassasalar magistratura mutaxassisliklariga 112 nafar, doktoranturasiga 51 nafar yoshlar ta’lim olishga yuborildi.

Yuqorida keltirilgan me’yoriy hujjatlarning amalga oshirilishi oliy ta’lim muassasalarining taraqqiyotida muhim ahamiyatga molik masaladir. Bu jarayonda oliy ta’lim muassasalarining real imkoniyatlaridan kelib chiqib, qabul kvotalarini mustaqil belgilash tizimini joriy etishga yo’l ochildi. Shu bilan birgalikda, bu oliy ta’lim olish istagidagi yoshlarimizga bir vaqtning o’zida bir necha oliy o’quv yurtlariga hujjat topshirish imkoniyatini ham yaratdi.

Fuqarolarimizning chet davlatlardagi OTMlardan O'zbekiston OTMlariga o'qitishni ko'chirish tizimi soddalashtirildi. 2019–2020-o'quv yilida o'qishni ko'chirishga yalpi ravishda ruxsat berildi. Natijada minglab talaba yoshlar respublika OTMlarida o'qishni davom ettirishga muvaffaq bo'ldilar.

Statistik ma'lumotlarga qaraganda, so'nggi yillarda respublikada 10 dan ortiq xalqaro oliy ta'lim muassasalari, jumladan, Samarqandda "Ipak yo'li" turizm xalqaro universiteti, Janubiy Koreyaning Puchon universiteti, Inxa universiteti filiali, AQSHning Vebster universiteti filiali, Turkiya davlat Iqtisodiyot va texnologiyalar universitetining Toshkent shahridagi filiali, Toshkent shahridagi "MEI" Milliy tadqiqot universiteti" Federal davlat budjeti oliy ta'lim muassasasi filiali, "MMFI" milliy tadqiqot yadro universiteti" federal davlat avtonom OTMning Toshkent filiali, Toshkent shahridagi Belarus-O'zbekiston qo'shma tarmoqlararo amaliy-texnik kvalifikatsiyalar institutlarining faoliyati yo'lga qo'yildi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 8-iyundagi PQ-4740-sonli qaroriga muvofiq Geologiya fanlari universiteti tashkil etildi.

Ta'lim sohasida xalqaro hamkorlikni amalga oshirish 2020-yil 24-sentabrda yangi tahrirda qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunda ham o'z aksini topgan bo'lib, ta'lim tashkilotlarining xalqaro hamkorligi masalasi va undagi vazifalari aniq belgilab berildi. Unga ko'ra ta'lim tashkilotlari quyidagilar vositasida tegishli xorijiy mamlakatlarning ta'lim muassasalari va tashkilotlari bilan xalqaro hamkorlikni amalga oshiradi:

ta'lim muammolari yuzasidan ilmiy-texnik hamkorlikni rivojlantirish;

qo'shma fakultetlar, o'quv markazlari va ilmiy laboratoriyalar tashkil etish;

xalqaro darajadagi birgalikdagi ta'lim hamda ilmiy-tadqiqot loyihalari va dasturlarini tayyorlash;

hamkorlikda fundamental hamda amaliy ilmiy-tadqiqot loyihalarini amalga oshirish;

ilmiy-amaliy seminarlar, konferensiyalar va simpoziumlar o'tkazish;

talabalar, magistrLAR, doktorantlar, o'qituvchilar va ilmiy xodimlar almashinishini amalga oshirish;

ikki tomonlama diplomlar (Double Diploma) dasturlarini joriy etish va qonunchilikka muvofiq boshqa tadbirlarni o'tkazishi mumkin.

Shuningdek, ta'lim tashkilotlari qonunchilikka muvofiq xorijiy davlatlarning ta'lim muassasalari va tashkilotlari bilan hamkorlikda kadrlar tayyorlashni amalga oshirishi mumkinligi belgilab qo'yildi.

Bundan tashqari mazkur Qonunda ta'lim sohasidagi xalqaro hamkorlik masalalari ham belgilab berilgan bo'lib, ta'lim sohasidagi xalqaro hamkorlik O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari va qonunchilikka muvofiq amalga oshirilishi belgilab qo'yildi. Qonunda ta'lim sohasidagi vakolatli davlat boshqaruvi organlari:

xorijiy davlatlarning tegishli vakolatli organlari, ta'lim muassasalari bilan hamkorlik qilishi;

O'zbekiston Respublikasida doimiy yashovchi fuqarolarni xorijiy davlatlarning ta'lim muassasalariga o'qish uchun yuborishi;

pedagog xodimlar va ta'lim oluvchilar almashinuvini amalga oshirishi;

rahbar hamda pedagog xodimlarning xorijiy davlatlarda tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishni tashkil etishi;

o'z xodimlari hamda mutaxassislarini xalqaro konferensiyalarga va stajirovkalarga yuborish, ularning xalqaro loyihalar hamda ilmiy tadqiqotlarda ishtirok etishini qo'llab-quvvatlashi va Ta'lim sohasidagi vakolatli davlat boshqaruvi organlari qonunchilikka muvofiq ta'lim sohasidagi xalqaro hamkorlikni rivojlantirish bo'yicha boshqa tadbirlarni ham amalga oshirishi mumkinligi belgilangan.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining xorijda ta'lim olishi masalasi o'z aksini topgan bo'lib, unga ko'ra O'zbekiston Respublikasida doimiy yashovchi fuqarolar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalariga muvofiq yoki yakka tartibda xorijda ta'lim olish huquqiga ega ekanligi qayd etib o'tilgan.

O'zbekiston oliy ta'lim muassasalarining xorijdagi nufuzli oliy ta'lim muassasalari bilan aloqasini kuchaytirish, chet el

investitsiyalarini ta'lim sohasiga jalb etishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Oliy ta'lim muassasalarining xalqaro hamkorligi ta'lim tizimini takomillashtirish va uni jahon andozalariga ko'tarish, malakali ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlash, xorijiy ta'lim muassasalari bilan o'zaro manfaatli aloqalar o'rnatish, professor-o'qituvchi, doktorant, magistrant va talabalarning til va kasbiy malakasini oshirish hamda ta'limning turli yo'nalishlari bo'yicha tajriba almashish maqsadida amalga oshirilmoqda.

AQSH, Janubiy Koreya, Rossiya Federatsiyasi hamda Yevropa mamlakatlarining yetakchi oliy o'quv yurtlarida malaka oshirishning tizimli asosi yaratildi. Shuningdek, so'nggi yillardagi yana bir yutuq xorijdagi vatandoshlarimiz ilmiy salohiyatidan unumli foydalanish masalasiga, iqtidorli xorijlik olimlarning O'zbekiston oliy ta'lim muassasalarida dars berishlariga e'tibor kuchaytirildi. Bu jarayonda ilm ahli va chet eldagi olimlar o'rtasida mustahkam ijodiy aloqalar o'rnatildi. "Umid", "Iste'dod" hamda "El-yurt umidi" fondlari tomonidan ilm-fan va ta'lim sohasi vakillariga xorijiy tajribani o'rganish imkoniyati yaratildi. Buning natijasida tabiat va texnika-texnologiya haqidagi fanlar ham jahon andozasi darajasiga ko'tarila boshladi. 1997-yilning dekabrda "Ustoz" jamg'armasi tashkil topdi. Ushbu jamg'armaning asosiy vazifasi professor-o'qituvchilar orasidan yuqori malakali pedagog-ustozlarni tayyorlashdan iborat bo'ldi. Bu jarayonni amalga oshirishda rivojlangan demokratik mamlakatlarda mavjud bo'lgan tajribalar o'rganildi va ular tatbiq etildi.

Davlatimiz rahbarining 2018-yil 25-sentabrdagi Farmoni bilan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida "El-yurt umidi" jamg'armasi tashkil etildi. Ushbu jamg'arma chet ellarda faoliyat ko'rsatayotgan salohiyatli olimlar, mutaxassislar va ekspertlarni O'zbekistonda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarga faol jalb etish tadbirlarini, shuningdek, iqtidorli yoshlarning rivojlangan mamlakatlarda ta'lim olish, yetakchi xalqaro institutlar hamda xorijiy tashkilotlarda malaka oshirish ishlarini jadallashtirmoqda.

Shu o'rinda alohida qayd etish lozimki, so'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi salohiyatini oshirishga ham katta e'tibor qaratildi. O'zbekiston Fanlar

akademiyasi tizimi takomillashtirildi, moddiy-texnik bazasi mustahkamlandi, uning tarkibida bir qator ilmiy tadqiqot institutlari va markazlar faoliyati qayta tiklandi. Ko'p yillik tanaffusdan so'ng Fanlar akademiyasiga saylov o'tkazilib, o'zining ilmiy ishlari bilan mamlakatimiz va xalqaro miqyosda nom qozongan iste'dodli olimlar akademik degan yuksak sharafiga sazovor bo'ldilar. Bu o'z o'rnida, fan, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasini yanada takomillashtirishda muhim ahamiyat kasb etdi. Chunki jahonning yetakchi universitetlari, ilmiy markazlari va fanlar akademiyalari bilan ilmiy hamkorlikni yanada mustahkamlashni zamonning o'zi talab etmoqda.

Respublikada so'nggi yillarda olimlarni qo'llab-quvvatlash, ilmiy tadqiqotlarni yangi bosqichga ko'tarish, ilm-u fanning iqtisodiyot tarmoqlaridagi ulushini oshirish maqsadida ilm-fan va ishlab chiqarish o'rtasidagi integratsiyani ta'minlash uchun zarur tizim yaratildi. Ilmiy tadqiqot muassasalari va olimlarning innovatsion g'oya va loyihalari qo'llab-quvvatlanib, qiymati 28,2 milliard so'mlik 31 ta startap loyiha moliyalashtirildi. Birgina xalqaro hamkorlik doirasida Germaniya, Rossiya, Belorussiyadagi hamkorlar bilan birgalikda 9,6 mlrd. so'mlik 38 ta qo'shma loyiha amalga oshirildi.

Umuman aytganda, mustaqillik yillarida mamlakatimizda uzluksiz ta'lim tizimini jahon talablari darajasiga ko'tarish doimo kun tartibida turdi. Oliy ta'lim sifatini, universitetlarning jahonning nufuzli universitetlari qatoridan joy olishi O'zbekistondagi oliy ta'lim oldiga qo'yilgan birlamchi talablardan bo'lib turgan bir vaqtda 2024-yilda Buyuk Britaniyaning nufuzli QS Quacquarelli Symonds xalqaro reyting agentligi dunyodagi eng yaxshi universitetlar reytingi – QS World University Rankings – 2025 natijalarini e'lon qildi. Reytingdan birinchi marta O'zbekistonning ikki oliy ta'lim muassasasi – Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti Milliy tadqiqot universiteti 547-o'rin hamda Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti 781–790-o'rin bilan munosib joy egalladi. Bu sohada olib borilayotgan islohotlarning amaliy ifodasi ekanligidan dalolat beradi.

Ilm-fan taraqqiyotining yangi bosqichi, yangi fan, ilm-tadqiqot, innovatsion yutuqlarni rag'batlantirish va ularni amaliyotga joriy etishning samarali mexanizmi yaratilmoqda. Ta'lim tuzilishini modernizatsiyalash, uni demokratlashtirish, kompyuterlashtirish va insonparvarlashtirish, ta'lim dasturini erkin tanlash, uzluksiz ta'lim tizimini rivojlantirish tobora kuchayib bormoqda. Ta'limni fundamentallashtirish, ma'naviy mas'ul shaxsni shakllantirish, bilishni emas, balki fikrlashni o'rgatish zarurligi yaqqol ko'zga tashlanmoqda. Zero, yosh avlodning har tomonlama kamol topishi uchun zamon ruhiga mos yangidan yangi qonun loyihalarini ishlab chiqish va ularni amaliyotga tatbiq etish bo'yicha innovatsion loyihalar ishlab chiqish, ta'lim tizimining barcha bosqichlarida sifat o'zgarishlariga erishish bo'yicha aniq chora-tadbirlar yanada kuchaytirilmoqda.

Tayanch so'zlar

Qonun, farmon, farmoyish, davlat dasturi, ta'lim, fan, dastur, o'quv reja, standart, oliy ta'lim, oliy o'quv yurti, jahon tajribasi, islohot, modernizatsiya, vazirlik, universitet, institut, kvota, konsepsiya, pedagog, imtiyoz, ilmiy tadqiqot.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar

1. XXI asr globalizatsiya bilan bog'liq holda oliy ta'limga qanday muhim vazifalarni qo'ymoqda?

2. "El-yurt umidi" fondi tomonidan ilm-fan, ta'lim namoyandalarning xorijiy tajribani o'rganishida nimalarga e'tibor qaratiladi?

3. O'zbekiston Respublikasida Maktabgacha ta'lim vazirligini tashkil etishdan ko'zlangan maqsad nima edi?

4. 2017-yilda ta'lim sohasiga yo'naltirilayotgan xarajatlar hajmi mamlakatimiz YAIM tarkibida qancha foizini tashkil etadi?

5. Mamlakatimizda aholining necha foizini 30 yoshgacha bo'lganlar tashkil qiladi?

6. O'zbekistonda bepul majburiy ta'lim necha yil?

7. Bilimli, iste'dodli va qobiliyatli yoshlarni rag'batlashtirish bo'yicha qanday ishlar bajarilgan va qanaqa imtiyozlar bor?

8. Yoshlarning xorijiy ta'lim muassasalarida ta'lim olishlari uchun qanday imkoniyatlar yaratilgan?

9. "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi"ning asosiy ustuvor yo'nalishlari.

10. O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi davlat dasturida nechta maqsad oliy ta'lim tizimiga tegishli?

11. Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qaysi moddalarida ta'lim tizimi o'z aksini topgan?

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. (Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023-y., 03/23/837/0241-son).

2. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risidagi" qonuni. (Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 24.09.2020-y., 03/20/637/1313-son; *Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi*, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son, 12.10.2021-y., 03/21/721/0952-son; 29.11.2023-y., 03/23/880/0905-son; 01.02.2024-y., 03/24/901/0082-son)

3. O'zbekiston Respublikasining "Pedagogning maqomi to'g'risida"gi Qonuni. (Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.02.2024-y., 03/24/901/0082-son)

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish to'g'risida"gi qarori. www.lex.uz.

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2019-yil 23-avgust kuni xalq ta'limi tizimini rivojlantirish, pedagoglarning malakasi va jamiyatdagi nufuzini oshirish, yosh avlod ma'naviyatini yuksaltirish masalalariga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishidagi ma'ruzasi. www.lex.uz.

6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-sonli "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni. www.lex.uz.

7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-sonli "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi

tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni. www.lex.uz.

8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi PQ-4312-son qaroriga ilova. O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi.

9. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2019-yil 24-maydagi O'zbekiston Milliy universitetida oliy ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasalari rahbarlari, akademiklar, olimlar, yosh tadqiqotchilar bilan uchrashuvdagi nutqi. za.uz/oz/documents/2019-2023-yillarda-mirzo-ulug'bek-nomidagi-O'zbekiston-milliy-u-18-06-2019.

10. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 28.01.2020. www.lex.uz.

11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022-yildagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60 son Farmoni.

12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 25-yanvardagi «Respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatini samarali yo'lga qo'yishga doir birinchi navbatdagi tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida»gi PF-14-son Farmoni

13. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 3-iyuldagi "Ma'muriy islohotlar doirasida oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 200-son qarori

14. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 02.02.2024-yildagi "Ta'lim sohasidagi islohotlarni jadallashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 54-son qarori.

15. O'zbekiston tarixi. R.H.Murtazayevaning umumiy tahriri ostida. –Toshkent, 2005.

16. O'zbekistonning eng yangi tarixi. Mualliflar jamoasi. – Toshkent, 2023.

Reja:

1. O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining asosiy ustuvor tamoyillari.
2. O'zbekiston Respublikasining BMTga a'zo bo'lishi hamda jahon hamjamiyatidagi o'rni hamda nufuzining ortib borishi.
3. O'zbekistonning Yevropa Ittifoqi mamlakatlari bilan istiqbolli hamkorligi.
4. O'zbekistonning Shanxay hamkorlik tashkiloti bilan aloqalari.
5. O'zbekistonning MDHdagi o'rni va Markaziy Osiyo davlatlari bilan o'zaro hamkorlik aloqalari.
6. O'zbekiston faol tashqi siyosatining yangi bosqichi.

1. O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining asosiy ustuvor tamoyillari

XX asrning oxirgi o'n yilligi insoniyat tarixiga buyuk o'zgarishlar davri bo'lib kirdi, chunki Yer yuzida vaziyat, kuchlar nisbati keskin o'zgarib, bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan SSSR va AQSH yetakchilik qilgan ikki ijtimoiy-siyosiy tuzum, ikki harbiy-siyosiy blok barham topdi. Sotsialistik tuzum yemirilishi bilvosita butun mamlakatlar taqdiriga ta'sir etdi. Dunyo yangilanishi jarayonida har bir davlat o'z taraqqiyot ko'lami bilan jahon hamjamiyatidan munosib o'rin olish uchun harakat boshladi. Shular qatori O'zbekiston ham jahon hamjamiyatidan munosib o'rin olish maqsadida o'zining ijtimoiy-siyosiy yangilanish dasturini ishlab chiqdi. O'zbekistonning o'z taraqqiyot istiqbollari uchun qulay jo'g'rofiy-siyosiy imkoniyatlarga ega ekanligi ham mustaqil tashqi siyosat yuritish, jahon hamjamiyatidan munosib o'rin olish uchun imkon berdi. Xususan, O'zbekistonning Markaziy Osiyo mintaqasidagi o'rni, bu hududda istiqomat qiladigan xalqlarning qadimdan hamfikir bo'lib kelgani Markaziy Osiyo mintaqasida tashqi siyosat yuritishda ijtimoiy zarurat hisoblanib kelinmoqda.

Ma'lumki, sobiq Ittifoq davrida O'zbekiston tashqi siyosatda boshqa davlatlar bilan to'g'ridan to'g'ri aloqa qilish imkonidan mahrum bo'lib, respublikaning o'rni faqat qog'ozlarda federatsiya

subyekti sifatida mustahkamlangan edi, xolos. O'zbekiston o'z imkoniyatlarini dunyo miqyosida ko'rsatishdan ajrab qolgan, xorij bilan xalqaro aloqalar faqat markazning ruxsati bilan amalga oshirilardi.

Istiqlolning dastlabki kunlaridan boshlab O'zbekistonda xalqaro tashkilotlarning faoliyatini o'rganish, xorijiy davlatlar bilan diplomatik, turistik aloqalarni yo'lga qo'yish va bu ishlarda faoliyat yuritish uchun yuqori malakali milliy kadrlar yetishtirish ehtiyoji kelib chiqdi. Shuni ta'kidlash kerakki, O'zbekiston bu ishlarni rejali tarzda amalga oshirdi.

"Xalqaro hamjamiyatning to'la huquqli a'zosi bo'lgan O'zbekiston Respublikasi xalqaro munosabatlarda mustaqil davlat, xalqaro huquq subyekti sifatida qatnashadi, uning maqsadlari mustahkam tinchlik, qurolsizlanish, o'z hududini qurol-yarog'lardan xoli qilish, yadroviy qurolni va boshqa ommaviy qirg'in qurollarini yo'qotish, suveren davlatlar o'rtasidagi nizo va ziddiyatlarni hal etishda kuch ishlatish va tazyiqqa yo'l qo'ymaslikdan iborat", – deb 1991-yil 31-avgustda Oliy Kengash VI sessiyasida qabul qilingan "Mustaqillik haqidagi Bayonot"da o'z tashqi siyosatining asosiy yo'lini belgilab olgan O'zbekiston Respublikasi 1992-yil 8-dekabrda qabul qilingan Konstitutsiyamizning 17-moddasida bu yo'lni qonun bilan mustahkamladi. O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining asosiy ustuvor tamoyillari quyidagilarni tashkil etadi:

- *milliy-davlat manfaatlarini ustun qo'ygan holda tashqi siyosatda davlatlarning suveren tengligini hisobga olish;*

- *umumbashariy qadriyatlarni ustun qo'ygan holda nizoli mojarolarni tinch yo'l bilan hal etish;*

- *tashqi siyosatdagi teng huquqlilik va o'zaro manfaatdorlikni o'rnatishda boshqa mamlakatlarning ichki ishlariga aralashmaslik;*

- *barcha tinchliksevar davlatlar bilan tashqi aloqalarni o'rnatishga intilish;*

- *xalqaro huquq normalarini tan olgan holda jahon hamjamiyatida xalqaro talablarga rioya qilish;*

- *tashqi siyosatda ko'p tomonlama aloqalarni o'rnatishda xalqaro tashkilotlar doirasida aloqalarni kengaytirish masalalari kiritildi.*

O'zbekiston Respublikasi butun jahon jamoatchiligi oldida xalqaro huquqning umumjahon e'tirof etgan normalariga sodiqligini Konstitutsiya darajasida ham mustahkamladi. Xalqaro huquqning tamoyillari va normalarining butun bu majmuyi Konstitutsiyaga BMT Ustavidan, Inson huquqlari umumiy deklaratsiyasidan va inson huquqlariga oid boshqa xalqaro huquq bitimlardan, Xelsinki bitimi, Parij va Madrid xartiyalariga asoslandi. Shuningdek, asosiy qonunga kiritilgan qonunlarni rivojlantirish maqsadida "Diplomatik munosabatlarni o'rganish tartibi", "O'zbekistonda xalqaro shartnomalarni tuzish, ijro etish va bekor qilish" haqida aktlar ham qabul qilindi. Ularda tashqi siyosatning har tomonlama asoslangan tamoyillari o'z aksini topdi.

Shu o'rinda aytib o'tmoq lozimki, bu tamoyillar yosh suveren davlatning asosiy tashqi siyosiy doktrinasini ifoda etish bilan birga davlatlararo munosabatlar yo'nalishlarining rivojlanishi va keng doiradagi tashqi muammolarni hal qilish imkonini berdi. Mamlakatimizni jahon xalqlari tinchligi va xavfsizligini mustahkamlashga qaratilgan tinchliksevar tashqi siyosati uning jahon miqyosida mustaqil davlat sifatida tezda tan olinishini ta'minladi.

So'nggi yillarda O'zbekiston tashqi siyosatda ancha faollashdi. Davlat rahbari, hukumat a'zolari va tashqi ishlar vaziri darajasida o'nlab xorijiy tashriflar amalga oshirildi, tashqi siyosatda yangi ittifoqchi, sherik va hamkorlar ko'paymoqda.

Xalqaro munosabatlarda ikki davlat o'rtasida bir-birini mavjudligini/mustaqilligini e'tirof etish yoki diplomatik munosabatlarning o'rnatilishi – de-fakto rasmiyatchilik. Munosabatlarning rivojlanish dinamikasi davlatlar hududida diplomatik vakolatxonalar (elchixona, konsullik) ochilishi, siyosiy va boshqa sohalarida hamkorlik, shuningdek, o'zaro savdning o'sishi bilan belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasi o'zining tashqi siyosatdagi yo'nalishlarini demokratik prinsiplarga asoslangan holda olib borar ekan, 1991-yil dekabrda 1992-yil iyul oyigacha bo'lgan davr ichida respublikani 111 davlat, 2015-yilga qadar esa O'zbekiston mustaqilligini 180 dan ortiq davlat tan oldi. 2018-yilga kelib O'zbekiston bilan diplomatik aloqalar o'rnatgan mamlakatlar 134

ta, 2021-yilda 138 tani tashkil etgan bo'lsa, 2024-yil may holatiga ko'ra O'zbekiston Respublikasi BMTga a'zo 149 davlat bilan diplomatik, siyosiy, iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy va madaniy aloqalar o'rnatdi. O'tgan qisqa davrda xususan, 2021-yilning mayida Dominika O'zbekiston diplomatik aloqalar o'rnatgan 137-, Panama 138-, 2022-yil 9-martida Sent-Kits va Nevis Federatsiyasi 139-, 2022-yil 10-may kuni Sent-Vinsent va Grenadin orollari O'zbekiston bilan diplomatik munosabatlar o'rnatgan 140-mamlakat bo'lgandi.

2022-yil iyunda esa 141-mamlakat Antigua va Barbuda bilan diplomatik munosabatlar o'rnatilgan. O'sha yilning noyabrida Gayana Kooperativ Respublikasi O'zbekiston bilan diplomatik munosabatlar o'rnatgan 142-davlat bo'lgandi. 2023-yil 28-aprelda Syerra-Leone Respublikasi O'zbekiston bilan diplomatik munosabatlar o'rnatgan 143-davlatga aylandi. 2023-yil 15-iyunda Trinidad va Tobago Respublikasi O'zbekiston bilan diplomatik aloqalar o'rnatgan 144-davlat bo'ldi. Uganda O'zbekiston bilan diplomatik aloqalar o'rnatgan 145-davlat bo'ldi. 2024-yil 18-yanvar kuni Kampala shahrida (Uganda) O'zbekiston va Uganda o'rtasida diplomatik munosabatlar o'rnatish to'g'risida Qo'shma kommyunike imzolandi. 2024-yil 5-martda Lixtenshteyn O'zbekiston bilan diplomatik aloqalar o'rnatgan 146-davlat, 2024-yil 7-martda Markaziy Amerikada joylashgan Beliz O'zbekiston bilan diplomatik aloqalar o'rnatgan 147-davlat bo'ldi. 2024-yil 14-martda G'arbiy Afrikadagi Gambia davlati O'zbekiston bilan diplomatik aloqalar o'rnatgan 148-davlat bo'ldi. Hukumatlar nomidan tegishli kommyunike ikki davlatning BMTdagi doimiy vakillari tomonidan Nyu-Yorkda imzolandi. 2024-yil 2-may kuni Sharqiy Afrikada joylashgan Jibuti O'zbekiston bilan diplomatik aloqalar o'rnatgan 149-davlat bo'ldi.

Mustaqillik yillarida Toshkentda AQSH, Turkiya, Germaniya, Fransiya, Buyuk Britaniya, Xitoy, Hindiston, Pokiston va boshqa rivojlangan mamlakatlarning elchixonalari ochildi. Rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekistonning xorijiy mamlakatlarda 59 ta diplomatik va konsullik muassasasi bor. O'zbekistonda esa 47 ta xorijiy davlatning elchixonasi (eng oxirgilari – 2023-yilda ochilgan Qatar, 2024-yilda ochilgan Mo'g'uliston elchixonalari), 3 ta bosh

konsullik muassasasi va o'ndan ortiq xalqaro tashkilotlarning vakolatxonalari faoliyat olib boradi.

Mustaqil O'zbekiston tashqi siyosatining asosini ochiq-oydinlik, teng huquqlik, demokratik prinsiplariga sodiqlik, umuminsoniy qadriyatlarini ulug'lash, respublika ijtimoiy hayotidagi demokratik jarayonga ta'sir qilish kabilar tashkil etadi va Respublika tashqi siyosati tinchlik va xavfsizlik uchun umumjahon e'tirof etgan ochiq, yakdillik talablariga asoslanadi.

So'nggi yillarda O'zbekiston barcha xorijiy hamkorlar bilan o'zaro foydali munosabatlarni rivojlantirishdan manfaatdor bo'lib, asosiy tashqi siyosiy harakatlarini 2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha **Harakatlar strategiyasi, 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi, 2023-yil 30-aprel kuni o'tkazilgan O'zbekiston Respublikasi referendumida umumxalq ovoz berish orqali qabul qilingan yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida** belgilangan eng muhim sohalarga qaratgan.



“U'ZBEKISTON - 2030” STRATEGIYASINING USTUVOR YUNALISHLARI

- 1. KADRLAR VA HUKUMAT TASHKILOTLARINING
FAOLIYATINI QAYTA TASHKIL ETISH
- 2. TASHKILOTLARINING FAOLIYATINI
QAYTA TASHKIL ETISH
- 3. O'ZBEKISTONNING TASHKILOT
FAOLIYATINI QAYTA TASHKIL ETISH
- 4. KADRLAR VA HUKUMAT TASHKILOTLARINING
FAOLIYATINI QAYTA TASHKIL ETISH
- 5. KADRLAR VA HUKUMAT TASHKILOTLARINING
FAOLIYATINI QAYTA TASHKIL ETISH

44 YR
KADRLAR

37 YR
KADRLAR

32 YR
KADRLAR

25 YR
KADRLAR

11 YR
KADRLAR



Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamiz milliy davlatchilik taraqqiyotining hozirgi muhim tarixiy bosqichida davlat va

jamiyatni yanada rivojlantirish, jumladan, tashqi va tashqi iqtisodiy siyosat borasidagi ustuvor yo'nalishlarni belgilab bergan bo'lsa. 2023-yilda qabul qilingan **“O‘zbekiston – 2030” strategiyasi** uni amalga oshirishning siyosiy-huquqiy asoslarini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Bunda mamlakatimizning suveren davlat sifatidagi maqomini yanada kuchaytirish, yangi sinov va tahdidlar sharoitida milliy manfaatlar ustuvorligini ta'minlash, xalq va davlat ravnaqiga xizmat qiluvchi tashqi siyosatni izchil davom ettirish uchun quyidagi masalalarga alohida ahamiyat qaratish lozim.

Birinchidan, O‘zbekistonning tinchliksevar tashqi siyosatini amalga oshirishini qonuniy mustahkamlash zarur. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasining tashqi siyosiy faoliyati konsepsiyasiga asosan mamlakatimizning jahon hamjamiyati, ayniqsa, qo‘shni davlatlar bilan do‘stona munosabatlarini “davlatlarning hududiy yaxlitligi” va “tinchliksevar tashqi siyosat” tamoyillariga mos ravishda rivojlantirishga doir konstitutsiyaviy normalarni hayotga tatbiq etishga qaratilgan qonun loyihasini ishlab chiqish zarur.

Ikkinchidan, suveren davlat prinsipini amalga oshirish konsepsiyasini ishlab chiqish lozim. Ushbu konsepsiya suveren davlat maqomining huquqiy asoslarini kuchaytirish, yangi sinov va tahdidlar sharoitida milliy manfaatlar ustuvorligini ta'minlash, o‘zaro ishonch va hamkorlikka asoslangan tashqi siyosatni davom ettirish masalalarini qamrab olish va tegishli amaliy choralar ko‘rishni nazarda tutishi muhim ahamiyatga ega.

Uchinchidan, O‘zbekistonning tashqi siyosiy faoliyatini tartibga solishning zamonaviy mexanizmlarini joriy etish zarur. Bunda mamlakatimizning xalqaro shartnomalari bilan bog‘liq munosabatlarni tartibga solish tizimi va diplomatik xizmat faoliyatini takomillashtirish talab etiladi. Shuningdek, xorijiy davlatlar va xalqaro tashkilotlar bilan ikki va ko‘p tomonlama aloqalarimizning shartnomaviy-huquqiy asoslarini zamon talablari asosida yanada kuchaytirish lozim.

To‘rtinchidan, xorijda yashayotgan vatandoshlar bilan aloqalarni saqlab qolish va yanada rivojlantirishning ham ahamiyati katta. Bu borada ularning O‘zbekiston manfaatlarini ilgari surish,

milliy iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va chet davlatlar bilan o'zaro foydali aloqalarni kuchaytirish borasidagi salohiyatini ishga solish choralariga e'tibor qaratish zarur. Umuman, Yangi O'zbekistonning yangi tashqi siyosati global miqyosda shiddatli o'zgarishlar yuz berayotgan, xalqaro maydonda kuchlarning yangi nisbati shakllanayotgan hozirgi zamonda nafaqat yurtimiz, balki mintaqamiz va jahonda ham tinchlik va osoyishtalikni mustahkamlash, barqaror rivojlanishni ta'minlashga xizmat qilib kelmoqda.

Mazkur hujjatlar mamlakatning tashqi siyosat sohasida quyidagi eng muhim ustuvor yo'nalishlarini shakllantiradi:

- davlat mustaqilligi va suverenitetini mustahkamlash, mamlakatning xalqaro munosabatlarning to'laonli subyeksi sifatida o'zini va rolini yanada mustahkamlash, rivojlangan demokratik davlatlar qatoriga kirish, O'zbekiston atrofida xavfsizlik, barqarorlik va do'stona qo'shnichilik munosabatlari mintaqasini yaratish;

- O'zbekiston Respublikasining xalqaro nufuzini mustahkamlash, dunyo hamjamiyatiga mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlar to'g'risida obyektiv axborotni yetkazish;

- O'zbekiston tashqi siyosiy va tashqi iqtisodiy faoliyatining me'yoriy-huquqiy bazasini, shuningdek, xalqaro hamkorlikning shartnoma-huquqiy asoslarini takomillashtirish;

- O'zbekiston davlat chegarasini delimitatsiya va demarkatsiya qilish masalalarini tartibga solish.

Umuman, O'zbekistonning tashqi siyosat sohasidagi ustuvor yo'nalishlari barqaror, adolatli va demokratik davlat qurishga, mamlakatning tashqi oshkoraligini ilgari surishga hamda regional va ko'p tomonlama o'zaro hamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan.

Mamlakat hozirgi tashqi siyosiy faoliyatining ustuvor yo'nalishlari yuqoridagi hujjatlarda ko'rsatilgan vazifalar doirasida bo'lib, xalqaro maydonda aloqalarni kengaytirishga yangi yondashuvlarni ishlab chiqish bo'yicha amaliy qadamlarda o'z aksini topmoqda.

Shu munosabat bilan Turkiya, Hindiston, Xitoy, Yaponiya, Germaniya, Fransiya, Afg'oniston, Qozog'iston, Turkmaniston kabi dunyo mamlakatlari bilan ko'p qirrali hamkorlikni yanada

rivojlantirishga doir bir qator tegishli dasturiy hujjatlar ishlab chiqilgan va qabul qilingan, "yo'l xaritalari" tasdiqlangan.

Oliy va yuqori darajalardagi tashriflar davomida mamlakatning milliy manfaatlariga javob beradigan hamda yaqin va uzoq xorijiy davlatlar bilan aloqalarni kengaytirishga qaratilgan faol, ochiq, pragmatik va chuqur o'ylangan tashqi siyosiy yo'nalishni rivojlantirish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

Tabiiyki, yangi ustuvor yo'nalishlar va yondashuvlar tashqi siyosiy boshqarma tuzilishining tubdan isloh qilinishini talab etdi. Tashqi ishlar vazirligida yangi bo'linmalar tashkil etildi, Belarus va O'monda vakolatxonalar, Rossiya va Qozog'istondagi shaharlarda bir qator bosh konsulliklar ochildi. Diplomatik faoliyatning iqtisodiy tarkibi kuchaytirildi.

Xalqaro maydondagi hamkorlik ilg'or dunyo tajribasini o'rganish, xorijiy mamlakatlar bilan aloqalarni yo'lga qo'yish orqali O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha vazifalarni hal qilishga yordam berishi kerak, bu mamlakatda maksimal qulay amaliy va investitsion muhitni shakllantirishga o'z hissasini qo'shadi.

Bu borada Respublika tashqi siyosiy strategiyasi xorijiy mamlakatlar bilan savdo-iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish, xorijiy investitsiyalarni, ilg'or texnologiyalarni ishlab chiqarishga jalb etish, mahalliy eksport geografiyasini kengaytirish sohasida yangi qirralarni ochdi.

O'zbekistonning tashqi siyosat sohasidagi muhim ustuvor yo'nalishi dunyoning yetakchi davlatlari va xalqaro tashkilotlari bilan strategik sheriklik hamda hamkorlikning muvozanatlangan tizimini shakllantirishdan iborat. Bunday yondashuv iqtisodiyotni modernizatsiyalash, barqarorlik va xavfsizlikni qo'llab-quvvatlash, Markaziy Osiyoda hamkorlik uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish vazifalarining samarali hal qilinishini ta'minlashga qaratilgan.

Bugungi kunga kelib O'zbekiston Respublikasi milliy xavfsizligining tub manfaatlaridan kelib chiqqan holda uning tashqi siyosat sohasidagi sa'y-harakatlarining asosiy maqsadi davlat mustaqilligini mustahkamlashdan, mamlakatning xalqaro jabhada milliy manfaatlarini ilgari surishdan, O'zbekiston fuqarolari va

yuridik shaxslarning haq-huquqlarini himoya qilishdan, tashqi iqtisodiy hamkorlikni kengaytirishdan, O'zbekiston tevaragida xavfsizlik, barqarorlik va yaxshi qo'shniçilik makonini yaratishdan iboratdir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tashabbusi bilan amalga oshirilgan islohotlar natijasida vatanimizning tashqi siyosatini shakllantirish va amalga oshirish borasida ulkan ishlar amalga oshirildi.

O'zbekiston Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev rahbarligida mamlakatning yangilangan tashqi siyosati ochiq, do'stona va pragmatik tamoyillarga asoslangan. Xususan, O'zbekiston barcha xorijiy mamlakatlar bilan munosabatlari va jahon hamjamiyati bilan samarali hamkorligi xalqimiz va yurtimiz manfaatlaridan kelib chiqib belgilangan.

2. O'zbekiston Respublikasining BMTga a'zo bo'lishi hamda jahon hamjamiyatidagi o'rni va nufuzining ortib borishi



BMT xalqaro tinçlik va xavfsizlikni mustahkamlashga, davlatlar o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantirishga yo'naltirilgan, davlatlar xalqaro hayoti va hamkorligining barcha yo'nalishlarida faoliyat ko'rsatadigan betakror, tarixan muhim va universal tashkilotdir. 1992-yil 2-martda O'zbekiston xalqaro munosabatlarning to'la huquqli subyekti sifatida Birlashgan Millatlar Tashkilotiga a'zo bo'lib dunyo miqyosida tan olindi. Bu voqea Respublikaning mustaqil davlat sifatida xalqaro hamjamiyatda munosib o'rin olishida ham katta ahamiyatga ega bo'ldi. 1993-yil fevral oyiga kelib Toshkentda BMT vakolatxonasi ochildi. Xolid Malik BMTning O'zbekistondagi vakili etib tayinlandi.

ma'ruzasida O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning ilgari surgan birinchi xalqaro tashabbusi O'zbekistonning xalqaro miqyosdagi adolatparvar siyosatidan darak berdi.



O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimov
1995-yil BMTning ellik yilligi munosabati bilan Bosh
Assambleyaning maxsus tantanali yig'ilishida so'zlagan nutqida

ham asosiy e'tiborni bu tashkilotning faoliyatini yanada kengaytirish bilan bir qatorda yana mintaqaviy xavfsizlik va barqarorlik, ekstremizm, terrorizm, narkobiznesga qarshi kurash masalalariga qaratdi. Prezident muayyan "olovli nuqtalar" deb atalayotgan mintaqalarda birgalashib harakat qilib, tinchlik va barqarorlikka erishish lozimligi haqidagi aniq takliflarni kiritdi va O'zbekiston "ommaviy qirg'in qurollarini tarqatmaslikni ta'minlash bo'yicha kerakli xalqaro kafolatlarni qabul qilishni, yadro sinovlarini butunlay to'xtatish haqidagi shartnomaning tezda tuzilishi tarafdori" ekanligini ham ko'rsatib o'tdi.

Ushbu yig'ilishda Orol dengizi qurishi bilan bog'liq bo'lgan global muammo ham ko'tarildi. O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimov "Orol dengizining qurishi bilan bog'liq ekologik fojia, butun yer yuzini qamrab oladigan biosfera, o'nlab million kishilarning hayot sharoitlari, salomatligi, nasliga halokatli ta'sir ko'rsatuvchi global muammo" ekanligini ko'rsatib, bugungi kunda BMTning tashkilotchilik faoliyatisiz bu muammoni hal etish mumkin emasligini ham asoslab berdi.

1995-yil 16-sentabrda Toshkentda BMTning Markaziy Osiyoda xavfsizlik va hamkorlik masalalariga bag'ishlangan seminar-kengashi ish boshladi. Dunyoning ko'p davlatlari ishtirok etgan bu seminarda O'zbekiston rahbarining so'zlagan nutqi bosh hujjat sifatida qabul qilindi.



Xalqaro munosabatlar ravnaqi mamlakatimizda xavfsizlik va barqarorlikning, aholi turmush darajasini yuksaltirishning o'ziga xos kafolati ekanligi hech kimga sir emas. Shu bois ham O'zbekiston rahbariyatining

tashqi siyosatda mintaqaviy barqarorlikni saqlab qolish maqsadida ilgari surgan tashabbuslari ko'pgina davlatlar va BMT tomonidan doimo tasdiqlanib kelindi. BMT Bosh Assambleyasining sessiyalarida, Yevropada Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkiloti sammitidagi yig'ilishlarda O'zbekiston Prezidentining kiritgan aniq

tashabbuslari, mintaqa xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan taklifi, BMT boshchiligidagi "6+2" guruhining tuzilishiga asos bo'lgan edi (O'zbekiston, XXR, Rossiya, Eron, Pokiston, Tojikiston, kuzatuvchi sifatida BMT, Birlashgan front va "Tolibon" harakati). Ushbu guruhning 1999-yil iyul oyida Toshkentda o'tkazgan uchrashuvi muhim xalqaro voqea bo'ldiki, bu uchrashuv mintaqaning o'zida bo'lib o'tdi. Uchrashuvning yakuni sifatida 19-iyul kuni "Afg'onistondagi mojarolarni tinch yo'l bilan hal qilishning asosiy prinsiplari to'g'risidagi" tarixiy hujjat imzolandi. Ushbu hujjat BMTning rasmiy hujjati sifatida tarqatildi.

Ma'lumki, BMT tomonidan 2015–2030-yillarda Barqaror rivojlanish maqsadlari e'lon qilingan bo'lib, u insoniyatni himoya qilish va uning farovonligini oshirishga qaratilgan. Ushbu maqsadlarni mamlakatimiz hayotiga tatbiq etishning aniq strategiyasi belgilab olingani e'tiborga molik. Chunonchi, 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasida mamlakatimizning BMT organlari va institutlari, global va mintaqaviy iqtisodiy, moliyaviy va gumanitar tashkilotlardagi faoliyatini kuchaytirish (96-maqsad) vazifasi qo'yilgan bo'lib, unda bir qator ustuvor yo'nalishlar belgilab olingan.



2017-yilda Shavkat Mirziyoyevning ilk bor O'zbekiston Respublikasi Prezidenti sifatida BMT Bosh assambleyasining 72-sessiyasida nutq so'zladi. Mazkur nutq O'zbekistondagi islohotlar, demokratiya, inson huquqlari, xalqaro xavfsizlik, mintaqaviy hamkorlik,

ekologiya va umuman, 2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini amalga oshirish masalalarini qamrab oldi va BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlari bilan hamohang bo'ldi.

Shuningdek, Prezident o'z nutqida Afg'onistonda tinchlik o'rnatish, Orol fojiasi, yoshlar ta'lim-tarbiyasi, ma'rifat, diniy bag'rikenglik masalalariga alohida to'xtaldi. Prezident Sh.M.Mirziyoyev tomonidan "Ma'rifat va diniy bag'rikenglik" tamoyilini xalqaro tashkilot tomonidan qabul qilinishi to'g'risidagi taklif davlat rahbarlari va delegatsiyalari o'rtasida yuksak e'tirofga sazovor bo'ldi. Ushbu tamoyil 50 dan ziyod davlatning qo'llab-quvvatlashi natijasida 2018-yil 12-dekabr kuni BMT tomonidan qabul qilindi. BMT Bosh kotibi A.Guterrish bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2017-yil 10-iyunda Samarqand shahridagi uchrashuvi va keyingi bir qator uchrashuvlar xalqaro nufuzli tashkilotning O'zbekistonning jahonda tinchlik va barqarorlik, hamjihatlik va hamkorlik aloqalarini rivojlantirishdagi sa'y-harakatiga berilgan yuqori bahosidan darak beradi.

BMT Bosh assambleyasining 72-sessiyasida ko'tarilgan masalalarning yechimini topish amaliy jihatdan qo'llab-quvvatlanib, bu jarayon 2017-yil 4-6-dekabr kunlari Afg'oniston Prezidentining mamlakatimizga qilgan rasmiy tashrifi doirasida o'z aksini topdi. Muzokaralar yakuni bo'yicha siyosiy, savdo-iqtisodiy va madaniy-gumanitar sohalarga oid qator hujjatlar imzolandi. O'zbekiston tomoni Afg'onistonda tinchlik va barqarorlikni o'rnatish yo'lida e'tiborga molik tashabbuslar bilan chiqdi. Xususan, Prezident Sh.M.Mirziyoyev tashabbusi bilan 2018-yilning 26-27-mart kunlari "Tinchlik jarayoni, xavfsizlik sohasida hamkorlik va mintaqaviy sheriklik" mavzusida Afg'oniston bo'yicha yuqori darajadagi Toshkent xalqaro konferensiyasi bo'lib o'tdi. Ushbu anjumanda 20 dan ortiq davlatlar, nufuzli xalqaro tashkilotlar delegatsiyalari ishtirok etdi. So'nggi yillarda Markaziy Osiyoni Hind okeani bilan bog'laydigan Trans-afg'on transport yo'lagini barpo etish borasida dastlabki amaliy qadamlar tashlandi. Bu loyihaning ro'yobga chiqarilishi butun mintaqada barqarorlik va iqtisodiy o'sishni ta'minlashga beqiyos xizmat qiladi.

2018-yil 12-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tashabbusi bilan BMT Bosh Assambleyasining maxsus "Ma'rifiy va diniy bag'rikenglik" rezolutsiyasi qabul qilindi.

Uning asosiy maqsadi barchaning ta'lim olish huquqini ta'minlash, savodsizlik va jaholatga barham berish hamda

jamiyatda bag'rikenglik va o'zaro hurmatni qaror toptirish, diniy erkinlikni ta'minlash, e'tiqod qiluvchilarning huquqini himoya qilish, ularning kamsitilishiga yo'l qo'ymaslikka ko'maklashishga qaratilgan.

O'zbekiston Prezidentining 2017-yil sentabr oyida Nyu-York shahrida bo'lib o'tgan BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida Davlat rahbari tomonidan ilgari surilgan barcha tashabbuslar jahon hamjamiyati tomonidan keng qo'llab-quvvatlanib, amaliyotga tatbiq etilmoqda.

Jumladan, Shavkat Mirziyoyevning 6 ta g'oyasidan 5 tasi hozirga qadar amalga oshganini ko'rish mumkin:

1. 2018-yilda BMT Bosh Assambleyasining "Markaziy Osiyo mintaqasida tinchlik, barqarorlik va izchil taraqqiyotni ta'minlash bo'yicha mintaqaviy va xalqaro hamkorlikni mustahkamlash" deb nomlangan **rezolutsiyasi**.

2. 2018-yilda BMT Bosh Assambleyasining "Ma'rifat va diniy bag'rikenglik" to'g'risidagi rezolutsiyasi.

3. "Markaziy Osiyoda barqaror turizm va barqaror rivojlanish" rezolutsiyalari qabul qilindi.

4. Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining **maslahat uchrashuvlari** yo'lga qo'yildi.

5. Orolbo'yi mintaqasi uchun inson xavfsizligi bo'yicha ko'p sheriklik asosidagi **Trast fondi** tashkil qilindi.

Shunday qilib, mamlakatimizning BMT va uning ixtisoslashgan tashkilotlari bilan hozirgi kundagi hamkorligini quyidagi yo'nalishlarda ko'rish mumkin:

– *inson huquqlarini ta'minlash (majburiy mehnatni bekor qilish, ozodlikdan mahrum etish joylarida saqlanayotgan shaxslarning, tergovdagi shaxslarning huquq va erkinliklarini, bola huquqlarini ta'minlash, odil sudlovni kafolatlash, qonun ustuvorligini ta'minlash);*

– *ekologik muammolarning yechimini topish (Orol bo'yi mintaqasini rivojlantirish, sanoatda zamonaviy texnologiyalarni qo'llash, energiya resurslaridan oqilona foydalanish, Orol dengizi qurishining oldini olish);*

– *gender tenglikni ta'minlash masalalari;*

– *mintaqaviy xavfsizlik masalalari (diniy ekstremizm va terrorizm, odam savdosiga qarshi kurash, Afgʻonistonda tinchlikni taʼminlash, giyohvand moddalarning noqonuniy aylanishining oldini olish va boshqalar);*

– *shuningdek, dolzarb ahamiyatga ega boshqa ijtimoiy-iqtisodiy masalalar.*

2020-yil BMT Bosh Assambleyasining 75-sessiyasi markaziy tadbirlari jahonda vujudga kelgan epidemiologik vaziyat munosabati bilan BMT tarixida ilk bor videoanjuman shaklida boʻlib oʻtdi. Unda Oʻzbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tarixda birinchi marta ***oʻzbek tilida*** nutq soʻzlatdi. Yubiley sessiyada davlat rahbari mintaq va global miqyosda tinchlik va barqarorlikni mustahkamlash, barqaror taraqqiyot, inson huquq va erkinliklarini taʼminlash kabi masalalarda oʻz tashabbuslarini ilgari surdi. Shavkat Mirziyoyev BMT shafeligida Pandemiya davrida davlatlarning ixtiyoriy majburiyatlari toʻgʻrisidagi xalqaro kodeksni ishlab chiqishni taklif etdi. Ushbu hujjatda har bir davlatning oʻz fuqarolari va xalqaro hamkorlari oldidagi majburiyatlari aks etishi lozim.

Taʼkidlash joizki, 2020-yil 13-oktabr kuni BMT Bosh Assambleyasi sessiyasida Oʻzbekiston milliy davlatchiligimiz tarixida ilk bor BMTning Inson huquqlari boʻyicha kengashi aʼzoligiga uch yil muddatga – 2021–2023-yillarga saylanishi va aʼzo sifatida Kengashning dastlabki uchrashuvida birinchi marta ishtirok etishi olamshumul va tarixiy voqelikdir.



2023-yil 19-sentabrda BMT Bosh Assambleyasi 78-sessiyasida Oʻzbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev oʻz nutqida hamjihatlik va amaliy hamkorlik ruhini saqlash, umumiy manfaatlarni mavjud ziddiyatlardan yuqori qoʻygan holda mamlakatlarni jipslashtirish zarurligini qayd etdi. *“Biz oʻtgan yili umumiy*

xavfsizlik va taraqqiyotga qaratilgan “Samarqand birdamlik

tashabbusi”ni ilgari surdik. Asosiy maqsadimiz mamlikatlarimiz va xalqlarimizning bugungi kuni va istiqboli uchun mas’uliyatni har tomonlama chuqur anglash, ochiq va konstruktiv hamkorlikka tayyor barcha tomonlarni global muloqotga jalb qilishdan iborat”, – dedi O‘zbekiston yetakchisi.

“Samarqand birdamlik tashabbusi O‘zbekiston rahbariyati tomonidan ilgari surilayotgan xalq diplomatiyasining yangi muloqot maydonidir. U o‘z ichiga global xavfsizlikdan tortib madaniy hamkorliklarga barcha jabhalarni qamrab oladi. Tashabbus ayni paytdagi dunyoni yakdil va birdamlikka, barqaror rivojlanishga chorlaydi”.

Ushbu tashabbusning maqsadi – bizning umumiy kelajagimizga befarq bo‘lmagan, ixtiloflarga qaramasdan kelishilgan yondashuvlar va qarorlarni izlashga tayyor, “Samarqand ruhi” tamoyillariga hamfikir bo‘lganlarning barchasini global sivilizatsiyalararo muloqotga jalb qilishdir”.

Samarqand birdamlik tashabbusi ayni paytda xalqaro hamkorlikni yo‘lga qo‘yish, barcha manfaatdor davlatlarni sivilizatsiyalararo global muloqotga jalb etish, kelishilgan yondashuv va yechimlarni izlash, ishonchni mustahkamlash, global keskinlik, noaniqlik va oldindan aytib bo‘lmaydigan holatlarni bartaraf etishdan iborat.

O‘zaro hamkorlikning ushbu formati dunyo davlatlari va xalqlarining madaniy, sivilizatsiyaviy, millatlararo, dinlararo o‘zaro munosabatlarni rivojlantirish orqali mavjud qarama-qarshilik va kelishmovchiliklarni yumshatish bo‘yicha sa’y-harakatlarini birlashtirishga qaratilgan.

Shu bois ham, O‘zbekiston tomonidan ilgari surilayotgan Samarqand birdamlik tashabbusi dunyoda xavfli muammolar girdobidan chiqishning yakkayu-yagona yo‘li – konstruktiv muloqot va har bir tarafning manfaatlarini hisobga olish va hurmat qilishga asoslangan ko‘p tomonlama hamkorlikdan iborat g‘oyani o‘zida mujassam etishi bilan global hamkorlikning yangi platformasi deyish mumkin.

Shunday qilib, Prezidentimiz Bosh Assambleyaning 78-sessiyasidagi tarixiy nutqida ham zamonamizning dolzarb

muammolari, ularni yechishga qaratilgan aniq takliflarni ilgari surdi.

Birinchidan, O'zbekiston BMT Bosh kotibi tomonidan ilgari surilgan "Ish o'rinlarini yaratish va ijtimoiy himoya global akseleratori" borasidagi tashabbusni qo'llab-quvvatlaydi.

Ikkinchidan, majburiy va bolalar mehnatiga qarshi kurashni butun dunyo miqyosida kuchaytirishga chaqirdi.

Uchinchidan, Birlashgan Millatlar Tashkiloti huzurida Markaziy Osiyo yoshlarini rivojlantirishga ko'maklashish bo'yicha ishchi guruh tashkil etish, uning doirasida "Markaziy Osiyo yoshlarining kun tartibi – 2030" dasturini ishlab chiqish taklif etildi.

To'rtinchidan, 2024-yili O'zbekistonda Osiyo xotin-qizlari forumini o'tkazish taklif etildi.

Beshinchidan, davlatimiz rahbari o'z nutqida Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibining Suv resurslari bo'yicha maxsus vakili lavozimi ta'sis etilishini qo'llab-quvvatlashini ma'lum qildi.

Bugungi kunda O'zbekiston va BMT o'rtasidagi aloqalar shu zaylda shiddat bilan rivojlanib bormoqda. 2024-yil 1-iyul kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Ko'ksaroy qarorgohida Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibi Antoniu Guterrish bilan uchrashuv o'tkazdi. Shuni alohida ta'kidlash joizki, bugungi kunda hamkorlikda 140 ta qo'shma dastur va loyihalar muvaffaqiyatli amalga oshirilmoqda. Keyingi yillarning o'zida O'zbekiston tashabbusi bilan BMT Bosh Assambleyasining 10 ta maxsus rezolutsiyasi qabul qilindi.



O'zbekistonning milliy manfaatlariga mos keladigan puxta tashqi siyosatida jahon hamjamiyatiga qo'shilish, xorijiy mamlakatlar bilan siyosiy, diplomatik, iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy, madaniy aloqalar o'rnatish masalalari dolzarb vazifalar qatoriga kirdi. Shu bois O'zbekiston jahon iqtisodiyotida integratsiyalashish yo'lidan borib, Jahon banki, Xalqaro Valuta fondi, Xalqaro moliya korporatsiyasi, Iqtisodiy taraqqiyotga ko'maklashuv tashkiloti va boshqa moliyaviy-iqtisodiy tashkilotlarga a'zo bo'lib kirdi va ular bilan hamkorlikni yo'lga qo'yib oldi. Shu bilan birga O'zbekiston

BMT doirasidagi ixtisoslashgan muassasalar – Jahon sogʻliqni saqlash tashkiloti, Xalqaro Mehnat tashkiloti, Jahon intellektual mulk tashkiloti, BMTning bolalar fondi, Xalqaro pochta ittifoqi, Elektr aloqasi boʻyicha xalqaro ittifoq, Jahon meteorologiya tashkiloti, Xalqaro olimpiada qoʻmitasi, Xalqaro avtomobilchilar ittifoqi va boshqa tashkilotlar bilan oʻzaro aloqalarni tiklab oldi. Ularning vakolatxonalari Respublikamizda ochildi va faoliyat koʻrsatmoqda. BMTning taʼlim, ilm-fan va madaniyat masalalariga ixtisoslashgan YUNESKO tashkiloti bilan ham Respublikamiz oʻrtasidagi hamkorlik munosabatlari muhim ahamiyat kasb etib bormoqda.



Maʼlumki, Oʻzbekiston 1993-yil YUNESKOga aʼzo boʻlgan edi. 1994-yilga kelib esa Oʻzbekiston Respublikasining YUNESKO ishlari boʻyicha Milliy komissiyasi tashkil etildi va bu ham oʻzaro hamkorlik samaradorligini oshirishda muhim qadam boʻldi. 1996-yilga kelib Toshkentda YUNESKOning vakolatxonasi ochildi. Shu oʻtgan vaqtdan beri Oʻzbekiston va YUNESKO tashkiloti oʻrtasidagi aloqalar yildan yilga kengayib bordi.

1996-yil Oʻzbekistonning Birinchi Prezidenti I.A.Karimov ham YUNESKO qarorgohiga rasmiy tashrif bilan bordi. Bu tashrif chogʻida I.A.Karimov YUNESKO Ijroiya kengashining 149-sessiyasida nutq soʻzladi. YUNESKOning Bosh direktori va Fransiya Prezidenti ishtirokida YUNESKO qarorgohida “Temuriylar davrida fan, madaniyat va maʼrifatning gullab-yashnashi” koʻrgazmasini ochdi.

Oʻzbekiston bilan YUNESKOning oʻzaro hamkorligining kengayishi natijasida YUNESKO ishtirokida Markaziy Osiyo tadqiqotlari xalqaro instituti ochildi, 2000-yil 28-dekabrda esa Shahrisabz shahri YUNESKO roʻyxatiga kiritildi. Shahrisabz bu roʻyxatga kiritilgan respublikamizdagi uchinchi shahar boʻldi. Bunday aloqalar, oʻz navbatida, munosabatlarimizni yanada yuqori pogʻonaga koʻtarib, hamkorligimiz sohalarini kengaytirdi. Mustaqillik yillari respublikada oʻtkazilgan barcha tadbirlarda

YUNESKO ishtirok etmoqda. Xususan, Amir Temur tavallud topgan kunining 660 yilligi, Ahmad al-Fargʻoniy, Imom al-Buxoriy, Jaloliddin Manguberdi kabi buyuk shaxslarning yubiley tantanalari, Buxoro va Xiva shaharlarining 2500 yilligi, Samarqand shahrining 2750 yilligi, Toshkent shahrining 2200 yilligi, Margʻilon shahrining 2000 yilligi, “Alpomish” dostonining 1000 yilligi kabi tadbirlar bevosita YUNESKO homiyligida oʻtkazildi. Keyingi yillarda bu aloqalar yanada kengaymoqda.

Xususan, 2018-yil 8-oktabr kuni Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev Fransiya davlatiga boʻlgan rasmiy tashrifi chogʻida YUNESKO Bosh direktori Odri Azule bilan uchrashib, birgalikda Oʻzbekiston bilan YUNESKO aloqalarini rivojlantirishga qaratilgan 2021-yilgacha hamkorlik dasturini imzoladilar. 2019-yil avgust oyining oxirgi oʻn kunligida YUNESKO Bosh direktori Odri Azule Samarqand shahrida boʻlib oʻtgan XII xalqaro “Sharq taronalari” musiqa festivalida bevosita ishtirok etdi.

Soʻnggi yillarda YUNESKOning Insoniyat nomoddiy madaniy merosi roʻyxatiga yana 9 ta milliy merosimiz namunasi, Buxoro shahri esa “Ijodkor shaharlar tarmogʻi”ga kiritilganini alohida taʼkidlash lozim. 2023-yil sentabr oyida YUNESKO Bosh qarorgohida yurtimizdan yetishib chiqqan buyuk alloma Abu Rayhon Beruniyning 1050 yilligi xalqaro miqyosda keng nishonlangani ham muhim voqea boʻldi.

Ayni paytda xalqaro maydonda madaniy diplomatiyamizning oʻrni tobora ortib bormoqda. Maʼlumki, YUNESKO Bosh konferensiyasi sessiyalari qariyb 40 yildan buyon faqat Parijda oʻtkaziladi. 2025-yilda esa ushbu tashkilotning navbatdagi anjumanini birinchi marta boshqa shaharda, yaʼni, Samarqandda oʻtkazish belgilandi. Ushbu nufuzli anjumanga Tashkilotga aʼzo barcha davlatlardan vakillar tashrif buyuradi. Hech shubhasiz, bu – Oʻzbekiston uchun katta ishonch, ayni paytda masʼuliyat hamdir. Shu bois mazkur nufuzli xalqaro tadbirga har jihatdan puxta tayyorgarlik koʻrilmogʻda.

3. O'zbekistonning Yevropa Ittifoqi mamlakatlari bilan istiqbolli hamkorligi

O'zbekiston mustaqillikning ilk yillaridanoq jahonning yana bir yirik tashkiloti Yevropa xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti bilan aloqalar o'rnatishga intildi. 1992-yil 26-fevralga kelib O'zbekiston ham bu tashkilot kengashining yakunlovchi hujjatiga imzo chekdi. Mazkur hujjat imzolangan vaqtdan beri O'zbekistonning Yevropa xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti bo'linmalaridagi ishtiroki tobora kengayib bormoqda. YXHTning Markaziy Osiyo bilan aloqalari bo'yicha Byurosi mintaqada barqarorlikni ta'minlash maqsadida mintaqadagi respublikalar bilan hamkorlikni yo'lga qo'yib olgani quvonarli holdir. Ushbu byuroning tashabbusi bilan Toshkentda YXHTning "Inson huquqlari bo'yicha milliy institutlar", "Ommaviy axborot vositalari demokratlashtirish sharoitida" mavzusidagi bir qator anjumanlari o'tkazildi. Seminarlar Markaziy va Sharqiy Yevropada inson huquqlari bo'yicha milliy institutlar faoliyatini rivojlantirish, xalq ta'limi va ommaviy axborot vositalarining inson huquqlari sohasidagi roli masalasini ko'rib chiqdi. Bunday yig'ilishlarda O'zbekistonning ishtiroki tinchlikparvar tashqi siyosat yuritishida asosiy omil bo'lib qoldi. O'zbekistonning 1996-yil Lissabon Sammitida ishtiroki respublika rahbariyatining xavfsizlik doirasiga kiruvchi qarashlarini bayon etishga ham imkon berdi.

1999-yil 18–19-noyabr kunlari 54 mamlakat rahbarlarining Turkiyaning Istanbul shahrida Oliy darajadagi uchrashuvi bo'lib, mazkur anjumanda ancha dolzarb muammolar, jumladan, Yevropada xavfsizlik va hamkorlikni mustahkamlashning asosiy tamoyillari ishlab chiqilgan edi. Yig'ilishda O'zbekiston rahbarining ma'ruzasi dunyo mamlakatlari iqtisodiy taraqqiyotini, fuqarolarning ijtimoiy turmush tarzini faqatgina xavfsizlikni ta'minlagandagina amalga oshirish mumkinligiga qaratildi. O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti yig'ilishda global ahamiyatga ega bo'lgan terrorizmga qarshi markaz tuzish haqidagi taklifini kiritdi va turli qabih niyatdagilarga yordam berayotgan tashkilotlarni ildizi bilan yo'qotish orqaligina mamlakatlar xavfsizligini ta'minlash mumkinligini alohida ta'kidladi. XX asr oxiri – XXI asr boshlari xalqaro terrorizmga qarshi keskin kurash

davri bo'ldi. Bu kurashga O'zbekiston o'zining katta hissasini qo'shmoqda. Buni AQSH senatorlaridan biri bo'lgan Liberman tasdiqlab, quyidagilarni ta'kidlagan edi: "O'zbekistonsiz bizning Afg'onistondagi aksilterrorchilarga qarshi kurashimiz muvaffaqiyatli bo'lmas edi", – deydi.

Bu o'rinda O'zbekistonning Yevropa Ittifoqi bilan hamkorligi masalasiga ham to'xtab o'tmoq joiz. Mazkur ittifoq bilan hamkorlik uchun tuziladigan bitim bo'yicha ishlar respublikada 1995-yildan boshlangan bo'lib, bu muzokaralar 1996-yilga qadar davom etdi. Bu muzokaralarning natijasi o'laroq O'zbekiston bilan Yevropa Ittifoqi o'rtasidagi bitim 1996-yil 21–22-iyun kunlari Italiyaning Florensiya shahrida Yevropa Ittifoqi davlatlari rahbarlarining yig'ilishida imzolandi.

Florensiyaning "Fortezza de basso" qal'asida Yevropa Ittifoqiga kiruvchi davlatlar va hukumat boshliqlarining navbatdagi uchrashuvi – sammitda imzolangan sheriklik va hamkorlik to'g'risidagi bu hujjat O'zbekistonning jahon hamjamiyatiga dadil kirib borishida o'z o'rnini va ovozigacha ega bo'lishida katta ahamiyat kasb etdi. O'zbekiston Respublikasi va Yevropa Ittifoqi o'rtasida imzolangan "Sheriklik va hamkorlik" to'g'risidagi bitim 1999-yildan kuchga kirgan bo'lib, bitimning maqsadi quyidagilarga qaratilgan:

- *O'zbekiston mustaqilligi va suverenitetini qo'llab-quvvatlash;*
- *Siyosiy aloqalarni rivojlantirishga, tomonlar bilan siyosiy muloqot olib borishga sharoit yaratish;*
- *O'zbekistonda demokratik islohotlarni amalga oshirish va ularni mustahkamlash, bozor munosabatlariga o'tish jarayoniga ko'maklashish va yakunlash;*
- *savdoni rivojlantirishda investitsion sheriklar o'rtasida iqtisodiy hamkorlikni uyg'unlashtirish va shu orqali barqaror iqtisodiy rivojlanishni ta'minlash;*
- *huquqiy, iqtisodiy, ijtimoiy, moliya, fuqarolik, ilmiy va madaniy sohalarida hamkorlikning huquqiy asosini yaratish.*

Shunday qilib, "Sheriklik va hamkorlik" bitimining kuchga kirishi hamda amaldagi faoliyati, Yevropa Ittifoqi va O'zbekiston uchun muhim ahamiyat kasb etib, hamkorlikning yangi qirralarining ochilishiga keng imkoniyatlar yaratdi. Shu o'rinda

ta'kidlash joizki, Yevropa Ittifoqi bilan sheriklik va hamkorlik jarayonini amalga oshirish O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib, xalqaro hamjamiyat va jahon xo'jaligi bilan integratsiyalashuvida muhim o'rin tutadi.

Jumladan, 2017-yilning noyabrida Yevropa Ittifoqi delegatsiyasining Samarqandga tashrifi o'zaro hamkorlik borasida yangi sahifani ochdi. 2018-yil 23-noyabrda Bryusselda bo'lib o'tgan Markaziy Osiyo va Yevropa Ittifoqi davlatlari Tashqi ishlar vazirlarining uchrashuvida ham bir qator dolzarb masalalarga e'tibor qaratildi.

Shuningdek, 2017-yilda olib borilgan diplomatik harakatlar natijasida Yevropa taraqqiyot va tiklanish banki, Yevropa investitsiya banki bilan aloqalar qayta tiklandi, Jahon banki va Xalqaro valuta jamg'armasi bilan hamkorlik munosabatlari yangi mazmun-mohiyat bilan boyidi.



Xorijiy davlatlar va moliya institutlari bilan savdo iqtisodiy, investitsiyaviy texnologik va boshqa sohalardagi aloqalarni kengaytirishda salmoqli natijalarga erishildi. Jumladan, xorijiy hamkorlar bilan 340 dan ortiq kelishuvlar tuzilib, 43

milliard dollardan ziyod bitimlar imzolandi.

Keyingi olti-yetti yil O'zbekiston–Fransiya munosabatlari tarixidagi eng yorqin davrlardan bo'ldi. Fransiya Respublikasi Prezidenti Emmanuel Makronning 2023-yil 1–2-noyabr kunlari rasmiy tashrif bilan mamlakatimizga kelgani ikki davlat o'rtasidagi hamkorlik sohasida tub burilish yasadi, desak mubolag'a emas. Bugungi kunda O'zbekistonda fransuz tilini o'rganishga qiziqish ortib bormoqda. Shu munosabat bilan tomonlar Fransiya alyansining Samarqanddagi filiali ochildi. Joriy va istiqbolli loyihalar portfeli 10 milliard yevrodan oshdi. Fransiya taraqqiyot

agentligi bilan 1 milliard yevrolik Strategik hamkorlik dasturi amalga oshirilmoqda.



Germaniya – O‘zbekiston mustaqilligini 1991-yil 31-dekabrda tan olgan va 1992-yil 6-mart kuni mamlakatimiz bilan diplomatik aloqalarni o‘rnatgan davlat. O‘tgan davr mobaynida Germaniyaga to‘rt va O‘zbekistonga 3 marotaba oliy

darajadagi rasmiy tashriflar amalga oshirilgan. 2020-yilda O‘zbekiston va Germaniya o‘rtasidagi tovar ayirboshlash hajmi 830 million dollardan oshdi. Bugungi kunda O‘zbekistonda Germaniya investorlari ishtirokida 200 ga yaqin korxona faoliyat yuritmoqda. Ular orasida “MAN”, “Claas”, “Knauf”, “Papenburg”, “Volkswagen”, “Viessmann”, “Siemens”, “Bosch” kabi dunyoga mashhur nemis kompaniyalarini sanash mumkin. Bu kabi kompaniyalar bilan amalga oshirilayotgan sarmoyaviy loyihalar har ikki mamlakat iqtisodiyoti rivojlanishi uchun xizmat qilmoqda. Birgina 2020-yilda nemis kompaniyalari mamlakatimiz iqtisodiyotiga kiritgan sarmoya hajmi 700 milliondan dollardan oshdi. **2023-yil may oyi holatiga ko‘ra, Germaniyadan O‘zbekistonga investitsiyalar hajmi 5,5 milliard dollarga yetdi, shundan 4 milliard dollar oxirgi 6 yilda jalb qilingan.**

2023-yil 2–3-may kunlari O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Germaniyaga ikki kunlik tashrifi davomida Berlinda GFR Kansleri Olaf Shols va Federal Prezident Frank-Valter Shtaynmayer bilan muzokaralar o‘tkazildi. Germaniyaning yetakchi kompaniya va banklari rahbarlari bilan uchrashuv bo‘lib o‘tdi. O‘zbekiston va Germaniya Prezidentlari birgalikda Jeyms Simon galereyasiga tashrif buyurib, **“O‘zbekistonning arxeologik xazinalari. makedoniyalik Iskandardan Kushonlar saltanatigacha”** nomli noyob ko‘rgazmani ochdilar.

Tashrif doirasida iqtisodiyot, savdo, moliya, ta‘lim, fan va innovatsiya sohalarida 16 ta hukumatlararo va idoralararo hujjatlar imzolandi.

4. O'zbekistonning Shanxay hamkorlik tashkiloti bilan aloqalari




Ma'lumki, Shanxay Hamkorlik Tashkiloti (SHHT) shiddat bilan o'zgarib borayotgan hozirgi zamonning eng dolzarb muammolarini samarali hal qilishda, xavfsizlik va barqaror taraqqiyotni ta'minlashda katta hissa qo'shib kelayotgan nufuzli xalqaro tashkilot hisoblanadi. Tarixiy o'lchovlar bo'yicha nisbatan qisqa muddatda

Shanxay Hamkorlik Tashkiloti obro'li, nufuzli xalqaro tuzilma sifatida shakllandi. 1996–1997-yillari “Shanxay beshligi” nomi bilan tashkil etilgan hamda **2001-yili O'zbekistonning a'zo bo'lib kirishi bilan “Shanxay Hamkorligi Tashkiloti” nomini olgan mazkur tuzilmaning asosiy maqsadi a'zo davlatlar o'rtasida o'zaro do'stlik, ishonch va yaxshi qo'shnichilik muhitini mustahkamlash hamda siyosiy, savdo-iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy, madaniy, shuningdek, xavfsizlik, energetika, transport, turizm, atrof-muhitni muhofaza qilish va boshqa ustuvor sohalardagi samarali hamkorlikni rivojlantirishdan iborat.** Mustaqil O'zbekiston 2001-yilning iyun oyida “Shanxay beshligi” deb yuritilgan xalqaro tashkilotning XXRni Shanxay shahrida chaqirilgan Sammitida bu tashkilotning to'la huquqli a'zosi bo'ldi. Shundan keyin “Shanxay hamkorlik tashkiloti” nomi bilan yuritilib, hamkorlikning bosh maqsadi a'zo davlatlar o'rtasida har tomonlama aloqalar o'rnatishdan iborat bo'lib, ayni paytda xalqaro terrorizm va ekstremizmga qarshi kurash tashkilotning faoliyat markazida turadigan bo'ldi.

O'tgan 20 yildan oshiq vaqt mobaynida mintaqaviy va xalqaro vaziyatda keskin o'zgarishlar ro'y berayotgan bir sharoitda SHHT o'zini ko'p tomonlama hamkorlikning ta'sirchan mexanizmi sifatida namoyon etmoqda. Qisqa davrda tashkilot salmoqli shartnomaviy-huquqiy bazaga ega bo'ldi, institutsional jihatdan to'laqonli tuzilma sifatida shakllandi, qator tarkibiy organlari tashkil qilinib, ularning barqaror faoliyati yo'lga qo'yildi.

SHHTga o'nta davlat – Xitoy, Pokiston, Rossiya, Hindiston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, O'zbekiston, Eron va Belarus a'zodir.

Bugungi kunda mintaqaviy xavfsizlikni kafolatli ta'minlash, terrorizm, ekstremizm, ayirmachilik va giyohvand moddalarining noqonuniy savdosiga qarshi kurashish tashkilotning asosiy vazifalari sirasiga kiradi. Terrorizmga qarshi kurash qarorgohi (shtabi) Bishkekdan Toshkentga ko'chirildi. Tashkilotning aniq vazifalari Tashqi ishlar va Mudofaa vazirliklarining kengashlarida hal qilinishi kelishib olindi.



SHHT xaritasi

SHHTga a'zo davlatlar (Belarus 2024-yildan a'zo mamlakat)

SHHTda kuzatuvchi davlatlar

SHHTda muloqot bo'yicha sherik davlatlar

SHHT sammitlariga taklif etilgan davlat va xalqaro tashkilotlar

O'zbekiston Shanxay Hamkorlik Tashkilotini terrorizm va ekstremizmga, narkotik va qurolning noqonuniy oborotiga, uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurashishda hamkorlik uchun

vosita sifatida baholaydi. O'zbekiston uchun Shanxay Hamkorlik Tashkilotining iqtisodiyot, jumladan, transport kommunikatsiyalarini qurish va qayta tiklash sohasidagi faoliyatini ham faollashtirish, Shanxay Hamkorlik Tashkiloti bilan hamkorlikdan manfaatdor boshqa davlatlar va xalqaro tashkilotlar bilan aloqalarni rivojlantirish ustuvor vazifa hisoblanadi.

2005-yilning 2-iyul kuni Qozog'istonning Astana shahrida "Shanxay hamkorligi tashkiloti"ning o'ninchi marta uchrashuvi o'tkazildi. Sammitda doimiy a'zo davlat rahbarlaridan tashqari Mo'g'uliston Respublikasining vakili kuzatuvchi sifatida qatnashdi. Kengashda Hindiston, Pokiston va Eron davlatlarini tashkilotga kuzatuvchi sifatida qabul qilindi. Ostona uchrashuvi qatnashchilari "Terrorizm va ekstremizmga qarshi kurash konsepsiyasi"ni yakdillik bilan qabul qildi. O'zaro iqtisodiy aloqalarni kengaytirish to'g'risida hujjatlarni imzoladi. Tashkilotning faoliyat ko'lamini kengaytirish maqsadida 2005–2006-yillarda SHHTning Banklararo birlashmasi, Ishbilarmonlar kengashi va Forumi tashkil qilindi. 2016-yil iyun oyida Toshkent shahrida bo'lib o'tgan SHHTning yig'ilishida Pokiston va Hindiston davlatlari tashkilot tarkibiga kiritildi.

Mamlakatimizning so'nggi yillarda ShHT doirasidagi faoliyatini tashabbuskorlik va pragmatizm tamoyillari ustuvor bo'lib borayotgani bilan ifodalash mumkin. ShHT doirasida milliy manfaatlarimizga javob beradigan ko'p tomonlama hamkorlikni kengaytirish bo'yicha ilgari surilgan barcha taklif va tashabbuslarimiz mintaqadagi barqarorlik hamda hamkorlikni mustahkamlashning ustuvor yo'nalishlariga to'liq mos keladi.



Chunonchi, so'nggi yillarda O'zbekiston SHHT doirasida yangi hamkorlik platformalarini ishga tushirish bo'yicha qator tashabbuslarni ilgari surdi. Prezident Farmoni bilan Toshkentdagi SHHT Xalq diplomatiyasi markazi ochildi. 2017-yil 9-iyunda Ostona bo'lib o'tgan SHHT davlatlari yig'ilishida iqtisodiy va madaniy-ma'rifiy hayot borasidagi qator masalalar bo'yicha fikr almashilib, umumiy xulosalarga kelindi.

Ushbu sammitda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tashkilotga a'zo davlat rahbarlarini SHHT doirasida madaniy hamkorlik aloqalarini kuchaytirish hamda xalq diplomatiyasi mexanizmlaridan har tomonlama foydalanishga chaqirdi. **Buning natijasi o'laroq 2018-yilda Toshkentda Shanxay Hamkorlik Tashkilotining Xalq diplomatiyasi markazi tashkil etildi.**

Haqiqatan ham O'zbekiston Prezidenti tomonidan ilgari surilgan Xalq diplomatiyasi markazini yaratish g'oyasi, xalqaro vaziyatdagi beqarorlik va noaniqlik omillari hamda turli xatarlar sonining ko'payishi fonida o'ta dolzarbdir.

Shu nuqtayi nazardan Toshkentdagi Xalq diplomatiyasi markazining faoliyati SHHT mamlakatlari o'rtasidagi hamkorlikning xilma-xil imkoniyatlarini ochishga, o'zaro ishonch, do'stlik va yaxshi qo'shnichilik, millatlararo va konfessiyalararo totuvlikni mustahkamlash, fuqarolik jamiyati institutlari va ommaviy axborot vositalari o'rtasidagi hamkorlikni kengaytirishga xizmat qiladi.

Tashkilotga a'zo davlatlar temiryo'l ma'muriyatlari rahbarlarining uchrashuvlari mexanizmi yo'lga qo'yildi. Samarqanddagi Ipak yo'li xalqaro turizm instituti barpo etildi. Bu poytaxtimizda muqaddam ochilgan Mintaqaviy aksilterror tuzilmasiga qo'shimcha tuzilmalar sifatida O'zbekistonning ahamiyatini yanada kuchaytiradi.

2018-yil 9–10-iyun kunlari Xitoyning Sindao shahrida Shanxay Hamkorlik Tashkiloti Davlat rahbarlari kengashining majlisi bo'lib o'tdi. A'zo davlatlar rahbarlari 2017-yilgi Astana sammiti yakunlarining ijrosini hamda jahon siyosati va iqtisodiyotida kechayotgan jarayonlar asnosida SHHTni yanada rivojlantirishga doir birinchi galdagi vazifalarni ko'rib chiqdilar. Tomonlarning o'zaro kelishilgan pozitsiyasi qabul qilingan Sindao deklaratsiyasida o'z ifodasini topdi.

A'zo davlatlar SHHT Xartiyasining maqsad va tamoyillariga rioya etgan hamda "Shanxay ruhi"ga tayangan holda SHHTni 2025-yilgacha mo'ljallangan rivojlantirish strategiyasida belgilangan vazifalarni izchil amalga oshirayotganlari qayd etildi. Bugungi kunda SHHT noyob, nufuzli va obro'li mintaqaviy birlashma

sifatida qaror topgani, Tashkilotga Hindiston va Pokiston a'zo bo'lgandan so'ng uning salohiyati sezilarli darajada oshgani ta'kidlandi.

Umuman olganda, o'tgan yillar mobaynida O'zbekiston tomonidan 30 dan ortiq tashabbusni ilgari surdi. Bu ancha jiddiy va katta ko'rsatkich hisoblanadi. Eng muhimi, O'zbekiston tashkilot doirasida o'z tashabbuslarini shunchaki e'lon qilmasdan, balki ularni amaliy chora-tadbirlar orqali hayotga faol joriy etayotgani bilan ajralib turadi.

Davlat rahbarlari sammiti			
T/r	Sana	Shahar	Davlat
1.	2001-yil 14–15-iyun	Shanxay	
2.	2002-yil 7-iyun	Sankt-Peterburg	
3.	2003-yil 29-may	Moskva	
4.	2004-yil 17-iyun	Toshkent	
5.	2005-yil 5-iyul	Ostona	
6.	2006-yil 15-iyun	Shanxay	
7.	2007-yil 16-avgust	Bishkek	
8.	2008-yil 28-avgust	Dushanbe	
9.	2009-yil 15–16-iyun	Ekaterinburg	
10.	2010-yil 10–11-iyun	Toshkent	
11.	2011-yil 14–15-iyun	Ostona	
12.	2012-yil 6-7-iyun	Pekin	
13.	2013-yil 13-sentabr	Bishkek	

14.	2014-yil 11–12-sentabr	Dushanbe	
15.	2015-yil 9–10-iyul	Ufa	
16.	2016-yil 23–24-iyun	Toshkent	
17.	2017-yil 8–9-iyun	Ostona	
18.	2018-yil 9–10-iyun	Sindao	
19.	2019-yil 14–15-iyun	Bishkek	
20.	2020-yil 10-noyabr	Videokonferensiya	
21.	2021-yil 16–17-sentabr	Dushanbe	
22.	2022-yil 15–16-sentabr	Samarqand	
23.	2023-yil 4-iyul	Videokonferensiya	
24.	2024-yil 3–4-iyul	Ostona	

SHHT Davlat rahbarlari kengashining 2020-yil oktabr oyida Rossiya Federatsiyasi raisligida bo‘lib o‘tgan navbatdagi sammitida davlatimiz rahbari pandemiya sharoitida “Shanxay ruhi”ni mustahkamlashning muhimligiga katta e‘tibor qaratib, global xatar va tahdidlarni yaxshi qo‘shnichilik, teng huquqlilik, o‘zaro ishonch va manfaatlarni hisobga olish yo‘li bilan yengish mumkinligini ta’kidladi. “Har birimiz kuchli bo‘lgan taqdirdagina, SHHT ham kuchli bo‘ladi, – deb alohida ta’kidladi Prezidentimiz. – Buning uchun bir-birimizni qo‘llab-quvvatlashimiz, kun tartibimizdagi asosiy masalalarga birgalikda murosasiz izlashimiz, ayniqsa, muhim ahamiyatga ega”.

Mamlakatimiz SHHT faoliyatini yangi mazmun bilan to‘ldirish, mintaqalararo transport va tranzit yo‘laklarini yaratish, innovatsion va raqamli texnologiyalarni rivojlantirish, iqtisodiy o‘sishning yangi nuqtalarini izlash, iqlim va ekologik tahdidlarga qarshi

kurashda a'zo davlatlarning sa'y-harakatlarni birlashtirish kabi istiqbolli yo'nalishlarga katta e'tibor qaratmoqda.

O'zbekiston SHHTning amaliy ahamiyatini va xalqaro obro'sini oshirish uchun uning yangi kun tartibini shakllantirishga o'z konstruktiv hissasini qo'shishga tayyorligini namoyon etmoqda.

SHHTning 2021-yil 16–17-sentabr kunlari Dushanbe shahrida bo'lib o'tgan yubiley sammitida SHHTning 20 yillik faoliyatining asosiy natijalari, tashkilot doirasidagi ko'p tomonlama hamkorlikning holati va istiqbollari atroflicha muhokama qilinib, O'zbekiston Prezidenti tomonidan tashkilot samaradorligini oshirish maqsadida 10 ta ustuvor vazifa ilgari surildi. Davlatimiz rahbari Dushanbe shahrida bo'lib o'tgan SHHT sammitida tashkilot doirasida uyushqoqlik va o'zaro qo'llab-quvvatlashni yanada mustahkamlash, mintaqaviy iqtisodiy hamkorlikni kuchaytirish, Afg'onistondagi vaziyatga nisbatan kelishuvga asoslangan yondashuvlarni ishlab chiqish bo'yicha dolzarb tashabbuslari qatorida, mintaqa parlamentlari va keng jamoatchilik darajasida xalq diplomatiyasini rivojlantirishga qaratilgan takliflarni ham ilgari surdi.

Shular orasida mintaqada “xalq diplomatiyasi”da birgalikda erishilgan natijalar ijobiy baholanib, O'zbekiston rahbariyati tomonidan mintaqa mamlakatlari hududlari o'rtasidagi ko'p qirrali hamkorlikni rivojlantirish, qo'shma madaniy, fan-ta'lim, sport va boshqa tadbirlarni o'tkazishdan manfaatdorlik alohida ta'kidlanib, shu maqsadda “SHHT Ezgu niyat elchisi” institutini ta'sis etish taklifi bildirildi.

Ishonchimiz komilki, “SHHT ezgu niyat elchisi” instituti a'zo mamlakatlarning san'at, adabiyot, fan, musiqa va sport sohalaridagi mashhur arboblardan tashkil topib, ular iste'dodi va bor kuch-g'ayratini tashkilotga a'zo davlatlar hamda butun dunyo xalqlarining turmush darajasini oshirishda SHHT harakatlariga nisbatan jamoatchilik xayrixohligini oshirishga safarbar etadi.



2022-yilning 15–16-sentyabr kunlari Samarqand shahri SHHTning 22-sammitiga mezbonlik qildi. Buyuk ipak yo‘lining qoq yuragida joylashgan bu muazzam shahar ming yillar davomida millatlararo muloqot, o‘zaro madaniy va ma’naviy hamkorlik, savdo va ilmiy almashinuvlar markazi sifatida xizmat qilib kelgan. Samarqandda o‘tgan SHHT sammitining ahamiyati shundaki, u pandemiya va dunyodagi murakkab vaziyatga qaramasdan, Pokiston, Eron, Hindiston, Rossiya, Turkiya, Ozarbayjon, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Xitoy, Turkmaniston, Tojikiston, Belarus, Mo‘g‘uliston kabi Yevrosiyaning 14 ta mamlakati yetakchilarini birlashtirgani, xalqaro siyosat va iqtisodiyot markaziga aylangani o‘zbek diplomatiyasining katta yutuqlaridan biri sifatida qarash mumkin.



O'zbekiston SHHTga raislik davrida Tashkilot doirasidagi amaliy hamkorlikni faollashtirish, uning salohiyati va xalqaro nufuzini oshirishga intildi. Xavfsizlik masalalari bilan bir qatorda savdo-iqtisodiy va gumanitar hamkorlikni kengaytirishga ustuvor e'tibor qaratildi.

Tashkilot faoliyatining barcha sohalarida ko'plab tashabbuslar amalga oshirildi. Pandemiya va global inqiroz oqibatlariga qaramasdan, 80 dan ortiq yirik tadbirlar o'tkazildi. Shu davr mobaynida tashkilot tarixida eng ko'p 40 dan ortiq hujjatlar imzolanganligi ham O'zbekistonning faol harakati natijasidir.

**O'zbekiston Respublikasi Prezidentining SHHTning
Samarqand sammitidagi takliflari**

№	Sohalar	Takliflar
1.	Transport	Termiz – Mozori-Sharif – Kobul – Peshovar temiryo'li qurilishini qo'llab-quvvatlash
		Afg'onistonni gumanitar qo'llab-quvvatlash bo'yicha Termiz shahrida – u yerdagi mavjud transport-logistika xabining zamonaviy infratuzilmasidan foydalangan holda, birgalikda maxsus fondni ta'sis etish
		Toshkent shahrida Mintaqalararo o'zaro bog'liqlik markazini tashkil etish
		2023-yilda O'zbekistonda SHHT birinchi transport forumini tashkil etish
2.	Ekologiya	Siyosatchilar, jamoat arboblari, olimlar va ekspert-ekologlar, biznes vakillarini birlashtira oladigan SHHT Iqlim kengashini tuzish
3.	Ta'lim	universitet rektorlari forumi
4.	Iqtisodiyot	SHHTning yangi iqtisodiy muloqotini boshlash asosida sanoat va texnologik hamkorlikning umumiy makonini shakllantirish
		O'zbekistonda SHHT mintaqalarining biznes sherikligi haftaligini o'tkazish
		SHHT mamlakatlari maxsus iqtisodiy zonolari alyansini tuzish
		Samarqandda "O'zbekiston–SHHT" sanoat zonasi bazasida maxsus zonalar administratsiyalari rahbarlarining birinchi uchrashuvini o'tkazish
		Har yili SHHT yirik savdo yarmarkasini o'tkazishni, uning asosida yagona elektron platforma yaratish

5.	Madaniyat, sport va turizm	Madaniyat va turizm kunlari, qo'shma sport tadbirlari va universiadalar singari qo'shimcha formatlarni ta'sis etish
		2023-yilni "SHHT makonida turizmni rivojlantirish yili" deb e'lon qilish
6.	Qishloq xo'jaligi	Oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning umumiy tamoyillari va yondashuvlarini ishlab chiqish
		2023-yili Oziq-ovqat xavfsizligi bo'yicha xalqaro konferensiya o'tkazish
7.	Xavfsizlik	Mintaqaviy aksilterror tuzilmasi kengashining yillik sayyor yig'ilishlari amaliyotini yo'lga qo'yish

2024-yil 3–4-iyul kunlari Qozog'iston poytaxti Ostona shahrida bo'lib o'tgan SHHTning navbatdagi sammitida mamlakatimiz prezidenti *"Shanxay ruhi"ning asosiy tamoyillariga – o'zaro ishonch va manfaatdorlik, tenglik, madaniyatlar rang-barangligiga hurmat, bloklardan xoli maqomni saqlab qolish, qarorlar qabul qilishda konsensus prinsipiga qat'iy amal qilishni davom ettirishga chaqirdi.*

O'zbekiston Prezidenti bugungi voqelikda SHHT hamjihatligi zaiflashishiga yo'l qo'ymaslik muhimligini, **"SHHT oilasi"** jipsligini kuchaytirish, birgalikda rivojlanish tamoyilini hayotga izchil tatbiq etib, ochilayotgan yangi imkoniyatlardan maksimal darajada foydalanish zarurligini ta'kidlab o'tdi.

Xulosa sifatida shuni ta'kidlash lozimki, o'tgan davrda SHHT o'zini samarali mexanizm sifatida namoyon etib, siyosat va xavfsizlikdan iqtisodiy hamda ijtimoiy hamkorlikkacha bo'lgan keng qamrovli masalalarni o'z ichiga olgan mintaqaviy muammolarning butun bir majmuyini hal etishga qodir xalqaro forum sifatida jahon siyosat sahnasidan mustahkam o'rin egalladi.

5. O'zbekistonning MDHdagi o'рни va Markaziy Osiyo davlatlari bilan o'zaro hamkorlik aloqalari

1991-yil 8-dekabrda Minsk shahri yaqinida sovet Ittifoqining barham topishi munosabati bilan Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligiga asos solindi. MDHning vujudga kelishi haqidagi hujjatga dastlab Rossiya Federatsiyasi, Ukraina va Belorussiya davlatlari imzo chekdilar. 13-dekabrda Ashxobodda o'tgan O'rta Osiyo va Qozog'iston Respublika rahbarlarining kengashida hamdo'stlikni kengaytirish zarur deb topdi. Natijada shu yili 21-dekabrda Almatida o'tkazilgan uchrashuvda jami 11 davlat MDHga a'zo bo'lib kirdi. Ular bu bitimda davlatlarning hududiy butunligini tan olish, amaldagi chegaralar, ularning ochiqligi, fuqarolarning harakati erkinligiga, xalqaro tinchlik va xavfsizlikni ta'minlash, harbiy harakat va qurol-yarog' tarqatishning oldini olishda birgalikda harakat qilishga kelishib oldilar.

MDH a'zolarining birgalikdagi harakatlariga quyidagi vazifalar kiritildi:

- *tashqi siyosiy faoliyatlarni muvofiqlashtirish, mudofaa siyosati va tashqi chegarani muhofaza qilish;*

- *umumiy iqtisodiy muhitni rivojlantirish va Umumyevropa, Yevrosiyo bozorini shakllantirish;*

- *iqtisodiy islohot o'tkazish;*

- *bojxona siyosatini birga olib borish;*

- *transport, aloqa, energetika tizimlarini rivojlantirish;*

- *ekologik, atrof-muhit xavfsizligini ta'minlash;*

- *uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurashish.*

O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosatida Hamdo'stlik mamlakatlari bilan ikki tomonlama hamkorlikni yo'lga qo'yish va rivojlantirishga alohida ahamiyat berilib, uning MDH doirasidagi hamkorligi yuzasidan quyidagi holatlar belgilab berildi:

- *yangi mustaqil davlatlarning ko'p yillar mobaynida tarkib topgan munosabatlari chuqurlashishi xalqaro maydonda vaziyatni chigallashtirishga olib kelishi mumkinligi;*

- *respublika iqtisodiyoti yagona transport va energetika tizimiga ega bo'lgan sobiq umumittifoq iqtisodiy makoni doirasida shakllanganligi, mustaqillik yillarida bo'lsa, MDH doirasidagi*

davlatlarning o'zaro aloqalarini uzib qo'yishi ishlab chiqarish hajmlarining pasayib ketishiga olib kelishi mumkinligi;

– MDH doirasidagi davlatlarda chegaralarning ochiqligini saqlab qolish respublikada ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni va millatlararo munosabatlarda totuvlikni ta'minlashda muhim rol o'ynashi;

– mustaqil davlatlarning o'zaro hamkorligi xalqaro maqomda o'z mavqeyini saqlab qolishi uchun muhim omil bo'lib hisoblanishi.

1991–2000-yillarda MDH davlatlari boshliqlarining 30 ga yaqin kengashlari bo'lib o'tdi va muhim hujjatlar imzolandi. Ular orasida xavfsizlik masalalari, tinchlikni saqlash, iqtisodiy hamkorlikni yo'lga qo'yib olish uchun davlatlararo iqtisodiy qo'mita tuzish, iqtisodiy integratsiyani to'laqonli amalga oshirish, bojxona va ittifoq to'lovi masalalarini izga solib olish kabilar muhim o'rin egalladi. O'zbekiston MDH doirasida siyosiy, iqtisodiy, madaniy sohalar bo'yicha shartnoma hamda kelishuvlarni Rossiya, Ukraina, Belorussiya, Moldaviya va boshqa mamlakatlar bilan imzolab o'zaro manfaatli hamdo'stlik aloqalari uchun mustahkam asos yaratdi.

Rossiya Federatsiyasi bilan mustaqillik yillarida bo'layotgan o'zaro manfaatli va teng huquqli hamkorlik yaxshi samara berayotganini ta'kidlab o'tish joizdir. Bu ikki mamlakat o'rtasida 1992-yil o'rnatilgan diplomatik aloqalardan so'ng siyosiy, iqtisodiy sohalarida 150 dan ortiq shartnomalar imzolandi.

2003-yilning avgustida ikki mamlakat Prezidentlarining navbatdagi uchrashuvi Samarqand shahrida bo'lib o'tdi. Unda Rossiyaning "Gazprom" va "Lukoil" kompaniyalarining O'zbekistonda neft va gaz manbalarini qidiruv yuzasidan ishlayotgan korxonalarini texnik jihatdan qayta qurish masalalari muhokama qilindi. Ikki davlat o'rtasidagi tovar almashuv 2002-yili bir milliard AQSH dollarini tashkil etgan bo'lsa, 2003-yili bu ko'rsatkich 25 foizga oshdi.

2004-yili Rossiya va O'zbekiston o'rtasidagi munosabatlar yanada mustahkamlandi. Shu yili ikki davlat Prezidentlari jami yetti marta uchrashdi. O'zbekistonga 32-marotaba Rossiya hukumati delegatsiyalari tashrif buyurdi, shu jumladan, Rossiya davlati xavfsizlik kengashining raisi, Mudofaa, Tashqi ishlar, Transport

vazirlari o'zbekistonlik davlat rahbarlari bilan muhim masalalar bo'yicha bitimlar tuzdi. Shu yili 16-iyunda ikki davlat o'rtasida strategik hamkorlik to'g'risida bitim tuzildi. Bunda siyosiy, harbiy, harbiy-texnika, iqtisodiy-ijtimoiy va boshqa masalalar bo'yicha alohida bitimlar imzolandi.

O'zbekistonda 350 korxona Rossiya investitsiyasi asosida ishlab, shundan 300 tasi qo'shma korxonalarda, Rossiyada esa 100 dan ortiq O'zbekiston-Rossiya qo'shma korxonalari ishga tushdi.

Rossiya Federatsiyasi Prezidenti V.V.Putin O'zbekiston bilan o'zaro munosabatlarga to'xtalib: "...biz har xil sohalarida munosabatlarni rivojlantirishdan manfaatdormiz", – degan edi.

Bunday uchrashuvlar nafaqat Rossiya Federatsiyasi bilan, balki Ukraina bilan ham keng yo'lga qo'yildi. 1994-yili Ukraina Prezidenti Leonid Kuchma davlat tashrifi bilan Toshkentga keldi. O'zbekiston va Ukraina davlat rahbarlarining o'rtasidagi o'zaro muloqotda iqtisodiy hamkorlik, transport, sanoat, qishloq xo'jaligi, mineral xomashyo qazib olish, fan-texnika taraqqiyotidagi yutuqlarda o'zaro hamkorlikni amalga oshirish bo'yicha tuzilgan bitimlarni amalga oshirish bilan aloqador bo'lgan masalalar asosiy o'rin egalladi. Nafaqat iqtisodiy, balki madaniy aloqalar ham yo'lga qo'yildi. Leonid Kuchma o'zining O'zbekistonga tashrifi davomida O'zbekiston baynalmilal madaniy markazida ham bo'ldi. O'z navbatida, O'zbekiston Prezidenti ham Ukrainaga uch marotaba safar qildi. Bu ikki davlat o'rtasidagi aloqalar hozirgi kunga qadar davom etib, tovar ayirboshlash hajmi 300 million AQSH dollaridan oshdi. O'zbekiston Ukrainaga rangli metall, gazlama va boshqa turdagi mahsulotlarni yetkazib bergan bo'lsa, Ukrainadan O'zbekistonga texnika asbob-uskunolari keltirildi. Bugungi kunda O'zbekistonda 20 dan ortiq o'zbek-ukraina qo'shma korxonalari ishlab turibdi.

2001-yil MDH tashkil topganligining 10 yilligi munosabati bilan Rossiya davlati poytaxtida MDH davlatlari rahbarlari ishtirokida sammit o'z ishini boshladi. Sammitda o'tgan vaqt mobaynida qilingan ishlar sarhisob qilindi va o'zaro savdodagi cheklashlarni bartaraf etish, tovarlar va xizmatlar oqimini ko'paytirish uchun axborot-marketing markazlarini tuzish, ta'lim, madaniyat, soliq, bojxona sohalarida faoliyat ko'rsatuvchi

muassasalar, xo'jalik sudlari hamkorligini kengaytirish masalalari muhokama etildi.

2017-yildan boshlab, MDH davlatlari bilan o'zaro munosabatlar yangi sifat pog'onasiga ko'tarildi. Xususan, MDH davlatlari bilan o'zaro savdo-iqtisodiy aloqalar hajmi 20 %ga ko'tarildi. MDH davlatlarining 2017-yil 11-oktabrdagi Sochi sammitida unga a'zo mamlakatlar davlat rahbarlarining "Oila instituti va an'anaviy oilaviy qadriyatlarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha" bayonoti, Hamdo'stlikda 2019-yilni Kitob yili, 2020-yilni 1941–1945-yillardagi Ikkinchi jahon urushida qozonilgan G'alabaning 75 yilligi yili – deb e'lon qilish haqida qaror qabul qilindi.

Hamdo'stlik mamlakatlarining jinoiy daromadlarni legallashtirish, terrorizm va qirg'in qurollarini tarqatishni moliyalashtirish, korrupsiyaga qarshi kurashish sohalaridagi hamkorligiga doir konsepsiyalar ma'qullandi. Shuningdek, MDH mamlakatlari o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlashga qaratilgan yana qator hujjatlar qabul qilindi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Oliy Majlisga Murojaatnomasida mamlakatning 2020-yilda MDHga birinchi raisligi strategiyasi haqida so'z yuritib, jumladan, shunday degan: "Hamdo'stlikda iqtisodiy hamkorlikni kengaytirish, tashkilot tomonidan qabul qilingan qarorlar natijadorligini oshirish va ishtirokchi mamlakatlar o'rtasida insonparvarlik aloqalarini yanada mustahkamlash uchun barcha imkoniyatlarni ishga solamiz". Bugungi kunda O'zbekiston MDHda o'z milliy koordinatori darajasini Tashqi ishlar vaziri o'rinbosaridan Bosh vazir o'rinbosarigacha ko'tardi, MDH Iqtisodiy kengashidagi o'z ishtirokini tikladi.

2020-yilda O'zbekiston ilk bor Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi tashkilotiga raislik qildi va pandemiyaga qaramasdan, ko'zda tutilgan 60 dan ziyod barcha xalqaro tadbirlar muvaffaqiyatli o'tkazildi, 70 ga yaqin muhim hujjatlar qabul qilindi.

2023-yilda Bishkekda Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi Davlat rahbarlari kengashining navbatdagi majlisi bo'lib o'tdi. Unda Rossiya, Belarus, Tojikiston, Turkmaniston, O'zbekiston, Qirg'iziston va Qozog'iston yetakchilari ishtirok etdi.

MDH sammiti yakunlari bo'yicha jami 17 ta hujjatlar imzolandi hamda O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev MDH faxriy ko'krak nishoni bilan taqdirlandi.

1993-yil Markaziy Osiyo rahbarlarining Almatida bo'lib o'tgan uchrashuvidan so'ng Markaziy Osiyo hamdo'stligiga asos solindi. Hamdo'stlikka a'zo bo'lgan davlatlarga milliy mudofaani kafolatlashga, ilmiy texnika taraqqiyoti yutuqlari va aloqa vositalari, yangi texnologiyaga erishish, xorijiy davlatlardan mahsulot tashish, zarur xomashyo va tayyor mahsulotlarni keltirish hamda o'z mahsulotini jahon bozoriga olib chiqish, tabiiy ofatlar oqibatini tugatish, ekologiya sohasida tadbirlarni birgalikda o'tkazish uchun imkoniyatlar yaratildi.

Din, e'tiqod, til birligi, azaliy qardoshlik munosabatlari bu davlatlar iqtisodiy taraqqiyotida shubhasiz katta ahamiyat kasb etadi. Ayni paytda o'ziga ruhan, urf-odatlar va an'analari bilan yaqin mamlakatlar bilan mustahkam munosabatlar o'rnatish suveren O'zbekistonning tashqi siyosatidagi muhim yo'nalishlardan biridir. Bu ishlar Turkiston xalqlarining asosiy manfaatlarini ifodalagani uchun, ular orasida qadimiy do'stlik va birodarlikni mustahkamlash, o'zaro iqtisodiy muammolarni yechish, milliy-madaniy aloqalarni tiklash uchun juda qulay sharoit yaratib, kishilar qalbida mehr-oqibat, birodarlik tuyg'ularini uyg'otib kelmoqda.



1994-yil 10-yanvarda Qozog‘iston Respublikasining Birinchi Prezidenti N.Nazarboyevning O‘zbekistonga tashrifi Markaziy Osiyo hamdo‘stligiga amaliy poydevorni qo‘ydi. Unda ikkala mamlakat rahbarlari “Yagona iqtisodiy hudud” barpo etish to‘g‘risidagi shartnomani imzoladilar. Bu shartnomada O‘zbekiston bilan Qozog‘iston o‘rtasida tovarlar, xizmatlar, sarmoyalar va ishchi kuchlarining erkin o‘tib turishini nazarda tutuvchi hamda o‘zaro kelishilgan kredit, hisob-kitob, budjet, soliq, narx, boj va valuta siyosatini ta‘minlovchi yagona iqtisodiy makonni tashkil etish ko‘zda tutildi. Fan, maorif, sog‘liqni saqlash yo‘lida imzolangan hujjatlar bo‘lsa o‘zaro hamkorlikni rivojlantirishga xizmat qiluvchi omil bo‘lib qoldi. Bu shartnomaga Qirg‘iziston keyinchalik Tojikistonning ham kirishi Markaziy Osiyo mintaqasida iqtisodiy integratsiya jarayonining chuqurlashuviga katta imkoniyat yaratdi. O‘zbekiston, Qozog‘iston, Qirg‘iziston Prezidentlarining bu oliy darajadagi uchrashuvining yangi nuqtasi 1994-yil Almati shahrida bo‘lib o‘tdi. Tomonlar Davlatlararo Kengash hamda uning doimiy ijroiya tashkiloti, Bosh vazirlar kengashi, Tashqi ishlar vazirligi, Mudofaa vazirligi kengashini ta‘sis etdilar. Kelishuvda qatnashgan mamlakat vakillarining davlatlararo ijroiya qo‘mitasi Almati shahrida joylashdi.

1995-yil 15-dekabrda Qozog‘iston va O‘zbekiston Respublikalari davlatlararo Kengashining Jambul shahrida navbatdagi kengashi bo‘ldi. Mazkur kengashda Prezidentlar 2000-yilgacha bo‘lgan iqtisodiy integratsiya va birinchi navbatda sarmoya sarflanishi lozim bo‘lgan loyihalar dasturlarni hayotga joriy etish, kommunikatsiya tarmoqlarini rivojlantirish masalalarini muhokoma etdilar. Integratsiya dasturida 53 ta loyiha ishlab chiqildi.

Iqtisodiy sohadagi uzviy hamkorlikning davomi Markaziy Osiyo respublikalari prezidentlarining 1999-yil aprel oyida Cho‘lpon-Ota shahridagi uchrashuvi bo‘ldi. Uchrashuvda O‘zbekiston tomoni barchaning diqqat-e‘tiborida turgan Afg‘oniston hisoblanmish xalqaro terrorizm o‘chog‘ining xavfi masalasi keskinligini qayd etdi. O‘zbekiston Prezidenti yig‘ilish qatnashchilari hamda BMTning butun xalqaro hamjamiyatga tahdid solayotgan ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashni

kuchaytirishga chaqirdi. Uchrashuvda Tojikiston respublikasi rahbariyati va jamoatchiligi I.A.Karimovni tojik xalqining og‘ir kunlarda yordam beruvchi va qo‘llab-quvvatlovchi haqiqiy birodari hamda do‘sti sifatida qabul qildi. Prezident I.Rahmonov I.A.Karimovni tojik xalqining “boshidagi toji, ko‘zidagi turi” – dedi. Kengashda mintaqaning suv resurslaridan samarali foydalanish, Saraz ko‘lining toshish xavfining oldini olishda Tojikistonga yordam berishga e‘tibor qaratildi.

Ayni paytda O‘zbekiston Markaziy Osiyo respublikalari bilan aloqalarni yo‘lga qo‘yib borar ekan, bu mintaqada iqtisodiy, madaniy hamkorlikni yo‘lga qo‘yishdagi asosiy xavf Afg‘oniston mojarosi ekanligini doimo diqqat markazida saqlab turdi. Bularga siyosiy jihatdan diniy ruhdagi ekstremizm, xalqaro terrorizm, korrupsiya va jinoyatchilik, narkotik moddalarni tarqatish, qurol-yarog‘ savdosi kabi muammolarni kiritish mumkin.


Markaziy Osiyo respublikalarining diqqat markazida turgan xalqaro terrorizmga qarshi jipslashish masalasi mintaqadagi respublikalar rahbarlarining 2000-yil 20–21-aprel kunlari Toshkentda O‘zbekiston Prezidentining Do‘rmon qarorgohida bo‘lib o‘tgan uchrashuvda yana ko‘tarildi. O‘zbekistonning xalqaro terrorizmga qarshi kurash Xalqaro markazini tuzish haqidagi tashabbusi qo‘llab-quvvatlandi. To‘rt davlat rahbarlari mintaqada xalqaro terrorizm, siyosiy va diniy ekstremizm va boshqa tahdidlarga qarshi birgalikda harakat olib borish haqida hujjatni imzoladilar. Shuningdek, uchrashuvda ikki davlat Qozog‘iston va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentlari chegaralar masalasida ikkala davlat orasida erkin harakatlanish to‘g‘risida, yo‘lovchi va yuk tashish transportlarini kengaytirish to‘g‘risida kelishib olindi.

2002-yil 28-fevral – 1-mart kunlari Almati shahrida Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining uchrashuvida “Markaziy Osiyo hamkorligi” tashkilotini tuzish to‘g‘risidagi shartnomaga imzo chekildi.

Markaziy Osiyo davlatlari hamkorligining tuzilishi ularning boshqa davlatlardan uzoqlashishini ko‘rsatmaydi, balki murakkab o‘tish davrida mintaqa mamlakatlarining o‘zaro yordam va hamkorligini chuqurlashtirishga qaratilgan tadbiridir. Respublikaning geosiyosiy va geostrategik ahvoli, iqtisodiy

salohiyati, ijtimoiy, iqtisodiy taraqqiyoti va boshqa omillardan qat'i nazar davlatning tashqi siyosatidagi ustuvor prinsipi davlatlarning suveren teng huquqlilik prinsipi bo'lib qoldi.

2016-yil oxirlaridan boshlab O'zbekistonning Markaziy Osiyo davlatlari bilan o'zaro aloqalari sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarildi. O'zaro qo'shni davlatlar bilan chegara, savdo-iqtisodiy, madaniy, xo'jalik aloqalarni yanada yaxshilash bo'yicha O'zbekiston tomoni qator takliflar bilan chiqdi.



Xususan, 2017-yil davomida “Markaziy Osiyo tashqi siyosatning bosh ustuvor yo‘nalishi doirasida” O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan mintaqadagi davlat rahbarlari bilan 20 ta uchrashuv va muzokara 8 ta davlat tashriflari, 4 ta amaliy tashriflar uyushtirildi.

2017-yildan boshlab Tojikiston, Turkmaniston, Qirg‘iziston, Afg‘oniston davlatlari bilan ham o‘zaro hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqish masalasida qator amaliy ishlar hayotga tatbiq etildi.

2017-yilning noyabr oyida Samarqand shahrida BMT shofeligida Markaziy Osiyoda xavfsizlik va barqaror taraqqiyot masalalariga bag‘ishlangan xalqaro konferensiya o‘tkazildi. Unda qo‘shni davlatlar Tashqi ishlar vazirlari, Rossiya, Xitoy, AQSH va Yevropa Ittifoqidan yuqori martabali vakillar ishtirok etdi.

Konferensiya yakunlari bo‘yicha BMT Bosh Assambleyasiga mintaqaviy hamkorlik va xavfsizlikni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha maxsus rezolutsiyasini ishlab chiqish haqidagi tashabbus yuzasidan murojaatnoma qabul qilindi. Mintaqa davlatlari rahbarlari darajasida muntazam maslahatlashuvlar tashkil etish haqidagi kelishuvga erishildi.

Qo‘shni davlatlar bilan o‘zaro hamkorlikda olib borilgan sa’y-harakatlar natijasida mintaqada mutlaqo yangi do‘stona siyosiy muhit shakllanib, xalqlar o‘rtasida o‘zaro ishonch va do‘stlik aloqalari tobora mustahkamlanmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi o‘z tashqi siyosatini olib borar ekan, qo‘shni davlatlar bilan chegara masalasiga alohida yondashdi. Xususan, davlat chegarasini qo‘shni mamlakatlar bilan belgilash borasida muzokaralarni davom ettirish maqsadida 2017–2018-yillarda O‘zbekiston hukumati delegatsiyasi qo‘shni mamlakatlar bilan jami 63 ta, jumladan, Qozog‘iston bilan 17 ta, Qirg‘iziston bilan 27 ta, Tojikiston va Turkmaniston bilan 9 tadan va Afg‘oniston bilan 1 ta uchrashuv muzokaralarini o‘tkazdi.

2018-yil 15-martda Ostonada Markaziy Osiyo davlat rahbarlarining birinchi maslahat uchrashuvi bo‘lib o‘tdi. Ma’lumki, davlatimiz rahbari 2017-yilning 10-noyabr kuni BMT shafeligida Samarqand shahrida o‘tgan “Markaziy Osiyo: yagona tarix va umumiy kelajak, barqaror rivojlanish va taraqqiyot yo‘lidagi

hamkorlik" mavzusidagi xalqaro konferensiyada mazkur uchrashuvni o'tkazish taklifini ilgari surgan edi. O'shanda bu tashabbusni mintaqadagi barcha davlatlar va xalqaro tashkilotlar qo'llab-quvvatlagan va Qozog'iston Respublikasi Prezidenti Nursulton Nazarboyev birinchi uchrashuvni Ostonada o'tkazishni taklif qilgandi.

Oliy darajadagi uchrashuvda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev, Qozog'iston Respublikasi Prezidenti Nursulton Nazarboyev, Qirg'iziston Respublikasi Prezidenti Sooronbay Jeenbekov, Tojikiston Respublikasi Prezidenti Imomali Rahmon, Turkmaniston Respublikasi Majlisi raisi Akja Nurberdiyeva ishtirok etdi.

Uchrashuvni Qozog'iston Respublikasi Prezidenti Nursulton Nazarboyev ochdi. Sammitda mintqa mamlakatlari o'rtasida siyosiy, savdo-iqtisodiy va gumanitar hamkorlikni rivojlantirish, terrorizm, diniy ekstremizm, narkotik moddalar va qurol-yarog' kontrabandasiga qarshi birgalikda kurashish, Markaziy Osiyoda xavfsizlik va barqarorlikni mustahkamlash masalalari muhokama qilindi.

Qayd etish kerakki, Markaziy Osiyo nafaqat geografik va geosiyosiy, balki qadriyatlari mushtarak yagona madaniy makon bo'lib, bu omil mintaqada barqaror rivojlanishni ta'minlagan holda, mamlakatlarning sanoat, investitsiya va intellektual sohalaridagi salohiyatini to'la ishga solish imkonini beradi.

Uchrashuvda Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlari MDH, SHHT, Islom hamkorlik tashkiloti va boshqa nufuzli xalqaro tuzilmalar mexanizmlari doirasida o'zaro hamkorlikni yanada mustahkamlash zarurligini qayd etdi. Shuningdek, mintqa mamlakatlari o'rtasida siyosiy, savdo-iqtisodiy, transport, madaniy-gumanitar va boshqa sohalaridagi hamkorlikni rivojlantirishga doir keng ko'lamli masalalar ko'rib chiqildi. Markaziy Osiyo mamlakatlari xalqlarini ko'p ming yillik qardoshlik va yaxshi qo'shnilik rishtalari bog'lab turadi. Tarix, din, umumiy madaniyat va an'analar birlashtiradi. Mintaqamizda dunyo tamadduni rivojiga ulkan ta'sir ko'rsatgan noyob madaniyat va taraqqiyot mavjud bo'lib, bu Markaziy Osiyo mamlakatlarining umumiy kelajagi, barqaror rivojlanishi va farovonligini ta'minlashda mustahkam

poydevor bo'la oladi. Keyingi yillarda mintaqa davlatlari yaxshi qo'shnilik va o'zaro manfaatli hamkorlik tamoyillari asosida savdo-iqtisodiy, transport-kommunikatsiya, madaniy-gumanitar sohalarida, xavfsizlik va barqarorlik masalalarida o'z salohiyatini namoyon etmoqda. Markaziy Osiyoni barqaror, iqtisodiy rivojlangan va yuksak taraqqiy etgan mintaqaga aylantirish yo'lida sobitqadam bo'lmoqda. Davlatlar umummintaqa manfaatlaridan kelib chiqib chegara, suvdan foydalanish, transport va savdo singari o'tkir masalalarga samarali yechim topmoqda.

Jumladan, transport sohasidagi hamkorlik borgan sari kengaymoqda. Tojikiston bilan to'g'ridan to'g'ri avia, temiryo'l va avtomobil qatnovi tiklandi. Amudaryodan o'tadigan Turkmanobod – Forob yangi temir va avtomobil yo'llari ko'priklari ishga tushirildi. O'zbekiston – Qirg'iziston – Xitoy temiryo'li qurilishi bo'yicha kelishuvga erishildi.

O'zbekiston tomonining tashabbusi bilan mintaqa mamlakatlari ishbilarmon doiralari hamda yetakchi korxonalari vakillari ishtirokida ko'plab uchrashuvlar o'tkazildi. Bu iqtisodiy aloqalarni sezilarli ravishda faollashtirish va o'zaro savdo hajmini oshirish imkonini berdi. O'zbekistonning mintaqa mamlakatlari bilan tovar aylanmasi o'rtacha 20–30 foizga o'sdi.

2019-yilda O'zbekiston, Qozog'iston, Tojikiston, Qirg'iziston va Turkmaniston respublikalari Bosh vazir o'rinbosarlari ishtirokida birinchi Markaziy Osiyo iqtisodiy forumi o'tkazildi. Bu esa davlatlarning o'zaro savdo hamkorligiga ijobiy ta'sir qilmoqda.

O'zaro hamkorlikni yanada yaxshilash maqsadida 2019-yildan boshlab, Qozog'istonda O'zbekiston konsullik muassasalarida mehnat migratsiyasi masalalari bo'yicha atteshe lavozimi joriy etildi.

Yana bir jihat davlatlarning o'zaro madaniy-gumanitar sohada hamkorligi 2019-yilda yanada mustahkamlandi. Xususan, Toshkent shahrida xorijiy va mamlakat ekspertlari hamda olimlari ishtirokida "Markaziy Osiyo umumiy uyimiz" mavzusida xalqaro konferensiya bo'lib o'tdi.

Anjumanda Markaziy Osiyo davlatlarining mintaqaviy hamkorligini mustahkamlash, madaniy-gumanitar sohada almashuvni kengaytirish, ikki tomonlama aloqalarni

mustahkamlashda xalq diplomatiyasi rolini kuchaytirish, xalq diplomatiyasini amalga oshirishda milliy madaniy markazlar va do'stlik jamiyatlarining ahamiyati hamda ular oldida turgan vazifalar va boshqa dolzarb masalalar muhokama qilindi.

O'zbekistonning Markaziy Osiyo davlatlari bilan savdo-iqtisodiy aloqalarida Qozog'iston alohida o'rin egallaydi. 2018-yilga kelib Qozog'iston bilan o'zaro hamkorlik aloqalariga oid 170 dan ziyod hujjatlar imzolangan bo'lib, ular orasida "Abadiy do'stlik" va "Strategik sheriklik" to'g'risidagi shartnomalar alohida o'rin egallaydi. Oxirgi yillarda bu hamkorlik aloqalariga katta ahamiyat berilib, Qozog'iston va O'zbekiston davlat rahbarlari o'rtasida oliy darajadagi bir qator uchrashuvlar bo'lib o'tdi. Xususan, 2017-yil mart oyida bo'lib o'tgan Prezident Sh.M.Mirziyoyevning Qozog'istonga rasmiy tashrifi yaxshi qo'shnihilik aloqalarini yanada rivojlantirishda yangi sahifani ochdi. O'zbekistonda qozog'istonlik investorlar ishtirokida 260 ta korxona faoliyati yo'lga qo'yilgan bo'lsa, qo'shni davlatda yurtimiz ishbilarmonlari ishtirokida 105 ta biznes subyekti faoliyat olib bormoqda. 2017-yil Ostona va Toshkent shaharlarida bo'lib o'tgan biznes-forumlar natijasi bo'yicha umumiy qiymati 1,2 milliard AQSH dollari miqdoridagi kelishuvlarga erishildi. Siyosiy jabhadagi muloqotlar rivoji iqtisodiy aloqalarni yanada jadallashtirish uchun qulay muhit yaratadi. Bu nafaqat savdo aylanmasi va sarmoyalar hajmini kengaytirishga xizmat qiladi, balki madaniy-gumanitar aloqalar rivojini ham kafolatlaydi. 2017-yilning sentabr oyida ikki davlat rahbarlari 2018-yilda Qozog'istonda O'zbekiston yili hamda 2019-yilda O'zbekistonda Qozog'iston yilini o'tkazishga kelishib olgan edi. Qozog'iston Respublikasi 2018-yilni mamlakatda O'zbekiston yili deb e'lon qildi. Bu qozoq eli va Qozog'iston davlatining o'zbek xalqiga hurmati, yurtimizga yuksak ehtiromi ramzidir.

Erishilgan kelishuvlar asosida, Qozog'iston chegara o'tkazish punktlari (M-39) faoliyati qayta tiklandi. "Toshkent – Olmata" yo'nalishi bo'yicha temiryo'l qatnovi yo'lga qo'yildi. 2 mlrd. AQSH dollaridan ortiq hajmdagi savdo va sarmoyaviy bitimlar imzolandi, shuningdek, hududlararo aloqalar tobora mustahkamlanib bormoqda.

Umuman olganda, Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasidagi faol hamkorlik aloqalari va turli ko'rinishdagi bitimlarning imzolanishi natijasida 2021-yilga kelib, O'zbekiston va Qozog'iston o'rtasidagi davlat chegara chiziqlarini delimitatsiya qilish ishlari yakunlandi. Qirg'iziston bilan chegaraning 95 foizi kelishildi. Tojikiston bilan chegaraning 99,9 foiz qismida kelishildi.

Biroq bugungi kunda Markaziy Osiyo mintaqasida bir qator tahdid va xavf-xatarlar saqlanib qolmoqda:

– *Davlatchiligi zaif, iqtisodiy nuqtayi nazardan nobarqaror mamlakatlar mavjudligi;*

– *Mintaqaga radikal diniy oqimlarning tarqalish xavfi;*

– *Xalqaro terrorizm, uyushgan jinoyatchilik va narkotiklar oqimi;*

– *Mintaqadagi geosiyosiy raqobat;*

– *Davlat chegaralarini delimitatsiya va demarkatsiya qilish jarayoni tugatilmaganligi;*

– *Transchegaraviy suv resurslaridan foydalanish muammolari;*

– *Afg'onistondagi vaziyatning mavhumligi.*

Yuqoridagi masalalarni hal etishda mintqa mamlakatlarining o'zaro birgalikdagi sa'y-harakatlari muhim ahamiyatga ega.

So'nggi yillarda respublika tashqi siyosatida o'zaro hamkorlik, yaxshi qo'shnichilik, manfaatli munosabatlar, ichki ishlarga aralashmaslik tamoyillarining yanada rivojlantirilishi nafaqat Markaziy Osiyo davlatlari xalqlari, balki xorijiy davlatlarning ham e'tiborini tortdi. Shu boisdan ham O'zbekiston Prezidentining mazkur siyosati jahon hamjamiyati tomonidan ijobiy e'tirof etildi. Xalqaro "The Economist" jurnali talqini bo'yicha 2019-yil yakunlariga ko'ra Prezident Sh.M.Mirziyoyev "Yil odami" deya e'lon qilindi.

Toshkent mintaqadagi barcha qo'shni davlatlar bilan strategik hamkorlik to'g'risida shartnoma tuzgan bo'lib, bu yuqori darajada regional siyosat tuzish imkonini beradi. Ushbu maqsadlarda amalga oshirilayotgan ishlar mamlakatning xalqaro munosabatlar tizimidagi o'rni va rolini mustahkamlashda ham muhim ahamiyatga ega.

Toshkent hamkorlikni rivojlantirish bo'yicha tashabbuslarni ilgari surgan holda mintaqada biron-bir ustuvorlikni ko'zlamaydi. O'zbekiston tashabbuslari barcha mamlakatlar manfaatlarini hisobga oladi, konsensus tamoyiliga asoslanadi.

Toshkentning faol, tashabbuskor va konstruktiv diplomatiyasi tufayli shakllangan mintaqadagi yangi siyosiy reallik Markaziy Osiyo mamlakatlari o'rtasida keng doirali masalalar bo'yicha o'zaro harakatlarni kuchaytirishga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

2018-yil mart oyida Astanada, 2019-yil noyabr oyida Toshkentda, 2021-yil avgust oyida Turkmanistonning Avaza shahrida o'tkazilgan Markaziy Osiyo davlat rahbarlarining konsultativ uchrashuv yig'ilishlari bunga yorqin misol bo'ldi. Uchrashuvlar davomida tomonlar Markaziy Osiyo kun tartibidagi bir tomonlama formatda ham, ikki tomonlama formatda ham hal qilishning imkoni bo'lmagan ko'plab muammoli masalalar yechimini muhokama qildilar. Bundan tashqari bunday turdagi uchrashuvlarni muntazam asosda o'tkazish to'g'risida kelishuvga erishildi.

Bunda qayd etish kerakki, Markaziy Osiyo davlat rahbarlarining konsultativ uchrashuvlarini o'tkazish mintaqada yangi xalqaro tashkilot yoki o'z ustaviga ega va davlat organlaridan yuqori turuvchi biron-bir integratsion tuzilma tashkil etilishini nazarda tutmaydi. Ushbu faoliyat faqat regional rivojlanishning muhim masalalari bo'yicha "soatlarni to'g'rilab olish"ga mintaqaning savdo-iqtisodiy hamda madaniy aloqalarini kuchaytirishga, xalq diplomatiyasini rivojlantirishga qaratiladi.

O'zbekistonning mintaq bo'yicha yo'nalishi faollashuvi regional yaqinlashish, ishonch va o'zaro tushunishni tiklash, shuningdek, yig'ilib qolgan masalalarni oqilona muvohiqasiz kelish asosida operativ hal qilish yuzasidan allaqachon yetilgan talabga o'z vaqtida va amaliy javob bo'ldi. Oliy darajada o'rnatilgan ochiq va ishonchli muloqot barcha hamkorlik yo'nalishlarini kuchaytirish uchun mustahkam asos yaratdi.

Birinchidan, oliy va yuqori darajalarda siyosiy muloqot sezilarli faollashdi, parlamentlararo, muassasalararo va hududlararo aloqalar kuchaytirildi. O'z navbatida, qayd etilgan davrda regionning barcha davlat rahbarlari O'zbekistonga tashrif buyurdilar. Tahlil

ma'lumotlariga ko'ra, ushbu uchrashuvlar yakunlari o'z samaradorligi bo'yicha misli ko'rilmagan natijalar bergan.

Ikkinchidan, ekstremistik va terroristik tuzilmalar faoliyatiga qarshi birgalikda kurashish bo'yicha o'zaro kelishuvga erishildi. 2019–2020-yillar uchun O'zbekistonning Qirg'iziston va Tojikiston bilan tegishli kompleks chora-tadbirlar rejalari imzolandi. 2018-yil iyuldan sentabrgacha O'zbekiston Qozog'iston, Qirg'iziston va Tojikiston bilan qo'shma antiterroristik mashg'ulotlarini o'tkazdi.

Uchinchidan, O'zbekistonning Qirg'iziston va Tojikiston bilan davlat chegaralarini delimitatsiya va demarkatsiya qilish masalalarini hal qilish ancha ilgari surildi.

Bularning barchasi nafaqat ikki tomonlama da'voli masalalarni hal qilish, balki butun regionning kun tartibidan o'tkir nizoli potentsialni olib tashlash va siyosiy ishonch darajasini oshirishdan ham iborat.

O'zbekistonning Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan siyosiy sohadagi o'zaro hamkorligi faollashuvi bilan bir qatorda savdo-iqtisodiy, transport-kommunikatsiya, energetika va madaniy-insonparvarlik sohalarida yangi impuls olindi.

Markaziy Osiyo mamlakatlari o'rtasida savdo-iqtisodiy munosabatlarning yaxshilanishi, umuman, mintaqaning investitsiyaviy jozibadorligini oshirishga yordam berdi. Xususan, 2017-yil boshidan hozirgi vaqtgacha O'zbekiston va region mamlakatlari o'rtasida 300 tadan ko'proq shartnoma, shuningdek, taxminan 75 mlrd. dollar summada shartnomatlar va bitimlar imzolangan.

Mintaqada ekologik, jumladan, suv-energetikaga bog'liq masalalarni hal qilishda oldinga siljishlar kuzatilmoqda. Toshkent Qambar-Ota va Rog'un GESi qurilishi loyihalarida o'z ishtiroki imkoniyatini ko'rib chiqishga tayyor. "O'zbekiston – Turkmaniston – Eron – O'mon" transport yo'lagingining muhim uchastkasini amalga oshirishga start berildi, Amudaryo orqali "Turkmanobod – Forob" temiryo'l va avtomobil ko'priklari ochildi. Ularning ishga tushirilishi "O'zbekiston – Turkmaniston – Kaspiy dengizi – Janubiy Kavkaz" yo'nalishi bo'yicha Boku – Tbilisi – Kars hamda Gruziya, Turkiya, Ruminiya va boshqa davlatlarning Qora dengiz

portlariga chiqish yo'llari bilan oraliq transport-kommunikatsiya magistralini yaratish g'oyasini amalga oshirish imkonini berdi.

Bundan tashqari 20 yillik muzokaralardan so'ng Xitoy va Markaziy Osiyoni Qirg'iziston orqali bog'lovchi temiryo'l qurilishi bo'yicha jiddiy rivojlanishga erishildi. Dastlabki baholarga ko'ra, ushbu loyiha amalga oshirilganida yuklarni yetkazib berish muddatlari 7–8 sutkaga qisqaradi, Sharqiy Osiyodan Yaqin Sharq va Janubiy Yevropa mamlakatlariga yo'l masofasi 900 km. ga qisqaradi.

Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasida madaniy-insonparvarlik sohasida yaqindan hamkorlikni, do'stona va yaqin qo'shnichilik aloqalarini mustahkamlash va kengaytirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Shu bilan birgalikda yaxshi tushunamizki, ushbu jarayon – oldindagi manzilning faqat boshlanishi. Mintaqa mamlakatlari o'rtasida to'laqonli hamkorlikni to'xtatib turgan hal qilinmagan masalalar majmuyi mavjud. Yuqorida qayd etilganlardan xulosa chiqarib ta'kidlash mumkinki, Markaziy Osiyoda tinchlik va barqarorlikni ta'minlash nafaqat mintaqa mamlakatlari manfaatlariga javob beradi, balki uning qo'shni regionlardagi xavfsizlikka ta'siri nuqtayi nazaridan butun Yevrosiyo qit'asining barqaror rivojlanishiga ham ko'maklashadi.

Prezidentimiz boshchiligida O'zbekistonning yangilangan tashqi siyosati natijasida:

– *Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan muloqotimiz jadallashdi, munosabatlarimiz sifat nuqtayi nazaridan yangi pog'onaga ko'tarildi, yangi siyosiy muhit yaratildi;*

– *o'zaro ishonch va hurmat sezilarli kuchaydi;*

– *iqtisodiy aloqalar misli ko'rilmagan darajada o'sdi;*

– *mamlakatlar hamkorligi yo'lidagi to'siqlar bartaraf etildi;*

– *mintaqa sokinlik, barqaror rivojlanish va yaxshi qo'shnichilik hududiga aylandi.*

So'nggi yillarda mintaqa mamlakatlarining umumiy ichki mahsuloti 40 foizga ko'paydi. Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasida savdo hajmining barqaror o'sishi kuzatilmoqda. Masalan, tovar aylanmasi 2,5 barobardan oshgan bo'lsa, o'zaro investitsiyalar hajmi qariyb 6 marta, to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar oqimi

esa 45 foizga o'sdi. Bundan tashqari, ichki mintaqaviy turizm ko'rsatkichlari 2 barobar ko'paydi.

Markaziy Osiyo mamlakatlari jug'rofiy jihatdan asosiy tashqi bozorlardan ancha uzoqda joylashgani bois yuklarni tashish uchun ketadigan xarajatlar ulushi tovarlar yakuniy qiymatining 50 foizigacha yetmoqda. Holbuki dunyoda bu boradagi o'rtacha ko'rsatkich 11 foizdan oshmaydi. Demak, bizning iqtisodiyotimiz transport xarajatlari uchun rivojlangan davlatlarga nisbatan 2-3 marta ko'p mablag' sarflashga majbur bo'lmoqda.

Yaqinda "Xitoy – Qirg'iziston – O'zbekiston" temiryo'li qurilishi bo'yicha strategik loyihani amalga oshirish to'g'risidagi bitimni imzolandi. Mazkur temiryo'l Qashg'ar – Torugart – Makmal – Jalolobod – Andijon yo'nalishi bo'ylab o'tadi va Xitoyni mintaqamiz bilan bog'lovchi eng qisqa quruqlik yo'liga aylanadi.

Markaziy Osiyo xalqlarining umumiy tarixi, urf-odatlar va madaniy qadriyatlariga asoslangan madaniy-gumanitar hamkorlikni yanada rivojlantirish yaxshi natija berishi mumkin. Shu bois ushbu makonda madaniyat, san'at va kino sohasida festivallar, "do'stlik kechalari", yoshlar forumlari, ijodkor ziyolilarning uchrashuvlari, ilmiy simpozium va sport musobaqalarini o'tkazish ezgu an'anaga aylanishi lozim.

Biz faol madaniy-gumanitar muloqotni davom ettirish, madaniyat, ta'lim va sayyohlik sohasidagi almashuvlarni "xalq diplomatiyasi"ning eng muhim vositasi sifatida rivojlantirish tarafdorimiz. Zero, har qanday rasmiyatchiliklardan xoli bo'lgan ochiq va samimiy muloqotlar – mintaqada do'stlik, hamjihatlik va barqarorlik muhitini mustahkamlashning eng ishonchli vositasi hisoblanadi.

Shu tariqa O'zbekistonning MDH va Markaziy Osiyo davlatlari bilan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va gumanitar sohalar, shuningdek, mintaqada tinchlik va barqarorlikni ta'minlash borasidagi hamkorlik aloqalari doimiy ravishda rivojlanib bormoqda. O'zbekiston o'zining yaqin qo'shnilari bilan munosabatlarda ochiq, do'stona va pragmatik siyosat yuritish tarafdori bo'lib qoladi. Markaziy Osiyo muammolari xalqaro huquq normalari asosida tashqi kuchlarning aralashuviziz yechilmog'i zarur.

6. O'zbekiston faol tashqi siyosatining yangi bosqichi

So'nggi yillarda jamiyat hayotining barcha sohalarida olib borilayotgan tub o'zgarishlar jarayonida respublika tashqi siyosatida ham qator o'zgarishlar amalga oshirildi. O'zbekistonning AQSH, Rossiya Federatsiyasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Hindiston, Yaponiya, Germaniya, Turkiya, Italiya, Buyuk Britaniya, Koreya Respublikasi kabi rivojlangan mamlakatlar bilan aloqalari yanada kengayib, bu davlatlar bilan o'zaro manfaatli hamkorlik bir-birining ishiga aralashmaslik, xalqaro huquq normalarida belgilangan qoidalarga va tamoyillariga asoslandi.

2018-yilda O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosati samarali olib borildi. Xususan, 18 ta davlatlararo rasmiy tashriflar bo'lib o'tdi. Ushbu davlatlar bilan 52 milliard dollarlik 1080 ta loyiha bo'yicha bitim imzolandi.

O'sha yili O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi tizimini tubdan takomillashtirish hamda tashqi siyosiy va tashqi iqtisodiy faoliyatning ustuvor yo'nalishlarini amalga oshirishda uning mas'uliyatini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni qabul qilindi. Bu esa tashqi siyosatni olib boruvchi idoralarning faolligini ta'minladi.

Ya'ni Farmonda tashqi siyosiy va tashqi iqtisodiy faoliyatning samarali amalga oshirilishi bo'yicha muhim vazifalar belgilab berildi. Bu omil mamlakatda keng ko'lamli islohotlarni va demokratik o'zgarishlarni muvaffaqiyatli ro'yobga chiqarishda, xalqaro maydonda mamlakat nufuzini mustahkamlashda va aholi farovonligining oshishida juda katta ahamiyat kasb etishi ta'kidlandi.

2018-yilda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xorijda istiqomat qilayotgan vatandoshlar bilan hamkorlik sohasida O'zbekiston Respublikasi davlat siyosatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori bilan chet ellarda istiqomat qilayotgan vatandoshlar bilan hamkorlik sohasida O'zbekiston Respublikasi davlat siyosati Konsepsiyasi hamda xorijda istiqomat qilayotgan vatandoshlar bilan hamkorlikni rivojlantirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar Dasturi tasdiqlandi.

Hech bir mamlakat iqtisodiy hamkorliksiz rivojlana olmasligini hozirgi kun voqeligi isbotlab turibdi. O'zbekiston rahbariyatining bu vaziyatga chuqur yondashishi orqali tashqi iqtisodiy aloqalarda Respublikamiz iqtisodiyotiga xorijiy sarmoyalarni jalb etishga katta ahamiyat berildi. Iqtisodiyotga xorijiy sarmoyalarni jalb etishda O'zbekiston quyidagi tamoyillarga amal qiladi:

– *Tashqi iqtisodiy faoliyatni erkinlashtirish;*

– *O'zbekiston iqtisodiyotiga xorijiy sarmoyadorlarni keng jalb qilishni ta'minlaydigan huquqiy, ijtimoiy, iqtisodiy shart-sharoitlar yaratish, tashkilotlar va muassasalar tuzish;*

– *Ilg'or texnologiyaning kirib kelishiga, xo'jalik tarkibining zamonaviylashishiga ko'maklashadigan xorijiy sarmoyalarga nisbatan "ochiq eshiklar" siyosatini o'tkazish;*

– *Respublika mustaqilligini ta'minlaydigan o'ta muhim sohalarni ishlab chiqarish vositalari bilan ta'minlash hamda raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishga qaratish.*

O'zbekistonning tashqi iqtisodiy aloqalarni kengaytirishi va bu aloqalarni erkinlashtirishida huquqiy jihatdan ta'minlovchi qonunlarning ahamiyati katta bo'ldi. "Tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risida", "Chet el investitsiyalari to'g'risida" va "Xorijiy investorlar va investitsiyalarga kafolat berish to'g'risida", "Bankrotlik to'g'risida" qonunlar va boshqa me'yoriy hujjatlar shular jumlasiga kiradi. Shu qatorda respublika chet el investitsiyalarini ishonchli sug'urta bilan himoyalashni ham ta'minladi. Bu huquqiy hujjatlar tashqi iqtisodiy faoliyatni kengaytirish, xalqaro shartnomalar tuzish va ularni bajarish uchun shart-sharoitlar yaratdi. Amaldagi qonunlar chet ellik investorlari uchun kafolatlar bilan bir qatorda soliq sohasida keng imtiyozlar berdi. Birinchi navbatda, O'zbekiston iqtisodiga umumiy hajmi 50 million dollardan ortiq miqdorda qilinadigan investitsiyalar boj to'lashdan ozod qilindi. Bu investitsiyalarning davlat investitsiya dasturiga kiritilgan loyihalarda ishtiroki natijasida yetti yil mobaynida foydadan soliq to'lashdan va korxonalar daromadlarining ishlab chiqarishni kengaytirishga hamda texnologiya bilan qayta jihozlashga sarflanadigan qismi ham soliq to'lashdan ozod qilindi. Ishlab chiqarilgan tovarlarni import va eksport qilish uchun bojxona to'lovlari ancha kamaytirildi.

Bu o'rinda shuni aytib o'tish lozimki, chet ellik investorlarga yordam ko'rsatish maqsadida O'zbekistonda ixtisoslashtirilgan tashkilotlar va muassasalar tarmog'i tashkil etildi. Bular qatorida "O'zbekinvest" Milliy eksport-import sug'urta kompaniyasi, chet el investitsiyalari bo'yicha agentlik, tovar ishlab chiqaruvchilar va tadbirkorlar palatasi katta ahamiyatga ega bo'ldi.

2019-yili O'zbekiston Turkiy tilli davlatlar hamkorlik Kengashining to'laqonli a'zosiga aylandi. O'zbekistonning ushbu Kengashga a'zo bo'lishi savdo va investitsiyalar uchun qulay shart-sharoitlarni yaratishga, tovarlar, kapitallar, xizmatlar va texnologiyalarning erkin harakatlanishiga bosqichma-bosqich o'tish uchun bojxona va tranzit tartib-qoidalarini hamda moliyaviy va bank operatsiyalarini soddalashtirishga yordam beradi.

2019-yilning oxiri – 2020-yilning boshlarida butun insoniyat jahon miqyosida so'nggi yuz yilda ro'y bermagan koronavirus pandemiyasi degan global ofatga duch keldi. 2020-yilning oxiriga kelib JSST ma'lumotiga ko'ra, dunyoning 191 mamlakatida 81 million kishi koronavirus bilan kasallangan. Ulardan 1 million 765 ming nafari vafot etgan. Natijada pandemiya jahon iqtisodiyoti uchun 2020-yilning har bir oyida qariyb 400 milliard dollar miqdorida zarar keltirib, dunyo bo'yicha 500 millionta ish o'rni yo'qotilgan. Afsuski, bu ofat butun insoniyat qatori O'zbekiston tashqi siyosati uchun ham kutilmagan tashvish va murakkab muammolarni keltirib chiqardi. Koronavirus pandemiyasining salbiy oqibatlariga qaramasdan, Xalqaro valuta jamg'armasi va xalqaro reyting agentliklari tahlillariga ko'ra, 2020-yilda O'zbekiston dunyoning sanoqli davlatlari qatorida ijobiy o'sish sur'atlarini saqlab qoldi.

Koronavirus pandemiyasiga qarshi kurash, uning mamlakatimizda keng tarqalishining oldini olish hamda mamlakat iqtisodiyotiga salbiy ta'sirini kamaytirish maqsadida 57 ta loyiha asosida O'zbekistonga boshqa mamlakatlardan (AQSH, Buyuk Britaniya, Germaniya, Italiya, XXR, Singapur, Ukraina) asbob-uskunalar keltirildi.

Shu bilan birga, pandemiyaning dastlabki davrida 9 ta mamlakatga O'zbekistonning gumanitar yuklari yetkazildi

(Ozarbayjon, Belarus, RF, XXR, Eron, Vengriya, Qirg'iziston, Tojikiston, Afg'oniston).

Pandemiyaga qarshi kurashda O'zbekistonga Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti, xalqaro moliya institutlari, Rossiya, Xitoy, AQSH, Turkiya, Birlashgan Arab Amirliklari, Janubiy Koreya, Yaponiya, Germaniya kabi davlatlar amaliy ko'mak berib keldi.

2020-yilda mamlakatimizning xalqaro moliya bozorlariga chiqish imkoniyatlari yanada yaxshilandi, ilk bor milliy valutada 2 trillion so'mlik davlat yevro obligatsiyalari past foizlarda joylashtirildi.

O'zbekiston "Ochiq ma'lumotlarni kuzatish" xalqaro indeksida 125 pog'onaga ko'tarilib, 44-o'rinni egalladi. Bunda davlat va jamiyat boshqaruvi sohasidagi 20 ta yo'nalish bo'yicha ko'rsatkichlarni oshkor qilib borish amaliyoti joriy etilgani muhim ahamiyat kasb etdi.

"Iqtisodiy erkinlik" reytingida ham mamlakatimizning 26 pog'ona ko'tarilgani islohotlarimizning xalqaro maydondagi yana bir e'tirofi hisoblanadi.

Hozirgi kunda jahonda kechayotgan murakkab geosiyosiy jarayonlar, koronavirus pandemiyasi va global iqtisodiy inqiroz sharoitida O'zbekiston ochiq va pragmatik tashqi siyosatni faol olib bormoqda. Xalqaro maydondagi qat'iy sa'y-harakatlarimiz natijasida yurtimizning nufuzi va obro'-e'tibori tobora yuksalmoqda.

2020-yilda AQSH davlat departamenti tomonidan O'zbekiston diniy erkinlik sohasidagi "maxsus kuzatuvdagi davlatlar" ro'yxatidan chiqarilgani ham keng ko'lamli demokratik islohotlarning e'tirofidir.

2020-yilning 29-dekabrida Prezidentning Oliy Majlisga va xalqimizga yo'llagan Murojaatnomasida O'zbekiston tashqi siyosatida asosiy xorijiy sheriklar hisoblangan Rossiya, Xitoy, Amerika Qo'shma Shtatlari, Turkiya, Germaniya, Fransiya, Buyuk Britaniya, Janubiy Koreya, Yaponiya, Hindiston, Pokiston, Birlashgan Arab Amirliklari va boshqa davlatlar bilan ko'p qirrali va o'zaro manfaatli aloqalarni yanada kengaytirish belgilab olindi.

"Янги Ўзбекистонда ҳам халқ дипломатияси институтининг мамлакат ҳаётидаги roli ва аҳамияти артиб боришда. Хусусан, юртимизда тинчлик хиласан фуқаролик жамияти институтлари Марказий Осиё минтақасида, ЎДХ, ШХТга аъзо давлатлар ўртасида яхши қўшничиликка асосланган, дўстона ва ўзаро манfaatли ҳамкорлик муносабатларини ривожлантириш, илм-фюн, маданият, соғьят, тиббий, туризм ва спорт соҳаларида кенг қўллаш алоқаларни, маданиятларара мулоқотни йўлга қўйишга хизмат қилмоқда".



So'nggi yillarda yurtimizning tashqi siyosatini ham tubdan qayta ko'rib chiqib, hozirgi paytda butunlay yangicha tashqi va tashqi iqtisodiy siyosat yuritilmoqda. ***Ushbu siyosat qaysi jihatlarini bilan avvalgisidan farq qiladi va nimalarni nazarda tutadi, degan savolga quyidagicha javob berish mumkin:***

- O'zbekiston xalqaro munosabatlarning to'la huquqli subyekti, suveren davlat sifatida jahon hamjamiyati, eng avvalo, qo'shni davlatlar bilan do'stona munosabatlar va hamkorliklarni, o'zaro qo'llab-quvvatlash, tinchlik va totuvlikni mustahkamlash hamda rivojlantirishga ustuvor e'tibor qaratadi;

- davlat va xalqning oliy manfaatlarini, farovonligini va xavfsizligini ta'minlash maqsadida o'zga davlatlar va xalqaro tashkilotlar bilan ikki va ko'p tomonlama munosabatlarni rivojlantirishga qaratilgan ochiq, pragmatik va konstruktiv siyosat olib boradi. Bu yo'nalishdagi ishlar jadal davom ettirilmoqda.

Masalan, birgina 2023-yilda xorijiy mamlakatlardan O'zbekistonga 176 ta yuqori darajadagi delegatsiyalar tashrif buyurgan bo'lsa, yurtimiz vakillari muhim ahamiyatga ega missiyalar bilan 220-marotaba chet ellarga yuborildi. Bu o'tgan 3 yildagi tegishli ko'rsatkichlardan 2 baravar ko'p demakdir. Ana shunday tashriflar natijasida 242 ta yangi xalqaro bitimlar imzolangani hamda 54 ta xalqaro shartnomani kuchga kiritish

uchun zarur bo'lgan ichki tartib-taomillar yaratilgani natijasida xalqaro munosabatlarimizning shartnomaviy-huquqiy asosi sezilarli darajada mustahkamlandi.

Umuman, so'nggi yetti yil davomida xorijiy hamkorlar bilan 1023 ta xalqaro hujjatlar imzolandi, shuningdek, O'zbekiston 26 ta universal xalqaro shartnomalarning a'zosiga aylandi. E'tiborli jihati, mazkur hujjatlar investitsiyalarni rag'batlantirish va o'zaro himoya qilish, savdo-iqtisodiy, moliyaviy, madaniy-gumanitar, ilmiy-texnikaviy hamkorlik, soliq, mehnat, transport, energetika, atrof-muhitni muhofaza qilish, iqlim o'zgarishi, transchegaraviy tahdidlar va jinoyatchilikka qarshi kurashish, huquqiy yordam ko'rsatish, mintaqaning barqaror taraqqiyotini ta'minlash kabi ko'plab sohalarni qamrab oladi.

Bundan tashqari, so'nggi yillarda mamlakatimizning dunyoviy aloqalari geografiyasi, nufuzli xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar, global moliya institutlari bilan hamkorligi ham sezilarli darajada kengayib, sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarildi. Xullas, **O'zbekiston bugun 149 ta davlat bilan diplomatik aloqalarni yo'lga qo'ygan bo'lsa, yana 100 dan ortiq xalqaro tashkilotning to'laqonli a'zosi hisoblanadi.**

O'zbekiston va Ozarbayjon o'rtasida 2024-yil 23-avgustda "Ittifoqchilik munosabatlari to'g'risidagi" shartnoma imzolandi. Bungacha bunday mazmundagi shartnoma Rossiya, Qozog'iston va Tojikiston bilan imzolangan edi. Demak, Ittifoqchilarimiz soni 4 taga yetdi. Turkmaniston, Qirg'iziston, Turkiya, Tojikiston, Vengriya, Pokiston, Qatar kabi 20 ga yaqin davlatlar bilan munosabatlarimiz strategik sheriklik darajasiga ko'tarildi. Ilgariroq ana shunday aloqalar o'rnatilgan AQSH, Koreya Respublikasi, Ozarbayjon, Rossiya, Xitoy, Yaponiya, Qozog'iston va Hindiston bilan hamkorliklarimiz yanada mustahkamlanib, yangicha ma'no-mazmun bilan boyidi.

So'nggi yillarda oziq-ovqat mahsulotlari bozori ancha kengaydi. Jumladan, o'tgan bir yilda Avstraliya, Yangi Zelandiya, Singapur, Kolumbiya, Indoneziya kabi 10 dan ortiq yangi bozorlarga chiqildi, mahsulotlar eksport qilinadigan mamlakatlar soni 85 taga yetdi. Lekin bu yo'nalishdagi eksportning 80 foizi 5 ta davlat hissasiga to'g'ri kelyapti. Ya'ni, qishloq xo'jaligi

eksportining asosiy qismini “kilosiga 1 AQSH dollaridan past pul to‘lanadigan bozorlar” tashkil qilmoqda. Bu gap mubolag‘a emas, ayni haqiqat. Misol uchun, o‘tgan yili dunyodagi 52 ta mamlakatga 126 ming tonna uzum eksport qilingan bo‘lsa, shundan 98 ming tonnasi 12 ta davlatga har bir kilogrammi 1 AQSH dollaridan kamroq baholarda sotilgan. Eng xaridorgir mahsulotlar hisoblangan gilos, shaftoli, xurmo, o‘rik, olcha, olxo‘ri, anjir, anor, bodom, loviya, mosh kabi mahsulotlar eksportida ham shunday achinarli manzaraga guvoh bo‘lish mumkin. Mamlakatimizdan eng ko‘p eksport qilinadigan 10 turdagi mahsulotning ulushi jami mevasabzavot eksportida 60 foizni tashkil qiladi.

Turizm – jahon iqtisodiyotining jadal rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri. Iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishi sharoitida turizm milliy daromadning asosiy manbayiga aylanishi mumkin. Xalqaro iqtisodiy reytingda turizmdan keladigan daromad avtomobilsozlik va neft-gaz sanoatidan keyin uchinchi o‘rinni egallaydi.

O‘zbekiston juda katta turizm va rekreatsiya salohiyatiga ega. Zotan, bizda jami 8,2 ming madaniy meros obyektlari mavjud bo‘lib, ulardan 209 tasi YUNESKOning Butunjahon merosi ro‘yxatiga kiritilgan.

Keyingi yillarda salkam yuzta mamlakat fuqarolari uchun O‘zbekistonga vizasiz kirish tizimi, yana 55 ta davlat fuqarolari uchun soddalashtirilgan elektron viza tartibi joriy etildi.

Xitoyning “Qyer.com” portali tomonidan Samarqand – dunyoning eng yaxshi shaharlari o‘nligiga kiritilib, “Xitoylik va xorijlik sayyohlarga ziyorat qilish uchun tavsiya etiladigan eng yaxshi ekzotik maskan” nominatsiyasida g‘olib bo‘lgan bo‘lsa, **Shahrisabz shahri – Iqtisodiy hamkorlik tashkilotining 2024-yildagi turizm poytaxti, deb e‘lon qilingan.**

Keyingi yillarda hududlarimizning boshqa mamlakatlar mintaqalari bilan gorizontal aloqalarini kuchaytirish borasida ham faol ish olib borilmoqda. Xususan, Xitoy, Rossiya, Qozog‘iston davlatlari bilan mintaqalararo hamkorlik aloqalarini muvofiqlashtirish bo‘yicha maxsus Kengashlar tuzilgan. Ular bir necha yildan buyon faoliyat yuritmoqdalar, mintaqalararo hamkorlik forumlari o‘tkazilmoqda.

Mamlakatimiz ommaviy axborot vositalari xalqaro axborot makoniga ham dadil kirib bormoqda. Xususan, ayni paytda O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi hamda bir qator xususiy telestudiyalarning dasturlari jahonning 100 dan ortiq davlatlariga uzatilmoqda. O'zbekiston Milliy axborot agentligi va "Dunyo" axborot agentligi o'z xabarlarini 10 ta xorijiy tilda tarqatmoqda.

Yangi O'zbekiston tashqi siyosatida qanday muhim natijalarga erishildi? Kelgusida bu borada qaysi masalalarga ustuvor ahamiyat qaratish lozim?

Birinchi natija	Ikkinchi natija	Uchinchi natija	To'rtinchi natija
Markaziy Osiyo davlatlari bilan hamkorlik yangi bosqichga olib chiqildi.	Iqtisodiy diplomatiya samaradorligi oshirildi.	Xorijdagi vatandoshlari-miz va mehnat migrantlari muloqot yo'lga qo'yildi.	Parlament, xalq va biznes diplomatiya institutlarining roli ortdi.
Markaziy Osiyo davlat rahbarlari maslahat uchrashuvlari (2018-y. Ostona, 2019-y. Toshkent, 2021-y. Avaza, 2022-y. Cho'lpon-ota, 2023-y. Dushanbe, 2024-y. Ostona).	Mahsulotlar eksporti va investitsiyalar oqimi sezilarli oshdi.	Yangi Konstitutsiyada xorijlik vatandoshlar bilan aloqalarni rivojlantirishning kafolatlari muhrlab qo'yildi.	Jahon mamlakatlari o'rtasida o'zaro ishonch va hamjihatlikni shakllantirishda parlament diplomatiyasining roli oshirildi.
Qo'shnilarimiz bilan ekologiya va tabiatni muhofaza qilish, suv resurslaridan oqilona	2023-yilda 4 mingdan ortiq tadbirlar, elchixonalarimizda 70 dan ziyod biznes-	Chet mamlakatlarda o'qigan, yirik kompaniyalarda ishlab katta tajriba orttirgan	OM palatalari 57 davlat parlamentlari bilan ikki tomonlama va do'stlik

foydalanish, transport-kommunikatsiya infratuzilmalari yanada rivojlantirilmoqda.	forumlar tashkil etildi. 77 ta investitsiya loyihasi doirasida 13 mlrd.\$ sarmoya jalb qilindi.	yuqori malakali mutaxassislarni yurtimizga qaytarish ishlari olib borilmoqda.	hamkorlik guruhlarini hamda Yevropa Parlamenti bilan hamkorlik bo'yicha parlamentlararo qo'mita tuzildi.
Davlatlarimiz chegaralarini delimitatsiya va demarkatsiya qilish, jahon iqtisodiy munosabatlari-ga yanada faol integratsiyalashuv masalalarida ham qator ijobiy o'zgarishlar yuz berdi.	Savdo-iqtisodiy, moliyaviy, investitsiyaviy va texnologik hamkorlikni rivojlantirish, eksport hajmi va nomenklatura-sini ko'paytirish, transport-logistikani shakllantirish	2021-yil "Vatandoshlar" jamoat fondi tashkil etildi.	Parlamentlararo Ittifoq, O'zbekistonning MDH Parlamentlararo Assambleyasi bilan sermahsul hamkorligi jadal rivojlanmoqda.
Dunyo siyosiy lug'atida yangi "Markaziy Osiyo ruhi" degan yangi atama paydo bo'ldi.	Xalqaro valuta jamg'arnasi, Jahon banki, OTB, Islom taraqqiyot banki, Osiyo infrastruktura investitsiyalari banki bilan aloqalarimiz ham yangicha asosda yo'lga qo'yildi.	Dunyoning 100 ga yaqin mamlakatlarida istiqomat qilayotgan 10milliondan ortiq vatandoshlar, xorijdagi 170 dan ortiq madaniy markazlar qo'llab-quvvatlanmoqda	Bugungi kunda har qanday mamlakatning ichki va tashqi siyosatini amalga oshirish va xalqaro muammolarini hal etishda xalq diplomatiyasi-ning ahamiyati tobora ortib bormoqda.

Rossiya, Xitoy, AQSH, Hindiston, Yaponiya, Koreya davlatlari va Yevropa Ittifoqi bilan "Markaziy Osiyo + 1" formatidagi hamkorlik jadal rivojlanmoqda.	JSTga to'laqonli a'zo bo'lish borasidagi sa'y-harakatlarimiz ham samarali natijalar bermoqda.	Xorijda ishlayotgan yurtimiz fuqarolariga har tomonlama ko'mak ko'rsatish, ularni ishga joylashtirish bo'yicha chet davlatlar bilan kelishuvlarga erishish bo'yicha aniq amaliy choralar ko'rilmqda.	1992-yilda 700 ga yaqin NNT BMT iqtisodiy va ijtimoiy Kengashi maslahatchisi maqomiga ega bo'lgan bo'lsa, bugunga kelib ularning soni 6,5 mingdan oshdi.
Markaziy Osiyoda xalqaro huquq talablari va mintaqada joylashgan barcha davlatlarning milliy manfaatlarini hisobga olgan holda keng qamrovli strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlarini chuqurlashtirish.	Yillik xorijiy sarmoyalar hajmi 2017-yilga nisbatan 3 barobar ko'paydi. so'nggi yillarda 12 mingta standart qabul qilindi, 400 turdagi mahsulotlarni sinovdan o'tkazish yo'lga qo'yildi. Natijada 40 ta yangi eksport bozoriga chiqishga muvaffaq bo'ldik.	"Uzbekistan's club" platformasi tashkil etildi. 30 dan ziyod mamlakatlarda 480 dan ortiq salohiyatli vatandosh ro'yxati shakllantirildi.	Fuqarolik jamiyati institutlari MO, MDH, SHHTga a'zo davlatlar o'rtasida do'stona va o'zaro manfaatli hamkorlik munosabatlarini rivojlantirish, ilm-fan, madaniyat, san'at, ta'lim, turizm va sport sohalarida aloqalarni, madaniyatlararo muloqotni yo'lga qo'yishga xizmat qilmoqda.



Xulosa qilib aytganda, xalqaro miqyosda yangi qiyofaga ega bo'lgan O'zbekiston paydo bo'ldi. O'zbekiston rahbari dunyoda yangi formatsiyadagi va katta obro' qozongan arbob sifatida tan olindi, qo'shni davlatlar bilan do'stona va o'zaro ishonch ruhidagi munosabatlar rivoj topdi. O'zbekistonning yangi mazmunga ega bo'lgan tashqi siyosiy faoliyati asoslari shakllandi, bu esa mintaqamizda tinchlik va barqarorlik, samarali hamkorlikning asosiy garovidir.

Tayanch so'zlar

Davlat, tashkilot, hamkorlik, tashqi siyosat, tinchlik, hamkorlik, aloqa, chegara, savdo, iqtisod, transport-kommunikatsiya, investitsiya, integratsiya, globalizatsiya, BMT, MDH, SHHT, JSST, geosiyosat.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar

1. O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining asosiy ustuvor tamoyillariga nimalar kiradi?
2. O'zbekiston Respublikasining BMTga a'zo bo'lishi hamda jahon hamjamiyatidagi o'rni va nufuzining ortib borishiga nimalar sabab bo'lmoqda?
3. O'zbekistonning Yevropa Ittifoqi mamlakatlari bilan istiqbolli hamkorliklari haqida so'zlab bering.
4. O'zbekistonning SHHT bilan aloqalarida madaniy jihat deganda nimani tushunasiz?

5. O'zbekistonning MDHdagi o'rni va Markaziy Osiyo davlatlari bilan o'zaro hamkorlik aloqalari qay tartibda rivoj topib bormoqda?

6. Markaziy Osiyo mamlakatlari orasida qaysi davlat bilan iqtisodiy hamkorlikda yutuqlar salmog'i ko'proq?

7. So'nggi yillarda chegara masalasining hal qilinishi bilan bog'liq kelishuvlar haqida gapirib bering.

8. Markaziy Osiyo mintaqasida tinchlik va barqarorlikni ta'minlashda O'zbekistonning o'rni haqida gapirib bering.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2017.

2. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. To'ldirilgan ikkinchi nashri. – Toshkent: O'zbekiston, 2022.

3. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekistonda erkin va farovon yashaylik. 5-jild. – Toshkent: O'zbekiston, 2023.

4. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekistonda taraqqiyot strategiyasi asosida demokratik islohotlar yo'lini qat'iy davom ettiramiz. 6-jild. – Toshkent: O'zbekiston, 2023.

5. Sh.M. Mirziyoyev. Hozirgi zamon va Yangi O'zbekiston. – Toshkent: O'zbekiston, 2024.

6. Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti: insoniylik mezonlari sohadagi majburiyatlar. Mas'ul muharrir: A.Saidov. – Toshkent, 2012.

7. Jo'rayev S. Zamonaviy xalqaro munosabatlar (o'quv qo'llanma). – Toshkent: Akademiya, 2007.

8. Mustaqil O'zbekiston tarixi. Mas'ul muharrir: A.Sabirov. – Toshkent: Akademiya, 2013.

9. Новейшая история Узбекистана. Руководитель проекта и редактор: М.А.Рахимов. – Ташкент: Адабиёт учкунлари, 2018.

10. Нуриддинов Э. Становление и дальнейшее развитие на этапе обновления страны внешнеполитической деятельности Республики Узбекистан. – Ташкент, 2020.

11. Саидолимов С.Т. Проблемы безопасности в Центральной Азии. – Ташкент: Akademiya, 2003.

12. Xomitov R. O'zbekiston Respublikasi va Latviya, Litva, Estoniya o'rtasidagi aloqalar yangi bosqichda (1991–2014-yillar). – Toshkent: Turon-zamin-ziyo, 2015.

13. Gafforov Y. O'zbekiston va Osiyo mamlakatlari hamkorligi. – Toshkent: Tamaddun, 2020.

11-MAVZU. YANGI O'ZBEKISTON IJTIMOIIY-SIYOSIY, IQTISODIY VA MADANIY HAYOTIDA RO'Y BERAYOTGAN O'ZGARISHLARNING XALQARO REYTING VA INDEKSLARDA AKS ETISHI

Reja:

1. Xalqaro reyting va indekslar tushunchasi.
2. O'zbekiston Respublikasining xalqaro reyting va indekslardagi o'rini yaxshilash borasidagi davlat siyosati, qabul qilingan huquqiy-normativ hujjatlar.
3. Xalqaro reyting va indekslarda O'zbekiston pozitsiyasi.

1. Xalqaro reyting va indekslar tushunchasi

Xalqaro hamjamiyatning to'la huquqli a'zosi bo'lgan O'zbekiston Respublikasi xalqaro munosabatlarda mustaqil davlat sifatida faoliyat ko'rsatib, mustahkam tinchlik, qurolsizlanish, o'z hududini qurol-yarog'lardan xoli qilish, yadroviy qurolni va boshqa ommaviy qirg'in qurollarini yo'qotish, suveren davlatlar o'rtasidagi nizo va ziddiyatlarni hal etishda kuch ishlatish va tazyiqqa yo'l qo'ymaslikdan iborat bo'lgan maqsadlarni ko'zlagan holda tashqi siyosat olib bormoqda.

Shu o'rinda qayd etish kerakki, mustaqil O'zbekiston tashqi siyosatining asosini ochiq-oydinlik, teng huquqlilik, demokratik tamoyillarga sodiqlik, umuminsoniy qadriyatlarni ulug'lash, respublika ijtimoiy hayotidagi demokratik jarayonga ta'sir qilish kabilar tashkil etadi. Shuninglek, Respublika tashqi siyosati tinchlik va xavfsizlik uchun umumjahon e'tirof etgan ochiq yakdillik talablariga asoslanadi.

O'zbekiston Respublikasi jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuvi jarayonida ko'plab xalqaro tashkilotlarga a'zo bo'ldi, xalqaro huquqiy tashabbuslari jahon hamjamiyati oldida turgan mintaqaviy va global muammolarni hal etishga qaratilib, O'zbekiston tarixiy jihatdan qisqa bir davrda xalqaro munosabatlarni yo'lga qo'yish va rivojlantirish borasida katta ishlarni amalga oshirdi.

Bu jarayonda mamlakat miqyosida amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy o'zgarishlarni dunyo

miqyosida e'tirof etilishi borasida ham samarali ishlar qilindi va davom ettirilmoqda.

Shu o'rinda ta'kidlash muhimki, ko'plab xorijiy ommaviy axborot vositalarida dunyo mamlakatlarining iqtisodiy ko'rsatkichlari, xalqlarning turmush darajasi yoki yashash uchun eng xavfsiz davlatlar kabi reytinglar muntazam e'lon qilib boriladi, tahlil va taqqos qilinadi.

Inson huquqlari himoyasini kafolatlash, aholi turmush darajasini oshirish, iqtisodiy faoliyatda erkinlikni ta'minlash, sud-huquq sohasidagi moddiy va protsessual normalarni takomillashtirishga qaratilgan islohotlar har qanday mamlakatning xalqaro maydondagi nufuzini oshiradi. Zero, mazkur yo'nalishdagi islohotlar mamlakat taraqqiyoti, xalq farovonligini belgilab beruvchi muhim omillardan hisoblanadi.

Ammo islohotlarning ijobiy natijalari, xalqning erishgan va erishayotgan yutuqlarini dunyo hamjamiyati e'tiboriga taqdim etish alohida chora-tadbirlarni, maqsadli sa'y-harakatlarni talab etishini ta'kidlash kerak. Bu jarayonlarda xalqaro reyting agentliklarining xizmati katta. To'g'ri, har qanday davlat ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni o'tkazar ekan, birinchi o'rinda aholi turmushi farovonligini oshirish, huquq va manfaatlarini ta'minlash, mamlakatning xalqaro miqyosdagi nufuzini mustahkamlashni asosiy maqsad qilib belgilab oladi. Mamlakatlarning ana shu iqtisodiy-ijtimoiy sohalarida erishgan yutuqlarini hamda insonlarning haq-huquqlari ta'minlanishi bilan bog'liq ko'rsatkichlarini turli reyting agentliklari baholab boradi, ular ijobiy yoki salbiy o'zgarishlarni aslo e'tiborsiz qoldirmaydi.

Chunki xalqaro hamjamiyatning e'tiborini tortish, xorijiy investorlarning qiziqishini qozonish ko'p hollarda nufuzli xalqaro reyting agentliklarining baholariga bog'liq bo'ladi.

Xalqaro reyting va indekslar dunyodagi institutsional muhitning sifatini baholashda iqtisodiy rivojlanishning asosiy sharti sifatida jahon hamjamiyati tomonidan qabul qilingan vositadir. Ular nafaqat ekspertlar, balki davlatlar darajasida ham islohotlar va ijtimoiy-iqtisodiy siyosat mezoni sifatida qo'llanib kelinadi.

Aholi turmush darajasini oshirish, davlat organlarining xalq manfaatlarini uchun xizmat qilishida davlat siyosatidagi ustuvorligini

ta'minlash hamda mamlakatga kirib kelayotgan investitsiyalar oqimini jadallashtirish va investor mulkini davlat tomonidan himoya qilish kabi mamlakatda turli sohalarida amalga oshirilayotgan tub o'zgarishlarni dunyo hamjamiyatiga namoyon etish maqsadida turli sohalar bo'yicha xalqaro tashkilotlar tomonidan tuziladigan xalqaro reyting va indekslar muhim ahamiyat kasb etadi.

Ko'rsatkichlari bo'yicha yuqori baholangan har qanday xalqaro reytinglar samarasi sifatida ishbilarmonlardan tortib dunyo aholisi barcha qatlamiing e'tibori shu mamlakatga qaratiladi: investitsion muhit, turizm, xizmat ko'rsatish sohasi rivojlanadi, buning natijasida aholining turmush darajasi va farovonligi yaxshilanadi.

Xalqaro reyting va indekslarni faoliyat yo'nalishiga qarab ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy-huquqiy sohalariga ajratish mumkin. Bunda iqtisodiyot, ishbilarmonlik, budjet, sanoat, investitsiya va barqaror rivojlanish maqsadlarini ijtimoiy-iqtisodiy sohaga, huquq, korrupsiya, demokratiya hamda boshqaruv sifatini siyosiy-huquqiy sohalariga kiritish maqsadga muvofiqdir.

Hozirgi davrda xorijiy reytinglar xalqaro iqtisodiy munosabatlarga kuchli ta'sir ko'rsatuvchi o'ziga xos omillardan biri hisoblanadi. Mustaqil ekspertlar xulosasi aks etgan reytinglar mamlakat xalqaro imijiga, kirib kelayotgan investitsiyalar miqdoriga katta ta'sir ko'rsatadi. Binobarin, rivojlanib borayotgan va o'z iqtisodiyotiga sarmoyalarni jalb qilishdan manfaatdor bo'lgan davlatlar mazkur reytinglarga kirish va o'z o'rmini bosqichma-bosqich ko'tarib borishga alohida e'tibor qaratmoqda. Keyingi yillarda Sharqiy Yevropa hamda Mustaqil Davlatlar hamdo'stligiga a'zo ayrim mamlakatlar eng nufuzli xalqaro reytinglarda yuqori darajaga ega bo'lish bo'yicha maxsus dasturlar asosida ish olib borayotgani ma'lum. Zero, har qanday chet ellik investor muayyan qarorga kelishdan avval o'zi qiziqayotgan davlatning iqtisodiy holati to'g'risidagi obyektiv, mustaqil baholarni sinchiklab o'rganib chiqadi.

Qayd etish kerakki, xalqaro reytinglarni tuzuvchi agentliklar iqtisodiy va moliyaviy ko'rsatkichlarni baholashda turli usullardan foydalanadi. Shu boisdan investorlar o'z tahlillarida faqatgina bitta reyting agentligining ma'lumotlariga tayanib qolmasdan, bir qancha reyting ko'rsatkichlarini kompleks tahlil qilishga harakat qiladilar.

Ma'lumotlarga ko'ra, hozir jahonda 160 dan ortiq xalqaro reyting mavjud, ulardan 50 taga yaqini ta'sir darajasi yuqori mezonlar sirasiga kiradi.

Indeksni tuzuvchi xalqaro tashkilotlar tegishli davrlar bo'yicha davlat organlari tomonidan e'lon qilingan ochiq ma'lumotlar hamda turli xalqaro tashkilotlar (World Economic Forum, World Bank, International Monetary Fund, UN, Transparency International va boshqalar)ning reyting hisobotlari natijalariga asoslanib, indikatorlar natijalarini hisoblaydi hamda o'zining rasmiy veb saytlarida e'lon qilib boradi.

Global raqobatbardoshlik indeksi, Biznesni yuritish yengilligi indeksi, Iqtisodiy erkinlik indeksi, Sanoat raqobatbardoshligi indeksi, Global innovatsion indeks, Inson salohiyati rivojlanishi indeksi, Transchegaraviy investitsiyalash indikatorlari, To'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalarni tartibga solish indeksi, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar uchun jozibadorlik indeksi shular jumlasidandir. Ana shu kabi asosiy xalqaro reytinglar va indekslarda O'zbekistonning ham munosib o'rinlarda bo'lishi katta ahamiyatga ega.

2020-yilgi reyting natijalariga ko'ra, Biznes yuritish va Iqtisodiy erkinlik indeksida Yangi Zelandiya, Gong Kong hamda Singapurni yuqori 3 talik davlatlar qatorida ko'rish mumkin. Indikatorlar bo'yicha reytingi yuqori davlatlar tahlil qilinganda, Yangi Zelandiya Biznes yuritish indeksining korxonalarni ro'yxatdan o'tkazish (100.0) va kredit olish indikatorida (100.0), Singapur kontraktlar ijrosini ta'minlashda (84.5) hamda Gong Kong qurilish uchun ruxsatnoma olishda (93.5) dunyoda yetakchilik qiladi.

Umr ko'rish davomiyligi 85.3 yil, kutilayotgan ta'lim yillari 18.1 yil, o'rtacha ta'lim yillari 12.6 yil hamda aholi jon boshiga yalpi milliy daromad 68 059 AQSH dollari bo'lgan Inson kamoloti indeksida Norvegiya davlati 2001-yildan beri (2007–2008-yillar bundan mustasno) ushbu reytingni boshqarib kelmoqda.

2. O'zbekiston Respublikasining xalqaro reyting va indekslardagi o'rnini yaxshilash borasidagi davlat siyosati, qabul qilingan huquqiy-normativ hujjatlar.

O'zbekiston Respublikasining Xalqaro reytinglar tizimiga integratsiyalashuvidan ko'zlangan asosiy mezon va maqsadlarga to'xtaladigan bo'lsak, bu masala yuzasidan qator fikr va mulohazalar **O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2018-yil 28-dekabrda Oliy Majlisga Murojaatnomasida** belgilangan ustuvor vazifalarni amalga oshirish doirasida ham yuritilgan edi. Xususan, O'zbekistonning global raqobatbardoshlik reytingi va boshqa xalqaro reytinglarda qatnashishi va unda mamlakatimizning egallagan o'rnini yaxshilab borishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish, mamlakatda qulay biznes va investitsion muhitni shakllantirish sohasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar, qonunchilikning amaliyotga tatbiqi ustidan kuchli parlament va deputatlik nazoratini o'rnatish va boshqa vazifalar belgilangan edi.

Shuni alohida qayd etish kerakki, reytinglar ichida eng mashhurlari, investitsiya jalb qilinishida muhim o'rin tutadiganlari sirasiga **“Standard and Poor's”, “Moody's”, “Fitch Ratings”** agentliklari hamda yirik auditorlik va konsalting kompaniyalari tomonidan e'lon qilib boriladigan baholash mezonlarini ham kiritish mumkin. Hozirgi kunda yuqorida qayd etilgan agentliklar tomonidan e'lon qilinadigan suveren kredit reytingiga O'zbekistonning ham kiritilishi bo'yicha ishlar olib borilyapti. Biroq bu ishlarni hozircha qoniqarli deb bo'lmaydi. Aytaylik, bir qator indekslar bevosita investitsion faoliyat bilan bog'liq ko'rsatkichlarni e'lon qiladi. Jumladan, To'g'ridan to'g'ri investitsiyalar indeksi (FDI index) 62 ta mamlakatda 22 sohani o'z ichiga qamrab olgan holda qonunchilik tomonidan to'g'ridan to'g'ri investitsiyalarning kirib kelishiga to'sqinlik qiluvchi omillarni tahlil etadi. To'g'ridan to'g'ri investitsiyalarning ishonchlilik darajasini ko'rsatuvchi **“FDI Confidence”** indeksi global konsultatsion kompaniya bo'lmish **“A.T.Kearney”** tomonidan belgilanib, 40 ta mamlakat bo'yicha tahlillarni reyting ko'rinishida chop etadi.

Afsuski, mazkur indekslardan o'rin olgan davlatlar qatorida hozircha mamlakatimiz yo'q. Bu esa yurtimizga potensial investorlarning kirib kelishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Mamlakat

ichkarisida investitsion muhit qanchalik qulay va jozibador bo'lmasin, uning xalqaro maydondagi targ'iboti yetarli darajada bo'lmagan ekan, bir joyda deysinib turilaveradi.

2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini amalga oshirish doirasida mamlakatimizning xalqaro maydondagi mavqeyini ko'tarish, ko'rsatkichlarning xolis va haqqoniy baholanishini ta'minlash bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, Prezidentimizning **2020-yil 25-fevraldagi “O'zbekiston Respublikasining xalqaro reytinglar va indekslardagi o'rnini yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarorida** yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlarni baholashning yaxlit va mustaqil tizimini shakllantirish, shuningdek, respublikamizning xalqaro reytinglardagi o'rnini yaxshilashni ta'minlash yo'llari atroflicha belgilab berildi.

Mazkur hujjatga muvofiq boshqa vazifalar qatorida 3 ta asosiy yo'nalishda ish olib borilayotgani alohida e'tiborga molik. Ya'ni:

1. O'zbekiston Respublikasining xalqaro reytinglardagi o'rnini monitoring qilish va baholash milliy tizimi, ya'ni Milliy monitoring tizimi yaratilishi.

2. Ko'rsatilayotgan davlat xizmatlari sifatini yaxshilash, aholining davlat organlari faoliyatidan qoniqishi darajasini hamda ularning xodimlari kasbiy mahoratini oshirish maqsadida “davlat xizmatlarining sirli mijozi” instituti joriy etilishi.

3. “O'zbekiston Respublikasi xalqaro reytinglarda” yagona portalining yaratilishi esa ushbu yo'nalishda samarali muloqot va axborot almashinuviga xizmat qiladigan imkoniyatlarni yuzaga chiqaradi.

2020-yilning 5-fevral kuni davlatimiz rahbari “Jahon banki va Xalqaro moliya korporatsiyasining “Biznes yuritish” yillik hisobotida O'zbekiston Respublikasining reytingini yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi qarorni imzolagan edi. Unda mamlakatimizni xorijlik investorlar uchun yanada jozibador hududga aylantirish, yurtimizning xalqaro maydondagi nufuzi va investitsion imijini keskin yuksaltirishga xizmat qiladigan vazifalar bayon etilgan. Qarordan kelib chiquvchi asosiy strategik maqsad mamlakatda 2022-yilgacha Jahon banki va Xalqaro moliya

korporatsiyasining “Biznes yuritish” hisobotidagi jahon mamlakatlarining birinchi yigirmataligi darajasiga mos keladigan qulay shart-sharoitlarni yaratishdir.

Mazkur qarorda ta’kidlanganidek: “So’nggi bir necha yillar davomida tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish sohasida normativ-huquqiy hujjatlar bazasini va tartibga solish jarayonlarini takomillashtirishga, qulay biznes muhitini va xalqaro maydonda mamlakatning ijobiy nufuzini shakllantirishga qaratilgan chora-tadbirlar ko’rildi.

Oxirgi 5 yil davomida ko’rilgan chora-tadbirlar natijasida **Jahon banki va Xalqaro moliya korporatsiyasining “Biznes yuritish” reytingida O’zbekiston jahonning 190 ta mamlakati orasida 146-o’rindan 76-o’ringa ko’tarildi.** Shu bilan birga, amaliyotda, xususan, qurilishga ruxsatnomalar olishda, mulkni ro’yxatdan o’tkazishda va tashqi savdo operatsiyalarini amalga oshirishda tadbirkorlik subyektlari duch kelayotgan ortiqcha byurokratik tartib-taomillar hanuzgacha saqlanib qolmoqda”. Anglashilmoqdaki, O’zbekiston 2022-yilga qadar yana kamida 56 pog’ona yuqorilashi kerak.

Shu o’rinda mavzuga oid yana bir ma’lumotni keltirib o’tish maqsadga muvofiq. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 13-iyuldagi “Jahon banki va Xalqaro moliya korporatsiyasining “Biznes yuritish” yillik hisobotida: “O’zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Loyiha boshqaruvi milliy agentligi manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda uch oy muddatda eng muhim xalqaro reytinglarni va tarkibiy indikatorlarni, ularni shakllantirish metodologiyasini, shuningdek, O’zbekiston Respublikasining xalqaro reyting va indekslarda oxirgi ikki yilda egallab turgan mavqeyini chuqur o’rganishni ta’minlanishi”, deya qayd etilgan edi.

Ta’kidlash joizki, so’nggi yillar mobaynida O’zbekistonda hayotning barcha jabhalarini qamrab olgan ulkan o’zgarishlar ro’y bermoqda. Bularning barchasi xalqaro hamjamiyat tomonidan e’tirof etilmoqda. Ayniqsa, xalqaro reyting agentliklari o’z indekslarida O’zbekistonni yuqori o’rinlarda qayd eta boshlayotgani mustaqillik yillarida birinchi bor kuzatilmoqda. Bu davlatimiz uchun, xalqimiz uchun juda katta yutuq. Masalan, **O’zbekiston**

Meros jamg'armasining "Iqtisodiy erkinlik" indeksida 52 pog'onaga, Jahon bankining "Logistika samaradorligi" indeksida 19 pog'onaga, "Biznes yuritish" indeksida 18 pog'onaga ko'tarildi. O'zbekiston Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining "Mamlakatlarga xos xatarlarni tasniflash" tizimidagi 6-guruh davlatlari qatoridan 5-guruh mamlakatlari qatoriga ko'tarilgani ham mazkur o'zgarishlar natijasidir. Xalqaro reytinglarda yuqori o'rinlarni olish dunyo hamjamiyatining mamlakatimizga bo'lgan e'tibori, chet el investorlarining qiziqishini oshirish uchun muhim omil hisoblanadi. Demak, bu masalaga jiddiy qarash kerakligini hayotning o'zi talab etadi. Ammo, ayrim sohalarida reytinglar bilan ishlashga yetarlicha e'tibor qaratilmayotgani va xalqaro tashkilotlar tomonidan o'tkazilayotgan so'rovlarda aksariyat islohotlar o'z aksini topmayotgani oqibatida yetakchi xalqaro reyting va indekslarda O'zbekiston hamon quyi pog'onalarda qolmoqda.

Iqtisodiy va siyosiy-huquqiy xalqaro reyting va indekslarda O'zbekiston Respublikasining o'rnini yaxshilash, bu borada mutasaddi vazirlik va idoralarning faoliyatini samarali muvofiqlashtirish, xalqaro maydonda mamlakatimiz mavqeyini yanada yuksaltirish, xorijiy reyting agentliklari bilan hamkorlikni tizimli ravishda amalga oshirish, mas'ul davlat organlari rahbarlariga yuklatilgan vazifalarni o'z vaqtida va sifatli bajarilishida ularning shaxsiy javobgarligini kuchaytirish maqsadida 2019-yil 7-mart kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xalqaro reyting va indekslarda O'zbekiston Respublikasining o'rnini yaxshilashga oid chora-tadbirlarni tizimlashtirish to'g'risida"gi qarori farmoni qabul qilindi. Unga ko'ra, Ustuvor xalqaro reyting va indekslar bilan ishlashni muvofiqlashtirish bo'yicha komissiya tuzildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2020-yil 2-iyun kuni imzolangan "O'zbekiston Respublikasining Xalqaro reyting va indekslardagi o'rnini yaxshilash hamda davlat organlari va tashkilotlarida ular bilan tizimli ishlashning yangi mexanizmini joriy qilish to'g'risida"gi Farmoni shu jihatdan qayd etib o'tilgan kamchiliklarga chek qo'yishga qaratilgan muhim hujjat hisoblanadi.

Farmonda mamlakatning investitsiyaviy jozibadorligi va xalqaro maydondagi imijini mustahkamlash, davlat organlari va tashkilotlarida xalqaro reyting va indekslar bilan ishlashning yangi mexanizmlarini joriy qilish, shuningdek, 2017–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasida belgilangan vazifalarni amalga oshirish maqsad qilingan. Hujjatda bu boradagi aniq vazifalar belgilab berilgan bo‘lib, ushbu vazifalarni bajarish jarayonida xalqaro reyting va indekslar bilan ishlash bo‘yicha Respublika Kengashi tashkil etildi. Mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy-huquqiy taraqqiyot darajasini tizimli tahlil qilib borish, turli sohalarida amalga oshirilayotgan tub o‘zgarishlarning O‘zbekiston uchun ustuvor bo‘lgan xalqaro reyting va indekslarda mamlakatimizning o‘rnini yaxshilashga xizmat qilishini ta‘minlash, mazkur yo‘nalishdagi ishlarga to‘siq bo‘layotgan muammolarni bartaraf etish mazkur kengashning asosiy vazifalari etib belgilandi.

3. Xalqaro reyting va indekslarda O‘zbekiston pozitsiyasi

Keyingi yillarda mamlakatimiz ko‘pgina ustuvor reytinglarda yuqorilab borayotgani yurtimizda aholi turmush farovonligini oshirish, jamiyatimizda ochiqlik, oshkoralikni ta‘minlash borasida qilinayotgan ezgu ishlarning muhim natijasidir. Masalan, yaqinda BMTning Sanoatni rivojlantirish tashkilotining (YUNIDO) “Raqobatbardosh sanoat unumdorligi indeksi” bo‘yicha hisoboti chop etildi. Unda mamlakatimiz ilk marotaba aks ettirilib, 152 ta mamlakat orasida 92-o‘rinni, MDHga a‘zo davlatlar orasida 5-o‘rinni, Markaziy Osiyo mamlakatlari orasida 2-o‘rinni egalladi.

Aytish kerakki, bugun jamiyatimizdagi islohotlarning bosh maqsadi xalqimizni rozi qilishdek ezgu maqsadga yo‘naltirilmoqda. Barcha sa’y-harakatlarimiz, islohotlarimiz, qabul qilayotgan qonun va qarorlarimiz zahirida ham ushbu maqsad mujassam. Aholi yuritilayotgan siyosatdan qanchalik rozi bo‘lsa, turli reyting va indekslardagi o‘rnimiz o‘z-o‘zidan oshib boraveradi.

Xususan, iqtisodiyotda davlatning rolini kamaytirish, makroiqtisodiy barqarorlikni ta‘minlash, iqtisodiy o‘sish istiqbollarini yaxshilashga qaratilgan bosqichma-bosqich islohotlar 2020-yilda Jahon bankining “Biznes yuritish” indeksida 76-

o‘rindan 69-o‘ringa ko‘tarilishimizga, “Transparency International”ning Korrupsiyani qabul qilish indeksi hamda “World Justice Project”ning Qonun ustuvorligi indeksida mamlakatimiz o‘rni yaxshilanishiga olib keldi.

“Transparency International” xalqaro tashkilotining “Korrupsiya indeksi”da O‘zbekiston 2022-yil natijalariga ko‘ra, 180 ta davlat orasida 126-o‘rinni egalladi. 2021-yil yakuni bo‘yicha O‘zbekiston 140-o‘rinda edi.

Hisobotda O‘zbekiston korrupsiyaning oldini olish maqsadida korrupsiyaga qarshi muassasa tuzgani va shaffoflikni oshirish uchun davlat xaridlari onlayn platformasini ishga tushirgani e‘tirof etilgan.

Ushbu reytingda Markaziy Osiyodan Qozog‘iston 101-o‘rinni, Qirg‘iziston 140-o‘rinni, Tojikiston 150-o‘rinni, Turkmaniston 167-o‘rinni egallagan. Reytingda Daniya 1-o‘ringa, Finlandiya va Yangi Zelandiya 2-o‘ringa munosib ko‘rilgan.

Xalqaro reyting va indekslarning ahamiyati, oldimizda turgan ustuvor vazifalarni belgilash, reyting agentliklarining metodologiyalarini o‘rganish maqsadida mahalliy hokimliklar hamda vazirlik va idoralar mas‘ullari uchun maxsus treninglar boshlandi. Shu bilan birga, eng asosiy ishimiz qonunlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarning amaldagi ijrosini, bir so‘z bilan aytganda, qonun ustuvorligini ta‘minlash va bu borada biz parlament va jamoatchilik nazoratini qat’iy yo‘lga qo‘yishga kirishildi.

O‘zbekiston Respublikasi xalqaro reytinglarda o‘rmini quyidagi ikki yo‘nalish bo‘yicha izohlash mumkin:

– indikatorlar ko‘rsatkichining o‘zgarishi: Biznes yuritish indeksi tarkibidagi 10 ta yo‘nalishning 9 tasida (to‘lovga qobiliyatsizlikni hal qilishdan tashqari), Iqtisodiy erkinlik indeksi tarkibidagi (sud faoliyati samaradorligi ko‘rsatkichidan tashqari) barcha indikatorlarda hamda Inson kamoloti indeksi bo‘yicha umr ko‘rish davomiyligi indikatorida 2020-yilda 2019-yilga nisbatan o‘sishga erishgan;

– indikatorlar o‘rningining pastligi: turlari bo‘yicha eng so‘nggi reyting natijalariga ko‘ra, Biznes yuritish indeksi tarkibidagi 3 yo‘nalish (qurilish uchun ruxsatnomalar olishda 132-o‘rin, xalqaro

savdoda 152-o‘rin va to‘lovga qobiliyatsizlikni hal qilishda 100-o‘rin), Iqtisodiy erkinlik indeksi tarkibidagi 6 yo‘nalish (sud faoliyati samaradorligida 123-o‘rin, davlat yaxlitligida 142-o‘rin, monetar erkinlikda 175-o‘rin, savdo erkinligida 129-o‘rin, investitsiyalar erkinligida 169-o‘rin va moliyaviy erkinlikda 162-o‘rin) hamda Inson kamoloti indeksi bo‘yicha 3 yo‘nalish (umr ko‘rish davomiyligida 117-o‘rin, kutilayotgan ta‘lim yillarida 128 - o‘rin va aholi jon boshiga YaMDda 126-o‘rin) indikatori juda past ko‘rsatkich sifatida baholangan.

Oxirgi to‘rt yil davomida barcha sohalarida bo‘lgani kabi mamlakatimizning investitsiyaviy jozibadorligi va xalqaro maydondagi imijini mustahkamlash borasida ko‘plab shu jumladan, xalqaro reyting va indekslarda ham salmoqli yutuqlarga erishildi. Bu yutuqlarni O‘zbekiston Respublikasining 2011–2020-yillardagi xalqaro reyting va indekslardagi dinamikasi orqali ko‘rishimiz mumkin.

Mamlakatimizning Biznes yuritish indeksi bo‘yicha 2020-yil 2011-yilga nisbatan 81 ta pog‘onaga, Iqtisodiy erkinlik indeksi bo‘yicha 49 ta pog‘onaga hamda Inson kamoloti indeksi bo‘yicha esa 7 ta pog‘ona (2020-yilgi reyting natijalari 2020-yil dekabr oyida e‘lon qilinishini hisobga olib, 2019-yil yakunlariga nisbatan olindi)ga yuqorilab, bu borada bir qancha yutuqlarga erishayotganini ko‘rish mumkin.

Siyosiy-huquqiy reyting va indekslarda mamlakatimiz o‘rinlari nisbatan quyi pog‘onalarda. Masalan, So‘z erkinligi va hisobdorlik indeksida 191-o‘rinda, Normativ sifat indeksida 184-o‘rinda, Korrupsiyani nazorat qilish indeksida 183-o‘rinda, Qonun ustuvorligi indeksida 182-o‘rinda, Jahon matbuot erkinligi indeksida 156-o‘rinda turibmiz. Albatta, so‘nggi 3–4 yil mobaynida ushbu sohalarini tartibga soluvchi ko‘plab qonun hujjatlari qabul qilindi, turli institutsional o‘zgarishlar ro‘y berdi. Xususan, mamlakatimizda so‘z erkinligi hamda ommaviy axborot vositalarining cheklov va to‘siqlarsiz faoliyat yuritishi uchun zarur sharoitlar yaratildi. Ommaviy axborot vositalari uchun media bozorida teng sharoit yaratish va ularni yanada rivojlantirish hamda jurnalist va blogerlarni qo‘llab-quvvatlash maqsadida Milliy mass-mediai qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirish jamoat fondi tashkil etildi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish sohadagi munosabatlarni tartibga solish maqsadida “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonun qabul qilindi. Bu boradagi davlat dasturlarining ishlab chiqilishi va amalga oshirilishini tashkil etish, turli organlar va tashkilotlarning faoliyatini muvofiqlashtirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish maqsadida Korrupsiyaga qarshi kurashish milliy kengashi tashkil etildi. Korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish sohasida davlat siyosatini yurituvchi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tuzildi.

Qator sohalaridagi o‘zgarishlar bilan bog‘liq qonunchilikning jadal rivojlanishi ayrim hollarda amaldagi qonun hujjatlariga zid bo‘lgan ko‘plab normalarning vujudga kelishiga sabab bo‘ldi. Shuning uchun ham qonunchilikni tubdan qayta ko‘rib chiqish, uni tizimlashtirish, normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish va qabul qilish jarayonlari sifatini oshirish, ijrosi monitoringini takomillashtirish maqsadida Norma ijodkorligi faoliyatini takomillashtirish konsepsiyasi ishlab chiqildi.



The World Justice Project

“World Justice Project”

xalqaro nohukumat tashkiloti
2019-yil yakunlari bo‘yicha
2020-yil uchun huquq
ustuvorligi indeksini e‘lon
qilindi. Ta’kidlash joizki,
mazkur indeksning qamrovi
yildan yilga kengayib

bormoqda. Xususan, 2018-yilda 119 mamlakat qamrab olingan bo‘lsa, 2019-yilda 126 mamlakat, 2020-yilda esa 128 mamlakat baholandi. Baholash jarayonida hukumatning ochiqligi, jamiyatning korrupsiyadan xolilik darajasi, qonunlarga rioya qilinishi, huquq-tartibot, xavfsizlik odil sudlov kabi inson huquqlarini muhofazalash bilan bog‘liq natijalar muhim mezon etib belgilandi. Ushbu indeksda O‘zbekiston 128 ta davlat ichida 92-o‘rinni egallab o‘tgan yilgi indeksdan to‘rt pog‘ona yuqoriladi. Bu MDH mamlakatlari orasida eng yaxshi ijobiy ko‘rsatkichdir.

Prezidentimizning 2017–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha

Harakatlar strategiyasini “Ilm, ma’rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to’g’risidagi Farmonida mamlakatimizda jamiyatning barcha sohalari, jumladan, jamiyatda qonun ustuvorligini ta’minlash va inson huquqlarini muhofazalash borasidagi islohotlarni izchil davom ettirish belgilangan. Jumladan, 1995-yilgacha O’zbekistonga kelgan va shundan buyon fuqaroligi bo’lmagan shaxs guvohnomasi asosida doimiy istiqomat qilayotgan hamda O’zbekiston Respublikasi fuqarosi bo’lish istagini bildirgan shaxslarni O’zbekiston Respublikasi fuqarosi deb tan olish tartibini joriy etish, odil sudlovni ta’minlash, tadbirkorlarning manfaatini muhofazalash, propiska tizimini isloh etish va boshqa yangiliklar inson huquqlarini ta’minlash yo’lida muhim qadam bo’ladi.

Biznes yuritish osonligi reytingi – Doing Business reytingi kichik va o’rta biznes yuritish osonligi darajasini ifodalaydi. Hozirgi paytda bunda jami 11 indikator baholanadi: yangi ishni tashkil qilish, qurilishga oid ruxsatnomalar olish, elektroenergiyaga ulanish, mol-mulkni ro’yxatdan o’tkazish, kredit olish, minoritar investorlarni himoyalash, soliqlarni to’lash, transchegaraviy savdo, shartnomalarga rioya qilish mexanizmlari, bankrotlik, shuningdek, mehnat bozorini tartibga solish osonligi. Doing Business – mamlakatlar investitsiyaviy iqlim holatini tavsiflovchi eng ommaviy reytinglardan biri. 2019-yilda O’zbekistonga 76-o’rin berilgan edi. 2012-yilga taqqoslaganda O’zbekiston 78 pozitsiyaga ko’tarildi.

Iqtisodiy erkinlik ko’rsatkichi – O’zbekistonning iqtisodiy erkinligi 53,3 ballga teng bo’lib, 2019-yilgi ko’rsatkichga binoan 140-o’rinda. Biznes erkinligi, mehnat erkinligi hamda investitsiya erkinligi yuqorilab, O’zbekiston iqtisodiy erkinligi umumiy hisobda 1,8 ballga o’sgan. O’zbekiston Osiyo-Tinch okeani mintaqasidagi 43 mamlakat orasida 36-o’rinni egallab turibdi va uning umumiy reytingi mintaqaviy va jahon o’rtacha ko’rsatkichlaridan past.

O’zbekistonning Inson taraqqiyoti indeksi qiymati 2017-yil uchun 0,7–10 ni tashkil etdi, bu mamlakat inson taraqqiyotining yuqori toifasiga kirib, 189 ta mamlakat va hudud ichida 105-o’rinni band etdi deganidir. 2000–2007-yillar oralig’ida O’zbekistonning Inson taraqqiyoti indeksi qiymati 19,3 foizga oshgan holda 0,595 dan 0,7–10 ga ko’tarildi.

Logistik faoliyat ko'rsatkichi – O'zbekiston har ikki yilda nashr etiladigan Jahon Banklarining logistik faoliyat ko'rsatkichi nashrida 2018-yilda 2016-yildagi 118-o'rnidan 19 pog'ona yuqorilab oldi. Logistik faoliyat ko'rsatkichi uchun asosiy mezonlar bojxona, infrastruktura, xalqaro yuk tashish, logistik mahorat, harakatlanish, kuzatish hamda davriylikni o'z ichiga oladi.

Ekologik samaradorlik indeksi (The Environmental Performance Index) – Yel universiteti qoshidagi Ekologik siyosat va huquq markazining aralash ko'rsatkichisi bo'lib, u mamlakat yutuqlarini ekologiya va tabiiy resurslarni boshqarish nuqtayi nazaridan o'lchaydi. 2018-yilgi reyting yakunlariga ko'ra O'zbekiston 136-o'rinni egalladi.

Ilmiy-tadqiqot faolligi darajasi ko'rsatkichi mamlakat ilmiy-texnik rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlaridan biri hisoblanadi hamda ilmiy manbalar indeksi tizimiga kiritilgan tahrir qilinuvchi ilmiy jurnallar va nashrlarda chop qilingan ilmiy-tadqiqot materiallarining umumiy soni sifatida hisob-kitob qilinadi. Dunyo mamlakatlari ilmiy-tadqiqot faolligi ko'rsatkichi har yili AQSH ning "Science and Engineering Indicators" deb nomlanuvchi Milliy ilmiy fondining maxsus hisobotida chop qilinadi. 2017-yilda O'zbekiston dunyoning 195 mamlakati o'rtasida 82-o'rinni egalladi.

AKT rivojlanishi indeksi 2007-yilda Xalqaro elektraloqa ittifoqi tomonidan AKT rivojlanishini baholashda foydalaniladigan 11 ko'rsatkich asosida amalga oshiriladi. Indeks ushbu ko'rsatkichlarni yagona mezonga birlashtiradi, va undan dunyo mamlakatlarining AKT rivojlanishi borasidagi yutuqlarini taqqoslashga yo'naltiriladi, ayni paytda global, mintaqaviy va milliy darajalarda qiyosiy tahlilni amalga oshirish vositasi sifatida foydalanilishi mumkin. 2017-yilda ushbu indeks bo'yicha O'zbekiston 95-o'rinni egalladi.

Xulosa qilib aytganda, so'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasining xalqaro reyting va indekslardagi o'rini yaxshilash hamda davlat organlari va tashkilotlarida ular bilan tizimli ishlashning yangi mexanizmini joriy etish borasidagi davlat siyosati, bu tegishli huquqiy-normativ hujjatlarning qabul qilinishi, mazkur yo'nalishdagi ishlarning samaradorligiga to'siq bo'layotgan

muammolarni bartaraf etish yuzasidan olib borilayotgan chora-tadbirlar, birinchi navbatda respublikada olib borilayotgan islohotlarning natijasini jahon miqyosida e'tirof etishga qaratilgan bo'lsa, eng asosiysi bu harakatlar xalqning farovonligi va turmush tarzining yaxshilanishi va haq-huquqlari himoya qilinishi tizimining yanada yuqori saviyaga ko'tarilishiga xizmat qiladi. Bu jarayonda O'zbekiston Respublikasida olib borilayotgan islohotlar nafaqat ichki tartib-qoidalar, ya'ni tegishli hukumat organlari va nodavlat notijorat tashkilotlar tomonidan, balki jahonda tan olingan xalqaro reyting va indekslarning (mustaqil) identifikatorlaridagi reytinglari asosida baholanib boriladi. Bu esa o'z navbatida O'zbekistonning jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuv jarayonini tezlashtirishga, dunyo miqyosida respublikadagi ijtimoiy-iqtisodiy va boshqa sohalarda olib borilayotgan islohotlarni amaldagi natijalarini yaqqol ko'rsatishga xizmat qilib, rivojlangan davlatlarning respublikaga turli ko'rinishdagi investitsiyalar kiritish imkonini kuchaytiradi.

Shuni aytish joizki, dunyo davlatlarining orasida O'zbekiston ham o'z o'rnini topib bormoqda. Shunday ekan uning ana shu indeks va reytingini ko'tarish yo'lida mamlakatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoyev tomonidan amalga oshirilayotgan islohotlarning ko'lami yildan yilga ortib bormoqda, desak mubolag'a bo'lmaydi.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar

1. Xalqaro reyting va indekslar deganda nimani tushunasiz?
2. O'zbekiston Respublikasining xalqaro reyting va indekslardagi o'rnini yaxshilash borasida qanday huquqiy-normativ hujjatlar qabul qilingan?
3. O'zbekiston Respublikasining xalqaro reyting va indekslardagi o'rnini yaxshilash borasida qanday chora-tadbirlar olib borilmoqda?
4. Xalqaro reyting va indekslarda O'zbekiston ko'rsatkichlari qanday?
5. "Biznes yuritish" indeksi nima?
6. "Logistika samaradorligi" indeksi nima?
7. Iqtisodiy erkinlik va Inson kamoloti indeksi nimalarga asoslangan?

8. Huquq ustuvorligi indeksi, Jahon mamlakatlari demokratiyasi indeksi, Matbuot erkinligi indeksi haqida nimalarni bilasiz?

Normativ-huquqiy hujjatlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 7-mart 2019-yildagi “Xalqaro reyting va indekslarda O‘zbekiston Respublikasining o‘rnini yaxshilashga oid chora-tadbirlarni tizimlashtirish to‘g‘risida”gi Farmoni.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 5-fevral 2019-yildagi “Jahon banki va xalqaro moliya korporatsiyasining “Biznes yuritish” yillik hisobotida O‘zbekiston Respublikasining reytingini yaxshilashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 25-fevral 2020-yildagi “O‘zbekiston Respublikasining xalqaro reytinglar va indekslardagi o‘rnini yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2-iyun 2020-yildagi “O‘zbekiston Respublikasining xalqaro reyting va indekslardagi o‘rnini yaxshilash hamda davlat organlari va tashkilotlarida ular bilan tizimli ishlashning yangi mexanizmini joriy qilish to‘g‘risida”gi Farmoni.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Mirziyoyev Sh.M. Hozirgi zamon va Yangi O‘zbekiston. – Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2024.

2. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017.

3. Ermetov A. O‘zbekiston Respublikasining xalqaro reyting va indekslardagi o‘rni va nufuzining ortib borishi masalalari / Uchinchi renessansning ilmiy-ma’naviy asoslari / Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami. – Navoiy, 2021. – B. 15-18.

4. <https://xs.uz/uzkr/post/ozbekistonning-kxalqaro-rejting-va-indekslardagi-ornini-yaxshilashda-parlament-qandaj-jol-tutadi>

12-MAVZU. YANGI O‘ZBEKISTONDA PREZIDENT SH.M.MIRZIYOYEV RAHBARLIGI VA TASHABBUSI OSTIDA AMALGA OSHIRILAYOTGAN ISLOHOTLAR

Reja:

1. O‘zbekiston Respublikasida Prezidentlik lavozimi.
2. Sh.M. Mirziyoyev – O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti.
3. 2017–2021-yillarda amalga oshirilgan “Harakatlar strategiyasi”ning mazmun va mohiyati.
4. 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasining yo‘nalishlari.
5. O‘zbekiston Respublikasida Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning qabul qilinishi.

1. O‘zbekiston Respublikasida Prezidentlik lavozimi

Ma’lumki dunyoda XXI asrning boshlariga kelib ikki yuzdan ortiq davlatlar mavjud bo‘lgan jahon hamjamiyati vujudga keldi. Ushbu davlatlarda xalqaro va mahalliy qonunchiligi va normalarda belgilangani kabi davlat boshqaruvi tizimlari qaror topdi. Bunda asosan, ko‘pchilik davlatlar boshqaruvning prezidentlik ko‘rinishini ma’qul ko‘rgan va uni amalga oshirib kelmoqda.

Daslab, bu so‘zning lug‘aviy ma’nosiga to‘xtalib o‘tadigan bo‘lsak, Prezident (lotincha: "pre" (avval) va "sedere" (o‘tirmoq) o‘zbekcha "oldinda o‘tirgan") degan ma’nolarni anglatadi. Bu so‘zdan ko‘proq mamlakat boshqaruvida foydalaniladi. Xususan, hozirda ko‘pchilik (respublika shaklida idora qilinadigan) mamlakatlarda saylab qo‘yiladigan davlat boshlig‘i hisoblanib, dunyo mamlakatlarining 140 dan ortig‘ida prezidentlik lavozimi joriy qilingan. Jumladan, bunday boshqaruv shakli ilk bor AQSHda 1787-yil vujudga kelgan hisoblanadi.

O‘tgan asrning 90-yillarida O‘zbekiston o‘z istiqlol va taraqqiyot yo‘lini qo‘lga kiritib, suverenitet sari intilishida yangi bir bosqichni yaratish maqsadida 1990-yil 24-mart kuni mamlakat Oliy Kengashning yig‘ilishida davlat boshqaruvining prezidentlik lavozimi joriy etilgan edi. Natijada, ushbu lavozim uchun 1991-yil, 2000-yil, 2007-yil, 2015-yil, 2016-yil, 2021-yil, 2023-yillarda O‘zbekiston Respublikasida belgilangan qonunchilikka ko‘ra saylovlar bo‘lib o‘tgan.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi, faoliyati, maqomi va barcha jihatlarini O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasi Saylov kodeksi, "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti faoliyatining asosiy kafolatlari to'g'risida"gi Qonun va boshqa hujjatlar bilan tartibga keltiriladi.

Ya'ni, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi XIX bobining 105-113-moddalarida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining konstitutsiyaviy huquqiy maqomi, vazifalari hamda vakolatlari belgilab berilgan. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 105-modda aytilgani kabi O'zbekiston Respublikasining Prezidenti davlat boshlig'idir va davlat hokimiyati organlarining kelishilgan holda faoliyat yuritishini hamda hamkorligini ta'minlaydi.

Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti davlat hokimiyatlarining barqaror faoliyatida mamlakat fuqarolarining barcha huquqlarining kafolatchisi hisoblanadi.

Shuningdek, mamlakat qonunchiligiga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga o'ttiz besh yoshdan kichik bo'lmagan, davlat tilini yaxshi biladigan, bevosita saylovgacha kamida 10 yil O'zbekiston hududida muqim yashayotgan O'zbekiston Respublikasi fuqarosi saylanishi mumkin. Ayni bir shaxs surunkasiga ikki muddatdan ortiq O'zbekiston Respublikasining Prezidenti bo'lishi mumkin emas.

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti O'zbekiston Respublikasining fuqarolari tomonidan umumiy, teng va to'g'ridan to'g'ri saylov huquqi asosida yashirin ovoz berish yo'li bilan yetti yil muddatga saylanadi. O'zbekiston Respublikasining Prezidentini saylash tartibi qonun bilan belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti o'z vazifasini bajarib turgan davrda boshqa haq to'lanadigan lavozimni egallashi, vakillik organining deputati bo'lishi, tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishi mumkin emas.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining shaxsi daxlsizdir va qonun bilan muhofaza etiladi.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining maqomi haqida so'z borganda shuni aytish mumkinki, O'zbekiston

Respublikasi Konstitutsiyasining XIX bobida belgilangani kabi quyidagi vakolatlar beriladi.

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti:

1) fuqarolarning huquqlari va erkinliklariga, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlariga rioya etilishining, O'zbekiston Respublikasi suvereniteti, xavfsizligi va hududiy yaxlitligining kafilidir, milliy-davlat tuzilishi masalalariga doir qarorlarni amalga oshirish yuzasidan zarur chora-tadbirlar ko'radi;

2) mamlakat ichkarisida va xalqaro munosabatlarda O'zbekiston Respublikasi nomidan ish ko'radi;

3) muzokaralar olib boradi hamda O'zbekiston Respublikasining shartnoma va bitimlarini imzolaydi, respublika tomonidan tuzilgan shartnomalarga, bitimlarga va uning qabul qilingan majburiyatlariga rioya etilishini ta'minlaydi;

4) o'z huzurida akkreditatsiyadan o'tgan diplomatik hamda boshqa vakillarning ishonch va chaqiruv yorliqlarini qabul qiladi;

5) O'zbekiston Respublikasining chet davlatlardagi va xalqaro tashkilotlar huzuridagi diplomatik hamda boshqa vakolatxonalarining rahbarlarini tayinlash uchun nomzodlarni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senatiga taqdim etadi;

6) O'zbekiston Respublikasi xalqiga hamda Oliy Majlisiga mamlakat ichki va tashqi siyosatini amalga oshirishning eng muhim masalalari yuzasidan murojaat qilish huquqiga ega;

7) vazirliklarni va boshqa respublika ijro etuvchi hokimiyat organlarini tuzadi hamda tugatadi, shu masalalarga doir farmonlarni keyinchalik O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati tasdig'iga kiritadi;

8) Senat Raisi lavozimiga saylash uchun nomzodni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senatiga taqdim etadi;

9) O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirini, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi a'zolarini O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi ma'qullaganidan keyin lavozimga tayinlaydi va ularni lavozimidan ozod etadi;

10) qo'mitalar, agentliklar va boshqa respublika davlat organlari rahbarlarini qonunchilikka muvofiq lavozimga tayinlaydi va lavozimidan ozod etadi;

11) O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorini, O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasi raisini O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati ma'qullaganidan keyin lavozimga tayinlaydi va ularni lavozimidan ozod etadi;

12) O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati bilan maslahatlashuvlardan keyin O'zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati raisini lavozimga tayinlaydi va uni lavozimidan ozod etadi;

13) O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senatiga O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi, O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi tarkiblariga nomzodlarni, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining raisi, respublika korrupsiyaga qarshi kurashish organining rahbari va respublika monopoliyaga qarshi organining rahbari lavozimlariga nomzodlarni taqdim etadi;

14) O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashining taqdimiga binoan viloyatlar va Toshkent shahar sudlari raislarini va rais o'rinbosarlarini, O'zbekiston Respublikasi Harbiy sudi raisini tayinlaydi va lavozimidan ozod etadi;

15) viloyatlar hokimlarini va Toshkent shahar hokimini tayinlaydi hamda lavozimidan ozod etadi. Konstitutsiyani, qonunlarni buzgan yoki hokim sha'ni va qadr-qimmatiga dog' tushiradigan xatti-harakat sodir etgan tuman va shahar hokimlarini O'zbekiston Respublikasi Prezidenti o'z qarori bilan lavozimidan ozod etishga haqli;

16) respublika ijro etuvchi hokimiyat organlarining va hokimlarning hujjatlarini to'xtatadi, bekor qiladi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi majlislarida raislik qilishga haqli;

17) O'zbekiston Respublikasining qonunlarini imzolaydi va e'lon qiladi; qonunni o'z e'tirozlari bilan takroran muhokama qilish va ovozga qo'yish uchun O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga qaytarishga haqli;

18) O'zbekiston Respublikasiga hujum qilinganda yoki tajovuzdan bir-birini mudofaa qilish yuzasidan tuzilgan shartnoma majburiyatlarini bajarish zaruriyati tug'ilganda urush holati, umumiy yoki qisman safarbarlik e'lon qiladi va qabul qilgan

qarorini uch kun ichida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining tasdig'iga kiritadi;

19) alohida hollarda (real tashqi xavf, ommaviy tartibsizliklar, yirik halokat, tabiiy ofat, epidemiyalar) fuqarolarning xavfsizligini ta'minlashni ko'zlab, O'zbekiston Respublikasining butun hududida yoki uning ayrim joylarida favqulodda holat joriy etadi va qabul qilgan qarorini uch kun ichida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalari tasdig'iga kiritadi. Favqulodda holat joriy etish shartlari va tartibi qonun bilan belgilanadi;

20) O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining Oliy Bosh qo'mondoni hisoblanadi, Qurolli Kuchlarning oliy qo'mondonlarini tayinlaydi va lavozimidan ozod etadi, oliy harbiy unvonlar beradi;

21) O'zbekiston Respublikasining ordenlari, medallari va yorlig'i bilan mukofotlaydi, O'zbekiston Respublikasining malakaviy va faxriy unvonlarini beradi;

22) O'zbekiston Respublikasining fuqaroligiga va siyosiy boshpana berishga oid masalalarni hal etadi;

23) amnistiya to'g'risidagi hujjatlarni qabul qilish haqida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senatiga taqdimnomalar kiritadi va O'zbekiston Respublikasining sudlari tomonidan hukm qilingan shaxslarni afv etadi;

24) O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Xavfsizlik kengashini tuzadi va unga boshchilik qiladi, o'z vakolatlari amalga oshirilishini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasini, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi maslahat-kengash organlarini va boshqa organlarni shakllantiradi;

25) ushbu Konstitutsiya va qonunlarda nazarda tutilgan boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti o'z vakolatlarini bajarishni davlat organlariga yoki mansabdor shaxslarga topshirishga haqli emas.

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Konstitutsiyaga va qonunlarga asosanib hamda ularni ijro etish yuzasidan respublikaning butun hududida majburiy kuchga ega bo'lgan farmonlar, qarorlar va farmoyishlar chiqaradi.

Qonunchilik palatasi yoki Senat tarkibida ularning normal faoliyatiga tahdid soluvchi hal qilib bo'lmaydigan ixtiloflar yuz

berganda yoxud ular bir necha marta O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga zid qarorlar qabul qilgan taqdirda, shuningdek, Qonunchilik palatasi bilan Senat o'rtasida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining normal faoliyatiga tahdid soluvchi hal qilib bo'lmaydigan ixtiloflar yuz berganda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi bilan bamaslahat qabul qilgan qarori asosida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi, Senati tarqatib yuborilishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasida Prezidenti Administratsiyasi o'z faoliyatini olib boradi. Bu haqda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 26-avgustdagi "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasini tashkil etish to'g'risida"gi Farmoni qabul qilinib, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti faoliyatini axborot-tahliliy va tashkiliy-nazorat jihatdan ta'minlashni amalga oshiruvchi davlat organi hisoblanadi.

Administratsiyaning asosiy vazifalari esa quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining konstitutsiyaviy vakolatlari, shu jumladan davlat hokimiyati organlarining kelishilgan holda faoliyat yuritishini va hamkorligini ta'minlash bo'yicha vakolatlari amalga oshirilishiga ko'maklashish;

- mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy rivojlanishi holati va tendensiyalarini tahlil qilish, amalga oshirilayotgan islohotlarni huquqiy jihatdan ta'minlash;

- mamlakatda qonuniylik va huquq-tartibotni, fuqarolarning huquq va erkinliklari, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga rioya etilishini ta'minlashga ko'maklashish, huquqni muhofaza qilish faoliyatini muvofiqlashtirish;

- davlat ichki va tashqi siyosatining asosiy yo'nalishlarini shakllantirish, suverenitetni muhofaza qilish, O'zbekiston Respublikasining xavfsizligi va hududiy yaxlitligini ta'minlash bo'yicha takliflar ishlab chiqish;

- aholi bilan ochiq va to'g'ridan to'g'ri muloqotni tashkil etish hamda xalq farovonligini yuksaltirish, jismoniy va yuridik shaxslarning O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga murojaat qilish huquqi ro'yobga chiqarilishi uchun shart-sharoitlar yaratish;

– fuqarolik jamiyati institutlari bilan ularning demokratik huquqiy davlat va ochiq fuqarolik jamiyatini barpo etishdagi rolini kuchaytirishga qaratilgan samarali o‘zaro hamkorlikni ta’minlash;

– kadrlarga oid yagona davlat siyosatini amalga oshirish va davlat xizmati ishlarining davlat tomonidan boshqarilishini ta’minlash;

– O‘zbekiston Respublikasi qonunlari va O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlarining ijrosini tashkil etish, ularning amalga oshirilishini nazorat qilish va ko‘maklashish;

– O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi tuzilmalar, shuningdek, uning vakolatlari amalga oshirilishiga ko‘maklashadigan maslahat va kengash organlari faoliyatini tashkil etish;

– O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti faoliyatini huquqiy, tashkiliy-texnik, axborot-tahliliy va protokol jihatdan ta’minlash.

Umuman olganda, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti faoliyatiga oid huquqiy asoslar shakllantirilgan va tashkiliy jihatlari to‘la hal qilingan.

2. Sh.M. Mirziyoyev – O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti.

Ma’lumki, 2016-yil 2-sentabr kuni O‘zbekistonning Birinchi Prezidenti Islom Karimov 78 yoshida vafot etdi. Mamlakat qonunlarida prezident o‘z vazifasini bajara olmasa, yoki vafot etsa O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimini vaqtinchalik Senat raisi boshqarishi belgilab qo‘yilgan edi. Faqat belgilangan vaqtda saylov tashkil etilishi va fuqarolarning munosib nomzodni saylab olishga imkoniyat yaratishi kabi normalar ham mavjud edi.

Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaning 96-moddasiga ko‘ra, amaldagi prezident o‘z vazifalarini bajara olmaydigan holatlarda uning vazifa va vakolatlari vaqtincha Oliy Majlis Senati raisiga yuklatiladi. Biroq o‘sha paytda bu lavozimda bo‘lgan N. Yo‘ldoshev 2016-yil 8-sentabrda Oliy Majlis palatalari qo‘shma yig‘ilishida so‘zga chiqib, davlat rahbari bo‘lish uchun salohiyati yetmasligini bildirdi hamda prezident vazifa va vakolatlarni o‘zining zimmasiga yuklamasliklarini so‘radi.

Shuningdek, N. Yo‘ldoshev o‘sha vaqtlarda mamlakatning Bosh vaziri lavozimida faoliyat olib borayotgan Shavkat

Mirziyoyevning rahbarlik lavozimlaridagi ko‘p yillik tajribasini inobatga olgan holda, prezident vazifa va vakolatlarini bajarishni uning zimmasiga vaqtincha yuklash maqsadga muvofiqligini taklif qildi.

Shu kuni Oliy Majlis palatalarining qo‘shma qaroriga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining vazifa va vakolatlarini bajarish vaqtincha O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri lavozimida mehnat qilayotgan Sh.Mirziyoyev zimmasiga yuklandi.

Shundan so‘ng, mamlakat konstitutsiyaga ko‘ra, uch oy muddat ichida – 2016-yil 4-dekabr kuni O‘zbekiston tarixidagi beshinchi prezidentlik saylovi bo‘lib o‘tdi.

O‘zbekiston Respublikasi markaziy saylov komissiyasi 4 nafar siyosiy partiyalar tomonidan ko‘rsatilgan nomzodlarni O‘zbekiston Respublikasi Prezidentligi lavozimiga saylanish uchun ro‘yxatga oldi.

Markaziy saylov komissiyasi ma’lumotiga ko‘ra, ovoz berish jarayonida ro‘yxatga kiritilgan 20 million 461 ming 805 nafar saylovchidan 17 million 951 ming 667 nafari (87,73 foizi) ishtirok etgan.

Saylov natijalariga ko‘ra:

1. Shavkat Mirziyoyev (O‘zLiDeP) – 15 906 724 ta ovoz (88,61 foiz).
2. Hotamjon Ketmonov (XDP) – 669 187 ta ovoz (3,73 foiz).
3. Narimon Umarov (“Adolat” SDP) – 619 972 ta ovoz (3,46 foiz).
4. Sarvar Otamuratov (“Milliy tiklanish” DP) – 421 055 ta ovoz (2,35 foiz) ini olishdi.

Saylov yakunlariga ko‘ra, Markaziy saylov komissiyasi o‘zining vakolati doirasida Sh.M. Mirziyoyevni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga saylangan deb hisoblash to‘g‘risida qaror qabul qildi.

2019-yil 25-iyun kuni saylovlarga doir yana bir o‘zgarish bo‘ldi. O‘zbekiston tarixida ilk bor “Saylov kodeksi” qabul qilindi. Ushbu kodeks bilan tarqoq holdagi 5 ta qonun («O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi to‘g‘risida»gi, «Fuqarolarning saylov huquqlari kafolatlari to‘g‘risida»gi, «O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to‘g‘risida»gi, «Xalq deputatlari

viloyat, tuman, shahar Kengashlariga saylov to'g'risida»gi, «O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi to'g'risida»gi) va Markaziy saylov komissiyasining saylovlarni tashkil etish va o'tkazishga oid o'nlab qaror va yo'riqnomalari o'z kuchini yo'qotdi.

Shuningdek, 2021-yilda Saylov kodeksiga tegishli o'zgartishlar kiritish to'g'risidagi qonun bilan Prezident saylovlari bo'lib o'tadigan kun dekabr oyidan oktabr oyiga ko'chirildi.

Yangi saylov qonunchiligi asosida 2021-yil 24-oktabr kuni bo'lib o'tgan mustaqil O'zbekiston tarixidagi oltinchi prezident saylovida saylovchilar ro'yxatiga kiritilgan 20 million 158 ming 907 nafar saylovchidan 16 million 212 ming 343 nafari (80,4 foizi) qatnashdi.

Ushbu prezident saylovida uncha og'ir bo'lmagan yoki ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan jinoyatlarni sodir etgan 8 203 nafar mahkum ham birinchi marta ovoz berishi ma'lum qilindi.

Ovozlar berish yakunlari quyidagicha yakunlandi:

1. Shavkat Mirziyoyev (O'zLiDeP) – 80,1 foiz ovoz.
2. Maqsuda Vorisova (XDP) – 6,6 foiz ovoz.
3. Alisher Qodirov («Milliy tiklanish» DP) – 5,5 foiz ovoz.
4. Narzullo Oblomurodov (Ekopartiya) – 4,1 foiz ovoz.
5. Bahrom Abduhalimov («Adolat» SDP) – 3,4 foiz ovoz.

Shuningdek, 2023-yil yangilangan mamlakat asosiy qonuni – O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga ko'ra yangi muddatga prezidentlik savlovini o'tkazishni talab etar edi. Shundan kelib chiqib, Markaziy Saylov komissiyasining qarori bilan 2023-yil 9-iyulda muddatidan ilgari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi o'tkazildi. Unda O'zLiDePdan nomzod sifatida ko'rsatilgan Sh.Mirziyoyev savlovda ishtirok etganlarning 87,05 foiz ovozi bilan yetti yil muddatga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti etib saylandi.

Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning tarjimai holi haqida so'z borganda quyidagilarni ma'lum qilish lozim.

Sh.M.Mirziyoyev 1957-yil 24-iyulda Jizzax viloyatining Zomin tumanida shifokor oilasida tug'ilgan. Millati – o'zbek. Oliy ma'lumotli, 1981-yili Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari institutini tugatgan. Muhandis-mexanik mutaxassisligiga ega. Texnika fanlari nomzodi, dotsent.

Mehnat faoliyatini 1981-yilda Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari institutida boshlab, kichik ilmiy xodim, katta o'qituvchi, dotsent, o'quv ishlari bo'yicha prorektor lavozimlarida ishladi.

1990-yili Respublika Oliy Soveti deputatligiga saylanib, ayni vaqtda Mandat komissiyasining raisi sifatida ham faoliyat ko'rsatdi.

1992-yilda Toshkent shahrining Mirzo Ulug'bek tumani hokimi lavozimiga tayinlandi. 1996–2001-yillarda Jizzax viloyati hokimi, 2001–2003-yillar mobaynida Samarqand viloyati hokimi lavozimlarida ishlab, mazkur tuman va viloyatlarni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan rivojlantirishga katta hissa qo'shdi.

Ijro hokimiyatidagi faoliyati bilan bir paytda 1995–2003-yillarda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining deputati sifatida ham faoliyat olib bordi.

Sh.M.Mirziyoyev 2003-yilda O'zbekiston Respublikasining Bosh vaziri etib tasdiqlandi va ushbu lavozimga yana uch marta – 2005, 2010, 2015-yillarda Oliy Majlis palatalari tomonidan qayta tasdiqlandi.

2016-yil 8-sentabr kuni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisida parlament palatalarining qo'shma qaroriga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Prezidentining vazifa va vakolatlarini bajarish vaqtincha O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri Sh.M.Mirziyoyev zimmasiga yuklandi.

2016-yil 4-dekabr kuni bo'lib o'tgan Prezident saylovi yakunlari bo'yicha saylovchilarning 88,61 foiz ovozi bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti etib saylandi. 2016-yil 14-dekabrda rasman o'z vazifasini bajarishga kirishdi.

2021-yil 24-oktabr kuni Prezident Shavkat Mirziyoyev saylovchilarning 80,1 foiz ovozi bilan ikkinchi besh yillik muddatga qayta saylandi.

2023-yil 9-iyul kuni muddatidan oldin saylovlar o'tkazilishi belgilandi. Prezidentlik muddatlari yangilandi va amaldagi Prezident qayta saylandi.

Sh.M.Mirziyoyev oilali, ikki qiz, bir o'g'li, olti nafar nabirasi bor. Rafiqasi Z.M. Mirziyoyeva – mutaxassisligi bo'yicha muhandis-iqtisodchi.

3. 2017–2021-yillarda amalga oshirilgan “Harakatlar strategiyasi”ning mazmun va mohiyati

Ma’limki har bir davlat rahbari o‘z xalqining farovonligi va mamlakat rivoji uchun strategik ahamiyatga ega bo‘lgan tashabbuslarni ilgari suradi va davlat institutlari hamda jamiyat a’zolari bilan hamkorlikda uni amalga oshirib boradi. Aynan, ushbu tashabbuslar xalqchil bo‘lishi va amalga oshirilishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan dastlabki tashabbus bu “Xalq davlat idoralariga emas, davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak” tamoyilini joriy qilishga oid bo‘ldi. Bu esa davlat institutlarining xalqqa yaqinlashishga va ular uchun xizmat qilishi kerakligini anglatadi hamda ta’minlaydi.

Shundan kelib chiqib, 2017-yil “Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili” deb e’lon qilindi. Albatta, xalq bilan doimiy muloqot – bu fuqarolik jamiyatining eng asosiy sharti edi. Lekin, mamlakatda davlat hokimiyati organlari boshqaruvining ahvoli qandayligi, fuqarolarning bu haqda qanday fikrda ekanligini aniqlash lozim edi.

Buning uchun 2016-yilning 28-dekabrida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni e’lon qilindi. Unga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti devoni ishlar boshqarmasining Fuqarolar qabulxonasi negizida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonasi hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida, shuningdek, har bir tuman va shaharda (tumanga bo‘ysunuvchi shaharlardan tashqari), O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining virtual qabulxonasi tuzildi. Bu borada aholi bilan doimiy muloqot qilish, ularni qiynayotgan muammolarni hal etishning yangi mexanizmlari va samarali usullarini joriy etilishiga erishildi.

Biroq, barcha tashabbuslarni yaxlit holatda strategik jihatdan jamlash va yagona dasturga aylantirib ijrosiga kirishish samarali amaliyot hisoblanadi. Uning samarasi shundaki barcha davlat institutlari hamda keng jamoatchilik yaqin kelajakda o‘z vakolat va

vazifasidan kelib chiqib nima qilishi kerak va uni qanday natijalar kutmoqda degan haqli savolga javob topadi. Ijro intizomi mustahkamlanadi. Amalga oshirilgan ishlar barcha uchun ochiq bo'ladi.

Shu maqsadda, 2017-yil 7-fevralda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi muhim ahamiyat kasb etdi.

Bu esa mamlakatda fuqarolik jamiyatini qurish va demokratik islohotlarni olib borilishida tizimli yondashuvning davom etishini ko'rsatadi.

2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasining qabul qilinishi va uning samarali ijro etilishi ortidan islohotlarning yuqori natijalariga erishildi. Harakatlar strategiyasiga muvofiq, barcha sohalaridagi rivojlanish, avvalo, aholining turmush darajasi va sifatini oshirishga qaratilgani bilan yangi bosqichga o'tdi.

DAVLAT VA JAMIYAT BOSHQARUVINI RIVOJLANTIRISH:

- Xalq bilan muloqot yo'lga qo'yildi.
- Davlat boshqaruvi tizimi takomillashtirildi.
- Ixcham, professional, adolatli, yuqori natijadorlikka xizmat qiladigan davlat boshqaruvi tizimi joriy qilindi.
- Jamoatchilik boshqaruvi tizimi takomillashtirildi.
- Parlamentning davlat va jamiyat boshqaruvidagi roli oshirildi.

QONUN USTUVORLIGINI TA'MINLASH VA SUD-HUQUQ TIZIMINI ISLOH QILISH

- Inson huquq va erkinliklarining himoyasi kuchaytirildi.
- Sud-huquq tizimi isloh qilindi.
- Tadbirkorlar huquqini himoya qilish kuchaytirildi.
- Jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimi takomillashtirildi.
- Jamoat xavfsizligini ta'minlash isloh qilindi.

IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISH

- Pul-kredit (monetar) siyosati sohasida islohotlar amalga oshirildi.
- Budget-soliq (fiskal) siyosati sohasida o'zgarishlar amalga oshirildi. Xususan, soliq turlari soni 13 tadan 9 taga kamaytirildi.

– Mamlakatda qulay investitsion muhit yaratish bo'yicha chora-tadbirlar amalga oshirildi.

– Tadbirkorlik faol qo'llab-quvvatlandi.

– Iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlari rivojlantirildi.

IJTIMOIIY SOHANI RIVOJLANTIRISH

– Aholi bandligini ta'minlashga doir choralar ko'rildi. Ijtimoiy himoyaga ajratilgan budjet xarajatlari deyarli ikki baravarga (2017-yil – YaIMga nis-n 0,7%, 2021-yilda – 1,3%) ko'paydi. "Temir daftar", "Ayollar daftari" va "Yoshlar daftari" tizimlari yo'lga qo'yildi, ularda mos ravishda 595,6 mingta kambag'al va moddiy yordamga muhtoj oilalar, 433,0 ming nafar ehtiyojmand va yordamga muhtoj xotin-qizlar, 591 ming ehtiyojmand va ko'makka muhtoj hamda ishsiz yoshlar ro'yxatga olindi.

– Har bir fuqaroga davlat hisobidan aniq kasb-hunarga o'qish imkoniyati yaratildi.

– Sog'liqni saqlash tizimi takomillashtirildi. Tibbiyot sohasidagi OTMlar soni 7 tadan 9 taga, bakalavriat yo'nalishlari soni 14 tadan 16 taga, magistratura yo'nalishlari soni 41 tadan 51 taga ko'paytirildi. Tibbiyot xodimlarining oylik maoshi 3,3 barobarga oshirilib, ularning majburiy mehnatga jalb etilishiga chek qo'yildi. Dori vositalari va tibbiy buyumlar uchun budjetdan ajratilgan mablag'lar miqdori 2017-yilda 0,4 trln. so'mni tashkil qilgan bo'lsa, 2021-yilda ushbu ko'rsatkich 4,5 barobar oshib 1,8 trln. so'mga yetdi.

– Ta'lim va fan sohasini rivojlantirish bo'yicha islohotlar amalga oshirildi. Maktabgacha ta'lim vazirligi tashkil etildi, maktabgacha ta'lim bilan qamrab olish darajasi 27,7 foizdan 67 foizga, MTTLar soni esa 5211 tadan 19316 taga yetkazildi. Budjetdan ajratilgan mablag' 3,7 baravarga oshirildi. Mamlakatda 11 yillik majburiy maktab ta'limi qayta joriy etildi. Oliy ta'lim muassasalarining soni 5 yilda 70 tadan 154 taga yetkazildi. Ta'lim olayotgan talabalar soni 268,3 ming nafardan 808,4 ming nafarga, oliy ta'lim bilan qamrov darajasi esa 3 barobar, ya'ni 9 foizdan 28 foizga yetkazildi. Natijada global innovatsion indeksi reytingida O'zbekiston 122-o'rindan 93-o'ringa ko'tarildi.

– Ma'naviyat, sport sohasida asosiy o'zgarishlar amalga oshdi.

XAVFSIZLIK, MILLATLARARO TOTUVLIK VA DINIY BAG'RIKENGLIKNI HAMDA CHUQUR O'YLANGAN, O'ZARO MANFAATLI VA AMALIY TASHQI SIYOSATNI TA'MINLASH

– Markaziy Osiyo davlatlari bilan do'stona, yaqin qo'shnichilik va o'zaro manfaatli aloqalar yangi bosqichga ko'tarildi. Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining Maslahat uchrashuvlari yo'lga qo'yildi.

– Xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar doirasida O'zbekistonning ko'p tomonlama diplomatiyasi rivojlantirildi. O'zbekiston tashabbusi bilan BMT Bosh Assambleyasining 5 ta Rezolyutsiyasi qabul qilindi. O'zbekiston bilan diplomatik munosabatlar o'rnatgan davlatlar soni 138 taga yetdi. O'zbekiston Respublikasining xorijdagi diplomatik vakolatxonalari va konsullik muassasalari soni 54 taga yetdi. O'zbekiston Respublikasiga fuqarolari vizasiz kirishi mumkin bo'lgan xorijiy mamlakatlar soni 90 taga yetdi.

– O'zbekistonning mudofaa salohiyati mustahkamlandi, Qurolli Kuchlarning jangovar tarkibi va shayligi takomillashtirildi.

– Diniy bag'rikenglik, millatlararo va konfessiyalararo tinchlik hamda totuvlik mustahkamlandi.

O'zbekistonda faoliyat yuritayotgan diniy tashkilotlar 2239 tadan 2323 taga yetdi.

Do'stlik jamiyatlari soni 38 taga, milliy madaniy markazlar soni 150 taga yetdi.

– Ekologik barqarorlik ta'minlanib, atrof-muhitni muhofaza qilish takomillashdi

4. 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasining yo'nalishlari

Ushbu sa'y-harakatlarning mantiqiy davomi sifatida 2022-yil 28-yanvar kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”gi Farmoni qabul qilindi. Unga ko'ra inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etishga oid yuzlab maqsadlarni amalga oshirish nazada tutilmoqda.

Bu bilan, kelgusi yillarga mo'ljallangan Taraqqiyot strategiyasi tasdiqlandi. Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi

O'zbekistonni keyingi 5 yilda rivojlantirishning 7 ta ustuvor yo'nalishi doirasida 100 ta maqsadga erishishga qaratilgan.

Ushbu maqsadlarga erishish yo'lida amalga oshiriladigan sa'y-harakatlar ham aniq. Ular, o'z navbatida, samaradorlik va natijadorlikni nazorat qilishni anchayin osonlashtiradi. Boshqacha qilib aytganda, rejalashtirilgan islohotlar natijadorligini taraqqiyotning maqsadlariga erishganlik darajasiga muvofiq ravishda baholash tizimi joriy etildi.

2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi

Birinchi yo'nalish: Inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish borasida (1–12-maqsadlar) ko'zlangan.

Xususan, 1-maqsad: Mahalla instituti faoliyatining samaradorligini oshirish, uni jamoatchilik boshqaruvi va nazoratining tayanch bo'g'iniga aylantirish.

Ikkinchi yo'nalish. Mamlakatimizda adolat va qonun ustuvorligi tamoyillarini taraqqiyotning eng asosiy va zarur shartiga aylantirish (13–20-maqsadlar) ko'zlangan.

13-maqsad: Mulkiy huquqlarning daxlsizligini ishonchli himoya qilish hamda davlat organlarining mulkiy munosabatlarga noqonuniy aralashuvini cheklash.

Xususiy mulk daxlsizligi va himoyasi kafolatlarini kuchaytirish, mulkiy, shu jumladan yer uchastkasiga bo'lgan huquqlarni so'zsiz ta'minlash.

Xususiy mulk ustuvorligini asosiy tamoyil sifatida belgilash, shu jumladan davlat idorasining rasmiy ma'lumotiga ishonib mol-mulk sotib olgan shaxsning huquqini himoya qilish tizimini joriy etish.

Uchinchi yo'nalish. Milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash (21–36-maqsadlar) ko'zlangan.

21-maqsad: Iqtisodiyot tarmoqlarida barqaror yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash orqali kelgusi besh yilda aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulotni — 1,6 baravar va 2030-yilga borib aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromadni 4 ming AQSH dollaridan

oshirish hamda “daromadi o‘rtachadan yuqori bo‘lgan davlatlar” qatoriga kirish uchun zamin yaratish

To‘rtinchi yo‘nalish. Adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish (37–70-maqsadlar) ko‘zlangan.

37-maqsad: Har bir fuqaroga davlat hisobidan aniq kasb-hunarga o‘qish imkoniyatini yaratish. Kasbga o‘qitish ko‘lamini 2 baravar oshirib, jami 1 million nafar ishsiz fuqaroni kasb-hunarlarga o‘qitish va bu jarayonda nodavlat ta‘lim muassasalarining ishtirokini 30 foizga yetkazish.

Kasbiy ta‘lim bilan tizimli ravishda shug‘ullanish masalalarini to‘liq ravishda Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi ixtiyoriga o‘tkazish.

Kasbga o‘qitish ko‘lamini 2 baravarga oshirish, jami 1 million nafar ishsiz fuqarolarni kasb-hunarga o‘qitish.

Umumta‘lim maktablarining kasb o‘rganish istagidagi bitiruvchilarini davlat tomonidan kamida bir kasbni egallashiga ko‘maklashuvchi tizimni joriy etish.

Beshinch yo‘nalish. Ma‘naviy taraqqiyotni ta‘minlash va sohani yangi bosqichga olib chiqish (71–78-maqsadlar) ko‘zlangan.

71-maqsad: Ezgulik va insonparvarlik tamoyiliga asoslangan “Harakatlar strategiyasidan – Taraqqiyot strategiyasi sari” g‘oyasini keng targ‘ib etish orqali jamiyatda sog‘lom dunyoqarash va bunyodkorlikni umummilliy harakatga aylantirish.

“Yangi O‘zbekiston — ma‘rifatli jamiyat” konsepsiyasini amalga oshirish.

Aholi o‘rtasida huquqiy madaniyatni shakllantirish bo‘yicha huquqiy-ma‘rifiy tadbirlarni xalqimizning boy tarixi, ilmiy-madaniy merosi, milliy-diniy qadriyatlarni o‘rgatish bilan uyg‘un holda tashkil qilish.

O‘zbek xalqining milliy qadriyatlari va ma‘naviy merosini asrab-avaylash, keng ommalashtirish hamda rivojlantirishni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash.

Oila, ta‘lim tashkilotlari va mahallalarda ma‘naviy tarbiyaning uzviyligini ta‘minlash.

“Mahalla — tuman — viloyat — respublika” prinsipi asosida hududlar kesimida ijtimoiy-ma‘naviy muhitni optimallashtirish

xaritasini shakllantirish, bu jarayonga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish.

“Yoshlar — Yangi O‘zbekiston bunyodkorlari” shiori ostida “Yangi O‘zbekiston — Uchinchi Renessans” g‘oyasining ro‘yobga chiqarilishini ta‘minlash.

Oltinchi yo‘nalish. Milliy manfaatlardan kelib chiqqan holda umumbashariy muammolarga yondashish (79–88-maqsadlar) ko‘zlangan.

79-maqsad: Aholi salomatligi va genofondiga ziyon yetkazadigan mavjud ekologik muammolarni bartaraf etish.

Xalqaro maydonda atrof-muhitga oid tashabbuslar, shu jumladan Butunjahon ekologiya xartiyasini ishlab chiqish tashabbusini ilgari surish.

Atrof-muhitga ta‘sir xavfi yuqori daraja (I toifa)dagi obyektlarning ifloslantiruvchi manbalaridan avtomatik ravishda namunalar olish tizimini tatbiq etish.

Atrof-muhitning ifloslanish darajasini baholash mexanizmlarini takomillashtirish, atrof-muhitni kuzatish, uning ifloslanish darajasini prognoz qilish, davlat ekologik nazoratini doimiy axborot bilan ta‘minlash, ifloslantiruvchi manbalarining holati va atrof-muhitga ta‘siri ustidan monitoringni amalga oshirish.

Respublika hududida amalga oshirilayotgan xo‘jalik va boshqa turdagi faoliyatning ekologik talablarga muvofiqligini belgilash yuzasidan davlat ekologik ekspertizasini o‘tkazish.

Yettinchi yo‘nalish. Mamlakatimiz xavfsizligi va mudofaa salohiyatini kuchaytirish, ochiq, pragmatik va faol tashqi siyosat olib borish (89–100-maqsadlar) ko‘zlangan.

89-maqsad: Fuqarolarning axborot olish va tarqatish erkinligi borasidagi huquqlarini yanada mustahkamlash.

Axborot sohasini tartibga soluvchi yagona tizimlashtirilgan normativ-huquqiy hujjat loyihasini ishlab chiqish.

Fuqarolarning axborot-kommunikatsiya vositalaridan foydalanish madaniyatini oshirish.

Shaxsiy va sir saqlanishi lozim bo‘lgan ma‘lumotlarni Internet tarmog‘ida oshkor qilish bilan bog‘liq daxlsizlik huquqi buzilishining oldini olish.

Shu bilan 2022–2024-yillar oralig‘ida yuqoridagi kabi maqsadlar tizimli ravishda amalga osirilmoqda.

5. O'zbekiston Respublikasida Yangi tahrirdagi

Konstitutsiyaning qabul qilinishi

Ma'lumki, Konstitutsiya mamlakatning asosiy qonuni hisoblanadi. 1992-yil 8-dekabrda qabul qilinib, amalda bo'lib kelgan asosiy qonunni o'zgartirishni vaqt va davrning o'zi talab qildi. Shundan kelib chiqib, 2023-yil 30-aprel kuni "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy qonuni loyihasi bo'yicha O'zbekiston Respublikasi referendumini o'tkazildi. Referendumda ishtirok etganlarning 90,21 foiz ijobiy ovoz berdi. Natijada yangilangan tartibda **O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaning qabul qilindi.** Ushbu O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 2023-yil 1-may kunidan kuchga kirdi. Ushbu Konstitutsiya 1 ta muqaddima, 6 bo'lim, 27 bob, 155 moddadan iborat bo'ldi.

Xususan, uning muqaddimasida aytilgani kabi.

Biz, O'zbekistonning yagona xalqi,

inson huquq va erkinliklariga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga, davlat suvereniteti prinsiplariga sodiqligimizni tantanali ravishda e'lon qilib,

demokratiya, erkinlik va tenglik, ijtimoiy adolat va birdamlik g'oyalariga sadoqatimizni namoyon qilib,

inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni va qadr-qimmatini oliy qadriyat hisoblanadigan insonparvar demokratik davlatni, ochiq va adolatli jamiyatni barpo etish borasida hozirgi va kelajak avlodlar oldidagi yuksak mas'uliyatimizni anglagan holda,

davlatchiligimiz rivojining uch ming yildan ziyod tarixiy tajribasiga, shuningdek, jahon sivilizatsiyasiga beqiyos hissa qo'shgan buyuk ajdodlarimizning ilmiy, madaniy va ma'naviy merosiga tayanib,.... ushbu Konstitutsiyani qabul qilamiz va e'lon qilamiz.

Bu bilan asosiy qonunimiz yanada xalqchil bo'ldi.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar

1. O'zbekiston Respublikasida Prezident lavozimining tashkil etilishi haqida nimalarni bilasiz?

2. O'zbekiston Respublikasida Prezidentning vakolatlari, vazifasi, maqomi haqida gapirib bering?

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentligi uchun o'tkazilgan saylovlar to'g'risida ma'lumot bering?

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev tomonidan olib borilayotgan islohot hamda o'zgarishlar haqida gapirib bering?

5. 2017–2021-yillarda amalga oshirilgan “Harakatlar strategiyasi”ning yo'nalishlari, mazmuni hamda mohiyati haqida fikr yuriting?

6. 2017–2021-yillarda amalga oshirilgan “Harakatlar strategiyasi” – mening hayotimda mavzusida bayon qilib bering?

7. 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi haqida ma'lumot bering?

8. O'zbekiston Respublikasida Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning qabul qilinishi va uning mohiyati haqida gapirib bering?

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: “O'zbekiston” nashriyoti, 2017.

2. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. To'ldirilgan ikkinchi nashri. – Toshkent: “O'zbekiston” nashriyoti, 2022.

3. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekistonda erkin va farovon yashaylik. 5-jild. – Toshkent: “O'zbekiston” nashriyoti, 2023.

4. Mirziyoyev Sh.M. Hozirgi zamon va Yangi O'zbekiston. – Toshkent: “O'zbekiston” nashriyoti, 2024.

5. 2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishlari bo'yicha Harakatlar strategiyasi. – Toshkent, 2020.

6. O'zbekiston tarixi. Darslik. R.H. Murtazayevaning umumiy tahriri ostida. – Toshkent, 2020.

7. Xomitov R.X. O'zbekistonning eng yangi tarixi (o'quv qo'llanma). – Toshkent: “Innovatsiya-ziyo” nashriyoti, 2023.

13-MAVZU. YANGI O‘ZBEKISTONDA XALQCHIL VA INSONPARVAR DAVLAT QURISHNING IJTIMOY- SIYOSIY DAVLAT QURISHNING AHAMIYATI

Reja:

1. Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi – xalqchil davlat qurishning asosi sifatida.
2. O‘zbekiston – 2030 strategiyasining asosiy yo‘nalishlari - insonparvar davlat qurish yo‘lida.
3. Davlat va xalq o‘rtasidagi muloqotning yangi bosqichi – inson huquqlarining ta‘minlanishi.
4. Yangi O‘zbekistonda ijtimoiy sohalar – ta‘lim, sog‘liqni saqlash va boshqa yo‘nalishlardagi o‘zgarishlar.

1. Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi – xalqchil davlat qurishning asosi sifatida

Ma‘lumki, har bir jamiyat davlat institutlari tomonidan boshqarilar ekan har ikki tomonni o‘zaro murosaga keltirish va rivojlanish uchun albatta yagona qonunlar tizimi talab etiladi.

Xususan, bu qarash eng qadimga davrdan boshlab amal qilib kelmoqda, ya‘niki dastlab axloqiy ko‘rinishdagi qoidalar so‘ngra ustuvorlikni muqarrar qilib belgilaydigan qonunlar to‘plami bilan almashinib borildi. Bu qadimdagi Yunon, Rim, Xitoy, Hindiston hamda Markaziy Osiyodagi davlatlar hayotidan ham ma‘lum. Masalan, o‘rta asrlardagi eng ulkan davlat hisoblangan Amir Temur davlatida “Temir tuzuklari” muhim qonuniy hujjatlardan hisoblansa-da ular konstitutsiya deb nomlangan. Biroq shu hujjatning vazifasini o‘tagan.

Dunyodagi ilk konstitutsiya hisoblanuvchi AQSH Konstitutsiyasi 1789-yili qabul qilingandi. O‘z davri uchun demokratik va mukammal sanalgan bu asosiy hujjat ham kamchiliklardan xoli emasdi. Amerikaliklar muqaddas hisoblaydigan qomusga bugungacha jami 27 marta tuzatish kiritilgan. Chunki davr vaqt o‘zgarishlari asosiy qonunning ham o‘zgarishini talab etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining yaratilishi tarixi haqida so‘z yuritishdan oldin “Konstitutsiya nima?” degan savolga javob berish maqsadga muvofiqdir.

Konstitutsiya (lotincha “Constitution” – tuzilish, tuzuk) – davlatning Asosiy qonuni. U davlat tuzilishini, hokimiyat va boshqaruv organlari tizimini, ularning vakolati hamda shakllantirish tartibi, saylov tizimi, fuqarolarning huquq va erkinliklari, jamiyat va shaxsning o‘zaro munosabatlari, shuningdek, sud tizimini hamda davlat va jamiyatning o‘zaro munosabatlarini belgilab beradi.

“Konstitutsiya” atamasi Qadimgi Rimdayoq ma’lum bo‘lgan (imperator Konstitutsiyasi deb atalgan qonun). Yuqorida aytilgani kabi Amir Temur “Tuzuklar”i Sharq va Osiyo mamlakatlari sivilizatsiyasiga xos alohida shakldagi konstitutsiyaviy hujjat xususiyatiga ega bo‘lgan. U shariat qonunlari bilan bir qatorda Markaziy Osiyo mintaqasi xalqlari taqdiriga kuchli ta’sir o‘tkazgan.

Asosiy Qonunimiz yaratilishining murakkab va muhim, ayni chog‘da sharaflı solnomasiga nazar solar ekanmiz, hech shubhasiz, O‘zbekiston Konstitutsiyasi xalqimizning mustaqillik sari uzoq yo‘ldagi izlanishlari natijasi ekaniga komil ishonch hosil qilamiz.

Avvalambor, Konstitutsiyani ishlab chiqishda uch ming yillik milliy davlatchilik tajribasiga tayanilgan. Bugungi O‘zbekiston qadimgi Xorazm va So‘g‘diyona, Qoraxoniylar, Xorazmshohlar, Amir Temur va Temuriylar, O‘zbek xonliklari, ma’rifatparvar ajdodlarimiz, xalqimizning tarixiy an‘analari va uning mustaqil davlat haqidagi ko‘p asrli orzusini mujassam etgan.

Qolaversa, manfaatlarimiz va intilishlarimizdan kelib chiqqan holda, Asosiy Qonunimiz Sharq va G‘arb, Janub va Shimolning 97 ta mamlakati to‘plagan ilg‘or konstitutsiyaviy tajribani hisobga olib yaratilgan.

Xususan, bundagi ilk qadamlardan biri O‘zbekiston Oliy Kengashi tomonidan 1990-yil 20-iyunda e‘lon qilingan “Mustaqillik deklaratsiyasi”ning 8-bandida O‘zbekiston “o‘zining taraqqiyot yo‘lini, o‘z nomini belgilaydi va davlat belgilarini (gerb, bayroq, madhiya) o‘zi ta’sis etadi” degan qoida mustahkamlangani bo‘lgan. Aynan ushbu deklaratsiyaning 12-bandida esa ushbu hujjat respublikaning “Yangi Konstitutsiyasini ishlab chiqish uchun asos” bo‘lishi qayd etilgan.

Shuningdek, Oliy Kengash qarori bilan 1990-yil davlat arboblari, deputatlar, mutaxassislardan iborat 64 nafar a’zoni o‘zida

jamlagan Konstitutsiyaviy komissiya tuzilishi va Konstitutsiya loyihasi ana shu komissiya tomonidan 2 yildan ortiq vaqt mobaynida tayyorlanganligini ko'rish mumkin.

Ikki yillik mehnat najitasida Konstitutsiyaviy komissiya bajarilgan ishni ma'qullash uchun 1992-yil 8-sentabrda Konstitutsiya loyihasini umumxalq muhokamasi uchun e'lon qilishga qaror qildi. Ushbu yig'ilishda loyihani oxiriga yetkazish va tahrir qilish uchun ishchi guruh tuzildi. Yangi Konstitutsiyaning birinchi loyihasi 1992-yil 26-sentabr kuni tayyor bo'ldi va shu kuni matbuotda chop etildi.

Konstitutsiya loyihasi o'tkazilgan muhokamalar davomida kelib tushgan takliflar asosida ancha tuzatildi va qayta ishlandi. So'ngra, 1992-yil 21-noyabrda umumxalq muhokamasini davom ettirish uchun Konstitutsiya loyihasi ikkinchi marta gazetalarda chop etildi.

Parlament deputatlari tomonidan loyiha moddama-modda muhokama qilinib, unga yana bir qator o'zgartishlar kiritilgach, 1992-yil 8-dekabr kuni Bosh Qomusimiz qabul qilindi. Shu kundan e'tiboran, 8-dekabr – umumxalq bayrami deb e'lon qilindi.

Shunday qilib, O'zbekiston o'z mustaqilligini e'lon qilgan sanadan e'tiboran dunyo sahnida yangi, suveren davlat qaror topgan bo'lsa, birinchi Konstitutsiyamiz qabul qilingan kuni davlatimiz yangidan tug'ildi, haqiqiy mustaqilligimizga mustahkam huquqiy poydevor qo'yildi.

Mamlakatda olib borilayotgan islohotlarga hamohang bo'lish, jahondagi xalqaro munosabatlardagi o'zgarishlarni inobatga olib asosiy qonundagi o'zgarishlarni amalga oshirishni talab etdi. Shundan kelib chiqib, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini yangi tahrirda qabul qilish, bunda xalq muhokamasi uchun referendum tashkil etish tashabbusi o'rta tashlandi.

Shu bilan aniq maqsadga qaratilgan tayyorgarlik bilan, 2023-yil 30-aprel kuni referendum o'tkazildi. O'tkazilgan referendumda ishtirok etgan fuqarolarning 90,21 foizi yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizni yoqlab ovoz berdi. Bu bilan fuqarolarning ko'pchiligi yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning ma'qullab ovoz berdi. Chunki, bosh qomusimizda xalqimizning Yangi O'zbekistonni barpo etish bo'yicha orzu-umidlari va intilishlari o'z aksini topganini ifoda etdi.

Xususan, undagi birinchi bo‘lim – asosiy prinsiplar bobining 1-moddasida aytilgani kabi: O‘zbekiston – boshqaruvning respublika shakliga ega bo‘lgan suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat.

Davlatning “O‘zbekiston Respublikasi” va “O‘zbekiston” degan nomlari bir ma’noni anglatadi.

Shuningdek, 14-modda “Davlat o‘z faoliyatini inson farovonligini va jamiyatning barqaror rivojlanishini ta’minlash maqsadida qonuniylik, ijtimoiy adolat va birdamlik prinsiplari asosida amalga oshiradi” degan normaning kiritilish, eng asosiysilardan biri, 20-modda “O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi va davlat bir-biriga nisbatan o‘zaro huquq va majburiyatlar bilan bog‘liqdir.

Insonning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlab qo‘yilgan huquq va erkinliklari daxlsizdir hamda ulardan sud qarorisiz mahrum etishga yoki ularni cheklab qo‘yishga hech kim haqli emas.

Insonning huquq va erkinliklari bevosita amal qiladi. Insonning huquq va erkinliklari qonunlarning, davlat organlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, ularning mansabdor shaxslari faoliyatining mohiyati va mazmunini belgilaydi.

Davlat organlari tomonidan insonga nisbatan qo‘llaniladigan huquqiy ta’sir choralari mutanosiblik prinsipiga asoslanishi va qonunlarda nazarda tutilgan maqsadlarga erishish uchun yetarli bo‘lishi kerak.

Inson bilan davlat organlarining o‘zaro munosabatlarida yuzaga keladigan qonunchilikdagi barcha ziddiyatlar va noaniqliklar inson foydasiga talqin etiladi” degan normalarning kiritilishi asosiy hujjatning insoniylik va xalq manfaatlariga qaratilganini anglatadi.

Xususan, “xalq — davlat hokimiyatining birdan bir manbayi” ekanligi yangi tahrirdagi Konstitutsiya 7-moddasi birinchi bandida «Xalq davlat hokimiyatining birdan bir manbai», degan norma belgilab qo‘yilgan. Bu norma timsolida O‘zbekiston Respublikasida jahon miqyosida umume’tirof etilgan xalq hokimiyatchiligi prinsipi, ya’ni xalq suverenitetning tashuvchisi va davlat hokimiyatining yagona manbayi ekanini anglatuvchi tamoyil mustahkamlab qo‘yilgan.

Shundan kelib chiqib, keyingi yillarda mamlakatimizda Yangi O'zbekiston — inson sha'ni va qadr-qimmatini, huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlarini oliy qadriyat hisoblangan davlat bo'lishi; xalq davlat organlariga emas, davlat organlari xalqqa xizmat qilishi; «odamlar tashvishi bilan yashash», xalqimizning qonuniy talab-istaklari va xohish-irodasini ro'yobga chiqarish davlat organlari faoliyatini baholashning eng muhim mezoniga aylanishi; barcha muhim qarorlar aholi ishtirokida, fuqarolik jamiyati institutlari bilan maslahatlashuv asosida qabul qilinishi kabi prinsip va g'oyalarni hayotga tatbiq etishga qaratilgan tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Demokratiyaning talab-u taomili va ustunligi ham shunda. Bunda qonun chiqaruvchi va ijro organlaridan inson huquqlarini ta'minlash; demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va mamlakatni modernizatsiya qilishda parlament va siyosiy partiyalar, fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalarining rolini kuchaytirish; hokimiyat tarmoqlarini tiyib turish va muvozanatni saqlashda parlament rolini oshirish; davlat xizmatlari sifati va samaradorligini yaxshilash, davlat organlari faoliyatining hisobdorligi va ochiqligini kuchaytirish hamda parlament va jamoatchilik nazorati mexanizmlarini amalga tatbiq etish masalalariga alohida e'tibor qaratish talab etiladi.

Davlat organlari xalqqa xizmat qilishi kerak!

Yuqorida aytib o'tilgan moddaning ikkinchi bandi birinchi qismida belgilab berilgan O'zbekiston Respublikasida davlat hokimiyati xalq manfaatlarini ko'zlab amalga oshirilishi to'g'risidagi norma ham aytib o'tilgan fikrlarning tasdig'idir. Hech shubhasiz, ushbu normalar mamlakatimizda xalq hokimiyatchiligining konstitutsiyaviy-huquqiy asoslarini mustahkamlash bilan bir qatorda xalqimiz xohish-irodasi va insonlarning qonuniy manfaatlarini ta'minlashga ham xizmat qiladi.

Yangi O'zbekiston — ijtimoiy va dunyoviy davlat.

Konstitutsiyamiz Muqaddimasida davlat va jamiyat taraqqiyotining huquqiy mafkurasi, xalqimiz Yangi O'zbekistonni bunyod etish yo'lida tayanadigan konstitutsiyaviy qadriyatlar va tamoyillar aniq belgilab berilgan.

Inson huquq va erkinliklariga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga, davlat suvereniteti prinsiplariga sodiqlik. Bu bilan

Konstitutsiyamiz insonning asrlar davomida dunyoda shakllangan asosiy ma'naviy-axloqiy qadriyatlari va asosiy huquqlarini o'zida mujassam etgan holda, insonning oliy qadriyati – uning hayoti, erkinligi, sha'ni va qadr-qimmatini ekanini e'lon qildi.

Konstitutsiyamizning avvalgi tahriridan farqli o'laroq, uning yangi tahririning asosiy g'oyasi shaxsning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini, inson sha'ni va qadr-qimmatini ta'minlash, ilgari mavjud bo'lgan “davlat – jamiyat – shaxs” paradigmasini yangi: “inson – jamiyat – davlat” tamoyiliga o'zgartirishdan iborat.

Bugungi kunda inson qadr-qimmatini, uning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash g'oyasi davlatimizning butun ichki va tashqi siyosatining tamal toshiga, Yangi O'zbekistonda olib borilayotgan demokratik islohotlarning eng muhim harakatlantiruvchi kuchiga hamda ushbu ezgu sa'y-harakatlarni o'zaro bog'lab turuvchi muhim omilga aylandi.

Agar dunyo mamlakatlari Konstitutsiyalarida insonning 110 dan ortiq huquqi qayd etilganini hisobga olsak, hozirgi kunda shundan 90 tasi yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda mavjud. Ya'ni bu Konstitutsiya, tom ma'noda, o'zbekona “Inson huquqlari to'g'risidagi bill”ga aylandi, deyishga barcha asoslar bor.

Yangi tahrirdagi O'zbekiston Konstitutsiyasida davlatning ijtimoiy sohadagi majburiyatlariga taalluqli normalar 3 barobar ko'paydi. Eng muhimi, Asosiy Qonunimizda birinchi marta “O'zbekiston – boshqaruvning respublika shakliga ega bo'lgan suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat” (1-modda), degan norma belgilandi.

Ijtimoiy davlat, deganda, avvalo, o'z fuqarolariga muayyan minimal farovonlikni kafolatlaydigan davlat tushuniladi. Yangi O'zbekistonning asosiy maqsadi – har bir fuqaroga g'amxo'rlik qilish, inklyuziv rivojlanish, aholining barcha qatlami uchun teng huquq va imkoniyatlarni ta'minlashdan iborat.

Shuningdek, hozirgi vaqtda ko'pgina rivojlangan davlatlar, global iqlim o'zgarishini hisobga olgan holda, o'z Konstitutsiyalariga maxsus ekologik bo'limlarni kiritmoqda. Jumladan, dunyoning 100 dan ortiq davlati Konstitutsiyalarida jamiyat va tabiat o'rtasidagi o'zaro munosabatlar ehtiyojlariga javob beradigan ekologik huquqning umume'tirof etilgan prinsiplari

mustahkamlangan. Xususan, yangi tahrirdagi Konstitutsiyada bu jihatlar ham inobatga olindi.

Umuman olganda, O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi mamlakat rivoji va taraqqiyoti uchun eng muhim hujjat sifatida yanada mustahkamlandi. Buni amalga oshirish uchun 2023-yil 8-may kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini amalga oshirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni qabul qilinganini ta'kidlash lozim.

2. O'zbekiston – 2030 strategiyasining asosiy yo'nalishlari - insonparvar davlat qurish yo'lida

Har bir davlat va jamiyat o'zining fuqarolarining hayotini yaxshilashni maqsad qilib dasturlar, strategiyalar ishlab chiqib uni amalga oshirib boradi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasida rivojlanishning yangi maqsadlarini o'z ichiga olgan yo'nalishlarni belgilab, aniq samaradoshlik va barcha davlat institutlarining faoliyatini muvofiqlashtirgan holda harakat qilish uchun "O'zbekiston – 2030" strategiyasi ishlab chiqildi hamda keng jamoatchilik muhokamasidan o'tkazilib qabul qilindi.

Xususan, 2023-yil 11-sentabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston – 2030» strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni qabul qilindi.

Strategiyada 5 ustuvor yo'nalish bo'yicha 100 ta muhim maqsad o'z aksini topgan.

Birinchi yo'nalishi: har bir insonga o'z salohiyatini ro'yobga chiqarishi uchun munosib sharoitlarni yaratishni maqsad qilib, uning ichida to'rtta asosiy yo'nalishlarga yanada alohida e'tibor beriladi.

Xususan,

birinchidan, ta'imning barcha bosqichlarini rivojlantirish va buning uchun 12 ta maqsadni o'z ichiga oladigan harakatlar mujassamlashtirilgan. Bu maktabgacha ta'lim, umumiy o'rta ta'lim, professional ta'lim, oliy ta'lim, ilmiy tadqiqot ishlari va boshqalarni o'z ichiga oladi.

Ikkinchi yo‘nalish: aholi salomatligini ta‘minlash bo‘yicha islohotlar 9 ta maqsadni o‘z ichiga oladi. Unda onalik va bolalikka oid, tibbiyot xodimlari faoliyatiga oid, ijtimoiy himoyaga muhtojlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash va kasalliklarning oldini olishga oid bir qator maqsadlar ko‘zlanadi.

Uchinchi yo‘nalish: yoshlarga oid davlat siyosati va sport yo‘nalishlaridagi islohotlar 8 ta maqsadni qamrab oladi. Unda mamlakatdagi barcha yoshlarni qamrab oladigan maqsadlarni amalga oshirish ko‘zlanadi. Sportni rivojlantirishga alohida e‘tibor qaratilgan.

To‘rtinchi yo‘nalish: ma‘naviy taraqqiyotni ta‘minlash va madaniyat sohasini yangi bosqichga olib chiqish bo‘yicha islohotlarda 8 ta maqsad nazarda tutilgan bo‘lib, yuksak ma‘naviyatli barkamol avlodni tarbiyalash maqsadlari ko‘zlangan.

Ikkinchi yo‘nalish: barqaror iqtisodiy o‘sish orqali aholi farovonligini ta‘minlashda 17 ta maqsad ko‘zlangan bo‘lib, ularda eng asosiy aholining daromadini yaxshilash, mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish nazarda tutiladi. Xususan,

– 2030-yilga qadar iqtisodiyot hajmini 2 barobar oshirish va “daromadi o‘rtachadan yuqori bo‘lgan davlatlar” qatoriga kirish.

– Sanoatning “drayver” sohasini rivojlantirish va hududlarning sanoat salohiyatini to‘liq ishga solish.

– Mamlakatimizning investitsiyaviy jozibadorligini yanada oshirish va qimmatli qog‘ozlar bozorini jadal rivojlantirish.

– Bank tizimida islohotlarni jadallashtirish, bank xizmatlari bozori hajmini oshirish va sohada raqobatni rivojlantirish.

– O‘zbekistonda tashqi va ichki turizmni rivojlantirish uchun keng sharoitlar yaratish orqali sayyohlar sonini oshirish.

Uchinchi yo‘nalish: suv resurslarini tejash va atrof-muhitni muhofaza qilishda jami 12 ta maqsad nazarda tutiladi. Chunki, XXI asrga kelib insoniyat oldida tabiatda sodir bo‘layotgan salbiy o‘zgarishlar va yaroqli suv tanqisligi global muammo sifatida e‘tirof etilmoqda. Jumladan, O‘zbekiston sharoitida ham shundan kelib chiqib bir qator maqsadlar belgilangan.

Jumladan, Respublikada ekologik vaziyatni tubdan yaxshilash, inson hayotiga ta‘sir o‘tkazuvchi ekologik muammolarni bartaraf etish, respublikada suvdan oqilona foydalanish madaniyatini va suv

ishlatish samaradorligini oshirish, qishloq xo'jaligi sohasida suv resurslaridan oqilona foydalanishni ta'minlash va boshqa bir qator maqsadlar shular jumlasidandir.

To'rtinchi yo'nalish: qonun ustuvorligini ta'minlash, xalq xizmatidagi davlat boshqaruvini tashkil etishga qaratilgan 16 ta maqsad belgilab olingan. Unda xalq xizmatidagi davlat boshqaruvini tashkil etish va jamoatchilik boshqaruvini takomillashtirish bo'yicha islohotlar, qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq tizimidagi islohotlar, parlamentning faoliyati va harakatlarini yanada faellashtirish, inson huquqlarining kafolatlarini yanada mustahkamlash va boshqa bir qator maqsadlar belgilab olingan.

Beshinchi yo'nalish: "xavfsiz va tinchliksevar davlat" tamoyiliga asoslangan siyosatni izchil davom ettirishda jami 11 ta maqsad ko'zlangan bo'lib, unda ochiq, pragmatik va faol tashqi siyosat olib borish bo'yicha islohotlar, Yangi O'zbekiston tashqi siyosatini xalq va davlatning manfaatlaridan kelib chiqqan holda izchil amalga oshirish, Jahon savdo tashkilotiga to'laqonli a'zo bo'lish, xorijda istiqomat qilayotgan vatandoshlarni qo'llab-quvvatlash, ular bilan doimiy muloqot tizimini joriy etishni ko'zlagan.

Shuningdek, mamlakatimiz xavfsizligi va mudofaa salohiyatini kuchaytirish bo'yicha islohotlar, jahonda sodir bo'layotgan murakkab global jarayonlarni inobatga olgan holda Qurolli Kuchlarning qudrati, mamlakatning mudofaa qobiliyati va harbiy salohiyatini yanada oshirish, jamiyatda millatlararo totuvlik muhitini mustahkamlash va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalarini rivojlantirish ham maqsad qiladi.

Umuman olganda "O'zbekiston-2030" strategiyasi amalga oshirish bo'yicha Respublika komissiyasi tashkil etilgan bo'lib, maqsadlarda ko'zlangan choralarni tizimli ravishda amalga oshirib kelmoqda.

3. Davlat va xalq o'rtasidagi muloqotning yangi bosqichi – inson huquqlarining ta'minlanishi

Ma'lumki, O'zbekistonda barcha davlat institutlari xalq manfaatlari uchun xizmat qilishi asosiy Qonun, qonunlarda hamda

qonun osti hujjatlarda mustahkamlab qo'yilgan. Navbatdagi eng muhim vazifa aynan ushbu normalarning hayotda aks etishi edi. Shundan kelib chiqib 2016-yil 17-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili" davlat dasturini ishlab chiqish va amalga oshirishning tashkiliy chora-tadbirlari to'g'risida F-4760-sonli farmoyishi qabul qilindi. Chunki, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev faoliyatining dastlabki kunidan boshlab "Inson manfaatlari uchun", "Davlat institutlari – xalq xizmatini qilishi", "Davlat – jamiyat muloqoti" kabi eng muhim tashabbuslarni ilgari surib hayotiy natijalarga erishdi.

Shu o'rinda "Muloqot" tushunchasiga biroz izoh berib o'tamiz. Muloqot yordamida odamlar bir-birlari bilan o'zaro ruhiy jihatdan aloqaga kirishadilar, o'zaro axborot almashadilar, bir-birlariga ta'sir o'tkazadilar, bir-birlarini his qiladilar, bir-birlarini tushunadilar.

Binobarin, jamiyat hayotida ham muloqot ijtimoiy psixologik hodisa sifatida hamkorlik faoliyatining moddiy, ma'naviy, madaniy, emotsional, motivatsion qirralarining ehtiyoji sifatida vujudga keladi. Muloqot muvaffaqiyatining negizi shaxsning ruhiy dunyosi, ehtiyojlari motivatsiyasi, xarakter hislati, individual-tipologik xususiyati, qobiliyati, e'tiqodi kabi insonning fazilatlarini, sifatlarini namoyon bo'lishi, rivojlanishi hisoblanadi. Muloqot jarayonida muloqotdoshlarning tasavvurlari, qiziqishlari, his-tuyg'ulari, ko'nikmalari, voqelik natijasini oldindan sezish, payqash, ta'sir o'tkazish uslubi tarkib topishi mumkin

Demak, muloqot – muloqotdoshning tasavvurlari, qiziqish va ehtiyojlarini sezish, his qilish va bilish, shuningdek, u muloqotdoshga ta'sir o'tkazish uslubi, muloqotdoshlarning o'zaro tushunish vositasi ekan. Zotan, odamlarning qalbiga quloq solish, ularning dardini eshitish jamiyatdagi masalalarni aniqlashga, fuqarolarni qiynayotgan muammolarni bilishga yordam beradi, natijada odamlarning savollariga javob topish osonlashadi, inson manfaatlari ta'minlash masalalari tezlashadi. "Davlat – fuqaro – jamiyat" uchligi o'rtasidagi muloqot, huquqiy muvozanat va o'zaro tenglik barqaror fuqarolik jamiyatining poydevoridir.

Zero, fuqarolik jamiyati bilan demokratik huquqiy davlat ajralmasdir, ular mudom bir-birini taqozo etadi, bir-birini to'ldirib,

qo'llab-quvvatlab boradi. Demokratik huquqiy davlat fuqarolik jamiyati barqaror yashashining shartidir. U o'z-o'zini paydo qilmaydi va o'z-o'ziga xizmat qilmaydi – demokratik huquqiy davlatni fuqarolik jamiyati barpo etadi va o'ziga xizmat qilishga yo'naltiradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni, shubhasiz, mamlakatimizda inson manfaatlarini eng oliy qadriyatga aylantirish yo'lidagi muhim qadamlardan biri bo'ldi. Bir vaqtning o'zida uchta yangi tuzilmani tashkil etishni ko'zda tutuvchi mazkur Farmon davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining aholi bilan yanada yaqinroq hamkor, hamnafas bo'lishini ro'yobga chiqarishga qaratilgan.

Xususan, mazkur Farmon O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Ishlar boshqarmasi huzuridagi fuqarolar qabulxonasi negizida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Xalq qabulxonasining tashkil etilishi, O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining virtual qabulxonasini O'zbekiston Respublikasi Prezidentining virtual qabulxonasiga aylantirish hamda respublikamizdagi har bir shahar va tumanlarda Prezident xalq qabulxonalarining faoliyat yuritayotgani jamiyatda katta o'zgarishlarni yasadi. Ushbu tuzilmalarning asosiy vazifasi sifatida xalq bilan to'g'ridan to'g'ri muloqotni yo'lga qo'yish, jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlashning butunlay yangi va samarali tizimini joriy qilish, ularning huquq-erkinliklari va qonuniy manfaatlarini to'la-to'kis himoya qilishga qaratilgan samarali mexanizm hayotga tatbiq etildi.

Albatta, Farmon doirasida mamlakatimizning barcha hududlarida tashkil qilingan yangi Xalq qabulxonalari jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarining tegishli davlat organlari mansabdor shaxslari tomonidan jismoniy shaxslar va yuridik shaxslarning vakillari ishtirokida o'z vaqtida va sifatli ko'rib chiqilishi uchun muhim institut va o'ziga xos jamoatchilik nazorati instituti va ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarning katalizatori sifatida ham xizmat qildi.

Zero, kelib tushayotgan murojaatlarning xarakteri va mazmun-mohiyatiga qarab, aholini bezovta qilayotgan turli muammolarga

o'z vaqtida yechim topish bilan birga, istiqbolda tegishli hududlarni strategik rivojlantirishning maqsad va vazifalarini ham aniqlashtirib olish imkoniyati paydo bo'ldi. Zero bunday tizim nafaqat har bir murojaatga o'z vaqtida munosabat bildirilishini ta'minlamoqda, balki shu bilan birga murojaatlarda ko'tarilayotgan muammolarning kelib chiqish sabablarini tahlil qilish va ehtimoldan xoli bo'lmagan salbiy tendensiyalarni bartaraf qilish bo'yicha davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari tomonidan o'z vaqtida tegishli chora-tadbirlarni belgilash imkonini ham bermocda.

Umuman olganda 2017-yildan boshlab davlat idorlari va hokimiyat vakillari markazdan – mahallaga tamoyili asosida har bir inson, fuqaro bilan muloqot qilishning barcha samarali usullarini yo'lga qo'ydi. Natijada, qonunlarda belgilangan normalar amalga osha borib, muammolarga yechim topila bordi.

Shunda, barcha qilinayotgan ishlarning bir qismi sifatida keng jamoatchilik va OAV faoliyatining tubdan yaxshilangani va davlat hamda xalq o'rtasida chinakam ko'priikka aylanganligini ko'rish mumkin.

Masalan, 2016-yilning 1-yanvar holatiga ko'ra, O'zbekistonda davlat ro'yxatidan o'tgan ommaviy axborot vositalari soni 1437 tani tashkil etdi. 2018-yil 1-iyul holatida esa mamlakatimizda 1500 taga yaqin (qariyb 700 ta gazeta, 309 ta jurnal, 65 ta televideniye, 35 ta radio, 4 ta axborot agentligi, 15 ta axborotnoma-byulleten, qariyb 400 ta ta veb-sayt) ommaviy axborot vositalari faoliyat olib bordi.

Agar 2019-yilda davlat va nodavlat tashkilotlardagi axborot xizmatlarining manbalari – rasmiy veb-saytlar, ijtimoiy tarmoqlardagi kanallar 559 tani tashkil etgan bo'lsa, 2021-yilda bu raqam 2410 taga yetganida ham bunga guvoh bo'lish mumkin. Bu bilan muloqot vositalarida OAV vakillari ham faol ishtirok etayotganligini ko'rish mumkin.

Ushbu ishlarning mantiqiy davomi sifatida "O'zbekiston–2030" strategiyasida: Xalq bilan muloqotni yanada kengaytirishga alohida e'tibor berildi. Xususan, unga ko'ra:

– Davlat organlari va tashkilotlarida murojaatlarni qog'oz shaklida ro'yxatga olish amaliyotini bekor qilish;

– barcha davlat organlari va tashkilotlari hamda ularning hududiy bo‘linmalariga elektron shaklda, shu jumladan tegishli mobil ilova orqali murojaat qilish imkoniyatini yaratish;

– murojaatlarning kamida 80 foizi mahalliy darajada qanoatlantirilishini ta’minlash;

– takroriy murojaatlar ulushini kamida 2 barobar qisqartirish;

– hududlarda mavjud ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni mahallaning o‘zida hal qiladigan xalqchil tizim yaratish;

– Respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari mansabdor shaxslarining qabullarida masofadan videoaloqa vositasida ishtirok etish imkoniyatlarini 100 foizga yetkazish kabi maqsadlar belgilab olindi.

Xulosa sifatida shuni aytish lozimki, davlat va fuqarolar o‘rtasida ochiq va oshkora muloqot mexanizmlari yo‘lga qo‘yilishi chinakam fuqarolik jamiyati shakllanishi va rivojlanishi uchun katta turtkidir. Qolaversa, bu maqolamiz avvalida sanab o‘tilgan fuqarolik jamiyati ideallariga erishish yo‘lida o‘ta muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Xalq bilan muloqotning mantiqan davomi bu inson huquqlarining bevosita ta’minlashi bilan chambarchas bog‘liq bo‘ladi.

Chunki muloqotdan maqsad ham insonlarning barcha siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy huquqlarini ta’minlash va xizmat qilishni nazarda tutadi.

Bunda albatta sud hokimiyati muhim o‘rin tutadi.

Sudning vazifalari – O‘zbekiston Respublikasida sud O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va boshqa qonunlarida, inson huquqlari to‘g‘risidagi xalqaro hujjatlarda e‘lon qilingan fuqarolarning huquq va erkinliklarini, korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning huquqlari hamda qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlarini sud yo‘li bilan himoya qilishga da‘vat etilgan. Sudning faoliyatida qonun ustuvorligini, ijtimoiy adolatni, fuqarolar tinchligi va totuvligini ta’minlashga qaratilgandir.

Umuman olganda, O‘zbekiston Respublikasida Sud hokimiyatidagi o‘zgarishlarni inobatga olib uning faoliyatidan kelib chiqib ikkita davrga bo‘lish mumkin. Ya’niki, birinchi davr: 1991–

2016-yillarni, ikkinchi davr 2017–2024-yillarni o‘z ichiga oladi. Bunga asos tashkiliy-huquqiy, faoliyat muddati va samaradorlik tizimi, ijtimoiy-moddiy qo‘llab-quvvatlashdagi o‘zgarishlar va boshqa jihatlarini inobatga olish maqsadga muvofiqdir.

Inson huquqlarini himoya qilishda Ombudsman instituti ham muhim o‘rin tutadi.

Demak, bu institut nima va qanday faoliyat yuritadi? degan savol bo‘lishi mumkin.

Ombudsman so‘zi bugun rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlarda “inson huquqlarini himoya qiluvchi” sifatida tushuniladi. Bu so‘z shved tilidan olingan bo‘lib “vakil” degan ma‘noni anglatadi. U eng avval shved qirolli huzurida faoliyat yuritgan. Keyinchalik parlament shakllangandan so‘ng 1809-yildan Parlament huzuriga ko‘chgan.

Agar tarixni yaxshilab o‘rganadigan bo‘lsak, shved qirolli ushbu tajribani islom davlatlarda faoliyat yuritgan muhtasiblar ishidan o‘rganganiga guvoh bo‘lasiz. Muhtasiblar islom dini va shariat ahkomlari asosida faoliyat yuritib, nazorat funksiyasini bajarishgan.

XVII asrlarda shved qirolligiga hujum uyushtirilganda qiroll hozirgi Turkiya hududlariga qochib o‘tishga majbur bo‘ladi. Qochqinda turk sultoni himoyasida mamlakatdagi fuqarolar huquqlarini himoya qiluvchi, o‘rnatilgan tartiblarni nazorat qiluvchi insonlarni kuzatadi. Keyinchalik o‘z vataniga qaytib, mana shu tizimni o‘z davlatida “Ombudsman” nomi bilan joriy etadi va bu Yevropada ham ommalashadi.

Oliy Majlisning Inson huquqlari bo‘yicha vakili (Ombudsman) instituti 1995-yilda tashkil etilgan. Ushbu institut MDH hududida birinchilardan bo‘lib O‘zbekistonda ta‘sis etilgan.

4. Yangi O‘zbekistonda ijtimoiy sohalar – ta‘lim, sog‘liqni saqlash, va boshqa yo‘nalishlardagi o‘zgarishlar

O‘zbekiston rivojlanishining yangi davrida ham ijtimoiy masalalar muhim ahamiyat kasb etdi.

Jumladan, mamlakat konstitutsiyada “ijtimoiy davlat” degan tamoyil alohida norma bilan mustahkamlandi. Shu maqsadda so‘nggi yillarda ijtimoiy soha rivoji borasida tizimli ishlar amalga oshib, ma‘lum natijalarga erishilmoqda.

Xususan. ijtimoiy masala bilan bog'liq bo'lgan ta'lim sohasiga oid muhim dasturlar amalga oshirilmoqda. Jumladan raqamlarga e'tibor bersak, maktabgacha ta'lim agentligi ma'lumotiga ko'ra, 2024-yil 1-yanvar holatida O'zbekistonda jami 33 942 ta maktabgacha ta'lim tashkiloti faoliyat yuritmoqda. Unga ko'ra, respublikadagi jami maktabgacha ta'lim tashkilotlarining 6780 tasi davlat bog'cholari, 27 162 tasi esa nodavlat tashkilot hisoblanadi. Ya'ni, nodavlat bog'chalar tarkibi: xususiy — 847 ta; oilaviy — 24 ming 927 ta; DXSH asosidagi tashkilotlar — 1388 tani tashkil etadi. Bu bilan maktabgacha bo'lgan bolalar qamrovini kengaytirish hamda ta'lim olishini yaxshilashga erishilmoqda.

Shuningdek, O'zbekistonning asosiy islohotida maktablarda ta'lim sifatini yaxshilash, moddiy-texnik jihatdan mustahkamlash, yangi o'quv adabiyotlar bilan ta'minlash, o'qituvchi hamda murabbiylarning faoliyatini har tomonlama qo'llab-quvvatlash davlat siyosatining eng asosiy yo'nalishiga aylangan. Bu borada "O'zbekiston-2030" strategiyasida ham bir qator maqsadlarga guvoh bo'lish mumkin.

Agar bu boradagi statistik ma'lumotlarga e'tibor qaratsak, quyidagilarga guvoh bo'lamiz:

Umumta'lim muassasalari soni:

- 2018/2019-o'quv yili boshida — 9 774 ta;
- 2019/2020-o'quv yili boshida — 10 090 ta;
- 2020/2021-o'quv yili boshida — 10 181 ta;
- 2021/2022-o'quv yili boshida — 10 289 ta;
- 2022/2023-o'quv yili boshida — 10 522 ta;
- 2023/2024-o'quv yili boshida — 10 750 ta.

Ya'ni, umumta'lim muassasalari soni 1991/1992-o'quv yili boshiga nisbatan 2193 taga oshgan.

2024-yil mart oyida e'lon qilingan ma'lumotga ko'ra, O'zbekistonda 14 ta Prezident maktabi, 9 ta ijod maktabi va 182 ta ixtisoslashtirilgan maktab faoliyat yuritmoqda.

Shuningdek, 2017-yildan boshlab professional ta'lim institutiga alohida e'tibor berilib, tizimli ravishda rivojlantirilib borilmoqda.

Buning mantiqan davomi sifatida mamlakatda oliy ta'lim tizimi borasida keng qamrovli islohot olib borildi. Tubdan qabul

jarayonlarida, uning miqdori hamda ta'lim jarayonlari, sifatida umuman olganda barcha jihatlarida o'zgarishlar bo'ldi.

Oliy ta'lim muassasasi; O'zbekistonda 2023-yil holatida 213 ta OTM mavjud bo'lib, undan, 116 tasi davlat, 67 tasi nodavlat, 30 tasi esa xorijiy oliy ta'lim muassasasi hisoblanadi. Mamlakatda 1 mln. 300 ming nafardan oshiq talaba tahsil olib, bu ko'rsatkich orqali yoshlarni oliy ta'lim bilan qamrab olish darajasi 2022-yilgi 38 foizdan 42 foizga oshgan.

Ilmiy tadqiqot ishlari va uning samaradorligi borasida ham o'zgarishlar amalga oshib, natijadorlikka erishilmoqda.

Shuningdek, aholining hayoti bilan bevosita bog'liq bo'lgan sog'liqni saqlash borasidagi choralari Yangi O'zbekiston islohotida davlat siyostining eng ustuvor jihatiga aylangan.

Bu borada yangi qonunchilik asoslarining shakllantirilishi, tizimlarning o'zgartirilishi, raqamlashtirish, moddiy asoslar, tashkiliy jihatlar, umuman olganda muhim o'zgarishlar amalga oshirildi.

Birgina sohadagi raqamlarga murojaat qilsak, quyidagilarga guvoh bo'lamiz. Ya'ni, 2024-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotiga ko'ra O'zbekistonda faoliyat yuritayotgan shifoxonalar soni 1 432 tani tashkil etmoqda. Bu natijani 2019-yilga solishtirganda 227 taga ko'paygan.

Yil boshiga ko'ra, Respublika bo'yicha shifoxona muassasalarida jami o'rinlar soni 174,5 mingtani tashkil etdi.

Bugungi kunda Toshkent shahri, barcha viloyatlar va Qoraqalpog'iston Respublikasidagi tibbiyot muassasalarida faoliyat yuritayotgan mutaxassis shifokorlarning umumiy soni 105,7 ming nafarni, o'rta tibbiyot xodimlari 387,6 ming nafarni tashkil etmoqda.

Umuman olganda, ijtimoiy masalalarda davlat institutlari, parlament vakillari va soha mas'ullari hamkorlikda ishlarni olib borishi muhim bo'lib, mamlakat fuqarolarining barchasiga daxldor bo'lgan bu kabi sohalaridagi o'zgarishlar barkamol avlodni voyaga yetkazish, qariyalar va nuroniylarning sog'lig'ini asrash, mehnatga layoqatli qatlamni har tomonlama qo'llab-quvvatlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar

1. O'zbekiston Respublikasida Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning mazmun mohiyati hamda inson huquqlariga oid normalari haqida gapirib bering?
2. O'zbekiston-2030 strategiyasining qabul qilinishi hamda huquqiy – tashkiliy asoslari to'g'risida ma'lumot bering?
3. O'zbekiston-2030 strategiyasining asosiy yo'nalishlari haqida gapirib bering?
4. Xalq bilan muloqot – uning maqsadlari hamda inson maffatlariga qaratilgan harakatlar haqida nimalarni bilasiz?
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Xalq qabulxonalari tashkil etilishi va faoliyati haqida ma'lumot bering?
6. Kuchli davlatdan – kuchli fuqarolik jamiyati sari tamoyili haqida fikr yuriting.
7. Yangi O'zbekistonda ta'lim sohasidagi islohotlar haqida ma'lumot bering?
8. Yangi O'zbekistonda sog'liqni saqlash sohasidagi islohotlar haqida ma'lumot bering?

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2017.
2. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. To'ldirilgan ikkinchi nashri. – Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2022.
3. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekistonda erkin va farovon yashaylik. 5-jild. – Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2023.
4. Mirziyoyev Sh.M. Hozirgi zamon va Yangi O'zbekiston. – Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2024.
5. O'zbekiston tarixi. Darslik. R.H. Murtazayevaning umumiy tahriri ostida. – Toshkent, 2020.
6. Xomitov R.X O'zbekistonning eng yangi tarixi (o'quv qo'llanma). – Toshkent: "Innovatsiya - zijo" nashriyoti, 2023.

R.H.Murtazayeva, D.M.Inoyatova, A.A.Odilov,
M.M.Haydarov, A.A.Ermatov, K.D.Saipova

O‘ZBEKISTONNING ENG YANGI TARIXI

«Mehr-nuri nashriyoti», 2024.

Muharrir:	H. Zakirova
Tex. muharrir:	Yu. O‘rinov
Musahhiha:	D. Beknazarova
Saxifalovchi:	F. Qo‘ziyev
Dizayner:	B. Xaydarov



Nash.lits. Tasdiqnoma № 314003, 06.07.2024 y.

Terishga 15.08.2024-yilda berildi. Bosishga 18.10.2024-yilda ruxsat
etildi. Bichimi: 60x84 ¹/₁₆. Ofset bosma. «Times New Roman»
garniturasi. Shartli b.t. 25.5. Nashr b.t. 23.71.
Adadi 400 nusxa. Buyurtma № O-05.
Bahosi shartnoma asosida.

“Mehr-nuri nashriyoti”, 100095, Toshkent shahri,
Olmazor tumani, Talabalar ko‘chasi, 5-uy.
e-mail: mehr_nuri@internet.ru

“Mehr-nuri nashriyoti” UK bosmaxonasida chop etildi.
Toshkent shahri, Olmazor tumani, Talabalar ko‘chasi, 5-uy.
Telefon: (+99890) 000-33-39, (+99833) 002-33-93



0X0000051910



ISBN 978-9910-8801-4-8



9 789910 880148